O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

mavzusidagi VI an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2022-yil, 29-mart

Toshkent – 2022

UDK: 81/82:801.
8:347.78.034
(574.1)

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi VI an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent: 2022. – 430 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi tomonidan tashkil etilgan.

Mas’ul muharrir:
M.Abdullayeva – filologiya fanlari doktori, dotsent

Taqrizchilar:
H.Homidiy – filologiya fanlari doktori, professor
Q.Husanboyeva – pedagogika fanlari doktori

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
Sh.Rahmonova, Q.Mamiraliyev, O‘.Yo‘ldoshev

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2022-yil 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

GLOBAL TA’LIMDAN MILLIY MAQSADLAR SARI...

Shuhrat Sirojiddinov
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU rektori
filologiya fanlari doktori, professor

Bugun yurtimizda kichik sohadan tortib xalq turmushi farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlardagi o‘zgarishlar, islohotlar shu qadar shiddat bilan amalga oshirilayaptiki, shu vatanga qondosh har qanday millat kishisi, bunday tarixiy o‘zgarishlarga loqayd qarab turolmaydi.

Davlatimiz rahbari istiqboldagi taraqqiyotning kafolati ilm ahli va ziyolilar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini har bir uchrashuv, murojaatlarida ta’kidlab, uning rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun bir qancha qaror va farmonlarni qabul qildi. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosida ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va uni izchil amaliyotga joriy etish yotadi. Xususan, milliy metodika va maktab darslikarini xalqaro standartlar asosida isloh qilish, ta’limdagi mavjud muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, nufuzli davralarda ko‘p bora muhokama qilindi. Bunday xayrli harakatlar farzandlarimizning jahon standartlarida belgilangan mezonlar asosida bilim olishlariga, o‘zbek tili va adabiyoti ta’limida ham xalqaro standartlardan milliy strategik maqsadlarimizga moslarini tanlab, izchil joriy qilishga, ta’limda yanada samarali natijalarni qo‘lga kiritish uchun, avvalo, xorijiy tajriba asosida uning ilmiy va metodik asoslarini yaratishga imkoniyatlar ochib berdi. Bunday islohotlar, ayniqsa, yoshlarning maqsadli harakatlariga rag‘bat berish barobarida o‘z kuchiga ishonish hissini ham uyg‘otdi.

Bugun adabiy ta’limga yangicha yondashuvlar, talablar o‘quvchilarda ham adabiyotga munosabatini o‘zgartirdi. Xususan, yoshlarimiz adabiyot fanini faqat oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun bo‘ladigan test sinovlariga tayyorgarlik

nuqtayi nazaridan emas, balki o‘z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma’naviy qarashlarini yuksaltirish maqsadi bilan o‘rganish zarurligini his qila boshladilar.

Darhaqiqat, badiiy adabiyot odam ko‘nglini tarbiyalaydi. Bugungi murakkab globallashuv sharoitida ma’naviyatimizni izdan chiqarish maqsadida xorijdan o‘zanini yo‘qotgan, selday oqib kelayotgan zararli g‘oyalarga qarshi faqat badiiy adabiyotgina milliy immunitet hosil qila olishi mumkin. Chunki adabiyot ko‘ngildan paydo bo‘lib, ko‘ngillarga singadi.

Universitetimiz tashkil qilingan vaqtdan buyon “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedrasi jamoasi tomonidan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani har yili ana’anaviy ravishda o‘tkazib kelinadi. Mazkur konferensiyaning asosiy maqsadi adabiyot o‘qitish metodikasini xalqaro standartlar va jahon tajribasi asosida yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish, o‘qitishning innovatsion usullarini yaratish, umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarni badiiy asar mutolaasiga qiziqtirishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat. “Global ta’lim va milliy metodika” taraqqiyoti ilmiy-amaliy anjumaniga taqdim etilayotgan maqolalar mazmun-mohiyati jihatidan takomillashib borayotgani, maqolalarda jiddiy konseptual masalalarning qo‘yilishi va ularning adabiy ta’limdagi bo‘shliqlarni to‘ldirib, milliy manbalarni boyitishga xizmat qilayotgani, milliy adabiy ta’limda mavjud bo‘lmagan yoki u qadar keng yoritilmagan nazariy qarashlar tahliliga e’tibor berilayotganidan adabiyot o‘qitish metodikasi universitetning strategik maqsadlariga mos taraqqiy etayapti, degan xulosaga kelish mumkin.

Mazkur an’anaviy VI anjuman global ta’lim imkoniyatlaridan milliy maqsadlarimizga mos tarzda foydalanib, milliy metodika sohasidagi bo‘lg‘usi tadqiqotlarni rivojlantirishga, milliy manbalarni boyitishga, adabiy ta’limning yangi ilmiy-amaliy asoslarini yaratishga o‘z hissasini qo‘sha oladi, deb ishonaman va konferensiya ishtirokchilari va tashkilotchilarining kelgusi ishlariga muvaffaqiyatlar tilayman.

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA

GLOBALLASHGAN DUNYO VA ADABIY TA’LIM

Qozoqboy Yo‘ldosh
ToshDO‘TAU professori
pedagogika fanlari doktori

Globallashgan postmodern dunyoda tinimsiz o‘zgarishlardan boshqa o‘zgarmas narsa yo‘qligi uchun bugungi odam shiddatli va to‘xtovsiz o‘zgarishlar og‘ushida yashashga mahkum. Muloqot imkoniyatining ortishi Yer sayyorasining kichrayib, odamzodning o‘zi yashaydigan makonga sig‘may, jug‘rofiy chegaralarni oshib o‘tishga ishtiyoqmandligini kuchaytirdi. Globallashuv tabiiy ravishda faqat amaliyotchilikka tayanib, madaniy, milliy va ruhoniy o‘ziga xoslikni inkor qiladi hamda ijtimoiy va ruhiy qiyofasizlikni yuzaga keltirishga moyil bo‘ladi.

Yer ma’nosidagi lotincha “globus” so‘zidan olingan “globallashuv” atamasi aslida istiloh sifatida xalqaro savdoning gurkirab o‘sishini anglatish uchun ishlatilgan. Bu atamani ilk bor Karl Marks 1850-yilda Fridrix Engelsga yozgan bir xatida “shitob bilan o‘sayotgan xalqaro savdo” ma’nosida ishlatgan edi. Oradan bir yuzu o‘ttiz yil o‘tgach, 1980-yilda bozorning globallashuvi haqida mashhur Harvard universitetining professori Teodor Levitt tomonidan yozilgan bir maqola[1] “global-lashuv” atamasining bashariyat lug‘atidan mustahkam o‘rin olishiga sabab bo‘ldi.

Globallashuv dunyo ahlini bir-biriga tezkorlik bilan yaqinlashtirdi. Bu jarayon turli etnoslarga xos universal, o‘rtoq jihatlarga kuch berib, millatlardagi ma’naviy, milliy, ruhoniy o‘ziga xos jihatlarni yemirib bormoqda. Globallashuvning gurkirab o‘sayotgan xalqaro savdo ma’nosini anglatishi bejiz emas. Ma’lumki, savdoda foyda ko‘rish asosiy ko‘rsatkich sanaladi. Shu sabab globallashuv odamdagi milliy, ruhiy, ma’naviy, axloqiy o‘ziga xoslikni emas, balki qanday qilib bo‘lsa-da, foydaga erishish xislatini rivojlantirishga ustuvorlik beradi.

[1] https://www.nur.kz/1781425-cto-takoe-globalizacia-prostymi-slovami-ee-vlianie-i-posledstvia.html

Globallashuv jarayoni birinchi navbatda insonning iste’molchilik istaklarini qondirishga xizmat qiladigan, uni moddiy manfaatga intiltiradigan mayllarni universallashtiradi. Avvalo, biologik yaratiq ekani sabab odam bu holatga juda ham moyildir. Iste’molchilik ehtiyojlarining globallashuvi turli etnoslardagi o‘ziga xoslikni silliqlab, odamlarning intilishlarini bir xillashtirib bormoqda. Hozirda bu jarayon juda kuch olgan. Shunday sharoitda har bir millat ahlining ijtimoiylashgan va dunyo bilan integratsiyalashgan holda o‘z qiyofasini ham saqlab qolishiga erishish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv alohida millat va elatlarni shunchaki Yer sayyorasining aholisiga aylantirib, ulardan shaxslar emas, balki ommaga singishib ketadigan qiyofasiz o‘rtacha odamni yuzaga keltiradi. Shu jihati bilan globallashuv global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu jahoniy kechimdir va u butun insoniyatni, demakki, barcha milliy adabiyot va madaniyatlarni ham qamrab oladi. Globallashuv jarayoni sabab mayda xalqlar va madaniyatlar o‘z milliy qiyofasidan mahrum bo‘lish xavfi oldida qoladi.

Badiiy adabiyot tabiatiga ko‘ra o‘zida millatning etnik-estetik xotirasini, ma’naviy-axloqiy o‘ziga xosligini saqlaydi. Shu bois jamiyat a’zolari ma’naviyatining yuksalishida badiiy adabiyotning tengsiz o‘rni bor. O‘zligini tanigan, o‘zining milliy qiyofasini tashkil etgan aqliy, axloqiy, ruhoniy belgilardan xabardor shaxs tashqi ta’sirlar natijasida qiyofasini yo‘qotib qo‘ymaydi. Shuning uchun ham uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida adabiyot o‘qitish har bir shaxsdagi o‘zlikni saqlab qolishga qaratilishi kerak bo‘ladi.

Har qanday shaxsning shakllanishida badiiy asar o‘qishning beqiyos o‘rni bor. Negaki badiiy asardagi qahramonlarning holat-u kayfiyatlari, iztirob-u quvonchlari, haqu nohaqliklari bilan tanishish va tuyish orqali kishida odamiylik sifatlari qaror topadi. Odam o‘zini o‘zga bilan solishtira bilganda, o‘zini boshqaning, boshqani esa o‘zining o‘rniga qo‘ya olgandagina chinakam odamga aylanadi. Bu holat fanda shaxsning ijtimoiylashuvi deyiladi. Ijtimoiylashmagan odam individdir, xolos. Hali unda iste’molchilikdan o‘zga biror insoniy sifat shakllanmagan bo‘ladi. Badiiy asar

va uning qahramonlari taqdiri bilan tanishish orqali odam oʻziga yoqqan narsaning oʻzgaga ham yoqishi, oʻzini ranjitgan tutum oʻzgani ham ranjitishi mumkinligini bilibgina qolmaydi, balki tuyadi ham. Shu tariqa unda odamiylik sifatlari tarkib topa boradi.

Mana shu holat maktabda adabiyot oʻqitishning tengsiz oʻrnini ta’minlaydi. Ba’zan ayrim oʻquvchilar: “***Men kelajakda adabiyotchi ham, shoir yoki yozuvchi ham, jurnalist ham boʻlmoqchi emasman. Shunday ekan, nima uchun “Adabiyot” darsligidagi materiallarni oʻzlashtirishim, buning ustiga, badiiy asarlar ham oʻqishim kerak?***” – deb oʻylaydilar. Ba’zan ochiqchasiga shunday masala qoʻyadilar. Shuni bilish kerakki, umumta’lim maktablarida oʻquvchilar biror sohaning mutaxassisligiga emas, balki hayotga tayyorlanadi. Har qanday kasbning egasi boʻlish uchun oʻrta maktabdan keyin yana oʻqish kerak boʻladi. Adabiyot esa oʻquvchining ijtimoiylashuvi, ya’ni jamiyatning boshqa a’zolari bilan uygʻunlashib, ular orasiga singishib, oʻzining oʻrnini topib ketishiga xizmat qiladi. Odam jamiyatning boshqa a’zolariga yaqin saviyada fikrlay olsa, ularning oʻylarini tushunsa, tuygʻularini his qila bilsa va shunday sifatlarga egaligi sabab boshqalarga xalaqit bermay yashay olsagina ijtimoiylashgan boʻladi.

Adabiyot saboqlari oʻquvchilarda shunday koʻnikmalarni shakllantirishga hamda koʻpchilik odamga xos tuygʻu va sezimlardan xabardor qilishga yoʻnaltirilishi kerak. Adabiyot oʻqituvchisi zimmasiga jamiyat tomonidan ana shu oʻta murakkab yumushni amalga oshirish yuklanadi. Oʻqituvchining gʻoyat mas’uliyatli shu vazifani kamroq kuch sarflab koʻproq samaraga erishgan holda uddalashi uning tayyorgarlik darajasiga bogʻliq.

Aytilganidek, globallashuv kechimi odamning turmush tarzi, ruhiyati va fikrlash yoʻsinini ham oʻzgartib yubordi. Oldinlari toʻgʻri fikr faqat bittagina boʻladi degan qarash hukmron edi. Oʻzinikiga oʻxshamagan fikr egasiga, kam deganda, yotsirab qaralardi. Endilikda haqiqatlar koʻp boʻlishi mumkinligi, bitta narsa-hodisa har kimga har xil ta’sir qilishi, har xil koʻrinishi va turlicha baholanishi mumkinligi anglab yetilmoqda. Bugun fikrlash, did, e’tiqod plyuralizmi yoyilib bormoqda.

Bunday sharoitda odamdan oʻz manfaatini unutmagan holda oʻzgalar manfaatiga ham daxl qilmasdan yashay bilish koʻnikmasiga ega boʻlish talab etiladi. Bugungi adabiyot saboqlari jamiyatdagi odamlarni boricha qabul qiladigan, ularning erkiga zugʻum oʻtkazmaydigan ana shunday shaxsni shakllantirishga yoʻnaltirilishi lozim.

Dunyo miqyosida yuzaga kelgan yangi vaziyat, yangi sharoit adabiyot oʻqitishni ham yangicha yoʻlga qoʻyishni talab qiladi. Bugungi odam dunyodan uzilib yashay olmagani singari bugungi milliy ta'lim ham ochun oʻqitish tajribasidagi yangiliklardan chetda turib, koʻzlagan natijalarga erisha olmaydi. Shularni hisobga olgan holda dunyo adabiy ta'lim tajribasidagi bizning sharoitimizga toʻgʻri keladigan, samara keltirishi aniq boʻlgan yangiliklarni bugungi oʻzbek adabiyot oʻqitish amaliyotiga qoʻllash kerak.

Birinchi navbatda umumta'lim maktablarining funksiyasiga sogʻlom mantiq nuqtayi nazaridan qarashni yoʻlga qoʻyish lozim boʻladi. Maktab oliy oʻquv yurtlariga talabgor tayyorlaydigan joy emas, balki katta hayotda yashab keta oladigan shaxslarni tarbiyalaydigan maskan ekani anglab etilishi kerak. Bunda oʻrta adabiy ta'lim tizimiga yondashuv rakursi butunlay oʻzgarishi zarur boʻladi.

Shuningdek, maktablardagi fan oʻqituvchilarining oʻquvchilarga boʻlajak mutaxassislar sifatida yondashuvi ham tamomila barham topishi kerak. Hozirda har bir fan oʻqituvchisi oʻquvchilarga oʻz fanini oʻzlashtirishi shart boʻlgan obyektlar, boʻlajak fizik, matematik, filolog, tarixchi, huquqshunos sifatida qaraydi. Holbuki, oʻquvchi – birinchi navbatda, betakror shaxs. Ta'lim tizimidagi oʻqitiladigan har bir fan oʻquvchilarda mutaxassislik koʻnikmalarini emas, balki unda shaxslik sifatlarining muayyan qirralarini shakllantirishga yoʻnaltirgan boʻlishi kerak. Maktabda oʻquvchi muayyan miqdordagi ilmiy haqiqatlarni oʻzlashtirib oladigan obyekt emas, olam-u odamda yuz beradigan har qanday voqea-hodisa va holatga oʻz nuqtayi nazari bilan mantiqli munosabat bildira oladigan shaxs sifatida shakllantirilishi zarur. Shunda musiqa, rasm, jismoniy madaniyat, adabiyot singari oʻquv fanlari shu sohalarning boʻlajak mutaxassislarini emas, balki bu tezkor va shiddatli zamonda odamga munosib yashash koʻnikmasiga ega, musiqani tinglay

oladigan, tasviriy san’at asarini ko‘ra biladigan, badiiy asar o‘qishga qiziqadigan, o‘qiganini tushunib, zavqlanadigan va bu zavqni ta’minlagan omillarni biladigan madaniyatli kishi tayyorlashga yo‘naltiriladi. Adabiyot saboqlarni o‘quvchiga yo‘l ko‘rsatish, nasihat qilish vositasi sifatida tushunishdan qutulib, ularni o‘quvchilar uchun kerakli va qiziqarli pedagogik yumushga aylantirish uchun didaktik innovatsiyalardan foydalanish kerak.

Hozircha bizning milliy ta’lim tizimimizda pedagogik innovatsiyani qo‘llashning ko‘proq tashqi ko‘rinishiga, shakliga e’tibor qaratilmoqda. Chunki yaqin o‘ttiz yillardan buyon barcha didaktik yangiliklar yuqoridan – boshqaruv organlaridan pastga ijrochi o‘qituvchilarga tushirilishi qaror topdi. Ya’ni bevosita maktabda ishlamayotganlar maktab faoliyatini samarali qilish yo‘llarini maktabda ishlayotganlarga o‘rgatishmoqchi. Holbuki, pedagogika fani va amaliyoti ko‘rsatadiki, innovatsiya tushunchasining oltin qoidasiga ko‘ra yangilik hamisha pastdan, ya’ni o‘qitish amaliyotidan yuqoriga, ya’ni boshqarish tizimi tomon harakatlanib borgandagina samara keltiradi.

Xatarli joyi shundaki, bu xil o‘rgatishlar taklif, tavsiya yo‘sinida emas, balki bajarilishi majburiy bo‘lgan qat’iy talab ko‘rinishini olmoqda. Ko‘p ming yillik ta’lim amaliyoti ko‘rsatadiki, birorta pedagogik tadbir, usul, yangilik hamma joyda yoppasiga birday samara berishi mumkin emas. Chunki ta’limning obyekti ham, subyekti ham turlicha minaz (tabiat)ga ega tirik odamlardir. Tirik odamlar esa har xil bo‘ladi va har xil yondashuvni talab qiladi.

Negadir, bizdagi pedagogik amaldorlar barcha foydali pedagogik innovatsiyalar faqat chet mamlakatlarda bo‘ladi, deb hisoblashadi. Holbuki, ta’limdagi innovatsiyalar chetniki bo‘lgani uchun emas, balki samarali bo‘lgani uchun o‘qitish amaliyotida qo‘llanishi kerak. Pedagogik lavozimdorlarimiz o‘zlariga yangilik bo‘lib tuyulgan metod va usullarni barcha maktablardagi barcha o‘quv fanlarini o‘qitishga birdaniga va bir xilda joriy etilishini istaydilar. Hozirda innovatsion yondashuvlarni qo‘llab samaraga erishishdan ko‘ra talab etilganiday qo‘llash faktining o‘zi muhimday bo‘lib turibdi.

Ta’lim tizimini tashkil etishda mohiyatdan ko‘ra ko‘rinish, mazmunga qaraganda shakl ustuvorroq martabada. Ta’lim kechimidagi barcha bosqichlarni imkon qadar yuqoridan turib boshqarishga intilinmoqda. Boshqarish oson bo‘lishi uchun esa bir xillik lozim bo‘ladi. O‘qitishday jonli kechimni bir xillashtirish amalda uni samarasiz qilish demakdir. Pedagoglarda professional erk yo‘q. Ularning qayerda, nimani, qanday bajarishi kerakligi qat’iy belgilab qo‘yilgan va undan salgina bo‘lsada, tashqariga chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘qituvchida faqat cheklovlarni aylanib o‘tish, cheklovchilarni chalg‘itish erkigina qoldi. Ma’lumki, erki yo‘q mutaxassisda shavq, ijodkorlik, bugun rasm bo‘lganiday aytilsa, kreativlik bo‘lmaydi. U o‘z mehnati va emgak obyekt iga qul singari munosabatda bo‘ladi. Qul o‘z ishiga ijodiy yondashishni emas, balki uni tezroq bir yoqlik qilishni o‘ylaydi. Chegarasiz cheklovlar pedagoglardagi ijodkorligu izlanishning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ladi.

Chinakam egamanlik egaman shaxslar bo‘lganda, ular tomonidan amalga oshiriladi. Bunday butun shaxslar esa, o‘z ish vaqti va faoliyatiga chin ma’noda xo‘jayin bo‘lgan o‘qituvchilar tomonidan shakllantiriladi.

O‘qitish amaliyotining ko‘p asrlik tajribasi ko‘rsatadiki, biror odamning ish tajribasini shundog‘icha o‘rganib va o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Har bir mutaxassis bu tajribadagi asosiy g‘oyalarnigina o‘ziga moslab o‘rganish va o‘zlashtirishi mumkin. Tashqaridan kelayotgan pedagogik yangiliklarga ushbu haqiqatdan kelib chiqqan holda yondashish lozim. Adabiyot saboqlaridagi eng birlamchi va bosh vazifa qaysi yoshda bo‘lishidan qat’i nazar o‘quvchilarni badiiy asar o‘qishga o‘rgatishdan iboratdir. Badiiy asar o‘qish o‘quvchilarga ikki jihatdan g‘oyat muhim yumush sanaladi. Birinchidan, u odamni kitobga bog‘lab qo‘yadi: asar qahramonlari bilan keyin nima bo‘lganini bilishga qiziqish uyg‘otadi, hayotdagi turli-tuman kutilmagan voqea-hodisalar bilan tanishtiradiki, buning o‘zi o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi. Bola o‘ziga mutlaqo notanish odamlar, o‘zgacha taqdirlar bilan tanishadi, ijodkor mahorati sabab ularga befarq bo‘lolmaydi, yangi so‘zlar o‘rganadi va bundan zavq oladi, foyda ko‘radi.

O‘quvchilarga kitob tavsiya etishda ham ehtiyot zarur. Ba’zi o‘qituvchilar ko‘p o‘qilgan, qayta-qayta muhokama qilingan asarlarni bolalarga tavsiya etgisi kelmaydi. Holbuki, o‘qituvchiga chaynalgan bo‘lib tuyulgan asar o‘quvchi tomonidan endi ilk bor kashf etiladi. Kitob o‘zgarmagani bilan uning iste’molchisi yangilanayotganini hisobga olish kerak. Badiiy asar o‘qishning ahamiyatini ta’minlaydigan ikkinchi hal qiluvchi jihat: badiiy asar o‘quvchida o‘zgani his etish, birovga tuyg‘udosh bo‘lish fazilatini shakllantiradi. Bu ilmiy tilda empatiya deyiladi. Globallashib borayotgan hozirgi shoshqin dunyoda yashayotgan odamlarda aynan empatiya tuyg‘usi kamayib bormoqdaki, bu yetishmovchilikni badiiy kitob o‘qish orqaligina to‘ldirish mumkin bo‘ladi. Ayrimlar kitob o‘qishning o‘rnini kino yoki teleko‘rsatuv bilan qoplash mumkin, deb o‘ylashadi. Holbuki, kino, video yoki teleko‘rsatuv tomosha qilayotgan kishi boshqa bir odam bilan bo‘layotgan voqealarning shunchaki kuzatuvchisi bo‘ladi, xolos. Kitob o‘qilganda esa odam qanchadir harf va tinish belgilari yordamida o‘ziga yangi bir dunyo ochib oladi, bu dunyosiga turli odamlarni joylashtirib, ularga xilma-xil taqdirlar beradi. Odamning o‘zi tomonidan so‘zlar yordamida yaratilgan obrazlar qaysidir jihatlari bilan uni ma’lum darajada o‘zgartiradi ham. Kitob odamga u yol-g‘iz emasligini, atrofida ham o‘zi kabi insonlar borligini, ularni ham hisobga olib yashash kerakligini o‘rgatadi. Bu holat odamni faqat o‘zini o‘ylab, o‘zidan boshqa bilan ishi bo‘lmaydigan o‘zchil (xudbin) kimsaga aylanishdan saqlab qoladi.

Bundan o‘ttiz-qirq yillar oldin odamlar axborot yetishmasligidan nolishardi. Endilikda bashariyat axborot to‘ri ichida qoldi. Ochundagi barcha narsani bilguvchi Googlening xodimi Erik Shmidtning aytishicha, insoniyat o‘zining ibtidosidan to 2003-yilga qadar bo‘lgan davrda qancha axborot dunyoga keltirgan bo‘lsa, hozir har ikki kunda shuncha axborot yaratilayotgan ekan[2]. Endilikda axborotlar bosimi ostida qolgan odam tuyg‘u yetishmovchiligidan qiynalmoqda. Badiiy asar uni o‘qigan odamga ham axborot beradi, ham uni boshqa insonlar, ularning taqdiri, ruhiy dunyosi, kechinmalariga yaqinlashtirib, tuyg‘ulantiradi. Ko‘rkam adabiyot bugunni

[2] http://www.adme.ru/tvorchestvo-pisateli/pochemu-nashe-buduschee-zavisit-ot-chteniya-579605/

koʻrsatgani singari juda uzoq oʻtmishda yashab oʻtgan va necha yuz yilliklardan soʻng dunyoga keladigan odamlar bilan ham oshno qiladi.

Xullas, tobora globallashib borayotgan odam zotiga yuksak maʼnaviy sifatlar, nozik tuygʻular, oʻzganing holatini his qilish singari ezgu sifatlarni badiiy adabiyotgina bera oladi. odamni badiiy adabiyotga oshno qilish esa adabiy taʼlim sogʻlom pedagogik-psixologik asoslarda yoʻlga qoʻyilgandagina samara keltiradi.

2022-yil 24-mart

MIRZO ULUGʻBEK DAVRIDA OLIY TAʼLIM – MADRASALAR VA MADRASAYI OLIYA

Boturxon Valixoʻjayev
akademik
(ustozning oxiratlari obod boʻlsin)

“Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-maʼrifatsiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Buni teran anglagan Sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasa barpo etish, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash bilan bogʻlagan... mazkur fazilat Sohibqironning avlodlari – ayniqsa, Mirzo Ulugʻbekka oʻtgani – shubhasiz” [Karimov, 1996. 56]. Darhaqiqat, Amir Temur mamlakatning taraqqiyoti, tinch-osoyishtaligini taʼminlovchi omillarga qanchalik eʼtibor qilgan boʻlsa, undagi taʼlim tizimiga, yosh avlodga taʼlim-tarbiya berishga ham shunchalik eʼtibor bergani tufayli yuqorida koʻrib oʻtilgan taʼlim tizimi dargohlari maydonga kelgan, zabardast ulamoyu allomalarga faoliyat koʻrsatish uchun imkoniyatlar yaratilgan edi. Amir Temurning bu fazilatlari temuriyzodalar, jumladan, Mirzo Ulugʻbek, Ibrohim mirzo va boshqalarga ham oʻtgan edi.

Sohibqiron Amir Temurning bunday faoliyatlari Mirzo Ulugʻbekka oʻtgani bejiz emasdi. Chunki Mirzo Ulugʻbek yosh boʻlsa-da, shavkatli bobosi amalga oshirayotgan barcha ishlarni bevosita koʻrar va ularni yoshlik davridagi joʻshqinlik bilan qalbi toʻrida saqlar, mushohada etar hamda tegishli xulosalar chiqarar edi. Mirzo Ulugʻbek 15 yoshida Samarqand markazligidagi Movarounnahrning

hukmdori bo‘lgach, o‘z ustozi Salohiddin Muso Qozizodayi Rumiy hamda Xoja Fazlulloh Abu Laysiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, tibbiyot ilmining mashhur allomasi Mavlono Fathulloh Tabriziy, tarixshunos Sharafiddin Ali Yazdiy va boshqalar bilan maslahatlashib, mamlakatni, jumladan, Samarqandni obodonlash-tirish sohasidagi ishlarni, xususan, ta’lim tizimi hamda ilmiy izlanishlarni davom ettirishni yetakchi yo‘nalish deb hisoblaydi. Mirzo Ulug‘bekning bunday ishlari mavlono G‘iyosiddin Koshiyning Samarqanddan otasiga yozgan maktubida ham o‘z ifodasini topgan [B.Ahmedov. 1989, 223-228. Bu maktub chet el olimlari tomonidan ham o‘rganilgan: Prof. Dr.Edvard S.Kennedy. A Letter of Jamshid al-Kashi to His Father. Scientific Research at a Fifteenth Century Court. Orientalia, 29 (1960): 191-213]. Bunday ulug‘vor niyatni amalga oshirishni esa hozirgacha mavjud bo‘lgan madrasa va xonaqohlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bilan birga yangi-yangi masjid, madrasa va xonaqohlarni qurdirishni puxta rejalashtirgan holda boshlab yubordi. Shunisi muhimki, Mirzo Ulug‘bek nazarda tutgan turli xildagi binolarni qurish hozirgacha, ya’ni XV asrgacha qurilish sohasidagi tajribalarga asoslanib qolmay, balki endi rejalashtirilganlar nazariy jihatdan ilmiy tarzda tasdiqlangan loyihalarga tayanilgan holda amalga oshirildi. Bu ishda esa muhandislar sultoni degan faxrli unvon sohibi mavlono G‘iyosiddin Jamshed Koshiyning (1385-1430) xizmatlari benihoya ulug‘dir. Shu asosda Mirzo Ulug‘bek Buxoroda (1417), G‘ijduvonda (1433) madrasalar [M.Abramov. 1991], Samarqandda esa madrasayi oliya majmuasini qurdirdi.

Mirzo Ulug‘bekning Buxoro va G‘ijduvonda qurdirgan madrasalarining me’moriy xususiyatlari va ahamiyati haqida ko‘p yozilgan. Shuning bilan birga ularning ta’lim tizimidagi mavqei, kadrlar tayyorlash sohasidagi faoliyati hali yetarli darajada o‘rganilgan, deb bo‘lmaydi. Faqat bir muhim narsaga diqqatni qaratish ma’qul ko‘rinadiki, Mirzo Ulug‘bek Buxoroda madrasa qurdirayotganda uning me’moriy inshoot bo‘lish bilan birga u bajaradigan asosiy vazifa – ta’lim-tarbiya dargohi ekaniga alohida urg‘u berganga o‘xshaydi. Bu hol madrasaga kiradigan katta darvoza o‘ng tabaqasining yuqoridagi dilasida “ilm talab qilish (o‘rganish)

barcha muslim va muslimalarga farzdir” hadisi go‘zal nasta’liq xati bilan o‘ymakorlik uslubida yozib qo‘yilgani hamda shu darvozaning birinjiy halqasida “kitobiy bilimga intiluvchilar uchun Alloh marhamatining eshigi hamisha ochiqdir” hadisining ham go‘zal tarzda o‘ymakorlik bilan bitilganidan ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Demak, Mirzo Ulug‘bek madrasalarni qurayotganda faqat me’moriy inshootlarnigina nazarda tutib qolmay, balki birinchi navbatda, ularning ta’lim-tarbiya va ilm o‘rganish maskani ekaniga alohida e’tiborni qaratgan.

Mirzo Ulug‘bek ilm o‘rganish, bilimli bo‘lish uchun hech qanday mone’ yo‘qligi, unga intiluvchilar uchun “Alloh marhamatining eshigi hamisha ochiq”ligini ta’kidlash bilan ham insonlarni ma’rifatli bo‘lishga da’vat etadi. Chunki ma’rifatli inson jaholatdan qutilishini, bu esa ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy hayotda rivoju ravnaqqa olib kelishini yaxshi anglagan edi, Mirzo Ulug‘bek. Shuning uchun u ilmu ma’rifat tarqatish dargohlari bo‘lmish madrasa va madrasayi oliyalarni bino qilishga astoydil kirishib ketdi. Ana shu jihatdan Mirzo Ulug‘bekning G‘ijduvonda madrasa qurdirishida (1433-yil) ham katta hikmat bordek tuyuladi. Chunki bu madrasa Mirzo Ulug‘bek qurdirgan boshqa madrasa-lardan hajm jihatdan kichik. Ammo uning xojagon tariqatining boniysi Abduxoliq G‘ijduvoniy (vaf. 575 H.-N79 m. yil) qabrining kun botar tomonida qurilgani bejiz emasdek ko‘rinadi, ya’ni bu bilan hazrat Abduxoliq G‘ijduvoniy tariqatlari, xususan, XV asrda naqshbandiya suluki g‘oyalarini madrasalarda ta’lim oluvchilar orqali keng tarqatish va shu vositada insonlarni komillik sari da’vat etish nazarda tutilgan, deb aytish mumkin bo‘lar. Shuning bilan birga bu madrasaning qurilishi Mirzo Ulug‘bekning xojagon tariqati hamda uning boniysi hazrat Abduxoliq G‘ijduvoniyga nisbatan chuqur hurmatining o‘ziga xos ifodasi deb bilsa bo‘ladi.

Mirzo Ulug‘bekning ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, uni ilmiy izlanishlar natijalari bilan bog‘lashga intilgani uning Samarqandda qurdirgan madrasayi oliya majmuasida, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu o‘rinda “Madrasayi oliya” iborasiga sharh bermoq ma’qul deb bilindi. Chunki bu ibora ikki ma’noda tushuniladi: birinchisi, me’moriy qurilish, naqqoshlik va san’atkorlik

jihatidan eng oliy darajada ekanligi, ya’ni monumental me’moriy inshootligi; ikkinchisi esa boshqa madrasalardan farqli o‘laroq ta’lim tizimidagi oliy o‘quv dargohi, ya’ni o‘z zamonasining universiteti ekani. Bu iboraning har ikkala ma’nosi Mirzo Ulug‘bekning Samarqandda qurdirgan madrasiyi oliya majmuasiga ham shakl, ham mohiyat jihatdan to‘la mos keladi. Mirzo Ulug‘bek uni qurdirishni rejalashtirganda ham ana shu ikki holatni nazarda tutgan ko‘rinadi. Shuning uchun mazkur madrasayi oliyani qurishdan oldin uning loyihasi, quriladigan joyi, quruvchilar guruhi hay’ati, qurilish sohasidagi yangi nazariy qarashlarni joriy etish usullari masalalari nihoyatda chuqur mulohaza va muhokama qilingan. Bunday muhokamalar Mirzo Ulug‘bek va Salohiddin Muso Qozizodayi Rumiy rahbarligida o‘tkazilib, unda muhandislar sultoni mavlono G‘iyosiddin Koshiy, mashhur me’mor, naqqosh va xattotlardan Muhammad ibn Mahmud Isfahoniy, Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniy, Yusuf Sheroziy, Muhammad ibn Hoji Bandgir va boshqalar faol qatnashganlar hamda ma’lum xulosalarga kelganlar. Shuning natijasida Samarqandda qurilishi mo‘ljallangan madrasayi oliya majmuasi uning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqilgan holda, ya’ni bu majmua faqat ta’lim tizimi dargohigina emas, balki ilmiy tadqiqotlar, xususan hay’at, Yer kurrasi, sayyoralar va yulduzlar holatini kuzatishga bag‘ishlangan ishlarni tashkil etish markazi va ular natijasining ta’lim jarayoniga tadbiq etishni ham nazarda tutib, majmuani qurish kerakligi belgilangan ko‘rinadi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda rasadxona madrasayi oliyaning tarkibiy qismi sifatida qaraldi. Bu jihatdan Samarqanddagi madrasayi oliya majmuasi Mirzo Ulug‘bek zamonasigacha va uning o‘zi tomonidan qurilgan madrasalardan (Buxoro, G‘ijduvon) tubdan farq qilardi.

Mirzo Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasayi oliya majmuasining boshqa madrasalardan farq qiluvchi xususiyati uning rasadxonani ham (hozirgi ibora bilan aytganda, katta ilmiy laboratoriya – ilmiy-tadqiqot institutini ham) o‘z tarkibiga olganligida deb uqtirilgan edi. Shu fikrning tasdig‘i sifatida XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoir, adabiyotshunos va muarrix mavlono Mutribiy Samarqandiyning [B.Valixo‘jayev. 1993, 152-166]

“Tazkirat ush-shuaro” asaridagi ajoyib bir ma’lumot matnini keltirish o‘rinlidir. Mavlono Mutribiy shunday yozadi: “Rasadbandoni Atorud fatnat va axtarshinosoni Qamar surati Mushtari xislat suvari aqolimi sab’a va ma’mura-i Zaminro bar devori madrasayi sultoni shahid Ulug‘bek Kuragon nuran marqaduhu dar Samarqandi firdavsmonand sofiho Alloh an al-gazand chunin tasvir namudaand” [Mutribiy. Qo‘lyozma, inv. №2253, 158-a-b-betlar].

Mazmuni: Atorudday ziyrak rasad bog‘lovchilar (munajjimlar), Oyga o‘xshash go‘zal, Mushtariy xislatli yulduzshunoslar yetti iqlim va Yer kurrasining obod joylari suratini sultoni shahid Ulug‘bek Kuragonning Samarqandi firdavsmonanddagi, Alloh uni yomonliklardan sof asrasin, madrasasining devoriga shunday tasvir etganlar (alohida betda yetti iqlim xaritasining surati berilgan).

Mavlono Mutribiyning yozganlariga ishonmoq kerak, chunki u Samarqandda tug‘ilib, shu yerda madrasalar, jumladan, Mirzo Ulug‘bekning madrasayi oliyasida ta’lim olgan siymolardandir. Shuning uchun mavlono Mutribiy o‘zi shaxsan ko‘rgan va guvohi bo‘lganlarni hech qanday mubolag‘asiz yozib qoldirgan. Bundan ko‘rinadiki, madrasayi oliya devorida yetti iqlim xaritasi suratining chizilgani rasadxona ishga tushib, yetti iqlim samtlari (tomonlari) aniqlangandan so‘ng uning xaritasi tuzilgan va bir nusxasi madrasayi oliya devorida chizilgan. Ehtimolki, xarita suratining madrasayi oliya devoriga chizilishi masjidi Muqatta’ning qurilishi davriga (1430-1435-yillar) to‘g‘ri kelsa kerak. Bas shunday ekan, madrasayi oliyadagi ta’lim jarayonida rasadxonada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarining tatbiq etilgani yana bir karra tasdiqdanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan 1992 – 1994-yillarda madrasayi oliya ta’mirlandi, ikkinchi qavat hujralari tiklandi va hozirda ham ta’mirlash ishlari uzluksiz tarzda davom etmoqda.

Madrasayi oliyada 100 ta tolibi ilm bo‘lib, shunga muvofiq o‘nta mudarris va tegishincha mu’id, hofiz va boshqalar bilan ta’minlangan. Madrasayi oliyaning sadri va bosh mudarrisi mavlono Salohiddin Muso Qozizodayi Rumiy edi.

Madrasayi oliya ish boshlaganda tolibi ilmlarning bilim saviyasi-darajasi aniqlanib, ular uch guruhga – a’lo (yuqori), avsat (o‘rta) va adno (past)ga ajratilgan. Bu o‘rinda shuni ham eslatish joizki, tolibi ilmning qaysi guruhga mansubligini aniqlash maqsadida ular imtihon qilinganlar. Imtihonni mavlono Qozizodayi Rumiy rahbarligida maxsus hay’at o‘tkazgan. Bu marosimga ba’zan Mirzo Ulug‘bek ham qatnashgan. Bu hakda Abdurahmon Jomiyning tarjimayi holi-maqomotini yozgan Abdulvose’ Nizomiy “Maqomoti mavlaviy Jomiy” asarida shunday yozadi:

“Ba’d az du-se ro‘z (omadani Chomy ba Samarqand) axtari saodat gustari munoziroti ilmy tulo‘ yofta, tartibi asbobi qoidai imtihon, ki dar on xittai muboraka surati istiqrory dosht, az makmani astori g‘ayb zohiru loeh shud va volii on xittai sharif (ya’ne Mirzo Ulug‘bek) bar kasbi aqidai sofii on hazrat mavvod tamomati kamoloti ilmii o‘ az moddai istikmoli Qozizoda ziyoda bud, bo chumhuri akobiri vaqt sharafi huzur arzony doshtand va dar istikshofi kamohii ahvoli xuchastamaoli on hazrat ehtimom ba mubolig‘ai tamom barafroshtand” [Abdulvose’ Nizomiy. Qo‘lyozma, 25- a-b varaq].

Mazmuni: Abdurahmon Jomiyning Samarqandga kelishidan ikki-uch kun o‘tgach, ul muborak diyorda (ya’ni Samarqandda) qabul qilingan doimiy qoidaga ko‘ra, ilmiy munozara-imtihon olish amalga oshdi. Bunga Qozizodayi Rumiydan o‘z bilimlarini kamolotga yetkazgan ul sharif o‘lkaning voliysi-podshohsi Mirzo Ulug‘bek zamon akobirlari bilan tashrif buyurib, hazrati Jomiy bilimlari darajasining nihoyatda yuksakligini kashf etdilar.

Ehtimolki, shu asosda Abdurahmon Jomiy tolibi ilmlarning a’lo guruhiga qabul qilinib, shunga muvofiq vazifa-oylik belgilanib, hujra ham ajratilgan. Albatta, Abdurahmon Jomiy bilan bog‘liq bu voqea keyinroq, ya’ni 1436-yilda sodir bo‘lgan. Ammo imtihon olishning “ul muborak diyorda (ya’ni Samarqandda) qabul qilingan doimiy qoidaga ko‘ra” deb qayd qilinishidan ma’lum bo‘ladiki, bu qoida madrasayi oliya faoliyat ko‘rsata boshlagan yillardan beri amal qilib kelgan.

Madrasayi oliyaning o‘quv dasturidan ulumi naqliya va ulumi aqliyaga daxldor fanlar o‘rin olgan. Ulumi naqliya guruhiga kiradigan ilmlardan Qur’oni karim,

hadisi sharif va fiqhni chuqur oʻrganish nazarda tutilgan, ularga yozilgan tafsir va sharhlar oʻrganilgan. Bu ilmlarning mohiyatini har tomonlama chuqur tushinishga erishish maqsadida arab tili sarf va nahvi (grammatikasi) ham batafsil oʻrgatilgan. Natijada tolibi ilmlar oʻz ona tillari bilan bir qatorda arab tilini ham mukammal biladigan, keyinchalik esa oʻz asarlarini ana shu tilda yozadigan boʻlib yetishganlar.

Ulumi aqliyaga daxldor fanlardan falsafa, mantiq, handasa (matematika), hay'at (astronomiya), al-jabr (algebra), riyoziyot, she'riyat nazariyasiga oid asarlar va boshqalar oʻrgatilgan. Bundan tashqari, tolibi ilmlar badiiy adabiyot namunalari, jumladan, Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Boʻston"i, Hofiz Sheroziyning devoni, mashhur arab shoir va adiblari asarlarini ham mutolaa qilganlar.

Koʻrinadiki, oʻquv dasturi nihoyatda oʻylab tuzilgan. Shuni aytish joizki, madrasayi oliya talabalari faqat arab, forsiy va turkiygoʻylarning asarlarini emas, balki qadimiy yunon, suryoni va hind tillaridan arab tiliga tarjima qilingan asarlarni ham, jumladan, Klavdiy Ptolomeyning (II asr) – Batlimus "Ulugʻ qurilish" yoki "Ulugʻ toʻplam" (arabchasi "Al majastiy") deb ataladigan asari va unga yozilgan sharhlarni mutolaa qilganlar.

Madrasayi oliyada naqliy va aqliy ilmlarga doir darslik va qoʻllanmalarning ayrimlari turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga koʻra quyidagilar boʻlgan:

"Lavome' asror fi sharh matole' al-anvor" ("Nurlarning chiqishi" uchun "Sirlarning ravshanlashishi" deb nomlangan sharh). Mazkur asarning muallifi Qutbiddin Muhammad bin Muhammad ar-Roziy at-Tahtoniy (vaf.766h.-1364m.) boʻlib, bu kitob 1328-yilda arab tilida yozilgan. Asar Sirojiddin Urmaviyning (vaf.682h.-1283m.) "Matla' al-anvor" (Nurlarning chiqishi) deb atalgan falsafa va mantiq masalalaridan bahs yurituvchi kitobining mantiq boʻlimiga yozilgan sharhdir [*SVR, t.Sh, 62-63.*].

"Al-Kashshof an daqoyiq al-tanzil" (Nuzul qilingan haqiqatlarni sharhlovchi kitob). Kitobning muallifi Abulqosim Mahmud bin Usmon Zamaxshariy (vaf.538h.-1144m.) boʻlib, Qur'oni karimning tafsiriga bagʻishlangan mashhur asardir [SVR, t.1U, 62]. Bu asarga Samarqandda faoliyat koʻrsatgan mashhur alloma, mudarris

Sa’diddin Mas’ud Taftazoniy (1322-1390) “Sharhi kashshof” nomi bilan sharh yozgan [Tarixi tomm. 1998, 21]. Bu sharh ham madrasayi oliya mudarris va talabalari tomonidan foydalanilgan.

“Al-Hidoya”. Fiqhga bag‘ishlangan bu mashhur asarning muallifi Burhoniddin Marg‘inoniydir. (1123-yilda Marg‘inon (Roshidon)da tug‘ilib, 1196-yilda Samar-qandda vafot etgan. Qabri Chokardizadadir).

“Al-jome’ al-sahih”. Rasulullоh Muhammad (s.a.v) hadislarining sahih (ishonarli va to‘g‘ri) majmuasi bo‘lib, uni Imom al-Buxoriy tuzganlar [Imom Buxoriy, 1996] (810-yilda Buxoroda tug‘ilib, 870-yilda Samarqand viloyatining Xartang mavzesida vafot etganlar). Respublika mustaqilligi davrida qabrlari ustida muhtasham maqbara majmua qad ko‘tardi.

“Kitob al-fiqh al-akbar”. Bu mashhur asar hanafiya mazhabi asoschisi imom A’zam-Abu Hanifa an-Nu’mon ibn Sobit al-Kufiy (80h.-700m.-150h-767m.) qalamiga mansubdir [Imom A’zam. 1999.].

“Al-tazkira fi-l-hay’at”. Astronomiyaga bag‘ishlangan bu asarning muallifi Nosiriddin Tusiy (1201-1274) bo‘lib, unda Batlimus (Ptolomey)ning astronomiyaga oid tizimidan so‘z yuritilgan. Mirzo Ulug‘bek madrasayi oliyada ma’ruza o‘qiganda undan foydalangan.

“At-tuhfat ush-shohiy”. Bu ham astronomiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, uning muallifi Qutbiddin Mahmud ibn Mas’ud Sheroziydir.

“Badoe’ ul-ibkor min tavome’ al-afkor” (Fikrlarning tug‘ilishida g‘unchalarning badiiyligi).

“Mafoteh abvob al-adab”. (Adab eshiklari kalitlari) va boshqalar deyilganda Chag‘miniy, Taftazoniy, Sayid Sharif Jurjoniy, G‘iyosiddin Jamshed Koshiy, Qozizodayi Rumiy kabi allomalarning risolalari, sharhlari nazarda tutiladi.

Madrasayi oliyadagi o‘qish jarayoni ham ma’lum bir tartib asosida tashkil etilgan ko‘rinadi. Jumladan, Qur’oni karim va hadisi sharifdan dars o‘qiydigan har bir mudarrisga tolibi ilmlarning har bir guruhidan (ma’lumki, ular uch guruh-adno, avsat, a’loda ta’lim olganlar) 5 tadan, jam’i 15 ta talaba berkitilgan ekan. Har bir

guruh talabalari alohida oʻquv dasturi asosida oʻqitilgan. Boshqa ilmlardan dars beruvchi har bir mudarrisga esa har bir guruhdan 10 tadan, jam'i 30 ta tolibi ilm berkitilgan. Ana shu tarzda madrasayi oliyadagi mudarrislarning soni 10 taga borib yetar ekan, shunga mutanosib ravishda hofiz, musdir, mu'id va boshqa xodimlar ham aniqlangan. Madrasayi oliya va xonaqohda farrosh, tabbox (oshxona xodimi), imom, noqit ham tayinlangan.

Oʻsha davr taomiliga koʻra boshqa madrasalarda boʻlgani kabi madrasayi oliyada ham haftaning toʻrt kuni – shanba, yakshanba, dushanba, seshanba rasmiy dars boʻlib, ikki kun – chorshanba va payshanba mustaqil mutolaa kunlari, juma (bozor) kuni esa dam olish deb hisoblangan.

Madrasayi oliyada oʻqish jarayoni bir oʻquv yilida yetti oy davom etgan. Oʻquv yili mezon oyining birinchi kuni (21-sentyabr) boshlanib, hamal oyining birinchi kunida (21-mart) tugagan. Hamal oyidan (21-martdan) mezon oyigacha (21-sentyabrgacha) boʻlgan muddat, ya'ni mart oyining oxiridan, aprel, may, iyun, iyul, avgust oylari va sentyabrning 21-kunigacha ta'til hisoblangan. Bu davrda tolibi ilmlar turli ishlar (dehqonchilik, hunarmandchilik, masjid imomligi va boshqalar) bilan shugʻullanganlar. Ayrim talabalar esa madrasayi oliyada qolib, mustaqil oʻrganishini davom ettiravergan.

Madrasayi oliyada talabalarning ta'lim olish muddati sakkiz yil belgilanib, shu muddat ichida talabalar qaysi guruhga mansub boʻlsa, oʻshanga muvofiq oylik (naqd dinor) va oshlik (arpa, bugʻdoy) bilan ta'minlangan. Koʻrsatilgan muddat tugagach, talabalarni moddiy jihatdan ta'minlash toʻxtatilgan. Shunisi ham borki, talabalarning hammasi ham mazkur muddatda madrasayi oliyani xatm qila olmagan – bitira olmagan. Undaylar koʻp yillar oʻz hisobida oʻqib yurgan. Ulardan ayrimlari madrasani xatm qilishga muyassar boʻlgan boʻlsa, ayrimlari ketib ham qolgan. Madrasayi oliyani xatm qilgan – bitirgan tolibi ilmlarga mudarrislik qilishi mumkinligini bildiruvchi ijozatnoma – diplomlar berilgan. Ana shunday ijozatnoma – diplomlardan biri hozirgi kunda OʻzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi [B. Ahmedov. 1989, 112-113]. Bu ijozatnoma –

diplom madrasayi oliyada ta’lim olgan Shamsiddin Muhammad Balxiy nomiga berilgan bo‘lib, unga Qozizodayi Rumiy qo‘l qo‘ygan, boshqacha aytganda, Qozizodayi Rumiy mazkur ijozatnomani 838h. yil rajab oyining o‘rtalarida, ya’ni 1435-yil fevral oyida o‘z qo‘li bilan yozilganligini qayd qilgan. Bu ijozatnoma – diplom ko‘pgina masalalarga oydinlik kiritadi:

– Mazkur tolibi ilm – Shamsiddin Muhammad o‘sha davrdagi Xurosonning Balx shahridan Movarounnahrning Samarqand shahridagi Mirzo Ulug‘bek madrasayi oliyasiga o‘qishga kelgani. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur madrasayi oliyaning faqat Movarounnahrdan bo‘lganlar uchun emas, balki Xuroson, Hindiston, Rum o‘lkalaridan kelganlarga ham xizmat qilganidan guvohlik beradi.

– Shamsiddin Muhammad al-Balxiyning tahsil muddati o‘n olti yil bo‘lganligi.

– Bu tolibi ilm tomonidan tahsil davomida o‘rgangan asarlarning nomlari alohida-alohida ko‘rsatilgani. Ijozatnoma-diplomda qayd qilingan asarlar nomidan ma’lum bo‘ladiki, ular ham naqliya, ham aqliya va ham adabiya ilmlarga daxldor bo‘lganlar.

Hozirgi kunda oliy o‘quv yurtlari, jumladan, unversitetlarni bitirganlar diplomi ilovasida o‘tilgan fanlar va olgan baholari qayd qilinadi.

– Madrasayi oliyani bitirganlarga bosh mudarris tomonidan tasdiqlangan ijozatnoma – diplom berilgan. Bu hujjat esa uning egasiga boshqa shahar va o‘lkalardagi madrasalarda dars berish – mudarrislik qilish huquqini bergan. Demak, Mirzo Ulug‘bek madrasayi oliyasini xatm qilganlik – bitirganlik haqidagi ijozatnoma – diplom o‘sha davr Sharq o‘lkalarida tan olingan rasmiy hujjat bo‘lgan. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur madrasaning Sharq o‘lkalarida tutgan yuksak mavqei va e’tiboridan dalolat beradi.

Shuni uqtirish lozimki, madrasayi oliyada tahsil olib, o‘zining qobiliyati va bilimdonligi bilan alohida ajralib turgan tolibi ilmlar madrasayi oliyani xatm qilgandan so‘ng shu madrasayi oliyaning mudarrisligiga ham qoldirilganlar. Fikrimizning isboti uchun mavlono Ali Qushchi va mavlono Abdurahmon

Jomiylarning ana shu tarzda Mirzo Ulug‘bek madrasayi oliyasining mudarrislari bo‘lib qolganliklarini keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prof. Dr.Edvard S. Kennedy. A Letter of Jamshid al-Kashi to His Father. Scientific Research at a Fifteenth Century Court. Orientalia, 29 (1960): 191-213.
2. А.Афсаҳзод. Рўзгор ва осори Абдураҳмони Жоми. – Душанбе, 1980, 46-47-бетлар.
3. А.Афсаҳзод. Рўзгор ва осори Абдураҳмони Чомй. – Душанбе, «Дониш», 1980, с.45-46.
4. Абдулвосеъ Низомий. Мақомоти мавлавй Чомй. Қўлёзма, 25- а-б варақ. Фирдавсий номидаги Тожикистон Давлат кутубхонаси фонди, инв. 1430.
5. Б.Аҳмедов. Улуғбек. Эссе. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989, – Б. 223-228.
6. Б.Валихўжаев. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X–XIX асрлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993, 152-166-бетлар.
7. И.А.Каримов. Амир Темур ҳақида сўз. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996, 56-бет.
8. Имом Аъзам. Мусанниф Қодиров Зоҳидҳон Отахон ўғли. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 1999.
9. Имом Бухорий таърифи. Таржима ва изоҳлар муаллифи Саид Азим Муҳаммад Али. – Тошкент: Чўлпон, 1996.
10. М.Абрамов. Улугбек и благоустройство городов Узбекистана (Самарканд, Бухара, Гиждуван, Шахрисабз). – Самарканд, 1991.
11. Мутрибий. Тазкират уш-шуаро. Ўз РФА Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, инв. №2253, 158-а-б-бетлар.
12. Б.Валихўчаев. Сурати хафт иқлим дар мадраса-йи Мирзо Улугбек. Овози Самарқанд, 1992, 18 апрел.
13. Osmanlı İmparatorluğu ve Medeniyeti Tarihi, Cilt 2. – İstanbul, 1998, – s.366, 556.
14. Тарихи томм. –Тошкент: Маънавият, 1998, 21-бет.

Mazkur material [Б.Валихўжаев. Самарқандда олий таълим – мадрасайи олия – университет тарихидан лавҳалар. *Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – Самарқанд: 2001] olindi.*

FILOLOGIK TA’LIM YANGILANISHI SHAROITIDA ADABIY TA’LIM OLDIDA TURGAN VAZIFALAR

Valijon Qodirov
Andijon davlat universiteti professori
pedagogika fanlari doktori

Har qanday mamlakatning rivoji ta’lim, ilm-fan bilan bevosita bog‘liqligi asrlar davomida o‘z tasdig‘ini topgan va ayni paytda yanada e’tibor markaziga aylanayotgan haqiqat va yechimini ortga surib bo‘lmaydigan hayotiy ehtiyojdir. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat taraqqiyotiga uzviy aloqador bo‘lgan ta’lim sifati va mazmunini takomillashtirish hukumatning maxsus qarorlari,

oʻzgaruvchan davr talablari, ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion gʻoyalarning soʻnggi yutuqlari asosida yoʻlga qoʻyilmoqda, takomil-lashtirilmoqda. Shu oʻrinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1, 57] degan fikrlari har bir ta’limga daxldor shaxslar uchun dasturulamal boʻlib xizmat qiladi.

Filologik fanlardan (Ona tili va Adabiyot) davlat ta’lim standartlari – DTSning malaka talablari boʻyicha oʻquvchi shaxsida shakllantirilajak oʻz-oʻzini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish; kamolotga intilish, mustaqil oʻqib-oʻrganish; nutqiy kommunikativ kompetensiyasini muntazam oshirib borish; oʻz bilimi, xatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini egallash, til imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrni toʻgʻri, ravon bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirish kabi me’yorlarga alohida e’tibor qaratilgan [2].

Umumiy oʻrta ta’lim muassasalarida filologik fanlar (Ona tili va Adabiyot)ni oʻqitishning asosiy maqsadi – kitobxonlik madaniyati shakllangan, oʻz fikrini ogʻzaki va yozma tarzda toʻgʻri, ravon bayon qiladigan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, oʻzgalar fikrini anglab, oʻz munosabatini bildira oladigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ta’limga kompetensiyaviy yondashuv talabi esa oʻquvchilarda ijodiylik, ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi. Bu xislatlarni til va adabiyot ta’limiga, ularda shakllantirilajak kompetensiyalarni singdirish jarayoniga koʻchirilishi oʻqitish sifati va uning pirovard natijasi boʻlmish samaradorlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hozirda umumiy oʻrta ta’lim bosqichida til va adabiyot predmetlarini oʻqitish shaklan va mazmunan yangi formatga solina boshlanayotgani boshlangʻich sinflar uchun chop etilgan darsliklarda yaqqol namoyon boʻlmoqda. Ma’lumki, yangi oʻquv yilidan shu yillargacha joriy boʻlgan Ona tili va Oʻqish predmetlarini alohida

oʻqitishdan voz kechilib, ularni birlashtirgan holda Ona tili va oʻqish savodxonligi darsligi yaratildi. Amaliyotda ularga munosabat turlicha: ijobiy ham, salbiy ham bor. Munosabat va yondashuvlarning turlichaligi (va hatto qarama-qarshiligi) dars berayotgan oʻqituvchilarning tayyorgarlik darajasiga bogʻliq ekanligi kuzatishlarimizdan oydinlashmoqda. Bu, albatta, alohida mavzu. Biz diqqat qaratayotmoqchi boʻlgan masala shuki, Adabiyot predmetining ibtidosi Oʻqish boshlangʻich sinflarda Ona tili bilan integratsiya boʻlgan bir sharoitda bugungi adabiy ta'lim qanday boʻlishi borasida soʻz yuritish, fikr almashishdir.

Bizning nazarimizda, avvalo, yuqori sinflarda ham quyi bosqichda boʻlgani kabi bu ikki predmet birlashib ketadimi yoki alohidaligicha qoladimi – shu haqida bir toʻxtamga kelib olish kerak. Hozirgi paytda bu boradagi har qanday qarorni XTV huzuridagi Ta'lim markazi ayrim mutaxassislar bilan kelishgan holda qabul qilmoqda. Yosh avlod ta'limi har bir mamlakat, xalq, millat "uchun yo hayot – yo momot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi" [3, 34] ekan, ta'lim-tarbiya ishlaridagi islohotlarni keng miqyosda, xususan, soha mutaxassislari, ayniqsa, metodistlar bilan kengashib amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu borada har kimning yondashuvi, munosabati har xil boʻlishi tabiiy. Ayniqsa, adabiyotni, adabiy ta'limni millat ma'naviyatini shakllantiruvchi qudratli vosita bilgan olimlar, mutaxassislar fanlarning alohida qolishi – oʻqitilishi tarafdori boʻlishlari tabiiy. Xorij tajrabasini ta'lim amaliyotiga olib kirishga ishtiyoqmand boʻlganlar ularni birlashtirish fikrida qat'iy turadilar. Bizningcha, bu borada eng toʻgʻri yoʻlni amaliyotda sinalgan tajriba orqali ilmiy asoslangan xulosalar koʻrsatadi. Amaliy tajriba qilmay turib oʻz qarashini mustahkam turib himoya qilish metodika uchun, ta'lim amaliyoti uchun samarali yakunga olib kelmaydi.

Shu fikrlarning davomi sifatida aytish lozimki, hozir qoʻllana boshlagan Ona tili va Oʻqishning bir predmetga integratsiyasi biryoqlama boʻlmoqda. Ularni qoʻshib oʻqitishdagi muayyan yutuqlar faqat shu yoʻlgina toʻgʻri degan toʻxtamga asos boʻlolmaydi. Bizningcha, mazkur yondashuvga parallel ravishda Ona tili va Oʻqish predmetlarini shaklan va mazmunan yangicha yondashuv (format)larda

alohida predmet sifatida o‘qitishni ham yo‘lga qo‘yib, tajriba qilib ko‘rish kerak. Ikki xil yondashuv sinovdan o‘tgach, qaysi birining natijasi, samarasi yuqori bo‘lsa, o‘sha o‘zini oqlagan hisoblanadi va u tanlanishi lozim. Kimdir e’tiroz bildirishi mumkin: shu vaqtgacha ular alohida o‘qitildi, natija bermadi-ku! (yoki samara past bo‘ldi-ku!) Biz aytamiz: bu ikki predmet alohida o‘qitilsin deganda eski holida qolsin deganni anglatmaydi. Ona tili qanday yangicha yondashuvda o‘qitilsa, O‘qish predmeti tahsili ham ham shaklan, ham mazmunan yangilanadi. Biz qo‘limizda bor bo‘lgan yutuqlarnigina ko‘rib, e’tirof etib, undan-da yaxshiroq erishish mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni izlashdan yuz o‘girmasligimiz darkor.

Hozircha masala sifatida ko‘tarilmagan bo‘lsa-da, lekin yaqin 2-3 yilda albatta 5–11-sinflarda ham Ona tili va Adabiyot predmetlarini bir fanga birlashtirish muammosi muhokamaga qo‘yiladi. Filologiya sohasiga o‘zini mansub bilgan har bir mutaxassis bu taklifga munosabati va qarashini belgilab olishi lozim. Agar bu taklif bo‘yicha o‘zgarishlar qilinsa, adabiyot turli mazmundagi matnlar (badiiy, ilmiy, rasmiy, ijtimoiy-siyosiy) sirasidagi bir jihat bo‘lib qolishi bilab cheklanishi mumkin. Bunda millatning badiiy adabiyotdan uzoqlashishi, begonalashishi yuz berishi ehtimoldan uzoq emas. Agar fanlarni birlashtirish boshqacharoq yondashuv bilan amalga oshirilsa ham, yuqorida aytganimizdek, ikki xil yo‘nalish bo‘yicha – ikki fanni birlashtirgan hamda ularni alohida o‘qitish tarzidagi tajriba-sinovlardan kelib chiqib qaror berish kerak.

Yana bir masala. Endilikda adabiy ta’lim uchun o‘quvchilarda shakllantirilajak kompetensiyalarni belgilab olishimiz muhim. Hozirgacha badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi diqqat markazimizda bo‘ldi. 2020-yilda ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan Adabiyot bo‘yicha Milliy o‘quv dasturida [4] esa uchta kompetensiya belgilangan: nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, matnni tushunish kompetensiyasi. Ular bilan tanishar ekanmiz, Ona tili bilan umumiylik, Adabiyot o‘qitish uchun esa mavhumlik borligiga guvoh bo‘lamiz. Ularda adabiyot bilan, badiiy matnlar bilan bog‘liq bandlar bo‘lsa-da, Ona tilidagi nutqiy kompetensiyalar talabiga moslashtirilganday ko‘rinadi. O‘quvchilarda badiiy

didni, estetik tafakkurni shakllantirish, rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompetensiya-lar belgilanishi kerak.

Bu borada takliflarimiz shunday: Adabiyot o‘qitish uchun uchta asosiy kompetensiya belgilanishi lozim, ya’ni badiiy matnni qabul qilish kompetensiyasi, badiiy asarga talqin berish va uni tahlil qilish kompetensiyasi hamda badiiy asarni hayot bilan bog‘lash kompetensiyasi.

Badiiy matnni qabul qilish (tushunish) kompetensiyasi birlamchi, asos sanalib, usiz talqin va tahlil ham, hayot bilan bog‘lash bo‘lmasligi muqarrar, negaki kishi o‘zi tushunmagan narsaga munosabat bildira olmaydi. Hozirda o‘quvchilar (aslida aksar o‘qituvchilar)ning badiiy matndan poetik mazmun tugul oddiy ma’no chiqara olmayotganlari adabiy ta’limning g‘oyat nochor saviyaga tushib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Bu kompetensiya Ona tilidagi o‘qib tushunish va tinglab tushunish kompetensiyalari asosida shakllantiriladi. Ona tilida matnni o‘qib tushunish va tinglab tushunish umumiy xarakterda bo‘lsa, Adabiyotda har bir matnning qaysi adabiy turga yoki janrga mansubligiga ko‘ra qabul qilish, idrok etish kompetensiyalarini shakllantirish nazarda tutiladi. Shu bois metodikamiz oldida adabiy turlar va janrlar kesimida o‘quvchilarning matnlarni o‘qib tushunish va tinglab tushunish layoqatlarini shakllantirish muammolarini tadqiq etish vazifalari ko‘ndalang bo‘lmoqda.

Badiiy asarni talqin va tahlil qilish, tabiiyki, undan ma’no chiqarishdan keyin mumkin bo‘ladi. U ko‘proq og‘zaki, ma’lum darajada yozma shaklda bo‘lgani bois Ona tilidagi so‘zlash va yozma nutq kompetensiyalariga aloqador bo‘ladi, unda shakllantirilgan ko‘nikma va malakalarga tayaniladi. Albatta, bunda o‘quvchilarga singdirilgan adabiyotdan nazariy ma’lumotlarning ham alohida o‘rni, ahamiyati bo‘ladi. Aynan shu kompetensiya o‘quvchilarning bilimi, shakllangan badiiy-estetik didini namoyon qiladi.

Har qanday olingan bilim, shakllantirilgan ko‘nikma, malakalar o‘quvchilar-ning joriy va kelgusi hayotlarida asqotsagina, ular haqiqiy ma’noda manfaatli ta’limga dalolat qiladi. Shu bois o‘rganilgan badiiy asarlar o‘quvchilarning

dunyoqarashi, o‘zlarini qurshagan muhit, atrofidagi insonlarga nisbatan munosabatini o‘zgartirsa, yaxshilik va ezgulik tomon yo‘naltirsa, olam va odam oldidagi mas’uliyat hissini tarbiyalasa, shundagina adabiy ta’lim maqsadiga yetishgan sanaladi. Shuning uchun badiiy asarlarni hayot bilan bog‘lash kompetensiyasini alohida ajratib adabiyotdan kompetensiyalar sirasiga kiritish zarurdir. Albatta bu takliflar bizning shaxsiy mulohazalarimiz bo‘lib, hamkasblarimizga muhokama uchun fikr o‘laroq taqdim etdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2017 йил 6 апрел, 187-сонли қарори. Электрон манба: www.lex.uz/doks/
3. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. –Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2015.
4. Умумий ўрта таълимнинг адабиёт фани бўйича Миллий ўқув дастури (1–11-синф). – Т.: РТМ, 2020.

O‘ZBEKISTONDA GLOBAL TA’LIM MUAMMOLARI YECHIMI BO‘YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR

Islamova Maftuna Sharofiddinovna
Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)
maftuna_islamova@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv, global ta’lim, O‘zbekiston global ta’limining umumiy holati, global ta’lim muammolarini yachish yechishda amalga oshirilayotgan ishlar tahlili xususda fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, global ta’lim, global tarmoq, ta’lim, qamrab olish koeffisenti.

Annotation

This article discusses globalization, global education, the general state of global education in Uzbekistan, the analysis of the work being done to solve the problems of global education.

Key words: globalization, global education, global network, education, coefficient of obtaining the amount.

Globallashuv tushunchasi ilk bor *1833-yilda* Britaniyalik iqtisodchi *Foter* tomonidan ilmiy maqolada qo‘llanilgan[1] bo‘lib, globallashuv - deganda dunyoning barcha mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda har bir

sohada milliy chegaralarni bekor qilish orqali birlashishi tushuniladi. Tushunchaning kengroq ta’rifi: *“global integratsiya, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning o‘rnatilishi va rivojlanishi, mafkuraviy tafovutlarga asoslangan qutblanishning barham topishi”* sifatida tariflanadi.[2] Globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha jabhalari shu jumladan ta’lim tizimi va metodikasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bugungi kunda har bir mamalakat ta’lim tizimida *global ta’lim* tushunchasi mavjud bo‘lib, unda har bir mamalakat yoshlarinig chet el talim muassalaridagi ta’lim ulushi asosiy manbaa hisoblanadi. Shu jumladan, O‘zbekiston respublikasida ham globat ta’lim keng rivojlanib, bugungi kunda ko‘plab mamlakatimiz talabalari jahon oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni 1-ilovasi 2-Oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar bobi)da quyidagi asosli ma’lumotlar keltirilgan:

Bugungi kunda respublikada *114 ta oliy ta’lim muassasasi* mavjud bo‘lib, ulardan *93* tasi mahalliy hamda *21* tasi xorijiy oliy ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so‘nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta’lim muassasasi, *17 ta* filial va *14 ta* xorijiy oliy ta’lim muassasasi filiali tashkil etildi.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga *329 ta ta’lim yo‘nalishi* va *582 ta magistratura mutaxassisligi* kiritildi.

2019/2020-o‘quv yilida *59 ta oliy ta’lim muassasasida* sirtqi ta’lim, *10 ta* oliy ta’lim muassasasida kechki ta’lim shakli joriy etildi.

Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha *410 ming*, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha esa *13 ming* nafarni tashkil qilib, so‘nggi *3 yilda 1,7 baravarga oshdi.*

Talabalarning *54,8* foizi gumanitar va pedagogik, *25,2* foizi ishlab chiqarish-texnik, *5,2 foizi* ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, *5,9 foizi* qishloq va suv xo‘jaligi,

4,4 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, *4,5 foizi* xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olmoqdalar.

Magistratura talabalarining *40,8 foizi* gumanitar va pedagogik, *23,3 foizi* ishlab chiqarish-texnik, *13,3 foizi* ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, *5,9 foizi* qishloq va suv xo‘jaligi, *13,5 foizi* sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, 3,2 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olmoqdalar.

2019/2020-o‘quv yili uchun qabul parametrlari *121 ming*tani tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan *18 foizga,* 2016-yilga nisbatan esa *92 foizga* oshdi.

Respublikaning *16 ta* oliy ta’lim muassasasida *2018/2019* o‘quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalaridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar soni *84 tani* tashkil qilmoqda (2017-yilda 48 ta). So‘nggi 3 yilda *1 693* nafar professor-o‘qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni *9 636* nafarga yetdi (shundan *2 130* nafari fan doktori (DSc), *7 506* nafari fan nomzodi (PhD) hamda respublika oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati *5,1* foizga oshishiga erishildi.

So‘nggi 3 yilda oliy ta’lim muassasalarining *1 611* nafar professor-o‘qituvchisi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi ta’minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisligiga *112* nafar, doktoranturasiga *51* nafar yoshlar ta’lim olishga qabul qilindi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali *46 nafar* professor-o‘qituvchining *Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya* davlatlarida stajirovka o‘tashi ta’minlandi.

2017 -2019-yillarda ta’lim jarayoniga *1 154 nafar* xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (*AQShdan 94 nafar, Yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar*). Oliy ta’lim muassasalarida fan doktori ilmiy darajasiga ega professorlarning bazaviy lavozim maoshlari 2016-yilga nisbatan *3,2 baravarga* oshirildi.[3]

Oliy ta’lim tizimi sohasida sezilarli islohotlar va o‘zgarishlar olib borilayotgan bo‘lishiga qaramay, oliy ta’lim tizimi amaldagi qonunchilik doirasida O‘zbekiston Respublikasi hududida bakalavr – *kunduzgi 4 yil*, *sirtqi ta’lim – 5 yil*, shuningdek, *kechki ta’lim* shaklida olib borilish ham ko‘p sonli o‘zbek yoshlarini qaymrab olish koeffisientini qoniqarli deb bo‘lmaydi. Shu sababdan o‘zbek talabalari orasi global ta’lim asosida xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalariga xujjat topshirish va tahsilning ma’lum davridan so‘ng respublikamiz hududidagi OTMlarga tahsilni ko‘chirish istagini bildirish holatlari juda ko‘p uchraydi. Xususan: Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, *2019 yilning 8 oyi* statistikalari bo‘yicha, xorijiy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish uchun eng ko‘p murojaatlar *Qirg‘iziston* Respublikasi ta’limini tugatganlardan (*45,7 foiz*) kelib tushgan. Ikkinchi o‘rinni esa *Tojikiston* (*16,7 foiz*), so‘ng *Rossiya* (*14,3 foiz*), *Qozog‘iston* (*10,6 foiz*) egallagan.

Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, *2019* yilning *8 oyi statistikalari* bo‘yicha, xorijiy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish uchun eng ko‘p murojaatlar *Qirg‘iziston Respublikasi* ta’limini tugatganlardan *(45,7 foiz)* kelib tushmoqda. Ikkinchi o‘rinni esa *Tojikiston (16,7 foiz)*, so‘ng *Rossiya (14,3 foiz), Qozog‘iston (10,6 foiz)* egallagan.

Masalan 2019-yilda 1 milliondan ortiq talabgor oliy ta’lim muassasasalariga hujjat topshirdi. Garchi islohotlar natijasida keyingi yillarda qabul kvotalari *9 foizdan 12-13 foizga* oshgan bo‘lishiga qaramay umumiy ehtiyojni qondirish uchun bu qamrov hali kam.

2018-yil avgust holatiga ko‘ra, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarining tan

olinishi uchun jami *1 ming 481 ta* ariza kelib tushgan bo‘lib, ularning *543 tasi* tan olingan.[4]

O‘zbekistonda davlat byudjetidan har bir talabaga to‘g‘ri keluvchi xarajat Rossiyaga nisbatan 2 marta, Turkiyaga nisban 3 marta, Malayziyaga nisbatan 7 marta kam. 2000-yildan beri oliy ta’limni moliyalashtirishning umumiy miqdorida davlat g‘aznasidan xarajatlar *60 foizdan 35 foizacha* kamaydi. Davlat xarajatlari kamayishi bilan oliy o‘quv yurtlari ko‘proq ta’lim uchun to‘lovlar hisobiga moliyalashtirishga o‘tmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta’limni xususiy moliyalash darajasi (60 foiz) AQShga nisbatan (57 foiz) va Buyuk Britaniyaga nisbatan (52 foiz) ham yuqori. Aholi daromadlari yuqori bo‘lgan mamlakatlar orasida oliy ta’limni xususiy moliyalash-tirish o‘rtacha 29 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda oliy ta’limni xususiy moliyalashtirish hajmining oshishi nafaqat to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan talabalar soni oshishi bilan, balki ta’lim uchun to‘lovlar miqdorining ko‘payishi bilan ham bog‘liq. [5]

Ta’lim sifati va samaradorigida global tarmoqqa ulanish va jahon ma’lumotlar va yangiliklar bazasidan samamrali foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etadi bu borada XXI asrda raqamli texnologiyalar asri ekanligi inobatga olib, raqamli iqtisodiyot izchil rivojlanishining birinchi va eng muhim omili – zamonaviy AKT-infratuzilmasini yaratish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2020-yil boshidan bugungi kungacha respublika bo‘yicha internet tarmog‘iga keng polosali ulanish portlarining umumiy soni **2,2 mln.ga** yetkazildi, 7,8 ming km. optik tolali aloqa liniyalari qurilib, ularning umumiy uzunligi **44,4 ming km.**dan oshdi. Shundan **7,3 km.** optik tolali aloqa liniyalari 9410 ta ijtimoiy soha obyekt lariga tortilishi natijasida *4 786 ta* maktab, *2 895 ta* maktabgacha ta’lim va *1729 ta* sog‘liqni saqlash muassasasini tezkor internetga ulash imkoniyati yaratildi. Bu o‘z navbatida yosh avlodning zamonaviy bilim olishida ahamiyatlidir.

“Ookla” kompaniyasining Speedtest.net servisi internet tezligi bo‘yicha 2020-yil iyun oyi natijalariga ko‘ra yangi ma’lumotlarni e’lon qildi va ushbu Speedtest

Global Index reytingida O‘zbekiston keskin o‘sishni namoyon etib Internet tezligi bo‘yicha 94-pog‘onani egallab turibdi, bir yil ichida 36 pog‘onaga ko‘tarilish kuzatildi. Umuman, oxirgi yil natijalariga ko‘ra O‘zbekistonda simli internet tezligi **2,5 barobarga** o‘sdi.[6] Ushbu ijobiy o‘zgarishlar har bir ta’lim oluvchi va ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan pedagog kadrlarda global tarmoq imkoniyatlaridan keng foydalanish, o‘z ta’lim sohasi bo‘yicha ulkan axborot va ma’lumotlar bazasiga ulanish va undan samarali foydalanish, ma’lumot almashish va o‘z bilim va malakasini mustahkamlash imkoniyatini yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gömleksiz, Kılınç, (2012). “Küreselleşmenin Eğitim Programları Üzerindeki Etkisine İlişkin Akademisyen Görüşleri: Nitel Bir Çalışma”, Mustafa Kemal Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 9(17), 397-413.
2. Çelik, Gömleksiz, (2000). “A Critical Examination of Globalization and İts Effects on Education”, Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 10(2), 133- 144.
3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni 1-ilovasi
4. Zilola G‘aybullayeva. https://kun.uz/uz/news/2019/09/15/masofaviy-talim-shakli-ozbekistonda-tan-olinmaydi-qoshni-davlatlar-universitetlarida-oqiyotgan-yoshlar-muammolari
5. https://hozir.org/talim-global-muammo-sifatida.html
6. https://mitc.uz/uz/news/2315

ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

TARIXIY ASARLARDA AN’ANAVIY MOTIVLAR

Marg‘uba Abdullayeva
filologiya fanlari doktori
margubaabdullayeva507@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” va Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlaridagi an’anaviy motivlar tahlilga tortilgan. “Motiv” syujetni vujudga keltiradi. Motivlar konkret bir davr ta’sirida vujudga keladi. Bir syujet tarkibida bir necha motivlar bo‘lishi mumkin. Tarixiy asarlarda xabar motivi muhim o‘ringa ega. Shu bilan birga an’anaviy motivlar ham salmoqli o‘rin egallaydi. “To‘rt ulus tarixi”, “Shajarayi turk” asarlaridagi kichik adabiy janrlarda, motiv va tarixiy obrazlarda ham transformasiyani kuzatish mumkin.

Kalit so‘zlar: tarixiy nasr, an’anaviy motiv, “To‘rt ulus tarixi”, “Shajarayi turk”, syujet, tahlil.

Annotation

This article analyzes the traditional motifs in the “History of the Four Nations” by Mirzo Ulugbek and "Shajarai Turk" by Abulgazi Bahodirkhan. “Motive” creates the plot. Motives are formed under the influence of a certain period. The plot can have several motives. The motive of the message plays an important role in historical works. At the same time, traditional motifs also play an important role. Transformation can also be observed in small literary genres, motifs and historical images in the works “History of Four Nations”, “Shajarai Turk”.

Key words: historical prose, traditional motif, "History of four peoples", “Shajarai Turk”, plot, analysis.

Motiv syujet voqealarining tizimli kechishini ta’minlaydi, ayni paytda keskinligini oshirib, voqealar rivojiga zamin yaratadi, hodisa shartini oydinlashtiradi. Natijada qat’iylik, barqarorlikni belgilab, voqelikni bo‘rttiradi. Xuddi shu xususiyat adabiy-tarixiy asarlardagi rivoyatlarda ham uchraydi. Ko‘plab tarixiy asarlarda an’anaviy bayon etib kelingan Odam alayhissalom haqidagi afsona va rivoyatlarda uchlik ana’anasi bilan birga to‘rtlik an’anasining mavjudligini ko‘rish mumkin. Masalan, Chingizxon qo‘shini Xorazmga bostirib kirishdan avval shahzodalar Shayx Najmiddin Kubroga uch marotaba turli kishilar orqali xabar yuboradi. *Birinchi xabarchi:* Shayx oyoq ostida qolmasin, o‘g‘lon ushoqlari bilan qal’adan chiqib kelsinlar, deb. Shayx: Mening qarindoshim va xizmatkorlarim bor

turur. *Ikkinchi xabarchi:* Shahzodalar aytdilarkim, yuz kishi birlan kelsunlar. Shayx aytdilarki, yuzdin koʻp turur. *Uchinchi xabarchi:* Shahzodalar aytdilar, ming kishi birlan kelsunlar. Shayx bu taklifni qabul qilmaydi va jangda shahid boʻladi [“Toʻrt ulus tarixi”, 69-bet)].

Voqea tasvirida bir xil jarayon va holatning toʻrt marta takrorlanishi adabiy-tarixiy asarlardagi rivoyatlarda ham uchraydi. An’anaviy bayon etib kelingan Odam alayhissalom haqidagi afsona va rivoyatlarda uchlik ana’anasi bilan birga toʻrtlik an’anasi ham mavjud. Jumladan, “...dastlab *Jabroil alayhissalomni* yubordiki, Odam alayhissalomning pok tiynatini yasash uchun hozir muazzam Ka’ba imorati bino boʻlgan joydan biroz namroq tuproq keltirishni buyurdi. Jabroil alayhissalom yerga tushgach, bir kaf tuproq olmoqchi boʻldi. Zamin falaklar va malaklarni yaratgan Rabbimga qasamyod qilib, dediki, unga bir kaf ham tuproq bermagay; Keyin bu ishni hazrati *Mekoyil alayhissalom* ado etishi uchun farmon boʻldi. Yer unga ham qasam bilan bir kaf tuproqni olmasligini oʻtindi. U ham qaytib ketdi. Undan keyin Allohi taolo amri bilan *Isrofil alayhissalom* keldi. Zamin uni ham qaytardi. *Toʻrtinchi marotaba* hazrati Zuljalol Tangri taolo oliy karamli *Azroyil alayhissalomni* joʻnatdi. U zamin qasamini qabul qilmay, dedi: “Xudoyi taolo amri sening qasamingdan ustunroqdir.

Soʻng butun yer yuzidan turli nav’ qurugʻ-u hoʻl, oqu qora, qizilu sariq, achchigʻu shoʻr, nordonu shirin erlaridan bir siqimdan oldi” [“Toʻrt ulus tarixi”, 15–16-betlar].

Tarixiy mavzudagi deyarli barcha asarlarda Odam alayhissalom bilan bogʻliq ma’lumotlarda toʻrtlik an’anasi mavjud. Abulgʻozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” [“Shajarayi turk”, 13-bet] asarida ham bu an’ana davom etgan. Demak, xalq ogʻzaki ijodida mavjud rivoyatlarda asosan uchlik an’anasi koʻzga tashlansa, tarixiy asarlarda ham uchlik, ham toʻrtlik an’anasi kuzatiladi.

Ertak motivlarining rivoyatga kirib borishi mazkur janrning shakliy tuzilishi funksiyasiga ta’sir etib, oʻzgarish yuz berishga olib kelgan, xususan undagi tarixiylik xiralashib, axborot funksiyasi, bildirish vazifasi soʻna boshlashi, uning

oʻrnida estetik funksiya paydo boʻlishiga olib kelgan. Bunday holat diffuziyaning “ijtimoiy ong shakllarining rivoji bilan bogʻliq holda, ijtimoiy-badiiy tafakkur talablari, ehtiyoji asosida harakat qilish”ga [Sarimsoqov B. 1981. 99.] aloqador holda yuz bergan.

“Toʻrt ulus tarixi” asarida “Oʻgʻuzxonning oʻz oʻgʻillariga oʻrin belgilagani zikri”da rivoyat janriga ertak elementlari singdirilgan va she’riy parcha bilan tasvirlangan. Rivoyat syujeti qisqa va ixcham tarzda berilgan. “Aytishlaricha, bir kuni Oʻgʻuzxon oʻgʻillari bilan birgalikda shikorga borgan edilar. Shikor paytida har biri bir ov ketidan quvdilar. Nogoh, har olti nafar oʻgʻil bir boʻlib shikorgohda birgalikda bir joyga yetishdilar va bir kamon bilan uch zarrin oʻq topib, oldilar. Otalari huzuriga muhokamaga keltirdilar. Oʻgʻuzxon ulugʻ oʻgʻillariga kamonni va uch kichik oʻgʻliga oʻqlarni berdi. Katta oʻgʻillari kamonni uch qismga boʻlib oldilar. Shuning uchun ham ularni buzuq deb ataydigan boʻldilar. Kichik oʻgʻillarini uch oʻq deyishadigan boʻlishdi. Yoʻlda buzuqilar uch oʻqdan koʻp boʻldilar. Oʻq elchi hukmini, kamon podshoh hukmini keltirardi” [“Toʻrt ulus tarixi”, 53-bet]. Xuddi shu syujet “Shajarayi turk”da ham bor. Unda ham voqea Oʻgʻuzxon tilidan bayon etilgan [qarang: “Shajarayi turk”, 24-bet].

Koʻrinadiki, oʻq va kamon (yoy) ham detal, ham ramz vazifasida kelgan. Ramz (arab. – ishora qilmoq) badiiy adabiyotda – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usulidir [https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Ramz&variant=uz-cyrl]. Ijodkorlar an’anaviy xalq ogʻzaki ijodiyoti va mumtoz adabiyotda keng koʻlamda ishlatilgan ramziy detallardan unumli foydalangan. Bunda u yoki bu predmet tasvir jarayonida muallif maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma’noga ega boʻladi. Yuqori tabaqa vakillari oʻq va yoyni muqaddas bilishgan. Mazkur rivoyatda ana shu an’anaga sodiq holda, Oʻgʻuzxon oʻgʻillariga yurtlarni taqsimlab bergan va ularni ikki jamoatga ajratgan, ya’ni buzuqlar va uch oʻqlarga. E’tiborli tomoni shundaki, Mirzo Ulugʻbek har bir voqeani nasriy va nazmiy usulda tasvirlab berishga harakat qilgan. Rivoyatdagi voqea kichik she’r orqali tasvirlangan.

“Shajarayi turk”da “O‘g‘uzxonning Eron va Shom va Misr sari yurganining zikri”da rivoyat janriga ertak janrining ma’lum elementlari singib, diffuziyani yuzaga chiqargan. Mazkur rivoyatda uchlik an’anasining borligi, *“oltin yoy va uch o‘q”* bilan bog‘liq voqea ertak va dostonlardagi detallarni eslatadi. Ma’lumki, podshohlar, buyuk sarkarda va alplar uchun o‘q va yoy davlat ramzi sifatida qaralgan. Bu an’ana tarixiy rivoyat janriga singib, qadimiy motivlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Bunda ma’lum bir janrlarning tarkibiy qismlari birlashib sintetizm hodisasini yuzaga keltirgan. Janrlarning tarkibiy qismlari – motiv, detal va ramzlarning rivoyat janriga ko‘chishi qadimiy adabiy-badiiy tafakkur qarashlarining bizgacha saqlanib qolishiga asos bo‘lgan.

Muallif tomonidan O‘g‘uzxonning ideal shaxs sifatida tasvirlanishi, xalqimizga xos qadimiy an’analarga rioya etishi bilan bog‘liq voqealar tasvirida oydinlashtirib beriladi. Asardagi rivoyatni to‘liq keltirib o‘tamiz: “O‘g‘uzxon Shom viloyatinda turg‘anda pinhoniy bir navkarning qo‘lina bir oltin yoy va uch o‘qni berdi. Taqi aytdi: “Yoyni kun tug‘ishda bir cho‘lda kishi oyog‘i etmas yerda, turfoqg‘a ko‘mub, bir uchini chiqarib qo‘yg‘il va o‘qlarni kun botish tarafiga yoyni nechuk qo‘ysang, ani shundag‘ qo‘yg‘il”, tedi. Ul kishi yorliqqa amal qilib keldi. Bu voqeadan bir yil o‘tkandan so‘ng, uch ulug‘ o‘g‘li Kun, Oy va Yulduzni chorlab tedi, yot yurtg‘a kelibman. Ishim ko‘p. Ov ovlamog‘qa qo‘lum yetishmay turur. Kun tug‘ish tarafinda falon cho‘lning ovi ko‘b ermish deb eshitdim. O‘z navkarlaringiz birlan anda borib o‘tov so‘qub kelinglar, tedi. Andin so‘ng uch kichik o‘g‘li Ko‘k va Tog‘ va Tengiz. Bu uchini chorlab aqalarina aytg‘an so‘zlarni aytib, kun botish tarafg‘a yubordi. Bir necha kundin so‘ng. Uch ulug‘ o‘g‘lonlari bir oltun yoy birlan ko‘p ovni xon oldig‘a kelturdilar. Uch kichik o‘g‘lonlar taqi oltun o‘q birlan ko‘p ovni kelturdilar. Ul ovning etlarina ko‘p etlar va turluk oshlarni qo‘shub, xalqni chaqirib, yoyni va o‘qni topilg‘anini irim qilib, o‘zlarig‘a qayta berdi. Us ulug‘ o‘g‘li yoyni sindurub olishdilar, uch kichik o‘g‘li har qaysisi bir o‘qni oldilar. Olg‘an viloyatlarda ko‘p yillar turub, dushmanlarini yo‘q qilib, do‘stlarni siylab, boshi

Saryom va oyoqi Misrg‘acha olg‘an viloyatlarining barchasina hokimlar qo‘yub qaytib o‘z yurtina tushdi” [“Shajarayi turk”, 23-bet].

Rivoyatda ertaklarga xos xususiyatlar, yashirgan narsalarni izlab topish va topgandan keyin mukofotga sazovor bo‘lishi diffuziya jarayonini yuzaga keltirgan. Rivoyatdagi ota va o‘g‘il munosabatlari, aka-ukalar o‘rtasidagi ittifoqlik xalqimizning umummadaniy an’analari orqali yoritib beriladi. Rivoyat yakunida epik qahramon maqsadiga yetadi. Mazkur tipdagi tarixiy shaxslar ideal qahramon sifatida talqin etilgan. Hikoya tarixiy shaxs, muayyan voqea, hodisalarni u yashagan davr sharoitida aks ettirgan. Shu sababli ham ikki asardagi bir xil syujetga ega rivoyat tasvir va bayon uslubi nuqtai nazaridan, muallif yashagan davrning ehtiyojidan kelib chiqib, o‘ziga xoslik kasb etgan. Bu esa rivoyatni haqiqat deb baholashga imkon yaratgan. “To‘rt ulus tarixi”, “Shajarayi turk” asarlarida keltirilgan O‘g‘uzxon, Chingizxon, Jo‘chixon, Chig‘atoyxon, Sulton Jaloliddin zikrlarida ayni shu jihatlar kuzatiladi.

“To‘rt ulus tarixi”da “Sohibqironi a’zam Chingizxoni muazzam xotin-u farzandlari bayoni zikri”da hikoyat berib o‘tilgan. Hikoyatda o‘q ma’lum detal vazifasini o‘tagan. “Chunonchi Sohibqironi a’zam Chingizxoni muazzam bir kuni o‘g‘illari va xeshlarini jamladi. Tarkashidan bir o‘q chiqarib, uni sindirdi. Yana ikki o‘qni olib, uni ham sindirdi. So‘ng bittadan o‘q olaverib, bir qanchasini to‘pladi. Qancha urinmasin ularni sindirolmadi. Ularni hozir bo‘lgan kishilarga berdi. Hech kim ularni sindirolmadi. Shu kundan boshlab zo‘ravonlar ojiz qoldilar. Keyin o‘g‘illari va xeshlariga qarab, dedi: “Bu o‘qlar misli sizlarning har biringiz. Agar sizlar ham ittifoq, bir-biringizga suyanchiq bo‘lsangiz, hech kimning qo‘li sizlardan ustun bo‘la olmaydi va yenga olmaydi”. Yana sizlardan biringizni podshohlikka tayinlamoqchiman. Unga hammangiz yakdillik, birso‘zlik, yakjihatlik bilan farmonbardor va tobe’lik ko‘rsatmog‘ingiz lozim. Toki orangizda dushmanlik yo‘l topmagay, dushmanlar ustingizdan zafar topa olmagay. Kim podshohingiz bo‘lishiga kelganda, har biringiz bo‘la olasiz. Haqiqat yuzasidan barcha farzandlar va xeshlar molu mulkiga sherik bo‘lmaydi” [“To‘rt ulus tarixi”, 111-bet].

Hikoyatda *“bir o‘q”* – ojizlik timsoli, *“ko‘p o‘q”* – birdamlik, yakdillik, yengib bo‘lmas kuch timsoli sifatida talqin etilgan. Tarixiy nasrda mavjud rivoyat va hikoyatlardagi an’anaviy detallar turli funksiyalarni bajarishga xizmat qilgan. Buni yuqoridagi tahlillar ham ko‘rsatib turibdi. Hikoyat yakunidagi xulosa Chingizxonning dono va odil podshoh sifatidagi o‘z farzandlari va yaqinlariga qilgan ibratomuz nasihatlarini ifodalab bergan. Tarixiy-nasriy asarlarda keltirilgan hikoyatlarning janr tabiatiga xos belgilaridan biri didaktik xarakterga ega ekanligidir. Chunki tarixiy voqelik tasvirida o‘rni-o‘rni bilan tarbiyaviy-ta’limiy ahamiyatga molik hikoyatlarning epik qahramon tilidan bayon etilishi, o‘quvchida o‘sha tarixiy shaxsga bo‘lgan ishonch va e’tiqodni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Tarixiy rivoyatlar muayyan janglar, ov mashg‘ulotlari, esda qolarli shaxslar atrofida yuzaga kelgan. Hikoya qilingan tarixiy haqiqat an’anaviy motivlar, hayotiy to‘qima qobig‘ida, turli badiiy tasvir vositasida tasvirlangan. Tarixiy rivoyatlar hayotiyligi, hikoya qilinayotgan voqealarning aniq zamon va makonda yuz berishi bilan ajralib turadi. Tarixiy shaxslar bevosita o‘zi yashagan ijtimoiy muhit, real tarixiy sharoitda tasvirlanadi. Tarixiy nasrda keltirilgan tarixiy rivoyatlar an’anaviy motivlar, tarixiy shaxs, geografik joylar, voqealar bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Biri ikkinchisini inkor etmaydi. Bu xil motivlarni qo‘llash shaxsga munosabatdan kelib chiqqan (masalan, O‘g‘uzxon, Chingizxon, Jo‘chixon haqidagi rivoyatlar).

A.N.Veselovskiy fikricha, “insoniyatning dastlabki rivojlanish davrida maishiy, psixologik sharoitlarning o‘xshashligi ularning har birida mustaqil va bir-biriga o‘xshash syujet va motivlarni yuzaga keltirgan. O‘xshashlik haqidagi fikr motivlarning yadro syujetga tutashishiga oid muayyan nazariy xulosani ishlab chiqishga imkon beradi. Motivlar tizimining o‘sishi va o‘zgarishi oqibatida syujetning vujudga kelishiga ko‘ra tadqiqotlar asosan motivlarni tekshirish, kuzatish, tasniflash yo‘nalishida olib borilgan. [Veselovskiy A.N. 1989. 141] Tarixiy asarlarda ham xuddi shunday bir-biriga o‘xshash motivlar mavjud. Motivlarning asosi saqlangan holda muallifning o‘z davri adabiy-estetik talablariga moslashtirilgan.

Tarixiy asarlarda aks etgan milliy xususiyatlar hisobga olingandagina tahlil to‘laqonli chiqishi mumkin. Har qanday estetik hodisa muayyan milliy zaminda paydo bo‘lganligi uchun ham uni tushuntirish va tadqiq etishda o‘sha zaminga xos xususiyatlar hisobga olinishi lozim. Tarixiy nasr namunalarida keltirilgan “zikr” axborotlarida adabiy janrlarga xos an’anaviy motivlar muhim o‘rin egallaydi. Bu motivlar asosan, muallif yashagan ijtimoiy muhit va o‘sha davr odamlari o‘rtasidagi milliy munosabatlar va urf-odatlar bilan qorishib, asarning adabiy-estetik xususiyatlarini boyitishga xizmat qilgan. Shunday motivlardan ba’zilarini tahlilga tortamiz.

To‘y motivi: epik an’ana va o‘ziga xoslik

Taniqli rus folklorshunosi B.N.Putilov motiv masalasi tadqiqi ustida to‘xtalib, uni adabiy asar syujetini shakllantiruvchi muhim element ekanligini aniqlagan edi [Putilov B.N. 1975. 149]. A.N.Veselovskiyning ta’kidicha, motivlar kombinasiyasi syujetni yuzaga keltiradi. Har bir motiv ma’lum bir davrning mahsuli. Syujet esa ana shu motivlarning umumlashmasidir. Har qanday motiv asarda ma’lum adabiy-estetik vazifani bajaradi. Tarixiy shaxsni to‘laqonli tasvirlashda muhim o‘rin tutadi. “To‘rt ulus tarixi” asari xalqimizning uzoq o‘tmishidan tortib milliy an’analar – turli rasm-rusum va to‘y tasvirini ham o‘zida ifoda etgan. Asarda to‘y motivi Qoraxon bilan bog‘liq voqealarda berib o‘tilgan. Yoki “Qo‘yluxon ibn Tuminaxon...zikri”da Xitoy xoni Oltinxon to‘y qilib, Qo‘yluxonga sharob ichirgani tasvirlanadi. Bu lavhalarda to‘y uyushtirishni kichik bir ziyofat ma’nosida tushunish mumkin. Lekin asarda keng miqyosida an’anaviy motivlar bilan tasvirlangan to‘y lavhalari ham mavjud. Jumladan, “O‘g‘uzxonning podshohligining zikri”da uning Chin, Xitoy, Turkiston va Saqlab mamlakatlarini egallab, g‘alabasi sharafiga katta to‘y qilgani tasvirlangan. Bir xirgohni javohirlar bilan bezatib, xisravona bazm va podshohona to‘y qilgan. To‘yda buzurglar, amirlarga, raiyat va sipoh, elu ulusga katta in’omlar va ziyofatlar beradi. To‘yning qanday bo‘lib o‘tganini muallif nazm (she’r) orqali badiiy vositalar orqali tasvirlaydi. Mirzo Ulug‘bekning ta’kidlashicha, sultonlar sulolasini O‘g‘uzxon boshlab bergan. An’anaga ko‘ra, to‘y tadorigi ko‘riladi. Shu

bois epik qahramon O‘g‘uzxon oltin xirgoh qurishni va uni javohirlar bilan bezatishni buyurdi. “Elu ulusga suvulg‘olar tayin qildi. Zarrin nog‘aralar chaldirdi. Ota Mahsharu ona jannat bo‘ldi. Bu to‘yda Chinu chigil qavmlari hurzodlari g‘ulomlardek jonu dildan xizmat qildi. Lashkarlarga oltin, may jomi berib, oshufta dillarga orom bag‘ishlagan”i yuksak badiiy mahorat bilan she’rda tarannum etiladi.

Tarixiy asarlarda tarixiy shaxslar bilan bog‘liq to‘y tasvirlari asosan nazm orqali ifodalangan. Bu o‘ziga xos an’anani belgilaydi. Chingizxonning Qoraxitoy Gurgoni (podshohi)ga qiz berib to‘y qilgani muallif tomonidan quyidagicha tasvirlangan: “Qirq kun karnay-surnay bilan to‘y qildilar. Uzoq-yaqindan xalqlar kelardi. To‘rt ulkan o‘choq qazishdi. To‘rt tavila (otxona) qo‘y so‘yishdi. O‘sha atrofdan kim o‘tayotgan bo‘lsa, Chingiz ziyofatidan baxramand bo‘ldi. Xalqqa turli mol berishdi va tanga sochishdi. Toki ikki shahzoda nikohini o‘qiganlaricha” [“To‘rt ulus tarixi”, 107-bet]. Xalq dostonlarida uchraydigan karnay-surnaylar ostida qirq kechayu qirq kunduz to‘y qilish motivi mazkur rivoyatda o‘z aksini topgan. Asarning keyingi boblarida to‘y tasviri deyarli uchramaydi. Faqat podshohlar, xonlar va shahzodalarning g‘alabalari sharafiga katta ziyofatlar uyushtirilgani haqidagi kichik qaydlar berilgan. To‘y motivi millatning etnografik tarixi, urf-odatlari, yashash tarzini ham o‘zida ifoda etadi. Unda bajarilgan rasm-rusum, urf-odatlar tasviridagi badiiy bo‘yoqdor so‘zlar asar tilini sayqallaydi. Asardagi ma’lum voqea yechimi va debochasi vazifasini ham o‘taydi. Obrazlarni birlashtiradi.

“Shajarayi turk” asarida to‘y tasviri an’anaviy usulda katta pafos bilan ifoda etilgan. “O‘g‘uzxonning dunyog‘a kelganining zikri”da Qoraxon o‘g‘lining bir yoshga to‘lganida katta to‘y qilgani tasvirlangan. To‘y bolaga nom qo‘yish uchun tashkil etilgan. Mo‘g‘ullar odatiga ko‘ra, bola bir yoshga kirmaguncha unga nom qo‘yilmagan. To‘y kuni Qoraxon o‘g‘li bir yoshga etganini aytib, beklaridan unga qanday nom qo‘yish kerakligini so‘raydi. Beklar javob bermasidan bir yashar o‘g‘lon tilga kirib, “mening otim O‘g‘uzdir”, dedi. Barcha to‘planganlar tang bo‘lib qoldilar [qarang: “Shajarayi turk”, 18-bet].

Abulg‘ozi “O‘g‘uzxonning yurtina kelib to‘y qilganining zikri”da O‘g‘uzxonning jang safaridan eson-omon qaytib kelgani uchun ulug‘ to‘y qilganini tavirlaydi. O‘g‘uzxon bir xirgoh yasattirdi. Barcha yog‘ochlarning toshiga oltin qoplatdi. La’l va yoqut, zumrad va feruza, dur bilan bezatdi. Bu ev (uy)ning vasfiga bayt bitib tururlar:

Bayt:

Bir ev tikdi oltindin bir shahriyor,

Kim ul ev falak evidin qildi or [“Shajarayi turk”, 24-bet].

O‘g‘uzxon to‘yda to‘qquz yuz yilqi, to‘qquz yuz qo‘y so‘ydirdi. To‘qson to‘qquz havz qurdurib, to‘qquziga araq, to‘qsoniga qimiz to‘ldurdi. Barcha navkarlarini chaqirib kelturdi. Ul olti o‘g‘liga nasihatlar aytib, biliklar o‘rgatib, yurtlar, shaharlar va in’omlar berdi. Bu baytlarni aning vasfinda aytib tururlar:

Bayt:

O‘g‘uz qildi ul to‘yda jirg‘amishi,

Bu olti o‘g‘ulni suyurg‘omishi.

Bular ko‘rsatib erdi mardonaliq,

Ota birlan ko‘p turli farzonaliq.

Otag‘a base qildilar yorliq,

Urush kunida barchasi borliq [“Shajarayi turk”, 24-bet].

Xullas, O‘g‘uzxon barcha navkarlarining otqan va chobqan va qilg‘an xizmatlarig‘a loyiq shahrlar va sarhadlar va kendlar va in’omlar berdi. Demak, bu o‘rinda to‘y motivi qahramon sifatlarining ochilishi, elga ma’lum va mashhur bo‘lishi yo‘lida debocha vazifasini bajargan. Xalqni hayron qoldirishga, kelajakdagi buyuk ishlarning boshlanishiga ishora qilgan. “O‘g‘uzxon to‘yda to‘qquz yuz yilqi, to‘qquz yuz qo‘y so‘ydirdi. To‘qson to‘qquz havz qurdurib, to‘qquziga araq, to‘qsoniga qimiz to‘ldirgani” tasvirlari xalq og‘zaki ijodida dostonlarda uchraydigan mubolag‘ali tasvirlarni eslatadi. Mazkur to‘y tasvirida ham “To‘rt ulus tarixi”dagi singari she’riy baytlar muhim o‘rin tutadi. Nasr va nazmning ketma-ket holatda qo‘llanilishi o‘quvchini zeriktirmaslik, aksincha qiziqtirish uchun asos bo‘lgan.

To‘y motivlarida xalq og‘zaki ijodi elementlari, doston, ertak va she’riy janrlarning uyg‘un-aralash holda ishlatilgan. Bu esa janrlararo diffuziyaning yana bir xususiyatini namoyon etgan. Bundan tashqari “Shajarayi turk”da Alanquvo bilan Do‘bunbayonning to‘yi, Elbarsxonning yurtiga kelib, to‘y qilgani haqida aytib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон. 1990. – 192 б.
2. Веселовский А.Н. Поэтика сюжетов. // Историческая поэтика. – М.: 1989. – С. 141.
3. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон. 1993. – 352 б.
4. Путилов Б.Н. Мотив как сюжетообразующие элемент// Типологические исследования по фольклору. –М.:1975. – С. 149.
5. Рамз ҳақида. https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Ramz&variant=uz-cyrl
6. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Т.: 1981. – Б. 99.

SHOMON MAROSIMI MORFOLOGIYASIGA DOIR MULOHAZALAR

Olim Qayumov
ToshDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotation

This article discusses the features of the shamanistic initiation ritual in Uzbek ritual folklore, shamanistic rites and its verbal properties. The ethno-folkloristic aspect was studied as a separate form of the tradition of dedication of Uzbek shamans “Surpa Yangilash”. Based on new field materials, the types of initiation ceremonies, shamanic patrons of Uzbek shamans are investigated.

Comments are made about the morphological nature of the rite, its verbal aspects, as well as its role in the gradual development of artistic thinking.

Key words: rite, shaman, ectaz, Surpa, patron of the shaman.

Shomon marosimlari o‘zining mazmun mohiyati bilan badiiy tafakkurning betakror in’ikosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiy qavmlarning shomoniylik e’tiqodi rus olimlari tomonidan o‘rganilgan [Chistov K.V. 1975; Zaliznyak A.A., Ivanov Vyach. Vs., Toporov V.N. 1962; Bogatirev P.G. 1971.; Gracheva G.N.1983: Gemuyev I.N., Sagalayev A.M. 1986;] Meletinskiy E.M·1970; Meletinskiy Ye.M .1972; Smolyak A.V. 1976; Tokarev S.A. 1959;).Tokarev S.A. 1964; Toporov V.N. 1987.] P.G.Bogatirov tadqiqotida Sibir shomonlari marosim jarayonini “bir kishilik teatr” deb atagan [Bogatirev P.G/.1971s.192.] bo‘lsa, Sibir shomonlari marosimi folklorining taniqli tadqiqotchisi e.S. Novik shomon marosimi

koinotning drammatik tarifi sifatida”[Novik E.S.1973.s.2025.] nomli maqolasini e’lon qilgandi. Maqolada tadqiqotchi marosimga semiotik yodashib, marosimni etnografiya va e’tiqodni bog‘lovchi matn degan xulosaga keladi.

Haqiqatan ham, shomon marosimlarida so‘z san’ati bilan bir qatorda raqs, harakat, ishora, musiqa, rasm va haykalchalar, marosim taomlari, shomon marosimi uchun zarur predmetlardan foydalananiladi. Elshunoslar tomonidan shomon marosimlari jarayoni va detallari atroflicha o‘rganilgan. Ilohlar bilan ruhiy bog‘lanishga qaratilgan bunday marosimlarning ta’sirida xalq dramasi shakllangan bo‘lishi mumkin. Shomon marosimlari dramatik asarni maydonga kelishiga asos bo‘lgan degan fikrni Ye.S.Novik olg‘a suradi. Olimaning fikriga tayangan holda masalaga yondoshadigan bo‘lsak, o‘zga olam vakillarining g‘ayri tabiiy ko‘magi ular tomonidan tanlangan kishilargagina tegadi. Demak, san’at sohasidagi iqtidorli noyob iste’dod egalari g‘ayb olami vakillari tomonidan tanlangan va ularning madadidan foylanishi borasidagi xalq qarashlari, so‘z san’ati, musiqa san’ati raqs va boshqa san’atning ko‘pgina turlari ajdodlarimizning shomoniy qarashlari, ruhlar va g‘ayb olami vakillari to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlari natijasida maydonga kelgan degan xulosaga kelamiz. Musiqa san’ati bilan shug‘ullanadigan aksariyat san’at ustalari bilan yaqindan tanishsangiz ularning “orqasi bor”ligini sezish qiyin emas. Buryat xalqida qo‘shiq ruhi *duun* ko‘kdan yerga tushib odamlarni qo‘shiq kuylashga majburlaydi. Odamlar qo‘shiqni shu qadar berilib kuylarkanki, oqibatda shomonning trans holatiga tusharkan.[Bolxosev S.B.2005. S.196.] Homiy ruhlarning madadi bilan ular boshqalar ijro qilaolmaydigan avj nuqtada ashula ijro etadilar yoki boshqalar eplay olmaydigan tezlik va chaqqonlikda raqs harakatlarini bajaradilar. Umuman, ijodiyot, xayolot, betakror tasvirlar yaratish muayyan san’at turiga kiradi. Uning ibtidosi shomoniylik e’tiqodi bilan bog‘liqligini inobatga olsak, shomon folklorini o‘rganish ma’naviyatimiz mohiyati va tafakkurimiz taraqqiyoti uchun nechog‘li muhim ahamiyat kasb etishini anglaymiz.

O‘zbek xalqida har bir kasb-hunarning piri bor degan qarash mavjud. Masalan, Hazrati Dovud alayhissalom temirchilarning piri, Hazrati Nuh

alayhissalom duradgorlarning piri, Hazrati Yosuf asalarichilarning piri sanaladi. Demak, kasbni egallashda piriga atab qurbonlik berish, pirini yod etish an’anasi Shomoniylikka xosdir. Qozoqlarda Korkut ota hofizlar va shomonlar piri sanalishi V.N.Basilov tomonidan qayd etilgan edi.[Basilov V.N.1970S.41] Shomon o‘z pirlari ruhidan madad oladi. Pirlar ruhi vositasida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Shomon marosimini bir butunlikda o‘rganadigan bo‘lsak, shomonning ruhlar olamiga ramziy sayohat qilishining guvohi bo‘lamiz. Shomonning raqsga tushushi, kuylashi, g‘alati harakatlar qilishi, yiqilib qolishi va yana joyidan turishi, ekstaz holatda ruhlar bilan gaplashishi, marosim ishtirokchilarining shomon bilan bir xil muhitda uni kuzatishi haqiqiy teatr sahnasini eslatadi. Qizig‘i shundaki, teatr tomoshosida aktyor voqelikning kechinmalari qorishig‘ida bo‘lishi mumkin, ammo tomoshobinlarning hammasi ham bunday kechinmani boshidan kechirgandek samimiy qabul qilmaydi. Shomon marosimlari ishtirokchilarining barchasi ruhan shomonga ergashadi.

2006-yilda Jang‘il bahshi Axmedova xonadonida “Momo osho” marosimini kuzatganimizda ishtirokchilar marosim boshida xonaning yuqorisiga qarab “Assalomu alaykum, xush kelibsiz” deb takrorlashdi. Keyin shomon doirasini chalib hasbu holini bayon qildi. Kutilmaganda doiraning ritmi tezlashdi va yig‘ilgan ayollar birdan o‘rinlaridan turib, jazavaga tusha boshladilar. Kimlardir yig‘ladi, kimlardir o‘zi sezmagan holda g‘alati qiliqlar qilib raqsga tushdi.Qizig‘i shundaki, shomonlar xona o‘rtasida yozilgan dasturxon ustida raqs tushardi, ammo raqs tugaganda dasturxondagi nozu ne’matlarga ziyon etmagan, hatto biror piyola joyidan siljimagan edi. Bu holat shomonlarning retual jarayonida uchish – parvoz qilishini anglatadi. Shomonlar raqsi bu zikrdir. Zikr payti ularning oyoqlari yerdan uziladi. Men eshikdan tashqarida, dahlizda, video kamera bilan tasvirga olayotgan edim. Bahshi va ishtirokchilarning ekstaz holatiga kirish oldidan kamera tablosida “Omin” degan yozuv paydo bo‘ldi va kamera tasvirga olishdan to‘xtadi. Mazkur marosim jarayonida ishtirokchilar ruhan Shomonga itoat qilishlari, o‘zlarini

bilmasdan turli harakatlarni bajarishlari g‘ayb olami vakillarining ta’siri deb baholanmog‘i maqsadga muvofiqdir.

Marosim o‘tkazish uchun tayyorgarlik, maxsus taomlar(shirgurunch, halvoyitar, bo‘g‘irsoq, kosada qurbonlik qilingan qo‘yning qoni, suv, non, shirinliklar)ning dasturxonga qo‘yilishi, lukcha chiroqlarning yoqilishi xuddi teatr sahnasidagi bezaklarni eslatadi. Folklorshunos Ye.S.Novik shomon marosimining ayni shu jihatlarini hisobga olib, uni xalq teatrining paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan marosim sifatida baholagan. Shomon marosimlarida teatrga xos barcha komponentlar (ssenariya, sahna, sahna bezaklari, aktyor-shomon va bemor, tomoshobin) mavjud. Marosim jarayonida qo‘shiq kuylanadi, musiqa-doira chalinadi, bahshining raqsga tushish hollari ham mavjudki, bu holatni marosimning ilohiy mohiyatini inobatga olmasdan tashqaridan kuzatganda tom ma’nodagi xalq teratri deyish mumkin.

Shomon har bir marosim jarayonida ruhlar olamiga sayohat qiladi. Ular bilan muloqotga kirishadi. Ulardan qaysidir mushkul yumushni bajarishda madad so‘raydi va foydalanadi. Bizningcha, qadimgi odamlarning shomoniy qarashlari ta’sirida xalq og‘zaki badiiy ijodiyotida sehrli ertaklar syujetida mifologik obrazlarning o‘rinlashuvi va qahramonning safarga chiqish, og‘ir dardga chalingan malikaga sog‘lom bo‘lishi uchun ilohiy qudratga ega sehrli predmetni olib kelish motivlari shakllangan. Sehrli ertaklarning tarixiy o‘zagini o‘rgangan olim V.Ya.Propp ham mifologik tasavvurlar sehrli ertaklar tadrijiy takomilida muhim o‘rin tutishini qayd etgan edi [Propp V.Ya. 1946.S.14.]

Ma’lumki, marosim o‘zining verbal jihati bilan folklorshunoslikning o‘rganilish obyekti sanaladi. Marosim jarayonida ijro etiladigan aytimlar harakatlar, predmetlar va musiqa uyg‘unligida marosimning mazmunini ifodalovchi ramziy hodisa bo‘lsa, marosim aytimlari ijro o‘rni, ijro uslubi va badiiy xossalariga ko‘ra og‘zaki badiiy ijodiyotning muayyan janriga mansub bo‘ladi. Marosim verbal va noverbal komponentlardan tashkil topadi. Har qanday marosimda so‘z ishtirok etadi. Shomon marosimlari ruhlarni chorlash, ruhlar vositasida bemorni davolash,

yo‘qolgan predmet, biror kishining kelajak taqdiri haqidagi ma’lumotlarni bashorat qilish, muayyan obyektni yovuz ruhlardan tozalash kabilarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

“Momo oshi” marosimi Shomonning qo‘l olish yoki qo‘lni yangilash munosabati bilan o‘tkaziladi. Ba’zi joylarda “Surpa yangilash” ham deb yuritiladi.

Samarqand viloyati, Nurobod tumani, Sevrni qishlog‘ida istiqomat qiluvchi 70 yoshli Oydin momodan 2006-yilda biz tomonimizdan yozib olingan marosim tahliliga e’tiborni qaratsak.

Surpa yangilash bahshining qo‘lini yangilashi munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimdir. E’tiqodga binoan, marosimga atab so‘yilgan molning qoni yerga to‘kilmasligi lozim. So‘yilgan molning o‘ng tomoni pishiriladi. Taomiga achchiq mahsulotlar (piyoz qalampir, sarimsoq piyoz) solinmaydi. Qo‘l oluvchi kishiga so‘yilgan molning kallasi, jag‘i, tili, o‘ng oyog‘i beriladi.

Momolarni chaqirishda quyidagi aytim aytiladi:

Kuldan bo‘lsang, suvdan bo‘lsang,
Sulaymondan kirib chiq.
Arvoh bo‘lsang go‘rga bor,
Simyon bo‘lsang suvga bor
Momo bo‘lsang bizga kel, –

deb chiroq yoqiladi. (Yoqiladigan chiroqlar ikki xil bo‘ladi. “Poy chiroq” momolarning chirog‘i, “eshma chiroq” esa, turli joylarga yoqiladigan chiroqdir. Masalan, kulga, qon to‘kilgan joyga va hakozo.) Poy chiroq yoqilib surpa ustiga qo‘yiladi. Bahshi qushnochlarni surpa atrofiga davra qurib o‘tirishlarini buyuradi. Qushnochlar surpa atrofida o‘tirishgach, yig‘ilganlarning barchasi eshik tepasiga qarab salom berishdi. Marosim tugagach, aniqlanishicha bahshining chorlovni boshlashi bilan momolar-ruhlar kirib kelishar ekanlar. Parilar va ruhlarning tashrifini faqat qushnoch ayollargina ko‘ra olarkan. Qushnoch momolarning surpa atrofida yig‘ilishganda parilar doira o‘ynatishar ekanlar. Shunda ba’zi qushnochlar ko‘taraolmay yiqilib qolarkan. Qushnochlarning ma’lumot berishicha, momolar va parilar dahl qilgan kishilargina qushnoch yoki bahshilikni qo‘l olar ekan. Parilarning

dohil bo‘lishi ba’zan tushda, ba’zan yolg‘iz qolganda sodir bo‘ladi. Parilar doxil qilgan kishi turli og‘ir kasallikka duchor bo‘ladi. Har qanday tabib bunday kasal kishining dardiga davo topolmaydi. Bu kasallikdan faqat qo‘l olgach qutiladi. Qo‘l olishda bemor qonlanadi. Bahshi:

Izxo‘rlarga iz qo‘ydi,
Moyxo‘rlarga moy bersin.
Manzilingni aytayin,
Borar joying aytayin.
Makoningni aytayin,
Qonsiragan qassobga bor,
Bozordagi baqqolga bor, –

deb qo‘l oluvchining badaniga qon surtadi. Bemorni qonlash jarayonida bahshi yovuz ruhlarni haydashda davom etadi:

Changib qolgan cho‘lga bor,
Qurib qolgan ko‘lga bor.
Yetti oylik oyga bor,
Olti oylik joyga bor.

Shundan so‘ng momolar surpani aylana boshlaydilar. Surpa aylanishda dastlab yetti, ikkinchi martasida besh, uchinchi davrasida uch marta aylanadi. Bahshi qo‘lida doirasi bilan momolarga qarab quyidagi aytimni ijro etadi:

Sariqiz momo sardorim,
Eshigingga qul bo‘ldim.
Tuzligingga tuz momo,
Botim-botim joylarga,
Botmonlatib oldim men.
Moyib bo‘lgan joylarga,
Qonlar berib oldim men.
Zulm bermang o‘zimga,
Kasr qilmang ko‘zimga.
Yo, Sariqiz momo sardorim,
O‘zing madad bergin.
Man sig‘indim Sariqiz momomga
Olloh yordam bersin bandamga, –

deb marosimni tugatadi. Bahshi fotihasidan keyin marosim yakunlandi.

So‘yilgan mol go‘shtining suyagi mevali daraxtga yoki kul tepaga, o‘ng tomoni mevali darxtga, chap tomoni kulga qo‘yiladi.

Shomonlar tasavvuricha, marosim boshlanayotgan vaqtdayoq ularni turli ruhlar qurshab olgan bo‘ladi. Shuning uchun shomon:

Kuldan bo‘lsang, suvdan bo‘lsang,
Sulaymondan kirib chiq.
Arvoh bo‘lsang go‘rga bor,
Simyon bo‘lsang suvga bor
Momo bo‘lsang bizga kel.

Mazkur matnda ruhlarni chorlash asnosida Arvoh, Simyon singari yovuzlik kasb etuvchi ruhlar haydaladi. Bahshi o‘ziga homiylik qiluvchi momolarnigina chorlaydi. Yovuz ruhlarni haydash jarayonida Shomon ularga yo‘l ko‘rsatadi:

Changib qolgan cho‘lga bor,
Qurib qolgan ko‘lga bor.
Yetti oylik oyga bor,
Olti oylik joyga bor.

Shomoniy tasavvurlarga ko‘ra yovuz ruhlar tashlandiq joylarda (quriyotgan ko‘l, kimsasiz cho‘l, to‘qayzor singari) istiqomat qiladilar [Qayumov O.1999.B.89.] Shuningdek, Shomonning yovuz ruhlarni yetti oylik oyga, olti oylik joyga zamin olamidan olisdagi mifologik makonga yo‘llashi kuzatiladi.

Xullas, shomon marosimi morfologiyasiga doir qarashlarimizni quyidagicha umumlashtiramiz:

1. “Surpa yangilash” marosimi shomon tamonidan Shomon kasalligiga chalingan bemorni davolash va shomonlikni zimmasiga yuklash maqsadida amalga oshiriladigan magik marosim;

2. Marosimda faqat shomoniylik e’tiqodidagi ayollar ishtirok etishadi;

3. “Surpa yangilash” marosimini o‘tkazish uchun albatta qurbonlik qilish talab etiladi va qurbonlik qilingan jonivor qoni bilan qo‘l oluvchi – bemor qonlanadi;

4. “Surpa yangilash” marosimini o‘tkazuvchi va shomon aytimlari ijrochisi tajribali shomon hisoblanadi;

5. “Surpa yangilash” marosimi o‘tkaziladigan joy surpa atrofidir;

6. “Surpa yangilash” marosimida magik mohiyatga ega deb tasavvur qilinadigan chiroq, surpa, qurbonlik qilingan jonivor go‘shtidan achchiq maxsulotlarni qo‘shmasdan taom tayyorlanadi.

Marosimning strukturasi quyidagi komponentlardan tashkil topgan:

1. Ruhlarni rozi qilish uchun qurbonlik qilish;

2. Shomonga murojaat qilgan bemorni qonlash va ruhlar bilan yuzlashishga tayyorlash jarayoni;

3. Mifologik homiylarni chorlash;

4. Shomon kasalligiga chalingan bemor tanasidan yovuz ruhlarni haydash;

5. Yangi shomonga qo‘l berish.

Yuqorida sanab o‘tilgan marosim komponentlari bir butunlikda shomon marosimini tashkil etadi. Marosim jarayonida esa shomon chorlovlari, ko‘ch-ko‘ch, ruhlarga murojaat mazmunidagi shomon iltijosi ijro etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Басилов В.Н. Культ святых в исламе. Москва, Изд “Мысл”, 1970. – С. 41.{ Basilov V.N. 1970.The cult of saints in Islam. Moscow, “Thought” Publishing House, – P. 41.}
2. Болхосев С.Б. Дух песня //Материалы IV конгресс этнографов и антропологов России. Санкт-Петербург, 2005. –с. 196. { Bolkhosev S.B. 2005.The spirit of the song // Proceedings of the IV Congress of Ethnographers and Anthropologists of Russia. St. Petersburg, – s. 196}
3. Богатырев П.Г. Вопросы теории народного искусства. М., 1971, с.393.{ Bogatyrev P.G. 1971.Questions of the theory of folk art. M., p. 393}
4. Грачева Г.Н. Традиционное мировоззрение охотников Таймыра (на материалах нганасан XIX – начала XX в.). Л., 1983, с.56.{ Gracheva G.N. 1983,The traditional worldview of hunters of Taimyr (based on Nganasan materials of the 19th - early 20th centuries). L., p. 56}
5. Гемуев И.Н., Сагалаев А.М. Религия народа манси. Культовые места XIX — начала XX в. Новосибирск, 1986, с.68. { Gemuev I.N., 1986, Sagalayev A.M. Religion of the Mansi people. Religious places of the 19th - early 20th centuries Novosibirsk, p. 68.}

“SINCHALAK” – O‘Z DAVRINI TANQIDIY TAHLIL QILGAN ASAR

Xurshida Hamroqulova
ToshDO‘TAU dotsneti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqola Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasi tahliliga bag‘ishlangan. Unda ayol qahramonlar taqdiri va tahlilida yozuvchining o‘tgan asrning 50-yillari ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayoti ustidan chiqargan badiiy hukm-xulosalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. “Sinchalak”, qissa tahlili, ayol obrazlar tizimi, ijtimoiy muhit, konflikt, kolliziya.

Abdulla Qahhor asarlari kutilmagan lavhalar, kichik personajlarning ulkan muammolari tasviri, arzimasdek ko‘ringan voqea-hodisalardan chiqarilgan muhim xulosalarga boyligi bilan kitobxonni o‘ziga tortadi. Yozuvchining ana shunday asarlaridan bo‘lgan “Sinchalak” bugunning nuqtayi nazaridan qaraganada ikkinchi umrini yashayapti deyish mumkin. Asar 1958-yilda yozilgan. Konstantin Simonov uni rus tiliga tarjima qilgan. Shundan so‘ng sobiq Ittifoqning bir necha respublikalarida nashr qilingan, fransuz, nemis, bolgar tillariga o‘girilgan. “Sinchalak”ning Tataristondagi nashri xususida Y.Shamsuddinovdan kelgan maktub Abdulla Qahhor uy-muzeyida saqlanadi. Unda, jumladan, quyidagi fikrlar yozilgan: “Bizning tilimiz o‘zbek tili bilan hamohang. Tarjima sizga ma’qul bo‘lishini xohlar edim. Qozonda kitobingizni sevib o‘qishyapti”. Yana bir xat sobiq GDRdan “Kultur und Forshtrit” nashriyoti direktori Koshutdan kelgan. 1965-yil 5-yanvarda jo‘natilgan maktubda shunday deyiladi: “Hurmatli o‘rtoq Qahhor! Sharafiddinovdan bildikki, siz “Sekretar Saida”ning mualliflik nusxasini olmabsiz. Roman bir necha oy oldin nashr qilindi. Biz hozirgi o‘zbek adabiyotining qiziqarli kitobini nemis kitobxonlariga tanishtirganimizdan xursandmiz”.

Abdulla Qahhor uy-muzeyida yozuvchi nomiga kelgan ko‘plab maktublar saqlanadi. Qissaning ko‘p tillarda nashr qilinishi, asar yuzasidan adibga ko‘plab maktublarning kelishi uning jamoatchilik tarafidan yaxshi kutib olinganini ko‘rsatadi. “Elliginchi yillarning boshlarida men “Og‘riq tishlar”ni yozishga tayyorlik ko‘rib yurib, alomat qizlar, alomat xotinlar bilan uchrashdim, ular bilan

suhbatda boʻldim. Bular menga quvonch, muhabbat uygʻotishdi, yaʼni muvozanatim buzildi. Men oʻzimdagi bu tuygʻularni boshqalarda uygʻotishga yengib boʻlmas xohish sezdim. Buning natijasi boʻlib “Sinchalak” maydonga keldi” [Абдулла Қаххор, 1989: 256]. “Sinchalak” qissasini yozishdan avval yozuvchi Usmon Yusupovning topshirigʻi bilan Mirzachoʻlga bordi, uch oy davomida xalq hayotining ichida yurib qissaga material toʻplaydi.

Qissaning oʻz vaqtida dovruq qozonishi yozuvchining hayotning oʻtkir masalalari, kitobxon koʻnglidagi, til uchida turgan gaplarini oʻquvchiga yetkaza olganligidir. Acapda qarashlari, ijtimoiy sharoitlari, yoshi, jinsi har xil boʻlgan obrazlar – Qalandarov va Saidaning oʻzaro munosabatlari orqali turmushning haqqoniy manzaralari tasvirlanadi. Asar juda oʻqishli, hatto Saidaga havas qilib “Men sevgan qahramon” mavzusida insholar yozilgani ham sir emas. Abdulla Qahhor personajlar chizgisida xolislikni saqlay olgan. Ularning barcha jihatlari roʻy-rost aks etgan. Shunga qaramay, keyingi yillarda qissaning zamonasozlik ruhida yozilgani, asar tom maʼnoda sovet hukumati siyosatiga xizmat qilgani haqidagi fikrlar yuzaga keldiki, bu bir tomondan, shoʻro davri tanqidchiligining hissasi boʻldi. Abdulla Qahhor ijodini oʻrgangan qahhorshunos olim U.Normatov yillar davomida asarning eʼtibor qilinmagan jihatlariga diqqat qaratadi: “Yana bir gap. Asarda muallif har bob bilan jamoatchi ayol Tojixonni himoya qilishga, taqvodor Hamidullaning esa uni jamoat ishlaridan qayirib farishtadek uy bekasi qilishga urinishlarini piching-kinoyalar bilan qoralashga urinmasin, oqibat-natija-obyektiv haqiqat kutilgandan oʻzgacha boʻlib chiqadi. Xoʻsh, jamoatchilik yoʻlini tanlagan Tojixon pirovardida nimalarga erishdi? Taqvodor, mutaassib boʻlsa-da, turmush oʻrtogʻiga chin dildan vafodor, beozor, halol, saranjom-sarishta erni tashlab, ikki farzandni tirik yetim qilib, “Guliston-boʻston”, “kichkina qasr”, “xazina-muzey” deyishga loyiq xonadonni tark etib, kolxoz bergan uyga koʻchib oʻtadi; uning jamoatchi boʻlib erishgan bor bisoti – bayramlarda, katta yigʻinlarda, oʻzaro tekshirishlarga borganda yaraydigan, siqqanicha koʻkrakka taqib, qolganini roʻmolchaga tugib yuradigan orden-u medallar... Shu bisot haqida gap ketganda

muallif ham beixtiyor personajlarga qo‘shilib kulgu-kesatiqlardan o‘zini tiya olmaydi. Paradoksni qarangki, o‘z sha’ni, qolaversa o‘zgalar sha’ni, qadri uchun faol kurash yo‘lini tutgan shaxslar harakati ichki ziddiyatlari tufayli sekin-asta jozibasini yo‘qotib absurdga aylana boshlaydi” [Normatov, 2000: 49].

Asarni hozirgi kun nigohi bilan qayta idrok etilsa yozuvchning matn osti fikrlari yanada ochiqroq namoyon bo‘ladi.

Qissada bir necha ayol personajlar berilgan. Ularning fe’l-atvori, yashash tarziga nazar tashlansa, roman yozilgan o‘tgan asrning 50-yillari manzaralari aniq ko‘rinadi.

Arslonbek Qalandarov – jamiyat yetishtirgan qahramon. Garchi uning murakkab qiyofasi tanqidda turli fikrlarni yuzaga keltirgan bo‘lsa ham, yozuvchi o‘sha davrdagi rahbar xodimlar yashash tarzi misolida davrning illatlar girdobida qolganiga ishora qilib o‘tadi. Konfliktsizlik nazariyasi hukm surayotgan, zamondosh ayol qiyofasi ko‘klarga ko‘tarilayotgan bir paytda jamiyat ichki tanazzulga botib borayotganining tasviri, avvalo ayol, personajlar ifodasida bo‘y ko‘rsatgan. Qissadagi birorta ayol o‘zida to‘la baxt hissini tuygan emas. Saida o‘tmishidan alamzada, otasi onasini so‘yib qo‘ygan (onasi eriga isyon ko‘targani, unga bo‘ysunmaganida yuzaga kelgan bu fojia. Aslida shu vaziyatni paydo qilgan sharoitning o‘zi ham fojiali), ammo o‘sha ota bilan bir hovlida yashashga majbur. Ayni vaqtda otaning bor-yo‘qligi bilinmaydi, faqat Saida har safar unga boqqanda o‘tmishi gavdalanadi. O‘z bolasi voz kechgan Kifoyatxon o‘zidan besh yosh kichik eri bilan yashaydi, eri esa kimningdir yugurdagi, kimgadir mute’, Tojixon vaqtinchalik shon-shuhrat ortidan haqiqiy baxtini yo‘qotayotgan ayol, Hurinisoda ayollik latofati ko‘rinmaydi, aksincha unda eri – Arslonbek Qalandarovdan ustun bo‘lishga urinish bor. Buni amalda ko‘rsatishdan hayo qilmaydi, Mehri birovning olti bolasi ustiga ikkinchi xotin bo‘lib tegib olishdan uyalmaganidek, avvalgi hayoti ham toza emas. Asardagi biror ayol pesronaj taqdiri kishiga tabassum bag‘ishlamaydi. Ular tasvirida nurli jihatlar yarq etib ko‘rinmaydi.

Kifoyatxon tasvirida yozuvchi satirik kulgiga urg‘u beradi. Kifoyatxondan Abdulla Qahhor “Sarob” romani personaji Soraxonga yaqin belgilar topadi. Adib ijodida xunuk ayollar portreti bo‘rtiq holda tasvirlangan. “Saida raisning bo‘lajak kelini Manzuraxonni ko‘z oldiga keltirish uchun Kifoyatxonga zimdan razm soldi. Uning jag‘i keng, ko‘k tomirlari bo‘rtib turgan ikki chakkasi ichkariga botgan, peshanasi kavushning betiga, yo‘q, umuman, yuzi mardona kavushga o‘xshar edi” [Abdulla Qahhor, www.ziyouz.com kutubxonasi: 27].

Soraxonning ham “ko‘k tomirlari ko‘rinib turgan qo‘llari ikki yonida emas, qornining ustida qimirlaydi”. Xunuk ayol tasvirida Qahhor qalami ancha beshafqat.

“Xunuk xotinlarning xunukligini aksari boshqa fazilatlari ko‘mib ketadi”, – degan o‘yda Saida unga bir qancha savollar berdi. Biroq Kifoyatxon bu savollarning birontasiga ham javob bermadi, boshini quyi solib, iljayib, erka o‘sgan qiz boladay erkalanib – qiyshanglab, ko‘z qiri bilan Hurinisoga qarardi, nihoyat bir nimani bahona qilib, pastga tushib ketdi” [Abdulla Qahhor, www.ziyouz.com kutubxonasi: 27]. Xuddi shunga o‘xshash fikrlar Soraxonni xotinlikka tanlayotgan Saidiydan ham o‘tgan edi. Unda ham Soraxon Saidiyga qiyshanglash bilan qo‘l uzatgan edi. Saidiy ham har safat Soraxonni ko‘z oldiga keltirganda “ko‘lidagi choynagi” bilan namoyon bo‘lardi. Abdulla Qahhor har ikki personaj tasvirida kishining tashqi portreti va ichki olamiga mos uyg‘un belgilar topgan. Bunday hol “O‘tkan kunlar”da Homid va Jannat xola obrazlarida ham uchraydi. Ko‘rinadiki, portret qahramon psixologizmini ochishda asosiy unsur hisoblanadi.

Kifoyatxon Hurinisoning aytishicha, Qalandarovdan ham uch-to‘rt yosh katta. Uning iljayishi, erka o‘sgan qiz boladay erkalanishi tasviriyoq uning ma’naviy olamiga tortilgan chiziq edi. Kifoyatxonning Qalandarov oldida “yosh qizday uyala-uyala zinadan chiqib” kelishi, “qilpillagannamo” bir harakat bilan poygakka o‘tirishi, “o‘ynab turgan ko‘zlari bir lahzada xontaxtadagi turli zakuska, shirinlik, ko‘kat qo‘yilgan tarelka va likopchalarni, vino to‘ldirilgan ryumkalarni, Eshonning oldida turgan shishalarni kezib” chiqishi; “yer ostidan Qalandarovning yuziga, Saidaning bilagidagi soatga, ko‘kragidagi to‘g‘nag‘ichga” qarashi tasviridan uning

kuzatuvchan, sinchkovligi emac, aksincha, yengil tabiat ayol ekani ochiq koʻzga tashlanadi. Qalandarov yaratgan muhit ham sogʻlom emas. Hurinisoning mehmon oldida ichmasligini “madaniyatsizlik” belgisi deb biladi va “qattiq hijolat” tortadi. Hatto “ryumkani olib xotinining qoʻliga” beradi. Shu tariqa “madaniyatli oila” vakilasini yaratadi. 50-yillarda yuqori doiradagi ayollar madaniyati tanazzulga yuz tuta borishi aslida 30-yillarda Munisxon (“Sarob”) obrazida uch bergan edi. Faqat uning fojiasida millatchilar qismatini berish maqsad qilib olinganini e’tiborga olsak, bir millat doirasidagi ayol fojiasi turli koʻrinishda ikki asarda davom ettirilganiga guvoh boʻlamiz.

Kifoyatxonning eri Eshon unga har tomonlama munosib. Qalandarovning ta’riflashicha Eshonning ikki aybi bor: xudo uni boʻydan va jussadan qisgan, “xotini bilan podruchka qilib kelayotganda orqasidan koʻrgan kishi Eshonni Kifoyatxonga osib qoʻyibdi deydi”. Xuddi shunga oʻxshash ta’rif Soraxonga ham berilgan: “orqasidan koʻrgan kishi uni ogʻir bir narsa olib ketayotgan gumon qiladi”. Saida murakkab obraz. Garchi oʻsha davrning yetakchi obrazlari qatorida tursa ham adib uni insoniy nuqsonlardan holi boʻlmagan murakkab qiyofasini bera olgan. Negadir Saida har bir hodisaning faqat yomon tomonlarini koʻrishga moyil. Chunki oilaviy muhitda Saidiy chiroyli tarbiya olmagan. Ota-ona oʻrtasidagi munosabat Saidaga ta’sirini oʻtkazgani aniq. Hali “Boʻston” kolxoziga yetib bormay turib, (rasman kolxoz pravleniyasiga sekretar boʻlmay) tuni bilan daftarining uch-toʻrt sahifasiga qilinadigan ishlarni belgilab qoʻyishi oʻz davri uchun mas’uliyatni his qilgan yosh kadr sifatida baholanar, ammo unda hammadan alohida turishga intilish, bir soʻz bilan aytganda xudbinlik sifatlari yetarli edi deyishimizga asos beradi. Oʻz davrida “Sarob” romanining qahramoni Saidiy va Munisxonni (ularga salbiy obraz deb qaralgan paytlarda) xudbin obrazlar sifatida baholangan edi. Abdulla Qahhor oʻzining sevimli qahramoni Saidani ham ayni nuqson bilan tasvirlashi inson qaysi maqomda turmasin bu sifatdan begona emasligini koʻrsatadi.

“Sinchalak” xususida fikr bildirgan qahhorshunos olim O.Sharafiddinov Saidaga “Saida zaifgina, moʻrtgina, oddiy bir qiz”, “Saida toʻsatdan hayot

to‘lqinlarining o‘rtasiga tushib qoladi”, “Saida – yorqin adabiy tip”, “ish odami, faoliyat kishisi” deb ta’rif beradi. Bu ta’riflarni rad qilmagan holda aytish lozimki, Saida unchalik ham zaif va mo‘rt emas, Arslonbek Qalandarovgacha u rayon partiya komitetida ishlab ko‘pni ko‘rgan, Nosirov bilan dadil suhbat quradigan qiz edi. Oiladagi fojiasi ham uni hayotda boshqalarga nisbatan tezroq ulg‘aytirgan. Keyin uning onasi ham ko‘p ham erkak kishiga bo‘ysunmaydigan ayol bo‘lgan. Axir erining ogohlantirishlariga qaramay xohishiga qarshi borgani uchun fojiali halok bo‘lgani yodda turish kerak. Xarakterda onaning sifatlari aks etadi-ku. Shuning uchun u Arslonbek Qalandarovga qarshi chiqa oladi. U tanlangan obraz. Bunda Abdulla Qahhor zaif obrazni katta personajga yo‘liqtirdi deb emas, katta odamning o‘ziga mos raqibni uchrashtirdi deyilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Bu o‘rinda Abdulla Qahhor masalaning bu jihatlariga e’tiborli bo‘lgan.

“Sinchalak” – ijtimoiy-siyosiy qissa. Yozuvchi Saida Aliyeva va Arslonbek Qalandarov to‘qnashuvi misolida jamiyatni bezovta qilib turgan muammolarni qalamga oladi. Shulardan biri ayollarning paxta dalasidagi mashaqqati, tarbiya masalasi (“odam bolasi qayerda, qanday sharoitda tug‘ilayotibdi, qayerda va kimlarning qo‘lida tarbiya ko‘rayotibdi”) yana biri o‘qituvchi va o‘quvchi muammosi.

“Qalandarovning achchig‘i keldi.

– O‘qituvchi bo‘lib non yegandan keyin bolalarni o‘ziga rom qilsin, bosib olsin-da!

Saida kulgiga oldi.

– Qanaqa qilib? Masalan, sizning jiyaningizni o‘qituvchi qanaqa qilib rom qilishi, bosib olishi mumkin? Siz jiyaningiz oldida o‘qituvchini sensirasangiz, uning sha’niga har xil gap aytsangiz, kalaka qilsangiz, ish buyursangiz...” [Abdulla Qahhor, www.ziyouz.com kutubxonasi: 80]. Anchayin tanish manzara. O‘qituvchilarning qimmatini tushirgan hollar, o‘quvchi va o‘qituvchi orasidagi pardaning ko‘tarilishi oqibatida o‘qituvchining hech kim darajasiga tushirib qo‘yilgani ham afsuski rahbar ma’naviyatining noto‘kisligi oqibatida ro‘y berdi. Bu

holni zamondoshlarimiz yaxshi bilishadi. Abdulla Qahhor o‘qituvchiga zug‘um o‘tkazilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi haqida 50-yillarda bong urgan edi. Bu masala yozuvchi maqolalarida ham tilga olingan. Yozuvchi muammolarning faqatgina hammomda aytilishiga e’tibor qaratar ekan, (asar personaji Umidaning hammomdagi gaplarini eslang) qayma’noda o‘zi yashab turgan zamonga hukm o‘qiydi.

Qissada yozuvchining o‘ziga xos o‘quvchini bee’tibor qoldirmaydigan quyma fikrlar bor:

1**.** Aflotunning qizi bo‘lsangiz ham gapni tonnalab oling-u, grammlab soting.

2. Tishi chiqqan bolaga chaynab bergan osh bo‘lmas.

3. Meni itingiz yoniga bog‘lang, lekin rahbarlik qilmang! Toqatim yo‘q! Xotin kishi rahbarlik qilsa, kalavamning uchini yo‘qotib qo‘yaman!

4. Mushukdan qutulish uchun uning bo‘yniga qo‘ng‘iroq osish eng yaxshi chora.

5. It ochiq qolgan qozonni yalaydi.

5. Odamning yomoni bo‘lmaydi. Birov tosh, birov gul, o‘z joyida ikkovi ham yaxshi.

6. Igna bilan bitadigan ishga juvoldiz tiqib o‘tirma.

7. Odamning chiqiti bo‘lmaydi.

8. To‘kilgandan tomchilagan yomon.

9. Illatni chimchilab olib tashlash kerak emas, tagi bilan qo‘porish kerak.

10. Kishan oltin bo‘lsa ham har qalay kishan.

“Sinchalak” tagmatnli asar. Asarning aktual qatlami haqida tanqidchilikda talay fikrlar bildirilgan. Uning tub qatlamlarini kashf etish esa yozuvchi dilidagi fikrlarni anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor. Bir xatga javob. Haq so‘zning kuchi. Asalar. Besh jildlik. Beshinchi jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’ati nashriyoti, 1989.
2. Abdulla Qahhor. Sinchalak, 27-bet. www.ziyouz.com kurubxonasi.
3. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – T.: Universitet, 2000.

O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATI – G‘OYAVIY-MA’RIFIY, ESTETIK TARBIYA QUROLI SIFATIDA

Gulnoza Jo‘rayeva
ToshDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada hajv janrida zamonaviy satira xususiyatlarining uyg‘unlashuvi hamda she’riyatda bola tarbiyasi borasida so‘z boradi. Hajv janrining mumtoz an’analarda ham uchrashi va zamonaviy satira xususiyatlariga misollar keltiriladi, ularni o‘qitish borasidagi muammolar va g‘oyaviy-ma’rifiy va etik-estetik tarbiya quroli ekanligi yoritiladi. Ular tahlilga tortilib, uyg‘unlashuv xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar. Hajv, zamonaviy satira, bolalar adabiyotida axloqiylik so‘qmoqlari, uyg‘unlashuv xususiyatlari, metodika, o‘qitish muammosi.

Annotation

This article discusses the combination of modern satire in the comedy genre and child rearing in poetry. Examples of the occurrence of the genre of comedy in the classical traditions and the features of modern satire are given, the problems of teaching them and the fact that they are a tool of ideological-enlightenment and ethical-aesthetic education are analyzed. They are analyzed and matching properties are determined.

Key words: Humor, modern satire, traces of morality in children's literature, features of harmony, methodology, the problem of teaching.

Adabiyot so‘zining kelib chiqishini odob so‘zi bilan bog‘lashlari bejiz emas. Ma’no – ma’naviyat so‘zlari singari, adabiyot so‘zining o‘zagida ham odob so‘zi yotishi rad etib bo‘lmas haqiqat. U qay yo‘l bilan bo‘lmasin, (ba’zan odobsizlikni tasvirlash bilan) insonni tarbiyalaydi. Uning hayot yo‘llarini yoritadi. Bolalar she’riyati ham aynan shunday xususiyatga ega. Tarbiyalash vazifasi. Didni shakllantirish burchi adabiyot oldiga qadim zamonlardan qo‘yilgan. Adabiyot kuchli qurol ekanini biz toshga o‘yib yozilgan bitiklardagi da’vatlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Faqat bu quroldan to‘g‘ri yo‘lda foydalanish kerak bo‘ladi. Bolalar hajviy she’riyatida ham bolalarga tutilayotgan ma’naviy ozuqaga ma’lum ma’noda ijtimoiy, tarbiyaviy yuk berish lozim. Shu o‘rinda yozuvchi Abdulla Qahhorning bundan bir necha o‘n yillar avval aytgan quyidagi gaplari hamon dolzarbligicha qolmoqda: “Chiroyli lof-qofdan xunuk haqiqat yaxshi: ancha o‘sgan, yutuqlarga ega bo‘lgan bolalar adabiyotining darajasi, saviyasi uning oldida turgan talablar, vazifalar darajasidan xiylagina past. Adabiyotimizning hozirgi darajasini ko‘zda tutganda

bu narsa juda bilinadi. Bunga eng birinchi sabab shuki, bolalar adabiyoti shu kungacha ham adabiyot jamoatchiligining diqqat markazidan chetda bo‘lib keldi”.

Bolalar hajviy she’riyati g‘oyaviy-ma’rifiy va etik-estetik tarbiya quroli sifatida bugun o‘z vazifalarini qay darajada uddalamoqda, degan savol Abdulla Qahhor jon koyitgan paytda qanchalik muhim bo‘lgan bo‘lsa, bugun ham shunchalik dolzarb. Diqqat markazidan chetda bo‘lgan bolalar adabiyotida, aynan bolalar she’riyatida bugun yaratilayotgan asarlar abadiyatga daxldorligi jihatdan g‘oyaviy-ma’rifiy va etik-estetik vazifasini bajarishi shart. Bu tushunchalarning barchasi tarbiyaga borib taqaladi. Bolani tarbiya qilishda uning yoshi, psixik xususiyatlaridan kelib chiqish shart bo‘lganidek, adabiyot vositasida tarbiyalashda ham yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olish dolzarb hisoblanadi. Shu sababdan ham bolalar adabiyotida ijod qiluvchi adiblar, shoir-u yozuvchilar so‘zga ikki karra mas’uldirlar. Tarixga nazar tashlasak, didaktik adabiyot namunalarining she’riy usullar bilan yozilgan go‘zal namunalari ko‘p uchraydi. She’r o‘zida nasrga nisbatan xoslikni jamlagani uchun ham didaktika bilan birlashib katta kuchga aylangan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da tarbiya so‘ziga “1.Ta’lim, axloq-odob va shu kabilarni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish. 2.Insonda ish-hunar, odob-axloq va shu kabilarni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmuyi va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o‘zi[3]” tarzida ta’rif berilishi uning ma’rifiy-g‘oyaviy ekanligi bilan ham izohlanadi.

Pedagogik tadqiqotlarga ko‘ra, insonni tarbiyalash bir umrlik va mas’uliyatli jarayon. Bu jarayondagi ilk bosqich bolalik davriga borib taqaladi. Bolalar adabiyotining ahamiyati ham aynan shunda. Ilk bosqich – poydevor demak. Uning bir umr qanday davom etishi poydevor qanday shakllanganiga borib taqaladi. Zero, Mirzo Abdulqodir Bedil ta’kidlaganidek:

Birinchi g‘ishtni mo‘rt qo‘yarkan me’mor,

[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati.. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. – 678-b.

Yulduzga yetsa ham qiyshiqdir devor.

Bolalar tarbiyasining me’morlari qurayotgan binolar poydevori mustahkam bo‘lishi kerak. Ularni tinimsiz tahlilga tortib, lozim bo‘lsa, bolalar uchun ijod qiluvchi shoir-yozuvchilarga bolalar adabiyotining vazifalarni eslatish kerak.

Bugungi kunda bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalari deya e’tirof etilayotgan yosh ijodkorlar to‘plamlaridan biri Azamat Xudoyberganov va Dilnoza Tillaboevaning “Uyalchang chuvalchang” nomli she’riy to‘plamidir. To‘plamga Azamat Xudoyberganovning she’ri nomi tanlab olingan. Ijodkor bir necha yillar bolalarning adabiy-badiiy bezakli “G‘uncha” jurnalida faoliyat olib borgan, barakali ijod qilib kelayotgan shoir hisoblanadi. Uning yozganlari ancha o‘qishli, qalami tingan. Yozganlarida bolalarga xos hajv unsurlaridan unumli foydalanadi. She’rlarida badiiy tasvir vositalari turlicha, shuningdek, mavzu ko‘lami ham ancha keng. Turli mavzular va turli yo‘nalishlarda she’riy tajribalar olib boradi. Misralar qatiga bir qancha g‘oyalarni yashirishga intiladi va undan yuzaga chiqadigan mazmun ancha teran. Nafaqat bolalar, balki katta yoshli insonlar ham o‘qib, o‘zlariga ma’lum xulosalar olishi mumkin. Azamatning she’rlarida hajv bosh unsur. U hajvdan turli maqsadlarda foydalanadi.

“Tulkivoyning hasrati” she’rida shoir so‘z o‘yini qiladi va bu orqali kitobxonda yengil kulgi uyg‘otadi. Muallif she’rlarida hajv darajalanib boradi. Dastlabki bosqichda u shunchaki o‘zining so‘z tanlash mahorati-yu tildagi so‘zlarning jilvasi, shakldosh so‘zlar, turli iboralarni qo‘llab, kulgi yaratadi. Mazkur she’r shoir ijodidagi hajvning birinchi darajasiga misol bo‘la oladi:

Buncha shirin oh, oh, oh,
Bu xo‘rozning ovozi.
Yaqinroqdan tinglashga
Qo‘ymaydi, afsus, tozi.
O‘zim ayyor deymanu,
Goho dumim berar pand.
Alamimdan shu sabab,
Yeyman doim xo‘rozqand [4].

(“Uyalchang chuvalchang”, 4-b.)

[4] Xudoyberganov A., Tillaboyeva D. Uyalchang chuvalchang. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 4-b.

Xo‘roz va xo‘rozqand so‘zlari orqali qilingan o‘yin bolalarni quvontiradi, qiziqtiradi. Haqiqatan ham, tulki alamidan xo‘rozqand yeyishi va haqiqiy xo‘rozni yeya olmagani kulgi uyg‘otadi. She’rda jonlantirish, intoq, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan. Qofiyalar original bo‘lmasa-da, bolaning xotirasida oson qoladi. O‘quvchi shu singari she’rlarni tez yod oladi. Muallifning boshqa she’rlarida ham hayvonlar obrazi yetakchilik qiladi.

Biz bolalar she’riyati hajvning ahamiyatini isbotlashga, u ma’lum vazifalarni bajarishiga dalillar keltirishga urinar ekanmiz, fikrimizga “Nyuton” nomli she’r isbot bo‘la oladi. Unda Otabekning sarguzashti bayon qilinadi. Bog‘da ko‘m-ko‘k dovuchchalar pishgan. Bolalar undan maza qilib yeyishmoqda. Ushbu holatni muallif shunday chizadi:

Pastki shoxlar ayrildi,
Pishmagan o‘riklardan.
Juda berilib ketib
Tosh otdik sho‘rliklarga.
Ado bo‘ldi mevalar
To‘lmay turib yoshiga…

(“Raqqos yaproqlar”, 82-b.)

Shu paytda bitta tosh qahramonimiz Otabekning boshiga qaytib tushgani aytiladi. So‘ngra qahramonimizning onasi boshiga olma tushgach, Nyutonning olim bo‘lganini aytib beradi. Bolakay tasavvurida endi akasi ham aniq olim bo‘lishi gavdalanadi. Olim bo‘lishning oson yo‘lini topgan bu bolakay, ukasiga qarata shunday deydi:

Ukam, anov toshni ol
Tomga chiqqin-chi, qani.
O‘zim pastda turaman
Toshni tashla boshimga.
Men ham olim bo‘laman
To‘lmasdan o‘n yoshimga.

(“Raqqos yaproqlar”, 82-b.)

Olim bo‘lishni shunchalar oson deb hisoblovchilar bugun ko‘plab topiladi. Ilm mashaqqatli yo‘l. Uning zahmatlari shunchaki, bir tosh boshga tushgani bilan

oʻlchanmaydi. Nyuton ham olma sababli olim boʻlgan emas. Olma boshiga tushgani orqali tortishish qonuniga ishora qilgan. Endi Nyuton boʻlib, qaytadan tortishish qonunini kashf etish imkonsiz. Muallif bolalarcha tasavvur, begʻubor kulgi bilan aslida olim boʻlish qanchalar qiyin ekanligini aytmoqchi. Olimlikni kasb etmoq har bir insonning ham qoʻlidan kelmaydi. Demak, ushbu she'r – tanqid, da'vat. Bu obraz sehrli qalpoqchadan ilmli boʻlishda foydalanmoqchi boʻlgan Hoshimjonning doʻsti, xolos. Ammo ijodkor yakunda yaxshi xulosa beradi. Uni chiroyli tugallaydi va buning barchasini hazilga yoʻyadi. Ammo she'r oʻquvchilarni oʻylantirib qoʻyadi, kuldirib "kuydiradi":

Deb hazil qilsam, doʻstim
Kular koʻzda yosh bilan.
Qanday olim boʻlasan,
Ishlamagan bosh bilan?

("Raqqos yaproqlar", 82-b.)

Bugungi bolalar adabiyoti aynan shunday ma'rifiy-didaktik mazmundagi she'rlarga muhtoj. Bu ehtiyojni qondiruvchilar esa bolalar uchun qalam tebratayotgan yosh ijodkorlardir.

"Qorbolaning deganlari" nomli she'r ham hajviy xarakterda. Ammo undan boshqa mazmunni qidirish kerak emas. She'rda qorbola uni oppoq qordan yasashganini, qoʻllari shox-shabbadan ekanligini, boshiga ilma-teshik chelak kiydirilganini aytadi. She'r tugashida esa qorbolaning asl maqsadi, ya'ni qoʻrquvi oʻrtaga chiqadi:

Qoʻrqaman bir narsadan:
Quyonchani koʻrdingmi?
U kelmasin, gar kelsa
Yeb qoʻyadi burnimni.

("Raqqos yaproqlar", 84-b.)

"Berkinmachoq" she'ri bolalarning tasavvur olamini boyitadi. Unda quyosh bilan oy necha yillardan buyon bekinmachoq oʻynashi va bir-birini topa olmayotgani ifodalanadi. She'r hajviy xarakterda emas, u bolalarning dunyoqarashini kengaytirib, xotirasiga goʻzal tasvirlarni muhrlaydi. Ammo jarayon tugallanmagan.

“Bodring deydi” nomli she’rda jonlantirishning go‘zal namunasi qo‘llanilgan. Unda bodring do‘sti baqlajonni doim erkalatib, -jon qo‘shib aytishlari-yu o‘ziga nisbatan bunday hurmat yo‘qligidan xafa bo‘ladi va shunday deydi:

Baqlajon yaxshi bola,
Doim bo‘lsin sog‘-tetik.
Men esa uning do‘sti
Sabzavotov Bodringbek.

(“Raqqos yaproqlar”, 85-b.)

Jonlantirish tasviriy vositasining o‘ziga xosligi shundaki, ushbu she’rda insonlarga, ularning ism-familiyalariga qo‘shiladigan -ov, -bek kabi erkalash, hurmat ma’nosini bildiruvchi qo‘shimchalar sabzavot nomiga qo‘shilgan va uni chin ma’noda jonlantirgan. Baqlajon so‘zidagi “jon”ga taqlidan Bodring ham o‘ziga hurmat talab qiladi va bu bolalar hayotida uchrab turadigan holatlardan biri.

“Ikkichi” nomi bilan atalgan hajviy she’r esa bolalarga xos qizg‘anchiqlik odati soyasida ularni bilim olishga, a’lochi bo‘lishga chorlovchi bir mayoq bo‘lib xizmat qiladi. Unda o‘quvchi bugun “ikki” olgani, endi ikkichi bo‘lib qolgani va Omonni ikkichi deb chizg‘ichini bermaganidan afsus qilishi tasviralanadi. Bolalarda shunday xususiyat bor: rostan ham ular ikkichi bolalarga hech narsasini berishmaydi. She’rdagi shu motivning o‘zi bolalarni a’lochi bo‘lishga chorlaydi.

Kundalikni oyimga
Hech ko‘rsatgim kelmaydi.
Endi Omon ham menga
O‘chirg‘ichin bermaydi, –

(“Raqqos yaproqlar”, 86-b.)

deya yakunlanadi she’r. Xulosa bolalarning o‘ziga tashlanadi. Bolalarning shumliklari ochib berilishida kulgi asosiy o‘rin tutadi. Bolalar bir qarashda buni bilmasliklari, bosh ma’nosini tushunmasliklari mumkin, lekin keyinchalik, albatta, anglaydilar. Bolalarga xos yaxshi ma’nodagi shu kabi qizg‘anchiqlikning adabiyotda aks etishi samarali.

To‘plamdan joy olgan “Rahmat” nomli she’r ham didaktik mazmun kasb etgan. Kulgi vositasida ochib berilgan rahmat yig‘ish jarayoni bolalarga kattalarga

salom berish kerakligini o‘rgatadi. Unda yo‘lda amakisiga salom bergan bolakayga qarata amaki “Otangga rahmat” deydi. Buni eshitib turgan jiyan esa endi tinmasdan yo‘l bo‘yi hammaga salom beradi va uyga kelganda:

…dadajon, sizga
Ko‘p rahmat olib keldim, – deydi.

(“Raqqos yaproqlar”, 87-b.)

Bolakay dadasiga rahmat olib kelish uchun birinchi qadamni qo‘ygan ekan, kelajakda u keyingi qadamlarini ham qo‘yadi, albatta. Bolalarga odob-axloqni o‘rgatadigan katta maktab bu adabiyot ekan, uning kuchidan bolalar tarbiyasida qay darajada foydalanilayotgani juda muhim masala ekanligini unutmaslik lozim.

Mohidilning “Muzqaymoq”, “Tasanno”, “Yoz bilan suhbat”, “Po‘pisa” singari ichi bo‘sh she’rlari ham yo‘q emas – “Tasanno” she’ridan bo‘lak. Masalan:

Uxlamaydi yulduzlar,
Tuni bilan uyg‘oqdir.
Chunki ular osmonga
Ilingan shamchiroqdir.

(“Raqqos yaproqlar”, 88-b.)

To‘plamga kiritilgan “Tanaffus” she’ri ham hajviy, ammo didaktik-ma’rifiy ruhda emas. Unda bolalar eng zo‘r dars qaysi ekanligi haqida tortishib qoladilar. Kimdir tabiat, kimdir jismoniy tarbiya deydi. She’rni quyidagi misralar yakunlab beradi:

Endi o‘zim aytaman,
Bunaqasi ketmaydi.
Bu fanlarning hech biri
Tanaffusga yetmaydi.

(“Raqqos yaproqlar”, 88-b.)

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har bir hajviy she’r yuqoridagi mazmunni o‘ziga singdirgan bo‘lishi shart emas. Bunday qoida yo‘q. Ammo bolalar she’riyati shunchaki kuldiradigan, hordiq chiqarishga mo‘ljallangan adabiyot emasligini ko‘rsatish uchun ham shoir-u yozuvchilarimiz hajv unsuri orqali bolalar she’riyatining didaktik-ma’rifiy, estetik maqsadlarga xizmat qilishini bildiruvchi asarlar yaratgan va bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda.

Mohidil Abdullayeva ijodida uchrovchi qahramonlar anchagina uddaburon – bir o‘pichning bahosi shokolad deya olgan bolakaydan tortib, o‘zini hurmat qilishni boshlab yuborgan Sabzavotov Bodringbek, bekor Omonga chizg‘ichimni bermagan ekanman deya qayg‘urib turgan mittivoy va boshqalarda buni ko‘rish mumkin. Ijodkorda shakl va mazmun mutanosibligini ta’minlashga bo‘lgan intilish seziladi, lekin bu she’rlarda to‘la ta’minlanmagani ham e’tiborni tortadi. Umuman olganda, barcha ijodkorlar bolalarga atalgan she’rlari orqali ularning qalbi tomon qadamlar tashlashda davom etmoqdalar.

O‘zbek bolalar hajviy she’riyatining ma’rifiy-didaktik va badiiy-estetik qimmati aslida qay darajada bo‘lishi kerakligi barchaga ma’lum. Yuqorida bugungi kunda bolalar she’riyatining mazkur qiymatlardagi qimmati qay darajada ekanligi tahlillar misolida ko‘rib chiqildi. Bolalar hajviy she’riyati o‘zining milliy-madaniy va ijtimoiy-ma’rifiy tajriba ifodasi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Ammo bugun bolalar uchun ijod qilayotgan shoirlarda mavzu ko‘lami ancha tor. Takrorlar bisyor va quruq she’rlar ko‘p uchramoqda. Shunga qaramay, bolalar hajviy she’riyati g‘oyaviy-ma’rifiy va etik-estetik tarbiya quroli sifatida ahamiyatini yo‘qotmay kelayotganiga ular isbot bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 65-b.
2. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2006. 8 dek.
3. Hovli to‘la bolalar. She’rlar va ertaklar. – Toshkent: Yulduzcha, 1988. – 19-b. (keyingi misollarning sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.)
4. Rasulov A. Betakror o‘zlik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2009. – 214 b.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr, 2010. – 372 b.

“QISSAI JAMSHID” ASARINING POETIK XUSUSIYATLARI

Jabborova Matluba Rustamovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
katta o‘qituvchisi,
mdjabborova86@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalq kitobi “Qissai Jamshid”ning o‘ziga xos poetik xususiyatlari keng tahlil etiladi. Xususan, jonlantirish, sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a kabi badiiy vositalardan namunalar keltiriladi. Shuningdek, qissaning poetik tili bo‘yicha tahlillar olimlarning badiiy-tasviriy vositalar va til hodisalari xususidagi nazariy fikrlari bilan dalillanadi.

Kalit so‘zlar: poetika, badiiy-tasviriy vositalar, adabiy til, badiiy asar, xalq kitobi, qissa, doston, til xususiyati.

Annotatsion

This article provides a detailed analysis of the poetic features of the folk book “Qissai Jamshid”. In particular, examples from artistic means such as animation, adjective, analogy, exaggeration are given. The analysis of the poetic language of the story is also supported by the theoretical views of scholars on artistic means and linguistic phenomena.

Key words: poetics, artistic means, literary language, work of art, folk book, short story, epik, language feature.

O‘zbek xalq kitobi “Qissai Jamshid” XVIII asr oxiri – XIX asr boshlari o‘zbek nasrining badiiy jihatdan o‘ziga xos imkoniyatlari haqida ma’lumot beradi. Mazkur davrda ko‘pgina qissalarning yaratilishi, avvalo, o‘zbek adabiyotining boyishiga xizmat qilgan. Chunonchi, o‘z davrining adabiy asar badiiyati, poetik lavhalar tasviri, badiiy-tasviriy ifodalar ko‘lami va qahramon ichki olamining yoritilishi kabi jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgan mazkur asar zamonaviy o‘zbek nasrini yaratilishiga ham zamin hozirlagan. Ikkinchidan, shu davrda yaratilgan qissalarga o‘zbek xalqining orzu-umidlari, o‘y-kechinmalari, turmush tarzi va kundalik tashvishlari singdirilgan. Uchinchidan, mazkur asar qissa yaratilgan davr adabiy tilining o‘ziga xosligi haqida ham ma’lumot beradi.

Odatda, badiiy asarni poetik jihatdan taftish etishda, asarda badiiy tasviriy vositalardan foydalanilganlik, qahramonlarning tashqi qiyofasi nechog‘lik mahorat bilan chizilganligi, obraz ruhiy olamining yoritilishi kabi masalalarga e’tibor qaratiladi. “Qissai Jamshid”ning o‘ziga xos jihatlari mazkur masalalar asosida kuzatildi.

Asarni badiiy jihatdan bezashda jonlantirish muhim ahamiyatga ega. Muallif jonlantirish vositasida “insonga va jonli mavjudotlarga xos belgilarni tabiat hodisalariga, narsalarga va tushunchalarga ko‘chiradi” [Xudoyberdiyev, 2008: 137]. Boshqacha qilib aytganda, “tirik narsalarning xususiyatlarini jonsiz ashyolarga nisbat berish *jonlantirish* deb ataladi”. Masalan, qissada jonli mavjudotga xos “qarash” xususiyatini jonsiz narsa boylikka ko‘chiradi: *“Davlat senga boqay desa, unamaydursan”.*

Badiiy tasvir jarayonida o‘xshatishning o‘z o‘rni bor. O‘xshatish orqali o‘quvchiga ma’lum bo‘lgan biron-bir predmetga xos xususiyat tasvirlanayotgan narsa yoki hodisaga ko‘chiriladi. “O‘xshatishlar “-dek”, “-day”, “o‘xshash”, “xuddi”, “monand”, “go‘yo”, “misli”, “singari”, “kabi”, “yanglig‘”, “-simon” kabi so‘z va qo‘shimchalar yordamida yuzaga keltiriladi. O‘xshatish tasvirlanayotgan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilarini yorqinroq, aniqroq qilib ko‘rsatishga xizmat qiladi” [Xudoyberdiyev, 2008: 134]. Masalan, qissago‘y Laylivashning Malikai Dilso‘zga bo‘lgan muhabbati tasvirlashda quyidagi o‘xshatishdan foydalanadi: “quchoqig‘a kirsa, *o‘tg‘a kuygondek* zohir bo‘lub toqat qilolmas edi”. Shuningdek, qissada ba’zi mubolag‘ali o‘xshatishlarni ham kuzatish mumkin. Masalan, “xalqning qoni *daryodek oqti* va jasadi *tog‘dek dumalandi*”, “qiron qildilarki, “*yel birla tufroq olishqondek*”, “bir musht urdiki, boshi *sabchadek uzulib ketti*” kabi. Qissago‘y ushbu o‘xshatishlar orqali badiiy voqelikni o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq gavdalantirishga erishgan. Qissada qo‘llanilgan “pahlavonlarning boshi *soyni toshidek* har joyda to‘da to‘da bo‘ldi”, “yiroqdin bir nimarsa ko‘rdilarki, ko‘zi farqi sarida *tovus parxundek*”, “Malikani *guldek badani* xun oluda bo‘ldi”, “o‘qni go‘yoki *qor yomg‘urdek* yog‘dirdi”, “*minordek* bir odam”, “boshig‘a jig‘a sanchibdur *katta terakdek*”, “andog‘ taftish qildiki, go‘yokim shaharg‘a *o‘t olg‘ondek* bo‘ldi”, “chehrasi *za’farondek* sorg‘ayibdur”, “har bir odiyni qad qomati *minordek*”, “ko‘zi *piyoladek* bo‘lubdur”, *“*xazon *yafrog‘idek* titradi*”, “*bu na’raning o‘zi andoq eshitildiki, osmon *yorilg‘ondek* bo‘ldi*”, “*belidan xanjarini olib, sherning qornig‘a andog‘ urdiki, *go‘yoki bag‘ri to‘kulib tushdi”* kabi betakror o‘xshatishlar

asarning badiiy-estetik, ta’sirchanlik xususiyatini oshirgan. Shuningdek, qissada ruhiyat tasvirini kuchaytirish maqsadida kiritilgan intim tasvirlar va holatlar o‘zbekona sharm pardasi ortida “qog‘ozga o‘ralib” berilgan.

Badiiy asarda so‘z o‘z ma’nosidan tashqari turli-tuman ko‘chma ma’nolarda ham ishlatiladi. Bunday metaforalar qissada ham uchraydi: *“daryo labig‘a”, “suvni labida”, “buloq labig‘a”, “tog‘ning qoq belida”, “xandaqning labig‘a”, “naqibni og‘zig‘a”, “zindon yaqosig‘a”, “zindon boshig‘a”, “zindon labida”, “*uy yuzida*”*.

Xalq kitobi “Qissai Jamshid”da mubolag‘a san’atidan ham unumli foydalanilgan. Masalan, Malikai Dilso‘zning jamolini vasf eta turib, “*husn va jamoli oftobg‘a g‘alaba qilur erdi*”,*“Malikai Dilso‘z oftob, men zarra”*, deb ta’riflaydi. Mubolag‘a san’atidan foydalanish, asosan, romanik asarlarda yetakchilik qilsa-da, mazkur jangnoma tipidagi qissada ham alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, qissaning ko‘pgina o‘rinlarida mubolag‘aviy, hatto, o‘ta mubolag‘a – ig‘roq tasvirlarni uchratamiz. Ayniqsa, jang sahnalari tasviri va taraflarning hujum jarayonini tasvirlashda qahramonlarning kelbat va salobatini tasvirlashda bu san’atdan mohirona foydalanilgan. Masalan, qissago‘y lashkarlarning ommaviy tarzda, yopirilib hujumga o‘tishi jarayonini tasvirlay turib, *“Jamshid ko‘rduki, osmon ko‘runodir, er ko‘rinmaydur”* deydi. Ya’ni lashkarlar shu darajada ko‘pki, ko‘z ko‘rishi mumkin bo‘lgan chegaragacha bo‘lgan barcha hududni egallab olgan. Bunday mubolag‘ali tasvirlar qissaning ko‘p lavhalarida uchraydi. Chunonchi, *“qaro kechada qaro palasini uzasida qaro chumolini ko‘zig‘a nish tikon urar erdi”, “yerga andog‘ urdiki, taxtai zamin uzra naqsh bog‘ladi”, “chorbog‘ni to‘rt tarafidin andog‘ o‘q yog‘durdilarki, ro‘zi ravshanda oftob o‘qni soyasida hargiz erg‘a tushmadi”, “bu devzodning yonchilg‘on ustixonlarini ovozi batamom Rumg‘a eshitildi”, “andog‘ majlis qildilarki, parilar rashk ayladi”, “yoyning ikki boshini bir yerga kelturub, yondurmay bir piyola choy ichguncha xayol qilib tutib turdi”, “qizlarni voy enaga, degan ovozig‘a chahor bog‘ni tomlari darz ketti”, “Bomonning na’rasi bir kecha kunduzliq yerga eshitildi”.* Bunday tasvirlar qissaning tom ma’nodagi o‘zbekcha jangnoma ekanligini “mana-men” deb ko‘rsatib turibdi.

Qissada pahlavonlarning xatti-harakati, tashqi koʻrinishi – portreti tasvirida ham mubolagʻadan foydalaniladi. Laylivash doʻsti Farruxi Odiyni shunday taʼriflaydi: *“Tun yarmi bor erdi bir pahlavoni odiy zabardast paydo boʻldi. Aning haybatidan osmonu zamin larzagʻa keladur. Karvon xalqi qoʻrqub oldigʻa chiqib taklif qilduk. Men uch kun turgʻizib, sakkiz yuz qoʻy soʻyub, mehmondorliq qilib oʻtkardim. Har eganida oltmish – etmish qoʻyni goʻshtini yolgʻiz er erdi.”* Ushbu lavha giperbolaga ham misol boʻla olishi mumkin. Badiiy adabiyotda oʻta orttirib tasvirlash, kattalashtirish giperbola deyiladi. Masalan, qissada pahlavonlarning qad-qomati oʻta kattalashtirib tasvirlanadi: *“Shul asnoda orqa tarafdin minordek bir nimarsa paydo boʻldi. Boshi bulutda keladur”.*

Shuningdek, badiiy asarda buning aksi ham uchrashi mumkin. Yaʼni narsa-hodisalarning hajmi, koʻlami haqiqatga mos kelmaydigan darajada kichraytirib tasvirlansa, bunday holatni litota deyiladi. *“Xoʻjai Valoguhar koʻrduki, malikani ogʻzigʻa solsa boʻgʻzidan ilonnamo oʻtub ketgudek. Malika muning nazarida bir noʻxotcha bor”, “Farruxiod Xoʻjaning tanho koʻrmab erdi, charoki muni nazarida bir qurtcha bor erdi”.* Har ikkala misolda ham litota sanʼati qoʻllanilgan. Birinchisida Farruxiodning juda katta gavdasini taʼriflash barobarida, malikaning oʻta nozik, kichikkina jussasini tasvirlaydi. Ikkinchi misolda ham oʻquvchi tasavvurida Farruxiodning haybatli qomatini tasvirlash uchun Xoʻja Valoguharning jussasini “qurtcha” kichraytiradi. Qissaning yana bir oʻrnida pahlavon Bahrom raqibini mensimasligini litota yordamida ifodalagan. *“Bahromning achigʻi keldi, aydiki, bu chumolini bir urub oʻqumda yumalatay, deb daxanaki terni chillai kamongʻa band qildi”.*

Badiiy asarda bayon ohangining oʻzgarib turishini taʼminlovchi ohang vositalari ham mavjud. Bu jarayonni adabiyotshunos olim Izzat Sulton shunday izohlaydi: “Hayotdagi kabi personajlarning ruhiy holatlari oʻzgarib, goh osoyishta, goh joʻshqin boʻlib turgani uchun, badiiy tilda bayon ohangi ifoda etilmoqchi boʻlgan mazmunga qarab turlanib turadi”. Ohang vositalarining eng koʻp ishlatiladigan turi inversiyadir. “Inversiya deb gapdagi soʻzlarning odatdagi

oʻrnining almashtirilishiga” aytiladi. Masalan, oʻzbek tili uslubiy qoidasiga koʻra gapning boshida ega, oxirida kesim kelishi kerak. Biroq inversiya jarayoni yuz berganida bu tartib oʻzgaradi. Bu oʻzgarishdan maqsad “asosiy fikrni oldinga olib chiqib uqtirmoqdir.” Misol uchun, qissada keltirilgan *“Olti oydin keyin Rumgʻa elchi yubordi, menga itoat qilsun deb”* jumlasi qoidaga koʻra bunday tuzilishi kerak edi: “Olti oydan keyin menga itoat qilsin, deb Rumgʻa elchi yubordi” yoki *“bul ham jahonni dod adl birla obod ayladi va bunyod”, “Rum podshohidin noma kelibdur, sizni taklif qilgʻali, dedi”* singari jumlalarda ham inversiya mavjuddir.

Til adabiy asar yaratilishida eng muhim omili hisoblanadi. Chunki, rassom oʻz tasavvurini turli ranglar vositasida aks ettirgani singari, yozuvchi ham ijod jarayonida “oʻz quroli” – tilni ishga soladi. Shu sababli, badiiy asar tahlili davomida ijodkor mavjud til imkoniyatlaridan nechogʻlik foydalana olganligiga ham e’tibor beriladi.

Xalq tomonidan yaratilgan mazkur qissaning ham til xususiyati oʻziga xos. Unda qoʻllanilgan turli ma’nodagi birikmalar qissa tilining boyishiga xizmat qilgan. Bunday “tagma’noli” soʻzlar asar tilini badiiy jihatdan bezab, ma’noviy salmogʻini oshirgan. “Qissai Jamshid”da quyidagi tagma’noli birikmalar uchraydi: “*Siyomakni qonini tiladi”* (Siyomakning oʻlimi uchun qasos olmoqchi boʻldi), *“dev ustigʻa yubordi”* (dev bilan jang qilish uchun yubordi), *“yemak va ichmakdin ikki labini tikib”* (parhezkorlik), *“xob va oromni oʻzigʻa harom etib”* (bedorlik), *“devlar jangi uchun yuzlandi”* (devlar bilan jang qilishga tayyorlandi), *“qoʻlgʻa tushqon”* (asir boʻlgan), *“yurt tutib boʻlmas”* (yurtni boshqara olmaydi), *“mehnat va mashaqqat oʻtida kuysun”* (mehnat qilsin), *“yogʻiygʻa tushub”* (asir boʻlib), *“bir piyola choy ichguncha”* (bir muddat), *“muhabbat qozonida qaynagʻon”* (mehridan bahramand boʻlgan), *“makr-u hiylasini koʻkka uchurub”* (hiylasini yoʻq qilib), *“qoʻlidin hech ish kelmadi”* (topshiriqni bajara olmadi), *“koʻngli aylansa”* (rozi boʻlsa), *“yuragigʻa larza tushsun”*(qoʻrqsin), *“rishtai umri bu olamdin tiyur”* (oʻladi), *“paymonasi toʻlibdur”* (oʻlimi yaqinlashgani), *“osmongʻa uchmas, yerga kirmas”* (hech qayerda yoʻq), *“azroilni changalidin”*(oʻlimdan), *“bir poy turar erdi”*

(yolg‘iz), *“ko‘ksidagi olmasig‘a”* (ko‘kragiga), *“suhbatidin hargiz umidin uzolmas ermish”* (yana suhbatlashish orzusida yurish), *“erni ko‘ngluni qoldurmas”* (rozi bo‘lsa kerak), *“malikani olsam”* (malikaga uylansam), *“ko‘nglimg‘a kelg‘oni”* (fikrim), *“ulug‘ tuqg‘onlar”* (qarindoshlar), *“chiyot bog‘ini ichida butagon daraxtni bix va bunyodidin uzub tashlaydur”* (o‘ldiradi), *“savdoda ko‘zingiz pishsun”* (savdo sirlarini o‘rganish), *“bir ko‘zi oldida va bir ko‘zi orqasida”* (ayanchli ahvolda), *“o‘tni boshlab kelibsiz”* (xavfli odamlarni), *“yodlansam yuragim laxta laxta qon bo‘ladur”* (sog‘inib azoblanish), *“ishqida kabob qildi”* (sevib qolish) kabilar. Bu misollarni uzoq davom ettirish mumkin. Ba’zan qahramon, ba’zan qissago‘y tilidan aytilgan mazkur birikmalar qissa tilining badiiy jihatdan boy ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ushbu birikmalar asarning badiiy tilida tasvir aniqligini, ikkinchi tomondan matnning jonli xalq tiliga yaqinligini, tushunarliligini oshirgan.

Bundan tashqari, qissada sinonim birliklar ham uchraydi. Qissago‘y o‘z asarida bir ma’noli iboralarni turli shaklda qo‘llashi orqali qissa tili jozibasini yanada oshiradi. Chunonchi, *“saltanat taxtida qaror topti”, “jahonni o‘z tasarrufida ko‘rdi”* (podshoh bo‘ldi), *“nihonxonai adam sori intiqol qildilar”, “oxir al-amr yer ostida manzil etti”, “olami foniydin jahoni boqiyg‘a intiqol etdi”* (vafot etdi), *“ko‘zig‘a ilmadi”, “nazarig‘a kelturmadi”* (mensimadi), *“oshiqu beqaror bo‘ldi”, “beixtiyor oshiq bo‘ldi”, “oshiq-u nigoron bo‘ldi”* (sevib qoldi), *“bor a’zosig‘a larza paydo bo‘ldi”, “xaft andomig‘a larza tushti”, “yuragi orsiqti”, “zaharasi yorildi”, “badanida har tor mo‘yki bor erdi, jomasidan sarbdor qildi”, “g‘azablari darjo‘sh keldi”, “itlig‘i tuti”, “otash g‘azabi jo‘shqa keldi”* (jahli chiqdi), *“pisand aylab”, “aqida bog‘lab”* (ishonib), *“yuz va ko‘zini yirtib”, “charx urub”* (jazavaga tushib), *“boshig‘a kelg‘on xikoyalarni*”, *“bu falak kajraftorini”, “bu falak g‘addoridin shikoyatlar”* (sarguzashtlarini) kabi ma’nolarda qo‘llanilgan mazkur sinonim birikmalar bir xil holatni turlicha tasvirlash imkonini yaratgan.

Badiiy asarda omonim so‘zlar, ba’zan o‘z ma’nosida, ba’zan esa ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Masalan, qissada ot so‘zi turli ma’nolarda, rang-barang tovlanishda ishlatiladi.

1. ot – hayvon turini bildiradi: *“otni eshokdin o‘z xili birla ul judo qildi”, “menga ot tortsunkim, jangg‘a o‘zim boradurman”*;

2. ot – kishi ismini anglatadi: *“Ammo Siyomak shohni bir o‘g‘li bor erdi, Hushang otlig‘”, “kichik o‘g‘ullarini oti Kan’on erdi”;*

3. ot – ish-harakatni bildiradi: *“to‘qquz yuz pahlavon birla otlandi”, “men har chand bahodir bo‘lsam ham besh o‘nni otib qolurman”*;

4. “ot” so‘zi “muqarrar” sifatlovchisi bilan birikib, iboraviy birikmani ham hosil etadi va qissada “*muqarrarot*” – “*taqdir*” ma’nosida ishlatiladi. *“Kunlardin bir kun Manhayoni g‘aribi va Modaroilardin andog‘ nido qildilarki, mundin keyin xudovashi aytmagil, muqarrarotqa bo‘yun sung‘il, kulbai axzoningdin chiqib, lashkar yarog‘ini tuzatgil va yer yuzini ul mal’unlar sharidin pok etgil”.*

Shuningdek, qissada yuz so‘zi ham turli ma’nolarda ishlatilgan. Misol uchun, *“yuzlarini xokdin va qo‘llarini devlar qonidin pok aylab, taxt ustida qaror oldilar”, “men sizlardin ayrilib, otamni yuzig‘a nechuk boqay”* (insonning yuzi ma’nosida); *“devlar jangi uchun yuzlandi”* (ish-harakat ma’nosida); *“Podshohi Turon to‘rt yuz qirq to‘rt shahri Hindistonni tikti”, “Oni orqasidin yetti yuz ayyori birla Kelgun Rumiyni buyurdi”* (hisob, son ma’nosida); *“Malikai Dilso‘z xushro‘yliqda Malikai Zebohusndin yuz chandon ziyoda erdi”* (sifat ma’nosida); *“pulni yuzidin har kim izzat qilur”, “agar beodoblik qilsa, uy yuzida o‘ltiringlar, dedi”, “devlar aydiki, daryoning ul yuzida olti yuz dev bor”, “bul tog‘ni ul yuzida qizimni yerga berib erdim, mehmondorliqg‘a chorladi”* (ko‘chma ma’noda – metafora)*, “ul tog‘ni og‘irliqi olti yuz botmon erdi”* (o‘lchov ma’nosida) qo‘llanilgan.

Bundan tashqari, qissaning badiiy tilida bir ma’noga ega, biroq turli shaklda yoziluvchi sinonim so‘zlarni ham uchratamiz. Yozuvchi, odatda, bir so‘zni qayta-qayta takrorlamaslik uchun uning sinonimlaridan foydalanadi. Sinonim so‘zlardan mohirona foydalanish badiiy asar tilining boyishiga ko‘maklashadi. Masalan, qissada “kiyim” ma’nosini anglatuvchi turli sinonimlardan mohirona foydalaniladi. *“Mani bu jomalarimni siz oling”, “Bu gulxanchi sevinub, liboslarini yechib berdi”, “Qarton Zangig‘a kishi yubordiki, jang siloxini kiyib kelsun deb”, “ey bo‘tam, siz*

munda kiyimingizni quritib soya olib o‘lturing, dedi”. Ta’kidlash joizki, yozuvchidan vaziyat va holatga ko‘ra sinonimik so‘zlardan to‘g‘ri keladiganini tanlab olish talab etiladi. Bunda so‘zlarning ijobiy va salbiy bo‘yoqdorlik xususiyatiga ham alohida e’tibor berish lozim. Masalan, o‘zbek tilidagi “yuz” so‘zining “bet”, “aft”, “bashara”, “turq” kabi salbiy va “chehra”, “oraz” kabi ijobiy sinonimlari mavjud. Bulardan matn taqozosiga ko‘ra to‘g‘risini tanlay bilish, muallif mahoratiga bog‘liq. “Sinonimlardan to‘g‘ri va unumli foydalanish badiiy tilning rang-barangligiga, takroriylikning kamayishiga va uslubning ravonligiga yo‘l ochadi” [Xudoyberdiyev, 2008: 123]. Qissadagi har bir sinonim so‘z vaziyat va holatga mos ravishda tanlangan. Masalan, *“baliq birlan ovqat qilur erdilar”.* Ushbu gapdagi ovqat so‘zining o‘rniga uning sinonimi g‘azo yoki emish ishlatib bo‘lmaydi. Keyingi misollardagi sinonim so‘zlar ham o‘z o‘rnida, to‘g‘ri qo‘llanilgan: *“Kamak men musofirman, deb emish tiladi”, “uch kunda bir g‘azo beradur, bular o‘lgudek bo‘ldi”, “Qalandarlarni ko‘rdi, so‘ranglar qaydin kelibdur, deb taom chiqordi”.*

Badiiy asarda qarama-qarshi ma’noli so‘zlar ham ko‘p uchraydi. “Antonimlardan yozuvchilar ko‘pincha turli kishilar yoki hodisalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, kontrast holatlar hosil etish maqsadida foydalanadilar” [Xudoyberdiyev, 2008: 124]. Qissago‘y “Qissai Jamshid”da quyidagi antonim so‘zlarni ishlatadi: *“ular lashkari bekaron birla paydo bo‘ldi, birisi uzun, birisi qisqa”, “ey bobo, bu ismiyotni shundoq birla o‘qudimki, bu choh bir quloch bo‘lsa, bu kamon uzun kelmas. Agar ming quloch bo‘lsa, qisqa kelmas dedi”, “Bir baland taxtqa malika chiqib o‘lturdi. Pastroq bir taxtda podshoh Jamshid o‘lturdi.”, “Do‘stungg‘a do‘st, dushmaninga dushman bo‘lay, deb ahd qildi”.* Demak, qissaning til zahirasi ancha boy, qissago‘y rang-barang so‘zlar yordamida voqealarni jonli tasvirlashga erishgan.

“Qissai Jamshid”da adabiy tilning o‘z davridagi mavjud imkoniyatlaridan to‘la bahramand bo‘lgan va o‘ziga xos til xususiyatlariga ega asar, deyish mumkin. Chunonchi, qissada adabiy tilning ko‘pgina shakllariga misol topish mumkin.

“Qissai Jamshid”ning og‘zaki varianti ham o‘ziga xos obrazli va jonli chiqqan. Qissago‘yning tilimizda mavjud bo‘lgan qator tasviriy-ifodaviy vositalardan unumli va mohirona foydalangani qissaning yutug‘idir. Asar tilida o‘sha davr tilining “lug‘at tarkibida endi paydo bo‘lgan” *“elektr chirog‘i”, “durbin”, “obed”, “soldat”* kabi *neologizmlar* va “chet tillardan olingan, lekin milliy til leksik qatlamiga kirmaydigan” *“sovsem”, “prikaz”, “zanyat”, “neujeli”*kabi *varvarizmlar* uchraydi.

Shuningdek, qissada ironiya (kinoya)viy jumlalar ham uchraydi. Juvozkash cholni bir urib boshini osmonga uchirib yuborgan Jamshid uning kampiriga shunday deydi: *“momo, sizlarni kallalaringiz bo‘sh bo‘lama, men axir boboning soqoliga bir narsa qo‘ngan ekan, shuni olayin desam, kallasi uzilib ketdi-ku”.*

“Ba’zan so‘z va iboralar shunday tartibda joylashtiriladiki, go‘yo birining ma’nosi keyingisi tomonidan kuchaytirib, rivojlantirib borilgandek bo‘ladi. Bu kuchaytirish, deb ataladi” [Xudoyberdiyev, 2008: 152]. Qissago‘y tomonidan qayta-qayta tilga olinadigan mazkur jumla bunga misol bo‘la oladi. *“Osmonning osti, jerning usti, yetti iqlim, dev, pari, ins-jinsga podsho bo‘ldi”.*

Mazkur asarda hikmatli so‘z, aforizmlar ham ko‘p uchraydi: *“Bo‘rining bolasi bo‘ri bo‘ladi, yo‘lbarsning bolasi yo‘lbars bo‘ladi, tulkining bolasi tulki bo‘ladi”.*

Shuningdek, asarda o‘xshatish san’atidan ham mohirona foydalanilgan: *“Xushro‘yligi Yusuf payg‘ambarcha, qadi-qomati Alicha, odamgarchiligi Xotamtoycha ekan”, “olti yuzta polvonini qip-qizil, jap-jangi gilamdek tuzib”.*

Ayniqsa, qissago‘y tomonidan mubolag‘a san’atining rang-barang ko‘rinishlarining qo‘llanilishi asar badiiyatini yanada oshirgan:*“Bir o‘yin bo‘ldi osmonda farishta, ko‘kta turgan parilar tamosho qildi”, “yetti tegirmon toshi bog‘langan gurzisi bilan urdi, ammo chivin chaqqanday bo‘lmadi”, “sen urishni bilmas ekansan, deb bir urdi, kallasi uzilib osmonga ketdi”, “bu askarlarning sonini xudo bilmasa, bandasi bilmaydi. Bulardan tangaday joyga kun tushmaydi, tayoq tashlasa yerga tushmaydi”, “Jamshid o‘n ikki tabaq oshni ko‘rdim demay shipirib urdi”, “malikaning osmonda farishta, ko‘kda turgan parilarga jamoli g‘alaba qilur erdi”.* Ko‘rinib turibdiki, parchada ig‘roq san’ati ham mahorat bilan ishlatilgan.

Asarda portret tasvirining ham o‘ziga xos namunalari, rang-barang ko‘rinishlari yaratilganligini kuzatish mumkin: Malikai Dilso‘z haqida so‘z ketganda, *“o‘ttiz ikki zulpini kiptiga taylab, yuziga upa-elik urub, boshiga balxiy ro‘molin chirmab, oyog‘iga tilla kovush kiyib”* yoki kanizaklar tilga olinganda, “oyog‘iga qizil xirom etik, beliga guldor ro‘mol, egniga beqasam to‘n-u boshiga sallani taylab”.

Qissada quyidagicha saj’ san’ati qo‘llangan jumlalar ham mavjud: *“Tepadan o‘choq qo‘ydirib, tuya tevani so‘ydirib, musofirni tilagandek to‘ydirib”, “kechani kecha qilib, kunduzni kunduz qilib, ko‘zini julduz qilib”, “ochilmagan bo‘xchamni o‘zing ochting, sochilmagan bo‘xchamni o‘zing chochting”.*

Ko‘rinadiki, “Qissai Jamshid”ning xalq varianti ham til va badiiy xususiyatiga ko‘ra o‘ziga xos bir nasr namunasidir. Qissa badiiy san’atlarga boyligi, rang-barang tasvirlar, qahramonlar ta’rifidan tortib, ularning ruhiy olami ham o‘z davrining til imkoniyatlaridan to‘la foydalangan holda berilgan.

Qissaning poetik xususiyati ham o‘ziga xos. Unda rang-barang badiiy-tasviriy vositalar va badiiy san’atlardan unumli foydalanilgan. Yozma variant birmuncha sayqallangan tasvirlarda tafsilotlar o‘ta bo‘rttirilib yoki o‘ta nafislashtirilib berilsa, og‘zaki variantda esa oddiy so‘zlashuv uslubida voqealar lo‘nda bayon etiladi.

Demak, Jamshid qissasi ham an’anaviy sujet asosida yaratilgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotida qayta ishlanib, o‘ziga xos original asarga aylangan. U kitobxonni adolatpeshalik, mardlik, sadoqat, uddaburonlik, ilm, kasb-hunar egallash, sabr-qanoatli bo‘lish, murakkab vaziyatlardan aql-farosat, tadbirkorlik bilan chiqib keta olishga da’vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. جنگنامۂ پادشاه جمشید. Тошбосма, ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Адабиёт ва санъат музейи фонди, Инв. №118. 1335 й. (ҳижрий)
2. جنگنامئ پادشاه جمشید بین تهمورس دوبند. Тошбосма, ЎзР ФА ШИ Инв. №4712, №16655.
3. هیکایتي جهان حوشایان جمشیدشاه Ҳикояти жаҳон хушоён Жамшидшоҳ. Қўлёзма, ЎзР ФА ШИ Инв. №Р:4498. 1325 й. (ҳижрий)
4. جمشیدناما. Қўлёзма, ЎзР ФА ШИ Инв. №11653-II.
5. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA RETSEPSIYA HODISASI

Abdulaziz G‘aybullayevich Qosimov
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
abdulaziz.qosimov@sparkassenstiftung.de

Annotatsiya

Maqolada badiiy asarni anglash, idrok etish va uning muallifiga munosabat bildirish, badiiy ijod mahsuli atrofidagii jarayonning barcha bosqichlari adabiyotshunoslik ilmida retsepsiya termini bilan umumlashtiriladi. Jarayonning butunligi o‘quvchi bilan boshlanib, o‘quvchi bilan tugaydi. Yaxlitlikni mukammal tasavvru qilish uchun jarayondagi har bir bosqich va qadamlar umumiy bir tizimga keltirilgani tahlil qilinadi.

Kalit so‘**zlar**: retsepsiya, retseptiv estetika, o‘quvchi-matn-yozuvchi (shoir) munosabati, badiiy-estetik did, badiiy kommunikatsiya.

Annotation

The article summarizes all the stages of the process surrounding the product of art, understanding, perception of the work of art and the attitude to its author, the term reception in the science of literature. The whole process begins with the student and ends with the student. In order to have a perfect picture of the integrity, each step and steps in the process is analyzed to be brought into a common system.

Key words: reception, receptive aesthetics, reader-text-writer (poet) relationship, artistic-aesthetic taste, artistic communication.

Har qanday mutolaaning ortida matn yoki butun bir asarning tahlili, talqini va ta’siri masalasi yotadi. Badiiy adabiyotni mutolaa qilgan o‘quvchi ko‘pincha uzoq vaqt asarning ta’siridan chiqolmasdan, uning qahramonlari bilan xayolan suhbatlashib, o‘z his-tuyg‘ulari va taassurotlari bilan kurashib yuradi. Ba’zan esa, asar muallifi bilan g‘oyibona bahs-munozara yuritadi. Bu jarayonga amaliy jihatdan yondashilsa, har bir mutolaa qilishga layoqati bor insonning, aynan, jarayondagi ishtiroki qanday ekani, jarayonga nima uchun kirgani, qanday maqsadni ko‘zlab mutolaani boshlagani, unga kim yoki nima turtki bo‘lgani kabi masalalarga oydinlik kiritishga to‘g‘ri keladi. Mutolaa jarayonini o‘rganish aksariyat hollarda mavhum masala bo‘lib tuyuladi. Buni ko‘pchilik olimlar odatiy hol, deb baholaydi. Boshqa bir qarashga ega tadqiqotchilar esa uni ta’sir jarayoni deb ataydi. XX asrning birinchi yarmida Germaniyada shunday bir yo‘nalish va harakat paydo bo‘ldiki, bu harakat mutolaa jarayonini bemalol tahlil qilib, aniq bir tizimga solish uchun imkon berdi. Bu jarayon fanda retsepsiya nomini oldi. Retsepsiyani, aslida, shunday

tushunish kerakki, uning lug‘aviy va istilohiy ma’nosi jarayondagi ma’nosini to‘ldirishi lozim.

“Retsepsiya” atamasining adabiyotshunoslikda tutgan o‘rni borasida so‘z yuritishdan oldin, ijtimoiy sohalarda qo‘llanilishi bo‘yicha bir qator hayotiy misollar keltirib o‘tish o‘rinli bo‘ladi:

- o‘zga yurtlarga sayohat vaqtida, xizmat safarlariga chiqqanda, ko‘pincha, mehmonxonalarda qolinadi. Har bir mehmonxona foyesida kelganlarni qabul qiluvchi, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi joy bo‘lib, u joy resepshin (Reception) deyiladi. Ma’lumki, resepshin mehmonlarni ro‘yxatdan o‘tkazishdan tortib, xonalar bilan ta’minlash, to safar nihoyasiga etgunga qadar mehmonxonada bo‘ladigan barcha jarayon uchun mas’uldir. Qisqasi, boshidan oxirigacha butun mas’uliyatni sidqidildan o‘z zimmasiga oladi va mehmonlarga yaxshi muomala qilinadi;

- bu atama tibbiyot sohasiga ham begona emas. Shifokor tekshiruvdan o‘tgan bemorga davo topishi uchun retsept yozib beradi. Bu retsept orqali davolangan bemor tezda shifo topadi;

- bundan tashqari oshpazlik (kulinariya) sohasida oshpaz yangi ovqatni maxsus retsept (tartib) asosida tayyorlaydi. Agar oshpaz uddalay olsa, retsept asosida pishirilgan mazali ovqat xo‘randalarga ma’qul keladi va o‘sha ovqat tez orada mashhur bo‘ladi.

Umuman resepshin, retsept va retsepsiya atamalari, aynan, qabul qilish, o‘rganish, g‘amxo‘rlik qilish, tuzalish ma’nolarida keladi.

Retsepsiya atamasining badiiy adabiyotga ta’siri va adabiyotshunoslikning tahliliy mezonlariga tegishli jihatlarini ko‘rib chiqish kerak. Retsepsiya atamasining badiiy adabiyotga ta’siri va adabiyotshunoslikning tahliliy mezonlariga tegishli jihatlarini ko‘rib chiqish kerak. Adabiyotshunoslikda retsepsiya jarayoni orqali biron-bir badiiy asar borlig‘ini yoki asar muallifi qarashlarini bilish lozim. Bunda mutolaadan avval va keyin qabul qilish, o‘rganish, tahlil, tanqid qilish hodisasi tushuniladi. Retsepsiya jarayoniga dunyo olimlari turli tomondan yondashgan. Polshalik faylasuf Roman Ingarden: „Retsepsiya – bu badiiy san’at asarining

tushunilishidir”[Ingarden, Roman, 1968: 23], degan fikrni ilgari suradi. Rossiyalik tilshunos va adabiyotshunos Viktor Jirmunskiy fikricha: „Badiiy asar retsepsiyasi adabiy ta’sir jarayonining asosidir”[Jirmunskiy. V.M, 1982:10-11]. Yevropa va rus estetikasida yangi bir soha paydo bo‘lganini ta’kidlab o‘tgan professor Abdug‘afur Rasulov, bu sohani „Retseptiv yondashuv yoxud o‘zlashtirish, qabul qilish estetikasi”[A.Rasulov, 2007: 85], deb ataydi. Aynan, shu yo‘nalishni Abdulla Sher „estetik idrok etish”[Sher.A., 2015: 349] deb baholaydi. Bu fikri bilan polshalik olim Roman Ingardenning fikrini aynan takrorlaydi. Professor Abdurahim Erkayev esa, „Mutolaa jarayonida asarga va uning muallifiga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabatga kirishishga, estetik ong va badiiy bilish, anglash muhimligiga” [Erkayev.A., 2015: 134-143] e'tibor qaratadi. Badiiy adabiyot mohiyatan, birinchi navbatda, „insonshunoslik” [O.Sharafiddinov, 2019: 60] bo‘lgani uchun, badiiy matn kitobxon tomonidan o‘zlashtirilgach, o‘quvchining o‘ziga xos ijodi bilan to‘yingach, badiiy asar tusini oladi. Matn – hali badiiy asar emas, matnning badiiy asarga aylanishi, kitobxon tomonidan o‘zlashtirilishi, tasdiqlanishi, murakkab jarayon. Ammo bu fikrlarning barchasini birgina retsepsiya atamasi bilan ifodalash kifoya. Bu ilmiy atama zamirida o‘rganish, o‘zlashtirish, qabul qilish, anglash, sayqallash, takomillashtirish tushunchalari yotadi. Retsepsiya atamasi faqat chet eldan kirib keladigan badiiy asarlarga tegishli emas. Aslida, avval milliy adabiyot retsepsiyasi sodir bo‘lmasdan, boshqa xalq adabiyotiga munosabat bildirib bo‘lmaydi. Demak, retsepsiya badiiy asarni, uning muallifini nafaqat o‘quvchi tomonidan, balki o‘z navbatida adabiy tanqid va tahlil doirasi tomonidan ham qabul qilinganini anglatadi. Bu esa, bir vaqtning o‘zida ham o‘quvchi, ham tanqidchi-adabiyotshunos tomonidan asar bo‘ylab “qazilma ishlari” boshlanganidan dalolat beradi.

Bir asarni faqat bir marta, bir olim retsepsiya mezonlariga ko‘ra, tahlil qilishi kerak yoki birinchi kim o‘sha asar retsepsiyasiga qo‘l ursa, uning fikri to‘g‘ri, degan qarash umuman mavjud emas. Chunki, badiiy asar har bir o‘quvchi tomonidan turlicha tushuniladi. Agar badiiy asar millionta o‘quvchi tomonidan bir vaqtda

oʻqilsa, ularda millionta fikr va retseptiv qarash mavjud boʻlishi tabiiy hol. Ammo oʻquvchini oʻziga butunlay boʻysundiradigan kitoblar, afsuski, har doim ham tushunilavermaydi. Oddiy oʻquvchi retsepsiya jarayonini tushunmasligi mumkin, ammo badiiy asarni oʻqigandan keyin, asar qahramoni boʻlib yashashga intilayotganini oʻzi ham tasavvur qilolmaydi. Hattoki, koʻpchilik tadqiqotchilar oʻquvchining fikri ilmiy qarashlar uchun asos boʻla olishiga eʼtibor qaratmaydilar, ham. Oddiy qurilish muhandisi avtobusdagi suhbatda Hermann Hessening “Choʻl boʻrisi” romanini oʻqib, “Men asarda oʻzimni koʻrdim, mening taqdirim bayonini oʻqidim” deyishining oʻzi, asarga berilgan baho sanaladi. Yoki “Yosh Verterning iztiroblari”ni oʻqigan yosh yigitlarning kiyib yurgan kiyimlari (sariq koʻylak) oʻzgarib qolishlari, baʼzan esa tushkunlikka tushib qolishlari ham retsepsiya jarayonining yaqqol koʻrinishidir. “Oʻtkan kunlar”ni oʻqigan oʻquvchi yigit Otabek boʻlishga yoxud oʻquvchi qizning oʻzini Kumush oʻrniga qoʻyib koʻrishining oʻzi ham retsepsiya jarayonining boshlanishi hisoblanadi.

Agar asarda hovli tasviri berilsa, har bir oʻquvchi koʻpincha oʻzi tugʻilib oʻsgan hovlini tasavvur qiladi, ona haqida gap borsa, oʻz onasi xayoliga kelishi retseptiv estetikadir. Bu kabi detallar asarning tezroq tushunilishiga olib keladigan vositalardir.

Shuni alohida taʼkidlash joiz, ushbu atamani qoʻllaganda kontekstga qarab, qaysi maʼnoda ishlatilayotgani aniqlanadi. Retsepsiya atamasini, asosan, Rim tarixchilari huquq sohasida keng qoʻllashgan. Ular Rim imperiyasining qonunlarini boshqa xalqlar tomonidan qabul qilinishini, oʻrganilishini hamda tatbiq etilishini ham retsepsiya deb atashgan[Словарь иностранных слов, 1979: 444]. Umuman, retsepsiya tushunchasi boshqalarning gʻoyalarini, meʼyorlarini va madaniy asori-atiqalarini qabul qilishni, eʼtirof etish va oʻziga singdirishni anglatadi. Adabiyot, sanʼat va musiqa sohalarida ushbu tushuncha kitobxon, tomoshabin va tinglovchi tomonidan yuqoridagi sohalarni oʻziniki qilib olish hodisasiga qaratiladi. Retseptiv estetika oʻz oldiga shunday vazifa qoʻyganki, unga koʻra qabul qiluvchilar va sanʼatkorlar kutgan daraja bir-biriga qorishib ketishi kerak. Demak, retsepsiya


estetikasi biror-bir asarning ta’sir qilish tarixi, retsepsiyaning estetik did, dunyoqarash, jamiyatdagi tabaqa va boshqaruvga tobeligi bilan shug‘ullanadi. San’at retsepsiyasining rivojlanishi bir tomondan, qabul qiluvchilarning dunyoqarashi, turmush tarzi o‘zgarishiga va ikkinchi tomondan, san’atkorlarning o‘z ustilarida qay darajada ishlaganlariga borib taqaladi. Madaniyat sohasidagi retsepsiya boshqa xalqlar ma’naviy boyliklarini o‘z tasavvurlariga qabul qilish hamda singdirishni ifodalaydi va bu kabi retsepsiya jarayoni oson kechmaydi. Chunki retsepsiya tushunchalarga, ma’nolarga, fikr va g‘oyalarga ko‘chadi hamda madaniy-ma’naviy boylikni “o‘ziniki” qilib olinadi[Link, 1980: 34].

Rezeption – entlehnt aus dem receptio – aufnehmen, annehmen[Kluge, 1995: 685].

Rezeption – Auf-, Übernahme; Empfangsbüro eines Hotels[Meyers Taschenlexikon, 2000: 575].

Retsepsiya (lot.) (fiziologiya) – retseptorlarning ta’sir kuchini qabul qilib olib, uni nerv impulslariga aylantirish[Entsiklopedik lug‘at, 1990: 135].

Adabiyotshunoslikda retsepsiya jarayoni o‘zlashtirish, idrok etish[Sher.A., 2015: 349-357], tushunish, adabiy ta’sir, adabiy aloqa degan turli atamalar bilan nomlanadi. Ammo yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, aynan retsepsiya barcha hodisalar, bosqichlar asosida turuvchi va jamlovchi atama hisoblanadi. Hozirgi tezkor zamonda o‘zbek milliy adabiyoti va adabiyotshunosligining xalqaro miqyosda badiiy asarni qabul qilish bilan bog‘liq tanishtirish imkoniyati chegaralarini yanada kengroq hamda qamrovliroq shakllantirish, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunday ekan adabiy hodisani hamma tez va oson tushunadigan retsepsiya istilohi bilan nomlash juda o‘rinli bo‘ladi. Retsepsiya jarayonini yaxlit tizimga aylanishiga ko‘mak beruvchi bosqichlar, ishtirokchilar jamlanmasini, aynan, o‘zbek adabiyotshunosligida olib borilayotgan barcha tadqiqotlarni quyidagi shartli chizmaga mos tasavvur etish mumkin.



“....Yana bir marta takrorlaymiz, millatlar bir xil o‘ylashlari shart emas, balki bir-birlarini tanishni, tushunishni, garchi bir-birlarini yoqtirmasalar-da, bir-birlariga nisbatan kamida bag‘rikenglikni o‘rganishlari, albatta, shart....” [Goethe:363]. Ushbu tanishni va tushunishni nemis adibasi Krista Volf o‘zining “Kindheitsmuster” (“Bolalik namunasi”) nomli kitobida, yana bir bor eslab o‘tadi: “O‘ylaymanki, insondagi borliqni anglash va tushunish murvati adabiyot tomonidan shakllantiriladi. Biz hozirgi holatimizga qanday erishdik? degan savolga, albatta, bir qator kitoblarning ro‘yxati bilan javob berish mumkin”[Wolf, 1979: 339]. Inson ongi borliqni tushunishi va anglashi, mulohaza yuritishi bilan boshqa mavjudotlardan farqlanadi. O‘zga millat adabiyoti va san’atiga yaqinlashishni Hans-Georg Gadamerning falsafiy hermenevtikaga oid qarashlariga ko‘ra, uning ta’biri bilan “das ist alles nur Verstehen” [Gadamer, 1986: 380] (“Buning hammasi faqat tushunishdir”) deb atash mumkin.

Empirik retsepsiya vakillari hozirda sotsiologiya (jamiyatshunoslik) va demoskopiya (xalq fikrini o‘rganish) yo‘nalishlaridan ma’lum bo‘lgan kitobxonlar bilan intervyular o‘tkazish, nashriyotlarning arxivlarini o‘rganish, kitob sotuvchilar

o‘rtasida so‘rovlar olib borish kabi metodlar bilan ishlashadi. XX asr 80-yillarning boshidan boshlab ushbu metodlar juda tez ommalashdi. Bugun kim qanaqa asarni, qaerdan olishni, kimga tavsiya qilishini biladi. Ammo badiiy matnlar ta’sirini ifoda qilish qiyin.

Psixologik takomillashgan intervyu usullari matnning ma’lum bir kitobxonda qandaydir his-tuyg‘ularni uyg‘otishini asoslab beradi. Birgina jahon klassikasining durdonasi bo‘lgan Y.V.Gyotening “Faust” asari kitobxonga, butun bir millat va mutaxassisga qay tarzda ta’sir ko‘rsatganini aniq aytish, mushkul. Ammo adabiyotshunoslar retsepsiya tadqiqoti jarayonida adiblar, olimlar, kitobxonlar tomonidan yozib qoldirilgan xatlar, kundaliklar orqali badiiy matnning ta’sirini o‘rganadi. Hayne, Nitsshe yoki Rilkelar “Faust” asari haqidagi fikrlarini yozib borishgan va bu bilan kitobxonning asar haqidagi retseptiv fikrlarini rivojlantirishga yordam berishgan. Yana bir narsani ta’kidlash kerak, empirik retsepsiya tadqiqoti jarayoni tezda nihoyalanadigan va xulosa yasaladigan tahlil turi emas.

Retsepsiya bevosita yozuvchi – matn, matn – o‘quvchi, yozuvchi – o‘quvchi munosabatlariga oydinlik kiritadi. Har qanday sharoitda ham oxirgi gap o‘quvchi tomonidan aytiladi. Oxirgi fikrni ayta olish uchun asar o‘quvchining badiiy-estetik didiga mos kelishi (salbiy yoki ijobiy) kerak. Bu masala asosan retseptiv estetika qamrovida muhokama qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Braun, Julius W. (Hrsg.): Lessing im Urteile seiner Zeitgenossen. Zeitungskritiken, Berichte und Notizen, Lessing und seine Werke betreffend aus den Jahren 1747 – 1781, 2 Bde. Berlin 1884 u. 1893, Bd. I, S. V.
2. Dedecius, Karl: “Überall ist Polen” (“Ҳар ерда Польша”). / Frankfurt/M. Suhrkamp, 1974, S. 81.
3. DUDEN. Band 5. Das Fremdwörterbuch: Mannheim; Leipzig; Wien; Zürich.: Dudenverlag., 1990. – 834 S. (S. 684)
4. Gadamer, Hans-Georg: Hermeneutik I. Wahrheit und Methode. Grundzüge einer philosophischen Hermeneutik. / - Tübingen 1986, S. 380 – (Буларнинг барчаси тушунишдир (таржимон Абдулазиз Қосимов)).
5. Goethe, Johann Wolfgang: Schriften zur Literatur. In: Goethes Werke. Hamburger Ausgabe, Bd. 12, S. 363
6. Groeben, Norbert/ Vorderer, Peter: Leserpsychologie: Lesemotivation – Lektürewirkung. / Münster 1988, S. 193.
7. Habermas, Jürgen. “Erkenntnis und Interesse” (“Билим ва қизиқиш“). / Frankfurt/M. 1973, - S. 211.

8. Ingarden, Roman Vom Erkennen des literarischen Kunstwerkes. / - Tübingen. Verlag: Max Niemeyer Verlag. 1968, 440 S, - S.23

9. Kluge, Friedrich: Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache / Kluge. Bearb. Von Elmar Seebold – 23., erw. Auflage – Berlin; New York; de Gruyter; 1995. – S. 926 (S. 685) (Таржимаси (Абдулазиз Қосимов): receptio сўзидан олинган бўлиб, қабул қилмоқ).

10. Link, Hannelore : Rezeptionsforschung- Eine Einführung in Methoden und Probleme. Kohlhammer, Stuttgart/Berlin/Köln/Mainz, 1980. *Gibt Einblick in die rezeptionstheoretischen Modelle verschiedener literaturwissen-schaftlicher Richtungen und behandelt abschließend verschiedene Typen von Rezeption, S. 34.*

11. Mandelkov, Karl Robert: Probleme der Wirkungsgeschichte. In: Jahrbuch für internationale Germanistik. Jg. 2., // 1970, H.1, S. 71-84.

12. Meyers Taschenlexikon (in einem Band); Mannheim; Leipzig; Wien; Zürich: Taschenbuchverlag, 2000.–S. 794 (S.575) (Таржимаси Абдулазиз Қосимовга тегишли: Меҳмонхонанинг кутиб олиш, рўйхатдан ўтказиш бюроси).

13. Nayhauss, Hans-Christoph Graf v. et al. (Hg.) Dokumentation zur Rezeption und Didaktik deutschsprachiger Literaturen in nichtdeutschsprachigen Ländern;/ München. iudicium verlag Copyright © 1993/ 2012, 214 S.

14. Nicolovius, Alfred (Hrsg.): Über Goethe, literarische und artistische Nachrichten. Erster Teil. Leipzig 1828.

15. Sher A. Estetika (nafosat falsafasi). – Toshkent: O‘zbekiston, 2-nashr, 2015.

16. Wolf, Krista: Kindheitsmuster./ Darmstadt – Neuwied 1979, S. 339 (=Sammlung Luchterband 277)

17. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. / М.: Худож. лит., 1979.

18. Жирмунский В. М. Сравнительное литературоведение. / Л.: Наука, 1979. 304 с.

19. Жирмунский, В.М. Гёте в русской литературе./. – Л.: Наука Ленинградское отделение, 1982. 560 с.

20. Каримов Ш. Замон ва маконлар оша (Абдулла Қодирий Германияда). Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005.

21. Летина Н. Н. Теоретические основания рецепции в провинциальном искусстве // Регионология. 2008. № 3. С. 295-302.

22. Расулов, Абдуғафур. Бадиийлик – безавол янгилик. / – Т.: “Шарқ”, 2007. – 336 б.

23. Словарь иностранных слов. – 7 – е изд., перераб. – М.: Русский язык, 1979. стр. 444.

24. Чўлпон ва танқид (матнларни нашрга тайёрловчи ф.ф.д. Баҳодир Карим). - Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004.

25. Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Т.: Sharq, 2019. 60-бет.

26. Энциклопедик луғат. 2-жилд. / – Т.: Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси, 1990.135-бет.

27. Эркаев А. Эстетик онг ва бадиий билиш. // Жаҳон адабиёти, 2015. 11-сон. 134-143-бет.

SHOYIM BO‘TAYEV USLUBIGA XOS JIHATLAR

Oripova Gulnoza
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
gulnoza_oripova81@mail.ru
Tolibova Madinaxon Toyirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti
mtolibova@internet.ru

Annotatsiya

Maqolada Shoyim Bo‘tayevning “Hisomiddin al-Yog‘iy” hikoyasi tahlili orqali yozuvchi uslubi tadqiq etilgan.

***Kalit so‘zlar*:** badiiy asar, uslub, mavzu, g‘oya, tarixiy mavzu, ijodkor, muammo.

Annotation

The article examines Shoyim Botayev's writing style through an analysis of Hisomiddin al-Yaghi's story.

Key words: artwork, style, theme, idea, historical theme, creator, problem.

Badiiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati mahsuli asosida yaratiladi. Har bir ijodkorni muayyan muammolar o‘ylantiradi va tashvishga soladi. Ijodkor uchun o‘sha muammoni idrok etish ichki ehtiyojga aylangani sababli ham asarga qo‘l uradi. Ijodkor o‘zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etish uchun keng va qulay imkon beruvchi hayot materialini tanlaydi va tasvirlaydi. Shunday ekan, badiiy asar mavzusi “ijodkor tomonidan tanlab oiingan va hayotning muayyan muammolarini umumiylashtirgan voqealar tasviri, ana shu akslangan hayot (voqea) ko‘rinishlarining mag‘zini chaqish (fikriy tadqiqot va tahlil) va uni g‘oya-viy-emotsional tarzda baholashdir” [Quronov,2013: 158]. Adabiyotshunoslikda badiiy asar mavzularini uch turga ajratish mumkinligi adabiyotshunoslar tomoni-dan izohlangan: 1) adabiy mavzular, 2) tarixiy mavzular, 3) zamonaviy mavzular [Umurov, 2015: 115].

Mavzular qanday atalishidan qat’i nazar hammasining asosida zamondoshlar-ning ko‘nglini band etgan muhim masalalarga javob izlash va javobda insoniylashgan umumbashariy dolzarb g‘oyalar targ‘ib qilinishi talab etiladi. Badiiy asar muayyan bir mavzuni tasvirlar ekan, bevosita shu mavzuning haqiqatini kashf qilish bilan ko‘pning diqqatini e’tibordan chetda qolayotgan muammoga qaratadi.

Demak, mavzu aks ettirilayotgan voqea-hodisalarning umumlashmasi, yig‘indisi, ya’ni badiiy asar uchun tayanch bo‘lgan asosiy fikr va maqsad ob’ektidir. Rus adabiyotshunosi V.Jirmunskiyning fikriga ko‘ra: “Badiiy asar uslubi faqat uning tiliga oid hodisa emas, balki tasvir vositalari, badiiy so‘z orqali ifodalangan badiiy asarning mavzu ko‘lami, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi kabi unsurlariga ham taalluqlidir”. Uslub badiiy asar mavzusi, obrazlari va kompozitsiyasi tarkibini tashkil etuvchi struktural hodisa bo‘lishi bilan bir qatorda, mana shu sanalgan komponentlarni uyg‘unlashtirib turuvchi asosiy birlik hamdir.

Hozirgi o‘zbek hikoyachiligida o‘z uslubiga ega bo‘lgan iste’dodli adib Shoyim Bo‘tayev “Qora tuman”, “Tunda ko‘ringan bog‘”, “Quyosh ko‘lkasi”, “Ko‘chada qolgan ovoz”, “Hisomiddin al-Yog‘iy”, “Haykal”, “Yolg‘iz odam”, “Maktab Qorovuli”, “Qora Klit” kabi qator hikoyalari bilan milliy nasrimiz rivojiga hissa qo‘shmoqda. Ma’lumki, hikoya epik turning kichik shakli bo‘lib, qahramon hayotidagi bitta voqea qalamga olinadi. “Tasviranayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechishi hikoyaning hajman kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo‘lishini taqozo etadi”. Bu esa hikoya janriga xos xususiyat hisoblanadi. Yozuvchi Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida ana shunday kichik hajm, sodda syujet ustuvorlik qilishi kuzatiladi. Masalan, uning “Hisomiddin al-Yog‘iy” tarixiy mavzudagi hikoyasida insonning umri mazmuni, e’tiqodi, vijdoni kabi masalalar qalamga olingan. Adibning mazkur hikoyasida tarixiy shaxs, Chig‘atoy ulusining hukmdori Alouddin Tarmashirin (Chig‘atoy) obrazi keltirilgan. Ma’lumki, Alouddin Tarmashirin – Movarounnahr sultoni bo‘lib, u chig‘atoiylardandir. Tarmashirin yoshligida buddaviycha Darmashila ("dharma, ya’ni Budda qonuniga itoat etuvchi") nomi bilan atalgan. Islomni qabul qilgach, Alouddin deb atala boshlagan. Islomni qabul qilgani, ko‘chmanchilar an’analarini buzib, shaharda yashay boshlagani, bu saltanat sharqidagi (Yettisuv va Issiqko‘l bo‘yidagi) ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning noroziligiga va ularning qo‘zg‘olon ko‘tarishiga sabab bo‘lgan. Qo‘zg‘olonchilar Tarmashirinni o‘ldirgan-lar va xonlar qarorgohi yana bir necha yilga Ili daryosi bo‘ylariga ko‘chirilgan.

Muallif islom dinining peshvolaridan biri, “darveshlar darveshi, shayxlar shayxi Hisomiddin al-Yog‘iy”ning buyuk, tanti va halolligi, e’tiqodiga sadoqatini tasvirlar ekan, insonning o‘zligini anglashi, ma’naviy olamini poklashi, halol bo‘lishiga chorlaydi. Hikoyada tasavvufiy g‘oyalar shayxning “egnida janda qabo, boshida rangi o‘ngib ketgan kalonsuvo” kiyishi, sayyoh bilan bo‘lgan quyidagi suhbatidagi tasvirida yaqqol namoyon bo‘ladi:

“– To‘ningizni qarang, ancha urinib qolibdi-ku, taqsir, — dedi sayyoh ko‘zi bilan shayxning egnidagi ayrim joylariga yamoq tushgan qavima qaboga ishora qilib. Shayx jilmaydi. Jilmaya turib:

– O‘g‘lim, bu ham meniki emas, qizimnikidur, — dedi. Sayyoh egnidagi po‘stinni yechishga urinayotib:

– Marhamat qilib, mana shu po‘stinimni olib kiysangiz, – deya taklif qildi.

– Yo‘q-yo‘q, urinma, o‘g‘lim, – shayx sayyohning qo‘lidan ushlab po‘stinni yechdirmadi.

– Sizga sovg‘a deb...

– Rahmat, o‘g‘lim, rahmat, -dedi shayx minnatdor bo‘lganday. – Men ellik yil muqaddam hech kimdan tuhfa olmayman deb Allohga qasam ichganman, mabodo, sovg‘a olguday bo‘lsam, albatta, sendan olgan bo‘lardim”. [Bo‘tayev, 2015: 92]

Hikoya “Qish chillasi oyoqlandi” degan jumla bilan boshlanadi. Muallif Umar roziyallohu anhuning “Qish fasli Allohga ibodat qilguvchilarning g‘animatidur”, deb aytgan fikrlari asosida asarga o‘zining badiiy g‘oyasini singdiradi. Hisomiddin al-Yog‘iy qish chillasida juma namoziga kelgan barcha musulmonlarning qalbiga, vijdoniga “ko‘zgu” tutish orqali ruhining “g‘amini eyish” payti kelganlligini aytib o‘tadi. Sulton ham aynan shu qish chillasida shayx va’zi orqali “o‘z ruhining g‘amini emoqda edi!” Sulton “a’yonlarining g‘amini hamisha yeb, ustini butlab, qornini to‘qlab kelgan sulton” endi o‘z ruhining g‘amini yemoqda edi.

Sulton juma namoziga kechib kelar ekan, masjidning umumiy ruhi uni o‘ziga singdirgan edi. Shu paytda Sulton Alouddin Tarmashirinning “Buyukligi abas topdi. Xoqonligi unut bo‘ldi”.

Muallif hikoyaga marokashlik sayyoh Ibn Battutani o‘zining badiiy niyatini amalga oshirish uchun kiritgan. Marokashlik sayyoh masjidda ham, sultonning ziyofatida ham ishtirok etadi. Ana shu ikki makondagi (masjid va saroy) tasvir inson zotining butun borlig‘ini namoyon etgan. Masjiddagi har bir ibodat qiluvchining o‘z-o‘zini, ruhini tahlil qilishi, qalbidagi imon va e’tiqodi, shayxga bo‘lgan munosabati kabi masalalar masjid tasviri bilan uyg‘un holda aks etgan.

Saroy va undagi amaldorlar, ularning hatti-harakatlari, gap-so‘zlari tasviri orqali boylikka o‘ch, nafsi va manfaatini o‘ylovchi xudbin kimsalar tasvirlangan. Ular insonga berilgan umr mohiyatini anglay olmayotgan “basir” kishilardir.

Asarning sarlavhasi semantik kalit vazifasini o‘taydi. Demak, sarlavhada ham yozuvchi badiiy g‘oyasi aks etgan. Hisomiddin al-Yog‘iyning shaxslik va shayxlik sifatlari butun hikoya davomida dinamik tarzda o‘sib borgan. Alouddin Tarmashirin marokashlik sayyohga Hisomiddin al-Yog‘iyning komil shayxlik sifatlarini tasvirlar ekan, uning timsoli orqali butun dunyo buyuk va kuchli, qudratli xalq borligini bilishini istaydi: “Sulton Alouddin Tarmashirin sayyohga oq yo‘l tilarkan, lablari chetida nimtabassum bilan shunday so‘zlarni aytdi:

– Sizning oyog‘ingiz xali dunyoning ko‘p davlatlariga yetadi. Ular, albatta, biz haqimizda so‘rashadi. Siz ularga bizning mamlakatimiz haqida so‘zlayotganda u yerda o‘z sultonining taklifini ham rad qila oladigan qudratli odamlar bor ekan, deb ayting. Ular u odamlarning qudrati nimada ekan, deb so‘rashsa, halolliklari va tantiliklarida ekan, deb ayting. Shularni aytsangiz, bizning buyukligimiz va kuchimiz haqida xalqlarning o‘zlari xulosa chiqarib olishaveradi.

Haqiqatdan ham, bu tinib-tinchimas odamning oyog‘i dunyoning eng chekka sarhadlarigacha yetib bordi. Qaerda bo‘lmasin, o‘sha ko‘rganlarini bot-bot eslab, roviylardek rivoyat qilib yurdi marokashlik sayyoh Ibn Battuta”.

Xulosa qilib aytganda, Shoyim Bo‘tayevning tarixiy mavzudagi “Hisomiddin al-Yog‘iy” hikoyasi tasavvuf g‘oyalari ruhida yaratilgan bo‘lib, asarga tanlangan mavzu va g‘oya orqali yozuvchi uslubi namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D., Sheraliyeva M., Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent, Akademnashr, 2013. – B.158.
2. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, 2015. – B.115.
3. Shoyim Bo‘tayev. Ko‘chada qolgan ovoz. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2005. – B.92.

QIZLAR TAQDIRI BILAN BOG‘LIQ AN’ANAVIY POETIK TURKUMLAR
(Anbar otin, Dilshodi Barno, Samarbonu she’riyati misolida)

Barziyev Oybek Xabibullayevich
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi, PhD
barziyevoybek@8486mail.ru
Sayitxonova Barchinoy Axatovna
Farg‘ona shahar kasb-hunar
maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Farg‘ona vodiysiga mansub shoiralar Anbar otin, Dilshodi Barno, Samarbonuning o‘z davrida qizlar taqdiri bilan bog‘liq holda yozgan g‘azal va muxammaslari tahlilga tortilgan. Ularning she’riyatidagi an’anaviy bir poetik turkumlilik masalalari qiyoslangan holda o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: vasiyat, hasbi hollik, lirik q’ahramon, mehribon ona siymosi, ustoz-shogird an’analari, qizlar taqdiriga achinish, realistik obraz.

Annotation

The article analyzes the ghazals and muhammas of the poets of the Fergana valley, Anbar otin, Dilshodi Barno and Samarbonu who wrote about the fate of girls in their time. The issues of a traditional poetic diversity in their poetry are studied in comparison.

Key words: testament, character, lyrical heroine, image of a loving mother, teacher-apprentice traditions, pity for girls, realistic image.

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti she’riyatida qizlar taqdiri bilan bog‘liq lirik asarlar yozish an’anaviy poetik turkumlilikni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, bu mavzu Qo‘qon adabiy muhitining shoiralari Anbar otin, Dilshodi Barno va asli Farg‘ona tumani Chimyon qishlog‘idan bo‘lgan Samarbonu she’riyatida o‘ziga xos talqin etiladi. Asosan g‘azal va muxammas janrlarida bitilgan qizlar taqdiri bilan bog‘liq she’rlarda lirik qahramon o‘zi yashab o‘tgan zamondan shikoyat qilish hamda xotin-qizlar haq-huquqlarining tiklanishi, ularning yorqin kelajagi haqida qayg‘urish kabi masalalarga murojaat qilgan. Bundan tashqari aynan shu mavzudagi lirik asarlarda vasiyat qilish va kelajakdagi qizlar baxtini bashorat qilish mazmuni ham yetakchilik qiladi. Bu kabi mavzularga oid lirik asarlar mualliflarning hasbi hol xarakteridagi poetik merosi sanaladi.

Anbar otinning vasiyat q’ilish ohangi ustuvor sanalgan g‘azal janridagi quyidagi poetik merosi xarakterli. Shoira vafot etishidan avval o‘z qizi “Bibixonimga vasiyat” nomli g‘azal bitgan:

Ey qizim, omoda bo‘lg‘il dunyodin ketkum bukun,
Holatim etkuncha tildin holima bayon etkum bukun.
Bexabar qolma, g‘amim bir yon etkum bukun.
Qo‘llarimdin jon chiqqoncha o‘z gapim bitkum bukun,
Ko‘z yumib bu dunyodin, maqsudima yetkum bukun [Husainova, 1970:58]

Shoira xastalik paytida yozilgan mazkur muxammas boshdan-oyoq vasiyat qilish mavzusiga bag‘ishlangan. Muxammasning keyingi bandida realistik obarazlar nomi keltiriladi, ya’ni hali voyaga etmagan o‘g‘illarining kelajagini o‘ylash bilan davom etadi:

Ey qizim, Mo‘minxo‘jam ahvolidin voqif bo‘lub.
Boxabar bo‘l, har yomon yerga brib, tahsif qilib,
Chiqmasun to‘g‘ri yo‘lidin daydilarga qo‘shilib.
Aytkil Akbarxo‘jaga yo‘l bermasun ta’qib qilib,
Ko‘z yumub bu dunyodin maqsudima yetkum bukun.

Keyingi bandlarning birida rus millatiga mansub bo‘lgan qizlar ismiga murojaat qilinadi. Shoira ularning nomini keltirish orqali rus milliy madaniyatiga ishora qiladi hamda kelajakda bir kuni xotin-qizlar ham ozodlikka chiqib, ularning davr-u davron suradigan payti yetib kelishi muqarrar ekanligi haqida ogohlantiradi. Davr she’riyatida bunday realistik qizlar ismlarini keltirish o‘ziga xos an’ana tusini olgan:

Yekotirina manga berdi tasalli shunchalar,
Kelgusi davron haqida berdi ko‘b tushunchalar.
Anusa ham Klava nom qizlari gulg‘unchalar.
Vo darig‘o, kelmadi vaqt echkali tugunchalar,
Ko‘z yumub bu dunyodin maqsudima yetkum bukun.

Shoiraning aynan shu muxammasi g‘oyasi bilan deyarli bir xil mazmunini o‘zida tashigan “Vasiyat” nomli g‘azali ham e’tiborga loyiq. G‘azalning dastlabki baytida lirik qahramon o‘z qizining taqdiridan va baxtidan tashvishdaligi ko‘rinadi.

Shoira qizining kelajagi haqida qayg‘urib ilm-ma’rifatdan bebahra qolishini istamaydi:

Man o‘lsam, ey birodarlar, qizimni kuyovga bering!
Sudxo‘ru boy, zolimlarg‘a zid birovga bering.
Bechora qizim murabbiysiz qolg‘anda ango,
G‘amxo‘r o‘lguvchi bir aqllik suyyovga bering [Husainova, 1970: 20]

Shoiraning mazkur g‘azalida o‘z farzandlariga nisbatan mehribon ona siymosi gavdalangan. U so‘nggi manzilga ketar chog‘ida ham farzandlari taqdirini o‘ylaydi. Keyingi baytda o‘z qizini davrning mazlumasi– zulm ko‘rgan deb atab, uni ayolini qiynaydigan yigit qo‘liga tushib qolishidan hadiksiraydi va shu bilan birga kuyovi kamgaplikda xuddi soqov bo‘lishiga tenglashtiriladi:

O‘zi ranjbar o‘lib, ahli ayolini qiynamasun,
Mazlumlarni so‘kmasun hech, soqovga bering.

Qo‘qon adabiy muhitining shoirasi Dilshodi Barno ijodi adabiyotshunos Mahbuba Qodirova tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, uning g‘azalida ham qizlar taqdiriga achinish g‘oyalari mujassam. G‘azal matla’si o‘z davrining qizlarini bir tan-u bir jon bo‘lishga chorlash mazmuni bilan boshlanadi. Unda kishilarga estetik zavq ulashuvchi san’at tushunchasi qadrlangan bo‘lib, osoyishta zamonni intizorlik bilan kutayotgan qalb kechinmalari mavjud:

Keling, qizlar , cholaylik daf’ ila soz,
Biz osoyish zamonni chorlayik boz [Qodirova, 1972: 38]

G‘azalning keyingi baytlarida o‘z zamonasidagi shoiralari ismi keltirilgan bo‘lib, unda kuy, ohangga mutanosib holda ijod qilish ulug‘lanadi. Shu bilan birga ustoz-shogird an’analari ulug‘lanib, ular bir adabiy davrada shakllanganligi va ijodiy ta’sirlanish masalalari ochib beriladi:

Qo‘shiqni Nodira she’riga bog‘lab,
Bo‘layluk soziga bizlar hamovoz.
Uvaysiy birla Mahzuna qoshida,
Turayluk suhbat aylab birga damsoz.

Shoira g‘azal mazmuniga qilgan ijodi shunchaki ko‘ngil ishi emasligini, u dillarga parvoz qilishini hamda kelajak avlodga esdalik sifatida qolishi kerakligini mahorat bilan singdirgan.

Dilshodi Barno ijodida qizlar taqdiri bilan bog‘langan g‘azallarda ma’rifatga chorlash motivlari yaqqol seziladi. Ayniqsa, uning “Masnaviy” nomli she’ri hasbi hol xarakterida bo‘lib, unda shoira qizlar taqdirini o‘z qismati bilan bog‘laydi. She’rda ijod va san’at ahli ulug‘lanadi, shu bilan birga g‘azalxonlik va she’riy mushoiralar o‘tkazish an’analari qadrlanadi. Muallifning ustozlik maqomi yoritilgan holda zamonasining ijodkor qizlari xat-savodni tanish yo‘lida unga ergashganligiga alohida urg‘u beriladi:

Yigirma yil maktab ochdim qizlara,
Hirsim baland bo‘ldi doim ash’ora,
O‘zum bitdim mingdin ortuq g‘azalni,
Zikr etib o‘tdim oxir azalni [Qodirova, 1972:67]

Asli kelib chiqishi Farg‘ona viloyati Chimyon qishlog‘idan bo‘lgan, shoir Xojamnazar Huvaydoning avlodi Samarbonu ijodida “Qizlar” radifli g‘azal xaraterli bo‘lib, unda jami sakkiz nafar shoiraga zamondosh bo‘lgan qizlar ismi keltirilgan.Ular Samarbonuga shogird ekanligi g‘azal matla’sidan boshlab tanishtirib boriladi:

Menga shogird bo‘lubsizlar, necha qimmat baho qizlar,
Bari bir-biridan ortuq, farosatli, raso qizlar [Jalolov, 1963:122]

G‘azalning keyingi baytlarida shoira o‘zining qismati qizlar taqdirida takrorlanmasligini xohlaydi. Sababi, tarixdan ma’lumki, shoira o‘zi tug‘ilib, voyaga etgan O‘ratepadan Amir Olimxon tomonidan Qo‘qon arkiga majbur olib kelingan. Bu real voqea shoira qalamiga mansub “Masnaviy” nomli she’rida ham qayd etilgan. Shoira g‘azali baytlarida ularning tezroq ozodlikka chiqishlari va ilm-u urfondan bahra olishlarini istaydi:

Qafas maktablari ichra edinglar anisu munis,
Qachon har qayda bo‘lsa, bo‘lmangiz nooshno qizlar.
Vatan avvorayu bir xoksoru bandi zindonman,
G‘aribu benavodurman, qilay sizni duo qizlar.

Keyingi baytlarda qizlarning shirin tili bulbul va to‘ti kabi qushlarga qiyoslangan holda ular avvalgi o‘qitgan maktabdagi shogirdlari ekanligi aytiladi:

Otingizni tutib bir-bir baytu ash’orlar aytsam:
Bibisoliha, Sharifaniso, To‘faniso qizlar.

Navbatdagi baytda xalqimizdagi onalar tomonidan erkalatish ma’nosida aytiladigan an’anaviy paremiologik birikma “ona qizim” sifatlashi uchraydiki, u orqali shoiraning o‘z shoigirdlariga mehri naqadar kuchli ekanligini sezamiz:

Yana Shodmonbibi, Bibi Fotima ixloslar aylab,
Bibi Ma’lum, Sabohat, Talxa – Bonuga ano qizlar.

Shoira g‘azalida duogo‘y bir otin sifatida gavdalangan bo‘lib, unda mehribon ona va marhamatli ustoz sifatlarida yuz ko‘rsatgan. O‘z taqdiriga alohida ishora qilgan holda qizlarning yorqin kelajagi haqida qayg‘urgan ijodkor xalq orasida keng qo‘llaniladigan “Mazlum kishining duosi ijobat bo‘ladi” naqliga ishora qiladi. Haqiqatan ham, shoiraning o‘zi ham mazlum ahlidan ekanligi quyidagi baytda ayonlashadi:

Bu qizlar xush nazokatdur, kamlik, o‘ksus ko‘rmasin aslo,
Masaldur, mazlum ojizni duosi mustajo qizlar.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda filologiya fanlari doktori, professor Hanifa Solihovaning monografiyasida keltirilgan o‘sha davr muhitida xotin-qizlarning tutgan o‘rni haqidagi quyidagi jumlalar o‘rinlidir: “...o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti takomilida xotin-qizlarning sharoitlarining poetik ovozi ham kuchli seziladi. XIX asrning o‘rtalarida jo‘shqin ijod bilan band bo‘lgan Dilshodi Barno, Manzurabonu kabi shoiralar o‘z asarlarida vatanparvarlik, xalq-parvarlik g‘oyalari bilan maydonga chiqdilar, hayotga fayz bag‘ishlovchi yuksak axloqiy-ta’limiy qarashlarni ilgari surdilar. Ularning asarlarida Sharq xotin-qizlari-ni ikki yoqlama asoratga tashlagan jaholat keskin qoralandi”. [Solihova, 2009: 17]

Darhaqiqat, bugungi avlodga ikki yoqlama asorat–tutqunlik va savodsizlik botqog‘iga botib borgan o‘tgan asr boshlarida yashab o‘tgan qizlar taq’diri haqida o‘z davrining ijtimoiy mavzuda bitilgan lirik asarlari guvohlik berib kelmoqda.

Tahlil doirasiga tortilgan lirik asarlar bo‘yicha muayyan xulosalar:

– birinchidan, Anbar otin ijodida shoira mehribon ona siymosida gavdalangan bo‘lib, g‘azallarida o‘z qizi taqdiri va kelajagi haqida qayg‘urish motivlari mujassam;

– ikkinchidan, Dilshodi Barno qalamiga mansub lirik asarlarda qizlarning yorqin kelajagini ilm-ma’rifat bilan bog‘liq holda yoritish masalalari ustuvor sanaladi, unda ham lirik qahramon duogo‘y ona siymosida gavdalangan;

– uchinchidan, Samarbonu ijodiga mansub g‘azalda zamondosh qizlar bilan faxrlanish, ularga ustozlik qilishidan mamnunlik kayfiyatlari yaqqol seziladi;

– to‘rtinchidan, shoiralar ijodiga mansub lirik asarlardagi mushtarak g‘oya qizlar taqdirining yoritilishida ozodlik va ilm-u urfon tushunchalari muhim ahamiyat kasb etganligida ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anbar otin. She’rlar. Risola / To‘plovchi va so‘zboshi muallifi: Husainova F. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.
2. Anbar otin. She’rlar. Risola / To‘plovchi va so‘zboshi muallifi: Husainova F. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970.
3. Dilshod. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi Qodirova M. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
4. Dilshod. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi Qodirova M. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
5. Jalolov T. Bonu. – Toshkent: “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1963.
6. Solihova H. Istiqlol orzusi va realistik tasvir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.

YOR-YOR QO‘SHIQLARIDA RANGLAR BILAN BOG‘LIQ AYRIM MULOHAZALAR

Aliqulova Hulkar Qahramonovna
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada nikoh to‘y marosimlarida ijro etiladigan yor-yor qo‘shiqlaridagi ruhiyat tasvirlarning o‘ziga xos sodda, xalqona ifodasi va ranglar bilan bog‘liq jihatlari, so‘zlarning ijrodagi o‘rni, poetik xususiyati, maqsad va vazifalari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: ruhiyat, xalqona ifoda, nikoh, marosim, kelin, kiyov, timsol.

Annotation

In this article simple characteristic and the definition of that music among public, and the features related to live performance, the role of the words in the performance, poetic features, the purposes and the roles will be discussed.

Key words: psychology, folk definition, marriage, event, bridegroom, bride, and symbol.

Turkiy xalqlar ogʻzaki ijodi namunalarida ranglar muhim badiiy ahamiyat kasb etib, poetik koʻrinishlari bilan e'tiborni tortadi. Shu ma'noda ranglar bilan bogʻliq ramziy obraz va sifatlashlarning, obrazli ifoda va tasvirlarning qoʻllanishini, ma'no-mohiyatini, badiiy vazifalarini, estetik ta'sirchanligini oʻrganish, ularning kelib chiqish ildizlarini aniqlash, xalq ogʻzaki ijodidagi poetik oʻrni va estetik rolini tadqiq qilish juda zarurdir. Dunyodagi boshqa xalqlar kabi turkiy millatlar tarixida ham voqea-hodisalarni rasmiylashtirishga intilish, ularni ma'lum ishonch-e'tiqodga xizmat qildirish kuchli boʻlgan. Insonlar rang vositasida oʻz orzu-istaklarini, maqsad va intilishlarini, dunyoqarashlarini ramziy tarzda ifoda etishgan. Bu xalq orasida ma'lum ma'noda an'anaga aylangan (oq – yaxshilik, qora – yomonlik, qizil – hayot). Ayniqsa, shu uch xil rang ifodasi har bir xalqning urf-odati, diniy e'tiqodi, ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ogʻzaki hamda yozma ijod namunalarida juda koʻp uchraydi va turlicha talqin etilgan. Insonlarning oʻzaro munosabat shakllaridagi ba'zi bir holatlarni birgina rang orqali ifoda etish imkoniyati ham, hayotning ranglar bilan bogʻliq xususiyatlarini gavdalantiradi. Jumladan, M.Alaviya birinchi boʻlib ranglarning oʻzbek xalq qoʻshiqlaridagi, ayniqsa, toʻy marosimi aytimlaridagi badiiy-timsoliy mohiyatiga munosabat bildirgan.

Oq rang turkiylarda kuch-qudrat, adolat, asllikni anglatgan. Hozirgacha xalq tilida saqlanib qolgan "oq suyak" iborasining "asl", "ulugʻ nasablik" ma'nolarda qoʻllanilishi kuzatiladi. (2)

Turkiy xalqlar tarixining shomanlik davrida oq rang ulugʻlik, adolat, kuchlilik ma'nolarida keng qoʻllanilganligi xususida ma'lumotlar uchraydi. Turkiy xalqlar folklor namunalarida oq rang yigit, er kishi ma'nolarida qoʻllanilgan. Oq rangning inson hayotidagi oʻrni haqida ham bir qancha vaziyatlarda ijobiy rang sifatida kelganligini koʻrishimiz mumkin. Oq rang bu ezgulik, poklik, gʻalaba, shon-shuhratni ifodalaydi. (7)

Ranglar folklorda alohida mazmunga ega. Poetik ma'no rang bilan bogʻliq urf-odatlarda obraz botinida yashirin keladi. Muayyan matnda bu yashirin poetik ma'no xalqning ushbu obraz haqidagi tasavvur-tushunchalari asosida anglashiladi. (8)

Ranglarning magik himoya qudratiga e’tiqod to‘y marosimlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, nikoh to‘yi bilan bog‘liq urf-odatlar, an’anaviy marosimlarda oq rang timsoli juda ko‘p uchraydi. Bu marosimdagi oq rang bilan bog‘liq ramziy ifoda yoshlarning baxtli hayoti, saodatli kelajagi haqidagi orzu istaklar, umidlarga qaratiladi.

Suluvlarning sochida,
Oppoq pilik, yor-yor.
Kelinposhsho sochlari,
Qirq popuklik, yor-yor. (1)
Oq paranji og‘ir deb,
Otga soldi, yor-yor.
Otam meni yomon deb,
Yotga soldi, yor-yor. (2)

Oq rangning to‘rtlikdagi ramziy ifodasi (oppoq pilik, oq paranji) obrazlari asosida ifodalangan. Kelinning qirqta qilib o‘rilgan sochiga oppoq pilik (oq paxtadan qilingan ipli o‘rama) – keksa onaxon tomonidan qo‘yiladi. Bu boshing doimo yaxshilik ko‘rsin va shu mo‘tabar onaxondek keksayib yurgin degan ma’noni ifodalashi bilan bir qatorda, oq pilik kelinni balo-qazolardan asrashi mumkin degan magik ishonch, e’tiqod ramzi sifatida xizmat qilmoqda. Paranji – magik xususiyatga ega bo‘lgan o‘zbek milliy marosim liboslaridan biridir. Respublikamizning juda ko‘p hududlarida hozirgi kunda ham nikoh to‘ylarida kelin kuyovnikiga paranjiga o‘ralgan holda olib boriladi. Shuning uchun ham xalqimizning to‘y qo‘shiqlarida “paranji” obrazi juda ko‘p uchraydi. Himoya vositasining oq rang bilan ifodalanishi uning qimmatini yanada kuchaytirilganli-gini belgilab bermoqda. “Oq paranji” yangi hayot ramzi hisoblansada, keyingi misralardagi ma’no bu ifodaga zid. Kelinchak otasining yotga sotganidan qayg‘uda, iztirobda.

A.Musaqulov alohida ta’kidlab o‘tganidek, to‘y qo‘shiqlarida oq rang odatda, yigit, qizil rang esa qiz ramzi bo‘lib keladi (3). Qizil rang kishilar ruhiyati va hissiyotiga nisbatan o‘zining ta’sirchanligi bilan boshqa ranglardan ajralib turadi. Bu rang xalq orasida hayot, sihat-salomatlik, xursandchilik, g‘alaba, olov va qon

ramzi sifatida ishlatiladi. O‘zbek folklorida qizil rang haqida M.Yoqubbekova bir qancha ilmiy xulosalar bergan.

Yor-yorlarda qizil rangning o‘ziga xos tarzda ifodalanishi turli xil obrazlarni mazmunan rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan,
Kimning to‘yi, yor-yor.
Oq gul bilan, qizil gul,
Gulning to‘yi, yor-yor. (4)

Oq olma qizil olma
Otgan otam yor-yor.
O‘z qizini tanimasdan
Sotgan otam, yor-yor. (5)

Qizil-qizil xo‘rozlar,
Xirmon sochar, yor-yor.
Qiz ko‘rmagan yigitlar,
Tillo sochar, yor-yor. (5)

To‘rtliklarda qizil rang gul, olma, xo‘roz kabi obrazlar bilan bog‘langan holda ifodalangan. Birinchi to‘rtlikda oq va qizil gullar kelin-kuyov ramzi bo‘lsa, keyingi misrada oq va qizil olma yangi turmush (oq – baxt, poklik ramzi, qizil – yoshlik va quvonch ramzi) tarzi bilan bog‘liq. Folklorshunos A.Musaqulov qo‘shiqlardagi o‘simlik kultiga ishonch izlarini o‘rganar ekan, “qo‘shiqlarda olma, uzum kabi poetik obrazlar, avvalo, sevgi-muhabbat, qolaversa, keng ma’noda mevalar – farzand ramzidir”, – deydi. To‘rtlikda ota obrazining oiladagi o‘rni (olmalarning ota tomonidan otilishi) ham belgilab o‘tilgan. Farzand otasining izmidan chiqmagan holda yangi hayotga qadam qo‘ymoqda. So‘nggi to‘rtlikda esa qizil-qizil xo‘rozlar obrazi yosh yigitlarning uynoqiligini, sho‘xligini ifodalab kelmoqda. Ko‘rinib turibdiki, yor-yorlarda rang tasvirlarining o‘ziga xos ko‘rinishlari, turlicha ma’no ottenkalari mavjud.

Yor-yor qo‘shiqlarida ranglar orqali insonlarning bir-biriga bo‘lgan zid munosabati, qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi ijtimoiy turmush tarzi ham ko‘zga tashlanadi.

Oq miltiq, qora miltiq,
Otgan otam, yor-yor.
O‘z qizini yot qilib,
Sotgan otam, yor-yor. (1)

To‘y marosimlarida miltiq (mushak) otishning ramziy ifodasi yovuz ruhlarni qo‘rqitishdan iborat bo‘lsa ham, ammo, yor-yordagi oq va qora miltiq obrazlari bu o‘rinda kelin va kuyov tomon qudalarining ma’lum ma’noda bir-biriga munosib emasligini anglatuvchi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. To‘rtlikning keyingi ikki misrasida bu ma’noni yaqqol sezish mumkin.

Rangga aloqador ramzlarning badiiy vazifasi shundaki, ularning vositasida qo‘shiqlardagi poetik ma’no oydinlashtiriladi. Ularni qo‘llash orqali poetik fikrni yorqin, ta’sirli va jozibali ifodalash mumkin. M.Yoqubbekova aytganidek: “Dunyoning ranginligi badiiy mushohada qilishda ham ranglardan foydalanishni, foydalanganda ham, g‘oyaviy maqsad yo‘lida ramziy jihatdan foydalanishni taqozo qiladi”. (7)

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq qo‘shiqlarida turli narsa-hodisalar timsoli ranglar vositasida obrazlashtirilib, an’anaviy poetik ramziy obrazlar hosil qilingan. Yor-yor qo‘shiqlarida bunday obrazlarning o‘ziga xos tasvirini ko‘plab uchratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev M. Oy oldida bir yulduz. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 57-b.
2. Jumanazarova G.U. “Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li Dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlili)”: Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiyasi. –T.: 2017, 161-b.
3. Ostonasi tillodan: To‘y qo‘shiqlari / Nashrga tayyorlovchilar: M.Mirzayeva, A.Musaqulov. – T.: Fan, 1992. – 112-b.
4. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010. – 308-b.
5. Собиров А. Наманган ёр-ёри. -Т.: 2000. 12-бет.
6. To‘xliyev B., Sheraliyev E., Aliqulova H. Yor-yorlar. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. –T.: 2009. –104.
7. Yakubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetikasi. Filologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasi. –T.: 2005. – 203-b.
8. Ro‘ziyeva M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida rang simvolikasi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. –T.: 2017. 50-b.

ISTIQLOL DAVRIDA SHE’RIY JANRLARNING O‘RGANILISHI VA YANGILANISH TAMOYILLARI

Quvonch Mamiraliyev
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
mamiraliyevquvonchbek@gmail.com
mamiraliyev@navoiy-uni.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada istiqlol davrida she’riy janrlarning o‘rganilishi va yangilanish tamoyillari, she’riy janrlarning qorishiq holatda o‘zbek she’riyatida uchrashi tahlilga tortilgan va mazkur hodisaga adabiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan yondashilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada janrlar modifikatsiyasi hodisasi o‘zbek she’riyatida hali o‘rganilmagan hodisa sifatida ham ahamiyatli ekanligi ta’kidlab o‘tilgan va asoslashga harakat qilingan. Barmoq vaznida yozilgan she’rlarni janrlarga ajratish masalasi va she’riy janrlarning modifikatsiyalashuv hodisasiga alohida to‘txtalib o‘tilgan. Maqolani yozishda adabiyotshunoslik metadologiyasining qiyosiy, psixologik, sotsiologik kabi tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: Modifikatsiya, janr, she’riyat, janrlar mutatsiyasi, aruz, barmoq vazni, shakl va mazmun, meditativ lirika, tavsifiy lirika, metod, psixologik tahlil, modernizm.

Abstract

This article analyzes the principles of the study and renewal of poetic genres during the period of independence, the occurrence of mixed genres of poetry in Uzbek poetry, and approaches this phenomenon from the point of view of literary theory. In addition, this article emphasizes the importance of the phenomenon of genre modification in Uzbek poetry as an unexplored phenomenon and tries to justify it. The issue of genre-based poetry and the phenomenon of modification of poetic genres are discussed in detail. In writing the article, the methods of analysis of literary methodology, such as comparative, psychological, sociological, were used.

Key words: Modification, genre, poetry, mutation of genres, dream, finger weight, form and content, meditative lyric, descriptive lyric, method, psychological analysis, modernism.

Ilm-fanning shiddat bilan rivojlanishi barcha sohalarning mazmum va mohiyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmayapti. Bu jarayon, o‘z navbatida, adabiyotning ham shakl va mazmuniga yaxshigina o‘zgarishlarni olib kirmoqda. Zero, adabiyot turg‘un hodisa emas, u rivojlanib, yangilanib boradi. Biz ushbu ishimizda ana shunday o‘zgarib, yangilanib borayotgan hodisani, ya’ni istiqlol davri o‘zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi jarayonini tahlil, tadqiq etishga harakat qildik.

O‘zbek adabiyotida lirik asarlarni janrlarga ajratishning bahsli tomonlari ko‘p. Lirik turning janrlar masalasi bo‘yicha turli-tuman nazariy qarashlar mavjud. Jumaladan, I.Sulton, U.To‘ychiyev, N.Shukurov, M.Ibrohimov, O.Nosirov, R.Orzibekov, H.Umurov, T.Boboyev, D.Quronov kabi bir qator adabiyotshunos olimlar lirik janrlar nazariyasiga oid o‘zlarining ilmiy-nazariy tahlillarini, fikr mulohazalarni bildirishgan. Avvalo, janrning xususiyatlari, uning belgilari haqida to‘xtalsak. “Adabiyotshunoslik lug‘ati” [12; 79] da janr shunday ta’riflanadi: “Janr (fr. genre – jins, tur, xil) – adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarni tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha. ...Tarixiy kategoriya sifatida adabiy janrlar sistemasi muttasil harakatda yashaydi: yangi janrlar vujudga keladi, takomillashadi, iste’moldan chiqadi; har bir alohida janrda ham muttasil sifat o‘zgarishlari kuzatiladi, badiiy ijod amaliyoti uning shakliy va mazmuniy xususiyatlariga muttasil o‘zgartirishlar kiritib boradi. Ikkinchi tomondan, yangi davr adabiyotida, XVIII asrdan boshlab, badiiy ijodda individ rolining muttasil ortib borishi barobaridadada an’anaviy janr kanonlari ham emirilib boradi: endilikda muayyan ijodkorning u yoki bu janrda yaratgan asari ham qator o‘ziga xosliklarni, ya’ni konkret asarga xos janr xususiyatlarini namoyon etaveradi. Yana bir jihati, har bir davr adabiyotidagi janrlar tizimi adabiy an’analarning davomi va adabiy aloqalar natijasi o‘laroq, yanada rang-barang tus oladi: faol janrlar bilan bir qatorda an’anaviy va xorijiy adabiyotlardan o‘zlashgan janrlar ham iste’molda bo‘ladi. Demak, har bir davr adabiyotining janrlar tizimini sinxroniya va diaxroniya aspektlarida o‘rganish taqozo etiladi. Aytilganlarning bari, albatta, janr nazariyasini ishlab chiqishda qiyinchilik tug‘diradi, hali bu borada umume’tirof etilgan, tugallangan ta’limot yoxud tizimli tarzda amalga oshirilgan janrlar tasnifining mavjud emasligi shundan. Bu tabiiy ham, chunki, birinchidan, janrlar sistemasi muttasil o‘zgarishda ekan, u haqdagi nazariy qarash ham adabiyot taraqqiyotining o‘tib bo‘lingan muayyan bosqichiga nisbatangina tugal bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, ijod amaliyotida individuallikning roli ortgan sharoitda janr kanonlarini

qat’iy belgilab bo‘lmaydi, shu bois ta’rif va tasnifda har bir janrga xos eng umumiy belgilarni asosga olish bilan qanoatlanishga to‘g‘ri keladi...” Bundan ko‘rinadiki, janr turg‘un emas, u vaqt o‘tgan sari o‘zgarib, yangilanib boradi yoki ba’zi hollarda esa eskirishi (bugungi kunda kam foydalaniladigan, ko‘p murojaat qilinmaydigan janrlar: masalan, ta’rix, muammo va boshq.) mumkin. Ayniqsa, sintezlashuv — modifikatsiy jarayoniga bugungi kunda lirik janrlarda an’anaviylik va zamonaviylik qorishmasi sifatida ko‘p duch kelamiz. Janrlar masalasida rus adabiyotshunoslaridan M.M.Baxtin quyidagicha fikr bildiradi: “Janr adabiyot taraqqiyotining har bir yangi bosqichi va shu janrga mansub har bir asarda qaytadan tug‘iladi, yangilanadi. Janr hozir bilan yashaydi, biroq hammavaqt o‘zining o‘tmishi, ibtidosini yodda tutadi. Janr – ijodiy xotiraning adabiyot taraqqiyoti jarayonidagi vakilidir”. [4; 78] Olimning bu qarashidan janr har bir asarda qaytadan tug‘iladi, ya’ni janrda o‘zgarishlar (modifikatsiya) sodir bo‘ladi deb qarash mumkin, ammo janrga xos asosiy xususiyatlar saqlanib qolaveradi. Janr doim ham o‘zgaruvchan, beqaror hodisa emas. Hozirgi o‘zbek she’riyati janr va janr shakllariga juda boy. Janrlar masalasi haqida o‘zining nazariy fikrlarini qayd etib o‘tgan adabiyotshunos To‘xta Boboyevning fikrlariga e’tibor qaratamiz. O‘zbek she’riyati tarixida bir necha poetik janrlar va ularning shakllarida o‘xshashlik, qorishiqlik, mushtaraklik, sinkretik holatlar mavjudligini ta’kidlab o‘tadi, – adabiyotshunos olim. Mumtoz lirikamizning ma’lum bir janrida yaratilgan asar doimo sof bir janr bilan chegaralanib qolavermagan. Chunki bir janrning ichida ko‘p hollarda boshqa janr va uning unsurlari, elementlari mavjud bo‘lgan. To‘xta Boboyev: “mumtoz she’riyatimizdagi (aruzda yaratilgan) lirik she’rlarning janr xususiyatlarini aniqlash hozirgi zamon poeziyasidagi (barmoqda yozilgan) lirik she’rlarning janr xususiyatlarini aniqlashga nisbatan ancha oson va qulay”, – deganida anchayin haq. Nazariyotchi olim buning sababini mumtoz adabiyotimiz-dagi janrlar ma’lum bir qonun-qoidaga ega ekanligi, hozirgi she’riyatimizda esa “poetik qoliplar” deyarli sezilmasligini aytib o‘tadi. [5; 408] She’riy asarlarni janrlarga ajratishda turlicha qonuniyatlar mavjudligini aytib o‘tish joiz.O‘zbek adabiyotshunosligida ularda

ikkitasi – shakl va mazmun xususiyatlaridan kelib chiqish tasniflash keng tarqalgan. O‘zbek mumtoz adabiyotiga nazar solsak, unda she’rlarning ko‘proq shakl xususiyatlariga ko‘ra janrlarga ajratilganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, tuyuq to‘rt misradan iborat bo‘lishi, ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilishi, asosan, a-a-b-a, tajnisli qofiyaga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bunga yana ruboiyni, qit’ani misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, bu holat musammatlar (musallas, murabba’, muxammas, musaddas, musabba’ musamman, mustasne’, muashshar) da aniq ko‘rinadi. Demak, bundan bilishimiz mumkinki, o‘zbek mumtoz lirik janrlari ko‘proq shaklga bo‘ysungan, o‘zgarmas turg‘un holatda. To‘g‘ri, o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining ma’lum bir davrlarida turg‘un janrlarga e’tibor kuchli bo‘lgan, ammo vaqtlar o‘tishi bilan janrlarga erkinlik berish, ijodkor labaratoriyasi degan masalalar ham ko‘tarilmoqda, ya’ni she’riy janrlarni ma’lum qoliplar bilan chegaralab qo‘yishdan voz kechilmoqda. Adabiyotning mohiyatini zohirga emas, botinga qaratmoq zarurati tug‘ilmoqda. Dunyo adabiyotshunosligida she’riy asarlarni mazmun jihatidan janrlarga ajratish qadimdan mavjud bo‘lgan. Masalan, “antik yunonlar “difiramb”, rimliklar “oda”, nasroniylar “psalom”, sharqliklar “qasida” deb yuritgan janrlarning umumiy belgisi – “madh etish, ulug‘lash” mazmuni” da bo‘lgan deya ta’kid;ab o‘tadi adabiyotshunos Dilmurod Quronov. [7; 374] Kanonik janrlar mavjud bo‘lgan davrda janrni belgilashda shakl asosiy o‘rin tutgan bo‘lsa, keyinchalik kanonik janrlarning ahamiyati yo‘qolagan boshlagandan keyin she’riy janrlarni mazmun jihatidan (ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va h.k.) tasniflash ham qo‘llanila boshlangan. Keyinchalik bunday qarashga adabiyotshunos olim Izzat Sulton shunday munosabat bildiradi: “She’riy mahsulotni shartli ravishda “siyosiy lirika”, “ishqiy (intim) lirika” va shunga o‘xshaganlarga ajratish ham uchraydiki, buni ilmiy asosga ega deb hisoblash qiyin”. [8; 357] Demak, faqat mazmunning o‘zigina janrni belgilovchi xususiyat bo‘la olmaydi. She’riyatda shakl va mazmun hodisasi mavzusiga alohida faslda to‘xtalib o‘tamiz.

Hozirgi o‘zbek she’riyatining nazariy masalalarini o‘rganishda, xulosalar chiqarishda, albatta, o‘tmish adabiyotiga va jahon adabiyoti nazariyasi meterilaiga

suyaniladi. Hozirgi o‘zbek lirikasida janrlarning nihoyatda xilma-xil ekanligi ularni o‘rganishda tasniflashdan uyog‘iga o‘tish qiyindek tuyuladi. O‘zbek she’riyatining janriy tuzilishlarini adabiyotshunos olimlar turlicha o‘rganishgan. Istiqlol davrida she’riy janrlarning erkinlashuvi lirikada modifikatsiya jarayaonlarini va individual janrlarni ham yuzaga keltirdi. Bu hodisalarga ham keyingi ishlarimizda yanada batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiy tur va janrlar. 3 jildlik. 2- jild. Lirika. – T.: Fan, 1992. – B. 139.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. II tom. –T.: Fan,1979. – 449 b.
3. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. I tom. –T.: Fan,1978. – 416 b.
4. Бахтин М.М. Собрание сочинений в 7 т. Т.6. – М., 2002. – С. 120.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2002. – 503 b.
6. Hamadamov U. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernism. –T.: Akademnashr, 2020. – B. 288.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – 480 b**.**
8. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1986. – 408 b.
9. Quvonch Mamiraliyev. 2022. “Genre Modification in Uzbek Poetry of the Independence Period”. European Journal of Humanities and Educational Advancements 3 (3):115-19. https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/1916
10. Quvonch Mamiraliyev. Some reviews on the mutation of genres in uzbek poetry. International journal for innovative engineering and management research. ISSN 2456 – 5083. Vol 10 Issue03, Feb2021.
11. Quvonch Mamiraliyev. Ўзбек шеъриятида жанрлар мутациясига оид айрим мулоҳазалар. Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги – илм-фан бўлими (электрон журнал) 2021 йил, март сони. – B. 184-195.
12. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –T.: Akademnashr, 2010. – 79-б.

IJODIY TAJRIBANING SHAKLLANISHI

Karimova Nafisa Baxadirovna
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada idojiy tajriba shakllanishi haqida so‘z borgan. Yozuvchilarning o‘z ish uslublari, ijodiy yondashuvlari atroflicha muhokama etilgan. Maqoladagi fikrlar misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: ijod yoshi, kuzatish metodi, xotira, ijodiy munosabat

Annotation

The article discusses the formation of an ideological experience. The writers' own work methods and creative approaches are discussed in detail. The ideas in the article are supported by examples.

Key words: creative age, observation method, memory, creative attitude.

Adabiyotshunoslik so‘z ilminining o‘ziga xos nazariy jabhalarini umumlashtiruvchi fandir. Fandagi har qanday ilmiy yangilik nazariy asos, aniq fakt va xulosaviy yechim talab etadi [1.Mirziyoyev Sh.M.: 22]. O‘zbek adabiyotshunosligida ijod laboratoriyasi masalasi va laboratoriya bilan bog‘liq muammolar yakuniy xulosa talab etuvchi mavzular sirasiga kiradi. Maqolada ijod laboratoriyasida kechadigan jarayonlarga urg‘u berishga harakat qildik.

Ijodiy qobiliyatlarning tug‘ma belgilari har qanday odamga, har qanday normal bolaga xos. Faqat ijodiy rivojlanishga olib boruvchi layoqatni o‘z vaqtida anglash va rivojlantira olish kerak. Bunda yirik va yorqin iste’dodlardan kichik va sezilmas layoqatgacha – uzilmas «talantlilik kontinuumi», ya’ni aloqadorligi mavjud, deb tushunish mumkin. Biroq, ijodiy jarayonning mohiyati hamma uchun bir xil. Ijodning aniq materialida, tasniflar ko‘lami, ijtimoiy ahamiyati hamda ijodiy jarayonlar bir-biridan farq qilishi mumkin Avtobiografiyalarni o‘rganib chiqsak, aksar shoirlar yo bolaligidan yo o‘smirligidan boshlab she’r yozishgan. Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Abdullar Oripov, Erkin Vohidovlar 16-18-yoshilarida she’r yozishni mashq qila boshlaganlar. Ijod laboratoriyasida ijodkor yoshi alohida masala sanaladi. Chunki iste’dod qancha erta namoyon bo‘lsa va aniqlansa, kelajakda o‘sha ijodkorning ijodiy tajribasi shuncha yuqori bo‘ladi. Manbalarda “yozuvchining ijodi gullagan payti” deb, e’tirof etiladigan davr ham bor. Yozuvchining ham hayotiy, ham ijodiy tajribasi yig‘ilib bir nuqtaga yetadi, o‘sha nuqtada aql va iste’dod o‘ta yuqori darajada kesishadi. Ayni pallada bunyod bo‘lgan san’at asari o‘lmas durdonalar safiga kiradi. Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi, Tohir Malikning “Shaytanat”, Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor”, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” kabi asarlari ijodning gullab-yashnagan paytida yozilgan asarlardir. Yozuvchining ijodi faqat bir marta gullaydimi? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Qachonki, insonning hayotda ko‘rgan-kechirganlari, duch kelgan turfa xil kayfiyatlari va turfa xildagi qiyofalari uchun yo saboq, yo sinov, yo ibrat, yo hayrat bo‘lib o‘tib ketadi. Bir so‘z bilan aytganda, ular ijodkorning ijoddagi hayot tajribasi deyiladi. Hayot majmuasining qamrovi kengayib borishi yozuvchida

haqiqat uchun yozish ma’suliyatini yuklab boraveradi. Ijodning gullagan davri aslida haqiqat yukini qalbdan qalamga koʻchirish fursatidir. Yozuvchiga xos eng asosiy xususiyat bu haq soʻz izidan borish, haqiqatga talpinish. Xalqning yuragidagi gaplar aslida aytilishi lozim boʻlgan haq gaplardir. Yozuvchi buni dastlab yozib koʻrsatadi. Millat qachonki oʻz yozuvchisini tan olsa, demakki yozuvchi oʻzining ma’suliyatli vazifasini bajargan hisoblanadi.

Yozuvchining asari - boshqa bir yondashuvga koʻra boʻlib oʻtgan voqealarga shaxsiy munosabatining natijasidir. Hayotda boʻlib oʻtayotgan voqea-hodisalar ongi va yuragida iz qoldirgani uchun ham ularga shaxsiy munosabat bildirib yashaydi. Yozuvchilarning shaxsiy munosabatlari ijobiy yoki salbiy ma’noda ekanini ular yaratgan asarlarni mutolaa qilib tushunish mumkin. Hushyor yozuvchi hayotni kuzatish bobida hamisha bardavomdir. K.Paustovskiy fikricha [2. K. Paustovskiy: 207], hech qachon eng muvaffaqiyatli kuzatuvlarni ham hikoyaga majburlab kiritmaslik kerakligi, zarur boʻlganda ular oʻz oʻrnini topishini ta’kidlaydi. Kuzatish psixologiyada obyektni oʻrganish metodi hisoblanadi. Kuzatuvchi obyektga sezdirmay ish olib borishni talab etiladi. Xuddi shu kabi yozuvchi ham odatda oʻz prototiplariga uning obrazga aylanishi haqida doim ham boxabar etavermaydi. Yozuvchilar samarali kuzatuvlar, soʻzlashuvlar, xarakterlarni asarga sigʻdirish uchun maxsus yon daftar tutadilar. Yon daftar har doim yozuvchi uchun soʻz yoki syujet “garderob”i boʻlib kelgan. Shu jumladan, xotiralar ham ma’lum ma’noda badiiy asar yozilishiga xizmat qiladi. Har bir xotirada bir umr ertagi yo tarixi yashaydi, bolalik hukmronlik qiladi, armonlar nam tortadi, yoshlikning, samimiyatning qaynab toshgani eshitiladi, zabt etilgan marralar qaytadan boʻy koʻrsatib turaveradi. Oʻzbek adabiyotida Oybek (“Bolalik xotiralarim”), Abdulla Qahhor (“Oʻtmishdan ertaklar”), Odil Yoqubov (“Alvido, Mariko”) kabilar oʻz xotiranomalariga asoslanib asar yozishgan [3. Boboyev: 34]. Yozuvchilar odatda, uchta daftar tutadilar: asar yozadigan daftar, kundalik(xotira) va yon daftar. Ularning har biri mukammallik poydevoriga gʻisht qalaydi. Birinchi daftar boʻlmasa, asar ham yoʻq hisob. Asarni daftardan daftarga koʻchirish asarni qayta

koʻrilishini, kamchiliklarni butlash, ustida ishlash vaziyatini keltirib chiqaradi. Agar ikkinchi va uchinchi daftarlar tutilmasa, asarning hayotiyligi, originallik xususiyati kamayadi. Yon daftar tutish yozuvchini jonli hayotga, real voqealarga tez-tez qaytaradi. Biz dalda oladigan hikmatnomalar (jumladan "Tafakkur gulshani"), aforizm toʻplamlari dastavval, yon daftarga yoziladi. Yon daftarga favqulodda hayolga keladigan genial fikrlar muhrlanadi. Har uchchala daftar ijojiy tajribaning shakllanishida oʻz ahamiyatiga ega.

Asarlarning hom rejalari, muhim ma'lumotlar, suhbatlardan olingan taassurotlar yoziladi, tanyidiy fikrlar, boshqa bir ijodkorning ijodiga qoʻyiladigan talab va munosabat qoralab qoʻyiladi. Muxtasar qilib aytganda, yon daftar ijodiy jamiyat kimsalari va narsalari uchun beriladigan "baho tabeli" vazifasini ham bajaradi. She'rlarning bir misrasi, nasriy asarning ilk jumlasi yon daftarga ham sigʻmagan fikrlarni Oʻtkir Hoshimov kabi ijodkorlar "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"ga yozishlari mumkin.

Ongimiz aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklash (esga tushirish)dan iborat boʻlgan aqliy faoliyat xotira deyiladi [4. M.E. Zufarova: 157]. Ijodkorlarda ongda aks ettirilgan narsalarni esga tushirish faoliyati yon daftar vositasida faollashadi. Unutish jarayoni ular uchun begona. Ijodkorlar goʻzal xotiralarga tez-tez qaytadilar. Bu barcha ijodkorlarni birlashtirib turuvchi yagona xususiyat. Mana shu narsa oʻzbek adabiyotshunosligida xotiralardan iborat majmua tuzish an'anasini shakllanishiga sabab boʻldi. Jumladan, "Navoiy zamondoshlari xotirasida", "Gʻafur Gʻulom haqida xotiralarim" (*Fathulla Abdullayev,)* "Shukur Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida", "Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida", "Shavkat Rahmonni xotirlab", "Zulfiya zamondoshlari xotirasida" kabilar, shuningdek, "Men qaytib kelaman" (*Togʻay Murodga bagʻishlangan),* "Abadiy zamondosh" (*Shukur Xolmirzayevga bagʻishlangan)* kabi kitoblar yozildi. Mazkur asarlar ijod laboratoriyasidagi tadqiqotchini yozuvchi yashagan davr bilan yaqinlashtiradi. Xotiralar ma'lum ma'noda tadqiqot obyekti boʻlib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining yoshi, kuzatishlari, ijodiy mashqlari, yon daftar bilan ishlashi uning ijodiy hayotdagi tajribasining shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va sanat, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / Xalq so‘zi. 2017. 4 avgust
2. К. Паустовский. Золотая роза. Кинишев, Литература артистике,1987
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
4. П.И. Иванов, М.Э. Зуфарова. Умумий психология.Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Т.: 2008 –йил, 127 -бет

HOZIRGI O‘ZBEK ADIBALARI ROMANLARIDA AYOL OBRAZI TASVIRI

Nigora Ashurova Xayitovna
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi
manaviyatfarmi@edu.uz

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘zbek adibalari ijodida ayol obrazi, xususan taniqli ijodkor Zulfiya Qurolboy qizi va Jamila Ergasheva romanlarida ayollarning ko‘ngil asrorlari, baxtu-saodati, orzu-umidlari, intilishlari, jamiyatda, oilada tutgan o‘rnining badiiy talqinida gavdalantirilgan holatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘z: ayol, ko‘ngil, jamiyat, oila, tadbirkor, taqdir.

Annotation

The article analyzes the image of women in the works of modern Uzbek writers, especially in the novels of famous artists Zulfiya Kurolboy qizi and Jamila Ergasheva, the secrets of women's hearts, happiness, dreams, aspirations, their role in society and the family.

Key words: woman, soul, society, family, entrepreneur, destiny.

Adabiyot yaralibdiki, ayol obrazi uning ajralmas bir bo‘lagi sifatida o‘zligini namoyon qilib kelmoqda. Jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, ayol obrazini yetakchi qahramonlardan biri sifatida tasvirlovchi ko‘plab asarlar yaratilganiga guvoh bo‘lamiz. Bu ayollar turli xil timsollarda: goh mehribon ona, goh sevikli yor, gohida esa munis, mushfiq opa-singil, do‘st yoki yalmog‘iz kampir, sehr-jodusi bilan jodulaydigan hiylagar ayol sifatida kelishi kuzatiladi. O‘zbek adabiyotshunos-ligida ayol obrazini yaratish muammolari o‘tgan asrning 40-50-yillaridan boshlab o‘rganila boshlagan bo‘lsa-da, u davrdagi tadqiqotlarda bu qahramonlarga ko‘proq umumobrazlar tizimining bir qismi sifatida qaralganini kuzatishimiz mumkin.

Hozirgi o‘zbek adabiyotida adibalar ijodida ayol obrazi yetakchi qahramon sifatida gavdalanadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida iste’dodli adibalar o‘z asarlari bilan kitobxonlar va soha vakillari o‘rtasida ko‘plab bahs-munozaralarga, e’tiroflarga sazovor bo‘lishdi. Mana shunday iste’dodli adibalar Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva, Salomat Vafolardir. Zurfiya Qurolboy qizining “Armon asirasi”, “Mashaqqatlar girdobi”, “Mashaq-qatli hayot so‘qmoqlari”, Risolat Haydarovaning “Javzo”, Jamila Ergashevaning “Qir ustidagi ayol” kabi romanlarida ayol obrazi yetakchi qahramon sifatida o‘z ifodasini topgan. Jarayonda ular o‘z qismati orqali kerak bo‘lsa, tip darajasiga ko‘tarilgan qahramonlardir. Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki, ayol obrazi va ayol ruhiyati tushunchalar bir-biridan ancha yiroq tushuncha. Adiblar tomonidan yaratilayotgan asarlarda ayrim jihatlarni hisobga olmaganda ayollar ko‘proq juftlikning biri yoki yordamchi obrazlar sifatida namoyon bo‘lganiga guvohmiz. Yuqorida tilga olingan adibalar asarida esa ayol qismatini tasvirlash yetakchi o‘ringa ko‘tarila olgan. Ayniqsa, ayol ruhiyati keng diapozonda ifodalangan.

Ayol adibalar tomonidan yaratilgan romanlarda ayol qismati, ruhiyati, o‘y-kechinmalari, orzu-umidlari, intilishlari, ko‘ngil kechinmalari bir so‘z bilan aytganda, eng kichik detallarni ham mahorat bilan yoritishga alohida e’tibor qaratib kelinganligini anglash mumkin. Buni biz Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” va Jamila Ergashevaning “Qir ustidagi ayol” romanlaridagi Nazira va Nozimaning o‘z xarakter xususiyatlari bilan qismatini belgilayotgan obraz sifatida baholanishga loyiq ekanida ko‘ramiz.

Zulfiya Qurolboy qizining ilk hikoyasidayoq bo‘rtib ko‘ringan va uning ijodiy takomilida qudratli bir qanot bo‘lib xizmat qilgan bu milliylik, o‘zbek millatiga xos bo‘lgan tuyg‘ularni o‘zida mujassamlashtira olgan sifatlarni mahorat bilan tasvirlaydi. Zero, adabiyotshunos Umarali Normatov ta’kidlaganidek, “...Zulfiya-ning bir vaqtlar tanqidchilikda mensimay qaraladigan, uncha xush ko‘rilmaydigan ijtimoiylikdan xoli sof “ko‘ngil mayllari nag‘malari” talqini adabiy tajribalari yo‘lidan borib yaratgan qator hikoyalari, ... o‘zining badiiy-ma’naviy ta’sir kuchi

jihatidan sof ijtimoiy yo‘nalishdagi yetuk asarlardan aslo qolishmaydi” [Normatov , 2010:]. Haqiqatdan ham Zulfiya Qurolboy qizi ijodining dastlabki bosqichlariga qaraganda, keyingi yaratilgan asarlari (“Armon asirasi”, “Mashaqqatlar girdobi” va “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” romanlari)dagi o‘ziga xos uslubiy teranlik, xalqchil, iboralara, qochirimli so‘zlarning yanada sayqallanganligini, falsafiy tus olganligini ko‘rishimiz mumkin. Adibaning “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” romanida g‘oyaviy-badiiy mundarijasining teranligi, tasvir va ifoda rang-barang-ligining kengayganligi, qahramon tasvirida haqqoniylik, tilida xalqchillik, ibratli, qochirimli so‘zlarning mahorat bilan qo‘llanganligi bois o‘zgacha jozibadorlik kasb etgani diqqatni tortadi. Uning “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” romanida hayot deb atalmish sinovli maskanda o‘z o‘rni va mavqeyini tinimsiz mehnat ortidan ro‘yo qilgan ayol – Nazira Shodmonova qismati mahorat bilan yoritib beradi. Shuningdek, adiba asar voqeliklarini tasvir etish asnosida oilada xususan insonlar o‘rtasida ayollarga bo‘lgan qarashlarni, ularga “shahar olib berarmidin” qabilida yondoshish masalalarini ham olib chiqadi. Bu og‘riqli va ayollarga xususan qizlarga, ularning kelajagiga qo‘shtirnoq ostida qarovchilarning “ayol ham inson, uning ham qalbi borligini” isbotlab beradi. Ayollarda ko‘ngil ishi juda nozik masala ekanligini oshkor etadi va buni asar qahramonlari tilidan ifodalab beradi. Asar qahramoni Nazirada bu qarashlarga o‘zining qalb qo‘ridagi g‘alayonlarini, e’tirozlarini namoyish etadi. Bu so‘zlarni o‘z onasi tilidan eshitganida o‘zini qo‘yarga joy topolmaydi*: “– Qiz bola odam emasmi? Onam nega hadeb go‘r bo‘larmiding deyveradi?... – Aybimiz qiz bo‘lib tug‘ilganimizmi?”* yana bir o‘rinda *“-Nima, o‘qib menga shahar olib berarmiding?”* [Zulfiya Qurolboy qizi, 2020:]. Ayol qachon baxtli bo‘la oladi? Ayol kimgadir kerakli ekanligini qalban anglaganida, oila bag‘rida, farzandlar taftini his qilganida, yonida sevimli qalqoni bo‘lganida o‘zini yanada baxtli xis qila oladi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “Ayol zoti bor hamisha unitilishidan, nazarga olinmaslikdan, e’tibordan qolishdan qo‘rqib yashaydi” [Yo‘ldoshev , 2006: 482]. Ayol - ayol sifatida qadrlanmasa, e’tibordan, e’tirofdan yiroq bo‘lib yashashi uni ruhan

azoblashi haqiqatdir. Ayol shirin so‘z gadosi.

Asar voqealar rivojida Nazira ikkinchi bor baxtli bo‘lish, oila qurish umidi, ko‘nglida yana bahor kelganidan masrur ekanligi ko‘rsatilib beriladi. U ko‘nglida bahorning yana qayta bo‘y ko‘rsatganiga, hayotida uni baxtli qilaoladigan insonni uchratishi uning ko‘nglini nurafshon qiladi. Mana shunday kunlardan birida yaxshi niyatlarda Jo‘rabekka turmushga chiqadi, bir etak farzandlarning sevimli onasiga aylanadi. Ammo bora-bora Jo‘rabek bilan o‘rtasidagi munosabatlarda kemtiklik yuzaga keldi. Oilaning, ro‘zg‘orning og‘ir yuki Naziraning zimmasida, uning mas’uliyati, vazifasi darajasiga yetkazib qo‘ygan Jo‘rabek oila, farzandlar uchun mehnat qilish, izlanish, yelib-yugurishdan bosh tortadi. Naziraning qancha yalinib-yolvorishiga qaramasdan biror ishning etagidan tutmaydi. Bu holatga Nazira bora-bora ko‘nikib, moslashib boraveradi. Erta-yu kech oilam, bola-chaqqam deb tinmay mehnat qiladi, izlanadi. Afsus, bu ayol tabiatidagi bebaho fazilatlarni, iste’dodini, qalb tubidagi ezgu tuyg‘ularini, yurt koriga yarash, obod etish, rivojlantirish, xalqning farovonligi yo‘lidagi olib borgan ezgu amallarini nafaqat umr yo‘ldoshi balki yuqori mansab egalari bo‘lgan Anvar Bo‘riyev, Abror Qodirovich singari amaldorlar ham payqamadi, qadrlamadi.

Jamiyatda Naziraga o‘xshash tadbirkor ayollarning oyog‘iga bolta urish istagida yurgan, korrupsiyani o‘ziga shior qilgan, o‘z manfaatini ustun qo‘yguvchi ba’zi amaldorlarning xatti-harakatlaridan norizo bo‘ladi. Haqiqat, adolat baribari g‘alaba qozonishiga umid qilgan Nazira hayotda yaxshi, xalol insonlar ham borligini anglab, Sunnat Ahmedovich singari o‘z ishining ustasi bo‘lgan inson uni oqlab chiqadi. Unga qo‘yilgan ayblovlar nohaq ekanligini isbotlab beradi. Adiba ayolning ko‘ngil olamidagi evrilishlar, nohaqliklardan ozorlanishlarini Sunnat Ahmedovich bilan kechgan suhbatda namoyon etadi, *“... qadimda ayollarni qurbonlik qilishga to‘g‘ri kelganda ular orasidan tayinli yaqinlari, tanish-bilishi bo‘lmagan xotinni tanlasharkan. Negaki unga tog‘day suyanchiq bo‘ladigan, dovullardan himoya qiladigan hech kim bo‘lmas ekan-da...”* [Zulfiya Qurolboy qizi, 2020:505]. Nazirada mana shunday tog‘day qalqoni, suyanadigan suyanchig‘i, darddoshi yo‘q

edi. Roman mutolaasi chog‘ida mana shu hol bir armon bo‘lib o‘quvchi qalbini tirnaydi. Ayol boshi bilan o‘z kuch va manotantiga, iste’odiga, intiluvchanlik, tadbirkorlik qobilyatiga suyanib yuqori marralarni egalladi.

Jamila Ergashevaning “Qir ustidagi ayol” romanidagi qahramon Nozima o‘z nafsoniy illatlariga qul bo‘lgan, begona bir erkak oldida tuyg‘ularini jilovlay olmay hayot so‘qmoqlarida adashgan ayol sifatida tasvirlanishi bilan Nazira Shodmonovadan farq qiladi. Nozima tabiatidagi evrilishlar, o‘z maqsadi sari tashlayotgan qadamining noto‘g‘ri ekanligi asardagi boshqa obrazlar tomonidan ham muallif bayonida ham bir necha marotaba ta’kidlab o‘tiladi. Yozuvchining roman yozishdagi asl niyati o‘z turmushiga o‘zi og‘u solib, achchiq qismatini o‘zi yaratayotgan ayolni to‘g‘ri yo‘lga solib, asl o‘zaniga qaytarish edi. Adiba Jamila Ergasheva Nozima obrazi orqali jamiyat hayotidagi ba’zi bir ayollar tabiatidagi og‘riqli nuqtalarni bir-bir sanaydi va shunday ayollar ruhiyatiga kirib boradi. Yozuvchi roman boshida ham asl maqsadini, Nozima xarakteridagi kamchiliklarni kitobxonga bir-bir namoyon qila boradi. Shu bois roman fabulasida Nozima qaynonasining uyida, Hamdam topib bergan kvartirada, Dubay mehmonxonasida, Moskvaning bir chekkasida esa chiqindilar ichida va O‘zbekistonga qaytib kelib qaynonasining qirdagi uyida bolalari bilan diydorlashishi tizimli ravishda, kompozitsion markazga uyushgan holda tasvirlanadi. Nozimaning hayot so‘qmoqlarida u go‘shadan bu go‘shaga ko‘chib yurishida faqat o‘zi bosh sababkor bo‘lib, xarakter mantig‘iga ko‘ra harakatlanadi. Adiba Nozima qismatini dastlab asar boshidagi to‘y epizodi orqali belgilaydi va keyingi voqealar rivoji uchun asos yaratadi. E’tibor berilsa, o‘sha to‘yda Nozima Hamdam bilan uchrashadi, shu to‘y sabab olmos ko‘zli uzukka yig‘ib qo‘ygan pullaridan ayriladi, shu to‘y sabab ruhiyatida shu paytgacha goh yashirin, goh oshkora ko‘rinish berayotgan alamzadalik, molu dunyoga bo‘lgan hirs bosh ko‘tardi. Demak, adibaning to‘y epizodidan asosiy maqsadi Robiya xolaning qishloqdagi mavqeini, uning kichik qizi Shohistani katta yo‘lga qanday kuzatganini kitobxonga yetkazish emas, balki to‘y va unga bog‘liq voqealar tasviri orqali Nozima ruhiyatida paydo bo‘layotgan

oʻzgarishlarni kitobxonga anglatishdir. Toʻyda topgan “oshigʻi” Hamdam bilan telefondagi suhbatdan keyin uning oʻzini oynaga solishlari, ikki farzandim boʻla turib ham bir toʻyga borsam yigitlarni oʻzimga ergashtiraman, deb oʻz goʻzalligiga mahliyo boʻlib “qandingni ur” deyishi tabiatidagi yengiltaklikning ilk belgilari edi. Bir erkakning jufti haloli, ikki farzandning onasi, kasbi doirasida maktabda odob-axloqni oʻquvchilarga targʻib qiluvchi ona tili va adabiyot oʻqituvchisining bu xildagi yengil qarashlari kitobxonni ajablantiradi.

Ayolning alamzadaligi (olmos koʻzli uzukning unda yoʻqligi), begona bir erkak oldida oʻz tuygʻularini jilovlay olmasligi sabab uning ruhiyatida hayotda bir marotaba yashayman, shu bois undan lazzatlanib qolay, xohlaganimcha oʻyin-kulgi qilay, degan oʻy-xayollar hukmronlik qila boshlaydi. Yozuvchi asar voqeligini ifodalashda, dramatizmni chuqurlashtirishda Nozima xarakteridagi evrilishlarni koʻrsatishda an’anaviy yoʻldan, ya’ni realistik usuldan foydalanadi. Bir misol. Adiba Nozimani Dubay “safari”dan toʻgʻri Oʻzbekistonga “olib kelishi” ham mumkin edi. Bunga Nozimada imkon ham, yetarlicha mablagʻ ham bor edi. Ammo qahramonimiz tiynatida yaxshilik uchqunlari, ma’naviy olamida oʻzallik kurtaklari koʻrinish bergan boʻlsa ham hali tavba qilish darajasiga koʻtarilmagan edi. Uning Dubayda oʻtkazgan hayoti aysh-ishratdan iborat boʻlib, qilgan ishlaridan afsuslanish, uyalish, oʻzining onalik, ayollik sha’niga isnod keltirganini tushunib etmaydi. Bir soʻz bilan aytganda, Nozima xarakterida ijobiy siljish deyarli koʻzga tashlanmaydi. Nozima holatida “hammasiga men aybdorman”, “barchasiga oʻzim sababchi boʻldim”, xato qildim”, deya ayta olmas edi. Bu soʻzlarni ayta oladigan darajaga yetmagandi. Vaholanki, yozuvchining maqsadi qahramonining qilgan qilmishlari notoʻgʻri ekanini oʻziga anglatish va uni toʻgʻri yoʻlga solish ekani oydinlashib boradi. Boshqa asarlarda boʻlgani kabi bu roman qahramonlari taqdirida ham yaxshilikning yovuzlik ustidan gʻalaba qilishi, adashgan qahramon-larning qalbida insoniylik uchqunlarining paydo boʻlishi, yomonlikning jazolanishi lozim boʻladi. Shu bois Nozimaning Dubaydan mehribon ona boʻlib qaytishi mantiqan unchalik toʻgʻri boʻlmas edi. Bunga voqealar silsilasi ham imkon bermasdi.

Adiba romanda Nozima xarakteridagi beqarorliklar, voqealar fonida kitobxon koʻz oldida ayolga xos boʻlgan barcha sifat-xususiyatlarni yoʻqotadi. Adiba qahramonini voqealar rivojida romanning eng yuqori nuqtasiga olib chiqadi. Lekin yozuvchi an'anaviy tarzda ma'naviyatsizlikning yuqori choʻqqisiga chiqqan Nozimani keyinchalik, asar davomida pastga – zaminga qaytarib olib tushgandek tuyuladi. Chunki ayol sifatida ta'riflashga noloyiq deya baholanayotgan Nozima asar yakunida ma'suma, mehribon onaga aylanadi. Ba'zan insonda xarakter va taqdirni tarozining ikki pallasiga muqoyasa qilsak ular hamma vaqt bir-biriga monand yoxud teng kelavermasligi tabiiy. Inson yashayotgan, ishlayotgan muhitga koʻnika olmasligi mumkin. Lekin oʻz xarakter-xususiyatlari bilan muhitga ta'sir koʻrsatishi yoki yengib oʻtib oʻz taqdirini oʻzgartirishi mumkin. Yuqoridagi ikki ayol esa oʻz xarakterlari bilan taqdirlarini belgilagan ayollar sirasiga kiradi. Shu oʻrinda adibalar Zulfiya Qurolboy qizi va Jamila Ergasheva romanlarida ayol qismati ikki xil konsepsiyaga asoslanishini koʻrish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergasheva J. Qir ustidagi ayol. – Toshkent:Oʻzbekiston, 2013. – B. 168.
2. Normatov U. Qalbdagi benazir ziyo. Veb-sahifasi. 2010 yil.
3. Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatli hayot soʻqmoqlari. "Yangi kitob". .– Toshkent. 2020.
4. Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. "Yangi asr avlodi". .– Toshkent. 2006.

SHOYIM BOʻTAYEVNING "SHOX" ROMANIDA BADIIY XARAKTER TALQINI

Djurakulova Elmira Suyunovna
Samarqand davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
elmira.djurakulova@bk.ru

Annotatsiya

Badiiy asardagi har bir obraz oʻz olamiga ega. Ammo badiiy xarakter ijtimoiy hayotning asosiy xususiyatlarini oʻzida mujassamlashtirgan obrazning mukammal turidir. Shuning uchun har bir shaxs boshqa bir shaxsni tushunishga, xatti-harakarlarini baholab, u haqida tasavvur hosil qilishga intilar ekan, beixtiyor "oʻz qarichi"ni ishga soladi. Ushbu maqolada yozuvchi Shoyim Boʻtayev qalamiga mansub "Shox" romanidagi badiiy xarakter talqini, asosan, Hotam obrazi va uning ruhiyatidagi oʻzgarishlar ustida mulohazalar yuritilgan.

Kalit soʻzlar: xarakter, obraz, obyektivlik, subyektivlik, biografik, ontologik, funksional.

Annotation

Each image in a work of art has its own world. But artistic character is the perfect type of image that embodies the basic features of social life. Therefore, each person involuntarily uses his "old age" in an attempt to understand the other person, to evaluate his behavior and to form an image of him. This article discusses the interpretation of the artistic character in the novel "Shox" by the author Shoyim Botayev, mainly on the image of Hotam and changes in his psyche.

Key words: character, image, objectivity, subjectivity, biographical, ontological, functional.

XX asr adabiyotshunosligida keskin va qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan roman janrining genezisi hamda taraqqiyot tamoyillarini o‘rganish barobarida milliy romanchiligimiz imkoniyatlari, ayni paytda, janrning milliy istiqlol davridagi holatini ko‘zdan kechirish jarayonida poetik talqin jihatdan yangilanib borayatgan romanlarni tahlil qilish an’anasi kuchayib bormoqda.

Poetik yangilangan romanlardagi xususiyatlarni ilmiy tahlilga tortish orqali janr taraqqiyotini, shaxs ichki olami, insonning botiniy va zohiriy tabiati badiiy inkishof qilinar ekan, romanga xos tafakkur janrining o‘ziga xosligini namoyon etuvchi adabiy omil sifatida maydonga chiqadi. Romanga xos tafakkur badiiy asar mohiyatini anglatibgina qolmay, jamiyat badiiy-estetik tafakkuri darajasini ham namoyon etadi.

Davr ruhi va inson ma’naviy borlig‘i qay darajada rang-barang mohiyatga ega bo‘lsa, uni ifodalash madaniyati ham shunchalik bir-biridan farqlanadi. Keyingi yillar romanchichiligidagi talqiniy o‘zgarishlarda xarakter yaratish an’anasining o‘ziga xos tamoyillari yanada teranlashib bormoqda. Adabiyotshunos Hotam Umurov badiiy adabiyotdagi xarakter haqida so‘z yuritganda shunday yozadi: “Xarakter va uning ichki reja hamda dasturini belgilovchi ruhiyatining bir butunligida; tashqi va ichki olamning hamohangligida, dialektikasida” [1, 23-bet] – ekanligini alohida qayd qilib o‘tadi.

Darhaqiqat, badiiy xarakterlar orqali insonni anglashga, uning turfa xil olamini tushunishga, hayot, tabiat, inson birligini teranroq his etishga imkon berishi, tabiiydir. Shuning uchun rus adabiyotshunosi A.I.Timofeyev yozadi: “Yo odam o‘zini u yoki bu voqealarga aralashgan holda xatti-harakatlarda, faoliyatda

koʻrsatadi. Yoki xatti-harakat qilmasdan uni oʻrab olgan atrof-tevarakdagi hayotiy voqelikni kechinmalari orqali qabul qiladi” [2, 329-bet].

Qayd qilingan nazariy qarashlar zamirida inson xarakteridagi oʻzgarishlarning muhit va sharoit bilan uzviy bogʻlanishini ham unutmaslik kerak, chunki uning zamirida davr xususiyatlarini anglashga intilish sezilarli darajada teran badiiy talqinlarni namoyon etadi.

80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, hayotga nazar solish teranlasha boshladi. Bu esa turfa olamga ega boʻlgan shaxslar qismatini ham badiiylikda yuzaga chiqara olganligini kuzatish imkonini beradi.

Asr adogʻida badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qilib kelayotgan Shoyim Boʻtayev asarlarida ham polifonik talqin bilan bir qatorda insonni anglashga boʻlgan ehtiyojning ortishi kuzatiladi. Adibning “Qoʻrgʻonlangan oy”, “Shox” romanlarida inson va tabiat, inson va insoniyligini yoʻqota boshlagan fojiali shaxslar qismati talqin etilgan.

Yozuvchining “Shox” romanidagi xarakterlar talqinini olib koʻradigan boʻlsak, bu borada juda koʻplab gapirishimiz mumkin. Binobarin, romanning badiiy yuksakligi shundaki, adib voqelikni faqat koʻz ilgʻaydigan tashqi tomonidangina emas, balki uning mohiyatiga ham nazar tashlaydi, asar qahramonlarining iztirob va shodliklarini ularning ruhiy olami orqali ochishga intiladi. Romanda obyektivlik bilan subyektivlikning uygʻunlashuvi, ruhiyat tasvirining rang-barang vositalari orqali chuqurlashishi va noziklashishi, xarakterlar ruhiyatining ijtimoiy voqelik bilan shartlanganligining badiiy asoslanishi oʻzbek realistek romanchiligimizning asr ibtidosida yangi bir pogʻonaga koʻtarilganligidan dalolat beradi:

Adabiyotshunos Yoʻldosh Solijonov qayd qilib oʻtganidek: “har bir asarda bosh qahramon boʻlishi zarurligi badiiy adabiyotning azaliy qonuniyatlaridan biri sanaladi. Undagi barcha sujet liniyalari, epizodlar, personajlar bosh qahramon taqdiri bilan mustahkam bogʻlansa-da, kompozitsion yaxlitlik yuzaga keladi. Sir emaski, istiqlol davri romanlarida bosh qahramon hayotini butun murakkabligi,

ichki ziddiyatlari, ruhiy kechinmalarining keskin qarama-qarshiligi bilan roʻy-rost tasvirlashga e’tibor kuchaydi”[3; 141-bet].

Darhaqiqat, keyingi yillar romanlaridagi badiiy qahramonlar davrga hamohang emas, balki inson tafakkuridagi evrilishlar zamiridagi ziddiyatlar, uning moddiylikning qurboni boʻlishga sharoitni hozirlaydi. Asar qahramonlari “insoniyatga yordam berish” mohiyatini haqiqiy yordam deb emas, hammadan zoʻr boʻlish va bu zoʻrligi bilan odamlar ishonchiga kirib boylik orttirish, oʻz manfaatini yuksak darajaga koʻtarishga boʻlgan ilinj, shu sababdan ham ruhiyatiga kirib kelgan badnafslik inson tabiatiga yot boʻlgan gʻayrioddiy harakatlar natijasida asar qahramonlarini tubanlik botqogʻi sari singib borishini kuzatamiz. Hotam, Qulmahmud ruhiyatida muntazam oʻzini eslatib turuvchi oʻzidagi badnafslik – gʻoyasi bora-bora ular bilan muloqotga kirisha boshlaydi. Ayni paytda, uning ichki kechinmalari davr evrilishlariga uzviy bogʻlanib ketadi.

“Hotam mashinadan tushganida kandir ishtonining pochasi tizzasigacha yetib qolgan, yalang oyogʻiga tosh kalish kiyib olgan siyrak soqolli bir chol shilpiq koʻzlaridan yosh oqizib, qoʻllarini ikki tomonga yoygancha kelaverdi. U Hotamning belidan quchoqlab, kuraklarini silab, quyuq hol-ahvol soʻrasha ketdi… Bu cholning uyida sichqonlar hassa tayanib yurgani rost edi. Biroq u tilanchilik qilmayotgandi. Gap shundaki, u esini taniganidan beri kolxozda ishlagan, uzumzorlarni barpo etgani uchun boshqalar qatori mehnat haqi olgan, har kuni qozoni bir mahal qaynaganiga xudoga shukur, deya tinchlangan, qanoatlangan, hamma qatori yashab yurganidan qoniqish his etgan odam edi [4, 38-39-b]”.

Bunda Hotamning vaqti kelganda tanti ishbilarmon, oʻz maqsadi yoʻlida hech narsadan toymaydigan, odamlarni ogʻirini yengil qilishga qurbi yetsada, kibr qalbini butunlay egallab olgan xarakter qiyofasida koʻrishimiz mumkin va xasislik, oʻzi boʻlarchilik shaytoniy xirsga qul boʻlib, eshakning mehnati halol - oʻzi harom qabilida ish tutishi inson xarakteri uning hayotiy ziddiyatlar zamirida oʻzgarib borish jarayoni bilan bogʻliqligidan dalolatdir. Shuning uchun rus adabiyotshunos N.G.Chernishevskiy ta’biri bilan aytsak, “Ijtimoiy munosabatlar va toʻqnashuv-

larning xarakterlarga ta’siri mavjud”. Bu nazariy tushunchaga tayangan holda Hotamning iblisona xatti-harakatlari asta-sekin voqelar shiddatida, asar yakunida o‘zgarib qolganini, pushaymonlik, vijdon azobi qalbini o‘rtayotganini guvohi bo‘lamiz. Buning asosiy sababi hayotiy ziddiyatlarda namoyon bo‘ladi.

“Zebi bilib-bilmay Hotamning yuragiga nashtar sanchmoqda edi. U Qulmahmud bilan huda-behuda ishlarga ayamay sovurgan pullarini ko‘z o‘ngiga keltirib ichidan zil ketdi: o‘sha had-hisobsiz sarf-harajatlari, ustiga-ustak katta ketishlari…bularning bari birovlarning umri evaziga bo‘layotgandek tuyuladi unga. Qori boboning marakalarini qishloq ahli o‘tkazayapti, -dedi Zebi. Hotam indamadi[4, 324-325-bet]”.

Bunda Hotamning fitratida hali tamomila o‘chib so‘nmagan, kul tagida qolgan insoniyligini miltirab turgan shamga qiyos qilish mumkin. Bu kabi tasvirlarda asardagi qahramonning turfa xil hislatlari yoritiladi. Yozuvchi Hotam obrazini asoslashda atrof – muhitdagi shaxslar timsolini juda asosli badiiy bo‘yoqlarda jonlantiradi. Shu orqali ijtimoiy muhitdagi shaxslarning salbiy hislatlarini haqqoniy ochib berishga muvaffaq bo‘ladi. Asardagi turfa xil obrazlarda mujassamlashgan hislatlar shaxsning o‘zligini anglash yo‘lidagi harakatlarini namoyon qiladi. Shu bilan birga muhit inson xarakterining shakllanishiga o‘zining u yoki bu darajadagi ta’sirini ko‘rsatadi.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronov shunday yozadi: “Obraz tipik va individual xususiyatlarning uyg‘un mujassami bo‘lsagina badiiy xarakter darajasiga ko‘tarila oladi. Obrazning individual xususiyatlari haqida fikr yuritishning bir chigal tomoni bor: ijtimoiy tiplar haqida jamiyat a’zolarining aksariyatiga xos umumiy tasavvur mavjud, lekin individual xusussiyatlarni tushunishda bunda umumiylik yo‘q” [5, 163-bet].

Badiiy asardagi har bir obraz o‘z olamiga ega. Ammo badiiy xarakter ijtimoiy hayotning asosiy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan obrazning mukammal turidir. Shuning uchun har bir shaxs boshqa bir shaxsni tushunishga, xatti-

harakarlarni baholab, u haqida tasavvur hosil qilishga intilar ekan, beixtiyor “o‘z qarichi”ni ishga soladi.

Xullas, badiiylikning turfa xil tarzda ifodalash xarakterlarning ruhiy-ma’naviy olamini anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умуров Ҳ. Таҳлил чизгилари. – Тошкент, “Муҳаррир”, 2013. –312 б.
2. Тимофеев А.И. Основы теории летратуры. – Москва, 1963. – 530 с.
3. Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчиков кўзлари. – Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутибхонаси нашриёти, 2009. – 210 б.
4. Бутаев Ш. Шох. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, – Тошкент, 2006. – 360 б.
5. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: «Шарқ», 2004, – 288 б.

XOJA HIKOYATLARIDA ADOLATLI SHOH TIMSOLI

Nazarova Dilafruz Ixtiyorovna
ToshDO‘TAU o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada hikoyat janrining adabiy xususiyatlari o‘rganildi. Sayid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja)ning “Miftoh ul-adl”, “Gulzor” asarlarida keltirilgan hikoyatlar tahlil etildi. Xoja hikoyatlarining mavzu rang-barangligi, didaktik jihatlari, insonparvarlik, adolatparvarlik g‘oyalari tarannum etilgan hikoyatlari asosida yoritildi. Adib hikoyatlarida adolatli shoh o‘ziga xos tarzda ifodalangan bo‘lib, ular faoliyati insonlarga axloqiy va ma’naviy oziq beradi. Bu asarlar o‘zbek adabiyoti va Sharq adabiyotida an’ana tusiga kirgan pand-nasihat ruhida yozilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: podshoh, hikoyat, insonparvarlik, adolatparvarlik, didaktika, o‘ziga xoslik, an’ana.

Hikoyatga musulmon Sharqi adabiyotidagi o‘ziga xos bir adabiy hodisa sifatida qaraladi, – deydi R.Jumayev o‘z tadqiqotida. U voqeabandlikka asoslanishini, muayyan asar tarkibida kelishini ta’kidlab, “hikoyat” istilohini hozirgi ma’nodagi “hikoya” atamasi bilan bir xil tushuncha deb hisoblamaslik kerakligini aytadi [7; 11-12]. Hikoya mustaqil adabiy janr, ya’ni: “badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar”ni [10; 330] anglatadi. Biroq uning yuzaga kelishida hikoyatlarning sezilarli o‘rni va ta’siri bor. Boshqacha aytganda, hikoya – hikoyatning ravnaqi natijasida yuzaga kelgan janr. Chunki hikoyatda ham, xuddi hikoyadagi kabi, nisbatan kichik bir voqelik tasvir va

bayon obyekti qilib olinadi. Adabiyotshunoslikda hikoya janri keng o‘rganilgan. Biroq forsiy va turkiy adabiyotdagi hikoyat xususiyatlari o‘rganilgan tadqiqotlar u qadar ko‘p emas [9; 20-23]. Shu nuqtayi nazardan hikoyat janrining adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rni beqiyosdir.

XV asrning oxiri va XVI asrlarda yashab ijod etgan Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja o‘zbek adabiyoti tarixida ijtimoiy masalalarni o‘ziga xos tarzda aks ettirgan kichik hikoyatlar muallifi sifatida mashhurdir. Podshoxoja Shayx Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ so‘z ustalarining an’analarini davom ettirib, kichik hajmli ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy ruhdagi hikoyatlarini “Miftoh ul-adl” hamda “Gulzor” asarlarida keltirib o‘tadi. Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari XI asrdan o‘ziga xos an’ana tusini olgan pand-nasihat ruhida yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansubdir, – deya e’tirof etadi, – adabiyotshnos olim R.Vohidov [4; 514].

Adibning “Miftoh ul-adl” hamda “Gulzor” asarlarida adolat bilan ish ko‘rganlar faoliyati madh etiladi. Aksincha, ish yuritganlar xatti-harakatlari qoralanadi. Ayniqsa, adib Iskandar va No‘shiravon kabi an’anaviy obrazlarni adolat timsoli sifatida ulug‘lashga harakat qilgan. Bu obrazlar ishtirokidagi hikoyatlarida yurt boshqaruvchilarining adolat, odillik, to‘g‘rilik bilan ish ko‘rishi oddiy xalq osoyishtaligi, farovon yashashining garovi ekanligini ko‘rsatib, hokimiyat tepasida turgan u xoh shoh bo‘lsin, xoh vazir adolat bilan ish tutishi lozimligini uqtiradi. Adib hikoyalarida adolat masalasi birinchi o‘rinda turadi. Deyarli, barcha asarlarida muallif adolat tushunchasini turli jihatlardan yoritishga harakat qiladi. “Podshoh va zohid”, “Mahmud G‘aznaviy va boyqush”, “Sulton Mahmud G‘aznaviy, vazir va Ayoz”, “Shayx Bahlul va Xorun ar-Rashid”, “Sulaymon, pashsha va el” kabi hikoyatlarida bosh g‘oya sifatida adolat masalasi qo‘yilgan. “Podshoh va zohid” hikoyatida Zohid bir soatlik adolatga 20 martalik haj savobini almashtirishga tayyorligini aytadi. Podshohxoja hikoyalari katta ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga molik asarlardir. Ularning zamiriga chuqur insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolatparvarlik g‘oyalari singdirilganligi bilan hozirgi kunda

eskirgan, podshohlar, vazirlar, darveshlar, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq sujetlar asosida yaratilganiga qaramay, o‘zining axloqiy-didaktik, ijtimoiy-zamonaviy qimmatini yo‘qotmagan. Ular bugun va kelajak uchun birday xizmat qiladi.

Podshohxoja asarlaridagi hikoyatlar ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy mazmun kasb etgan. Birgina Iskandar Zulqarnayn obrazi ishtirok etgan hikoyatlarida Iskandarning shaxsiy fazilatlari, odilligi, axloqiy sifatlari ochib beriladi. Xojaning Iskandar obrazi ishtirok etgan “Ajoyib shahar” hikoyatida berilishishicha, bir viloyat hokimining odilligi va yurtining ma’murligi Iskandarni hayratlantiradi. Iskandar Zulqarnayn bir viloyatga boradi. Borgan yerida suruv-suruv qo‘ylar bo‘lib, cho‘poni yo‘q ekan, suruv-suruv tuyalari yuribdi, sarboni yo‘q ekan, suruv-suruv yilqilari yuribdi, otboqari (yilqiboni) yo‘q ekan. Barcha qo‘ylar, tuyalar, otlar soni bir xil ekan, ortiq yo kami yo‘q ekan. Yana mevalari pishib yotgan bog‘lari bor ekan-u, bog‘boni yo‘q ekan. Iskandarning lashkarlaridan qaysiki moli yoki mevasini esa xasta bo‘libdi. Iskandar bu holni ko‘rgach, hech kim bu mollar va mevalardan olmasin deb hukm qilibdi. Keyin bir kishini bu viloyatning shahariga yuborib, qanday ekanligini bilib kel debdi. U kishi shaharga bordi, shahar bozori orasta, har narsasi mo‘l, do‘konlari farovon, ammo egasi yo‘q ekan. Hayron bo‘lib yurgan edi, nogoh oldidan bir kishi chiqdi. U kishidan so‘rab bildi. Iskandarning kelganini ularga bildirdi. Iskandar bu viloyatning tartib-qoidalaridan juda ajablandi. Iskandar ulardan so‘radi: bu ne ajoyib holki, sizlarning mollaringizning qarovchisi yo‘qdir va yana barcha mollaringiz bir-biridan kam emas, kimki molingizdan, mevangizdan olsa, darhol xasta bo‘lmoqda. Buni menga ma’lum qiling dedi. Shunda u viloyatning podshohi: “Bizning oramizda biror kishi muflis (qashshoq) bo‘lsa, barimiz yig‘ilib ul kishiga mol jam qilib, ul kishini mol va amvol va jamiyatda o‘zlarimiz birlan barobar qilurmiz. Ul jihatdin bizning oramizda o‘g‘ri va avbosh bo‘lmas”, – debdi [2; 43-45]. Iskandar bu tartibli viloyatdan bag‘oyat shod va mamnun bo‘libdi. Iskandar Zulqanayn adolati bilan dong taratgan podshoh bo‘lsa-da, bu viloyatning boshlig‘i bu borada undan-da tajribaliroq bo‘lib chiqibdi.

Adib mulkning ma’murligi, xalqning saodati hukmdorga bog‘liqligini keltirilgan ixcham hikoyatda badiiy tasvir etgan. Podshoh, yurt boshqaruvchisi bilan xalqning bir-birini yaxshi tushunishi, bir-biridan xabardor bo‘lib, ularning o‘zaro bahamjihatliligi porloq kelajakning poydevori bo‘lsa, noahilligi esa mamlakatni vayron etib, xalq boshiga turli musibatlar keltirishi haqiqatdir.

Iskandar Zulqarnayn obrazi Podshohxojadan oldin yashab ijod etgan bir qator ijodkorlar ijodida ham uchraydi. Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy... barcha ijodkorlar ijodida Iskandar Zulqarnayn adolatli shoh timsoli sifatida e’tirof etiladi. Mazkur hikoyatda esa Iskandar Zulqarnayndan ham odil yurt boshqaruvchisi bor ekanligini ko‘rsatgan. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarida Iskandar Zulqarnayn haqidagi bir hikoyatida: Iskandardan so‘radilar: “G‘arb-u Sharqdagi mamalakatlarni nima bilan zabt etding? Avvalgi podshohlarning xazinasi, yoshi, lashkari senikidan ortiq bo‘lsa-da, bunday fotihlik ularga nasib bo‘lmagandi”. Iskandar dedi: “Zabt etgan mamlakatim fuqarolariga ozor bermadim va podshohlarining nomlarini faqat yaxshilik bilan yod etdim” [8; 55]. Sa’diy ham Iskandarning adolat bilan ish yuritganligini e’tirof etmoqda. V.Zohidov ta’kidlaganidek, Xojaning “Gulzor” asari Sa’diyning “Guliston” asari yo‘nalishida yozilgan. “Guliston” asaridagi hikoyatlar singari Podshohxoja asarlarida ham ixcham hikoyat keltiriladi, xulosa qismini esa she’riy parcha bilan yakunlaydi.

Xoja hikoyatlari aynan adolatli, odil, insofli shohlarga bag‘ishlangan hamda ularga qarama-qarshi obraz sifatida o‘g‘ri, xalq mulkini o‘maradigan, shoh xazinasini talon-taroj qiladigan bek, vazir, amaldorlarni qo‘yadi. Mazkur hikoyatlarda adibning odil shoh haqidagi qarashlari, ularga bo‘lgan munosabati, zulm qiluvchilarga nisbatan qahr-u g‘azabi o‘z ifodasini topgan. Shunday hikoyatlaridan biri “Mihtohul-adl” asaridan o‘rin olgan “Bahromgo‘r va cho‘pon” haqidagi hikoyatdir.

Mazkur asarni o‘n besh bobga ajratgan M.Mirzaahmedova “Xoja” nomli monografiyasida ikkinchi bobi (“Odil sultonlarning bayonin qilur”)da adolatli shohlarga xos xususiyatlar haqida Xoja o‘z tushunchalarini berib o‘tganligini qayd

etadi [3; 56]. Fikrimizcha, shoh o‘ta odil bo‘lishi bilan birga juda hushyor turmog‘i, atrofidagilarini nazorat qilishi lozim bo‘ladi.

Hikoyatda aytilishicha, bir Bahromgo‘r degan podshoh bo‘lib, u ov qilishga, may ichishga, maishatga berilib ketib, davlat ishlarini vaziri Rostravshanga topshirib qo‘yadi. Bundan foydalangan vaziri o‘z manfaati yo‘lida xalqni ko‘p azoblaydi. Natijada shaharlar xarobaga aylanib, xalq mamlakatni tashlab keta boshlaydi. Kunlardan bir kuni podshoh qo‘l ostidagi beklaridan biri isyon qilayotgani haqida xabar topadi. Uni bostirish uchun urushga hozirlik ko‘rmoqchi bo‘ladi. Ammo askarlari tarqab ketganini, xazinasi bo‘shab qolganini ko‘radi. Hayron bo‘lib, bor askarlar-u, qurol-aslahalarini yig‘ib, dashtga chiqib ketadi. Yo‘l yurib suvsagan shoh uzoqdan bir chodirni ko‘radi va chodirga boradi. U chodir eshigida bir itning osilib turganini ko‘radi. Shoh chodirdan chiqqan kishidan kimligini so‘raydi. U kishi cho‘ponligini aytadi. Suv ichib bo‘lgach, shoh bu itni nima uchun osib qo‘yganini so‘raydi. Cho‘pon shohga sababini tushuntiradi: “Bu it maning itim erdi, qo‘ylarimni boqar erdi, erta birla o‘tga olib borur erdi, kechalari qo‘noqqa olib kelur erdi. Bir kun qo‘ylarimni sanadim, ersa kam keldi, taqi ikkilamchi kuni ham sanadim, yana eksuk keldi...” Tush vaqtida qo‘ylaridan xabar olgani kelgan cho‘pon bo‘ri qo‘ylarini bo‘g‘izlayotganini ko‘radi. Itini chaqirisa ham qaramaganidan, o‘rnidan turmagandan jahli chiqib, qo‘ylarini uyiga olib keladi va xiyonat qilgani uchun itini osib o‘ldirganini va uni ko‘rib o‘zga itlar xiyonat qilmasliklari uchun dorga osib qo‘yganini aytadi. Mumtoz adabiyotimizda it obrazi vafo, sadoqat timsoli sifatida keltirilgan bo‘lib, bu hikoyatda hiyonatkor obraz sifatida keltiriladi. Adib bu hikoyati orqali hiyonatning jazosi o‘lim ekanligini ko‘rsatgan. Bunda ijodkorning an’anaviy obrazdan chekingan holda noan’anaviy ijodiy yangiligini ko‘rishimiz mumkin.

Hikoyatdan bilsa bo‘ladiki, yurtda adolat o‘rnatishning yaxshi yo‘li odil shoh orqali amalga oshiriladi, ya’ni adolatli shoh o‘z faoliyati bilan fuqarolariga o‘rnak bo‘lsa, uning atrofidagi kishilar ham adolatli bo‘lishga harakat qiladi, aksi bo‘lsa, yomon oqibatlarga olib keladi. Hikoyat mazmunidan bilsa bo‘ladiki, adolat qaror

topishi uchun bir qancha sabab va oqibatlar to‘g‘ri hal etilishi lozim. Chunki mamlakatda zulmning kuchayishiga, xalq hayotining izdan chiqishiga asosiy sabab shohning o‘z yurtiga bee’tiborligida ko‘rinadi. Shuning uchun ham Xoja shoh mamlakat va xalqi haqida qayg‘ursa, uning gullab-yashnashi uchun harakat qilsa, xalq orasida obro‘si oshishini, mamlakati gullab yashnashini, shohlik mas’uliyatini unutib, el dardi bilan yashamasa, ular uchun qayg‘urmasa, yomon oqibatlarga olib kelishini bir hikoyat misolida isbotlab beradi. Shoh odil va adolatli bo‘lishi bilan birga, xalqining osoyishtaligi uchun hushyor bo‘lishi hamda qo‘l ostidagi vazur-u beklarni nazorat qilib turishi ham muhim ekanligini ta’kidlaydi. Buni yuqoridagi hikoyatdan olingan quyidagi satrlarda ko‘rishimiz mumkin: “Emdi sulton yo bek bo‘lg‘on kishi vazirig‘a ishonib g‘ofil bo‘lmoq kerakmas. Va yana podshoh yo bek bo‘lg‘on kishi bir navkarin bir shaharga beklikni yuborsa, yashirin va yana bir g‘a-razsiz kishini ortincha yubormak kerak, adl qilurmi yo zulm qilurmi...” [3; 18-21].

“No‘shiravoni odil va Hakim” deb shartli nomlangan quyidagi hikoyat ham benihoyat ibratlidir. No‘shiravoni odil adolat masalasida barcha beklari va hakimlarini yig‘ib, raiyat, ya’ni xalq bilan qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida yig‘ilganida, beklari aytadilar: Agar ulug‘ podshoh bo‘laman desang, xalqdan olinadigan soliqni ko‘paytirib, qo‘shinni mustahkamlash kerak. Donishmand Abuzarjumhur esa, beklar, sizlar xato yo‘ldasizlar, bu yo‘l bilan yurtni ham, davlatni ham xonavayron qilasizlar. Bu yo‘l bilan xalqqa zulm qilib, bir-ikki yil soliq yig‘ib, navkarlarga berarsizlar, keyinchi? Kimdan nimani olasizlar? ...

Podshoxojaning to‘g‘rilik va adolat haqidagi qarashlarini uning “Sulton Mahmud G‘aznaviy va darvesh”, “No‘shiravon, kampir, Ozarbayjon begi”, “Sulton Malik va kampir”, “Iskandar va Chin haqoni”, “Sulton Mahmud va tolibi ilm” va boshqa hikoyatlarida o‘z aksini topgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Xoja hikoyatlarida adolatli shoh o‘ziga xos tarzda ifodalangan bo‘lib, ular faoliyati insonlarga axloqiy va ma’naviy oziq beradi. Xoja xalqning yaxshi hayotga erishishini istadi, shoh va uning amaldorlarini adolatli bo‘lishga, xalqqa zulm o‘tkazmaslikka chaqirdi. Fuqarolar

holidan xabardor bo‘lib turishga undadi. Shu bois, u o‘z qarashlarida adolatli va insonparvar podshohlar timsolini yaratdi. Ana shu timsollar vositasida zamonasining zolim amaldorlariga ta’sir etish orqali ularni tarbiyalamoqchi bo‘ladi. Xoja hikoyatlari har jihatdan kitobxonni ezgulikka chorlaydi, o‘quvchiga ma’naviy ozuqa berish bilan birgalikda ularni adolatli va to‘g‘ri bo‘lishga chorlaydi. Xoja asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy mavzular bugun uchun ham ibratlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek adabiyoti III tom. – T.: O‘zdavnashr. 1959. – 230 bet.
2. Podshoxoja. “Miftohul-adl” va “Gulzor” dan. – T.: O‘zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti. 1962. – 55 bet.
3. Mirzaahmedova M. Xoja. – T.: Fan. 1975. – 134 bet.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (eng qadimgi davrlardan XVI asr oxirigacha) O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006. – 514 b.
5. N. Jumaxo‘ja, Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI–XIX asr I yarmi). Darslik. Ikkinchi nashr. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – 518 b.
6. Ahmedov I. Podshoxoja va uning “Gulzor” majmuasi. //“O‘qituvchilar” gazetasi// –T., 1947-yil 17-may.
7. R. Jumayev. “Masnaviyi ma’naviy” va “Lison ut-tayr” dagi hikoyatlarning qiyosiy tahlili. F.f.d. (Phd) diss.avtoreferati. Samarqand. 2018. – 45 b.
8. Sa’diy Sheroziy. Guliston. Bo‘ston: to‘plam. – T.: Fafur Fulom nomidagi NMUI, 2021. – 264 b.
9. G‘anixo‘jayeva N. Navoiy hikoyatlarining asosiy manbalari haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1967. – № 4. – B. 20–23.
10. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 11-jild. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

UBAYDIY IJODINING O‘RGANILISHI

Hayitboyeva Dilorom Hakim qizi
ToshDO‘TAU o‘qituvchi

Annotatsiya

Bugungi asrimizda Ubaydiy ijodini o‘rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbek ruboiynavisligi taraqqiyotiga Ubaydiy ham o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, ruboiy janri uchun belgilangan an’anaviy qonun-qoidalarga amal qilib qolmasdan, uni ma’no va mazmun jihatidan boyitishga, hayot bilan uyg‘unlashtirishga, til va ifoda soddaligi, samimiyligiga erishishga katta ahamiyat bergan. Ushbu maqolada Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati, merosi xususida, shoir hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi yuzasidan mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Ubaydulloxon, Qul Ubaydiy, tasavvuf, zullisonayn, kulliyot, “Devoni Ubaydulloxon”, “Masoil us-salot”, ruboiy, tariqat, manzuma.

Ko‘plab shoh – shoirlar qatorida Ubaydiy hayoti va ijodi ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilmay kelindi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, shoir haqida bizgacha ko‘p manbalarda ma’lumotlar yetib kelgan. O‘z zamonasining tarixiy, ilmiy, tazkira asarlarida Ubaydiy siyosiy faoliyati, noyob iste’dod sohibi ekanligi, adabiy merosi haqida qimmatli ma’lumotlarni ko‘ramiz. Zayniddin Vosifiyning “Badoe-ul vaqoe”, Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Mirmuhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullonoma” , Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Mahmud ibn Valining “Bahr-ul-asror”, Sayyid Roqimning “Tarixi Roqimiy”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, “Nafois ul-maosir” kabi asarlari va tazkiralarda Ubaydiyning hayoti, ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyatiga doir mulohazalar va ma’lumotlar yozib qoldirilgan.

XX asrning 20-yillaridan shoir tarjimayi holi va she’riyati bilan qiziqish bosh-langan. Bu yo‘lda A.Fitrat, O.Sharofiddinov, A.Ibrohimov, S.G‘aniyeva, A.Hayitmetov, H.Homidovlar bir qancha asarlarida, maqolalarida, M.Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasida Ubaydiy hayoti va adabiy merosi ma’lum ma’noda tadqiq etilgan.

Chet el olimlaridan G.Vamberi, M.F.Kupruli, J.Ekman, Annemariy fon Shimmel shoh – shoir hayoti va ijodiyoti bo‘yicha ayrim tadqiqotlarni amalga oshirganlar. [6; 5-bet.] Bugungi asrimizda ham Ubaydiy ijodini o‘rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan bo‘lib kelmoqda.

Ubaydullaxon kulliyoti yagona nusxada O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida (inv. №8931), “Devoni Ubaydulloxon” qo‘lyozmasi Turkiyaning Nuri Usmoniya kutubxonasida (inv. e4904), “Masoil us-salot” nomli terma bayozi Ko‘niyodagi Izzatquyun xususiy kutubxonasida saqlanadi.

Asli ismi Abulg‘oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog‘ Sulton ibn Abulxayrxon o‘zbek mumtoz adabiyotida boy lirik merosi bilan ajralib turadi. Shayboniylar sulolasidan. Muhammad Shayboniyxonning jiyani,

Mahmud Sultonning o‘g‘li. Otasining iltimosiga ko‘ra, unga Xoja Ubaydulloh Ahror o‘z ismini bergan. “Alqissa, (Ubaydullaxon) tarix sakkiz yuz to‘qson ikkinchi yilda yo‘qlik biyobonidan borlik shahriga keldi va o‘z valodati nuri(ning) ravshanligi bilan jahonni tamom yoritdi. Saodat maqtovli otasining (Mahmud Sultonning) iltimosi bilan qutblar qutbi va aql egalarining qiblagohi hazrat Xoja Nosiriddin Ubaydulloh, Tangri uning saroylarini serob qilib, orom joylarini jannat qilsin, unga qutli oqibat Ubaydulloh deb ism qo‘ydilar. O‘z nomlarini berishlari (uning) zo‘r marhamatlaridan bo‘ldiki, shuning uchun (ham) uning bebaho asarlari va yaxshi nomlari(ning) oqibatlari foniy olamda boqiydir”.[4; 59-bet.] U otasining yolg‘iz farzandi bo‘lganligi tarixiy manbalarda zikr etilgan. Buning isbotini shoir ijodidagi quyidagi ruboiy orqali ham bilib olishimiz mumkin:

El, ko‘plukni ko‘zga nega yig‘laysiz,
Yolg‘iz kishidin ham necha kesilgaysiz.
Yolg‘iz deb oni kesilgaysiz ondinkim,
Yolg‘izning erur yori Xudo – bilgaysiz. [9; 66-bet.]

Tasavvuf bo‘yicha dastlabki saboqni otasining piri Mavlono Muhammad Qozidan olgan. Ubaydullaxonga o‘z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro‘zbehon, Maxdumi A’zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilgan. Ubaydiy o‘zining hukumat ishlariga mashg‘ul bo‘lganligiga qaramasdan, shayxlik ham qilar edi, buni o‘zining siyosati uchun ham lozim deb bilar edi. “Samarat ul-mashoyix”ning yozganiga ko‘ra, Ubaydullohxonning tariqat nisbati Avliyo Qoraxon otli bir shayx vositasi bilan Hakim Sulaymon otaga borib taqaladi, o‘zi uchun muridlar ham olgan. Jahr majlislarida ishtirok qilgan. Ubaydullohning yassaviylar bilan juda qat’iy bog‘lang‘aniga yana bir dalil, yassaviy shayxi Xudoydodning muridi Muhammadiyor No‘g‘ay otag‘a o‘z qizini berganidir. Ubaydulloh shoir ham mutasavvif shoirdir. Uning forsiycha yaxshi she’rlar yozg‘anini “Muzakkir ul-ahbob”, “Majma ul-fusaho”, “Tazkirat us-salotin” kabi manbalar keng suratda bizga bildiradirlar. Ubaydullohning forsiycha she’rlarida taxallusi ko‘proq Ubaydiy bo‘lib, ba’zan Ubaydullohdir. Tasavvuf adabiyotiga beqiyos muhabbati va so‘fiylarga

cheksiz e’tiqodi bilan ajralib turganligi uchun Ubaydullaxonni Faxriy Hirotiy “darvesh kiyimidagi shoh” deb ta’riflagan bo‘lsa, Maxdumi A’zam u haqda “darveshlarning muxlisi va e’tiqodmandi, ammo bu faqir dil-u jonining mahbubi”, – degan edi.

Murshidg‘a, bale, muassir aqvol kerak,
Shoyista suluku yaxshi af’ol kerak.
To so‘z degay ul hol yuzidin doim,
Ham anga fasih qolu ham hol kerak. [9; 76-bet.]

Ubaydulloxon Ahmad Yassaviy ruhidan madad so‘rab, jang-u jadallarda g‘alaba qozongani, taxtga o‘tirgani, unga ergashib hikmatlar aytgani ma’lum.

Ayo do‘stlar, jondin kechib, ishq erkin tuttum mano,
Vahdat mayin ichkuncha ne xunoblar yuttum mano. [2; 152-bet]

Ubaydullaxon naqshbandiya tariqati g‘oyalarini ham o‘z hayoti va ijodiga singdiradi, bir so‘z bilan aytganda, shoir o‘sha davr Movarounnahrda keng tarqalgan ikki tariqatning g‘oyalarini o‘z hayoti va ijodiga singdirgan. Taxallusini “Qul Ubaydiy” deb tanlashi va darveshsifat, xokisorona hayot kechirishi yassaviya tariqatining ta’siri bo‘lsa, shohlik va shoirlikni barobar olib borishi naqshbandiylik tariqatining “Dil bayor-u dast bakor” falsafasining isboti bo‘ladi.

Ubaydullaxon “Ubaydiy”, “Qul Ubaydiy”, “Ubaydulloh” taxalluslari bilan o‘zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning uchala tildagi devonlarini o‘z ichiga olgan kulliyoti keyinchalik Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko‘chirilgan. Ubaydullaxonning turkiy devonida 310 g‘azal, 430 ruboiyga yaqin, 11 tuyuq, 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor mavjud. Shuningdek, devondan diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik ruhdagi “Omonatnoma”, “Shavqnoma”, “G‘ayratnoma”, “Sabrnoma” manzumalari o‘rin olgan. Ubaydullaxon ijodida diniy-tasavvufiy g‘oyalar yetakchilik qiladi. Ubaydullaxon zullisonayn shoir bo‘lib, o‘zbek, arab va fors adabiyotidagi yirik ruboiynavislardan hisoblanadi. Uning o‘zbek va fors tildagi ruboiylari 850 ga yaqin. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida 3 tilda devon tuzgan birgina shoir ham Ubaydiydir. Xususan, o‘zbek adabiyotida ruboiyning Boburdan keyingi taraqqiyoti Ubaydullaxon nomi bilan bog‘liq. Shoir she’rlarida o‘zbek

tilining boy imkoniyatlaridan, o‘ziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalangan.

O‘zbek ruboiynavisligi taraqqiyotiga Ubaydiy ham o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, ruboiy janri uchun belgilangan an’anaviy qonun-qoidalarga amal qilib qolmasdan, uni ma’no va mazmun jihatidan boyitishga, hayot bilan uyg‘unlashtirishga, til va ifoda soddaligi, samimiyligiga erishishga katta ahamiyat bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А. Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Маънавият, 2000.
2. А.Ҳайитметов. “Иззатни яхшироқ этмак керак” мақоласи. “Шарқ юлдузи”, 1991, 10-сон, 152-бет.
3. А.Иброҳимов. XVI аср ўзбек адабиётининг асосий хусиятлари. – Т.: Фан, 1976.
4. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома. 1-жилд. – Т.: Шарқ, 1999.
5. Ҳ.Ҳомидий. Даҳолар давраси. Шоҳ ва ижод таносиби. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
6. М.Абдуллаев. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти. Фил. фан. ном. ...дисс. – Т.: 2000.
7. О.Шарафиддинов. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. ИИ том. – Т.: Ўздавнашр., 1945.
8. С.Ғаниева. Алишер Навоий. – Т.: Фан, 1968.
9. Убайдий. Дийдор орзуси. Нашрга тайёрловчи Э.Очилов. – Т.: Шарқ, 2007.

LIRIKADA BADIIY TAFAKKUR VA POETIK TIL XUSUSIYATLARI

Nigora Xayitaliyeva
O‘zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi xodimi,
mustaqil tadqiqotchi
uzbektili@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy tafakkur va poetik til xususiyatlarining uyg‘unlashuvi borasida so‘z boradi. Bundan tashqari, o‘zbek lirikasida poetik nutq va individual uslubning o‘ziga xos jihatlari va u*lar tahlilga tortilib, uyg‘unlashuv xususiyatlari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar. *Poetik nutq, badiiy tafakkur, poetik til, mumtoz an’ana, zamonaviy satira, bolalar adabiyotida axloqiylik so‘qmoqlari, uyg‘unlashuv xususiyatlari.*

Milliy istiqlol davri she’riyatining estetik ehtiyojlari esa ko‘p qirralidir. Binobarin, bunda poetik tilning ahamiyati beqiyos. Akademik Izzat Sulton badiiy asar tili haqida so‘z yuritar ekan, shunday yozadi: “Adabiy asarning shakli faqat uning tili bilan cheklanmaydi. Adabiy asarning shakliga xarakterlar,syujet,

kompozitsiya va boshqa ko‘pgina unsurlar ham kiradi. Badiiy asar ana shu unsurlar(tarkibiy qismlarsiz) dunyoga kelmaydi. Xarakterlar tasviri badiiy asarda hayotni in’ikos ettirishning bosh vositasi va shaklidir. Ammo badiiy asarning hamma unsurlari faqat til orqali ifoda etiladi. Shuning uchun ham tilning badiiy asardagi roli juda kattadir”.[5] Bu masala mohiyatiga teranroq tushunib borganimiz, xususan, lirika misolida asarlar tabiatini anglaganimiz sari ijtimoiy-falsafiy meditativ asarlar ildizlarini, ularni o‘z bag‘rida yetishtirgan zaminni ilg‘ay boshlaymiz. Bir so‘z bilan aytganda, u ijtimoiy voqelik, hayot og‘ushida, hayot quchog‘ida yuzaga keladigan jarayondir. Atoqli she’rshunos U.To‘ychiyev “Poeziya tilining xususiyatlari” tadqiqotida yozadi: “Har qanday tilga mansub bo‘lgan umumiy takomil u tilning dastlab aloqa vositasi sifatida kelib chiqishi, olamni bilish omiliga aylanishi va nihoyat, inson uchun estetik zavq berishga qodir bo‘la borishidan iborat. Eng keksa adabiy shaklligi isbotlangan poeziya va uning tili adabiyotning milliyligini ko‘rsatuvchi belgilardan biri bo‘lib, u o‘zbek adabiyotida ham adabiy an’analar, janrlar, turli poetik priyomlar, badiiy vosita va janr sistemalari, ritmika va intonatsiya tabiati bilan bog‘liq holda rivoj topgan”.[6]

Poetik til tabiatiga nazar tashlar ekanmiz, uning ikki muhim jihati ko‘zga tashlanadi: Birinchidan-tafakkur tadrijining poetik tilga ta’siri; Ikkinchidan- poetik tilning ijtimoiy-psixologik asoslari.

XX asr oxirlarida yuz bergan ijtimoiy-intellektual o‘zgarishlar, adabiyotimizda yuz bergan yangilanishlar jarayoni sifat jihatidan asr boshidagi o‘zgarishlardan ancha farqli kechdi. Mafkuralashtirilmagan lirika endi inson botiniga, ko‘ngil olamiga, uning ruhiyat iqlimlariga chuqurroq qaray boshladi. Shu ma’noda, yangiliklar ifoda tarzida emas, tasvirlanayotgan ob’ektga ham taalluqli bo‘ldi. She’r ob’ekt ko‘ringaniday, tuyilganiday tasvirlash imkoniga ega bo‘lindi. Bu hol borliqning emas, ijodkor ruhiyat iqlimlari bilan tuyg‘ularini old planga chiqardi. Shu ma’noda 90-yillar she’riyatini ko‘proq psixologik-publitsistik yo‘nalishda deb atash mumkin.

[5] Султон Иззат. Адабиёт назарияси.–Т.:Ўқитувчи нашриёт- матбаа ижодий уйи. -2005.-Б.- 127.

[6] Тўйчиев У. Поэзия тилининг хусусиятлари// Адабиёт назарияси. Икки томлик, I том, адабий асар. –Т.: Фан, 1978, -Б.355.

Borliq bilan inson ruhiyatini idrok etish jarayonlari chambarchas aloqada. Ya’ni, inson psixologiyasidagi o‘zgarishlar mazmuni borliqning ranglariga muayyan ma’no bag‘ishladi. 90-yillar lirikasi qahramonlarining tafakkur tarzida olamni ijtimoiy cheklashlardan holi deb bilgan, ozodlik ta’mini yaxshi bilgan badiiy qiyofalar paydo bo‘ldi.[7]

20-yillarda ijodkorlarning o‘zi atay ijtimoiy libos kiydirgan she’riyat sho‘ro tuzumi talabi bilan uzoq vaqt shu libosida yurishga majbur bo‘ldi. Ruhiy kayfiyat ifodasini ijodkor ijtimoiy va g‘oyaviy bitimga ziravor sifatidagina qo‘llardi.

G‘oya, fikr kuchli bo‘lsa so‘zlar zimmasiga yuklanayotgan ma’noning bo‘yoqdorligi ham ortadi. Shu tariqa poetik tildagi ifoda yo‘sinlari xilma-xillashadi. Masalan, poetik tilning emotsionallashganligi, obrazliligi natijasida so‘zning tagma’nolari ham yanada jilolanadi. Shu ma’noda poetik til “shaklning mazmunga va mazmunning shaklga ko‘chishi”ni[8] teranroq ifodalaydi.

Poetik tilning imkoniyatlari katta. She’r matnidagi hissiyotga aylangan so‘zlar ravonligi o‘quvchi zavqini oshirishi, samimiyligi bilan badiiy g‘oyani yoritishga qaratilgan. Shu xususda professor O. Sharofiddinov yozadi: “O‘zbek shoirlari hozir shoirning el-yurt oldidagi mas’uliyati, grajdanlik burchi benihoyat oshib ketganini chuqur his qilishadi”[9]. Mana shu mas’uliyat hissi avvalo, shoirlar she’rlaridagi so‘zlarning serma’noligini ta’minlaydi.

Adabiyot ilmida “til-badiiy adabiyotda shakl yaratishning universal vositasi,” degan nuqtai-nazar bor. Bu, ayniqsa, lirikada yaqqol ko‘rinadi. Lirikada poetik til ritm, qofiya, obraz, singari badiiy komponentlarni yuzaga keltirishi bilan ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Shu jihatdan poetik til “lirika predmetning hayotga asoslangan kechinma ekanligi, qahramonning yagonaligi, lirikligi, monologik nutqning hukmron tus olishi, ichki, ruhiy olamni aks ettirishi, meditatsiyaga (emotsional-hissiy fikrlashga) suyanish, xarakterning o‘z tili orqali yaratilishi”ni bildiradi.[10]

---

[7] Қаранг: Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини.Филол. ДДА. -Т. , 1994.

[8] Султон Иззат. Адабиёт назарияси.–Т.:Ўқитувчи, 1980.-Б -197.

[9] Шарофиддинов. О.Биринчи мўжиза.–Т.:Адабиёт ва санъат.– 1979.-Б.-167.

[10] Тўйчиев У.Адабий турлар ва жанрлар. 2-жилд.– Т.:Фан.–1992 .–Б.–57.

Lirikada poetik til muayyan jihatdan individuallashgan ham bo‘ladi. Misol uchun Halima Xudoyberdiyeva she’rlarining tilida ravonlik va obrazlilik, Oydin Hojiyevada tavsifiylik, Zulfiya Mo‘minovada esa emotsional bo‘yoqdorlik, tagma’nolilik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bu hol, albatta, ijodkorning badiiy-estetik tafakkuri tabiatidan kelib chiqadi.

Shu bilan birga ushbu shoiralarimiz ijodini bir masala–milliy koloritning ustivorligi mushtarak qilib turadi.

Bu o‘rinda bir masalaga alohida e’tiborni tortish lozim. U lirikada poetik tilning-shoir ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini ifodalash (Ta’kid bizniki.N.H.) xususiyatidir. Aslida bu poetik tilning eng xarakterli jihatidir. Uni teran anglab olish poetik tilning badiiy tafakkurini ifodalash imkoniyatlarining kengligini anglab olishga sabab bo‘ladi. XX asr o‘zbek shoiralari lirikasida poetik tilning shoir ichki dunyosi, his-tuyg‘ularini ifodalashi mushtarak jihatlarga egadir.

Halima Xudoyberdiyeva she’rlaridagi emotsional bo‘yoqdorlik butkul o‘ziga xos. Uning she’riyati XX asr o‘zbek she’riyatining 80-90-yillarida alohida hodisa hisoblanadi. U “Muqaddas ayol” she’rida yozadi:

Oshiqlaring poyingga gul otib ham bo‘ldi,
Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo‘ldi.
Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo‘ldi.
Sen baribir muqaddassan, muqaddas ayol.[11]

Odatda, gul qo‘lga tutqaziladi. Lekin shoira “otish” so‘zini ishlatish bilan zavqni kuchaytirgan va o‘quvchini bo‘lajak hodisaga ruhan tayyorlaydi.

Zebo Mirzo ko‘ngil qatlaridagi nozik hislarini, ruhiyat iqlimlarini nazokatli tasvirlar, obrazli ifodalar orqali o‘quvchiga yetkaza oladigan shoiradir. She’rlarni o‘qish davomida dardlarining to‘lqinlanib kelayotgani, bu to‘lqinning hatto so‘zlarga sig‘may ketayotganini anglash mumkin. Qalb, tuyg‘ular, ishq hamohangligi ruhiyat chizgilarida mavjlanib turadi. Ko‘ngil bilan yolg‘izlik poetik obraz hosil qilib, bu hovurda qolgan ruh ohangga ko‘chadi va otashin manzaralar paydo bo‘ladi:

[11] Xudoyberdieva H. Yo‘ldadirman. T.: Sharq,2006 yil.-B-90.

Otashman,
Dengizman,
Samoman,
Nurman,
Jismu jahoningni o‘rayveraman,
Ayt, qanday topasan qochmoqqa imkon,
Men seni Xudodan so‘rayveraman.[12] *8888.*

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshevning ijod psixologiyasi haqida shunday yozadi: “Ijod Alloh bilan yuzma-yuz bo‘lish demakdir. Yaratgan qarshisiga...olovli qalb, adoqsiz va pokiza muhabbat bilan boriladi. Chinakam ijod hamisha munojotdir. Munojot uchun uning qaysi usulda ijro etilishi emas, chinakam tavba izhori-yu, dilning samimiyati muhimdir”[13].

Ijodkor poetik tilida musiqiylik alohida o‘rin egallaydi. Garchi barcha she’rlari barmoq vaznida bo‘lmasa-da, qofiyalarga alohida e’tibor beriladi. Tovushlar izchilligi ritmik ohangdorlikka sabab bo‘ladi. Adabiyotshunos U.Hamdam shu ma’noda “She’riyatdagi musiqiylik, so‘zlardan ham teranroqda- tuyg‘uda. Chunki ko‘ngilda tug‘ilgan tuyg‘uning o‘zi allaqanday ohangda jimirlaydi”, deb yozadi.

Adabiyotshunos olim U.Hamdamga ko‘ra, XX asrda o‘zbek she’riyati badiiylik darajasi nuqtai nazaridan ikkiga ajralib qoldi. Birinchisi, davr muammolari san’atkorona aks ettirilgan, ko‘pning dardi shoir dardiga, ijtimoiy dard -shaxs dardiga aylangan, shaxsiylashgan she’riyat bo‘lsa, ikkinchisi esa, davrga xos muammolar badiiylik mezonlaridan turib emas, balki jamiyatda tutgan o‘rnini, dolzarbligini qayd etish va jamoatchilik e’tiboriga havola qilish maqsadida yozilgan, shu bilan birga nazmbozlik va maddohlik mahsuli sifatida dunyoga kelgan she’riyatni kiritadi.[14] Shoirning shaxsiy dardi davr dardiga singishib ketgan, ya’ni birinchi tasnifga kiruvchi she’rlar biz tadqiq etayotgan shoiralar ijodida ham asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

[12] Mirzo Z. Nur kukunlari. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.-B.-10.
[13] Yo‘ldoshev Q.Yoniq so‘z.–T.:Yangi asr avlodi , 2006.
[14] Hamdam Ulug‘bek. Badiiy tafakkur tadriji.-T.: Yangi asr avlodi, 2006

1. Eng muhimi, shoiralar ijodida poetik idrokning o‘ziga xosligi va kamolotga intilayotganligi lirik qahramon fikr tadrijida ham o‘z samaralarini beradi. U.Hamdam yana bir o‘rinda aytganidek, “Adabiyot kishini qaysi yo‘ldan bo‘lmasin, go‘zallik sari yetaklaydi... ya’ni she’r qayg‘uni tarannum etsa-da, sevinchni kuylasa-da, natija shu bo‘ladiki, bundan ko‘ngil qoniqadi. Ko‘ngil esa o‘z mohiyatiga ko‘ra go‘zallikdan bahra topadi.”[15] Ana shu go‘zalllikni ifodalashga bo‘lgan intilish adabiyotni kamolotga yetkazadi. Bu kamolotning ifodasini Qutlibeka Rahimboeva she’riyatida ham ko‘rish mumkin. Shoira she’riyatida yangi she’riy shakllar, yangi, lekin xalqona tashbehlar ko‘p uchraydi. Quyidagi fikrlarga ko‘ra ushbu xulosalarga kelindi: O‘tgan asrning 90-yillar she’riyati qahramonlari tafakkur tarzida olamni ijtimoiy cheklashlardan xoli deb bilgan, ozodlik ta’mini yaxshi tuygan badiiy qiyofalar paydo bo‘ldi.

2. Tafakkur tadriji qanchalar teran bo‘lsa poetik til ham tobora joziba topib boradi. G‘oya, fikr kuchli bo‘lsa, bo‘yoqdorlik ham ortadi, poetik tildagi turli komponentlar, ifoda maneralari rangbaranglashadi. Buni Q.Rahimboeva she’riyati misolida ham ko‘rish mumkin.

3. Ruhiyat manzaralarini rangli qirralari, murakkabligi bilan tasvirlash ehtiyoji poetik tilda yangi timsollarni, qiyofalar paydo bo‘lishiga olib keldi. Badiiy shartlilikni kuchaytirdi.

4. Millat ijtimoiy-estetik tafakkurida ro‘y bergan jiddiy sifat o‘zgarishlari poetik tilning ijtimoiy-psixologik asoslari uchun manba bo‘lib xizmat qildi.

5. Shoira H.Xudoyberdiyeva poetik tilida publitsistik pafos, ijtimoiy mazmun kuchaydi. Binobarin, poetik tildagi ijtimoiy-psixologik asoslar ijodkor yashagan davr, muhit va voqelik bilan chambarchas bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qutlibeka. Ko‘ksimdagi Tangritog‘.–T.: Sharq, 2004.-B.17.
2. Hudoyberdiyeva H. Saylanma. T.: Sharq. 2000. B.-224.
3. Xudoyberdiyeva H. Yo‘ldadirman.- .T.: Sharq ,2006.-B-424.
4. Hamdam Ulug‘bek. Badiiy tafakkur tadriji.-T.: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-T.: O‘zbekiston, 2002.-B.-431.

[15] Hamdam Ulug‘bek Badiiy tafakkur tadriji.-T.: Yangi asr avlodi, 2006.-B.-31.

6. Karimov H. Istiqlol davri she’riyati.-T.: Zarqalam, 2005.-B.-41.
7. Mirzo Z. Nur kukunlari. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.-B.-58.
8. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi.–T.: “O‘qituvchi”. -2005.-B.- 127.
9. Yo‘ldoshev Q.Yoniq so‘z.–T.:Yangi asr avlodi , 2006.

ISHQQA BOG‘LANGAN KO‘NGIL

O‘tkir Yo‘ldoshev,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
stajor-tadqiqotchisi
utkiryuldoshev491@gmail.com

Annotatsiya

Alisher Navoiy asarlarini o‘qish, o‘rganish – bu bizning boyligimizdir. Asarlarini tahlil qilishga urinish esa katta jasorat. Ayniqsa, g‘azallarida olam-olam ma’no yashiringan. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning hamd g‘azallaridan biri “Ashraqat min…” deb boshlanuvchi g‘azali tahlili qalamga olingan.

Kalit so‘zlar: ashraqat, kosa, aks, hudo, yor, may, jom, zangi g‘am, sing‘an safol, dayr, mug‘bacha, devona, chehrai maqsud, moado, vahdat, mayxona, zohid, azal soqiysi, “Ishrabu yo ayyuhal atshon”.

Adabiyotga, ayniqsa, she’riyatga qiziqqan kishi Abdulla Oripov va Erkin Vohidov, Mashrab va Alisher Navoiy asarlarini bir qarashda ajrata oladi. Negaki ularning o‘ziga xos o‘z uslubi mavjud. Xalq qalbidan joy olgan, san’atning ma’lum bir bosqichiga yetgan ijodkorning o‘z uslubi bo‘ladi. Ijodkorlar ichida Alisher Navoiyning uslubi alohida ajralib turadi. Zeroki, mamlakatimizning birinchi prezidenti I.Karimov u zotni “Mutafakkirlarning mutafakkari, avliyolarning avliyosi, shoirlarning sultoni” [2] deya ta’riflashi bejiz emas.

Alisher Navoiyning o‘ziga xos uslubi asarlarining barchasi Allohga hamd bilan, shu bilan birga aksariyati arabcha jumlalar bilan boshlanishida ko‘rinadi. Masalan, masnaviylaridan “Hayrat ul-abror” “Bismillahir Rohmanir Rohiym, Rishtag‘a chekti necha durri yatim” bilan [4], adabiyotshunoslikka oid asarlaridan “Mezon ul-avzon” “Komil hamd va Vofir shukr ul sonig‘akim…” bilan [7], tilshunoslikka oid asarlaridan “Muhokamat ul-lug‘atayn” “Alhamdulillahi imtozal-insona alo soiril-maxluqoti…” [8] bilan boshlanadi. Navoiyning bu uslubi devonlarida ham o‘z aksini topgan. “Xazoyin ul-ma’oniy” to‘plamining birinchisi

“G‘aroyib ys-sig‘ar”ga kiritilgan birinchi g‘azal Allohga ham yo‘nalishida hamda arabcha jumlalar bilan boshlanishining guvohi bo‘lamiz. Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devoni debochasida devon tartib berish qoidalarini izohlar ekan, devonga avval Hamd g‘azallarni, keyin Na’t, munojot g‘azallarni, undan keyin boshqa mavzularga oid g‘azallarni joylash lozimligini aytib o‘tadi [3].

“Xamsa” tarkibidagi dostonlarda “Hayrat ul-abror” tarkibdagi boshqa dostonlarning boshlanmasi sifatida qaralsa, “Xazoyin ul-ma’niy”dagi “Ashraqat min…” g‘azali devon tarkibidagi barcha g‘azallarning boshlanmasi, ochuvchisi sifatida baholanadi.

Asrlardan oshib kelayotgan Navoiy g‘azallari bir vaqtning o‘zida bir necha ma’nolarni ifodalaydi. Bugungi kunda bir g‘azalning bir necha tahlillari ham e’lon qilingan. Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ishqni uch turga bo‘lganidek [5], g‘azllarini ham avom, xos, va siddiqlar uchun yozadi. Navoiy g‘azallarini har bir o‘quvchi o‘z fikr doirasida tahlil qiladi. Biz ham ushbu g‘azalni baholiqudrat qodir qilgancha tahlil qilishni oldimizga maqsad qildik. Tahlil jarayonini maromiga yetkazolmasak, Navoiyni tushunishga ishqimiz kamligidan, sizga manzur jihatlar bo‘lsa, Navoiyning buyukligidan ekanini bilishingizni so‘raymiz.

Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo,
“Yor aksin mayda ko‘r” deb jomdin chiqti sado.

G‘azal aruzning ramali musammani mahzuf (*bir misrada foilotun / foilotun / foilotun / foilun: – V – – / – V – – / – V – – / – V –)* vaznida yozilgan. “Ramal” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “tuyaning bir maromda yo‘rtishi” degan ma’noni beradi [8]. Aruz tizimida ushbu vazn, asosan, ijodkorning odam va olam haqidagi o‘y-fikrlari, xayollari, sokinlik kayfiyatini ifodalashda foydalaniladi. G‘azal ruhiyatida ham insonni fikrlashga undaydigan jihatdar mavjud.

Birinchi misra arabcha jumla bo‘lib, tarjimasini quyidagicha ifodaladik: “Kosadagi quyosh aksidan hidoyat nurlari porladi”. Ikkinchi misrada “Yorning aksi (jilva, tajalliy)sini mayda ko‘r deb, jomdan sado chiqdi”.

Ushbu g‘azaldagi deyarli barcha so‘zlar ramziy ma’noda ishlatilgan. Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida «Al majazu qantaratul haqiqah» (ya’ni, majoz, obrazli tafakkur haqiqatning ko‘prigidir) [11] degan hikmatni keltiradi. Biz tahlilda tushunilishi qiyin, ramziy ma’noga ega so‘zlarni ifodalash asnosida tushuntirib boramiz.

Kosa va jom – orif inson qalbi.

May – muhabbat ramzi.

Aks – jilva, tajalliy.

Tasavvuf adabiyoti vakili Xoja Abdulloh Ansoriy aytadi: “Alloh taolo o‘n sakkiz ming olamni O‘zini jamolini ko‘rish uchun yaratdi. O‘n sakkiz ming olamda Allohning tajalliysi, jilvasi bor”. Yaratganni ko‘z bilan ko‘rish insonning aqliga xos emas, uni yaratiqlari orqali his qilish mumkin. Banda bu dunyoda Allohning jamolini ko‘rolmasligi Qur’oni karimda o‘z isbotini topgan. “A’rof” surasi 143-oyatida Muso alayhissalom Tur tog‘ida Allohning jamolini ko‘rishni istashi, Tur tog‘i yonib ketishi, ammo Muso alayhissalom ko‘ra olmay, hushidan ketishi haqida ma’lumot bor [1]. Hatto Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. ham Me’rojda Alloh taolo bilan bir parda oralig‘ida gaplashgan degan qarashlar mavjud.

“Lison ut-tayr” dostonidagi hikoyatlardan birida podsho shunchalar go‘zalligi sababli uni ko‘rganlar o‘la boshlaydi. Podsho ko‘zgu yasatadi. Podsho ko‘zguga qarab o‘z husniga nazar solar, el ham o‘sha manzar vositasida undan bahra olardi. Toki bunday ko‘zguni yasamagunlaricha, unga ko‘z tashlagan kishi uning husnidan bahramand bo‘lmadi. Shunday qilib, ham uning o‘zi o‘z husnidan bahra topdi, ham unga qaragan kishilar bahra oldi [6].

Quyoshga to‘g‘ridan to‘g‘ri qarasa ko‘z qamashadi, quyoshni biz uning nurlari orqali ko‘ramiz. Quyosh o‘z nurlari orqali aks etadi. Kunimiz o‘sha nurlar vositasida yorug‘ bo‘lib, to‘g‘ri yo‘lni topishimiz mumkin. Birinchi misrada ham quyoshning aksi kosaga tushishi va kosadagi nur hidoyat nurlari bo‘lib porlashi ifodalangan. Tamsil san’ati orqali ifodalamoqchi fikr Allohni yaratiqlari orqali his qilish mumkinligini izohlaydi.

Ikkinchi misrada esa, inson qalbidan yorining aksi – jilvasini qalbidagi muhabbatda koʻrishi mumkin degan sado chiqishi aytiladi.

“Lison ut-tayr” dostoni debochasida Alloh taolo bir tilsim ekanligi, tilsimni na samo na yer qabul qilganligi faqat inson qabul qilganligi, shuning uchun inson oʻn sakkiz ming olamda sharafli qilib yaratilganligi, toʻrt unsur: suv, havo, tuproq, olovdan iborat insonga Alloh taolo tomonidan berilgan qalbda oʻsha tilsim saqlangani aytiladi [6]. Tilsimdan maqsad esa uni ochish. Qalbda tilsimni ochishga muhabbat boʻlmasa, uni ochishning imkoni yoʻq. Naqshbandiya tariqatiga koʻra “Safar dar vatan” – “vatanda turib safar qilish” aynan tilsim ochilgach yuz beradi. Qalb olamiga safar esa foniy dunyodagi oʻn sakkiz ming olamga safardan koʻra ulugʻroq boʻladi.

Gʻayri naqshidin koʻngil jomida boʻlsa zangi gʻam,
Yoʻqtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik gʻamzudo.

Gʻayr – qalbda yordan boshqa narsalar. Bular qalbni zanglatadi.

Soqiy – may quyuvchi.

Vahdat – birlik, yagonalik.

Gʻamzudo – gʻamni ketkazadigan.

Baytning ma’nosi: “Koʻngil jomida yor ishqidan boshqa gʻamlar boʻlsa, ey soqiy, gʻamni ketkazadigan masalliq bu may bilan jomni birlashtirshdir”.

Oʻn sakkiz ming olamda barcha narsa inson uchun yaratilgan. Bu yaratiqlardan ikki xil foydalanish mumkin: toʻgʻri va notoʻgʻri. Insonning qalbi fisq-u fasodga, xasislikka – zangga toʻla boʻlsa – notoʻgʻri, saxiylik, himmat, ehson bilan yoʻgʻrilgan boʻlsa, toʻgʻri foydalanadi. Masalan, odamlarga meva berib, soya berib turgan daraxtga birov suv qoʻyadi, birov esa sindiradi. Yaratganga muhabbati bor kishi faqat yaxshilikni oʻylaydi. Xalq orasida “sen nimaga intilsang, sen u bilandir” negan naql bor. Mutasavvuf shoir dunyo gʻamlariga botgan qalbni tozalash uchun uni may (muhabbat) bilan toʻldirish kerakligini uqtiradi.

Ey xush ul maykim, anga zarf oʻlsa bir singʻan safol,
Jom oʻlur getiynamo, Jamshid, ani ichgan gado.

Zarf – idish, bu yerda inson qalbi.

Sing‘an safol – siniq sopol kosa, ramziy ma’noda siniq ko‘ngil, xokisorlik.

Getiynamo – olamni ko‘rsatuvchi.

Jamshid – qadimgi Eron podsholaridan.

Bayt ma’nosi: “Bu shunday yaxshi muhabbatki, unga bir siniq ko‘ngil musharaff bo‘lsa, u ko‘ngil dunyoni ko‘radi, agar u ko‘ngil egasi gado bo‘lsa, Jamshid kabi podsho bo‘ladi”.

Hech bir banda gunohdan xoli emas, mukammallik Allohga xos. Gunohkor banda Yaratgan oldida xokisor. Qaysiki gunohkor banda qalbiga ishq, muhabbat bo‘lsa, uning qalbida olam ko‘rinadi. Yuqorida aytilganidek, “Safar dar vatan” bosqichidan o‘tadi.

Tasavvufda Jamshid jomi istilohi mavjud. Rivoyatlarga ko‘ra, Afsonaviy Jamshid bir jom yasatibdi. U jomda doim may bo‘ladi. May to‘la jom atrofida olamni tamosho qilsa bo‘ladi (Sulaymon uzugida olamni ko‘rgan kabi). Ishq mayiga to‘la jom – qalbga ega bo‘lgan oshiq, agar u gado bo‘lsa, Jamshid kabi podsho bo‘ladi. Majnun qalbi Layli ishqi bilan to‘la edi, uni hech narsa bu yo‘ldan qaytarolmadi. Majnun Layli ishqida ishq podshosi edi.

Jom-u may gar buyladur, ul jom uchun qilmoq bo‘lur,
Yuz jahon yuz har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Bayt ma’nosi: “Bu jom va mayning bahosini shunday deb hisoblaginki, u jom uchun har daqiqada yuz jahon boyligini nisor qilsa arziydi, u may uchun esa har daqiqada yuzta oshiq jonini fido qilsa arziydi”.

Muhabbat – go‘zal holat. U sohibini saodatga yetaklaydi. Muhabbatga erishish uchun esa ming jonni fido qilsa arziydi. Muhabbatga to‘la qalb sohibiga esa yuz jahon boyligini bersang ham kam. Ammo har kimga ham bu tuyg‘u nasib qilavermaydi. Yaratgan O‘zi sevgan bandalariga bu tuyg‘uni beradi. Quyidagi baytda bu holat yana-da rivojlanadi.

Dary aro hush ahli rasvo bo‘lg‘ali, ey mug‘bacha,
Jomi may tutsang meni devonadin qil ibtido.

Dayr – dunyo, tasavvufda piri komil huzuridagi orif insonlar majlisi.

Mug‘bacha – zardushtiylar ibodatxonasi xizmatkori. Tasavvufiy ma’noda pirning so‘zi va nasihatlarini muridlarga yetkazuvchi kishi.

Devona – oshiq kishi.

Ibtido – avval, boshlash.

Baytning ma’nosi: “Bu dunyoda aqlini tanigan, hushi o‘zida bo‘lgan kishilar rasvo bo‘lgan, devona bo‘lgan. Ey mug‘bacha, ishq mayi tarqatishni men devonadan boshla”.

Bu foniy dunyo orif inson uchun imtihon, g‘urbatdir. Qalbida muhabbati yo‘q kishi bu dunyo aldovlariga aldanib qolishi hech gap emas. Bu dunyo sinovlaridan o‘tish uchun pir kerak. Pir esa muridini ishq mayi bilan tarbiyalaydi. Mug‘bacha pir so‘zlarini – ishq mayini muridlarga yetkazadigan vositachi. Bir qancha oshiqlar kabi lirik qahramon – Navoiy ham ishqqa tashna. U Mug‘bachadan ishq mayini birinchilardan bo‘lib ichishni xohlaydi. Keyingi bayt tadrijiylik kasb etib, oshiqqa ishq mayi yetib kelishi holati tasvirlanadi.

Toki ul maydin ko‘ngul jomida bo‘lg‘ach jilvagar,
Chehrai maqsudi mahv o‘lg‘ay hamul dam moado.

Chehrai maqsud – maqsad yuzi.

Oshiq uchun maqsad – yor jamoli.

Mahv o‘lmoq – yo‘qolish, ko‘rinmaslik.

Moado – maqsaddan o‘zga narsalar, ya’ni mol-dunyo.

Baytning ma’nosi: “Ishq mayi ko‘ngil jomiga tushgach, o‘sha zahoti yagona maqsaddan boshqa barcha narsa yo‘q bo‘ladi”.

“Farhod va Shirin” dostonida Farhod Iskandar tilsimini ochgach, oynada Shirin jamolini ko‘rdi va Shirin ishqi Farhodning ko‘ngliga tushdi. Endi Farhod uchun Shirindan boshqa barcha narsalar e’tiborsiz bo‘ldi – yo‘q bo‘ldi. Majnun uchun esa Layli ishqi uni elidan, obro‘sidan, butun borlig‘idan ayirdi. Farhod uchun butun borliq – Shirin, Majnun uchun esa Layli bo‘ldi.

Vahdate bo‘lg‘ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jom-u may lafzin degan bir ism ila qilg‘ay ado.

Lafz – so‘z, ibora.

Baytning ma’nosi: “May jom ichida birlik hosil qilgan bo‘lsa, ularni alohida emas, Jom-u may degan bir so‘z bilan atash lozim”.

Kimningki qalbiga muhabbat yetsa, unday kishilar xalq orasida oshiqlar deb ataladi. Navoiy ham ishq mayi ko‘ngil jomiga tushgach, ularni alohida (ya’ni muhabbat yetishgan qalb deb) aytmasdan, jom-u may (ya’ni oshiq) degan bir so‘z bilan atash lozimligini uqtiradi. Masalan, Farhod – oshiq, Majnun – oshiq.

Sen gumon qilgandin o‘zga jom-u may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido.

Nafy – tanqid, inkor, yomonlash.

Mayxona – komil inson majlisi, oriflar suhbat qiladigan joy.

Zohid – taqvodor, umrini taqvo va toat bilan o‘tkazadigan parhezkor odam.

Baytning ma’nosi: “Ey zohid, sen o‘ylagan jom-u maydan boshqa ham jom-u may mavjuddir. Bilmay turib, bu mayxona ahlining may ichishini, mayga tashnaligini yomonlama”.

Mumtoz adabiyotda zohid obrazi orif obrazi bilan qarshilantiriladi. Unga ko‘ra zohid bu dunyoda qilgan ibodatlari evaziga jannatda hur-u parilar bilan aysh-ishrat qilishini maqsad qiladi. Orif esa, ibodati uchun evaz so‘ramaydi, u maqsudi – yor jamoliga yetsa kifoya. Ushbu baytda orif zohidga ishq mayi faqat boqiy dunyoda emas, foniy dunyoda ham mavjudligini, buni boshqa dunyoviy maylar bilan adashtirmasligini so‘raydi. Foniy dunyodagi bu may – ma’rifat mayi, iymon mayi sanaladi.

Tashnalab o‘lma, Navoiy, chun azal soqiysidin
«Ishrabu yo ayyuhal-atshon» kelur har dam nido.

Azal soqiysi – Alloh taolo.

“Ishrabu yo ayyuhal-atshon” – arabcha “iching, ey tashnalar”.

Baytning ma’nosi: “Ey ishq mayiga tashna Navoiy, tashnalikni qo‘y, ich, chunki Azal Soqiysining o‘zi har dam “Iching, ey tashnalar” deyapti-ku”.

Rasululloh s.a.v.da shunday hadis keladi: “Bilim olish har bir muslim va muslima uchun farzdir”. Hazrat Navoiy bilimga, ma’rifatga tashna, Allohning yaratiqlarini o‘rganish, his qilish ishqi uni qiynaydi. Yaratiq orqali Yaratganga

muhabbati otashnok. Farhodning Shirinidan, Majnunning Laylisidan murod – Yaratganning yaratig‘i shohidi bo‘lish. Yaratiqni sevmay, bilmay, Yaratganni sevib bo‘lmaydi. G‘azalda boshdan oyoq Yaratganni sevish va bu yo‘lda to‘g‘ri yo‘ldan og‘maslik uchun pir ko‘rsatmalariga amal qilish lozimligi aytiladi. Ishq mayi yaratiqlarni o‘rganishdagi bilim, ma’rifatdir. Ishqsiz esa hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Alloh nomi bilan, yaratiq orqali Yaratganga muhabbat bilan boshlangan ish xayrli bo‘lishi shubhasiz. Navoiy ham mazkur g‘azali orqali Yaratganga muhabbati bilan buyuk bir devonni boshladi. Devondagi bu va boshqa g‘azallar o‘quvchini yaratiq orqali Yaratganni sevishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur’oni karim. O‘zbekcha ma’nolarining tarjimasi va tafsiri. –T.: 2021.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. “Ma’naviyat”. – T.: 2008.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Birinchi jild. G‘aroyib us-sig‘ar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. – T.: 2013.
4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Oltinchi jild. Hayrat ul-abror. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. – T.: 2013.
5. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. To‘qqizinchi jild. Mahbub ul-qulub. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. – T.: 2013.
6. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. To‘qqizinchi jild. Lison ut-tayr. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. – T.: 2013.
7. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. O‘ninchi jild. Muhokamat ul-lug‘atayn. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. – T.: 2013.
8. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. O‘ninchi jild. Mezon ul-avzon. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. – T.: 2013.
9. Aruz va poetika asoslari. Yusupova D. Darslik. “Akademnashr”. – T.: 2020.
10. Navoiy g‘azallari (nasriy bayon, sharh va izohlar). Nashrga tayyorlovchi B.To‘xliyev. “Bayoz” nashriyoti. – T.: 2013.
11. Anvar qori Tursunov: «Islom asoslarini o‘rganmay turib Navoiyni tushunib bo‘lmaydi» Davronbek Tojialiyev suhbat. Internet manba. https://qadriyat.uz/suhbatlar/382-anvar-ori-tursunov-islom-asoslarini-rganmaj-turib-navoijni-tushunib-b-lmajdi

HUVAYDO SHE’RIYATIDA AN’ANAVIY OBRAZLAR

Nazarova Dilafruz
ToshDO‘TAU o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada Huvaydo she’riyatida alohida ahamiyatli va xarakterli bo‘lgan Ibrohim Adham, Xizr, Nuh obrazlari tahlil etildi. Shoirning an’anaviy obrazdan mohirlik bilan foydalangani va obraz yaratish mahorati rang-barang misollar asosida ochib berildi. She’riyatning ruhiyat bilan bog‘liqligi shoirning ruhiy kechinmalari an’anaviy obrazlarda o‘ziga xos talqin etilishi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: obraz, an’ana, Ibrohim Adham, Xizr, Nuh, manba, badiiy obraz, g‘oya, payg‘ambar, she’riyat.

An’ana adabiyot va san’atning barcha turlariga tegishli bo‘lgan ijodiy jarayon. Bunda ijodkor o‘zidan oldin ijod qilgan salaflari tomonidan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan mezon va qoidalariga asoslanib, ularning ba’zi tomonlarini ijodiy ishlaydi, qayta yaratadi, takomillashtiradi. Badiiy ijodda, ayniqsa, she’riyatda bu hodisa kengroq ko‘lamda aks etadi.

Huvaydo ijodida Ibrohim Adham shaxsi, uning oliyjanob insoniy fazilatlari, tavsifi alohida o‘rin tutadi. Shoir butun hayoti davomida xuddi Ibrohim Adham singari mard, saxiy, halol va xudojo‘y bo‘lishga intilgan. Ibrohim Adham Huvaydoning eng sevimli qahramoni, Olloh ishqi yo‘lidagi fidoyilik timsoli. Ibrohim Adham shaxsi haqida Farididdun Attorning “Tazkirot ul-avliyo”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarlarida ko‘pdan ko‘p naql va hikoyatlar berilgan. Jumladan, F.Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida u haqida: “U dunyo va dinning sultoni, imon tog‘ining hujjati, ilmu uzlat ganjinasi, buyuk iqlimning shohi, lutfu karam pardasi, zamonasining siddiqi, ro‘zg‘or hujjati edi”, – deb ta’riflanadi [7; 108].

Navoiy asarida esa: Mulukdan erkoni xud, mashhurdir. Yigitlikda tavba tavfiqi topti. Ibrohim Adhamning holati bag‘oyat ko‘pdir. Bir kitob bitilsa bo‘lur”, – deb yozadi [2; 78].

“Ibrohim Adham tarixiy shaxs. U zodagon oilada tig‘ilib, puxta bilim olgach, ilohiyot va tasavvuf ilmlari bilan qiziqib, toju taxtdan voz kechgan va Olloh yo‘liga kirgan mashhur so‘fiy edi. Bu tasavvuf tarixidagi noyob hodisalardan biri bo‘lib, u haqda juda ko‘plab rivoyat va hikoyatlar dunyoga kelgan” [3; 153]. Huvaydo tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk so‘fiylar hayoti va ularning ibratli amallarini tasvirlar ekan, o‘z zamondoshlarini ulardan ibrat olishga undaydi:

Izzati dunyo birla hargiz kishi topmas murod,
Xorlikni pesha aylab, misli Adham bo‘lmasa (208-bet).

Huvaydo ilohiy va insoniy ishqni bir- biriga qarama-qarshi qo‘ymaydi, balki insoniy (majoziy) ishq iztiroblarini his etmay turib, ilohiy ishq mohiyatini anglash dushvor. Shu bois shoirning ko'p g‘azallarida ishq kuylangan. So‘fiylar obrazining g‘azalga olib kirishi esa, ilohiy ishqdan so‘z ochishni ko‘rsatadi. Ilohiy ishq botiniy bo‘lib, uni faqat qalb ko‘zi bilan ko‘rish mumkin. Bunday g‘azallarda Husni mutlaq jamoliga oshiqlik kuylanadi.

Agar qo‘ysang qadam ishq yo‘liga, monand Adham bo‘l,

Bo‘lib tarki havo dunyo g‘amidin kulli beg‘am bo‘l (148-bet).

Huvaydo tasavvuf g‘oyalarini targ‘ib etishda zamondoshlarining kamchilik va nuqsonlarini, gunohlarini o‘zining shaxsiy kamchiliklari sifatida qarab, yechishga intiladi.

G‘ami dunyoni yersan to bakay, emdi unut, ko‘nglum,

Chu Adham mosivo aylab, o‘zing andan sovut, ko‘nglum (176-bet).

Yoki:

Muyassar bo‘lsa sanga toju taxtu mulkati olam,

Ani zikri Xudo birla chu Adham pushtipo qilg‘il.

Shoir Ibrohim Adham timsolini keltirish orqali talmeh san’atidan mohirona foydalangan. Muhimi, shoir Ibrohim Adham obrazini keltirish orqali, u haqidagi ibratli voqealarga ishora qilish orqali o‘z zamonasi kishilarini, hidoyat yo‘liga boshlaydi.

Mumtoz asarlarda an’anaviy obrazlar oshiq va ma’shuq xarakteri, sifatlari, kechinmalarini yoritishdan tashqari, she’riyatning xalqchil ruh va hayot bilan uzviy bog‘lanishi kuzatiladi.

Huvaydo ijodida keng qo‘llanilgan obrazlardan biri Xizr obrazidir. Adabiyot tarixida bu obraz haqida turli afsona va rivoyatlar mavjud. Xususan, “Xizrning yashil kiyimdaligini o‘simliklar olami bilan aloqador Xudolarga bog‘lasa, ayrimlar Zardushtiylik dini e’tiqodiga borib taqalishini aytadi ” [4; 194]. F. Nurmonov o‘zining “Xizr obrazining genezisi va uning o‘zbek folkloridagi talqini”

mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida “Xizr” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “ yashil, ko‘k “ degan ma’nolarni anglatadi. O‘rta Osiyo xalq ertaklarida u doimiy oq saqolli yoki oq kiyimda namoyon bo‘ladi. Chunki “Oq saqol” mazkur xalqlarda qadimdan donolikni , bilimdonlikni bildirib kelgan ” [5; 56], – degan ma’lumotni beradi.

Huvaydo lirikasida ma’shuqaning jamolini aks ettirishda Xizr obrazi vosita rolini o‘ynaydi.

Kechayu kunduz erurman tashnai obi hayot,

Xizrdek maygun labi ila shakarborimga arz (108-b).

Shoirning e’tirof etishicha, Xizr tiriklik suviga ega bo‘lib, doimiy barhayot yurganidek, ma’shuqaning maygun labi ham huddi tiriklik suvi kabidir. U tiriklik suvining asosini yorning labida deb biladi.

Yozma adabiyotda va folklor asarlarda tasvirlanishicha, Xizrning bosh xislatlaridan biri tiriklik suvining egasi ekanligidir. Yuqoridagi baytda shu sifatlarga ishoralar qilib, oshiq uchun yagona ilinj ma’shuqa vasliga etishishdir.

Chu sansiz dunyoda bir kun (ko‘rinur) ko‘zima bir yil,

Hayoti Xizrdur bo‘lsang muyassar bir dam, ey dildor (89-b).

Shoir oshiqning ma’shuqaga bo‘lgan muhabbatini yorqinroq aks ettirish uchun u ko‘pincha Xizrning turli xislatlariga murojaat qiladi. Baytda shoir ma’shuqani shu qadar ulug‘laganki, sensiz bir kun o‘tgan kunim bir yilchalik ko‘zimga ko‘rinadi, bir dam yonimda bo‘lsang, Xizr hayotidek yashagan bo‘laman, deya e’tirof etmoqda.

Agar topsang bu dunyoda hayoti Xizr ila Ilyos,

Topolmassan o‘limni ilgidin hargiz najot emdi.(241-b.)

Shoir bu o‘rinda Yassaviya tariqati g‘oyalarini davom ettirgan holda, insonlarni hidoyatga chorlamoqda. Ya’ni bu dunyoda Xizr va Ilyos singari uzoq umr ko‘rsang ham, o‘lim haq, hargiz urinma najot topa olmaysan. Shu bois faqat bu dunyo uchun emas, balki u dunyo uchun ham zamin hozirla deyayotgandek. Bilamizki , Xizr va Ilyos tiriklik suvuga erishganlar. Shoir bu ikki obrazga ishora etish orqali ularcha yashasang ham, oxirat tadorigini ko‘rmasang, hammasi bekor

deya haloyiqni ogohlantirmoqda. Qanchalik uzoq umr koʻrsang ham, dunyo hirsiga berilmay oxirat tadorigini koʻr deyayotgandek.

Pari obrazi ham xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bogʻliq. Huvaydo she'riyatda pari obrazi hamisha ideal goʻzallik timsoli sifatida talqin qilinadi. Shu bois shoir ma'shuqani mukammal tasvirlashda ushbu obrazdan oʻrinli foydalangan. Huvaydo she'riyatida pari bilan bogʻliq baytlarning koʻpchiligini ma'shuqaga "Ey pari" , "Ul pari" , "Bir pari" deb murojaat qiluvchi baytlar tashkil etadi.

Tushdi koʻnglim ichra darding telbalardek, ey pari,

Kulli olamdin kechib, begona boʻldim oqibat (52-b).

Ma'shuqa–pari. Oshiq uning ishqida telba boʻlgan va hamma narsadan kechib, olamga begona boʻlgandek goʻyo. Shoir yor ishqini shu darajada yuqori pardalarda kuylaganki, uning ishqi tufayli oshiq telba boʻldi. Unga yor vaslidan boshqa hech narsa kerak emas.

Nogohon aqlimni oldi bir pari parso kelib,

Telba aylab el aro, ul shoʻx beparvo kelib. (48-b.)

Bu baytda ham huddi yuqoridagi bayt singari yor husni mubolagʻali tasvirlangan. Bilamizki, parilar nihoyatda goʻzal boʻlib, koʻzdan gʻoyib boʻlishi, insonga shikast etkazishi, aqldan ozdirish sifatlariga ega. Yor goʻzalligi ham pari singari boʻlib, oshiqqa bir koʻrindi–yu, beparvo oʻtib ketdi. Ana shu bir zumlik koʻrinish oshiqning aqlini olib, telbaga aylantirdi.

Namidi ham rabud oʻtdi paridek nogah oldimdin,

Yiqildim bilmay oʻzimni, ketib aqlim boʻlib yagʻmo (37-b).

"Namud" – koʻrinish, "rabud" – tortib olish, jalb etish. Ya'ni shoir ushbu baytda yor jamolini pari jamolidanda goʻzalroq tasvirlash orqali oshiq ruhiyatidagi oʻzgarishlarni koʻrsatib bermoqda. Ma'shuqa oshiqqa xuddi pari singari bir koʻrindiyu ketdi. Ana shu bir lahzalik koʻrinish oshiq ruhiyatiga kuchli ta'sir oʻtkazdi,shikast etkazdi. Oshiq oʻzligini yoʻqotdi. Oʻzni yoʻqotish, oʻzni bilmaslik tasavvuf ta'limoti bilan bogʻliq tushuncha boʻlib, shoir haq jamolini, haq vaslini kuylamoqda.

Telba qilibdur ul pari oldi ko‘ngilni naylayin,

El kulibon mango dedi: ”Bo‘ldi sango nechuk balo”(28-b).

“Ko‘ngil – ishq maskani. Ishq esa inson ko‘nglini shodlikka nisbatan iztirob, g‘am-qayg‘uga oshno etadi [6; 56]”. Shunday ekan shoir oshiq holatini, ruhiyatini shu darajada mahorat bilan tasvirlaganki, natijada oshiq telbaga aylangan.

Hech kishi mendek jafog‘a mubtalo bo‘lg‘anmukin,

Bir pari pardanishiga oshno bo‘lg‘anmukin (185-b).

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, shoir pari obrazi orqali yorning tengsiz go‘zalligiyu, husni-latofatini ochib berishda, oshiq ruhiyatini yoritishda o‘ziga xos tarzda qo‘llagan.

Yozma adabiyotda muhim o‘rin tutgan payg‘ambarlardan yana biri Nuh (a)dir. Bu obrazning shakllanishida islom dini ta’siri katta. U Qur’onda zikr etilgan payg‘ambarlardan biri. Qur’ondagi „Nuh” surasida “payg‘ambarlar oqsoqoli” Nuh allayhissalomning qissalari payg‘ambar qilib yuborilishidan tortib, to qavmlarining orasidagi kofir bo‘lgan kimsalar to‘fon balosiga duchor qilinishlarigacha batafsil hikoya qilinadi. Sura Nuh allayhissalom o‘z qavmlari orasida 950 yil turib, ularni Allohning diniga da’vat qilganlaridan keyin ham, ular (Od qavmi) pand-nasihat olishib hidoyat yo‘liga yurishmagan. U zot Tangri taolloga iltijo qilib, bu kofirlarga o‘z balosini yuborishini so‘raganlari haqidagi oyatlar bilan xotima topadi” [1; 197].

Nuh obrazining o‘ziga xos sifati suv toshqini paytida jonzotlarni asrab qolishi va uzoq umr ko‘rganligi bilan izohlanadi. Manbalarda 50 yil kam 1000 yil yashaganligi e’tirof etilgan. Nuh to‘foni haqidagi afsona va rivoyatlar anchagina mashhur. Injil va Qur’on orqali keng tarqalgan Nuh va to‘fan bilan bog‘liq bo‘lgan tafsilotlar jahon xalqlariga ham yaxshigina tanish.

Rabg‘o‘ziyning „Qissasi Rabg‘o‘ziy” asarida keltirilishicha, ”Oti yashkir erdi, navha birla yig‘lashi uchun Nuh ataldi” [8; 39]. Ya’ni ismi Shokir edi. Ko‘p nahva tortganlari uchun Nuh ataldilar.

Xo‘janazar Huvaydoning Nuh obraziga murojaat qilishini boshlang‘ich manbalar bilan yaxshi tanish bo‘lgani, mavjud an’anani davom ettirgani bilan

izohlash mumkun. Chunki shoir eshonlar avlodidan bo‘lib, diniy manbalarni yaxshi o‘rgangan. Huvaydo ijodida Nuh obrazi alohida o‘rin tutadi. Bu obraz orqali insonlarga faqat dunyo uchun yashamay oxirat tadorigini ko‘rish lozimligi haqida, buning uchun esa Nuh kabi uzoq yashasang ham oxir borar yerimiz bir deya hayot saboqlari haqida insonlarga pand-nasihat berishda katta o‘rin tutadi.

Hazrati Nuhi nabiy ming yil yashab ,

Oqibat bo‘ldi ul erning umru hech (58-bet).

Baytda shoir Nuh(a) ming yil yashasa ham oxiri chin dunyoga ketdi. Dunyoda hamma narsa o‘tkinchi, hech narsa abadiy emas, kech qolmasdan haq yodini ko‘nglingga jo qil. Hatto, Nuh(a) ming yil yashasa ham, bu dunyoda boqiy qolmadi deya kishilarni hidoyatga chorlamoqda.

Dunyo chun to‘foni Nuh g‘arq o‘ldi anga jumla el,

Kim qanoat kishtiga mindi, omonat ul bexatar. (69-b.)

Dunyo to‘foniga Nuh bilan jumla el g‘arq bo‘ldi. Lekin ular qanoat yo‘lini tutgani uchun bu to‘fon ham bexatar bo‘lib qoldi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ibrohim Adham, Hizr, Pari, Nuh obrazlari Huvaydo badiiy mahoratini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shoir she’riyatidagi an’anaviy obrazlar lirik qahramonning ruhiy holati va ichki kechinmalarini aks ettirishda o‘ziga xos mavqega ega. Badiiy ijodda, ayniqsa, she’riyatda ruhiyat tasviri, insonning ichki olami birinchi o‘rinda turadi. Shoir g‘azallarida Inson, uning taqdiri, qalb dunyosi, borliqning mohiyati haqida chuqur bahs yuritilgan. Shoir ijodini mumtoz adabiyot xazinasining munosib boyituvchisi sifatida baholash mumkin. Shoir adabiy me’rosi qancha ko‘p o‘rganilsa, yangidan-yangi qirralari ochilib boraveradi. An’anaviy obrazlar shoirga hayotni real va teran falsafiy tadqiq etishida boy g‘oya va fikrlash imkoniyatini bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Қуръони Карим. Ўзбекча таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон. 1992. – Б. 483.
2. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. 15-том. -Т.:Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти. 1968. –Б. 208.
3. Рўзматзода Қ. Ҳувайдо ва тасаввуф // Сино. – Тошкент: 2011. № 43-44. –Б. 244.
4. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фолклори. – Т.: “Фан“. 1986. – Б. 194.

5. Нурмонов Ф. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фолклоридаги талқини. Фил.фан.ном.дисс..., – Тошкент. 2002. – Б. 56.
6. Бозорова Н. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи (“ Бадое ул-бидоя “ девони асосида). Фил.фан.ном.дисс..., – Тошкент. 2002. – Б. 56.
7. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. 2013. – Б. 464.
8. Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. К.1. – Т.: Ёзувчи. 1990. – Б. 240.

ADABIYOT O‘QITISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAKLIFLAR

UZLUKSIZ ADABIY TA’LIMDA UY VAZIFALARI

Qunduzoy Husanboyeva
Pedagogika fanlari doktori, professor

O‘quvchi ma’naviy kamoloti asosi bo‘lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligining darajasi uy vazifalarini bajarishda ham namoyon bo‘ladi. Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmaslik kerakligidir. Aks holda, o‘quv materialini ko‘r-ko‘rona eslab qolish holati yuz beradi. Uy vazifalari o‘quvchining sinfdagi faoliyatidan shunisi bilan farq qiladiki, unda barcha topshiriqlar o‘quvchining o‘zi tomonidan mustaqil ravishda bajariladi. Ta’limning bu turidan darsda shakllangan mustaqil fikrlash va mustaqil faoliyatni yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalanish juda muhim. Afsuski, ta’lim amaliyotida o‘quvchilarning uy vazifalarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish bilan etarli darajada shug‘ullanilmaydi. Har darsda o‘quvchilarga uy vazifalari topshiriladi, lekin ularni qanday bajarish mumkinligi nisbatan kengroq o‘rgatilmaydi.

O‘quvchi uy vazifasiga keyingi darsda o‘qituvchi nimani so‘rashi mumkinligidan kelib chiqib yondashadi. Ko‘pchilik o‘quvchilar og‘zaki uy vazifalarini tayyorlashda berilgan matnni bir marta o‘qiydilar. Ba’zilari hatto o‘qimaydilar ham. Darslikda matn qanday berilgan bo‘lsa, shunday qayta hikoya qiladilar. Darsga tayyorlikning o‘lchovi matnni qayta hikoyalashdan iborat bo‘lib qoladi. O‘qilgan matn ustida mulohaza yuritilmay, matn mazmunini eslab qolishgagina tirishiladi.

Uy vazifasini ma’lum reja asosida tayyorlash ham o‘quvchilarning faol fikriy mustaqilligini oshiradi. Uy vazifasini tayyorlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya bilgan o‘quvchi undan mustaqil mulohaza talab qiladigan mashg‘ulotlarga o‘ziga ishongan holda qatnashadi. Uy vazifalarini ma’lum reja asosida bajarish bolalardan o‘quv

materialiga ongli ravishda yondashishni talab qiladi. Yaxshi tuzilgan reja o‘quvchining faoliyatini tizimga soladi, zarur materialni ajratib olishga o‘rgatadi, muhim jihatlarni ochishga va to‘g‘ri xulosalar chiqarishga undaydi. O‘z fikrini muayyan tizimda bayon etishga o‘rgatadi.

Uy vazifalarini og‘zaki tarzda bajarishda o‘quvchilar matn yuzasidan darslikdagi savol-topshiriqlarga murojaat qilmaydilar, ular bilan ishlamaydilar. Uy vazifalarini og‘zaki so‘rashning faqat o‘quvchi xotirasiga tayanib javob berishi talab etiladigan tarzda tashkil qilinishi natijasida vazifa so‘rash o‘qituvchi bilan bitta o‘quvchi orasidagi alohida suhbatga aylanib qolib, sinfdagi boshqa o‘quvchilar unda ishtirok etmaydilar. Uy vazifalarini darsda ko‘tarilgan asosiy savol muhokamasi natijasiga qarab shakllantirish o‘quvchilarni darsda o‘rgangan bilimlarini mustaqil ravishda guruhlashga, undan muhimini ajratishga, o‘qituvchining talablariga mos keladigan dalillar topishga o‘rgata boradi. Ularning oldida mustaqil mulohaza yuritishni talab qiladigan yangi savollar paydo bo‘ladi. Dalillar keltirish uchun nafaqat faktlar izlashga, balki ularni o‘z so‘zlari bilan yetkazishga ham harakat qiladilar. Bu holat ham ta’limiy, ham tarbiyaviy jihatidan o‘ta muhim hisoblanadi. O‘quvchilar fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalagan joyda tafakkur faoliyati mustaqilligi tarbiyalanmasligi mumkin emas.

Uy vazifasini so‘rash jarayonida o‘quv materialini taqqoslash va umumlashtirishni talab qiladigan savollarni o‘rtaga tashlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar oldiga bunday savollar qo‘yish ularning mustaqil fikrlash va ijodkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘quvchilarni o‘z mustaqil fikrini aytishga yo‘naltiradigan topshiriqlar berish oldindan ma’lum narsalarni takrorlamaslikni, o‘rganilganlar orasidan darsliklarda yo‘q yangilikni topishni talab qiladi. Talab qilinayotgan narsani o‘rganilganlari orasidan mustaqil tahlillash va taqqoslash orqali topish aqlning anchagina zo‘riqishini talab qiladi. Uy vazifasini so‘rash jarayonida ham o‘qituvchi javobning o‘zi bilan chegaralanib qolmasligi, isbot talab qilishi kerak. O‘qituvchilik san’ati bolalarni mulohazalar yuritish yo‘li bilan xulosaga, natijaga etaklashdan iboratdir. Har safar, uy vazifasini so‘rashda

oʻquvchilarning oldiga taqqoslash va umumlashtirishga undash uchun qoʻyilgan savollar ularning aqlini zoʻriqtiradi. Oʻquvchilar tafakkuri ulardan oʻrganganlarining muhimini ajratish soʻralganda yanada ijodiy ishlaydi. Muhim narsa oʻquvchilarning oʻzlari aytganlari orasidan qidiriladi.

Oʻqituvchining uy vazifasini soʻrashda oʻrganilgan materialni qayta tiklashga yoʻnaltirilgan savollari ta’sirida oʻquvchilar aqliy faoliyati muayyan qolipda shakllanib qolishi mumkin. Oʻqituvchi savollarni asar matniga tayanib, undan uzoqlashmagan holda tuzsa, oʻquvchilar ham oʻz javoblarini darslikdagi tayyor javoblar ustiga quradi. Bunday soʻrovlar oʻquvchini oʻquv materialini yodlab olishga, fikrlarni kitob tili bilan soʻzma-soʻz bayon etishga oʻrgatib qoʻyishi mumkin.

Agar uy vazifalarini soʻrash darsning ijodiy qismiga aylantirilsa, ya’ni oʻquvchining hodisa tahlili va u bilan bogʻliq faktlarni umumlashtirishga boʻlgan qiziqishlari, imkoniyatlari hisobga olinsa, uy vazifasini soʻrash jarayonining samaradorligi ham sezilarli darajada ortadi. Uy vazifasini soʻrash jarayonida oʻquvchilar koʻpincha u yoki bu hodisani bayon qiladilar, lekin unga baho bermaydilar. Bu shundan dalolat beradiki, oʻqituvchi ulardan shunday bahoni, munosabatni hech qachon talab qilmagan. Sababi, buni oʻqituvchining oʻzi ham bilmaydi. Oʻquvchilarda voqea-hodisani baholash, unga oʻz munosabatini bildirish koʻnikmasi shakllantirilmagan. Uy vazifalarini soʻrash paytida oʻquvchiga mustaqil mulohaza yuritish talab qilinadigan savollar berilishi uning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Berilgan savollarga oʻquvchilar yaxshi tanlangan dalillar orqali javob berishga erishsa, bunday savollar ularning oʻzlariga ham katta ijobiy ta’sir koʻrsatadi.

Oʻquvchilarga uyda bajarish uchun beriladigan yozma ishlarning koʻpchiligi takrorlardan iborat boʻladi – oʻquvchilar bir-birlaridan koʻchiradilar. Koʻpchilik oʻquvchilarning boshqa yoʻli ham yoʻq. Ular nimani, qanday yozishni bilmaydilar. Oʻquvchilar bunga oʻrgatilmagan. Aytadigan gaping boʻlmaganida oq qogʻoz bilan yuzma-yuz, yolgʻiz qolishdan azobli narsa yoʻq. Oʻquvchi bunday oʻzini

qiynaydigan vaziyatlarda uzoq qolishni istamaydi. Shuning uchun oson yo‘lni – ko‘chirmachilikni ixtiyor etadi.

Takrorlash darslari uy vazifasini so‘rashdan o‘rganilgan o‘quv materialini umumlashtirishning nisbatan yuqoriligi bilan farq qiladi. Bunday sharoitda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘qituvchilar savol va topshiriqlarni oddiy darslardagiga nisbatan muammoliroq tarzda qo‘yadi. O‘quvchilarning javoblari va izlanishlari ham shunga yarasha bo‘ladi. O‘qituvchi qanchalik bilimdon, saviyasi ne qadar baland bo‘lsa, tarbiyalagan o‘quvchilarini ham o‘zining darajasida yuqorilatib boraveradi.

Agar o‘quvchi bilim olishga qiziqsa, u maktabdagi o‘quv fanlarini jiddiy o‘rganadi. Buning uchun bilim olish o‘quvchining ichki tabiiy ehtiyojiga aylanishi kerak. Ehtiyoj insondagi har qanday qobiliyat namoyon bo‘lishining zarur sharti hisoblanadi. Shundagina yuqoridagi tadbirlar ta’lim amaliyotida o‘z samarasini beradi, o‘quvchini ma’naviy barkamollik sari yo‘naltiradi.

O‘quvchilarning uyda ishlashlarini tashkil eta bilmaslik ham bolalarning bilim olishiga, o‘z kamolotini ta’minlash yo‘lida bevosita ishtirok etishiga halaqit bermoqda. O‘qituvchilarning yangilangan pedagogik tafakkur talablariga moslashishi juda sekin kechyapti. Tarbiyalovchilar qolipga tushib qolgan o‘qitish usullaridan voz kecholmayaptilar. Gap shundaki, mamlakatni buyuk kelajak sari etaklash ham, uni tubanlik qa’riga tortish ham o‘sib kelayotgan avlodning, millatning qo‘lida. Millatning saviyasi ko‘tarilmasa, mamlakat rivojlangan davlatlar safiga chiqolmaydi. O‘qituvchi ko‘tarilmasa, millat ko‘tarila olmaydi. Millatni ma’nan ham, aqlan ham ko‘taradigan o‘qituvchi bo‘ladi. O‘qituvchining shaxsi, dunyoqarashi, saviyasi, bilim darajasi, millat va mamlakatning taqdirini belgilaydi.

Uy vazifalari ularni to‘g‘ri tashkil qila bilgandagina o‘quvchilarning ma’naviy shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aks holda ular salbiy natijalarni ham keltirib chiqaradi. Agar uy vazifalari o‘quvchilarga metodik jihatidan puxta o‘ylanmay berilsa, ular o‘quvchilarni qalbakilikka, topshiriqlarni yuzaki bajarishga o‘rgatadi, o‘qishga va o‘quvchining shakllanishiga salbiy ta’sir

koʻrsatadi. Ularni yolgʻonga oʻrgatadi, bola uchun ortiqcha, samarasiz mehnat boʻladi.

Uy vazifalari oʻquvchilarning ruhan rivojlanishi va oʻqishiga ijobiy ta'sir koʻrsatishi uchun ularning qat'iy me'yorini belgilash, uyda ishlash uchun topshiriqlar berishni va ularni nazorat qilishni metodik jihatidan oqilona tashkil qila bilish lozim. Koʻpchilik oʻqituvchilar oʻquvchilarning shaxsi, tabiati, intellektual imkoniyatlari, oilaviy sharoitiga e'tibor bermaydilar, ularning mustaqil mehnatini tashkil qilish metodikasidan bexabarlar va beriladigan uy vazifalarini yoki haddan oshirib yuboradilar yoki juda joʻnlashtirib qoʻyadilar. Buning natijasida oʻquvchilar notoʻgʻri ishlaydilar. Ba'zida uyga sinfda ishlanmagan, oʻqituvchi tomonidan ifodali oʻqilmagan badiiy matnlar yodlashga topshiriladi. Oʻtilmagan mavzularda referatlar yozish talab qilinadi.

Bunday topshiriqlar berila turib hatto ularni yozishda foydalanish mumkin boʻlgan manbalar ham koʻrsatilmaydi. Goʻyo bu bilan ustozlar oʻquvchilarini oʻz oʻquv fanlari boʻyicha koʻproq ishlashga majbur qiladiganday boʻladilar. Koʻpincha oʻqilgan asarlar yuzasidan uyga beriladigan vazifalar bir-biridan farq qilmaydi va ular oʻquvchilarning uy vazifalarini bajarishga boʻlgan qiziqishlarini soʻndiradi. Uyga topshiriq berishdan oldin, doimo, avval, uning uchun asosiy boʻlgan didaktik talablar ishlab chiqilishi kerak. Har bir topshiriq oʻquvchi uchun tushunarli va mustaqil ravishda bajarish imkoniyatlari doirasida boʻlishiga harakat qilinishi lozim. Uy vazifalarini bajarishga oʻquvchi sinfda oʻqituvchi tomonidan alohida tayyorlanadi, manbalar koʻrsatiladi, lozim boʻlganda ishlash uchun yoʻnalish beriladi. Sinfda uy vazifasini olgan oʻquvchi topshiriqni bajarishga qiziqishi va ehtiyoji, uni mustaqil ravishda bajarish yoʻllari haqida tushunchaga ega boʻlishi lozim.

Bugungi maktab amaliyotida uy vazifalari sinfdagi oʻquvchilarning koʻpchiligiga moslashtirilgan holda, umumiy tarzda beriladi. Uyga topshiriqlar berishda oʻquvchilarga xos boʻlgan xususiy jihatlar, alohida oʻquvchilarning ishlash imkoniyatlari inobatga olinmaydi. Bu oʻz-oʻzidan uy vazifasini bajarishda salbiy natija beradi. Oʻqituvchi tomonidan bir soatga moʻljallab berilgan uy vazifasini

oʻquvchilarning ayrimlari 30–40 daqiqada, baʼzilari bir soatda, bir qismi esa 1,5 soatda bajaradi. Bugungi oʻqituvchi oʻquvchilarning individual xususiyatlari – kimning tez ishlashi-yu kimning sekin ishlashi, birovning oʻta shiddatli fikrlashi-yu qay bir oʻquvchi tafakkuri jarayonining sustroq ekanini inobatga olmaydi. Uy vazifasini tekshirish asnosida uning qanday bajarilganiga – ishning puxtaligi, mavzuning anglanganlik darajasiga eʼtibor qilmaydi. Bajarilgan ishning saviyasi, mohiyatiga kirib oʻtirmaydi. “Bajarildimi – bajarildi” qabilida ish tutadi. Aslida uyga beriladigan topshiriqlarni ham, sinfda bajariladigan ishlarni ham har bir oʻquvchining individual xususiyatlari, qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish lozim. Toki, birining qobiliyati oʻrtachalarning qurboni boʻlmasin, ikkinchisining qoʻlidan kelmaydigan ishni bajarolmay gʻururi, shaʼni yaralanmasin. Hammaga bir xil vazifa berib, uning bajarilishini barchadan birday talab qilish, uni bajara olmagan oʻquvchilarni “ikki”lar bilan jazolash bugungi milliy pedagogikaning maqsadiga toʻgʻri kelmaydi.

Oʻqituvchining shaxsiy tajribasi, oʻquvchilarga ziyraklik va eʼtibor bilan munosabatda boʻlishi, oʻz ishiga ijodiy yondashuvi, shu bilan birga, boshqa oʻquv fanlari boʻyicha uyga berilgan vazifalar hajmini kuzatib borishi unga oʻz oʻquv fani boʻyicha uy ishlarini toʻgʻri tashkil qilishga yordam beradi. Odatda maktabda uy vazifalari shoshilib, koʻpincha qoʻngʻiroqdan keyin beriladi. Uy vazifasini fikri tarqalganda, shovqin ichida, tanaffus boshlanganda olgan oʻquvchilarning koʻpchiligi nafaqat uni qanday bajarishni bilmaydi, balki baʼzida uyga nima berilganini toʻliq tasavvur ham qilolmaydilar. Bu hol uy vazifalarining qoniqarsiz bajarilishiga olib keladi yoki talab qilingan ish u yoqda qolib, butunlay boshqacha bajariladi yoxud koʻchiriladi.

Uy vazifalari barcha oʻquvchilar diqqati bir joyga jamlanganda berilishi maqsadga muvofiq. Berilayotgan uy ishlari oʻqituvchi tomonidan aniq shakllantiriladi, darstaxtaga qisqa tarzda yoziladi. Uy vazifalarining kundalikka yoki daftarga yozdirilsa, uni bajarishda chalkashliklarga yoʻl qoʻyilmaydi. Uy vazifasi, asosan, sinfda oʻtilgan mavzu doirasida boʻladi va oʻtilgan mavzu barcha

oʻquvchilar tomonidan etarli darajada oʻzlashtirilgandan soʻng beriladi. Uy ishlarida sinfda oʻtilgan mavzu mutlaqo takrorlanmaydi. Uy vazifalari darsning boshida, oʻrtasida, oxirida ham berilishi mumkin. Faqat oʻquvchilarning diqqati chalgʻimasdan avval berilsa, bas.

Oʻquvchilarni uy vazifalarini bajarish ishlarini rejalashtirib olishga oʻrgatish ham ularning tafakkur va faoliyat mustaqilligini ta’minlashda oʻziga yarasha ahamiyat kasb etadi. Oʻqituvchilar nazarida bu ma’lum darajada murakkab fikriy faoliyat boʻlgani uchun ham oʻquvchilarga nisbatan sodda reja tuzishni taklif qiladilar. Hatto, shuning oʻzi ham ularni oʻzgalarning tayyor fikrlarini takrorlashdan chekintiradi, mustaqil ravishda fikr aytishga yoʻnaltiradi. Uy vazifalarini ma’lum reja asosida bajarish oʻquvchini oʻquv materialiga ongli va tizimli ravishda yondashishga oʻrgatadi. Yaxshi tuzilgan reja oʻquvchining faoliyatini tartibga soladi, zarur materialni ajratib olishga oʻrgatadi, muhim jihatlarni ochishga va toʻgʻri xulosalar chiqarishga undaydi. Oʻz fikrini muayyan tizimda bayon etishga yoʻnaltiradi.

Oʻquvchilarga reja tuzishni oʻrgatishda oʻqituvchi quyidagicha yoʻnalishni taklif qilishi mumkin:

a) berilgan matnni ikki marta toʻliq oʻqib chiqish;

b) birinchi oʻqishda matndagi asosiy fikrni aniqlash, oʻqish jarayonida zarur raqamlar va yangi soʻzlarni belgilab qoʻyish;

v) ikkinchi oʻqish jarayonida asosiy fikrlarni topish, materialni ma’noli boʻlaklarga boʻlish va ularning har birini nomlash.

Matndagi asosiy fikrlar anglashilgandan keyingina uning rejasini tuzishga kirishiladi. Bunday faoliyat boshlangʻich sinflarning dastlabki bosqichidan ta’lim amaliyotiga singdirilishi kerak. Reja tuzish a’lochi oʻquvchilardan ham, sust oʻzlashtiruvchi bolalardan ham birday talab qilinishi zarur. Aks holda yuqori sinflarda murakkab masalalar bilan toʻqnashilganda, mustaqil xulosa chiqarish kerak boʻlganda koʻpchilik oʻquvchilar rejalashtirishga qiynalib qoladilar.

Toʻgʻri, oʻqilgan asar yuzasidan asosiy fikrni ilgʻab olish va uni mantiqiy

qismlarga ajrata bilish hamisha ham oson amalga oshavermaydi. Shuning uchun reja bandlarini shakllantirishda oʻquvchilar koʻproq kitobiy tilga tayanadilar, fikr ifodalashlarida ham kitobga qaramlik sezilib qoladi. Bunday kamchiliklar hamisha oʻqituvchining e'tiborida boʻlib, oʻquvchiga eslatib turilsa, ular tezda bartaraf etiladi. Oʻqituvchining oʻquvchida tabiatan mavjud boʻlgan oʻz faoliyatini rejalashtirish, uni bajarish, natijalarni tekshirishini maktab ham davom ettirishi uning tafakkuri va faoliyat mustaqilligini rivojlantiradi.

Darsda yoki uyda mustaqil bajarish uchun berilgan topshiriqni rejalashtirish oʻz-oʻzidan uning predmetini, maqsadini bilishni talab qiladi, shu bilan birga bunday vazifalarni bajarish uchun ma'lum tajriba ham talab qilinadi. Maktab hayotidagi bunday ishlarni mustaqil ravishda rejalashtirishga birdaniga kirishib boʻlmasligi, tushunarli. Bunga oʻquvchilarning maktab hayotida oʻquv yoʻnalishda u yoki bu darajada malakaga ega boʻlganlaridan keyin kirishiladi. Hatto oʻquvchilarga harakat rejasi taqdim etilganda ham uning ma'lum qismlarini muhokamaga qoʻyish va oʻquvchilar faoliyatining ongliligiga ishonish kerak. Oʻquvchilar faolligi asta-sekinlik bilan oshirib borilib, ular katta muammolarni rejalashtirishga oʻrgatiladi. Asarning, undagi alohida hodisa yoki vaziyatning, qahramonlar xarakteristikasining toʻkis boʻlishini ta'minlaydi.

Uy vazifalariga qoʻyiladigan didaktik va metodik talablar. Adabiyot darslarida oʻqituvchi oʻzidagi eng yaxshi fazilatlarni oʻquvchilarga oʻtkazadigan, ularbilan birgalikda oʻzligida ham tasavvur va ijodkorlik koʻnikmalarini rivojlantiradigan, dars jarayonidagi har qanday faoliyatda birgalikda ishtirok etadigan, mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga yoʻnaltiradigan katta yoshli doʻst. Oʻqituvchilik faoliyati ifodali oʻqish,rasm chizish, musiqa tinglash, badiiy ijod singari tuygʻu va axloq shakllantirish bilan bogʻliq ishlarni, bilim, texnika vositalari, har xilmetodik oʻyinlarni ham qamrab oladi. Bu ishlarning hech biri vaqt oʻtkazish yoki biror ishdan dam olish manbai boʻlmasligi kerak. Darsga ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy shakli sifatida urgʻu bergan holda oʻqituvchi oʻquvchilarning uy vazifalarini shunday tashkil etishi kerakki, ular adabiy

ta’limning har bosqichida tom ma’noda tarbiyaviy, ta’limiy masalalarni hal etishga qaratilsin. Buning uchun, eng avvalo, o‘qituvchidan sinfda bajariladigan ishlarni ham, uy vazifalarini ham o‘quvchi mustaqilligining ortishi bilan hamohang tarzda tashkil qila bilish talab etiladi.O‘quvchi tafakkuri va faoliyatidagi mustaqillikning darajasi uy vazifalarini bajarishda ham yorqin namoyon bo‘ladi. Ta’limning buturidan o‘quvchi mustaqil faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalaniladi.

Adabiyot darslarida uyga vazifa berilayotganda, avval, o‘quvchining diqqati tortiladi, fikri uyg‘otiladi. So‘ng topshiriq yuzasidan voqea yoki hodisaning sabablarini aniqlash, uni tushuntirish, xulosalar chiqarish va fikrlarini asoslash lozimligi alohida ta’kidlanadi. O‘quvchining oldiga o‘ylashga, tahlil qilishga, munosabat bildirishga, o‘z xulosasini chiqarib uni misollar bilan asoslashga yo‘naltiradigan: “Asardagi shu vaziyatni qanday tushuntirish mumkin?”, “Nega shunday bo‘lgani sabablarini aniqlang. Qarashlaringizni asoslang”, “Mazkur holatga sizning munosabatingiz qanaqa? Fikringizni nima bilan isbotlaysiz?”, “Nima deb o‘ylaysiz, shu epizod (yoki hodisa) asarga nima maqsadda kiritilgan bo‘lishi mumkin? Nega shunday deb o‘ylaysiz?”, “Qahramon xatti-harakatlariga o‘z munosabatingizni bildiring. Mazkur oqibatning sabablari haqida o‘ylab ko‘ring”, “Qahramon faoliyatiga berilgan rag‘bat (yoki jazo)ning sabablari haqida mulohaza yuriting. Nega shunday bo‘lganini izohlang”, “U yoki bu qahramon ruhiyatidagi, shaxsiyatidagi o‘xshashlik va farqli jihatlar nimada?”, “Nega ularning orasidagi do‘stlik (yoki muhabbat) mustahkam bo‘lib chiqmadi?”, “Otabekning, (Kumushyoki Zaynabning) bu gaplari zamirida qanday xohish-istaklar jamlangan. deb o‘ylaysiz?”, “Shu misralarda muallifning qanday sifatlarini anglash mumkin, sizningcha?”, “Nima deb o‘ylaysiz, voqea nima uchun bunday yakun topdi?” va hk. savol topshiriqlarni vazifa shaklida qo‘yish mumkin.

Mavzu bo‘yicha aniq va zarur ma’lumotlarga ega bo‘lganda o‘quvchining muhokamaga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Uy vazifasini bajarish jarayonida yuz bergan qiyinchiliklarni bartaraf qilish uning ehtiyojini qondiradi. O‘quvchi g‘alaba

nashidasini tuyadi. Bu qoniqish hissi, topshiriqning bajarilishidan tuyilgan lazzat nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi bir tomonlamalikni hal etishga ko‘maklashadi, balki o‘quvchi bilimini boyitadi, unda shaxslik sifatlari shakllanishiga asos bo‘ladi. Bunday faoliyatni tashkil etadigan uy ishlari o‘quvchida mustaqil umumlashmalar qilishni talab etadigan qiyin topshiriqlarni uddalash qobiliyatini tarbiyalaydi va har qanday hodisada sababni ko‘rishga va fikri, qarashlarini erkin bayon etishga, xulosalarini asoslashga o‘rgatadi.

Murakkab umumlashmalar qilishni talab qiladigan uy vazifasini olgan o‘quvchini o‘qituvchi aytilajak fikrlarning rejasini tuzib olishga, taqriz yoki xulosalarda, berilajak javobda muhimni nomuhimdan ajrata olishga o‘rgatishi kerak. Ba’zan o‘zlashtirilgan materialning muhim jihatlari qanday mezonlar asosida belgilanishini ham so‘rash mumkin. Shunda uy vazifasining samarasi kutilgandan ham ziyoda bo‘lishi tayin. Darslarga o‘ziga qattiq ishongan holda, har qanday vaziyatga tayyor tarzda kelgan o‘quvchida qat’iyat, o‘ziga ishonch hissi shakllanib boradi. Bular juda yoqimli tuyg‘ular. Shu tuyg‘ular uning bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Uy ishi sifatida o‘qituvchisi tomonidan o‘rganilgan mavzu mazmunidan muhim jihatlarni ajratish vazifasini olgan o‘quvchi uyda topshiriq bilan yuzma-yuz yolg‘iz qoladi. Yo‘nalish to‘g‘ri berilgan bo‘lsa, topshiriq ham to‘g‘ri bajariladi. Buning uchun o‘quvchi quyidagi ishlarni qiladi:

- avval fikr predmetini aniqlaydi;
- matnni muhim va ikkinchi darajali mantiqiy bo‘laklarga ajratadi;
- kalit so‘z va tushunchalarni topadi;
- matnning qisqa mohiyatini ifodalash uchun tayanch nuqtalarni belgilab oladi va shularga asoslanib uning muhim jihatlarini ajratadi.

Fikrlarining kichik rejasini tuzadi. Shu reja asosida qarashlarini og‘zaki yoki yozma ravishda bayon etishga tayyorlanadi. Bunday topshiriqni bergan o‘qituvchidan o‘quvchini shunday yo‘nalishga solib qo‘yish ham talab qilinadi. Maktabda darslarning samarali tashkil etilishi uy vazifalari hajmini nisbatan

toraytirishi mumkin. Lekin bu uy vazifalaridan voz kechish degani emas. O‘quvchiga uy vazifalari bermaslik uncha to‘g‘ri emas. Ma’lumki, o‘quvchilarning xotirasi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasi har xil. Birida eshitib o‘zlashtirish qobiliyati kuchli bo‘lsa, ikkinchisida ko‘rganini eslab qolish imkoniyati katta. O‘quvchilarning ma’lum qismi o‘qituvchi bayonidan so‘ng o‘quv materialini kitobdan o‘zi o‘qishga va uning asosiy o‘rinlarini ko‘z bilan xotirasiga o‘rnashtirib olishga ehtiyoj sezadi.

Qolaversa, o‘quvchi o‘quv materialini darsda yaxshigina o‘zlashtirib olgan bo‘lsa ham, uyda uni bir marta qarab chiqishi foydadan xoli emas. Faqat uy vazifasi sifatida matnni qayta o‘qishni emas, balki kuzatish ishlarini, tajribalar o‘tkazishni, har xil ijodiy ishlarni bajarishni topshirish lozim. Aks holda bu ixtiyorsiz ravishda o‘quv materialini mexanik tarzda eslab qolishga olib keladi. Adabiy ta’limning barcha bosqichida o‘quvchilarning uy vazifalariga qo‘yiladigan didaktik talablar bir-biridan katta farq qilmaydi. Adabiy ta’lim jarayonining har bosqichida uyga beriladigan topshiriqlar:

– o‘quvchi tomonidan o‘zlashtiriluvchanligi;

– uning maqsadi, vazifasi va bajarilish tartibining aniqligi;

– uyga beriladigan vazifaning yangi va avvalgi darslarda o‘tilgan mavzular bilan bog‘liqligi;

– sinfda o‘talgan ishlarni aynan takrorlamasligi;

– avval o‘rganilgan mavzuning to‘ldiruvchi va rivojlantiruvchi qismi bo‘lishi;

– topshiriqlarning belgilangan vaqt oralig‘ida bajarilish imkoniyati va hk. talablarga javob berishi kerak.

O‘qituvchining mahorati uy vazifalari uchun ta’limning har bosqichida, ma’lum vaziyat va holatga munosib topshiriqlar tanlay bilishida ko‘rinadi. Adabiy ta’limda o‘quvchilar uy vazifalarini tashkil etishning ma’lum shakllari mavjud:

- uyda o‘qish uchun beriladigan topshiriqlar;
- asar matni ustida ishlash uchun beriladigan vazifalar;
- yod olish uchun beriladigan uy ishlari;

- suratlar bilan ishlash bo‘yicha topshiriqlar;
- savol va topshiriqlar bilan ishlash vazifalari;
- kalit so‘zlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar;
- o‘quvchilarning uy insholari bilan bog‘liq ishlar.

Mazkur yo‘nalishda taqdim etilgan uy vazifalari o‘qituvchiga o‘quvchilarning uyda ishlashlarini tashkil etishda, ularni ma’lum bir tizimda boshqarishga, va nazoratni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashadi.

Uyda o‘qish uchun beriladigan topshiriqlar. Maktab hayotining hamma bosqichida darslik o‘quvchi uchun zarur va asosiy qo‘llanma hisoblanadi. Yuqori sinflarda adabiyot kursini o‘rganishda o‘quvchilarning o‘qishi, ularning badiiy asar yoki asar haqidagi maqolalar ustida ishlashini tashkil etish uchun o‘qituvchi ta’limning quyi bosqichlaridagi shunday faoliyat bilan bog‘liq uy vazifalariga ko‘proq e’tibor qaratishi kerak bo‘ladi. Bunday topshiriqlar darslikdagi adabiy matn mazmunini uyda, mustaqil ravishda o‘zlashtirib olishga, badiiy so‘z mohiyatiga kirishga ko‘maklashadi.

Adabiyot darslarida darslik bilan ishlash bo‘yicha uy vazifalarining taxminiy umumiy me’yori boshlang‘ich sinflarda 10–15 daqiqa, 5–7-sinflarda 20–25 daqiqa, 8–11-sinflarda esa 25–30 daqiqagachani tashkil etadi. Faqat bunday topshiriqlar sinf, vaziyat va alohida o‘quvchilar uchun mos bo‘lishi, har bir o‘quvchining intellektual imkoniyatlari doirasida berilishi, shu bilan birga topshiriqlarning bir xilligi hamda bir birini takrorlashidan qochish kerak.

Ular: savollarga javob berish, matnning ma’lum bo‘limi rejasini tuzish, o‘qilgan matn yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish, o‘qituvchining savollari, qo‘yilajak muammolar ustida ishlashga tayyorgarlik, asar matni asosida tezislar yaratish, sinfda taqdim etilgan reja asosida matndan materiallar ajratish va hk. shakllarda bo‘lishi mumkin. Uyga beriladigan topshiriqlarning barchasi adabiy ta’limning bosh maqsadi asosida tashkil etilishi lozim.

O‘quvchilarning uyda o‘qishlari uchun beriladigan vazifalarga, ayniqsa ular mumtoz adabiyot bilan bog‘liq bo‘lganda, juda ehtiyotkorlik bilan yondashish

kerak. Mumtoz asarlar nafaqat tili bilan, balki yaratilish davri, aks ettirilgan ijtimoiy muhiti bilan ham bugungi o‘quvchidan ancha yiroq. Lekin qiyin deb ularni o‘rganmaslik yoki ularni bugungi o‘quvchi saviyasi darajasiga moslashtirish, jo‘nlashtirish ham noto‘g‘ri. Ya’ni darslarda asarlarning tabdili bilan ishlash yoki uy vazifasini tabdillar asosida bajarish o‘quvchini chalg‘itadi. O‘quvchiga ularni anglatish uchun bolada mumtoz ma’naviyat namunalariga muhabbat hissini shakllantira bilish lozim.

Bobolar so‘ziga ichki ehtiyojsiz, muhabbatsiz ularning bitiklarini o‘rganib bo‘lmaydi. Buning uchun so‘zning mohiyatiga kirish kerak. Mohiyatga kirishda obzor mavzular o‘quvchiga ma’lum darajada ko‘maklashadi. Obzor mavzularni o‘rganishga monografik mavzularni o‘rganishga qo‘yilgan talablar bilan yonda-shib bo‘lmaydi, albatta. Ular darsliklarga o‘quvchilar tarixiy ma’lumotlardan, asarlarning yozilgan davri, xalqning o‘sha davrdagi turmush tarzi, madaniy-ma’rifiy hayotidan xabardor bo‘lishlari uchun kiritiladi.

O‘quvchilarning uyda o‘qishlari uchun beriladigan topshiriqlar, birinchi navbatda, dasturdagi o‘quv materiallarini o‘quvchilar chuqurroq, kengroq o‘zlashtirishlarini nazarda tutadi. O‘quv yilining oxirida o‘quvchilarga yozda o‘qish uchun topshiriq berilayotganda dastur doirasiga kiradigan, u yoki bu adibning ijod yo‘lini, uslubini aniqroq bilishga imkon beradigan asarlar tavsiya etiladi. Ular shunchaki sinfdan tashqari o‘qish uchun material emasligi, topshiriqning o‘z nazariy, ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati borligi, bu faoliyatning amaliy ahamiyati nimalardan iborat ekani o‘quvchilarga yetkaziladi. Bunday paytlarda o‘quvchilar quyi sinfda o‘rgangan asarlari ham qamrab olinishi mumkin. O‘quvchining avval o‘qigan asarlarini oradan ma’lum vaqt o‘tgach qayta o‘qigan-da olgan taassurotlari avvalgilari bilan taqqoslanib, ular haqida ham alohida suhbatlashish mumkin. Bu ham o‘quvchining ma’naviy kamolotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunday asarlar bo‘yicha o‘quvchilarning umumiy tarzda asar mavzusi, undagi etakchi fikrlarni bilishi, asar qahramonlariga tavsif bera olishi kifoya.

Asar matni ustida ishlaganda undagi qahramonlarga individual, qiyosiy va

guruhiy tavsiflar berish vazifasi umumiy oʻrta ta’limning 5-sinfidan boshlanadi. Sinflar yuqorilab borgani sari oʻquvchilar tomonidan bajariladigan ishlarning mazmuni bilan birga fikrlar bayonining tizimliligi, mantigʻi va mustaqillik darajasi hisobga olinib, baholanadi. Har bir fikrni asoslash uchun asardan keltirilgan misollar va iqtiboslar oʻquvchining faollik, ziyraklik va bilimlilik darajasini koʻrsatadi. Asar qahramonlariga tavsif berishda oʻquvchidan avval timsolning etakchi xususiyatlarini ajratib olish talab qilinadi. Soʻng uning boshqa timsollar bilan aloqasi, bogʻliq tomonlari koʻrsatish soʻraladi. Qahramon tabiatidagi jihatlarning voqealar rivojiga ta’siri, oqibatning sabablari aniqlanadi. Qahramonga xos boʻlgan individual va tipik xususiyatlarni aniqlash, uning xatti-harakatlarini tahlil qilish, berilgan tavsifni matndan misollar keltirib asoslash oʻquvchida puxta ishlash koʻnikmasini shakllantiradi.

Yuqori sinf oʻquvchilariga timsolni tahlil qilishni uy vazifasi qilib topshirishdan oldin darsda ular bilan birgalikda qahramonning shaxsi, dunyoqarashi, asardagi oʻrni aniqlanib, uning hayotga, jamiyatga, odamlarga munosabati belgilab olinadi. Bunday uy vazifalarining darsdagi tahlili har bir oʻquvchining aniq oʻz xulosasi bilan yakunlanishi kerak. Shundan soʻng berilgan uy vazifalari timsollarning yashirin qirralariga, qahramon xatti-harakati tahliliga, oqibatlarning sabablarini aniqlashga, qahramon tushib qolgan qiyin vaziyatlarning yechimiga, tuygʻular sharhiga qaratiladi.

Adabiy ta’limda uyda oʻqish uchun beriladigan topshiriqlar darslikdagi oʻquv materiallari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uyda oʻqish uchun beriladigan asarlar boshlangʻich maktabning 3 – 4-sinf oʻquvchisi uchun bir yilda 12 – 14 ta kitobni tashkil qiladi. Yuqori sinflarda bir yilda oʻqilishi lozim boʻlgan adabiyotlar soni tahminan: 5-sinfda 13–15ta, 6-sinfda 15–18ta, 7-sinfda 19–22ta, 8-sinfda 22–25ta, 9-sinfda 25–30tagacha taklif etiladi.Bu raqamlar sirasiga darslikda parcha berilgan asarlarni ham kiritish mumkin. Oʻqituvchi taxminan bir oyda ikki marta sinfdan tashqari oʻqilgan asarlar ustida ishlash uchun (ayrim asarlarni oʻrganishdan chegirilgan soatlar hisobidan) vaqt topa bilishi kerak. Bunday darslarda oʻquvchilar

oʻqituvchi rahbarligida asarlarni tahlil qiladilar, ularga taqriz beradilar, munosabat bildiradilar va asarlar haqidagi fikrlarini uning matniga tayanib asoslaydilar. Bunday darslarga ota-onalarni ham taklif qilish katta samara beradi. Oʻqituvchi sinfdan tashqari oʻqish uchun darslikda parcha berilgan asarlarni toʻliq oʻqishni tavsiya etishi, ayrim qoʻshimcha asarlardan boblar oʻqib oʻquvchilarni qiziqtirib olishi va shu asnoda ularni uyda oʻqishga berishi mumkin.

Asar matni ustida ishlash uchun beriladigan uy vazifalari. Insonning fe'lu atvorini zoʻrlik bilan oʻzgartirish mumkin emas. Odamlar tomonidan yaratilgan qoidalar, tartiblar, qonunlar insonning tabiiy xususiyatlariga mos tushsagina ular tarbiyalanuvchiga "yuqishi" mumkin. Shundoq ekan, oʻquvchini maktabning tartib-qoidalariga emas, ta'lim-tarbiya jarayonini oʻquvchiga moslashtirish kerak. Ya'ni, darslar, uy vazifalari ta'limning har bosqichida har bir oʻquvchi qobiliyati, iqtidori, qiziqish va imkoniyatlariga asoslangan holda, imkon qadar individuallashtirilgan tarzda amalga oshirilishi lozim. Oʻquvchining intensiv rivojlanishini nazarda tutgan holda unga adabiy ta'limning barcha bosqichida, har darsda uyda ishlash uchun topshiriqlar berilishi, bola uyda har kuni sinfdagidek ishlashi kerak. Uy ishlarining qiyinlarini osonlari bilan va aksincha,almashtirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Tinimsiz qiyin topshiriqlarni berish oʻquvchilarni zoʻriqtirgani singari, uzluksiz oson vazifalar ham ularni uy ishlariga yengil qarashga oʻrgatib qoʻyadi. Uy vazifalarini bajarish uchun ajratiladigan vaqt ta'limning har bosqichida oʻquvchining yoshi, ruhiy va jismoniy xususiyatlari hamda imkoniyatlariga asoslangan holda aniqlanadi.

Uy vazifalarining umumiy hajmi, turli shakllarda, barcha oʻquv fanlari misolida umumiy tarzda: boshlangʻich sinflarning quyi bosqichlarida taxminan yarim soatgacha, yuqori bosqichlarida 40 – 45 daqiqa; 5-sinflarda 1 soat –1 soat 15 daqiqa atrofida; 6 – 7-sinflarda 1 soat 15 daqiqadan 1,5 soatgacha; 8 – 9-sinflarda 1,5 soatdan 2 soatgacha boʻlmogʻi nazarda tutiladi. Bunday vaqt oraligʻiga moʻljallangan uy ishlari maktabdagi barcha oʻquv fanlari boʻyicha ogʻzaki bajariladigan ishlar, oʻqish uchun topshiriqlar hamda yozma ishlar bilan almashtirib turiladi.

Uyga yozma ishlar berilgan kunlarda ogʻzaki topshiriq yoki oʻqish uchun vazifalar berilmaydi. Adabiyotdan uy vazifalari berishda oʻquvchilarning intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularning boshqa oʻquv fanlari boʻyicha yuklamalari bilan ham hisoblashish talab qilinadi. Adabiyot darslarini boshqa hamma oʻquv fanlaridan ustun qoʻygan, faqat oʻz sohasi boʻyicha barcha oʻquvchilarni koʻproq ishlatishni niyat qilgan oʻqituvchi qattiq adashadi. Sinfdagi badiiy soʻzga qiziqishi va iqtidori bor oʻquvchilarga ularning qiziqishlarini qondiradigan, ehtiyojlarini toʻyintiradigan topshiriqlarni koʻproq berish mumkin. Qolganlarga dastur talablari asosida bilim berish va DTS talablari doirasida bilimlarini nazorat qilish maqsadga muvofiq boʻladi.

Yod olish uchun beriladigan uy vazifalarining nomi va soni adabiyot dasturida va darsliklarda aniq koʻrsatilgan. Pedagogika ilmida bir darsda yod olish uchun beriladigan uy vazifalari 1-sinfda toʻrtdan sakkiz qatorgacha; 2-sinfda sakkizdan oʻntagacha; 3–4-sinflarda 16 satrgacha; 5-sinfda 16–18; 6-sinfda 20–22; 7-sinfda 22–24; 8-sinfda 24–26; 9-sinfda 28–30 misra atrofida boʻlishi tavsiya etilgan. Yuqori sinflarda yod olish uchun beriladigan she’rlarning hajmi ham bundan ortiq boʻlmasligi maqsadga muvofiqdir. Biror asarning toʻliq matni yoki asardan parcha yod olishni uy vazifasi sifatida topshirishdan avval uning mazmuni oʻquvchilar tomonidan yaxshilab tushunib olinishiga erishiladi. Asarni yod olishdan oldin u darsda sharhlab oʻrganilishi, she’r matni oʻquvchilar uchun tushunarli boʻlishi shart. Asarning yoddan, ifodali oʻqilishi darajasi uning qanchalik anglashilganligini koʻrsatadi. Adabiy ta’lim davlat standarti talabi boʻyicha yod olinishi lozim boʻlgan asarlarni barchaoʻquvchilar yod olishlari shart. Lekin dasturda ham oʻquvchilar yodlashlari uchun ma’lum miqdorda qoʻshimcha oʻquv materiallari taqdim etilgan. Ularni yod bilish darsliklardagi she’rlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ustida ishlashni osonlashtiradi. Dasturda va darslikda yod olish talab qilingan barcha she’riy asarlarni oʻquvchilarning hammasidan birday talab qilish ham unchalik toʻgʻri boʻlmaydi. Bu oʻrinda oʻquvchilarning xohish-istak va imkoniyatlarini inobatga olish kerak.

Suratlar bilan ishlash bo‘yicha uy vazifalari. Boshlang‘ich sinflarda asar matni yuzasidan chizilgan suratlar ustida ishlash topshirig‘i ko‘proq uchraydi. Sinflar yuqorilab borgani sari bunday ish turi amaliyotdan butunlay chiqib ketadi. Gap shundaki, badiiy asarlar mazmuni bo‘yicha ishlangan suratlar o‘quvchilarga asar qahramonlarini tiniqroq tasavvur qilishga ko‘maklashadi. Lekin bugungi ta’lim amaliyotida, o‘qish darslarida ham rasmlar ustida ishlash juda no‘noqlik bilan tashkil etilgan. O‘qituvchilar rasmlardagi faqat yuzaki jihatlarni ochishni talab qiladilar. Chunki boshqacha o‘qishni o‘zlari ham bilmaydilar. Ularga oliy maktabda bu o‘rgatilmagan.

Asar matni yuzasidan ishlangan suratlar ustida ishlash o‘quvchilar ma’naviy kamolotiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Suratlar bilan ishlash bo‘yicha berilgan uy vazifalarida ranglarning o‘rni, ularning surat uchun umumiy ahamiyati, o‘zaro mutanosibligi, nega aynan shu rangning qo‘llanilganligi, suratda yoritilgan narsalarning o‘rni, ularning umumiy tasvirga ta’siri bilan bog‘liq vazifalar topshiriladi. Sinflar yuqorilab borgan sari suratlar ustida ishlash bilan bog‘lab berigan uy vazifalarida rasmdagi shaxslarning yuz ifodasi, yuzidagi, ko‘zlaridagi, turishi yoki holatidagi ifodalar tahliliga, har birini tasvirlashda qo‘llangan ranglarga o‘quvchilarning e’tibori tortiladi.

Bu o‘quvchida rangni his qilish, undan ta’sirlanish, tasvirni, ranglardagi musiqiylikni o‘qish mahoratini shakllantiradi. Uy vazifasini bajarishda suratda ifodalangan har bir predmetni ajratish, uning rasmdagi vazifasini izohlash, rasmda tasvirlangan hodisaning boshi yoki oxirini o‘ylab topish, hikoyalab berish, kabi topshiriqlar hikoya bayonida fikrdan fikrga o‘rinsiz sakrab ketmaslik ko‘nikmasini shakllantiradi. Olamni, odamni ranglar ko‘magida baholashga o‘rgatadi. Qahramonning ko‘zlari, yuz ifodasi, holati tahlili o‘quvchini suvrat va siyratni farqlashga odatlantiradi.

Savol-topshiriqlar bilan ishlash bo‘yicha uy ishlari. Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi” va yuqori sinflarning “Adabiyot” darsliklarida taqdim etilgan adabiy matnlar ustida ishlash uchun ma’lum savol-topshiriqlar berilgan.

Boshlang‘ich maktabning 3 – 4-sinflarida o‘quvchilarga uy vazifasi sifatida asar matni yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlarning soni to‘rttadan oshmasligi kerakligi ma’lum. Darsliklarda taqdim etilgan ayrim savol-topshiriqlar tavsiflashni talab qilsa, ba’zilari umumlashtiruvchi xarakter kasb etadi. Ayrim savollar avval o‘zlashtirilgan bilimlarni eslashga ehtiyoj uyg‘otsa, boshqasi har tomonlama o‘ylashni va tahlilni talab qiladi. Yana bir xil savol uchun darslikdagi ma’lumotning o‘zi kifoya qilsa, o‘zgasiga javob berish uchun yordamchi manbalarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Darsliklardagi asar matni yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarga uyda javob tayyorlashda o‘quvchilar ko‘pincha umumiy qonuniyatni to‘g‘ri topadilar, biroq buni o‘zlari asardan misollar keltirib asoslab berishga qiynaladilar. Ulardan nega shundayligini tushuntirish yoki aytganlarini isbotlash talab qilinganda, mazkur holatga tegishli ko‘pgina faktlarni bilsalar ham, o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar. Gap shundaki, javob beradigan o‘quvchi o‘zi bilgan dalillarni, bilimlarni yangi tizimga, o‘qituvchi tomonidan belgilangan, uning savoli talab qilayotgan yangi yo‘nalishga solishi kerak bo‘ladi. Dastlab o‘quvchini aynan shu narsa qiynaydi. Keyinchalik, faktlar aniqlanib, topshiriq aqliy imkoniyati darajasidan uncha uzoq emasligi ma’lum bo‘lgach, tafakkuri faollashadi.

O‘quvchilar faoliyati mustaqilligini uyg‘otishga intilgan o‘qituvchi uyga beriladigan savol yoki topshiriqni mavzuga moslagan tarzda shakllantiradi. Shuning o‘zi tarbiyalanuvchining aqliy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. O‘qituvchi o‘quvchini materialni shunchaki qayta bayon qilmay, qarashlarini ma’lum tayanch fikr atrofida umumlashtirishga, undan javob uchun zarurini ajratib olishga, fikrini qolipga tushgan siyqa iboralarda emas, o‘z so‘zlari bilan bayon qilishga undaydi. Bu o‘quvchidan ma’lum hodisa sabablarini tushuntirish, fikrlarini qat’iy ilmiy-mantiqiy asoslarga qurish, voqealarni xolis baholash va kuzatganlarini umumlash-tirishni talab qiladi. Uy vazifalarini so‘rash bilan bog‘liq bunday vaziyatlarda qo‘shimcha savollar juda qo‘l keladi. Qo‘shimcha savollar ular avval o‘rganilgan bilimlarga tayanganidan o‘quvchilar ishini yengillashtiradi. Bu o‘rinda avval

oʻzlashtirilganlarni takrorlash emas, balki oʻrganilgan bilimdan yangi yoʻnalishda foydalaniladi. Bu oʻquvchini yangilikka, noma'lumni aniqlashga yoʻnaltiradi.

Kalit soʻzlar bilan ishlash. Asar matni bilan ishlash topshiriqlari sirasiga kalit soʻzlar bilan ishlash vazifasi ham kiradi. Oʻqituvchi bunday topshiriqlardan uy ishi sifatida ham, dars jarayonida ham foydalanishi mumkin. Bu topshiriqning asosiy xususiyati matndagi kalit soʻzlarni ajratib olib, ularning ma'nosi va asarning umumiy mazmunidagi oʻrnini aniqlashdan iborat. Kalit soʻzlar bilan ishlash boʻyicha uy vazifasi biror qahramon timsolida, biror epizod yoki hodisa misolida ham boʻlishi mumkin. Asar qahramoni shaxsi bilan bogʻliq kalit soʻzlar ustida ishlash uchun oʻquvchi matndan asosiy soʻzlarni ajratib oladi. Ularning mohiyatiga kiradi, ma'nosini aniqlaydi. Soʻngra bu soʻzlarning qahramon shaxsi, fe'l-atvorini ochishdagi oʻrni, ahamiyatini belgilaydi. Ularning qoʻllanilishiga oʻz munosabatini bildiradi, fikrini asoslaydi. Shu asnoda yozuvchining uslubiga, qahramonning shaxsiga baho beradi. Oʻz ma'naviyati shakllanishida oʻzi ishtirok etadi.

Kalit soʻzlar bilan ishlashlaydigan uy vazifalarini berishda asardagi peyzaj juda qoʻl keladi. Mavzu atrof olam bilan aloqada oʻrganiladi. Oʻquvchi tabiat hodisalarini kuzatadi, koʻrganlarini badiiy ifodalashga urinadi va hk. Qoʻllangan soʻz va iboralardan mavzu uchun muhimlari ajratiladi. Bunday mustaqil izlanishlar oʻquvchining dunyoqarashini kengaytiradi, peyzaj tasviridagi badiiylik va aniqlikni kashf ettiradi. Matnni oʻzlashtirish emotsional, ongli tarzda amalga oshadi. Ular oʻquvchini koʻra bilishga, ilgʻay olishga, anglaganlarini soʻz bilan ifodalashga oʻrgatadi. Oʻqituvchilar asarlardagi peyzaj tasviriga koʻpda e'tibor qilmaydilar. Tabiatdagi goʻzallikni koʻra bilish, koʻrganlarini soʻz bilan ifodalash mahorati har bir adibda oʻziga xos tarzda shakllangan. Buni oʻquvchi farqlashi va anglashi uchun uni tasvir mohiyatiga kirishga undaydigan uy vazifalari berilishi kerak. Asar matni ustida ishlash bilan bogʻliq bunday uy ishlari ham oʻquvchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻquvchilarning uy insholarini tashkil etish. Ma'lumki, bugun kunda mamlakat oliy oʻquv yurtlariga kirish imtihonlari testlar asosida amlga

oshirilmoqda. Shuning uchun o‘quvchilar, ota-onalar, hatto, ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘quvchilarning insho yozishiga e’tiborni susaytirdilar. Insho yozish o‘quvchilarning adabiyot darslaridagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va ular oliy maktabga kirish vositasi emas. Insholar inson tafakkurini charxlash, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlarini, qarashlarini qat’iylashtirish va ma’naviyatni shakllantirish omili hisoblanadi. Maktab adabiy ta’limining barcha bosqichida o‘quvchilarga insho yozdirish shart. O‘quvchining fantaziyasi, xayolot olami kattalarnikidan boy va keng. Tarbiyalanuvchining bu imtiyozlaridan uning o‘zi uchun foydalanish kerak. O‘quvchining hayotiy tajribasi kattalarnikiga nisbatan ancha g‘arib, atrof-muhitga munosabati ham sodda va jo‘nroq. O‘quvchini ijodkorlikka yo‘naltirish uning ruhiyatini bezovta qila oladigan, qiziqtiradigan mavzuda yozishga, eng muhimi, tuyg‘ularini, munosabatini so‘z bilan ifodalab berishga qiziqish uyg‘otilganda yengil amalga oshadi.

Bola ko‘pincha yozishga arziydigan salmoqli gapi yo‘qligidan yomon yozadi. Maqsad sinfdagi barcha o‘quvchilarni badiiy ijodkor qilish emas. Muhimi, tarbiyalanuvchida ijodkorlik tuyg‘usi paydo bo‘lsa, darsda o‘rganganlariga munosabat bildirishga odatlansa, unda insonlik, shaxslik kurtaklari shakllanadi. O‘quvchini faqat o‘zi yaxshi bilgan narsasi haqida yozishga o‘rgatish kerak. Yaxshi bilmagan, tushunmagan mavzu haqida yozishdan azobli narsa yo‘q. Bolaga bunday topshiriq berish unda quruqlik, yuzakilikni tarbiyalash demakdir. O‘quvchi shaxsida ijodkorlikni, bezovta, uyg‘oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg‘otiladi. Bolani o‘zi yaxshi bilmaydigan, yaxshi ko‘rmagan, qiziqmagan mavzuda yozishga majbur qilmagan ma’qul.

Boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limida uyga insho yoki bayon yozishga berilsa, o‘sha kuni o‘quvchi boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha oshiqcha yuklamalardan halos etilishi kerak. Chunki insho va bayon yozish aqliy zo‘riqish va ancha vaqtni talab qiladi. Ta’limning yuqori bosqichlarida ham o‘quv fanlari muallimlari bir-birlari bilan doimiy aloqa bog‘lab turishlari, uy vazifalarini berishda bir-birlari bilan

kelishishlari oʻquvchining uyga berilgan topshiriqlarni tayyorlashdagi vaqtini nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, maktabda dars jadvallari ham shundoq tuzilishi kerakki, uy vazifalari bir kunda 3–4tadan oshmasligi maqsadga muvofiq keladi. Sinflar yuqorilab borgani sari uy vazifalarining soni oshmay mazmuni chuqurlashadi. Talab doirasi kengayadi. Bundan tashqari rasmlar, kuzatishlar asosida ham insholar yozdirish mumkin. Bunday uy vazifalari ham 30–35 daqiqali ishlar boʻlishi kerak.

Dunyo ta’lim tizimidagi barcha jihatlarni koʻr-koʻrona koʻchirish oʻrniga ular erishgan yutuqlarning oʻzbek oʻquvchisi milliy xususiyatlari, ruhiy oʻziga xosligiga mos keladigan tomonlarini oʻzlashtirish kerak. Aks holda, chet el pedagogikasidagi tashqi jihatlargina oʻzlashtirilib, qilingan harakatlar samarasiz ketadi. Tajriba almashishlar koʻrsatdiki, chet el ta’lim tizimida har qanday oʻquv fani boʻyicha esselar yozish etakchilik qiladi. Ma’lumki, esse – erkin fikrning, mustaqil tafakkurning mahsuli. U – ijod. Adabiyot darslarida insho yozish ham ijod. Ijodning har ikkala turi orasidagi tafovut uncha katta emas.

Adabiyot darslarida tanlangan insho mavzulari oʻqituvchi uchun eski, ammo oʻquvchilar uchun yangi. Oʻquvchilarga insholarning oʻylantiradigan, qiynaydigan yoki sevintiradigan tuygʻularga hamohang mavzularda boʻlishi yoqadi. Masalan, ma’lum shaxs haqidagi insho mavzulari: “Oʻrtogʻimning tavsifi”, “Mening doʻstim”, “Mening ilk muhabbatim”, “Mening akam”, “Men suygan suyukli”; oʻrganilgan asarlar yuzasidan: “Menga yoqqan sahifa”, “Hoshimjonga munosabatim”, “A.Oripov asarlaridan olgan taassurotlarim”, “Oʻ.Hoshimov ijodining qaysi tomonlarini qadrlayman va yaxshi koʻraman” va hk. mavzular istisnosiz ijodiy tafakkurni, tom ma’noda mustaqil fikrlashni talab qiladi.

Oʻquvchining erkin va mustaqil mulohazasiga asoslanadigan bunday uy insholari oʻquv yilining boshida, badiiy asar tahliliga bir oz oʻrganilgandan keyin, oʻquv yili oʻrtalarida va oxirida olish bolalarning mustaqil fikrlashini oʻstirishga xizmat qiladi. Oʻquvchilardagi fikr mustaqilligining oʻsishini nazorat qilishga imkon beradi.

NAVOIY IJODIYOTI VA BOLALAR KITOBXONLIGI

Safo Matchonov
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari doktori
safomatchon213@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada yosh avlod axloqiy-estetik kamolotida Alisher Navoiy ijodining chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lishni o'zlarining uzluksiz hayotiy ehtiyojiga aylantirishdagi o'rni xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: bolalar kitobxonligi, komillik odobi, ilm-ma'rifat, ma'naviyat, o'zlikni anglash.

Inson ma'naviy kamoloti barcha zamonlarda ham yuksak aql egalarining diqqat markazida bo'lgan. Shunisi xarakterliki, har bir davr unga o'z munosabatini bildiradi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Ibn Sinoning "Solomon va Absol", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Shayx Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Husayn Voiz Koshifiyning Husayn Boyqaroning o'g'li Abdulmuhsin Mirzoga bag'ishlab yozgan "Axloqi Muhsiniy", "G'utuvvatnomai Sultoniy" asarlari buning yorqin dalilidir. Mazmun-mohiyatiga ko'ra ularning har birini ijtimoiy odoblar qomusi deb baholash mumkin. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy o'z ijodiyotida komil inson tarbiyasi bilan bog'liq ta'limiy-axloqiy muammoni tiriklikning tub mohiyati sifatida talqin etishi bejiz emas. V.Zohidov o'rinli qayd qilganidek, "Navoiy ijodining, amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo'nalish nuqtasi har narsadan oldin inson taqdiri, baxt-saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir" [Зоҳидов, 1970: 152].

Alisher Navoiy dahosi hali bolaligidayoq Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari ziyosidan suv ichganligi butun umr hayot va ijod yo'lini ichdan nurlantirgan bo'lsa ne ajab.

Ta'kidlash kerakki, buyuk shoir umri poyonigacha izlanishdan cheklanmagan. Binobarin, "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida Abdurahmon Jomiyning ruxsati va rag'bati bilan "Arba'in" hadis (Qirq hadis) asarida ilgari surgan patdnoma xarakteridagi qarashlarini "Mahbub ul-qulub" asarida keng qo'llaydi. Navoiy

dahosini anglashda Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Xondamir, Bobur va boshqa zamondoshlarining unga bergan bahosi muhim kalit vazifasini o‘taydi. Jumladan, Abdurahmon Jomiy “Xiradnomai Iskandariy” dostonida Alisher Navoiy ijodini quyidagicha qiyoslar orqali shunday baholaydi:

Kechirsin foratda gavhar terganlar
Dariy tilida durb g‘azna berganlar.
Buning tili ham gar o‘lganda dariy,
Majolsiz qolardi ularning bari.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida “Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “Umidim uldur va xayolimga andoq kelurkim, so‘zum martabasi avjdan quyi inmagay” tarzida keltirgan e’tiroflari mutaqakkir shoir ijodining ahamiyati xususida teran mulohaza yuritishga chorlaydi.

Alisher Navoiyning butun umri davomidagi inson tabiati va ma’naviyatiga oid kuzatishlari, axloqiy-ta’limiy xulosalari “Xamsa”, “Nazm ul-javohir”, “Mah-bub ul-qulub”, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolis un-nafois”, “Arba’iyn”, “Tarixi anbiyo va hukamo” kabi asarlarida kitobxon ko‘z o‘ngidan qizil ip bo‘lib o‘tadi.

Buyuk shoir “Mahbub ul-qulub” asarida o‘z kuzatishlari xususida quyidagilarni yozadi: “Har ko‘cha-ko‘yda yuribman va olam ahlidin har xil kishilarga o‘zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonlikning aslini ham, zahrini ham ta’tib ko‘rdim. Goh pastkash va baxil kishilar qoshida xo‘rlandim va razil-nokaslar oldida e’tiborsiz bo‘ldimu. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, kaminaning bu tajribasi yoshlar uchun yetarlidir” [Алишер Навоий, 1967: 155].

Alisher Navoiyning ma’naviy-axloqiy qarashlarida insoniylik sha’nini belgilovchi xislatlardan biri insof va diyonat deb ko‘rsatadi. “Lison ut-tayr” asarida insofsiz kishini odam emas deb e’lon qiladi.

Odamg‘a yaxshi ko‘p avsof erur,
Lek alarning ashrofi insof erur.
Kimgakim insof yo‘q – inson emas,
Munsiz atvorida juz nuqson emas.

Husayn Voiz Koshifiyning axloq-odob yuzasidan keltirgan quyidagi ta’rif-tavsiflari ham Alisher Navoiy fikrlariga hamohangdir. “Go‘zal xulq-atvor, yaxshi xulq nishonasi o‘ntadir: yaxshilik qilish, insofli bo‘lish, boshqa odamdan ayb qidirmaslik, nojo‘ya harakat qilayotganni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, aybiga iqror bo‘lganning uzrini qabul qilish, boshqalar mashaqqatini zimmaga olish, faqat o‘z manfaatini ko‘zlamaslik, ochiq yuzli va shirin so‘zli bo‘lish, muhtojlar hojatini chiqarish, muloyim va tavoz’eli bo‘lish”.

Alisher Navoiy mazkur asarida kishilarni “munosib kishilar”, “nomunosib kishilar” tarzida ikki guruhga ajratar ekan, “nomunosib kishilar” dan ehtiyotkorlikka chaqiradi.

Professor S.Nishonovaning fikricha, “Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos bo‘lgan chin insoniy fazilatlar ijodkorlik, o‘zlikni anglashga kuchli ishtiyoq, ilm-fanga muhabbat kabi xislatlar bilan chambarchas bog‘liq. Chunki baxtli hayotga intilgan ijodkor, oqil, qobiliyatli har bir kishi o‘zining kuch-quvvati va aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning inson tafakkuri, ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni va roli xususida so‘z yuritar ekan, ilmni qorong‘ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadigan omil sifatida ta’riflaydi” [Нишонова, 2003, 195].

Ilm olib unga amal qilmagan kishini urug‘ sochib hosilidan bahra olmagan kishiga o‘xshatadi. Yomg‘irning bir tomchisi tuproqqa jon bahsh etgani kabi, insonga ham nasl-nasabi, boyligi emas, hayosi, ilmu odobi shon-sharaf keltirishini qayta-qayta ta’kidlaydi. O‘zining ta’limiy-axloqiy g‘oyalarini ilm bilan bog‘liqlikda deb tushungan shoir “Nazm ul-javohir” asarida shunday deb yozadi:

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar behishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo‘q ilm anga axmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo‘lsa uchmaq de oni.

Navoiy ilm olib unga amal qilmagan kishini yerga urug‘ sochib hosilidan bahra olmagan kishiga o‘xshatadi. Yomg‘irning bir tomchisi tuproqqa jon bahsh etgani kabi, insonga uning boyligi, nasl-nasabi emas, ilm-u odobi shon-sharaf keltirishi

xususida saboq beradi. Ilm o‘rganmoq boylik orttirish uchun emas, iymon-e’tiqodni mustahkamlashga qaratilishini ta’kidlaydi. Agar shogird vaqti kelib podshoh bo‘lsa-da, ustozi oldida qarzdordir degan xulosaga kelib yozadi:

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado aning haqin yuz ganj ila.

Buyuk shoirning fikricha, ilmli, oqil kishi har qanday mashaqqatni yengib o‘tadi, o‘z maqsadi yo‘lida to‘siqlardan cho‘chimaydi. Ilmning vazifasi insonning baxt-saodatiga xizmat qilishdir. Ammo ilm o‘rganmoq boylik orttirish uchun emas, iymon-e’tiqodni mustahkamlash uchundir. Bu borada ustozlikni dunyoda eng murakkab, ammo xayrli, sharafli kasb degan xulosaga keladi. Agar shogird vaqti kelib shoh bo‘lsa-da ustozi oldida qarzdordir.

Ilm ezgu amallar, jamiki fazilatlar manbayi sifatida har bir kishining insoniy burchiga aylanadi. Shu tufayli o‘zlikni anglash, komillik odobi egallash xalq baxt-saodati, farovon turmush kechirishi, vatan ravnaqi yo‘lida kamarbasta bo‘lishdek ezgu maqsadga qaratiladi.

Alisher Navoiyning ma’naviy-axloqiy qarashlarida ilm-ma’rifatli bo‘lish bilan birga sabr, tavoze, adab, saxiylik, himmat, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, mehr-muruvvat, vafo, karam, yumshoq ko‘ngillik bo‘lish kabi chin insoniy fazilatlar targ‘iboti ham alohida o‘rin tutadi. Mazkur xislatlarni ta’rif-tavsiflashdan tashqari munofiqlik, zulmkorlik, aldoqchilik, yolg‘onchilik, besabrlik kabi ularning ziddi bo‘lgan illatlardan qutulishga ham da’vat etadi. Shoir yozadi:

Uch fe’l kishiga erur qotil,
Qotillik aro zahri haloxil oxir.
Bu xil angla birin, birin havo bil oxir,
Qil ujbni ham alarga doxil oxir.

Shoir yoshlarni yuksak axloq-odoblar ruhida tarbiyalash xususida so‘z yuritar ekan, quyidagilarni qayd etadi: “Adab kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo‘ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘nglida adabiy qoladi. Ko‘rinadiki, Navoiy ta’rifida odob jamiki insoniy fazilatlar boshida turadi. Buyuk shoir nazdida

qanoat baayni buloqdir. Uning suvini olgan bilan qurimaydi; baayni xazinadir – naqdisini sochgan bilan kamaymaydi; ekinzordir – urug‘i izzat va shavkat mevasini beradi; daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi. Sabr – achchiqdir, ammo foyda berguvchi; qattiqdir, ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kaliti va bandlar ochqichidir. Saxiylik – insoniylikning haqiqiy mezonidir, odamlarning mushkulini oson qiladi. Yaxshilik, karam bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko‘tarmoq va uni o‘ta qiyinchiliklardan qutqarmoqdir. Kimki bu xislatlarni egallasa, cheksiz izzat va hurmatga sazovor bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, buyuk bobomiz Alisher Navoiy o‘z ijodiyoti bilan asrlar osha komil inson tarbiyasiga beminnat xizmat qilib kelmoqda. “Eng katta boylik, – degan edi O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga Murojaatnomasida, – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”. Bu borada Alisher Navoiy asarlari bebaho xazinadir.

Keltirilgan fikr-mulohazalardan savollar tug‘iladi: Jahon e’tirof etgan buyuk bobomiz ijodini qay darajada o‘rganyapmiz? Nima uchun o‘rganish kerak? Nega o‘rgana olmayapmiz? O‘zbekiston xalq shoiri E. Vohidovning quyidagi misralari mazkur savollarga to‘g‘ri javob topishga undaydi:

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Dod demoqqa palla bo‘lgani shudir.
Ma’rifatdan ayr-u o‘ynasa, kulsa,
Aza chog‘i yalla bo‘lgani shudir.

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Aldangani, alla bo‘lgani shudir.
Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilgich xor bo‘lsa,
Paytavaning salla bo‘lgani shudir.

Xulosa qilganda, Alisher Navoiy asarlarini bolalar kitobxonligi doirasida o‘qish-o‘rganish o‘zining yuksak badiiy-estetik, ma’rifiy, tarbiyaviy xususiyatlariga ko‘ra bolalar adabiyotiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990.
2. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol. 2003.
3. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т.: Ўзбекистон, 1970.

BADIIY ASAR MAZMUNINI TINGLAB IDROK ETISH

Niyozmetova Roza Xasanovna
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori
mushtariy63@mail.ru

Fozilova Mohigul Farxodovna
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
3-bosqich mustaqil tadqiqotchisi
fozilova1204@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada adabiyot darslarida badiiy asar mazmunini tinglab tushunishga o‘rgatish yuzasidan olib boriladigan ishlar, asarni tinglab idrok etish xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, tinglab tushunish, o‘qituvchining o‘qishi, texnika vositasi, idrok xususiyatlari, lingvodidaktika, lingvopoetika.

Annotation

The article discusses the work done in literature classes to teach listening and understanding of the content of the work of art and the discussion of the features of listening comprehension of the work.

Key words: work of art, listening comprehension, teacher's reading, technique, cognitive features, lingvodidactics, lingvopoetics.

Adabiyot darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalar ustida ayrim-ayrim ishlash ularga farqli yondashuvni ifoda etadi. Badiiy asarni tinglab tushunishning o‘z lingvodidaktik va metodik asoslari bo‘lganidek, o‘qishning ham o‘ziga xos shunday asoslari bor. Lingvodidaktik asoslar asosan ma’lum darajada asar tilini, uslubini, undagi so‘z va so‘z shakllarini, grammatik vositalarni, lingvopoetikasini o‘rganish bilan bog‘lanadi.

2017-yili adabiyot fani bo‘yicha tasdiqlangan «Malaka talablari»ga ko‘ra mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi bugungi kun adabiyot o‘qitish metodikasi o‘quvchilarda ikki xil kompetensiyani shakllantirishga qaratilmog‘i lozim: 1) *adabiy-nutqiy kompetensiyalar, 2) badiiy asarni tahlil qilish*

kompetensiyasi [1]. «Malaka talablari»da *adabiy-nutqiy kompetensiyalar* deyilganda qavs ichida nutqiy faoliyat turlari (*tinglab tushunish, ogʻzaki fikr bayon qilish, oʻqish, yozma fikr bayon qilish*) sanalgan. ...nutqni tinglab tushunish alohida faoliyat turi sifatida oʻqituvchining e'tiborida boʻlmagan.

2020-yili loyiha sifatida e'lon qilingan "Umumiy oʻrta ta'limning milliy oʻquv dasturi"da "audiomatnni tinglab, videotasvir va rasmlarni koʻrib tushunadi, oʻz munosabatini ogʻzaki hamda yozma shakllarda ifodalab beradi [2].

Badiiy asarni tinglab tushunish konsepsiyasini shakllantirish DTS talablaridan biridir. Asarning mazmunini tushunish undan ta'sirlanish, tahlil qilish jarayonlarining debochasidir. Buning uchun birinchi navbatda yetarli soʻz boyligiga ega boʻlish kerak. Odatda, yozuvchi tesha tegmagan soʻzlarni ishlatish harakatida boʻladi. Bunday soʻzlar asarni ta'sirchan qiladi, yozuvchining soʻz ishlatish mahoratidan dalolat beradi. "Matn lingvistikasi" qoʻllanmasida olimlar hisoblab chiqqan quyidagi raqamlar keltiriladi: *"Pushkin oʻz asarlarida 21 ming 197 ta betakror soʻz ishlatgan. Shekspir salkam 20 mingta, Servantes 18 mingga yaqin, Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta soʻz, shu jumladan 26 mingta betakror soʻz ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, moʻgʻul va boshqa tillardagi soʻzlardan ham mahorat bilan foydalangan"[3]*.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy ishlatgan soʻzlar, oʻz davriga nisbatan aytganda, turkiydangina iborat boʻlmay, fors-tojik, arab va boshqa tillardan oʻtgan soʻzlardir. Bugungi kunda prozaik asarlar, asosan, oʻzbek tiliga xos. Shu bilan birga goh-gohida boshqa tillardan kirganlari ham uchrab turadi. Aytmoqchimizki, zamonaviy prozaik asarlar oʻquvchilarga yaqinroq.

Ilgari adabiyot darslarida oʻqituvchilar, odatda, badiiy asarni tinglab tushunishga oʻrgatish kerakligi haqida oʻylamaganlar. Ushbu ish turi haqida oʻylash DTS talablaridan xabardor boʻlib, ularni bajarish zaruriyati bilan amalga oshirila boshlaydi. Ilgʻor, tajribali oʻqituvchilar ish tajribasida asarni tinglab tushunishga oʻrgatish yuzasidan dastlabki tajribalar toʻplanmoqda.

Epik (nasriy) asarlar mazmunini hissiy-estetik idrok etib, yozuvchi kutganidek tushunish uchun ularning barcha unsurlarini to‘g‘ri anglash talab etiladi. Yozuvchi o‘z bayonida fikrlarni to‘g‘ri qabul qilish imkonini beradigan timsollar yaratishga harakat qiladi. Bunda shunga yordam beradigan til hodisalaridan o‘rinli foydalanadi. Asarning syujetini idrok etib borish uchun zamon va makon bog‘lanishlaridan foydalanadi. Bunda ham til vositalariga e’tibor beradi.

Badiiy asar notiqlar tomonidan o‘qilganda, uning jozibasi boricha idrok etiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, keksalarning aytishlaricha, ilgarilari yoshlar, hatto katta yoshdagilar ham radio eshittirishlari orqali taraladigan bir-ikki soatlik radiopostanovkalarni maroq bilan, radiodan uzoqlashmay, oxirigacha tinglagan ekanlar. Bugungi kunda teleeshittirishlarida va ko‘rsatuvlarida mashhur artistlarning notiqona o‘qishlari bo‘lib turadi.

Odatda, adabiyot darsida o‘qituvchi o‘rganiladigan asarni e’lon qilgandan keyin uni o‘zi o‘qiy boshlaydi yoki texnika vositasidan foydalanib uning dastlabki qismini eshittiradi. Shundan keyin asarni o‘quvchilar navbat bilan o‘qiydilar. Lekin ayrim ilg‘or ish tajribali o‘qituvchitlar asarni eshittirishdan avval undagi ayrim notanish so‘zlarni tushuntirish shaklidagi tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradilar. Asarni o‘qib berishdan oldin esa o‘quvchilar oldiga vazifalar qo‘yadilar.

Badiiy asarni avval o‘qituvchi o‘qib bergandan yoki videotasvir orqali eshittirilgandan keyin o‘quvchilarning o‘qishi tinglanadi. Lekin tinglab tushunish samarasi nazorat qilinmaydi. Bu ish asar o‘qib bo‘lingandan so‘ng o‘qib tushunganlik darajasini aniqlash maqsadi bilan qilinadi.

Muayyan tayyorgarlik bilan tashkil etiladigan badiiy asarni tinglab tushunish jarayoni murakkab jarayon sanaladi. Dastlab ana shu jarayon nimalardan iborat bo‘lishini aniqlab olaylik. Birinchi navbatda o‘quvchilarning asarni tinglab idrok etish xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni to‘plash zaruriyati tug‘iladi.

Badiiy asarni idrok etishga doir ruhshunoslik ma’lumotlari, metodika ilmida to‘plangan ilg‘or ish tajribalariga ko‘ra bu ishlar uch bosqichda tashkil etiladi: 1)

dastlabki sintez; 2) tahlil; 3) ikkilamchi sintez [4]. Badiiy asarni tinglab tushunish jarayonini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

– 5-sinf o‘quvchilarining kechagi boshlang‘ich (4-) sinf o‘quvchilari ekanligini hisobga olish tamoyili;

– ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, bunda tinglash paytida tug‘ilishi mumkin bo‘lgan jiddiy leksik va grammatik qiyinchiliklarni hisobga olish;

– nutqni tinglashga tayyorgarlik, bevosita tinglash, asarni tahlil qilish jarayoniga tizimli yondashuvni joriy etish tamoyili;

– orfoepik me’yorga asoslangan nutqni tinglashga ongli yondashuv;

– ta’lim maqsadini aniqlab olish tamoyili;

– tinglashdan ko‘zlangan natijalarni oldindan tashxislash tamoyili;

– badiiy asarni tinglash va shu asosda tahlil qilish natijalarini ob’ektiv baholash tamoyili.

Tinglash jarayonida asarda tasvirlangan real voqelikni, odamlarning xatti-harakatlarini, voqea-hodisalar sodir bo‘layotgan makon va zamonni, asar qahramonlarining qiyofasini tasavvurida jonlantirish harakatlari amalga oshadi.

Asar mazmunini tushunishga monelik ko‘rsatadigan ayrim holatlar hisobga olinishi kerak. Chunonchi, gaplarning tuzilish xususiyatlari o‘quvchilarni ularni fikran tahlil qilishga, anglash yo‘lida kuch sarflashga undaydi. Zero, bunday gaplar tez o‘qilmasligi lozim. Masalan, ana shunday gaplardan birini olaylik: “Roziyning o‘ziga xos tibbiy maktabida tarbiyalangan va keyinchalik mashhur bo‘lib ketgan Abul-Qosim Muqonni’iy va Abu Bakr Rabi’ ibn Ahmad al-Axavayniy al-Buxoriy degan shogirdlari bo‘lib, keyingisi bizgacha yetib kelgan asari bilan Sharq tabobati tarixida o‘chmas iz qoldirgan” (X.Hikmatullayevdan) gapini o‘quvchi quyidagi soddaroq gaplarga ajratgan holda butun gap mazmuniga qarab boradi: Roziyning o‘ziga xos tibbiy maktabi bo‘lgan. Abul-Qosim Muqonni’iy va Abu Bakr Rabi’ ibn Ahmad al-Axavayniy al-Buxoriy degan shogirdlari bo‘lgan. Roziyning tibbiy maktabida tarbiyalangan. Abul-Qosim Muqonni’iy va Abu Bakr Rabi’ ibn Ahmad al-Axavayniy al-Buxoriy keyinchalik mashhur bo‘lib ketgan. Keyingisining asari

bizgacha yetib kelgan. Keyingisi bizgacha yetib kelgan asari bilan Sharq tabobati tarixida oʻchmas iz qoldirgan.

Oʻquvchi asarni eshitib idrok etar ekan, tushunish gapma-gap boradi, lekin gaplar aynan esda saqlab qolinmaydi, oʻrin-joy tasvirlari, fikrlar, timsollar xotirada gavdalana boshlaydi, shular oʻzlashadi. Bundan tashqari, tinglovchi oʻzgalar nutqini tinglab tushunish jarayonida ularning muddaosini, yaʼni ushbu fikrlar nima uchun aytilayotganini anglashga alohida eʼtibor beradi, busiz fikrlarini tushunish toʻliq boʻlmagan tushunish hisoblanadi [5].

Noaniq soʻz anglash harakatini amalga oshirish uchun xalaqit berishi mumkin: tinglovchini shu soʻz maʼnosini tushunish uchun butun kuchini sarflashga undaydi. Masalan, «Fanorchi ota» hikoyasining birinchi gapidayoq shunday vaziyat yuzaga keladi: «oʻksiz oqshom» birikmasi asosida oqshomning qanday boʻlishini tasavvur qilish, shu haqda oʻylashga majbur qiladi. Bu esa asarning davomini tinglash va tushunishga salbiy taʼsir koʻrsatadi: bayon mazmuniga eʼtibor yetarli boʻlmay qoʻyadi.

Ruhshunos va metodist olimlarning nutqni tinglab tushunish jarayonining kechishi haqida bergan maʼlumotlarni quyidagi tarzda sanab koʻrsatish mumkin:

1) asardagi notanish soʻz idrok jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatadi: oʻquvchilarning xayoli shu soʻzda boʻladi;

2) gapga sifatdoshli, ravishdoshli, harakat nomili birikmalar tarzida gaplarning qoʻshilishi nutqni tinglab tushunishni nihoyatda qiyinlashtirib qoʻyadi;

3) bunda gapning uzunligi va chuqurligiga sabab boʻlgan qismlarni “tashlab yuborish” yuz beradi;

4) mazmuni tushunilgan gaplar yodda saqlab qolinmaydi, balki unutish mexnazmi ishga tushadi: tasvirlar, xatti-harakatlar, fikrlar, gʻoyalar yodda qoladi;

5) gaplarni ichda takrorlash barobarida shu gaplar aytila boshlagan chogʻdanoq ularning shakllanish variantlari bashorat qilinadi; bu hol tinglovchini toliqtiradi;

6) nutqni eshitib idrok etayotgan oʻquvchi ogʻzaki nutqning uslubi ayrim til hodisalari hisobiga kitobiy nutq uslubidan farqlanayotganiga eʼtibor beradi;

7) nutqni tinglash jarayonida o‘quvchilarda til hodisalariga nisbatan nofaol so‘z boyligi to‘planadi.

Nazoratda bir qator usullardan foydalaniladi. Chunonchi: «Fanorchi ota» hikoyasi tinglangach, o‘quvchilar avval uning asosiy mazmunini – syujetini gapirib beradilar, so‘ng quyidagi kabi savollarga javob qaytaradilar: Nima uchun fanor o‘rnatilgan joy ayanchli tasvirlangan? Fanorchi ota fanorni yoqish uchun kelgandagi charchog‘i qay tarzda tasvirlangan? Fanor nima uchun kerak edi? Fanorlar bugungi kunda nimalar bilan almashtirilgan?

Umuman, darslikdagi barcha badiiy asarlar tinglab tushunish uchun qo‘l kelavermaydi. Shuning uchun ularni tanlash, ajratish, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga nisbatlash darkor. Tinglashdan so‘ng tahlil bosqichi qiyin kecha boshlagan paytda savol va topshiriq qamrab oladigan parchani qayta o‘qib eshittirish, texnika vositasi bo‘lsa, uni qayta tinglatish yo‘lidan borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili, adabiyot (5-9-sinf). O‘zbek tili – Toshkent, 2017. – 18-22-b
2. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi/ Adabiyot Loyiha, T.: RTM, 2020 –7-b.
3. Muhammedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. –Toshkent, 2011. –74-b
4. Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Р. Львов, В. Г. Горецкий, О. В. Сосновская. 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2007.– С. 115.
5. Yo‘ldoshev R.A. Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi: Monografiya. – Toshkent: «Fan va texnologiyalar Markazi», 2015. – 149-б.

IQTIDORLI O‘QUVCHI BILAN ISHLASH HAQIDA MULOHAZALAR

Ahmedov Hoshim Hakimovich
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi
kafedrasi dotsenti v.b, filologiya fanlari nomzodi
Ahmedov.hoshim60@.gmail.com

Annotasiya

Mazkur maqolada ta’lim va tarbiya jarayonining muhim bir jihati – iqtidorli o‘quvchi bilan ishlash haqida fikrlar bildiriladi. Pedagogning bu xususda amalga oshirishi mumkin bo‘lgan adabiy-metodik yondashuv shakllari, usullari haqida mulohazalar bildiriladi, tavsiyalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: adabiy ta’lim, iste’dodli o‘quvchi, metodik tavsiyalar.

Annotation

This article discusses an important aspect of the teaching and learning process - working with gifted students. Comments are made on the forms and methods of the literary-methodical approach that the educator can implement in this regard, and recommendations are given.

Keywords: literary education, gifted student, methodical recommendations.

Adabiyot qadimdan inson qalbi sirlarini ochuvchi sohir san’at turi hisoblanib kelingan. So‘z san’ati sifatida badiiy adabiyot kishining ruhiy-ma’naviy dunyosini doimo boyitib keladi. Odamlar ijodiy-badiiy so‘zning sehrli kuchiga juda qadimdan ishonib kelishgan. Hazrat Navoiy aytadilarki: “Nazmlarning ifodasi nihoyatda qutlug‘, g‘oyat yoqimli va ulug‘dir. Istagan odam bularning she’rlaridan so‘z mo‘jizalarini topa oladi”. [1. Navoiy, “Mahbubul-qulub”, 26-bet]. Yana tanbeh sifatida aytadilarki: “Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik – zulmkorlikdir va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Unisini tarbiyangni ayab, nobud qilma, bunisiga tarbiyatingni zoye qilma” – deya qayd etadilar. (84-bet)

Barchamizga ma’lumki, adabiyot darslari jarayonlarida juda ko‘p fikrlar tug‘iladi. Ba’zan ijodkorona bildirilgan fikr-mulohazalarga duch kelamiz. Bu degani – darslarda o‘quvchilar jamoasi ichida ijodiy-yangi fikrlar paydo bo‘lishi mumkin degani. Aslida ijodkor o‘qituvchi har bir darsda yangicha fikrlar paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Ta’lim va tarbiya jarayonlarida qobiliyatli o‘quvchi bilan ishlash – dolzarb muammolardan biri aslida. Chunki iqtidorli o‘quvchi barcha tartib-qoidalarga bo‘ysunuvchi bo‘lmasligi ham mumkin. Uning o‘ziga xos ruhiyati, fikrlash tarzi bo‘ladi. Mashhur olim Jon Dyi ta’limda bolaga maksimal darajada imkoniyat yaratish tarafdori bo‘lgan. [2. Dyui.]. Pedagogikada ma’lum va mashhur Yan Amos Komenskiy esa “Tarbiyaning mohiyati – bolaning ko‘nglini tasavvurlar bilan boyitishdan iborat deb hisoblab, bolaga fazilatli xulq g‘oyalarini singdirish kerak” deb hisoblaydi [3. “Buyuk didaktika”, 34-bet]. Bolaning ijodkorligi rivojlantirilsa bunday o‘quvchidan kelajakda buyuk insonlar chiqishi haqida ma’lumotlar ko‘p. Birgina rus shoiri A. S. Pushkinning mashhur Sarskoye Selodagi maktabini eslash kifoya.[4.]. Iqtidorlar bilan ishlash darsda ham, undan tashqarida ham davom etishi kerak. Bunda individual ish uslubi, shaxsiy namuna ko‘rsatish

kabi metodik usullar bilan birga adabiy to‘garaklar ham katta rol o‘ynashi mumkin. Chunki badiiy ijod to‘garaklari o‘quvchi qobiliyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadigan mashg‘ulotlardan iborat bo‘ladi. Aynan ana shu ijodkorlikni rivojlantirish esa – badiiy ijod to‘garaklarida o‘zgacha – o‘ziga xos tarzda uyushtirilishi kerak. Ta’lim jarayonlarida iqtidorli o‘quvchini aniqlash hamda unga vaqtida e‘tibor qaratish zarurligini ko‘p mutaxasisslar ta’kidlashadi [5.To‘xliyev B. 3-b, 2, 24-b, 3, 34-b].

Badiiy ijod sirlarini o‘rganishga bag‘ishlanadigan to‘garaklarda bir qancha ijodiy konsepsiyalarni ilgari surish mumkin. Maqsad – iqtidorni yuzaga chiqarishga ko‘maklashish. Bizning nazarimizda badiiy ijod to‘garaklari ishini quyidagi tartibda tashkil etgan ma’qul:

1. She’r bahsi.
2. Maqol sharhi.
3. Qofiya mashqi.
4. Iboraning ma’nosi.
5. Qatrada quyosh aksi.
6. Matn tahlillari.
7. Insho va maqola yozish malakasi.

O‘quvchilarga mshg‘ulotlarda badiiy ijod sir-sinoatlari, ijodiy jarayon xususiyatlari, ijodkor va zamon, ilhom va ijod onlari psixologiyasi, mavzu, motiv, hayotiy va badiiy mantiq samarasi hamda ijodkorning individual o‘ziga xosligi, alohida shaxsiyati kabi masalalar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar berish ham muhim. Har bir darsda o‘quvchilar ham nazariy, ham amaliy mashg‘ulotlarda qatnashadilar. Dars-mashg‘ulotlar har doim o‘quvchi iqtidorini rivojlantirishga qaratiladi. Bunda asosiy e’tibor o‘zbek va dunyo adabiyotidagi, adabiy jarayondagi eng ilg‘or hamda ta’sirchan adabiy materiallar muhokama qilinadi. Darslar *“Muloqot*”, “*Bahs-munozara”,* “*Savol-javob*”, “*Muammoli vaziyat*”, “*O‘quvchi taqdimoti”* kabi rang-barang usullarda olib borilishi mumkin. Shuningdek yozma ishlarda mustaqil ijodiy fikrlashga urg‘u beriladi. Erkin ijodiy insholar bola

fantaziyasiga koʻproq yoʻl ochadi. Ayniqsa “Taassurot-insho”, “Munosabat-insho” kabilarga koʻproq e’tibor qaratish lozim. Bunda ham oʻquvchining mustaqil fikrlariga urgʻu berish kerak. Toʻgarakda oʻtkaziladigan adabiy-ma’rifiy tadbirlar boʻlgʻusi iqtidorni aniqlash hamda yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Mashgʻulotlarda dastlab she’r tanlash, ifodali oʻqish, matn tahlili, ayrim soʻzlar imlosi hamda ma’nolari, badiiy soʻzning vazifasi, qofiyalar haqida ma’lumot kabilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ayniqsa she’rnig yozilish sabablari, shoirni toʻlqinlantirgan jihatlar haqida mulohazalar oʻquvchida jiddiy qiziqish uygʻotadi. Misol tariqasida Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’rining yaratilish tarixi, [6], Oʻtkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanining qanday yaratilgani haqida xotiralarni keltirish mumkin. [7].

Oʻzbek xalq maqollari hamisha qiziqish uygʻotib kelgan. Ularning orasidan chuqurroq mulohaza talab qiladiganlariga alohida toʻxtalmoq joyiz. Shuningdek, “Qofiya mashqi” mashgʻuloti ham bola uchun qiziq tuyulishi mumkin. Sultonmurod Olim hatto “Qofiyalar kitobi”dan foydalanishni tavsiya etadilar. [8]. Dastlab qofiya ilmi haqida mufassalroq ma’lumot beriladi.[9]. Soʻng misollar bilan tanishtiriladi. Soʻngra qofiyaning ahamiyati aniqlashtiriladi. Ish ohirida “Qofiya oʻyini” tashkil etish mumkin. Masalan, “Non” soʻziga qofiya toping” tarzida topshiriq berilsa, bola topagʻonlikka qiziqtirilsa, natijasi boʻladi, albatta.

Nutqda tayyor holda ishlatiladigan iboralar badiiylikning ajoyib namunasi. [10]. Bularning ma’nolarini muhokama qilish hamda kichik qatralar yozib koʻrishga taklif etish ham yaxshi samara beradi. Qatralar esa kichik ijod namunasi. Birgina kichik oʻxshatish bilan ham oʻquvchi badiiy ijodning sehrli olamini his qilishi mumkin. Ustoz-murabbiy imkon qadar bolaning xayolot mahsulini imkon qadar ragʻbatlantirib borishi juda muhim. Pushkinnning mashhur “Uchqundan alangaga” degan iborasini juda keng ma’nosi bor. [11].

Mashhur pedagoglardan biri – Suxomlinskiy “bolaning ozgina, kichkinagina yutugʻini ham olqishlang, uning qobiliyatini shu tariqa oʻsib borishiga imkoniyat yaratgan boʻlasiz” – deydi [12.]. Ustozning oʻzi ham ijodkor boʻlishi ham muhim

omillardan biri. Chunki o‘zi ijodkor bo‘lgan o‘qituvchining shogirdlaridan kelajakda katta ijodkorlar chiqishi ham ma’lum omillardan. “Ustoz G‘ayratiy hech qachon hech birimizga “Sen” deb murojaat qilmagan. U bolalaigimizdan bizni o‘zaro hurmatga, bir-birovni qadrlashga o‘rgatdi. “Shoir qavmi, – der edi u, – bir-biriga o‘xshamagan bo‘ladi. Iste’dod egasida mavjud bo‘lgan aql, farosat unga doim bir narsani uqdirib turadi: adabiyotga bir xilda fikrlaydigan adiblar kerak emas. Shoirlar o‘zlarining har xilligi bilan qadrli” [13].

Xullas, bizning nazarimizda qobiliyatli o‘quvchi bilan ishlash – o‘qituvchining belgilangan kun tartibidan ham alohida e’tiborni talab qiladigan ta’lim-tarbiya jarayoni. Bunda ustoz-murabbiy iqtidorlarni kashf qilish yo‘lida hozirjavoblik bilan yangi metodik yondashuvlarni ixtiro qilib borishi ham muhim jihat. Yana unutmaslik kerakki, to‘garak ishi – yangi-yangi ijodiy fikrlar tug‘iladigan ajoyib imkoniyatlar maskanidir. Bo‘lg‘usi shoir va yozuvchilarning tarbiya o‘chog‘i shubhasiz – to‘garaklar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий А. “Маҳбубул-қулуб”. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. – 112 б.
2. Школа и ребёнок / 2-е изд. – М.: – Пг., 1923. – С. 238.
3. Коменский Я.А. https://rutracker.org/forum/viewtopic.php?t=4805832 .
4. Дергачев В. Царское Село. Лицей. Пушкин. Юность и становление поэта. https://dergachev-va.livejournal.com/262563.html
5. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 152 б.
6. Абдулла Орипов. Адабиётдан сабоқлар. / “Ёшлик” журнали. 1992, 7-8 сонлари. 16-28-б.
7. Расулов А. Ардоқли адиб. (Ўткир Ҳошимов ҳаёти ва ижодига чизгилар). –Т.: “Шарқ”. 2001. – 128 б.
8. Султонмурод Олим. Қофия луғати. Самарқанд. Морозов босмахонаси. 1969. – 238 б.
9. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998. – 160 б.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. Қомуслар Бош таҳририяти. Т.1992. – 378 б.
11. *Благой Д. Д.* Творческий путь Пушкина (1826–1830). – М.: Советский писатель, 1978. – 723 с.
12. Сухомлинский В. Сто советов к учителью. Ижевск. 1981. – 236 с.
13. Эркин Воҳидов. “Шоиру шеъру шуур”. “Ёш гвардия” нашриёти. – Т.: 1987. – 224 б.

TALABALAR KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

Saodat Kambarova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU dots.v.b., PhD
saodat7373@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada adabiy ta’lim jarayonida laboratoriya mashg‘ulotlari tashkil etish, topshiriqlarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun o‘qituvchi tomonidan faoliyat maqsadi va mazmuni batafsil tushuntirilishi; ishni bajarish algoritmi namuna asosida ko‘rsatib berilishi; talabalar tomonidan amalga oshirilishi zarur hisoblangan o‘quv harakatlari ketma-ketligini belgilash masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: laboratoriya, o‘quv dasturi, multimedia, taqdimot, kompyuter dasturlari.

Abstract

The article should include a detailed explanation of the purpose and content of the activity by the teacher for the successful completion of assignments, the organization of laboratory classes in the process of literary education; demonstration of the algorithm of work on the basis of the sample; the issues of determining the sequence of learning activities that students need to perform.

Key words: laboratory, curriculum, multimedia, presentation, computer programs.

Laboratoriya pedagogik jarayonning tashkil etuvchi mashg‘ulotlaridan biri hisoblanib, uning asosiy maqsadi bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-pedagogik kompetentlilikni rivojlantirishdan iborat. Bu esa ta’limiy-kasbiy muhitni tashkil etish vositalari asosida amalga oshirilib, unda ta’lim jarayonini tashkil etuvchilar va ta’lim muhiti muhim o‘rin egallaydi. O‘qitish jarayoniga faoliyatli nuqtayi nazardan yondashishni talab etadigan bunday xarakterdagi mashg‘ulotlar jamiyat va hayot haqida talabalarda kengroq tasavvurlarni shakllantirish, amaliy yo‘nalganlik, fanlar integratsiyasiga asoslanishni ham taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan olganda, O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda kasbiy mazmundagi masalalarni yechishga e’tibor qaratish talabalarni ilmiy mushohada yuritishga o‘rgatadi, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivolantiradi. Ularni o‘quv fani mazmuniga chuqurroq nazar solish, jamiyat hayotini kuzatish, o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish, tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisa va jarayonlarning mohiyatini anglagan holda ish ko‘rishga undaydi.

Bu esa, o‘z navbatida, fanga bo‘lgan jiddiy munosabatining ortishiga, bilim darajasining chuqurlashuvi va dunyoqarashining kengayishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘lajak adabiyot o‘qituvchisining aniq ifodalangan kasbiy bilish faolligi bo‘yicha o‘zlashtirilgan ijtimoiy tajribani ijodiy faoliyatda va izlanish jarayonida namoyon etishini ham ko‘zda tutadi. Kelgusi pedagogik faoliyatida ko‘p duch keladigan nostandart vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish va tahlil qilishga imkon beruvchi mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. O‘zining pedagogik imijini yaratish va mustahkamlashiga imkon beruvchi ichki ehtiyohlari va imkoniyatlarini safarbar etishga yo‘naltiradi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligi adabiyotshunoslik, tilshunoslik yoki ijtimoiy-gumanitar turkumdagi fanlarga oid bilimlarni integratsiyalash orqali talabalarda tanlagan kasbiga nisbatan mas’uliyat hissini oshirish, bilimlarini faollashtirish, jarayonda ko‘rsatmalilikni ta’minlashga xizmat qiladi. Faoliyatining asosini tashkil etuvchi mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rganishga yordamlashadi, kasbiy mazmundagi o‘quv materiallarini yaratish bo‘yicha malaka hosil qiladi. Ichki ma’naviy ehtiyoji, pedagogik faoliyatiga motivatsiya beradi, eng muhimi, kelgusidagi faoliyatini yo‘lga qo‘yishga doir metod, usul, shakl va vositalaridan oqilona foydalanishing optimal yo‘llarini belgilashga xizmat qiladi. Quyida laboratoriya mashg‘ulotlarida 6-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturida rejalashtirilgan X.To‘xtaboyev ijodini o‘rganish mavzusiga oid videodars tayyorlash mazmuni yoritiladi.

Ishning maqsadi: talabalarni 6-sinfda X.To‘xtaboyev ijodini o‘rganish mavzusiga oid videodars tayyorlash texnologiyasi bilan tanishtirish va amalda videodars tayyorlashga o‘rgatish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning 6-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturi.

2. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablrining 6-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. – 208-216-b.

3. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 236 b.

4. Tosheva O. Taqdimot materaillaridan foydalanish usullari // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2012. – № 12. – B.11-13.

Kerakli jihozlar: axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ZOOM yoki “Power Point” dasturlari, “Sariq devni minib” asariga ishlangan “Sehrli qalpoqcha” filmidan kadrlar.

Ishni bajarish tartibi:

1) yozuvchi hayoti va ijodini chuqur o‘rganish;

2) 6-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturi va darsligi bilan tanishish, unda X.To‘xtaboyev ijodi, xususan, “Sariq devni minib” asaridan berilgan parchalarni o‘rganishda e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlarni belgilash, shu asosda dars rejasini tuzish. Masalan, “X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib” romani. (4 soat, A2+: 6 soat). X.To‘xtaboyevning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Roman qahramoni – Hoshimjon sarguzashtlarining obraz tabiati bilan uyg‘unligi. Hoshimjondagi yalqovlik va intizomsizlik qusurlarining qahramon taqdirini nojoiz yo‘llarga solib yuborganligi va bu holning ta’sirchan ifodalanishi. Roman qahramoni tabiatidagi quvnoqlik, topqirlik, hozirjavoblik, qo‘nimsizlik singari xislatlarning asar voqealari rivojidagi o‘rni. Qalpoqcha yordamida “ulg‘aygan” va turli ixtisoslikni “egallagan” Hoshimjonning har safar chuv tushishi sabablari, qahramon tabiatining yoqimli va noxush jihatlari hamda ular o‘rtasidagi aloqadorlik. Asar tilining o‘ziga xosligi” [Umumiy o‘rta ta’limning 6-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturi, 2017: 37-38].

3) yozuvchi ijodini o‘rganishga doir dars ishlanmasi tuzish, “Power Point” dasturi asosida taqdimotlar tayyorlash (1-ilova), taqdimotlar ichiga filmdan kadrlar yoki radiopostanovkalardan qisqartirib olib yuklash;

4) asar asosida suratga olingan filmlar, “Online dars” teledasturlarini kuzatish;

5) rejalashtirilgan dars loyihasi asosida axborot texnologiyalari, xususan, ZOOM dasturi, Telegram kanali (videochat) yoki “Power Point” dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib videodars tayyorlash.

6) videodars tayyorlash mazmuni bilan tanishish (2-ilova).

7) ZOOM dasturidan foydalanishda kompyuterga dasturni oʻrnatish, dars rejasi asosida oʻquvchilarga yetkazilishi zarur ma’lumotlarni muayyan tartib bilan bayon etish. Videodars tayyorlash uchun “Power Point” dastiridan foydalanishning qulayliklarini oʻzlashtirish. Buning uchun nazariy materiallarni tayyorlab olish, slayd-shou parametri imkoniyatlaridan foydalanish.

1-ilova

Dastlab taqdimot materiallarini tayyorlashga qanday talablar qoʻyilishi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda kompyuterning Microsoft Power Point amaliy dasturi imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin. Bu dastur koʻrgazmali va grafik xarakterdaligi bilan ma’lumotlarni vizual yetkazish vositasi sanaladi. Ms Power Point dasturi matn, tasvir, chizma, grafik va animatsiya effektlari, ovoz va videolavhalardan iborat slaydlarni yaratishga moʻljallangan.

Slayd bu muayyan oʻlchamdagi muloqot sahifasidir. Matn vazifasini oʻtovchi slaydlar jarayonni yoritishga xizmat qiluvchi chizma, grafik, fotosurat, animatsion effektlar yoki videotasvirlarni oʻz ichiga oladi. Slaydlardagi matnlar iloji boricha qisqa, aniq va loʻnda boʻlishi maqsadga muvofiq. Matn imkon qadar kamroq joyni egallashi, ya’ni 6–7 qatordan oshmasligi ma’qul. Aks holda harflar kichrayib koʻrishni murakkablashtiradi. Matn harakatga kelishi, ularning almashishi, jihozlanishi uchun koʻplab shablonlar, turlicha (oddiy, oʻrtacha, murakkab) tuzilishdagi animatsiya effektlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Taqdimot tayyorlashda dastlab gʻoyalarni shakllantirib olish, ma’lumotlar toʻplash, rejalashtirish, dizayn, animatsiya tanlash va koʻrib chiqish amallari bajariladi.

Gʻoyalarni shakllantirish bosqichida materialning qaysi auditoriya uchun moʻljallangani, hajmi va koʻrinishi haqida aniq toʻ xtamga kelish zarur.

*Ma’lumotlar to‘plash*da mavzu yuzasidan tegishli materiallar aniqlanib, undagi zarur jihatlar tanlab olinadi. Xususan, biror ijodkorning tarjimayi holi, fotosuratlari, jadvallar, kitoblari, u haqda zamondoshlarining fikrlari, xaritalar, asarlari asosida suratga olingan filmlardan kadrlar kompyuter xotirasiga kiritiladi.

Rejalashtirish bosqichida to‘plangan ma’lumotlarni joylashtirish ketma-ketligi belgilanadi. Masalan, dastlab mavzu nomi, rejasi, ijodkor hayoti va faoliyatiga oid matn joylashitirlib, ular orasida rasmlar, audio yoki videomateriallarga o‘rin beriladi.

*Dizayn yarati*shda slaydlarning tuzilishi, asosining rangi, harflar shrifti va kattaligi kabi xususiyatlar e’tiborga olinadi.

Animatsiya ma’lumotlarning qiziqarliroq bo‘lishi, ta’lim oluvchilar diqqatini jalb etishini ta’minlaydi, matn va tasvirlarni harakatlantirish, unga ovoz berishiga ko‘ra tanlanadi.

Ko‘rib chiqish funksiyasi ekranning o‘ng tomoni pastki qismidagi kataklar ichidagi “Pokaz slaydov”, ya’ni slaydlarni ko‘rsatish so‘zi ustiga sichqonchaning chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagi amallarga tayanilib tayyorlangan tadqimot materialini kompyuter xotirasida saqlash, maxsus dasturlar orqali diskka ko‘chirish yoki fleshkalarga o‘tkazish orqali namoyish qilish mumkin.

2-ilova

Videodars tayyorlash uchun dastlab tegishli ma’lumotlarni kompyuter programmalariga mos holda tayyorlab olish maqsadga muvofiq. Bunda zarur moslama – videokarta bo‘lishi talab etiladi. Moslamaga videokamera yoki televizorlar ham ulanishi mimkin. Ko‘p hollarda videoelementlarni monitorda ifodalay bilishning o‘zi kifoya. Shuningdek, videoadapter va monitorning bo‘lishi ham yetarli hisoblanadi.

Videodars tayyorlash uchun smart qurilmalardan foydalaniladi. Smart qurilmalardan real muhitni anglash, ta’lim jarayonida qo‘llash uchun multimedialar yaratishda foydalanish mumkin. Matnli izohlar, tasvirlar, audioyozuvlar yoki

videoyozuvlar oʻtilayotgan mavzuni oʻzlashtirish imkoniyatini beradi. Talabalar belgilangan dars jarayonini smart qurilma orqali tasvirga olib ularni ijtimoiy media tarmoqlar (Instagram yoki Twitter, Foursquare yoki Yelp) orqali tegishli shaxslarga yuborishlari, ular ham mazkur dars mashgʻulotini oʻrganib chiqishlari, shuningdek, bu borada boshqa hamkasblari bilan munozaralar tashkil etishlari mumkin. Xulosa qilganda, ma'naviy yetuk shaxs tarbiyasida adabiy ta'lim jarayonini tashkil etuvchi boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanib, bunda laboratoriya mashgʻulotlari amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tosheva O. Taqdimot materaillaridan foydalanish usullari // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2012. – № 12. – B.11-13.

2. Umumiy oʻrta ta'limning Davlat ta'lim standarti va oʻquv dasturi. Ona tili. Adabiyot. 5–9-sinflar // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. – 37–38-b.

MUQIMIYNING HAJVIY SHE'RLARINI SHARHLAB O'QITISH

Abdurahmonova Barnoxon
Qo'qon DPI
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Muqimiy ijodidan hajviy yoʻnalishdagi she'rlar ham oʻrin olgan. U oʻz davrida hajvchi shoir sifatida mashhur boʻlgan. Shoirning hajviy yoʻnalishda yozilgan asarlarini tahlil qilishga kirishishdan avval, mazkur asarning mazmun mohiyatiga koʻra qanday asar ekanligini, muallif murojaat qilgan muayyan janr toʻgʻrisida nazariy ma'lumot berib oʻtilishi lozim deb oʻylaymiz.

Hajviyaga mavjud lugʻatlarda quyidagicha ta'rif beriladi[16]. Hajv – (arabcha ustidan kulmoq ma'nosini anglatadi) – biror shaxsni tanqid qilish, qoralash, kamchiliklarini sanab, ayblash maqsadida yaratilgan asar, adabiy janr. Ayrim shaxslarning yaramas salbiy xislatlaridan achchiq kulib va uni tanqidiy tasvirlab yozilgan asar. Bunday asarlar turli janrlarda (roman, hikoya, she'r va boshqa janrlarda) yozilishi mumkin. U holda bunday asarlar "hajviy roman", "hajviy hikoya", "hajviy she'r" deb ataladi.

[16] Quronov D va boshq. Adabiyotshunoslik lugʻati.T.:-Akademnashr.-2010. 390-bet.

Muallif hajviyada mubolag‘adan foydalanish yo‘li bilan voqeani atayin bo‘rttira oladi. Yozuvchi satirik obrazning tashqi qiyofasini ham masxara qilib ko‘rsatishi mumkin. Lekin bu bilan yozuvchi kishilarning jismoniy nuqsonlaridan kulmaydi, balki hajv – tanqid ostiga olingan kishining yaramas xislatlarini, xulq-atvorini bo‘rttirib ko‘rsatadi.

Yumor – (inglizcha humor –kayfiyat, moyillik ma’nosidagi so‘z) –komiklik turlaridan biri[17]. Badiiy asarda kishilar,voqea-hodisalar ustidan yengil, do‘stona beg‘araz kulish. Turmushdagi va ayrim kishilardagi ba’zi bir kamchiliklar ustidan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda tanqid qilinayotgan kishining yoki obyekt ning yo‘q bo‘lib ketishini istamaydi, unga hatto achinadi va undagi kamchiliklarning tuzalishini istaydi. Bu bilan yumor hajviyadan farq qiladi. Muqimiyning “Loy” she’rda Qo‘qon shahridagi ko‘chalar va u yerda yashayotgan kishilar hayotining haqiqiy manzarasi yengil kulgu ostida yoritib berilgan.

Ko‘chaga chiqmoqqa lekin saxt hayron qildi loy,
Qor yog‘ib, qaytib bahor erdi - zimiston qildi loy.

Shoir she’rga “loy” so‘zini radif qilib olgan. Shahar ko‘chalarining o‘sha davrdagi manzarasini, ularning haqiqiy qiyofasini tasvirlash uchun loy jumlasiga takror-takror murojaat qiladi.Qish ketib, bahor boshlanib qolgan edi.Ko‘chaga chiqmoqchi bo‘lsam,ko‘chalardagi loy meni hayron qoldirdi. U bahorni qaytarib yuborib, qishni yana qaytadan chaqirib oldi. Hammayoqni qorong‘ulik bosib, zimistonga aylantirdi. Bu misralarda mubolag‘a san’atidan foydalanilgan.

Barf-u boron ustiga tinmay yog‘ib bo‘lg‘onig‘a,
O‘zi ham chog‘imda o‘lguncha pushaymon qildi loy.

Shoir ko‘chalar tasvirini berar ekan,qor va yomg‘ir tinmay turib, erlar namgarchilikdan qurimasdan yana uning ustiga yoqqan yog‘ingarchilik shundog‘am g‘am-tashvishda, qiyinchilikda turgan chog‘imda hammayoqni loy bo‘lib ketishi menga ko‘p mushkulliklar keltirdi,-deb o‘z davridagi shaharning ahvoli bilan o‘quvchini tanishtiradi.

[17] O‘sha kitob. 372-bet.

Bo‘lmagan qishlarda yomg‘ur, qor o‘lub fasli bahor,
Bosh ko‘targan sabzani xok ichra pinhon qildi loy.

Bahor o‘rnini qish egallab, bo‘lmagan ishlar bo‘ldi.Yerdan boshini ko‘targan sabzalar ya’ni o‘t-o‘lanlar, maysalar loyning dastidan tuproq ichiga kirib ketdilar. Muqimiy bu misralarda tashxis (shaxslantirish) badiiy tasvir usulini qo‘llaydi.

Porso-yu zohid-u obid rioyat aylamay,
Toydurub, yo sachralub oluda domon qildi loy.

Bu loy hech kimni nazar-pisand qilmaydi, yaxshi odammi ya’ni o‘zini yomon ishlardan saqlovchi xudojo‘ymi, taqvodor zohid-u obidmi uni farqiga bormaydi, ajratishni bilmay ularning etagini iflos qilib, yopishib oldi.Mazkur baytda shoir porso, zohid, obid bir-birini taqozo qiladigan, mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarini bir misrada keltirish orqali tanosubni qo‘llaydi.

Bu faqir-u boy demay, nogoh ayog‘iga cholub,
Yerga urgaykim ani, yorabki, polvon qildi loy.

Muqimiy yuqoridagi fikrini davom ettirib, loyning boy va kambag‘alni birday ko‘rib, ularni ajratmasdan, ayog‘idan chalib yerga yiqitishini kulguli tasvirlash bilan loyni polvon deb “maqtaydi”. Muqimiy she’rning har bir baytida tashxisni qo‘llaganligini ko‘rishimiz mumkin.Bu baytda ham loy inson bajarishi lozim bo‘lgan vazifa (odamlarni ajratmasdan, ko‘tarib yerga urish, ayog‘iga yopishib olish)ni bajarib tashxisni hosil qilmoqda.

Ochilub bodom-u savsan , gullaganda ushbu yil,
Joyi tobiston magarkim, Tangri farmon qildi loy.

Bu yil bodomlar, gulsapsarlarning gullashini yog‘ingarchilik tufayli kechikiyotganligini shoir tangri farmon berganidek, loy yozga qoldirdi, -deb mubolag‘adan foydalanadi.

Ko‘chaga chiqqon Muqimiy kalimasin o‘gurturub,
Yaxshi qildi, nafsi kofirni musulmon qildi loy.

G‘azalning so‘nggi baytida ko‘chaga chiqqan Muqimiy har bir odamni loy kalmia o‘gurtirib qo‘yganligini aytib, loy yaxshi ishlarni ham qilibdi, chunki u odamlarni nafs balosidan qutulishga, sabrli bo‘lishga o‘rgatdi,-deydi.

G‘azal aruzning ramali musammani maqsur vaznida yozilgan.

O-chi-lub bo-|do-m+u sav-san| gul- la- gan- da | ush-bu-yil,
- *V - - | - V - - | - V - - | - V ⁓*
Fo-i- lo- tun | Fo i lo tun |Fo i lo tun | Fo i lon
Jo-yi to-bis- |ton-ma-gar-kim |tang- ri- far- mon | qil- di- loy.
- *V - - | - V - - | - V - - | - V ⁓*
Fo-i- lo- tun | Fo i lo tun |Fo i lo tun | Fo i lon

Darslik-majmuada berilgan Muqimiyning ikkinchi hajviy she'ri "Aroba" bo'lib, shoir bu she'rida eski Qo'qon aravani ta'rifu tavsifini keltiradi. She'rning birinchi baytida lirik qahramon bozorga borish uchun arobaga chiqqanligi, to o'z manziliga yetib kelgunga qadar eski aravaning g'ichir-g'ichir ovozidan bezor bo'lib ketishi tasviri beriladi.

Bozor chiqmay endi, zinhor aroba qursin,
To kelganingcha aylar bezor, aroba qursin.

Ikkinchi-uchinchi baytda shoir aravaning taraq-taraq ovozidan ko'knori ichib mast bo'lib yotgan kishi ham cho'chib yug'onib, kayfi tarqab ketadi,-deb arobaning nosozligini, keng ko'chalarni besaranjom qilishini tasvirlar ekan, bu aravani yasagan ustaga e'tiroz bildiradi.Chunki, Qo'qon aravalar o'z davrida mashhur bo'lib, uni yasovchi ustalarning nufuzi ham yaxshi bo'lib, o'zlarini anchayin ustalardan yuqori qoyardilar. Shoir shularni tilga olib," Shu arobani qilgan arava yachovchi usta shu kasbini qilmagani ma'qul",- deydi.

Nogoh kayfi uchkay, kelsa agar taraqlab,
Ichgan giyohi bo'lsa ko'knor, aroba qursin.
Keng ko'chalarni qilgay o'lguncha besaranjom,
Qilmay o'shal hunar deb najjor, aroba qursin.

G'azalning to'rtinchi-beshinchi baytida u arobalarga biror yuk ham yuklab bo'lmasligini, agar g'alla ortsang bormi, eson-omon manzilga yetib olarmikan, deb vahimada turadi kishi.Bunday eski arobalar qurib ketsin. Bozorga odam yoki narsa tashish uchun chiqib nima qiladi.Unga chiqib tang ahvolda qolasan.

Yuklangan ersa g'alla, yursin omonki ma'zur,
Eski so'log'i chiqqan, bekor aroba qursin.
Qishloq betamizi bir igna olsa qo'shib,
Tang rastasiga kirgay attor, aroba qursin.

Navbatdagi baytda shoir jamiyatdagi yangilanishlarga oʻquvchi diqqatini tortadi.Oʻz davrida aroba yashash bilan nom qozongan ustalar hali hanuz gerdayib, oʻzlari yasagan guldor arobalarini maqtab, gerdayib yuradilar. Ular qachonki, arobalari yura olmay qolgandagina oʻz mashgʻulotlarining eskirganligini anglab yetadilar.

Boʻlsa kiroyi tushsang purjinalik kalaska,
Garchandkim, qilurlar guldor aroba qursin.
Luchchak arobakashlar koʻkka boqib gʻoʻdaygan,
Bosqay yurolmaganda hushyor, aroba qursin.

Muqimiy safarga chiqmoqchi boʻlsang ,albatta, boshingni aylantirib, koʻnglingni behuzur qiladigan arobaga nochor chiqasan-da. Chunki, dunyoni koʻzingga tor aylasa-da, arobaga chiqishni rad qila olmaysan.

Shoirning bunday deyishiga ham asos bor. Oʻsha davrdagi asosiy transport vositasini arobalar bajargan. Koʻrishimiz mumkinki, Muqimiy zamondagi iqtisodiy va madaniy oʻzgarishlarning ham tarafdori boʻlgan.

Aylantirib boshingni, dil behuzur doim,
Mindim netay safarda, nochor, aroba qursin.
Chiqsang, Muqimiy, bozor, aylarga daf'i savdo
Qilgʻay jahonni koʻzga koʻp tor, aroba qursin.

“Aroba” she’ri vazni quyidagicha:

Muzore’ musammani axrabi solim

-	-	V	-	V	-	-	-	-	V	-	V	-	-
maf	uv	lu//	fo	i	lo	tun//	maf	uv	lu//	fo	i	lo	tun

Luch-chak a | ro -ba- kash-lar| koʻk-ka bo| -qib gʻoʻ-day-gan,
- **- V| - V - - | - - V| - V - -**
Bos-qay yu- |rol- ma- gan- da | hush-yo-r+ a|ro ba qur- sin.
- **- V| - V - - | - - V| - V - -**

Dars soʻngida oʻqituvchi shunday xulosa qiladi. Muqimiy she’rlari shakl va mazmun jihatidan mukammalligi va fikrlarning xalqqa yaqinligi, goʻzal tashbehlarlarning qoʻllanilishi bilan oʻquvchi qalbiga yaqin turadi. Biz shoirning

sanoqli she’rlarini tahlil qilishga erishdik, xolos. Muqimiy ijodini,xususan, lirikasini o‘rganishni sinfdan tashqari o‘qish darslarida davom ettiramiz, deb darsga yakun yasaydi. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati.T.:-Akademnashr.-2010.390-bet.
2. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish.-T.: O‘qituvchi.-1995.
3. Hojiahmedov A.Maktabda o‘rganiladigan mumtoz she’riyatning vazn ko‘rsatkichlari.-T.: Sharq.-2001.
4. To‘xliyev B. va b. Adabiyot. II-kitob. Akademik litseylar uchun. – T.: BAYOZ MChJ, 2018.

BADIIY ASAR TAHLILI JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH

Abdullayev Komiljon Abdug‘aniyevich
Namangan davlat universiteti
pedagogika fanlari nomzodi.
komiljon.abdullayev.1961@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfida Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi tahlili jarayonida fanlararo integratsiya (axborot kommunikatsion vositalari, audio-video lavhalar, tasviriy san’at, internet)dan foydalanishning o‘rni va samarali usullari ko‘p yillik amaliy tajribalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Said Ahmad, Qorako‘z, Saida aya, Bo‘rixon, fanlararo integratsiya, axborot kommunikatsion texnologiyalari, qiyosiy tahlil, audio-video lavha, tasviriy san’at, internet.

Annotation

The article describes the role and effective methods of using interdisciplinary integration (media, audio-video, fine arts, Internet) in the analysis of Said Ahmad's story "Karakuz Majnun" in the 10th grade of secondary schools on the basis of many ears of practical experience.

Key words: Said Ahmad, Karakuz, Saida aya, Burikhan, interdisciplinary integration, information and communication technologies, comparative analysis, audio-video, fine arts, internet.

Mamlakatimizda ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan 5 ta muhim tashabbusda yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr, adabiyot, kitobxonlik sohasiga qiziqtirish masalasiga ham katta e’tibor qaratilgan[Mirziyoyev: 2019, 1].

Zero, Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish,

ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratishimiz uchun hamma sharoitlarni yaratamiz” [Mirziyoyev: 2020, 1].

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmad o‘zining rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, qissayu romanlari, xushchaqchaq komediyalari bilan o‘zbek adabiyoti takomilida munosib o‘rin egallagan, o‘zbek xalqi kitobxonlarining qalbini zabt eta olgan taniqli so‘z san’atkorlaridan hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining adabiyotdan o‘quv dasturi asosida tuzilgan rejaga asosan 10-sinfda uning hayoti va ijodini o‘rganish uchun 2 soat vaqt ajratilgan [To‘xliyev: 2017, 82-102] bo‘lib, uni quyidagicha taqsimlanishini maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Said Ahmadning tarjimai holi. Uning o‘zbek adabiyoti takomilida tutgan o‘rni. Nasriy, dramatik, hajviy asarlari haqida ma’lumot. “Qorako‘z majnun” mustaqillik yillarida yaratilgan eng sara hikoyalardan biri sifatida - 1 soat.

2. “Qorako‘z majnun” hikoyasi matni ustida ishlash, uning tahlili - 1 soat

1-soatdagi dars davomida Said Ahmadning tarjimai holi, ijodiy faoliyati haqidagi ma’lumotlarni quyidagi mavzularda tayyorlangan va ijodkor adabiyot fani o‘qituvchilarining sinovidan o‘tkazilib tavsiya etilayotgan axborot kommunikat-sion vositalari asosidagi elektron ko‘rgazma-slaydlar yordamida hikoya qilish ma’ruzaning aniq, izchil, qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun xizmat qiladi:

“Said Ahmad (Husanxo‘jayev(1920-2007)”, “Hamkasb do‘stlar taniqli so‘z san’atkorlari bilan”, “Nasriy asarlari”, “Ufq” trilogiyasi”, “Dramatik asarlari”, “Hajv ustasi”, “Said Ahmad asarlari – sahnada”, “Ko‘ngillarning mohpaykari - Sadoqat timsoli - Saida Zunnunova bilan”, “Oila a’zolari davrasida”, “Yo‘qotgan-larim va topganlarim”, “ Bag‘rimni o‘rtagan alamlar”, “Ta’zim”, “ Said Ahmad - 100 yoshda!” [Said Ahmad; 2014, 352]

“Qorakoʻz majnun” hikoyasi matni ustida ishlash, uning tahlili (asosiy maqsadimiz shu masalaga qaratilganligi bois, tavsiyalarimizni kengroq yoritishimizni ta’kidlamoqchimiz) ga ajratilgan 2-soatdagi dars shu hikoya asosida tayyorlangan videosahna namoyishi bilan boshlanadi (Oʻquvchilar juda ta’sirli va mahorat bilan ijro etilgan ushbu san’at asari namunasini kuchli hayajon va maroq bilan tomosha qildilar). Oʻquvchilar diqqati jamlangach, videosahna va hikoya matni (syujeti)ni qiyoslash asosida tahlilga kirishiladi.

Hikoya matnining elektron shaklini internet (“Ona tili-milla…”, “ Kitob oʻqi”, “Xushnudbek. uz / u…”, “Audio kitoblar” kanallari)dan qidirib topiladi (bu jarayonni ham oʻquvchilar koʻz oʻngida – katta hajmli ekran orqali hamkorlikda amalga oshiriladi (iloji boʻlsa, oʻquvchilar shaxsiy noutbuklari bilan ishtirok etishiga erishilsa, samaradorlik yanada ortadi) va birgalikda oʻqituvchi tomonidan hikoya matnining alohida ranglar bilan ajratilgan (bu usul asar mazmuni, mavzusi, gʻoyasi, badiiy xususiyatlarini toʻlaroq ochish uchun yordam beradi) xarakterli oʻrinlari ifodali oʻqiladi (yoki audio shaklini tinglash ham mumkin).

Oʻquvchilarning taassurotlari asosida hikoyaning syujet chizigʻini ifodalovchi quyidagi reja tuziladi:

1. Saodat ayaning har tongdagi tilaklari
2. Kuz manzaralari
3. Saodatning yoshligi
4. Saodat ayaning portreti
5. Qorakoʻz bilan suhbat
6. Oʻgʻli Boʻrixonning taqdiri
7. Onaning qadrdon uyidan jilmasligining sababi
8. Nabirasi Anvarjon “Dyadya Borya” haqida xabar keltirdi
9. “Birovga gap bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi”
10. Saodat ayaning kelinlari, qiz nabiralariga sovgʻasi
11. Qorakoʻzning xursandligi sababi
12. Qizi Dilbarnikida – mehmonda

13. Olamshumul bir yangilik
14. 32 yildan keyingi uchrashuv
15. 51 yoshda 70 yashar chol boʻlib qolibdi
16. Jigarlari kulishni ham, yigʻlashni ham bilmay hayron turib qolishdi
17. “U nas baranina ne edyat”...
18. “Rostdan ham shu mening bolammi?”
19. “Kampir badanidan chayon oʻrmalagandek seskandi”
20. “1970 yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi”
21. “Oh, otasi tirik boʻlganda shu supa ustida bolta bilan chopib tashlardi-ya...
22. “Onasining qolgan sochlari ham bir kechada oqarib, ajinlari koʻpayib ketdi...”
23. Qumri ham “sir”dan xabardor edi
24. “Bu bolani men emas, boʻri tuqqan”
25. Boʻrixon – ukasinikida mehmonda
26. Gulxanda Boʻrixonnning bolaligi yonardi
27. “Koʻp kuyinmang, endi, boʻlar ish boʻldi”
28. “U yoʻq endi...”
29. Soʻnggi xushxabar: “Saodat ayaning haji qabul boʻldi”
30. Onaning vasiyati
31. Ikki munglig‘ning koʻz yoshlari
32. Qadrdon ovozning soʻnggi sadosi
33. Qorakoʻzning – vafodorning oʻlimi

Soʻngra videosahna va hikoya matni (syujeti)ni qiyoslash asosidagi tahlilga kirishiladi. Tahlil jarayonida quyidagi masalalarga koʻproq e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Hikoyaning yaratilish tarixi
2. Asarning asosiy mavzusi va gʻoyasi
3. Asosiy timsollar va yordamchi timsollar

4. Asarning syujeti. Uning rivojlanishi: ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim.

5. Asarning boshqa komponentlari: dialog, portret, peyzaj, muqaddima, xotima.

6. Hikoyaning tili

7. Hikoyaning o‘ziga xos xususiyatlari

8. Yozuvchi ijodining ahamiyati

“Qorako‘z majnun” Said Ahmadning mustaqillik yillarida yozgan (1999 yil yanvar) eng yaxshi hikoyalari sirasiga kiradi. Unda o‘zbekona urf-odatlar qadri noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko‘rsatish orqali ta’kidlanadi. Saodat aya, Bo‘rixon, Qorako‘z majnun – asosiy, Abdumalik, Dilbar, Anvar, Abdunabi, Rahmon qassob yordamchi timsollar sanaladi. Hikoya voqeasi juda murakab emas. Keksayib qolgan Saodat aya bir necha o‘n yillardan beri harbiyga ketib, o‘sha tomonlarda uylanib, bola-chaqali bo‘lgan o‘g‘li Bo‘rixonni kutadi. Xudoning bergan kuni sahar namozida uni eslaydi. Ona-bolaning 32 yildan keyingi uchrashuvi asarning tuguni hisoblanadi. Bo‘rixonning qilmishlari, tilini, hissini, dinini, e’tiqodini unutgani (ota-bobolari e’tiqod qilgan islom dinidan qaytib, boshqa dinni qabul qilganligi), tug‘ishganlariga begonalarday munosabatda bo‘lishi voqealar rivojiga sabab bo‘ladi. Natijada onaning ko‘ngli soviydi, uni yo‘qlikka topshiradi; ketar mahali undan yuz o‘giradi, Bo‘rixonning go‘dakligida, bolaligida kiygan kiyimlarini gulxanga tashlaydi. Buni hikoyaning kulminatsion nuqtasi sifatida baholash mumkin. Endi ona sahar namozida o‘g‘lini eslamay qo‘yadi. Xotimada Saodat ayaning o‘limi oldidan farzandlari va nabiralariga vasiyati ham juda ta’sirli tasvirlangan.

Hikoyaning asosiy qahramonlari Saodat aya, Qorako‘z majnun, Bo‘rixon timsollarini quyidagi reja asosida tahlil etish mumkin:

1. Saodat aya – o‘zbek ayolining, onalarining mujassam timsoli.

2. Vafodor yor.

3. Din-diyonat, milliy-diniy qadriyat, el-yurtchilik uning uchun har narsadan ustun.

4. Umrining oxirigacha o‘z e’tiqodiga sodiqlik – SAODAT.

5. Qorako‘z – Saodat ayaning doimiy hamrohi, vafodori.

6. Bo‘rixon – ona qalbini vayron qilgan noloyiq farzand.

O‘qituvchi timsollar tahlilida fikrlarining isboti sifatida hikoyadan olingan dalil-parchalardan o‘rinli va unumli foydalanishi zarur:

1. “Saodat yoshligida juda chiroyli qiz bo‘lgandi. Sochlari taqimini o‘pardi. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo‘llari sochining uchigacha etmasdi. YArmini qisimlab turib, bu yog‘ini tarardi. Opasi bu sochlarni qirqta qilib o‘rganda, yana shunchasi ortib qolardi”.

2. “Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftob tushirmaydigan qari tut barglari sarg‘aya boshlagan. Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg‘alari skeletdek bo‘lib turibdi. Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to‘lg‘onadi”.

3. “Shu bilan bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo‘q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko‘kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo‘ni-qo‘shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos”.

4. “Bu gaplarni eshitib, kampir er yorilmadi-yu, kirib ketmadi. Bolasi tushmagur-ey, qo‘shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o‘tiribdi- ya! Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sinadi, ostona hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi”.

5. “Kampir hajga ketayotganlarga pensiyadan yiqqan pullarini “Hoji badal” uchun berib yuborgan edi. Haj qabul bo‘ldi, degan xushxabar kelgan bo‘lsa kerak, o‘zingga shukr, Allohim, deb ostona hatladi”.

6. - Nu zachem, zachem plachesh, mama, vot ya priexal, xvatit, xvatit, - derdi o‘g‘li. Ona bu gaplarni eshitmasdi. Eshitsa ham, baribir, tushunmasdi.

7. “Kampir uning yuzlariga qarab ezilib ketdi. Qarib, adoyi tamom bo‘pti. Basharasiga ham o‘sha tomonlarning nuqsi urib, o‘zbekligi qolmabdi. Ellik bir yoshida etmish yashar chol bo‘lib qo‘ya qopti”.

8. “Oh, otaginasi tirik bo‘lganda shu supa ustida bolta bilan chopib tashlardi-ya!”

9. “Ilgari kampir ba’zi-ba’zida bu kiyimlarni hidlab yig‘lardi. Endi ko‘ksidagi muz uni yig‘lashga qo‘ymadi. U hovli o‘rtasiga xazon to‘plab gugurt chaqdi. Gurillab yonayotgan gulxanga Bo‘rixonning kiyimlarini birma-bir tashlay boshladi. Gulxanda Bo‘rixonning bolaligi yonardi”.

10. - Onajon, kecha muborak haj safaridan qaytdik. Sizning hajingiz qabul bo‘ldi, - deyishdi.

11. - Azaga kelgan xotinlar oldida xunugim chiqib yotmayin, qoshimga o‘sma...

12. “Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina jon berdi”.

13. “Ana endi ikki munlig‘ bir-biriga qarab yum-yum yosh to‘kishyapti”.

Darsning mustahkamlash qismida quyidagi savollardan foydalangan holda suhbat o‘tkaziladi:

1. Hikoya nima uchun “Qorako‘z majnun” deb nomlangan?
2. Saodat aya nima uchun sochiga eri frontdan olib kelgan medalni osib olgan?
3. Bahorda qari tutga ilinib qolgan varrakning kuzdagi ko‘rinishini tasvirlashda qanday badiiy-tasviriy vositadan foydalanilgan?
4. Qorako‘z tasviri ifodalangan satrlarni aytib bering.
5. Saodat aya nima uchun Qorako‘zni “odamdek aziz” deb hisoblaydi?
6. Nevarasi Anvarjon tog‘asi Bo‘rixonni 15 yildan keyin topgach, uni qanday ta’riflaydi?
7. Nima uchun “Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampir (Saodat aya)ning shoxi sinadi?
8. Bo‘rixonning 32 yildan keyingi portreti qanday chiziladi?

9. Oyog‘i ostiga so‘yilgan qo‘yni (oila a’zolarining xursandchiligini) qanday qarshilaydi?

10. Nima uchun “Kampir badanidan chayon o‘rmalagandek seskandi?”

11. “Bu bolani men emas, bo‘ri tuqqan...” iborasini qanday izohlaysiz?

12. Ona o‘z qahrini qanday qanday isbotladi?

13. Onaning haji qabul bo‘lganini qanday izohlash mumkin?

14. Ona farzandlari va nabiralariga nimalarni vasiyat qildi?

15. Nima uchun Qumrining Qorako‘zga munosabati o‘zgardi?

16. Odamlarning Qorako‘zni og‘ir jazolashlariga kim aybdor?

17. Qorako‘zning Saodat ayaga sadoqatini qanday baholaysiz?

18. Yozuvchining badiiy mahorati (hikoya sarlavhasi, tanlangan epigraf, qahramonlarning nomlanishi (Saodat, Bo‘rixon), portret, peyzaj, badiiy-tasviriy vositalaridan foydalanishi) haqidagi fikrlaringiz?

19. Hikoyadagi ona timsolini boshqa asarlardagi ona timsollari bilan solishtiring. Farqli tomonlarini ayting.

20. “Qorako‘z majnun” hikoyasiga o‘xshash yana qanday asarlarni bilasiz?

Mavzuni hayotiy misol - dalillar bilan bog‘lab tushuntirish hikoyaning naqadar jonli, ishonarli, umrboqiyligini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Quyidagi fanlararo integratsiya asosidagi topshiriqlar uyga vazifa qilib topshiriladi:

- hikoyaning ta’sirli o‘rinlarini qayta o‘qish;
- hikoya mazmuni, yozuvchining badiiy mahoratini ifodalovchi slaydlar tayyorlash;
- tasavvurlarni rasmlar orqali ifodalash;
- hikoyadan olgan taassurotlar asosida “Ona – ulug‘ zot” mavzusida insho yozish;
- ibratli, ta’sirli parchalardan namunalar yod olish, audio shaklini tayyorlash;
- onalar haqida yaratilgan asarlar ro‘yxatini kengaytirish.

Said Ahmadning “Qorakoʻz majnun” hikoyasi tahlili jaayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish:

oʻquvchilarning yozuvchi maqsadi, hikoya mavzusi, gʻoyasi, badiiy xususiyatlarini ochib beruvchi, milliy tarbiya asosi hisoblangan sadoqat, e’tiqod, iymon, gʻurur, oriyat, nomus, vafo kabi yuksak insoniy fazilat – kalit soʻzlar mohiyatini chuqurroq tushunib olishlariga yordam beradi; ularning badiiy adabiyot, ijodga qiziqishini kuchaytiradi, fikrlash qobiliyatini kamol toptiradi; dastur materiallarini puxta oʻzlashtirishlariga yordam beradi, ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalaydi, oʻstiradi; turli fanlardan egallagan bilimlari doirasini kengaytiradi, mustahkamlaydi; oʻzaro hamkorlik muhitini shakllantiradi, oʻz faoliyatini toʻgʻri tashkil etish, fan yangiliklari bilan muntazam tanishib borish, mustaqil-ijodiy ishlash koʻnikmalarini rivojlantiradi; ularda yorqin va kuchli taassurotlar hosil qiladi, badiiy va estetik didlarini rivojlantiradi; kitobga, adabiyotga, san’atga, ona-Vatanga, ONAJON larga, milliy an’ana va qadriyatlarga muhabbat, iftixor hislarini tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish boʻyicha muhim vazifalar belgilab berildi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 19-martdagi videoselektor yigʻilishida soʻzlagan nutqi. “Xalq soʻzi” gazetasi, 2019 yil 20 mart.

daryo. uz / k / 2020 / 05 / 20 / toshkentda - adiblar - xiyoboni - ochildi - foto/

Elektron manbaa: www.pv./oz/ news/ Mirziyoyev Sh.M. Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 23 avgust kuni oʻtkazilgan ta’lim masalalariga bagʻishlangan videoselektorda soʻzlagan nutqi. – T.: 2019 yil 24 avgust.

2.Mirzayev S. XX asr oʻzbek adabiyoti. Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2006. – 390 b.

3.Said Ahmad. Yoʻqotganlarim va topganlarim. / Xotiralar. Adabiy oʻylar. – T.: Sanostandart, 2014. – 352 b.

4.Toʻxliyev B. va boshq. Adabiyot [Matn]: darslik-majmua (10-sinf). – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 82-102.

5.Ergasheva Sh. Koʻngillarning mohpaykari. T. : Universitet, 2006. – b 56 .

6.Hoshimov Oʻtkir. Dunyoning ishlari /qissa /. “Abadiy barhayot asarlar” turkumi. Nashrga tayyorlovchilar: Oʻlmasxon Hoshimova, Toʻlqin Eshbek. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 208b.

CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA QALB EKOLOGIYASI, INSON VA TABIAT UYG‘UNLIGI MASALALARI

Akbarov Odiljon Ergashevich,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada atoqli adib Chingiz Aytmatov ijodida insonning tabiatga munosabati, uning ta’siri to‘g‘risidagi fikrlar tahlil qilingan. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va globallashuv jarayonlari oqibatida jamiyatda yuzaga kelgan axloqiy muammolarning yechimida tabiat va qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati adib asarlari qahramonlari vositasida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inson, tabiat, qalb ekologiyasi, milliy urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy muammolar, globallshuv.

Annotation

In this article, the famous writer Ch. In the work of Aitmatov, the attitude of man to nature and its influence is analyzed. The role and significance of nature and values in solving the moral problems of society as a result of scientific and technological progress and the processes of globalization are revealed through the heroes of the author's works.

Keywords: man, nature, ecology of the soul, national traditions, universal values, moral problems, globalization.

Chingiz Aytmatov ijodida tabiat va ijtimoiy hayot uyg‘unligi o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Ya’ni muammoni yoritish, yechimini yuzaga keltirishda inson taqdiri, jamiyatdagi ijtimoiy hayot hamda tabiat yonma-yon qo‘yib tasvirlanadi. Inson tabiatning ajralmas bo‘lagi ekanligi, uning farovon yashashi uchun tabiatning o‘rni beqiyos ekanligi ta’kidlanadi. Adib tomonidan erkin, lirik uslubda yaratilgan “Jamila” qissasi dunyo kitobxonlari va mutaxassislari tomonidan noyob badiiy hodisa va ijod mahsuli sifatida baholanadi.

Qissadagi Jamila – murakkab, chigal taqdirga ega ayol obrazi. Chingiz Aytmatovdan avval hech kim sharq adabiyoti nasrida ayol obrazini bu kabi talqin qilmagan, ayolga bunday yondoshmagan. Bu ayol Qirg‘iziston zaminida tug‘ilgan oddiy ovul farzandi. Bosh qahramon obrazi ona zamin tabiati tasvirlari bilan chambarchas bog‘liq. Adabiyot uchun yangilik bo‘lmagan bu uslub asarning o‘ziga xos koloritini yuzaga keltirgan. Hayotida Donyor paydo bo‘lganiga qadar Jamila muzlikda to‘ng‘ib qolgan irmoqday yashardi. Bahor quyoshining jonbahsh taftlari ta’siri ostida bu irmoq uyg‘onishi va nigohini cheksiz va ozod ufqlarga qadashi

mumkinligi asriy “ichki va tashqi hovli”[2.28] an’analari ta’sirida yashab qotgan qaynonasi, Jamilaning eri Sodiqning xayoliga ham kelmas edi. Bahoriy taft ostida muzlarni eritib, jo‘shib, qaynab, chiqish – qutilish yo‘lini izlashi, topmaguncha hech bir to‘siq oldida ikkilanmay, uni buzib o‘tib, istaganini topmaguncha tinchimas edi.

Qissasida yozuvchi yangi uslubda, nozik ifodalarda va ichki kechinmalar almashinuvi bilan eski patriarxal tuzum va yangi davr turmush tarzi, uning ijtimoiy hayot bilan to‘qnashuvi muammosini hal qiladi. Adabiyotda bu muammo juda murakkab, o‘ziga xos ijodiy izlanishni talab qilib, uni jo‘ngina, hamma odatlangan to‘g‘ri chiziqli yechim uslubida hal qilishga urinilganda, asar qahramonlari sxematik xarakterda tasvirlanib, psixologik jihatdan ishonarli bo‘lmagan qiyofaga kirar edi. Ch. Aytmatov o‘z davri uchun odatiy bo‘lgan bu qusurli ijodiy qolipdan chekina bildi. Asar badiiy to‘qimalariga chuqur singib ketgan lirik boshlanish yozuvchiga bunday yuqori dajadagi natijaga erishishga imkon berdi. Asar voqeligi roviysi bo‘lgan Sait oila tayanchi bo‘lgan onasiga ehtirom bilan munosabatda bo‘ladi. “Katta va kichik hovlilarlari”ning barcha erkaklari frontga ketganda, ona qolganlardan “Odamlar bilan birga sabr-toqatda yashashni” talab qiladi [2.30]. U hayot haqiqatini tushunishda katta hayotiy tajriba va epik an’analarga tayanadi. Muallif unga hech bir e’tirozda bo‘lmaydi, uni qoralamaydi. Patriarxal asoslar, almisoqdan qolgan urflarga yopishib oilsh, filistizmning salbiy jihatlari muallif tomonidan ta’kidlangan va oxir-oqibat bularning barchasi insonga bosim o‘tkazishi, uni go‘zallik, erkinlik va kuchdan mahrum qilishi o‘quvchiga ayon bo‘ladi. Doniyor va Jamilaning sevgisi nafaqat bu filist hayotning axloqiy va ijtimoiy ildizlarini ochib berdi, balki u ustidan g‘alaba qozonish yo‘llarini ham ko‘rsatib berdi.

Hikoyada sevgi asriy dokmatil munosabatlarga qarshi kurashda g‘alaba qozonadi. Ushbu asarda ham, keyingi asarlarda ham Chingiz Aytmatov shaxs va muhabbat erkinligini tasdiqlaydi, chunki ularsiz hayot bo‘lmaydi.

Asarda haqiqiy san’atning inson qalbiga ta’sir kuchi yosh Seitning taqdirida aniq namoyon bo‘ladi. U tengdoshlaridan farq qilishi, ehtimol, biroz ko‘proq kuzatuvchanligi va ma’naviy nozikligi bilan Doniyorning qo‘shiqlari ta’sirida

to‘satdan asl voqelikni aniq ko‘ra boshlaydi. Doniyor va Jamilaning sevgisi Seitga ilhom bahsh etadi. Ular ketganidan keyin u hali ham Kurkureu qishlog‘ida qoladi, ammo bu endi avvalgi o‘spirin emas. Jamila va Doniyor u uchun she’riyat va muhabbatning axloqiy timsoliga aylandi, oshiqlarning hissiyot nurlari uni yo‘lga boshladi. U onasiga qat’iy qarorini bildirdi: “Men o‘qishga boraman ... Otamga ayting. Men rassom bo‘lishni xohlayman”[1.35]. Bu sevgi va san’atning yaratuvchanlik kuchi deyish mumkin. Buni Chingiz Aytmatov “Jamila” hikoyasida tasdiqlagan, yoritib bergan va himoya qilgan.

60-yillarning boshlarida Chingiz Aytmatovning bir nechta hikoyalari birin-ketin paydo bo‘ldi. «Sarvqomat dilbarim», «Bo‘tako‘z» kabilar shu jumladandir. Badiiy ijroga qaraganda ular yozuvchining ijodiy izlanishlari davridan boshlangan. Ikkala hikoyada ham ishlab chiqarish sohasida va qahramonlarning shaxsiy hayotida keskin ziddiyatli vaziyatlar mavjud.

«Sarvqomat dilbarim» qissasi qahramoni Ilyos tevarak-atrofni, borliqni shoirona, nafis bir she’r kabi qabul qiladi. Hikoya boshida bu she’riyat muhabbatdan ilhomlangan insonning ma’naviy imkoniyatlarining tabiiy ifodasiga o‘xshaydi, ammo u keyinchalik azob chekkanida, yo‘qolgan sevgisini izlayotganida bunday nozik hissiy munosabatlarga soya tushganday taassurot qoldiradi. Shunga qaramay, Ilyos atrofdagi odamlar orasida keskin ravishda farqlangan erkak xarakteridir. Avval Aselga boshpana bergan va keyin unga uylangan Baytemir mehribon va hamdard odam, ammo u o‘ziga xos egoistik tabiatga ega. Balki buning sababi u uzoq vaqt yolg‘izlikda yashagani va kutilmaganda “Xudoning sovg‘asi singari bo‘ydoqlik uyining ostonasidan kerib kelgan” baxtga qattiq yopishib olgan uchundir.

Tanqidchilar «Sarvqomat dilbarim» muallifini qahramonlarning harakatlaridagi psixologik asoslanmagan jihatlar borligi uchun e’tiroz bildirishadi. Ikki yoshning aytilmagan muhabbati va shoshilinch to‘ylari shubha ostiga qo‘yilgandek edi. Bunda, albatta, haqiqat bor, lekin shuni ham hisobga olish kerakki, Chingiz Aytmatovning ijodiy tamoyili, shuningdek, o‘z xalqining muhabbat an’analariga ko‘ra bir-birini sevadigan odamlar uchun sukut o‘ziga xos

roz aytishuv vositasi edi. Aynan harakatlar, nozik tafsilotlar orqali Chingiz Aytmatov oshiq yuraklarning birligini namoyish etadi. Axir Doniyor va Jamila ham bir-birlarini yaxshi ko‘rishlarini tushuntirishsiz tushunib yetdilar.

«Sarvqomat dilbarim» asarida Asel Ilyosning yuk mashinasi izlarini o‘nlab boshqa mashinalarning g‘ildiraklari ichidan tanib oladi. Bu yerda Chingiz Aytmatov folklor detalidan foydalangan. Voqea sodir bo‘lgan bu mamlakatda qiz, ayniqsa, to‘ydan ikki kun oldin, kunduzi sevilmaydigan odamni kutish uchun yo‘lga chiqmaydi. Ilyos va Aselni sevgi yo‘lga olib chiqdi va bu yerda so‘zlar ortiqcha, chunki ularning harakatlari psixologik jihatdan oqlanadi. Va shunga qaramay, hikoyada muallifning shoshqaloqligi bor, sevuvchilarni tezda birlashtirish istagi bor, u muhimroq narsaga o‘tishi kerak. Asarda Ilyos shunday deydi: “Biz birga yashadik, bir-birimizni sevdik, keyin menda muammolar bor edi”. Shundan keyin - sanoat mojarosi va oxir-oqibat, oilaning buzilishi. Sababi, Ilyos “Hayot otini noto‘g‘ri tomonga burdi”. Ha, Ilyos biroz jizzaki va ziddiyatli odam, ammo o‘quvchi u cho‘kib ketmasligiga, qalbidagi chalkashliklarni yengib, baxtga yetish uchun kuch topishiga ishonadi. Ilyosning bu mantiqiy o‘zgarishiga ishonch hosil qilish uchun o‘quvchilar Issiqko‘l ustidan oq qushlarni ikkinchi marta ko‘rgan taqdirda allaqachon taqdir tomonidan mag‘lubiyatga uchragan bu yigitning ichki monologini eslashlari kerak: “Issiqko‘l, Issiqko‘l - mening qo‘shig‘im tugallanmagan! ... nega shu joyda, suvning ustida, Asel bilan birga to‘xtaganimizni esladim?”

Chingiz Aytmatov o‘z uslubini o‘zgartirmaydi: Ilyosning hissiyotlari chuqurligini va qalbining kengligini isbotlash uchun uni yana ko‘l bilan yolg‘iz qoldiradi. Shunday qilib, bu holda tabiat nafaqat lirik tafsilot, balki ichki mojaro, qahramon ruhida sodir bo‘layotgan kurashning butun fojiasini nozik ifodalaydi.

Ushbu hikoya bilan istedodli adib har qanday syujet, har qanday mavzu uchun o‘ziga xos yechim topishini o‘zi va boshqalarga isbotladi.

“Inson va tabiat” muammosi “Qiyomat” romanida qarama-qarshi qutblar ziddiyatini ochishda alohida o‘rin egallaydi.

XIX va XX asrlarda ilmiy-texnik taraqqiyot insoniyat hayotida ulkan ahamiyat kasb etdi, ammo shu bilan birga odamlar uning salbiy ta’sirini sezmoqdalar. Ushbu ta’sir atrofdagi tabiatning holatiga ham, insonning ichki dunyosiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Bizning davrimizda mexanizatsiyalashgan, jonsiz madaniyat asta-sekin odamni o‘ziga singdirib, o‘ziga bo‘ysundirdi. “Endi bizni iqtisodiy foyda va siyosiy raqobat tamoyillari asosida qurilgan jamiyat qurshab oldi. Bunday sharoitda biz uchun haqiqiy e’tiqod g‘oyasini saqlab qolish, Injil amrlari, inson axloqi tamoyillari asosida yashash va tarixiy xotiramizni saqlash biz uchun ancha qiyin”[2.97].

Ko‘plab yozuvchilar o‘z asarlarida odamlarni ilmiy-texnik taraqqiyotning zararli ta’siri, uning eng yomon tomonlari to‘g‘risida ogohlantiradilar. U axloqni va insoniy tuyg‘ularni butunlay yo‘q qila oladi, deyishadi. Ma’naviy va falsafiy muammolar ko‘pincha Chingiz Aytmatov asarlarida ko‘tariladi. Uning ijodida asosiy o‘rinni tabiat, uning holati, odamlar olami bilan aloqasi mavzusi egallaydi. Tog‘lar, dashtlar, okean, kosmos kabi obrazlar adib nasrining ohangdorligini kuchaytiradi, falsafiy teranlik bag‘ishlaydi va insonning o‘zi haqidagi subyektiv fikrlariga doimiy ravishda tuzatishlar kiritadi. Kosmos - bu tabiat, tug‘ilish - insonning nazorati ostida emas, inson borlig‘i sirini odam hal qila olmaydi. Ilm-fan va texnologik taraqqiyotga erishgan odamlar tabiat haqidagi dunyoqarashni teran tushunmagan holda, sodda ravishda o‘z hukmronligini da’vo qilmoqdalar. Bizni olam, tabiat bilan taqqoslaganda, insonning yer yuzida ona tabiatning bir qismi ekanligini anglaymiz.

“Yozuvchi sezgir yurak, sezgir qalb va kuzatuvchan nigohga ega bo‘lib, uni sezmay qolmaydi va sezganidan so‘ng inson atrofdagi tabiatga tobora ko‘proq yetkazayotgan yovuzlikka befarq qarab turolmaydi”[3:143-153]. Insonning tabiatga bo‘lgan munosabati yozuvchi uchun bashariy tuyg‘ular, shaxsiyati va umuman jamiyatning o‘lchoviga aylanadi. Chingiz Aytmatov o‘z asarida nafaqat tabiat ekologiyasi, balki qalb ekologiyasi masalasini ham ko‘taradi. Axir inson tabiat bilan aloqani uzganda, u o‘z hayotida muhim narsani - o‘z qalbini yo‘qotadi. Chingiz

Aytmatov uchun inson baxti, insonning ma’naviy maqsadi, hayot mazmuni masalalari juda muhimdir. Ushbu jihat asarlarining aksariyatida o‘z aksini topgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Chingiz Aytmatov ijodi lirik va epik tamoyillarning murakkab birlashmasidan iborat bo‘lib, yozuvchi o‘zining dastlabki asarlaridanoq zamonamizning jiddiy muammolariga murojaat qiladi. Yozuvchining estetik qarashlari tizimida yuzaga kelgan axloqiy muammolar va insoniyat tomonidan ushbu muammolarni hal qilish uchun topishi mumkin bo‘lgan javoblarni izlash alohida o‘rin tutadi. Bu vazifalarni hal qilish “Inson va tabiat” mavzusi bilan bevosita chambarchas bog‘liq. Ushbu parallellikni yozuvchining barcha asarlarida ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Айтматов Ч. Жамила. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2005.
2. Евсеев Б. Мертва сова на Мавзолее. Замысел и вымысел в новом романе Айтматова – Москва: 1997. С. 97.
3. Лившиц М. Критические заметки к современной теории мифа// Вопросы философии. 1993. №8. С. 143-153.

BOSHLANG‘ICH SINF DASTURI UCHUN MUMTOZ ADABIYOT O‘QITISH YUZASIDAN TAKLIFLAR

Dilnoza Jo‘rayeva,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim maktablarning boshlang‘ich sinf dasturi uchun tavsiya etilayotgan mumtoz adabiyot namunalari, ularning didaktik talqini hamda bu borada olib borilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra takliflar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf dasturi, mumtoz adabiyot, o‘quv materiallari, ta’lim mazmuni, matn tabdili.

Annotation

The article describes recommended samples of classical literature for the primary school curriculum, their didactic interpretation, as well as suggestions on the results of experimental work carried out in this regard.

Keywords: primary school curriculum, classical literature, educational materials, educational content, text conversion.

Mumtoz adabiyot namunlarini tizimli o‘rganish ibtidosi boshlang‘ich sinflarga to‘g‘ri keladi. Mazkur sinflarda o‘quvchilar adiblar suratlari, ularning asarlariga ishlangan rasmlar, yengil sanalgan ma’rifiy matnlar orqali adiblar shaxsi, ularning ijod namunalar tanishtiriladi. Ushbu bosqichda joriy dastur va darsliklarga tayangan holda, shuningdek, muallimlarning ijodiy izlanishlaridan kelib chiqib, mumtoz adabiyotni bir necha shakllarda o‘rganishni tashkil etish mumkin.

Maktablarga ilk bor qadam qo‘ygan o‘quvchilarga avvalo eng mashhur siymolar bo‘lmiy Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Furqat kabi adiblarni ularning suratlar orqali tanishtiriladi. Bu usul ham o‘ziga xos ta’limiy maqsadga, ma’rifiy ahamiyatga ega. Chunki rasmlar shunchaki ifoda, ko‘rinishgina bo‘lib qolmay, ayni paytda katta iste’dod, badiiy ijod razmlari hamdir. Mazkur suratlar vositasida uyg‘otilgan mehr, ehtirom o‘quvchilarda ularning asarlariga, asarlarlar orqali umuman o‘tmish ajdodlar merosiga hurmat munosabatini tarbiyalaydi. Mumtoz ijodkorlar siymosi bu suratlar bilan tanishtirilganda adibning asl ismi, taxallusi va uning ma’nosi, tug‘ilgan joyi hamda sanasini, shuningdek, eng mashhur asarlaridan ba’zilarining nomini aytib, yodlatib qo‘yish mumkin. Keyingi sinflarda bu ma’lumotlar tadrijiy murakkablashtirib boriladi.

Tajribalardan ma’lum bo‘ldiki, 1-sinfdan aniq tizimli maqsad qo‘yib, tadrijiy ravishda tabdildan tili sodda, ifoda tarzi bugungi adabiy tilga yaqin asliyatdagi mumtoz matnlarni berib borish bilan bolalarning matnga kirish, uning mazmun-mohiyatini anglash, badiiyatni his qilish ko‘nikmalarini shakllantirib borish mumkin. Quyida 1-4-sinflar kesimida mumtoz adabiyotdan ta’lim mazmunini shakllantirish yuzasidan tavsiyalarimizni keltiramiz.

Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra 1-sinfda mumtoz adiblarning quyidagi ijod namunalarini o‘rganish maqsadga muvofiq ekani aniqlandi:

1. Maktab davrida o‘quvchilar tanishgan ilk mumtoz siymo, albatta, Alisher Navoiy bo‘lishi kerak. Amalda bo‘lib turgan darslikda “G‘azal mulkining sultoni” sarlavhasi ostida shoir haqida kichik matn berilgan [3;57]. Bizningcha, 1-sinf

o‘quvchisi g‘azal nimaligini, bu ifodadagi “mulk” so‘zining atash ma’nosini tushunmaydi. Shu bois matnni shu sinf bolalari yoshiga mos ravishda “Navoiy bobomiz” deb berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qisqa tanishuvdan so‘ng “Bobomiz hikmatlari” sarlavhasi ostida amaldagi darslikda berilgan to‘rtta aforizmni taqdim etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu o‘quv materialining ahamiyati quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilar shoirlar kim ekanligini bilib oladilar;

– Navoiy nomini va shaxsini eshitadilar, ilk bor bir mashg‘ulot davomida u haqida ma’lumot oladilar, suhbat quradilar;

– hikmatlarini tinglab, ular haqidagi savollarga javob berish orqali u zotning yozganlari ustida fikr yuritadilar;

– Navoiyning boshqa shoirlar orasida tutgan mavqei haqida xabardor bo‘ladilar.

2. Oybek qalamiga mansub qissadan parcha bo‘lmish “Alisherning yoshligi” hamda “Non isi” rivoyatining matnlari. Bu kichik nasr parchalarining ahamiyati:

– kichik yoshdagi Alisherning tabiatga oshnoligi, jonivorlarga mushfiqligi yoritiladi;

– uning ko‘zga tashlanib turgan zukkoligiga e’tibor qaratiladi;

– bilimga chanqoqligi, ilm olishning ahamiyatini bilishi ibrat sifatida ko‘rsatiladi;

– keyingi rivoyatda Navoiyning donishmandligiga urg‘u beriladi.

Bularning barchasi orqali o‘quvchilarda Navoiy shaxsiga hurmat, uning fazilatlariga nisbatan ehtirom uyg‘otish maqsadi ko‘zlanadi.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi “Shoh va shoir” matni. Shoirning “Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur” ruboiysi (tabdilsiz asl varianti). Bu o‘quv materialining ahamiyati:

– Bobur nomini va shaxsini eshitadilar, mashg‘ulot davomida u haqida ma’lumot oladilar, suhbat quradilar;

– mutafakirning “Boburnoma” asari borligini bilib oladilar;

– Ilk bor asliyatdagi mumtoz ruboiyni tinglaydilar, o‘qituvchi bilan birga tahlil qiladilar va yodlaydilar.

Joriy 2-sinfda oldindan o‘rganib kelinayotgan siymolar an’anaga muvofiq berilgan [4]. Bu sinfda birinchi sinfdagi yondashuvlar bir oz murakkablashtirilgan holda davom ettiriladi. Dastur an’anasiga ko‘ra ajdodlar o‘gitiga oid alohida ruknda o‘tmishdagi bir qator buyuk zotlar qatorida mumtoz adiblar hayoti, ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishtiriladi.

1. Navoiy haqidagi “Shoirlarning sultoni” matni bilan tanishtirish. Shoirning bolalar yoshiga mos she’riy misralari (terma shaklda, ya’ni turli asarlardan saylab olingan) va ularning tahlili. Xurshid Davronning “Alisher Navoiy” she’rini o‘rganish. Ahamiyati:

- 1-sinfda shoir haqida o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi, uning ijodiga oid yangi ma’lumotlar beriladi;

- asliyatdagi she’riy misralarni o‘qish, o‘rganish va yodlash bolalarga mumtoz she’riyat ruhini singdirishga xizmat qiladi;

- Xurshid Davron she’ri orqali o‘quvchilar Navoiy shaxsiga yanada yaqinlashtiriladi;

- shoir she’rlari va u haqidagi she’rni o‘rganish asnosida dastlabki tahlil ko‘nikmasiga tamal toshi qo‘yiladi.

2. Yusuf Xos Hojib haqidagi “Donolik kitobining muallifi” matnini o‘rganish. Bu matndan ko‘zlangan maqsad quyidagilar:

- o‘quvchilar adib nomi va shaxsiyatini taniydilar;

- uning “Qutadg‘u bilig” asar borligini bilib oladilar;

- ushbu asardan olingan parchani tabdili orqali o‘rganadilar;

- asarlarni didaktik tahlil qilish ko‘nikmalariga tamal toshi qo‘yiladi.

3. Ibn Sino haqidagi “Buyuk tabib” matni bilan tanishish. Maqsud Qoriyevning “Ibn Sino bolaligi” hikoyasini o‘rganish. Ushbu o‘quv materiali quyidagi didaktik vazifalarni amalga oshirish uchun qo‘l keladi:

- Ibn Sino shaxsi va faoliyati to‘g‘risida ma’lumot oladilar;

- mutafakkirning mashhur tabib, ulkan olim bo‘lishi barobarida mohir ijodkor ekanligini bilib oladilar;

- uning bolaligi to‘g‘risidagi badiiy matn o‘quvchilarga ibrat maktabi vazifasini o‘taydi;

- nasriy asarni tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

3-sinfda o‘quvchilarda oldingi sinfda olgan bilimlar, shakllana boshlagan ko‘nikmalar tufayli yanada murakkablashtirilgan holda asliyat variantidagi mumtoz matnlarni berib borish maqsadga muvofiq deb bildik. Bu sinfning joriy darsligini [5] quyidagicha takomillashtirish mumkin deb bilamiz.

1. Imom Buxoriy haqidagi “Muhaddislar ustozi” matni bilan tanishish. Odob va ilm olish mavzusidagi hadislarni o‘rganish. Ko‘zlangan maqsad:

- Imom Buxoriy shaxsiyati, faoliyati hamda muhaddis tushunchasi bilan tanishtiriladi;

- mumtoz adabiyot mavzu ko‘lami, shakl va mazmuni, badiiyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan hadislar haqida ma’lumot beriladi, namunalar tahlil qilinadi;

- ilk bor hadislarni yod olish topshirig‘i beriladi.

2. Alisher Navoiy haqidagi “So‘z gavharini tergan shoir” matni bilan tanishish. “Boshni fido qil ato boshig‘a” misrasi bilan boshlanadigan ruboiyni o‘zlashtirish. Ahamiyati:

- Navoiy hayoti va ijodiga oid yangi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar;

- shoir ijodidagi ayrim she’riy janrlar nomini (g‘azal, ruboiy, tuyuq) bilib oladilar;

- birinchi bor alohida yaxlit she’riy mumtoz asar bo‘lgan ruboiyni tahlil qiladilar va yod oladilar;

- asarlarni didaktik tahlil ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

3. Fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyondalari Nosir Xisrav va Nizomiy Ganjaviy ijodi namunlari asosidagi “Ulug‘lar ilm olish haqida” sarlavhasi ostida tarjima she’rlarni o‘rganish. Ushbu mavzuning ahamiyati:

- o‘zga xalqlar adiblari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish, ularning ijodda o‘zbek shoirlariga mavzu jihatdan yaqinligini o‘quvchilarga tuydiriladi;

- “Bilim qidirishga urdim boshimni” (Nosir Xisrav) to‘rtligini o‘rganish orqali umrni bilim olishga sarflash g‘oyasini singdiriladi va she’rni tahlil qilinadi;

- “Kunim kundan-kunga bo‘lsin desang xush” (Nizomiy Ganjaviy) to‘rtligi vositasida ilmni muttasil oshirib borish haqidagi qarash tushuntiriladi va didaktik tahlilga tortiladi;

- o‘quvchilarning badiiy adabiyot ko‘lami borasidagi tushunchalari kengayadi.

4. Anbar Otin hayoti va ijodi to‘g‘risidagi “Shoira Uvaysiyning shoira jiyani” mavzusidagi matnni o‘rganish. Anbar Otin qalamiga mansub “Odam ersang ma’ni bil dona-dona” to‘rtligini o‘rganish. Ushbu materialdan ko‘zlangan maqsad:

- o‘zbek mumtoz adabiyotidagi ayol shoiralar nomini va shaxsini tanishtirish: Uvaysiy va Anbar Otin haqida qisqa ma’lumotlar beriladi;

- Anbar Otin asarlarini o‘quvchilar bilib oladilar;

- tavsiya etilayotgan to‘rtlikni o‘zlashtiradilar va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

5. Joriy darslikka kiritilgan Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi Xayriddin Sulton va Mirzo karimning hikoyalarini o‘rganish. Maqsad:

- Bobur shaxsini chuqurroq anglash, unga xos fazilatlarni bilish va shu orqali kelajakda (yuqori sinflarda) shoir ijodini o‘rganish uchun zamin hozirlanadi;

- nasriy asar qahramonlarini tahlil qilish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Amaldagi 4-sinf darsligini [6] yangi adabiy siymolar kiritish bilan mazmunan boyitish maqsadga muvofiq. Bu sinfda ham imkon qadar mumtoz matnlarni tabdil qilmay, bolalar yoshiga mos variantini berish maqsadga muvofiq. Oldingi sinflardagi orginal matn bilan ishlash tajribalariga tayangan holda mumtoz asar namunalarini tanlay bilish g‘oyat muhimdir. Bizningcha, ushbu sinfda quyida berilayotgan o‘quv materiallarni o‘quvchilarga taqdim etish mumkin.

1. Alisher Navoiy haqidagi “She’riyat mulkining sultoni” matni bilan tanishish. “Xo‘b el bilan suhbat tutibon xo‘b o‘lg‘il” ruboiysini o‘rganish. Navoiy haqidagi

Xondamirning “Tanbeh” hikoyasini o‘zlashtirish. T.Adashboevning “Navoiy bobomlar” she’rini o‘rganish. Ushbu materiallar orqali o‘quvchilar:

- Navoiyning boshqa shoirlar orasida tutgan mavqei haqida xabardor bo‘ladilar;

- “Xamsa” beshligini yozganligi, she’riy devonlar tuzgani va boshqa ko‘plab asarlar yozganini bilib oladilar;

- berilgan lug‘atga tayanib mumtoz she’rni tahlil qilish ko‘nikmasiga tamal toshi qo‘yiladi;

- Navoiy haqidagi asarlarni o‘rganish orqali mutafakkirning shaxsiy fazilatlaridan ibratlanadilar, o‘zlari uchun kerakli xulosalar chiqaradilar.

2. “Mumtoz adiblar ilm, kasb-hunar va yaxshi fazilatlar haqida” mavzusidagi mumtoz she’r namunalarini o‘rganish. Ogahiyning “Odamidur ilmu donish bila odam sanalur bayti”, Oraziyning “Er yuzi bir dashtu sahro bo‘lsa, gulzori ilm” to‘rtligi, Dilshoda Barnoning “Bu zamonda hamdami roz o‘lmaga o‘qush kerak” to‘rtligini o‘zlashtirish.

-bir mavzu doirasidagi turli mumtoz shoirlarning she’rlarini asliyatda o‘zlashtiradilar;

-ushbu she’rlarni lug‘atga tayanib tahlil qilish orqali bu boradagi tajriba shakllana boshlaydi;

-o‘quvchilarda mumtoz matnlarga mustaqil yondashib tahlil qilish bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalar yuzaga keladi.

3. “Bobur – arslon” matnini o‘rganish. “Boburnoma”ni o‘rganamiz (bolalar yoshiga mos parchani tanlab olinadi). Bobur hayotiga oid “Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyatini o‘zlashtirish. Ushbu o‘quv materiallarni o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar:

- Bobur hayoti va ijodiga oid yangi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar;

- “Boburnoma” misolida ilk bor mumtoz nasr namunasini o‘rganadilar;

- rivoyat orqali shoir ma’naviyatiga doir jihatlarni o‘zlashtiradilar.

Biz mazkur tavsiyalarimizda boshlang‘ich sinf “O‘qish” darslari jarayonida mumtoz matnlarni didaktik tahlil qilishda amal qilinishi lozim bo‘lgan quyidagi tamoyillarga rioya qildik: *tizimlilik tamoyili, tarixiylik tamoyili, hissiylik tamoyili, estetik asoslarning ustuvorligi tamoyili, individuallik tamoyili hamda pedagogik maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili*. Bu tamoyillar mohiyati bizdan oldin tadqiqotlarda sharh qilingan [1;92-96].

Taklif etilayotgan tavsiyalar hamda qayd etilgan tamoyillarga rioya qilinsa, umumta’lim maktablarida mumtoz adabiyot o‘qitish sifat va samarasida ijobiy natijalar kuzatiladi deb o‘ylaymiz. Metodist olim V.Qodirov ta’kidlaganidek, “boshlang‘ich sinfni tugatib, 5-sinfga o‘tgach, o‘quvchilar birdaniga Adabiyot darslarida mumtoz adiblarning to‘liq berilgan she’rlari, asarlardan olingan anchagina katta parchalarni o‘rganishlari, tahlil qilishlari kerak bo‘ladi. Bu borada dastlabki ko‘nikmalarini shakllantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi zimmasiga tushadi. Shu maqsadda u shogirdlariga “O‘qish kitob”larida berilgan mazkur namunalarni misrama-misra tahlil qilish, matndagi ma’noni uqish, unga munosabat bildirishni o‘rgatish lozim” [2;110].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
2. Қодиров В. Бошланғич синфда мумтоз адиблар ижодини ўрганиш юзасидан мулоҳазалар. Илмий ахборотнома (АДУ) – Андижон: 2010. -№ 4.
3. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi. 1-sinf uchun darslik T.: Sharq, 2017.
4. G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi. 2-sinf uchun darslik T.: Sharq, 2018.
5. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik T.: O‘qituvchi, 2016.
6. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik T.: Sharq, 2017.

O‘QUVCHILARDA MATN YARATISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANITIRISHDA MUMTOZ ADABIYOTNING O‘RNI

Rasulova Rayxon Baxritdinovna,
Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola mumtoz adabiyotdagi an’anaviy mavzu va obrazlardan foydalangan holda umumta’lim maktab o‘quvchilarining matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishga doir masalani yoritishga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: nutqiy kompetensiya, an’anaviy obrazlar, farovonlik, davr, muhit, ijtimoiy sharoit, ijod, badiiy mahorat, vatan ravnaqi, yoshlar dunyoqarashi, obrazli fikrlash, matn yaratish.

Abstract

This article is devoted to the problem of developing the ability of secondary school students to compose text using traditional themes and images in classical literature.

Key words: verbal competence, traditional imagery, well-being, period, environment, social conditions, creativity, artistic skill, national development, youth worldview, figurative thinking, text creation.

Dunyodagi jamiki fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Shunday ekan, o‘quvchilarni ona zaminga, mehr-muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari, eng avvalo, ona tilini o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi. Demak, yosh avlodni kamol toptirishda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisining xizmati naqadar ulkandir. Asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini oshirish, o‘qish savodxonliklarini o‘stirish bo‘lib qolmoqda. Maktab o‘quvchilarining quyi sinflaridan boshlab yuqori sinflarigacha barcha sinflar kesimida bunday ishlarni yo‘lga qo‘yish zamonaviy pedagogning o‘z oldiga qo‘ygan talabi bo‘lishi darkor. Buning uchun o‘quvchilarni ko‘proq kitob o‘qishga, adabiyotga murojaat ettirishga o‘rgatish zarur.

Qadimda xalqimiz, hatto hunarmandlarimiz jabr va zulmdan shikoyat etishganda buyuk donishmandlarimiz, «Mevasiz daraxtga tosh otilganini hech ko‘rganmisiz, albatta, mevali daraxtga tosh otilar», deb tasalli berar ekanlar. Jaloliddin Rumiy eng tahlikali vaqtlarda ham xalqidan ajralmagan, o‘zini aslo xalqidan ayro tutib, chetga tortmagan. Mehnatkash va zahmatkash elga yaqinlik, oddiy kishilar qismati uchun chin dildan kuyinish va o‘zini favqulodda mas’ul sezishda ijodkarlarning hissasi beqiyosdir. Hazrat Navoiy butun umri davomida xalqi boy va ziyoli bo‘lishni istadi. Madrasalar qurdirdi, sug‘orish va dehqonchilik

ishlarini yo‘lga qo‘ydi, o‘zi bosh- qosh bo‘lib otasidan meros qolgan erlariga ekin ektirib daromadidan olgan pullarga namunali va yaxshi o‘qigan talabalar uchun moddiy yordam berib turganlar va madrasa ishchi xodimlariga oshpazlardan to farroshlargacha maosh ajratganlar.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida qahramonlar O‘gdulmish bilan O‘zgurmish orasida bo‘lib o‘tgan “Dehqon (tarig‘chi)lar bilan aralashishni o‘rgatadi” nomli savol- javobida shunday deydi:

“Tag‘in bir toifasi dehqonlardir,
Bular mutlaqo kerakli kishilardir.
Bular bilan sen aralash hamda qovush,
Tomoq jihatdan sen tashvishsiz yasha.
Hamma qimirlagan (jon)ga bulardan manfaat (bo‘ladi),
Hammasiga eyim (va) ichimdan halovat yetadi.
Hamma nafas oluvchi (ya’ni jonli) ochiqib-to‘yuvchilar),
(Jamiki) tiriklar bularga hojatmand bo‘ladi.
Bu kishi(lar) senga ham shubhasiz kerak(dir)lar,
(Toki) ular tufayligina tomog‘ingning masalasi hal bo‘lsin.
Bular bilan ham aralashgin, ey qarindosh,
Halquming pok, ovqating halol bo‘ladi.
Nozik, to‘g‘ri yo‘l tutayin desang,
Halqumni poklash kerak, ey xulqi go‘zal.
Muqarrar ehtiyotkor bo‘layin desang,
Halqumga, tanga halol ulush ber.
Dehqon kishilar qo‘li ochiq bo‘ladi,
Ko‘nglini xudo berganidan ham ziyod keng tutadi.
Butun yer yuzida hamma qimirlagan jonning,
Yuradiganlarning ovqati-yu, uchadiganlarning doni (ular)dir.

“Avesto”da keltirilgan ma’lumotlarda ham ajdodlarimiz bu kasbni naqadar ulug‘lashganlarini ko‘rishimiz mumkin. “Avesto”ning asosiy g‘oyalari olamdagi barcha tartiblar, ezgulik (yaxshilik) va yomonlikdagi, ziyo va zulmat, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurashga bog‘liq, dunyodagi barcha ezguliklarni Axuramazda, yomonliklarni Ahriman ifodalaydi, bu kurashda odam bu kuchlar ixtiyoridagi o‘yinchoq emas, u tanlash erkinligiga ega, u o‘z g‘ayrati bilan bu dunyoda adolat topishiga ta’sir eta oladigan kishidir.

“Avesto”da u zamonlarda keng tarqalgan koʻchmanchilik qoralanib, dehqonchilik ezgulik sifatida ragʻbatlantirilgan. Bundan xulosa chiqarib, hozir ham har bir odam hech boʻlmasa bir tup mevali daraxt, gul, sabzavot eksin, oʻziga mevasi nasib etmasa farzandlariga, bechoralarga nasib etadi, savob boʻladi. El rahmatlar aytadi, deb aytilgan.

Avestoda toʻrt element suv, olov, tuproq, havo gʻoyat ulugʻlangan; bularni asrash, avaylashga da’vat etilgan. Uning tarbiyaviy ahamiyati hozir ham katta. Bunga amal qilib, har bir ongli, aqlli vatanparvar, xalqparvar, yoshu-qari tomchi suvni ham isrof qilmasligi, hayot manbai olovni, gazni, koʻmirni, neftni, oʻtinni asrashi; tuproqni iflos qilmasligi, erroziyaga ya’ni nurash, shoʻrlanishga yoʻl qoʻymasligi; havoni esa pokiza saqlashi, ekologik halokatga uchratmasligi ham qarz, ham farz.

Ma’lumki, "Avesto"da ilk dehqonchilik va chorvachilik madaniyati bilan bogʻliq ijtimoiy tartib-qoidalarga oid qarashlar va turli-tuman marosimlarga ham keng oʻrin berilgan. Jumladan, mazkur manbada dehqonchilik bilan chorvachilikni yaratgan zot Axura Mazda nazdida eng ma’qul ish tarzida madh qilinadi. Ayniqsa, dehqonchilikka oid mehnatni hurmat qilish, sevish va qadrlash ta’kidlangan. Shundan kelib chiqib zardushtiylik axloqiy qarashlari bevosita dehqonchilik dehqonlar va chorvadorlar axloqiy dunyoqarashini aks ettiradi.

Dehqonchilikning ezgu va xayrli jihatlari Zardushtning ikkinchi farzandi timsolida mujassamlashgan. "Avesto"ning juda koʻp oʻrinlarida hosildorlikni oshirishdagi asosiy omillardan biri erning zaxini qochirish, shoʻrini yuvish deb maslahat beriladi. Zardushtiylarda yaxlit bir agromadaniyat yaratishga intilish va buning uchun maxsus irrigatsiya tizimi va er maydonlarini jamoa a’zolari orasida tartib bilan taqsimlanishi joriy qilingan. Jumladan, "Vandidod"ning uchinchi fargardi, 4-bandida Zardushtning Axura Mazdaga qarata "zamini hammadan koʻra baxtiyorroq boʻlgan dunyodagi uchinchi joy qayer?" — degan savoliga javob tariqasida Axura Mazda: "Ey Zardusht! Bunday joy bir Ashavan hammadan koʻra koʻprok bugʻdoy, yogʻ va mevali daraxtlar ekkan, odamlar quruq erlarga suv

chiqargan, suvli erlarni shudgor qilgan zamindir",- deb javob bergan. Shuningdek, "Vendidod"da shunday ta’kidlanadi, uzoq vaqt ekilmagan va omoch tegizilmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi va kutadi. Bunday zamin balog‘at pallasiga kirgan sohibjamol qiz kabidir. Har bir oila qurish, farzand ko‘rishni xohlagani qiz singari, haydalmagan qarovsiz er ham qo‘shchini kutadi".

Xalqimiz dunyoqarashi va dehqonchilikka oid an’anaviy xo‘jalik mashg‘ulotida hozirgacha ushbu qarashlar bilan bog‘liq ayrim ko‘rinishlar saqlanib qolgan bo‘lib buni bevosita etnografik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, o‘zbeklarda erni haydash, uni ekishga tayyorlash, suv keltirish, zamin bag‘rida yetishtirilgan hosilni yig‘ib olish savob, dehqonchilik eng sharafli mashg‘ulot hisoblanadi. Ayniqsa, dehqonchilik mavsumi boshlanishi o‘ziga xos tantana tarizda nishonlangan bo‘lib, XX asrning birinchi choragigacha yurtimizning qator mintaqalarida bahorgi shudgor oldidan "is chiqarish" marosimi o‘tkazilgan. Har bir oilada ayollar bo‘g‘irsoq cho‘zma ("is") pishirishgan. Qozonda moy yaxshi qizitilib, so‘ngra unga xamir tashlangan. Yerni haydashdan oldin ho‘kizlarning shoxlari va bo‘yinturig‘ini yog‘ bilan moylaganlar.

Ho‘kizlarni yomon ko‘zdan asrasin, deb tumorlar taqilgan. Keksalarning ta’kidlashlaricha, mazkur odat zaminida uning shoxlari moylanib, baquvvat bo‘lgan ho‘kiz yil bo‘yi hormay-tolmay ishlasin, - degan orzu- niyat mujassamlashgan. Dastlabki egat olish yoki urug‘ sepishni oila yoki qishloqdagi hurmatli keksalar boshlab berishgan.

Biz o‘zbek xalqining an’anaviy turmush tarzi bilan bog‘liq qarashlar va marosimlarni kuzatar ekanmiz, er, don va nonga bo‘lgan o‘ziga xos hurmat-ehtiromni turli-tuman udumlar va marosimlarda hozirgacha saqlanib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari orasidagi xalqona qarashga ko‘ra bug‘doy, olma, qovun, anjir va rayhon dastlab jannatda o‘sgan. Shu bois ushbu o‘simliklar va mevalar doimo e’zozlangan. Ayniqsa, xalq orasida yerga bug‘doy sepish eng xayrli amallardan biri sanalgan va bug‘doy ekilgan maydonlarni oyoq osti qilish gunoh hisoblangan. Shu o‘rinda xalqimizning nonga bo‘lgan

hurmat-e’tiborini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Asosiy xo‘jalik mashg‘ulotlaridan biri dehqonchilik bo‘lgan o‘zbek xalqida non azaldan asosiy va tansiq iste’mol mahsulotlaridan biri bo‘lishi bilan birga non bilan bog‘liq qator marosimlar va urf-odatlar shakllangan. Jumladan, non hech qachon oyoq ostiga tashlanmagan. Nonni bosish og‘ir gunoh hisoblangan. Bundan tashqari kelinni kuyovnikiga kuzatishda boshiga non qo‘yish odati bo‘lgan. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari qadimiy odatga ko‘ra g‘alla somonini hech qachon o‘choq va tandirga yoqishmagan. Chunki donni-nonni yoqish og‘ir gunoh deyiladi. Ajdodlarimiz ta’kidlashlaricha, non bor joyga turli ins-jinslar va yovuz kuchlar yaqinlashmas ekan. Shu bois yomon ko‘zdan, yovuz kuchlardan asrovchi vosita sifatida, yangi tug‘ilgan chaqaloqni yoki xatna qilingan bolaning yostig‘i ostiga boshqa qator magik xususiyatga ega buyumlar bilan birga non qo‘yilgan. Xorazmda non bo‘laklarini tumor qilib taqilgan va non uchun xamir tayyorlab qo‘yilgan yerga (masalan, tandir oldiga) jin, parilar yaqinlashmaydi deyiladi. Atak- chechak qilib yura boshlagan go‘daklarimiz oyoqlari orasidan kulchalar yumalatishgan. Bolakayninng rizqi butun, yo‘llari ravon bo‘lsin, qoqilmay- surilmay o‘z yo‘llarini topib yurib ketsin deya ezgu niyatlar qilishgan. Harbiy xizmatga otlangan yoki uzoq safarga yo‘l olgan yigitlarimizga butun nonni tishlatib qolishgan va eson- omon o‘z uylariga qaytib kelishlariga, shu tishlangan nonni yeyish nasib qilishiga ishonishgan.

Demak biz bundan xalqimizning dehqonchilik bilan bog‘liq qator urf-odatlari kecha yoki bugun o‘ylab topilgan emas, balki o‘zining ko‘p-ming yillik tarixiga ega ekanligiga, zamonlar osha yashab kelayotganini yana bir bor amin bo‘lamiz. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida yerga dastlabki ishlov berish, ya’ni yil boshidagi dastlabki dehqonchilik yumushlari Navro‘z tantanalari bilan bir vaqtda boshlangan. Navro‘z ayyomi dehqonlar uchun ,ayniqsa, ahamiyatli bo‘lgan. Bu kunlarda ekin ekish, dala yumushlari qizg‘in boshlangan. Dehqonlar, bog‘bonlar va chorvadorlar ayozli kunlardan omon-eson chiqib, bahorning issiq kunlarini intiqlik bilan kutib, katta dehqonchilik ishlariga jiddiy tayyorgarlik ko‘rganlar, omoch-bo‘yinturiqlarni, molalarni sozlab, taxt qilishgan, otlar sovutilgan, aravalar tuzatilib ishga yaroqli

holga keltirib qo‘yilgan. Ho‘kizlarni yaxshi parvarishlab, ularni er haydashga olib chiqishgan. Barcha yumushlarga xuddi bayramga tayyorlangandek astoydil hozirlik ko‘rishgan. Hatto mehnat ahliga hurmat bildirish bizning qon- qonimizga singib ketgan. Buning isbotini, dasturxon atrofida:

“Ekkanga – tekkanga, Bobo dehqonga rahmat” yoki “Manzil ozod-Dehqon obod” kabi duolarimizda ko‘rishimiz mumkin. Axir “Adabiyotimiz kuchining” chinakam qudratini ko‘rsatib berish fursati hamon davom etmoqda ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.G‘ulomova M.X.,Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish usullari- T.: 2009

2. Reminissensiya. // O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti. – B. 154. www.ziyouz.com

3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2010

4. Abduqahhorova Xosiyat. Badiiy matnlarda noadabiy til vositalarining ifodalanishi // So‘z san’ati. Xalqaro jurnali, Toshkent, 2020. 4-son, 3-jild. 104-108-betlar.

5. Abduqahhorova Xosiyat. Kundalik hayotda qo‘llaniluvchi chegaralangan leksik qatlam va uning vazifalari. “Актуалные вызовы современное науки” (26-27 мая.Украина 2021).

6. Хасанова Лайло. Хоразмийнинг “Муҳаббатнома”си бадияти // “Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar” Xalqaro konfrensiya. – 896–898 betlar.

7. Ҳасанова Лайло. “Оқчарлоқ Ливингстон” асарида тариқат мақомлари талқини // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021, 325-329 бетлар.

DARS JARAYONLARIDA INTERFAOL METODLAR FOYDALANISH BUGUNGI KUN TALABI

Sharopov Abdunazar
Guliston davlat universiteti
abdunazar1003a@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot darslarida interfaol metodlar qanday foydalanish, yangicha va noodatiy tarzda darsga yondashish haqida fikr bildiriladi.

Kalit so‘zlar: adabiyot darslari, interfaol metodlar, obrazli dars

Annotation

This article discusses how to use interactive methods in literature lessons and how to approach the lesson in a new and unusual way.

Key words: literature lessons, interactive methods, figurative lessons

“Kimki bilimni o‘lchar dunyo, mol bilan,
U gavharni teng qilar sopol bilan”
(Sa’diy Sheroziy)

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar natijasida ta’lim sifati sezilarli darajada oshmoqda. Maktablar yangicha qiyofa kasb etmoqda, lekin adabiyot darslarida dars o‘tishda qayd etish lozim bo‘lgan ayrim muhim jihatlari borki bularni aytish lozim. Avvalo, darsliklar o‘quchilarning yoshiga, qabul qilish darajasiga qarab tuziladi, lekin mumtoz adabiyot namunalari borki ularni oddiy maktab o‘quvchisi anglab yetishi qiyin hisoblanadi. O‘quvchilar darsni to‘liq anglab olishlari uchun faqat an'anaviy dars o‘tish texnikasi bugungi kun uchun yetarli emas. Bu jarayonda darslar noodatiy va interfaol metodlardan foydalanish qo‘l keladi. Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. "Interfaol" tushunchasi ingliz tilida "interact" (rus tilida "interaktiv") ifodalanib, lug‘aviy nuqtai nazardan "inter" - o‘zaro, ikki taraflama, "act" - harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma’nolarni anglatadi. [1] Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi o‘quvchilar butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Bugungi kunda dars o‘tish uchun juda ko‘plab metodlar ishlab chiqilgan va dars uchun tavsiya qilinadi . Bular sirasiga hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari bo‘lgan quyidagilarni sanab mumkin:

Interfaol metodlar: “Keys-stadi”, “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim”, “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar... Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida

bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham koʻproq jihatdan interfaol taʼlim metodlariga tegishli boʻlib, ularning orasida boshqa farqlar yoʻq.

Toʻqqizinchi sinf adabiyot darsligida berilgan Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin " dostonida keltirilgan baytlarni oʻquvchilar qay darajada tushina olishi masalaning bir tomoni boʻlsa, darslikda berilgan lugʻatlar, bugungi kun maktab oʻquvchisi anglashi uchun ana shu lugʻat bilan ishlash koʻnikmasini qanday shakllantirish, qaysi yoʻl bilan ularni lugʻat boyligini oshirish kerak degan masalaning ikkinchi tomonidir. Demakki, dars jarayonlarida shu va shunga oʻxshash muammolar kuzatilar ekan har bir oʻqituvchi qaysi nuqtada xato yo kemtiklikka yoʻl qoʻyayapti va qanday chora koʻrish kerak, avvalo shuni aniqlashtirib olishi lozim.

Misol uchun yuqoridagi muammoni yechimi sifatida dars jarayonida " obrazli dars " ishlanmasini qoʻllab koʻrish lozim boʻladi. Bunda oʻtilayotgan mavzuni oʻqituvchi bir kun oldin hohlagan ikki yo uch oʻquvchiga topshiriq sifatida beradi va bundan boshqa oʻquvchilar xabarsiz boʻladi. Dars oʻtiladigan kuni tayorlagan oʻquvchilar asar qahramonlarining obraziga kirishgan holda “dars oʻtishadi” bunda ham boshqa oʻquvchilar uchun ham esda qolarli boʻladi ham faqat oʻqituvchi emas butun sinf jipslashgan holda mavzuni oʻrganishadi. Lugʻatlar ustida ishlash jarayoniga keladigan boʻlsak bunda oʻqituvchi tomonidan har bir oʻquvchiga maʼlum miqdorda shu darsda berilgan lugʻatlar boʻlib beriladi (Misol uchun 5 - 10 ta) va keyinga darsgacha oʻquchilar shu soʻzning hozirgi oʻzbek tilidagi maʼnosini oʻrganish bilan bir qatorda unig rus va ingliz tilida ham qanday maʼno anglatishini bilib har bir lugʻatni alohida qogʻozchaga yozib, yodlab kelishadi. Bundan ham eski oʻzbek tilidagi soʻzni hozirgi maʼnosini bilishsa, shu soʻzning rus va ingliz tilidagi maʼnosini ham bilishadi va bu bir vaqtda til oʻrganishga yordam beradi.

Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish deganda biz faqat axborot texnologiyalaridangina foydalanishni tushunmasligimiz kerak, noodatiy tarzda darsga yondashish, bir xillikdan qochgan holatda har bir pedagog oʻz dars usulini yarata olishi lozim.

O‘quvchilar ko‘pincha berilgan topshiriqlarni ko‘pligidan yoki tushina olmasligidan vazifani bajarishdan ko‘ra bajarmay qo‘ya qolishni afzal ko‘radilar. Ana shu og‘riqli narsani yo‘qotish uchun mumtoz adabiyot namunalarini o‘rgatish zamonaviy pedagokdan yuqori malaka va tajriba talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z .Xoliqova.Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. (Metodik qo‘llanma) .T - 2013.
2. ziyonet.com
3. arvix.uz
4. googol.uz
5. shuhratbek.uz

XALQ DOSTONLARIDA EPOS VA MIFOPOETIK TAFAKKUR MUSHTARAKLIGI

Nazokat Yusufjonova Nig‘madjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
yusufjonova2504@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xalq dostonlarini bugungi zamon talablari asosida o‘qitish, turkiy xalqlar adabiyotining durdona eposlaridagi an’anaviy poetik motivlar va ularning o‘zaro munosabatini qiyosiy-tipologik yo‘sinda tahlil qilish muammolari o‘rganilgan. Zero, ta’lim bosqichlarida turkiy xalqlar eposlarini qiyoslab o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, uning psixologik, metodik va tashkiliy tamoyillarini puxta ishlab chiqish adabiy ta’limning dolzarb muammosidir.

Kalit so‘zlar: xalq dostonlari, qiyosiy tahlil, poetik tafakkur mushtarakligi, mushohada tarixi, an’anaviy motivlar.

Annotation

There was researched the problems of teaching folk epics in the general secondary schools on the basis of modern requirements, comparative-typological analysis of the similarities and differences of epic traditional motifs of the literature of the Turkic peoples in this article. After all, to create a scientific and theoretical basis for the comparative teaching of the epics of the Turkic peoples and development of its psychological, methodological and organizational principles in the educational stages is a topical problem of literary education.

Key words: folk epics, comparative analysis, common poetic thinking, history of observation, traditional motives.

Xalq bahshilarining tinimsiz mehnati, bemisl ijrolari bilan bizgacha yetib kelgan dostonlarning barchasida turkiy xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan vatanparvarlik, or-nomus, yurt birligi uchun kurash, iymon-e’tiqod kabi

umuminsoniy qadriyatlar tarannum etilgan. Ularni qiyoslab oʻqitish va oʻquvchilarga tushuntirishda doston syujetiga asos boʻlgan bosh motivlarning paydo boʻlish va yaratilish zaruriyatini aniqlash, shundan keyingina qiyosiy tahlilni amalga oshirish lozim boʻladi. Zero, eposlardagi motivlarning yuzaga kelishiga sabab boʻlgan ehtiyoj va zaruriyatlarni taqqoslash qiyoslanayotgan dostonlarning oʻxshash hamda oʻziga xos tomonlarini ochishga yordam beradi.

Deyarli barcha turkiy xalq dostonlarida fabula qahramon jismonan baquvvat, maʼnaviy jihatdan yetuk inson sifatida tasvirlanadi. Komillik gʻoyasini ilgari surgan xalqning mushohadalari uning eʼtiqodiy asoslarini oʻrganish orqali oydinlashadi. Maʼlumki, axloqiy komillik, maʼrifat, ishq, goʻzallik va tafakkurni, asl haqiqat gʻoyasini ilgari surgan mutasavviflar uchun inson haqiqati – Qurʼon, Qurʼonning haqiqati esa komil insondir. Qurʼoni Karimning Al-isro surasida: *“Va laqad karramni bani odama”,* yaʼni Odam bolalarini mukarram qilib yaratdik, deb yoziladi. Unga koʻra, Parvardigorning olamlarni yaratishdan koʻzlagan maqsadi Inson ekani ayon boʻladi. Olam Tangri husn-u jamoli uchun koʻzgu boʻlsa, Inson bu koʻzguning mazhari, yaʼni Yaratuvchi qudrati va asrori, ilm-u karomati aks etgan xilqatdir. Inson – koinot gultoji. Undan boshqa biror jonzotga bunday tafakkur va amal ravo koʻrilmagan. Yassaviy nuqtayi nazarida ham bu dunyo insoni komil bilan fayzli va barqarordir. Zero, u yaxshi soʻz, yaxshi axloq va yaxshi bilimga ega. Shuningdek, haqiqatlarning asl mohiyatini tushunuvchi zotdir [Haqqul, 2001:32]. Bunday xulosalar mutlaqo tasodifiy emas. Zotan, xalqning yuksak ideallarini aks ettirgan Alpomish, Goʻroʻgʻli, Qoʻrqut ota, Avazxon, Ravshan, Edigey, Sansizboy, Kuntugʻmish, Oybarchin, Guloyim, Xolbeka, Zulxumor, Jibek obrazlaridayoq donolik, topqirlik, mardlik va oliyjanoblik xususiyatlari yaqqol namoyon boʻladi. Aksariyat epik qahramonlar xayr-u sahovatli, mard, goʻzal talʼatli, alp kelbat, benuqsonu xiradmand yigitlar. Koʻrinadiki, xalq poetik dahosi iymon butligi, komillik timsolini yaratishga intilgan. Turkman xalqining qadimiy eposi “Qoʻrqut ota”da ham qahramonlarning kuch-qudrati, bahodirlik salohiyatini tasvirlashga alohida eʼtibor qaratiladi. Eposda yozilishicha, qadimda oʻgʻil farzand kamolga

yetib, yigit boʻlib, komillikka erishib, bir qahramonlik koʻrsatmasa, unga xatto ism ham bermaganlar.

Oʻzbek xalq dostonlari orasida gʻoyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biri – “Kuntugʻmish”da ham Avliyoyi Qoraxonning oʻgʻli Kuntugʻmishning oʻn toʻrt yoshga kirguncha ilm-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, oʻn toʻrtdan oʻtgandan keyin qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik , koʻpkaritozlik , nayzadastlik, garovbastlik kabi sipohilik ilmini oʻrganganligi aytiladi. Demakki, qahramonning kelgusida boshiga tushadigan juda koʻp qiyinchiliklar, mashaqqat va sinovlardan omon chiqib, oʻz maqsadlariga yetishishiga aynan jismonan chiniqqani, ilmu hunar oʻrganib, kamolot kasb etgani sabab boʻlgandi.

Qahramonning komillikka yetishishi yor izlab safarga chiqishi, bu yoʻlda koʻrsatgan jasorati va sarguzashti bilan bogʻlanib ketadi. Safar motivi deyarli barcha turkiy xalqlar dostonlarida kuzatiladi. Xususan, oʻzbek xalq dostoni “Ravshanxon”da Ravshanbek Ogʻa Yunus parining uzugida koʻrgan Zulxumorni izlab Shirvon eli xoni Qoraxon yurtiga borarkan, oʻz safari asnosida qancha yoʻl-choʻllarni kezib, turli mashaqqatlarni yengib oʻtadi. Umuman, dostonlarda ma’shuqaga erishish maqsadi toʻsiqlarni yengish bilan esh keladi. Qozoq xalqining “Qiz Jibek” liro-epik dostonida ham bir savdogardan Sirliboy xonning qizi Jibekning xabarini eshitgan Toʻlagan oʻz yurtidan yuz kunlik yoʻl boʻlgan Shekti eli tomon safarga otlanadi. Oʻzga mamlakat xonining qiziga gʻoyibona koʻngil qoʻygan har ikkala qahramonning yaqinlari bilan xoʻshlashib, yurtidan chiqib ketish tasvirlari ham oʻziga xos: Avaz qizini bermagani uchun koʻngli buzilib, Jiyronqushni minib, ota-onasidan qalban rozilik soʻrab, uch oylik yoʻlga chiqqan Ravshanxon darvoza oldida otasi Xasanxon bilan koʻrishib qoladi. Shoshib qilgan ishi uchun noqulay ahvolda qolgan Ravshan holati dostonda shunday tasvirlanadi: *“Ravshanxonni otasining savlati bosib, hayosi gʻolib kelib, nima derini bilmay oʻylanib turib edi, axiri boʻlmadi. Otasiga gapirmay oʻtsa, u ham boʻlmaydi, gapiray desa, uyaladi”.* Yolgʻiz farzandini uzoqroq bozorga ham yuborgisi kelmaydigan Xasanxon avvaliga oʻgʻlini “Yolgʻiz bola yovdan yomon”ligi uchun

yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘ladi. Ammo o‘rtada or-nomus masalasi turgani, o‘g‘lining ahdi qat’iyligini ko‘rib, otalarga xos bosiqlik, donolik bilan *“Bor bolam, manglayingni Xudo ochsin!”,* - deb oq fotiha beradi. Ravshanbek otasidan duo olib, otining boshini solib, yo‘lga ravona bo‘ladi. “Batirliq, bayliq kimde joq, g‘ashыqtыn joni bir basqa” deb kuylanuvchi dostonda lirik qahramon sifatida gavdalangan To‘lagan o‘n ikki yoshidan o‘ziga mos yorni izlashga tushadi va o‘n olti yoshida Jibekka uylanish uchun Shekti eli sari otlanadi. Yoshi bir joyga yetib qolgan onasi uni bu yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘lib, *“Ota-onasin zorlatib, Bir qiz uchun ketdi deb, Do‘st-dushmaning kulmasmi?”* desa ham, *“Ko‘nglimdagi bir yorni olmasam bo‘lmas”,* deb onasi bilan xayrlashib, yilqidan ikki yuz ellik yo‘rg‘a olib, yo‘lga tushadi. Ammo otasi Bozorboy yoshi saksonga etganda ko‘rgan o‘g‘lining o‘z yurtini tashlab, o‘zga ellarga ketishini istamay, oq fotiha bermaydi. Ota rizosini topmagan To‘lagan baxtga erisholmay, Jibekka uylanishni niyat qilib yurgan Bekajon tomonidan o‘ldiriladi. Dostonning ikkinchi qismida bedarak ketgan akasini izlab yo‘lga chiqqan Sansizboy Qalmoq xoni Qorenni o‘ldirib, elni yovdan ozod etadi va Jibekka uylanadi. To‘lagan Jibekka uylanish uchun ikki yuz ellik yo‘rg‘a sotib olgan bo‘lsa, Sansizboy katta bir ishni boshlash uchun otasidan duo oldi. “Ota qarg‘ishi o‘q”, deb hisoblagan xalq To‘laganning halok bo‘lganiga achinish bilan qarasa-da, Sansizboyning ko‘zlagan maqsadiga yetishishini o‘rinli deb biladi.

Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 7-sinf “Adabiyot” darsligiga kiritilgan “Edigey” dostonida To‘xtamishxon Edigeyning o‘g‘li Nuriddinni makkor vazirlari so‘ziga kirib, olti oylik borsa kelmas yo‘lga – uch yuz oltmishga kirgan Soppasli Sipira jirovni olib kelishga yuboradi. Mashaqqatli yo‘lga otlanayotganini sezgan o‘n olti yoshli Nuriddin safar oldidan keksa onasidan duo olib kelish uchun shohdan ruxsat so‘raydi. Duo ijobati o‘laroq aziz avliyolar yo‘ldoshi bo‘lib, safardan sog‘-salomat qaytadi.

Anglashiladiki, “Duo olgan omon” tushunchasi barcha turkiy xalqlar uchun umumiy. Azaldan biror katta ishni boshlash yoki safarga chiqish oldidan albatta kattalardan rozi-rizolik, duo olingan va har ishning natijasi shunga bog‘liq, deb

tushunilgan. 7-sinfda o’qish uchun tavsiya etilgan mazkur dostonlardagi ana shu jihatlarga o‘quvchilar e’tiborini qaratib, turkiy xalqlarga xos bo‘lgan mushtarak tutumlar va urf-odatlar qiyosiy tahlil orqali tushuntirilsa, o‘quvchilar umuminsoniy fazilatlar ildizi olis tarixga borib taqalishini, mulohazalarimiz va tafakkur tarzimizdagi umumiylikni tushunib yetadilar. Zero, matnni tushunish, uni idrok etib, tahlil qilish adabiy ta’lim metodikasining asosiy vazifalaridan. Xalq dostonlarini qiyosiy tahlil qilish chog‘ida o‘quvchilarga safar mashaqqati qahramonni toblashi, turli zahmat va balolarga duchor etishi, ammo har qanday vaziyatda ham o‘zlikni saqlab qolish muhim ekanligini tushuntirish maqsadga muvofiq. Ana shunday qahramonlardan biri Kuntug‘mish Xolbeka visoliga yetishish uchun Zangar yurtiga safarga otlanadi. Bu yurtga kelib Xolbeka bilan topishgandan so‘ng ko‘plab qiyinchiliklarni boshidan kechiradi: Buvraxonning qo‘liga tushib, o‘limga hukm qilinadi. Bir mo‘jiza bilan omon qolgan Kuntug‘mish va Xolbeka sahroda och, tashna qolishganda Xolbeka bo‘lgan barcha voqealarga o‘zini ayblab: *“Meni tashlab ketaver, yo‘qsa o‘zing ham halok bo‘lasan”,* degan iltijosiga *“Sening to‘rang nomardlardan emasdir, Mard o‘g‘lon sevdigin tashlab ketarmi?..”,* deb javob beradi. Ahdiga sodiq, mard va jasoratli Kuntug‘mish safari chog‘ida dahshatli ajdarni o‘ldiradi, xiyonatkor Azbarxo‘ja tufayli xotini, egizak farzandlaridan vaqtincha judo bo‘ladi. Doston so‘ngida qat’iyati, oliyjanob qalbi, taqdirning inoyati sabab Kuntug‘mish yurtga podshoh bo‘lib, xotini, farzandlari Mohiboy va Gurkiboy, otasi Qoraxon bilan topishadi.

O‘ziga munosib yor izlab safarga chiqish motivini 8-sinf “Adabiyot” darsligiga kiritilgan qoraqalpoq xalq dostoni “Maspodsho”da ham ko‘ramiz. U ham o‘z tengini tug‘ilib o’sgan eli Kenegasdan topmay, Tama elining qizi Oyparchaga ko‘ngil qo‘yib, yo‘lga otlanadi. Safari davomida ko‘pgina qiyinchiliklar ko‘rib, Oyparchani olib qochgan qalmoq xoni Boboxonning o‘n sakkiz ming lashkariga qarshi kurashib, ularni engadi. Yetti joyidan o‘q tegib, yetti yil tog‘larda qolib ketadi. Nihoyat Oyparchani yovdan qutqarib o‘z yurtiga olib ketayotgan Maspodsho orqasidan kelayotgan qalmoqning hisobsiz qo‘shinini ko‘rib o‘ylab qoladi: *“Bular Kenegas*

elimgacha borsa odil er boʻlganim ne, qora yer bilan teng boʻlganim ne. Oʻsha yerda qalmoq bilan jang qilayin, yo oʻlayin, yo qalmoqni dinimga kirdirib qaytayin". Turkiy xalqlar eposlari badiiyatidagi umumiylik – doston markazida iymon-eʼtiqod, or-nomus masalasining turganligida koʻrinadi. Qahramonni olis yoʻlga chorlagan ham, qiyinchiliklarni mardonavor yengib, jasorat koʻrsatishiga sababchi boʻlgan ham – oriyat. Ana shu jihatlari bilan eli va dinini oʻz hayotidan azizroq deb bilgan Maspodsho sarguzashtlari Alpomishning taqdiriga oʻxshash. Oʻzbek xalqining "qahramonlik qoʻshigʻi" boʻlmish "Alpomish" dostonida ham Hakimbek yorini qutqarish uchun safarga otlanadi. Yaqinlari bilan xoʻshlashib, oʻz yurtidan chiqib, toʻqson togʻdan oʻtib, zahmat chekib qalmoq shohi Toychixon yurtiga boradi. Yogʻiy bilan kurashib, or talashib, Barchinning shartlarini bajaradi. Poyga, yoy tortish, ming qadamdan tanga pulni urish va kurashda qalmoqlarni yengib, haqiqiy alp ekanini namoyon etadi. Surxayl kampir xiylalariga qaramay, barcha qiyinchiliklarga bardosh beradi. Asar nihoyasida yetti yillik tutqunlikdan soʻng oʻz yurtiga qaytadi va yurtda adolatni qaror toptiradi.

Koʻrinadiki, epik qahramonning safarga chiqishi, yoʻlda uchragan qiyinchiliklarga bardosh berib, jasorat koʻrsatishi barcha turkiy xalqlar eposlariga xos boʻlib, ularda qahramonning kamolot bosqichlaridan oʻtish asrori oʻzining goʻzal poetik ifodasini topgan. "Dada Qoʻrqut" naqllarida ham *"Yoʻl qiyinchiligini bilmagan yigitni Kavkaz argʻumogʻiga oʻtkazishdan foyda yoʻq"*ligi, yigit kishi safarda toblanishi taʼkidlanadi. Bu kabi motivlar barcha turkiy xalqlar eposlariga xos boʻʻlib, ularni qiyoslab oʻqitish oʻquvchilarining maʼrifiy va maʼnaviy jihatdan oʻsishlariga ijobiy taʼsir koʻrsatib, dunyoqarashlari kengayishiga xizmat qiladi.

Turkiy xalq dostonlaridagi epik qahramonning singlisi timsolida ham kuyinchak, akasining baxti uchun borini berishga tayyor obrazni koʻramiz. Xususan, "Alpomish" dostonida Qaldirgʻoch Oybarchinning chorloviga unchalik ham shoshmayotgan Alpomishni *"Aytgan soʻzning poyimini bilsang-chi, Koʻz kuyugi, ey narmoda, oʻlsang-chi"*, kabi soʻzlar bilan qalmoqqa otlantirsa, "Bozirgon" dostonida Oysulton savdo qilish uchun safarga otlangan akasini yoʻldan

qaytarmoqchi boʻladi. Tushida bir qora qush uchib kelib, boshidagi roʻmolini olib ketganini koʻrgan Oysulton akasidan xavotirlanib, koʻz yosh toʻkib, boshiga bir mushkulot tushishini sezib, safarga yuborishni istamaydi:

Aýsoltan diýr, aklym dargady, çaşdy,
Başyma ne söwda geldi-de geçdi,
Jygamy garaguş aldy-da gaçdy,
Janym agam, gitme uzak ýollara.

Umumiy oʻrta taʼlim bosqichida gʻoyaviy mazmunining teranligi, koʻlamining kengligi, badiiylik darajasi jihatidan bir-biriga yaqin boʻlgan turkiy xalq dostonlarini qiyosiy-tipologik yoʻsinda oʻqitish oʻquvchining badiiy asarga boʻlgan qiziqishini oshiradi. Oʻquvchilar turli feʼl-atvor va xususiyatlarga ega boʻlgan qahramonlarning xatti-harakatlari va tutumlarini qiyosiy tahlil qilish orqali insonning chindanda murakkab mavjudot ekanligini, ezgu niyatli, mard, gʻayratli insonlar saodatli taqdirga munosib ekanligini anglab yetadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish. – T.: Sharq, 1998. – Б. 125.
2. Бекметов Р. Литературная компаративистика как методологическая проблема //Филология и култура. №22. – М., 2010.
3. Haqqul I. Ahmad Yassaviy. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2001.
4. Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. –T.: Mehnat, 2000. – Б. 503.
5. Mambetov K., Jaqsimova G, Niyetova R. Umumiy oʻrta taʼlim maktabining 7-sinf “Adabiyot” darsligi. – Nukus: “Bilim”, 2017.
6. Qurʼoni Karim va oʻzbek tilidagi maʼno tarjimalari. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasi). –T.: Sharq, 2008.
7. Seydanov Q., Qaldibayev T., Babasheva G. Umumiy oʻrta taʼlim maktabining 7-sinf “Adabiyot” darsligi. –T.: Sharq, 2017.
8. Soyunova G., Arazov I., Haydarov S. Umumiy oʻrta taʼlim maktabining 7-sinf “Adabiyot” darsligi. –T.: Sharq, 2017.
9. Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Oʻqituvchi, 1996.

TA’LIM JARAYONLARIDA MUAMMOLI VAZIYATLARNI YUZAGA KELTIRISH VA YECHISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

M.G. Talipova
Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada shaxsni o‘qitishning maqsadlari, ta’lim oluvchining ruhiy intellektual shakllanishi, ijodiy tafakkurini, kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga pedogagik yondashuvlar bayon qilingan. Fizika fanini o‘qitishda kursantlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda maqbul usullardan faollashtiruvchi mashqlar, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonlari, ular asosida erishiladigan ta’limiy natijalar, shuningdek aynan harbiy faollashtiruvchi mashqlarning o‘ziga xos jihatlari va xulosalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, ijodiy faollik, original g‘oyalar.

Annotation

There are fisted teaching aims and pedagogical approach of psychological intellectualism developing, creative ideology, learners’ creative thinking in this article. Especially in teaching physics creative developing of cadets there are used necessary developing methods of achiyevement tasks step by step, for attainment planned results, and using these tasks in military life in this article.

Key words: creative thinking, creative activity, original idea.

Pedagoglik faoliyatimizda doimiy ravishda qanday saboq bersam, qay usulda yondoshsam talabalarim fanimni yetarlicha o‘zlashtiradilar, degan savolga duch kelamiz va uning yechimlarini izlaymiz. Shu o‘rinda, o‘qitishda fandagi mavzular emas, balki shu mavzularni o‘rgatishda qo‘llaniladigan metodlar asosiy hisoblanadi, deyishadi tajribali pedagoglar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘qitishning usullari doimiy yangilanib va rivojlantirilib kelindi. O‘qitish usullari qo‘llanish xususiyatiga va beradigan ta’limiy samarasiga ko‘ra biri-biridan tubdan farqlanadi. O‘qitishning muammoli metodlari ta’lim metodlari orasida eng samarali metodlardan biri sifatida qabul qilindi. Muammoli metodlar ilmiy bilish metodlari hisoblanib, talabalarimizni mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda mantiqiy fikrlash asosida ularni tahlil qilish, baholash va yechishga o‘rgatish bilan birga murakkab savollarga javoblar topa olishga, xulosalar qilishga o‘rgatishi bilan muhim hisoblanadi. Bu metodlarni amalga oshirish jarayonlarida talabalarning mantiq va tafakkurga asoslangan yetarli bilim ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari asosiy o‘rin egallaydi.

Oliy malakali harbiy ofitserlarni tayyorlashning muhim talablaridan biri kursantlarda kreativlik sifatini rivojlantirish ekanligi hisobga olgan holda biz ushbu yo‘nalishda kursantlarning ijodiy fikrlash qobiliyatini kasbiy shakllanishiga xos xususiyatlarni o‘rganishimiz kerak. Xususan, kursantlar ijodiy faolligining umumiy psixologik asoslari oliy ta’lim jarayonida kasbiy shakllanishida ijodiy tafakkur rivojlanishining ahamiyatini egallaydi. Alohida olingan fanlar buyicha kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishda kreativlikni rivojlantirishning psixopedagogik imkoniyatlarini chuqur tadqiq etishimiz kerak.

O‘quv mashg‘ulotlarida muammoli vaziyat va savollar bilan kursantlar faolligini oshirish, ularni ijodiy yondashuv talab qilinadigan aqliy faollikka undash o‘z samarasini bermasligi mumkin emas. Ayni vaqtda, amaliyotda bunday shakldagi mashg‘ulotlarda odatda, o‘zining ijodiy faolligi bilan avvaldan ajralib turgan kursantlarning dominantligi, hamda nofaol kursantlarning yana ikkinchi qatorda qolib ketishiga guvoh bo‘lish mumkin. Shuning uchun, biznigcha, ko‘proq ta’lim jarayoni shakli va usullariga oid ushbu yangicha yondashuvlarning samarali natija berishi uchun ularni qabul qilishga kursant shaxsini tayyorlashimiz zarur.

Kursantlar ijodiy tafakkurini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida intellektual masalalarni ajratib kursatish mumkin. Bunday masalalar kursantning bilish zaxiralarini xarakatga keltirib, uning aqliy faoliyatida tadqiqotchilik uslubini shakllantiradi. Kursantlar bilan darsdan tashqari ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishda, o‘quv mashgulotlarida ularning diqqat- e’tiborini saqlab turish uchun qisqa muddatli xordiq daqiqalarini o‘tkazishda mutaxassislik fanlari ish materiali bilan tanishish orqali o‘zlashtirilishini ta’minlashda yordam berishi ko‘zda tutilgan. Muammoli vaziyatlarga asoslangan ushbu masalalar orasida ayniqsa yagona aniq yechimi bo‘lmagan va kursantning o‘z imkoniyatlari darajasida quyilgan masalaga chuqur kirishi uchun sharoit yaratuvchi, bunda avvaldan qo‘yilgan shartlarni qayta ko‘rib chiqish, birlamchi ma’lumotlar tarkibini qayta tuzish va to‘ldirishni talab qiluvchi topshiriqlar samarali bo‘ladi. Umuman, zamonaviy oliy ta’lim jarayonida fizika fanini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarda mashq qildirishga asoslangan uslubiy

yondashuvlarning ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi samarasizligiga urg‘u berib, bunga ko‘proq e’tibor kursantlarning mustaqil aqliy xarakatlarini ta’minlashga qaratilishi kerak.

Bugun ijodiy yondashuv nafaqat an’anaviy ravishda ijodkorlikka asoslangan deb hisoblanuvchi kasblar, balki noaniq, avvaldan tayyorlanib qo‘yilgan xatti-xarakat usullari bo‘lmagan, yangicha biror narsa o‘ylab topilishi kerak bo‘lgan xar qaysi faoliyat sohasi UCHUN o‘ta muhim ekani barchaga ayon. Mutaxassislar takidlaganidek, kreativlik - bu qandaydir yakka sifat emas, balki inson psixik xususiyatlarining o‘ziga xos kompleksi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
Intellektual sifatlar - tafakkur tezligi (ko‘plab fikrlar. g‘oyalar va assotsiatsiyalarning uyg‘onishi), tafakkur egiluvchanligi (vujudga kelayotgan g‘oyalarning xilma hilligi), tafakkur originalligi (o‘ylab topilayotgan g‘oyalarning o‘rinli bo‘lish barobarida kamyobligi, noodatiyligi). Shaxs sifatlari (avvalo, yangi hayotiy tajriba uchun ochiqlik). Qadriyatlar tizimi (rivojlanish, bilish va erkinlik qadriyatlarini yuqori qo‘yish). Ushbu sifatlar aslida muayyan darajada barcha odamlarga xosdir. Ular qandaydir noyob odamlargagina tegishli emas. Alohida e’tiborni jalb qiladigan jihat shundaki, garchand mutaxassislar kreativlik nafakat inson intellektual sohasi, balki shaxs xususiyatlari olamida ham muayyan o‘ziga xoslikni taqozo etishini ta’kidlashsa ham, kreativlikni rivojlantiruvchi vosita sifatida asosan tafakkur sifatlari taraqqiyotini stimullashtiruvchi mashqlarni taklif etadilar.

1-Mashq: “Nima, qaerdan, qanday qilib?”

Mashqni mazmuni: Doira bo‘lib o‘tirgan ishtirokchilarga fizikaning biror mavzusiga tegishli, lekin harbiy sohada ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan buyum yoki uning surati ko‘rsatilib, “bu nima?”, "qaerdan paydo bo‘lgan?", “harbiy sohada qanday qilib ishlatish mumkin?" degan savollar beriladi. (Masalan elektr g‘altagini berish mumkin. Bu g‘altakdan elektr tokini o‘tkazilsa uning atrofida magnit maydoni hosil bo‘ladi. G‘altakning ichiga feromagnitik o‘q joylashtirilsa, tokni ulash vaqtida uning atrofida hosil bo‘ladigan magnit maydoni hisobiga g‘altak ichidagi o‘q otiladi). Ishtirokchilarga har qaysi javob variantini takrorlash mumkin

emasligi, har kim yangi-yangi javoblarni oʻylab topishi kerakligi eslatiladi. Mashqda qoʻllanadigan narsa-buyumlarni topishning eng oson yoʻli kundalik hayotda keng tarqalgan narsa-buyumlarning oʻzi emas, balki ularning boʻlaklari, ayrim qismlarini olishdir (odatda narsa-buyumlarning alohida qismlari nima uchun qoʻllanishi nisbatan muhim boʻladi). Mashqning foydasi. Mashq yengilgina intellektual chigal yozdi oʻyin sifatida qoʻllanib, ishtirokchilarda tafakkur tezligi, noodatiy gʻoya va assotsiatsiyalarni ilgari surish qobiliyati rivojlanishi uchun yordam beradi. Mashq muhokamasi, ish yakunida ishtirokchilar bilan savollarga berilgan qaysi javoblar ayniqsa yodda qoladigan, qiziq va original boʻlgani yuzasidan muhokama oʻtkaziladi.

2-Mashq: “Original foydalaning”.

Mashqning mazmuni. 4-5 kishidan iborat guruhlarga ajratilgan ishtirokchilarga oʻzining asl vazifasida qoʻllanishi uchun yaroqsiz boʻlib qolgan oddiy fizik asbobi (eski priyomnik, kuygan saqlagich, kuygan lampochka, siyohi tugagan ruchka, tutqichi singan koʻzoynak va x.k) oʻzgacha qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligi haqida oʻylab koʻrish vazifasi beriladi. Ishtirokchilarga ular taklif etadigan usullarning hayotda real amalga oshirilishi mumkin boʻlishi kerakligi eslatiladi. Ish 10 daqiqa davom etadi. Imkoniyat boʻlsa ishtirokchilarga mashq uchun tanlangan buyumlarni asl holida ham takdim etish maqsadga muvofiq. Guruhlar natijalari quyidagicha e’lon qilinadi: bitta guruh muayan buyumning noodatiy qoʻllanilishi yuzasidan bir variantni aytadi, soʻngra navbat buyicha ikkinchi guruh shu buyumga tegishli oʻzining oʻzgacha variantini aytadi va shu tariqa navbatma navbat variantlarning barchasi e’lon qilinguncha ish davom etadi, har bir variant uchun 1 ball (agar narsa-buyumlar ishtirokchilarga asl holda taqdim etilgan boʻlib, guruh oʻz variantini e’lon qilish davomida tegishli buyumning qanday qilib noodatiy qoʻllanishi mumkinligini nafaqat aytib, balki koʻrsatib ham bersa 2 ball)dan baho oladi. Oʻyin davomida eng koʻp ball toʻplagan guruh gʻolib boʻladi.

Mashqning foydasi: mashq ijodiy tafakkur sifatlari (tezlik, orginallik, egiluvchanlik)ning namoyon boʻlishiga oid yorqin koʻrgazmali material taqdim

etadi, ushbu sifatlarning rivojlanishiga, harbiy yurishlarda vaziyatni idrok etishda shablonlardan tashqariga chiqishni o‘rgatishga yordam beradi. Qolaversa, mashq ishtirokchilari e’tiborni kreativ yechimni qidirishda guruhlarda rollar taqsimoti qanday kechishiga qaratadi.

3-Mashq:”Harakat usuli”.

Mashqning mazmuni. Ishtirokchilarga muayyan oddiy, ammo muammoli vaziyatdagi masalani hal etishning imkon qadar ko‘proq usullarini taklif etish vazifasi beriladi (masalan, samolyotdan sakrash vaqtida parashyut ochilmay qolsa qanday yo‘l tutish, ratsiyasiz aloqaga chiqish, qaychi topilmaganda qogoz kesish, narvonsiz balandda turgan narsani olish, futbol to‘pining diametrini oddiy yog‘och chizg‘ich yordamida aniqlash, sekundomer va bo‘sh konserva bankasi yordamida uyning balandligini aniqlash va h.k). Ish ishtirokchilar 3-4 kishidan iborat guruhdarga ajralgan holda bajarilsa ancha jadal kechadi. Shuningdek mashqning, yanada qiziqarli bo‘lishi uchun boshlovchi dastlab yechilishi lozim bo‘lgan 5-6 ta muammoli masalani keltirib, ishtirokchilarga ulardan o‘zlariga qiziq bo‘lgan 2-3 tasini tanlab olishga imkonin berishi maqsadga muvofik.

Mashqning foydasi. Mashq noodatiy vaziyatdan chiqishda namoyon bo‘luvchi ijodiy tafakkurning asosiy sifatlari mashq qildirilishiga yordam beradi.

Mashqning muhokamasi: Muxokamada ishtirokchilar e’tibori yangicha original g‘oyalarning tug‘ilishiga nima yordam bergani va aksincha, nimalar halaqit qilgani, o‘xshash vaziyatlar hayotlarida qanchalik tez-tez uchrab turgani yuzasidan fikr bildirishga qaratiladi. Yuqoridagi qisqacha tahlildan ko‘rinib turganidek, tafakkur kreativligini rivojlantirish ko‘zda tutilgan metodik vositalarning aksariyati odamdan ijodiy yondashuvni talab qiluvchi topshiriqlardan iboratdir. Bu yerda turli bilish jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq va mashg‘ulotlardagi yondashuvga anologik holatning guvohi bo‘lib turibmiz.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dunyoda ilmiy kashfiyot va ixtirolar tobora ortib, harbiy texnika jadal rivojlanib borishi bilan, kreativ fikrlaydigan ofitserlarga bo‘lgan ehtiyoj ham kuchayib bormokda. Ijodiy faollik darajasi yetarlicha

shakllanmagan odam atrof-olam tomonidan uning oldiga qo‘yilayotgan yangidan yangi savollar javobi va muammolar yechimini topishga qiynaladi. Shu asosda ijodiy yondashuvning yetishmasligi odamning dezadaptatsiyasi sabablaridan biri sifatida gavdalanadi. Zero, ijod odam hayotida yangicha muhitga faol moslashuv, o‘zini shaxs sifatida to‘liq namoyon etish jarayonining ajralmas qismidir.

Albatta, ijodiy fikrlash qobiliyatini imkon qadar ertaroq, kursantlikning ilk bosqichlaridan rivojlantirishga e’tiborli bo‘lish lozim. Kursantlarning yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishida uning nafaqat tegishli kasbiy bilimni mukammal egallashi, balki yanada muhimrog‘i, ushbu bilimdan ijodiy foydalana olishi, o‘z tanlagan sohasi bo‘yicha harbiy ofitser oldiga qo‘yiladigan standart topshiriklarni bajarishdan tashqari ijodiy faoliyatga qodir bo‘lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan kursantlik davrida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik imkoniyatlarini tahlil etish va bu maqsadda qo‘llanuvchi uslubiy vositalarni tizimlashtirish quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini bermoqda:

1. Ijodiy fikrlash qobiliyatini kursantlik davrida rivojlantirish yunalishidagi faoliyatda bir vaqtning o‘zida kursant shaxs va harbiy intellekt sohasiga rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatish choralarini ko‘rish.

2. Kursantlarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun turli samarali yondashuvlar qatorida ularning harbiy intellektual xissiyotlarga moyillik darajasini stimullashtirish usulidan foydalanish maqsadga muvofikdir.

Eng muhimi, kursantlarga keng ko‘lamdagi ijodiy faoliyat maydoniga aylantirib bo‘lmaydigan soha va kasbkorning o‘zi mavjud emasligini tushuntirish kerak. Ularning ongiga ijod jarayoni orqaligina odam o‘zining mavjud zaxira imkoniyatlarini to‘liq ruyobga chiqarishi va shundagina shaxs sifatida o‘zini o‘zi to‘la to‘kis namoyon etishi mumkinligi haqidagi g‘oyani singdirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. П.Эргашев, Г.Гозибекова, Г.Байкунусова. Талабаларда ижодий фикрлаш қобилиятини ривожлантиришнинг услубий жиҳатлари.-Т. “BAYOZ”, 2013.-18б.

2. Боно Э. Серьёзное творческое мышление-МН: ООО «Попурри», 2005.- 416 с.

3. Слоун П. Мак Хейл Д. Оригинальные головоломки на нестандартное мышление. – М.:АСТ: Астрель, 2006.-96 с.

TALABALAR MINBARI:
ADABIYOT TA’LIMIDA INNOVATSION G‘OYALAR

ADABIY LABORATORIYALAR ORQALI O‘QUVCHILARNI TANQIDIY VA IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Nurmuhammadov Jamoliddin
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU II kurs magistranti
jamoliddinnur88@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarni tanqidiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatishning ahamiyati aks etgan. Bunday fikrlash tarzini adabiy laboratoriyalar orqali turli interaktiv va integrativ usullar orqali singdirish masalalari, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil tarzda mutolaadan oldin va keyingi shaxsiy fikrlarini qiyosiy o‘rganishi, mulohazalarini filtrlash orqali subyektivlikdan obyektivlikka erishishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: adabiy ta’lim, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kreativ fikrlash, adabiy laboratoriya, konsepsiya, kitobxonlik

Annotation

The article emphasizes the importance of teaching students critical and creative thinking. There is talk of introducing this way of thinking through various interactive and integrative methods in literature labs, as well as self-comparative student exploration of personal thoughts before and after reading, from subjectivity to objectivity by filtering feedback.

Key words: literary education, critical thinking, creative thinking, literary laboratory, concept, reading.

O‘quvchilarning zamonaviy bilim, ko´nikma va malakalarni faqatgina o‘zlashtiribgina qolmasdan, balki uning barcha komponentlarini hayotga qo‘llay olishi muhim vazifa ekanligini har bir pedagog va har bir ta’lim muassasasi tushunib yetsagina ishda samaradorlik bo‘ladi. Har bir fan qatori adabiyot fani darslarida ham o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasini shakllantirishda aniq tavsifli mashg‘ulotlarni tashkil etish sifatli samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ta’limning har bir rivojlanish bosqichlari oldingilarini biroz takrorlaydi, biroz yangilaydi. Bu borada “yangilik – unutilgan eskilikdir” iborasi mashhurdir. O‘qitishga urinish emas, balki tushunishga, fikrlashga o‘rgatish bugungi kun

svilizatsiyasining asosiy talabidir. O‘quvchilarning voqea-hodisalarga munosabatini shakllantirishda tanqidiy va ijodiy fikrlarini erkin namayon qilishga o‘rgatish ta’lim dasturlarining asosiy tamoyili bo‘lishi kerak.

Xalq ta’limi vazirligining 2021-yilda yangilangan “Umumiy o‘rta ta’limda adabiyot fanini o‘qitishni rivojlantirish Konsepsiyasi” da ham adabiyot o‘quv fanini o‘qitish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida adabiyot saboqlarining o‘quvchilarda yozma va og‘zaki savodxonlik, badiiy did, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalari shakllantirishga yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan.

Biror bir voqeani tahlil qilayotganda unga shunchaki neytral munosabat pozitsiyasida emas, balki daxldorlik hissi bilan fikrlash muhim masaladir. Fikrlashga o‘rgatish yoki o‘rganish pedagogikaning azaliy muammolaridan va tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib kelgan. “Fikrlash” - biror muammo haqida muayyan bir xulosaga kelish maqsadida mulohaza yuritish yoki o‘ylashdan iborat bo‘lgan intellektual hamda lingvo-psixologik jarayon.

Tanqidiy fikrlash esa narsalar va hodisalarni analiz qilish orqali asosli xulosalar chiqarish maqsadidagi mulohazalar tizimi bo‘lib, u tanqidiy baholash xarakteriga ega. Ya’ni, u tanqidga tayangan analitik fikrlashdir.

“Tanqidiy fikrlash maqbul yechimni topishning yaxshi usullaridan biri bo‘lsa-da, undan doimo foydalanish maqsadga muvofiq emas. Odam o‘zini doimo to‘g‘ri deb hisoblamasligi kerak. Garchi bu rohat bag‘ishlasa-da, u boshqa nuqtayi nazarlarga e’tibor bermasligimizga olib keladi. Barcha qarorlarni qabul qilish uchun ham tanqidiy fikrlash zarur bo‘lavermaydi”.[18]

Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent A. G‘aniyevning yuqoridagi fikriga ko‘ra, tanqidiy fikrlashda ko‘proq subyektivlik omili asosiy rol o‘ynaydi. Muammo yuzasidan bir qarorga kelishda ko‘pincha tanqidiy fikrlashdan ko‘ra

[18]**G‘aniyev A. Ta’limda tanqidiy fikrlash kerakmi? //https://xs.uz/uz/post/talimda-tanqidij-fikrlash-kerakmi**

“ijodiy fikrlash” elementlarini qo‘llagan ma’qul. Ijodiy fikrlash muammoning yechimini topish jarayonida yangi narsani yaratish maqsadidagi fikrlashdir.

Ta’limda ijodiy fikrlash – o‘rtadagi mavzuning ma’nosini tushunishga va anglashga yo‘naltirilgan bo‘lib, shu mavzu doirasidagi muammolarni o‘quvchilarning o‘zlari yangi g‘oya va kutilmagan xulosalar bilan yechim bera olishlaridir. Hozirgi paytda adabiyotlarda “ijodiy fikrlash”ga alternativ sifatida “kreativ fikrlash” iborasi ham ishlatiladi. “Kreative” - inglizcha so‘z bo‘lib – yaratmoq, ijod qilmoq degan ma’noni anglatadi va shaxs faoliyatini ifodalaydi. Kreativlilik-ijodkorlik qobiliyati. Kreativ fikrlash (ijodiy fikrlash) — g‘ayrioddiy g‘oyalarga tayanib muammoning yechimini topish maqsadidagi fikrlash. Kundalik hayotda kreativlik-chorasiz holatlarda maqsadga erishish, muammoga yechim topa olish layoqatini ko‘rsatadi. Hozir u ikkita: **yangilik va manfaat berish ko‘rsatkichlari** asosida baholanadi.[19]

Tanqidiy – ijodiy fikrlash **“originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik”** tamoyillari borligi bilangina alohida mavqega ega bo‘ladi. Adabiy ta’limda ham tanqidiy-ijodiy fikrlash orqali asar mazmunini ko‘lamdorroq anglash, mushkul vaziyatlarni kengroq tasavvur qilish mumkin. Aniq tasavvurgina asar mohiyatini ocha oladi. “Kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim”.[20]

Adabiy ta’limning har qanday bosqichida o‘quvchilarning tanqidiy-ijodiy fikrlashini to‘laqonli rivojlantirish uchun mutolaani to‘g‘ri tashkil etish zarurdir. Chunki adabiy asar ilmiy-ommabop turkumidagi kitoblardan farqli ravishda alohida vaqt va e’tibor talab etadi. Zarur shart-sharoitga ega bo‘lgan mutolaa jarayoni inson

[19] O`sha manba.

[20] Jumanova S. “Noodatiy fikrlash mahorati yoxud kreativlik qanday shakllantiriladi?” //*http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/3305.htm*

ruhiyatini yengillatib, unga ulkan zavq bag‘ishlaydi. Ammo bu zavqlanish faqatgina yashashdan lazzatlanish, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish, hordiq chiqarish, ermak uchungina emas, balki hayotning turfa savollariga aniq, mazmunli javob qidirish, ko‘rganlarimizni badiiy haqiqat tizgini bilan solishtirish, turfa o‘ylarning sarkash dunyosini kashf qilish nuqtai nazaridan ham qimmatlidir.

O‘quvchi mutolaasining asosiy manbasi badiiy asar bo‘lmog‘i zarur. Kitob va unga bo‘lgan munosabat esa asrlar davomida turfa ko‘rinishlarda namoyon bo‘ldi. Bu munosabatlar zamirida kitobga bo‘lgan cheksiz mehrdan tortib, uning komillik mezoni darajasini belgilovchi asosiy vosita ekanligigacha bo‘lgan ulkan ishonch yotibdi. Adabiyot darsi o‘quvchilar uchun eng yaxshi kitobxonlik va bu orqali samarali fikrlashga o‘rgatish darsi hamdir. Bunda biz o‘quvchilarning dunyoqarashi nechog‘lik darajada ekanligini aniqlab olamiz. O‘ziga xos fikrlashga o‘rgatadigan kitobxonlik va uning targ‘iboti uchun muhim vositalardan biri bu adabiy laboratoriyalardir.

Adabiy laboratoriya – muayyan adabiy mavzular, badiiy asarlar targ‘iboti doirasida olib boriladigan ijodiy tadqiqot va loyihalar, yangiliklar va kashfiyotlardir. Bu jarayonlarda o‘quvchi o‘z-o‘zidan adabiy lobarantga aylanadi. Laboratoriya individual va jamoaviy tashkil etilishi mumkin. O‘quvchilar sinfning ko‘ngilli jamoasi bilan ishlab adabiy ta’lim rivojiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Adabiy laboratoriyada olib boriladigan har bir tadqiqot kreativ yondashuv asosida bo‘lishi uning yangilik va manfaat berish ko‘rsatkichlarini oshiradi.

Adabiy laboratoriyaga mashg‘ulot turi tanlanayotganda, albatta, u tanqidiy-kreativ fikrlashga undaydigan, innovatsion g‘oyaga turtki beradigan va ishlab chiqarishga yo‘naltiradigan bo‘lishi kerak. Asosiysi, kitob targ‘ibotiga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Bo‘lajak kitobxonni targ‘ib qilinayotgan kitobga ixtiyoriy va ko‘ngilli yondashuviga erishish orqali adabiy laboratoriyaning asl maqsadlari ishlay boshlaydi.

Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yangicha pedagogik, interaktiv usullarning adabiy laboratoriyani ilk bosqichini shakllantirishdagi ahamiyati juda katta. O‘quvchini badiiy asar mutolaasiga undash orqali “...bizning benihoya yuksak darajada mashinalashgan zamonamizda standartlashtirish va jo‘nlashtirishga qarshi eng yaxshi vosita”[21] ga ega bo‘lamiz. O‘qish – bizning hayot haqidagi tasavvurlarimizni, boshqa odamlarning fe’l-atvori va ehtiyojlari to‘g‘risidagi tushunchalarimizni kengaytiradi, kitob odamga o‘zining “men”i hududidan tashqariga chiqishiga yordam beradi.[22]

O‘quvchilarning kitob mutolaasiga qiziqtirish uchun interaktiv va motivotsion xarakterdagi usullar zarur. Tajribamiz davomida qo‘llagan va aniq natijalarga erishilgan ayrim usullarni namuna tariqasida keltiramiz.

“Annotasiya orqali jalb qilish” texnologiyasi:

Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot o‘qituvchisi dars olib boradigan sinfning psixo-fiziologik yoshiga mos holda tanlagan badiiy asarga qiziqtirish yo‘lini aniqlab oladi. Buning uchun o‘qituvchi kitobning badiiy asar haqidagi o‘zi tayyorlagan kichik jumboqli annotatsiyani o‘qib beradi va o‘quvchilarga shu annotatsiya asosida asarda qanday voqealar borligini taxminiy bayon qilishni taklif etadi. Masalan, Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi bo‘yicha quyidagicha: *“U kal edi, “5-sinf kalla bilan qolgan” ligi uning zafarlariga to‘siq bo‘lolmadi. Otni akam der edi, ot aka esa, o‘z navbatida, ukasini doim siylar edi: uloq ayirib berar edi. Moskvada tramvayni ko‘rib, “asr mo‘jizasi” nima ekanligini anglagan sodda qishloq odamlari haqidagi qissa”.*

Yuqoridagi jumboqli annotatsiyadan so‘ng o‘quvchilarga taxminiy voqealar rivojini yozish bo‘yicha qoralama tayyorlash vazifasi beriladi. Qoralamalar tayyor bo‘lgach, birinchi galda, o‘qitib ko‘rish zarur. Shundan so‘ng esa, o‘qituvchi o‘quvchilarga:

[21] Jahon adiblari adabiyot haqida to`plami. Golsuorsi J. “Adabiyot va hayot” maqolasi / Toshkent: - 2010 – 76-b.

[22] O`sha manba.

- Mana endi, Siz bilan yozuvchi fikrini solishtirib chiqish payti keldi. Qani, kimning fikri yozuvchi fikri bilan uyg‘un ekan, buni Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasini o‘qib bo‘lgach, bilib olamiz. Siz Tog‘ay Muroddek fikrlabsizmi, yo‘qmi? Keling, shu asarni o‘qib chiqamiz, - deydi. Shundan so‘ng mutolaa uchun muayyan muddat belgilanadi. Belgilangan muddat tugagach adabiyot yoki to‘garak darslarida asar tahlili o‘tkaziladi va o‘quvchilarning “yaxshimi-yomonmi” o‘ziga xos annotatsiyalarini yozdirib, kerak bo‘lsa, rasmlari bilan maktab devoriy gazetasiga osdirib qo‘yish mumkin. Bu bilan kitob o‘qiyotgan bola haqida atrofdagilarni ogohlantirishga erishiladi. Annotatsiyani yozgan o‘quvchilar o‘z fikrlarini tengdoshlari bilan baham ko‘rayotgani uchun ham endigi asar uchun o‘zida jiddiy kuch to‘playdi.

Badiiy asar qanchalik sinchkovlik bilan o‘qilganini sinash uchun esa asardagi ayrim parchalar saralab olinib, ichidagi ba’zi so‘zlarni juda o‘xshash boshqa so‘z va jumlalarga o‘zgartiriladi va kartochka tarzda o‘quvchilarga tarqatiladi. Juda tez va to‘g‘ri topgan o‘quvchilarga darslar jarayonida imtiyozlar berib borgan ma’qul. Masalan, Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasidan:

“Unsin boyagi gapni duoday tez-tez qaytarib, qo‘rquvni o‘ziga yo‘latmayotgan bo‘lsa ham, ko‘ngliga: “O‘likning yuzimikin?” *(aslida “...qornimikan?”)* — degan gaplar keldi-yu, yuragi orziqib oyog‘ini darrov sug‘urib oldi va chuqurda qolgan ro‘molini *(aslida* “*… bir poy kovushini”)* olgani yurak qilolmay, oyoqchan *(aslida “...mahsichan”)* ketaverdi. Unsin bir necha qadam bosgandan keyin paranji-chimmati sag‘ananing oldida qolganini eslab to‘xtadi, lekin qaytib borgani botinolmadi”.[23]

O‘qilgan asar, zotan, o‘quvchi uchun unchalik qiziq tuyulmasa va bu o‘z vaqtida anglansa, quyidagi usul orqali o‘quvchi fikrini yana asar markaziga qaytarish mumkin. Masalan, Uilyam Shekspering “Otello” fojeasini o‘rganishga oid tajribadan namuna ko‘rib chiqamiz. Ushbu asarning mashhur dialogidan boshqa o‘rinlari o‘quvchilar uchun go‘yoki qiziq emasdek, yoki butun boshli asar xuddi shu

[23] Adabiyot. 7-sinf uchun. O`quvchilar uchun darslik// Yuldashev Q va boshq. / T.: 2017. -321-b

dialog uchun yozilgandek taassurot qoldiradi. Aslida-chi, keling yaxshisi, buning uchun quyidagi “Ortiqcha obraz” o‘yinini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun o‘quvchilarning barchasiga shu asardagi o‘zi ortiqcha hisoblagan bir obraz (bu yerda kishi yoki biron bir predmet ham bo‘lishi mumkin) ni asardan olib tashlab, asar rivojini tasavvur qilib ko‘rish tavsiya qilinadi. Shu usulni o‘quvchilarim o‘rtasida o‘tkazganimizda, ularning kutilmagan javoblari diqqatimizni tortdi. Mana ularning javoblari:

Alisher: - Emiliyani yo‘q deb tasavvur qildim.

O‘qituvchi: - Xo‘sh, keyin-chi?

Alisher: - Emiliya bo‘lmaganida Otello o‘lmasdi, Dezdemona ham tirik qolardi. Chunki Emiliya Dezdemonaning ro‘molchasini topib olmaganida, Yagoga bermagan, Kassio uni yonida saqlamagan bo‘larmidi deyman-da! Shundan keyin, o‘z-o‘zidan, ikki qahramon o‘lmagan bo‘lardi, deb o‘ylayman.

Xuddi shunday suhbatni davom ettirar ekanman, darsga umuman befarq bir o‘quvchi – aftidan, bu asarni umuman qo‘lga olmaganligi sezilib turardi – to‘satdan shunday dedi:

- Otelloni o‘limdan saqlab qolish uchun asardan Otello doim yonida olib yuradigan xanjarni olib qo‘yish kifoya edi.

O‘quvchilarning kutilmagan javoblari mashg‘ulotning qiziqarligini yanada oshirib boraveradi. Natijada o‘quvchilar o‘zlari mustaqil o‘qigan asarlaridan ham ma’lum obraz yoki kichik voqealarni olib tashlasa, asar voqealari rivoji qay tomonga o‘zgarib ketishi haqida keng tasavvurga ega bo‘ladilar. Asarni bunday qiziqarli tahlil qilishning hayotiy tomonlari ham bor. Misol uchun, yaqinlarimizdan kimningdir hayotimizdan to‘satdan yo‘q bo‘lib qolishini-yu, uni butun umr ko‘rmasligimizga ishonch hosil qilgani zahotimiz, uni darrov qadriga etishga oshiqamiz.

Badiiy asar mutolaasiga qiziqtirishda ko‘pincha majburiy vaziyatlar yaratishimiz orqali o‘quvchi-yoshlarda bu yumushni ado etish ko‘tarib bo‘lmaydigan yukdek, yoki o‘qisa ham, ularning xulosalarini so‘raganda “yiliga

etmagan tuyadek” cho‘zilishlarini ko‘ramiz. Demak, mutolaa majburiyatmi yoki mas’uliyat?! Bizningcha, mas’uliyat muhimroq. Chunki majburlash negizida “jabr-sitam ko‘rsatish” yotadi. Yoshlarni muayyan ishni qilishga majburlash orqali biror bir ishni ado ettirish ularda javobgarlik hissini uyg‘otmaydi. Balki, tezroq shundan qutulsa-yu, o‘z ishi bilan band bo‘lsa. Aksincha, bo‘lsa-chi, ya’ni mas’uliyatni oshirsak qanday bo‘lar ekan? Bunday ishonchli mas’uliyat o‘quvchining tanqidiy-ijodiy fikr yuritishiga han ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyot muallimlari darslarda berilgan asarni o‘quvchilardan so‘rayotganda faqat voqealar rivoji bilan qiziqmay, balki asarning kerakli o‘rinlarini tahlil qilishga ko‘proq e’tibor qaratsalar, nur ustiga nur bo‘lar edi. Turfa asarlarni qiyosiy o‘rganishni o‘quvchilarga o‘rgatsalar, o‘quvchilarda tahlil ko‘nikmasini yanada to‘laroq shakllantirgan bo‘lar edilar.

Fransiya Fanlar akademiyasida yuksak badiiy asar uchun beriladigan nufuzli mukofotni berishda bitta shart bor. U ham bo‘lsa, nomzod asarlarni baholashda hakamlar hay’ati tarkibiga yosh bolalarni ham kiritish. Sababi kattalar ham gohida tushunmaydigan ayrim qarashlarni yosh bolalar bittada o‘qib, o‘sha mavhumlikka o‘zining sodda, bolalarcha mulohazasi bilan oydinlik kiritib bergan. Bu holat ongli harakatning mevasidir. Shuning uchun bolalar adabiyoti deb, o‘quvchilar o‘qiydigan kitoblar ro‘yxatini cheklashimiz kerak emas. O‘quvchilarga yomon asarlarni ham, yaxshi asarlarni ham birday o‘qishni tavsiya qilamiz. Bundan maqsad o‘quvchi guruchdan kurmakni ajrata olsin. Toki o‘quvchi kitobni faqatgina pand-nasihat manbasi deb emas, balki undan estetik zavq olib, o‘zining hayot haqidagi muayyan fikrlarini shakllantiruvchi asosiy qurol deb bilsin. Kitobni beminnat do‘st deb bilib, undan xohlaganimizcha foydalanish yaxshilik alomati emas, u, albatta, minnatli bo‘lmo‘g‘i darkor. Chunki o‘qiganlarimizdan yashashimiz uchun formula kashf etar ekanmiz, buning uchun kitobdan minnatdor bo‘lmo‘g‘imiz va, albatta, uning qadrini kelajak avlod uchun abadiylashtirmog‘imiz zarur. Zero Astred Lindgren ta’kidlaganidek, “Bu dunyoda qanday buyuk ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa, avvalo inson tasavvurida yaralgan. Ertaga dunyoning qanday bo‘lishi hozir kitob o‘qishni

oʻrganayotgan kichkintoylarga bogʻliq. Mana shuning uchun ham bolalarga kitob kerak?”[24]

Shveytsariyalik psixolog va faylasuf Jan Piajening “Bola oʻz intellektining me’moridir” – degan gapi XXI asr ta’lim nazariyalarining ayni mezonlariga mos keladi. Har bir oʻquvchi haqiqiy intellektual boylik sifatida fikrlashni chuqur oʻrganishi kerak. Tanqidiy-ijodiy fikrlashga qaratilgan ijodiy va mantiqiy topshiriqlar ayni maqsadni yuzaga chiqishiga oʻquvchiga yordam beradi. Har bir adabiyot darsi aslida ana shu mezon asosida boʻlishi talab etiladi. Shuning uchun adabiy ta’limning har bir daqiqasi laboratoriyalardan iborat.

Fikrlash qobiliyatini bosqichma-bosqich shakllantirish yoki rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki oxiri oʻylanmasdan berilgan har qanday laboratoriya topshirigʻi fikriy zoʻriqishga sabab boʻlishi ehtimoli bor. Zoʻriqqan fikrlar adabiy asar haqida erkin mulohaza ber olmay qolishi mumkin. Adabiyot darslari san’atning muhim turi boʻlgan - soʻz san’ati bilan oshno boʻlishga asoslangan boʻlsagina u haqiqiy vazifasini bajarayotgan boʻladi. Har bir dars esda qolar darajada unutilmas va betakror kechmogʻi, oʻquvchining qalbida muqim joy olmogʻi uchun adabiyot muallimi bor mahoratini ishga solishi kerak. Noʻnoq muallimlarning xatolari yoki beparvoliklari tufayli qanchadan qancha oʻquvchilarning ijodkorligi kashf qilinmaydi. Soʻz bilan ishlashga, uning olmos qirralarini topa bilishga oʻrgata bilish ham san’atkorlikdir.

Oʻquvchilardagi ijodiy salohiyatni mustahkamlash yoki ijod qilishga undash uchun qiziqarli ijodiy mashqlar berish orqali ulardagi yangi qirralarni kashf etishga, soʻzning latofatini yanada yaqindan his qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta’lim rivoji badiiy asar va uning mutolaasiga, shuningdek, oʻqiganlarini hayotiga integratsiya qilishga bogʻliqdir. Zamonning hayotiylik qonunlari asosida yangicha oʻqish va uning usullari insonning yashayotgan muhitiga qarab moslashib boraveradi.

[24] Sim-sim... Mutolaa sirlari. // Astred Lindgren.Bolalarga nima uchun kitob kerak?/ Toshkent: - 2021 – 143-b

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –14-b
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: Innovatsiya-ziyo, 2020. 111-bet.
3. G‘aniyev A. Ta’limda tanqidiy fikrlash kerakmi? //https://xs.uz/uz/post/talimda-tanqidij-fikrlash-kerakmi.
4. Jumanova S. “Noodatiy fikrlash mahorati yoxud kreativlik qanday shakllantiriladi?” //http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/3305.htm
5. Jahon adiblari adabiyot haqida to‘plami. Golsuorsi J. “Adabiyot va hayot” maqolasi / Toshkent: - 2010 – 76-b.
6. Adabiyot. 7-sinf uchun. O‘quvchilar uchun darslik// Yuldashev Q va boshq. / T.: 2017.
7. Sim-sim... Mutolaa sirlari. // Astred Lindgren.Bolalarga nima uchun kitob kerak?/ Toshkent: - 2021 – 143-b.

AFG‘ONISTONDA O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINING O‘TMISHI VA BUGUNGI AHVOLI

Muhammad Yasin Eldash
ToshDO‘TAU magistranti
yasineldash@gmail.com,

Annotatsiya

Ushbu maqolada Afg‘onistonda joylashgan o‘zbek xalqining tili va adabiyoti tarixining o‘rganilishi bo‘yicha qaysi holatda bo‘lgani, bugungi holati hamda mavjud muammolarni aks ettirish ko‘zda tutilgan.

Tayanch so‘zlar: Afg‘oniston, o‘zbek adabiyoti, o‘zbek tili, matbuot, maktablar, universitet.

Annotation

This article provides an overview of the history and current state of the language and literature of the Uzbek people in Afghanistan.

Key words: Afghanistan, Uzbek Literature, Uzbek language, press, Schools, Universities

Dunyodagi qadimiy va boy adabiyotga ega bo‘lgan xalqlardan biri turkiy xalqlari sanaladi. Xalq og‘zaki ijodiy namunalri, ming yillik dostonlarimiz, alla va laparlar hamda yozma manbalar buning yorqin dalilidir. Qolaversa, ozbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, orzu-intilishlari, dard – alamlari, zafarlari bilan bog‘liqdir. Bir so‘z bilan aytganda: ajdodlarimiz ona tilimiz va adabiyotimiz orqali jahonga o‘z so‘zi va adabiyotini tarqatib, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar[25].

[25] Abdushukurov B. O‘zbek tili tarixi. -T.: Alisher Navoiy universiteti, 2021. 5-bet.

O‘tmishlardan belgilidirki, Eski Xuroson nomi bilan mashhur bo‘lgan hozirgi Afg‘oniston turkiy xalqlarning qadimiy va tarixiy vatani hisoblanadi. Afg‘oniston degan hudud vujudga kelmasdan oldin bu yurtda turkiy sulolalar uzoq yillar davomida birin-ketin hukm surib kelganlar. Miloddan oldin skiflar, massagetlar, hunlar va undan keyin kushoniylar saltanat qurib, buyuk madaniyat yaratib, o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirishgan. Shuningdek, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, mo‘g‘ullar, xorazmiylar, temuriylar, Bobur va uning avlodlari, shayboniylar, safaviylar, afshoriylar, ashtarxoniylar va nihoyat janubiy Turkiston o‘zbek xonliklari (Xulm xonligi, Balx xonligi, Oqcha xonligi, Saripul xonligi, Shibirg‘on xonligi, Andxuy xonligi, Maymana xonligi) singari sulolalar sifatida hukmronlik qilib keldilar. Janubiy Turkiston xonliklarining baxti chopmadi, aniqrog‘i, afg‘on bosqinchlari hujumiga bardosh bera olmay, tez zavolga yuz tutib, o‘rtadan ketdilar.

Hozirgi kunda ham Afg‘oniston aholisining salmoqli qismini kelib chiqishi, turkiy xalqlardan sanalgan aholi tashkil qiladi.O‘zbeklar, turkmanlar, qirg‘izlar, afshorlar, qizilboshlar, aymoqlar, hazoralar, shuningdik, afg‘onlashgan turkiy qavmlar: g‘uri firuz ko‘hiy, jamshidiy, taymaniy, chahor aymoq, xalj va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu etnik guruhlardan oxirgilari turli ijtimoiy va siyosiy omillar sabab o‘tgan davrlarda o‘z tillarini yo‘qotib, pushtun va dariy tillarida so‘zlashishga majbur etildilar. Bular orasidan faqat o‘zbeklar, turkmanlar hamda qirg‘izlargina o‘z tillarida gapira olish va bir qadar yozishni saqlab qola olishdi. O‘zligini yoqotib, mutlaqo afg‘onlashgan va tojiklashgan turkiy qavmlar bu mamlakatda oz emas. Bularning tarixi, kimligi ilmiy o‘rganilib, etnik qatlamlar bo‘yicha mutaxassislar tomonidan tadqiq qilinishi kerak. Misol uchun g‘urband turkiylarining eng katta qismi o‘z ona tilisini allaqachon yo‘qotib bo‘lgan , qolganlari ham bu jarayonni o‘z boshidan kechirib kelmoqda. Turkiy xalqlardan hisoblangan Afg‘oniston hazoralarini butunlay tarixiy til va adabiyotlarini yo‘qotgan qavm sifatida yaqqol misol qilib ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bugungi kunda ular o‘zlariga xos lahja va forsiy yoki dariycha so‘zlashib, adabiyot

yaratadilar.Hazora shevasida sezilarli darajada turkiy soʻzlar saqlanib qolgan, bu hol ularning adabiyotlarida ham koʻp uchraydi. Ular **qosh, apa, ota** kabi turkiy soʻzlarni kundalik oddiy soʻzlashuvda ham, badiiy asarlarda ham ishlatadilar.

Til boʻlmasa el boʻlmas.

Ma'lumki, Afgʻonistonda oz sonli elatlar, hatto, oʻzbeklarga oʻxshagan koʻp sonli xalqlar va qavmlarni siqib, sahnadan chiqarib yuborish hisobiga afgʻhon hukmronligi oʻrnatildi. Qancha zulm va toptalishga duch kelmasin, istilochi afgʻonlar oʻzbeklarni butunlay yoʻq qila olmadilar. Boshiga kelgan balo- qazolarga qaramay, oʻzbek tili oʻz xalqining ruhiyati, urf-odati, ogʻzaki ijodini tashib kelgan sevimli til boʻlib qola berdi. Oʻzbek tili Afgʻonistonning turkiy xalqlari hayot kechiradigan hududlarida, Badaxshondan tortib Hirotgacha boʻlgan yerlarda saqlanib qoldi. Ammo yozma nutq shaklanmay, oʻzbek tili matnsiz bir til oʻlaroq yashab keldi. Matnsiz deyishimizning sababi Afgʻoniston boʻylab bu tilda koʻzga koʻrinarli adabiy asarlar yaratilmadi. Oʻzbeklar ziyolisiz qora xalq sifatida oʻz tillarini shu bugungacha jonli muloqot darajasidagina saqlab qolishni eplashdi. Maktab, madrasa koʻrganlar, oʻqimishlilar oʻzbek tilini himoya qilish ishi bir yoqda tursin, koʻproq bilib-bilmay oʻz tillarini buzishga ham sababchi boʻldilar.

Kuchli tildan kuchli adabiyot tugʻiladi.

15-asrda Xuroson adabiy havzasida oʻzbek tili asosida ulkan adabiyot vujudga keldi va gurkirab ruvojlandi. Oʻzbek adabiyoti tarixining eng qimmatli adabiy asarlari hozirgi Afgʻoniston, yo qadimgi janubiy Turkistonda ijod etildi. Mavlono Lutfiy, Shaxzoda Otoyi Balxiy, Amir-ul kalom Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro va boshqalar oʻz adabiy merosini shu hududda yaratgandilar.

Ma'lumki, Alisher Navoiy yashagan yillar oʻzbek adabiyoti tarixining oltin davri sanaladi. Bu yillar soʻz mulkining sultoni ulugʻ Navoiy oʻzining bebaho adabiy xazinasini yaratdi. Darvoqe, buyuk Navoiyning ulugʻ xizmatlari, ayniqsa, sulton Husayn Boyqaroning bevosita aralashishi, chiqargan yorligʻ- farmonlari hisobiga ushbu davr eski oʻzbek tili beqiyos darajada ruvojlandi. Navoiy va

Boburdan keyin muhtasham adabiyotimizning bir qadar jonsizlanib, ijod zamini hosildan qolgani achinarli, albatta.

Afg‘oniston shimoliy viloyatlarining ahvoli afg‘on hukmdorlari tomonidan zabt etilganidan so‘ng, jiddiy yomonlasha bordi. Turkiy til va adabiyot kamsitilib kelindi. Tizimli ta’lim yo‘qligi bois o‘zbek tili xonadon va qishloq sathida, kundalik maishiy tilga aylanib qoldi. O‘zbeklar farzandi maktab va ta’lim dargohlarida o‘z ona tillarida emas, balki, dariy yo pashtun tilida o‘qitildi. O‘zbeklar hukumat idoralari va maktablarda o‘z tillarida so‘zlash huquqiga ega bo‘lmay qoldilar. O‘zbek tilida gapirganlar ustidan kulishar, masxara qilishar, hattoki o‘zbek o‘qituvchilari maktab idorasi tomonidan jarimaga tortilgan kunlar ham bo‘lgan.

Afg‘onistondagi o‘zbek ijodkorlari ko‘pincha fors tilida yozib keldilar. O‘zbek tilida yozilgan she’rlarni matbuotda hamda kitob shaklida chop etish man qilindi. Bu yillarda o‘zbeklar orasida navoiyxonlik, mashrabxonlik, yassaviyxonlik bo‘lib turardi. So‘fi Olloyor, Huvaydo va boshqalarning asarlari xususiy shaklda o‘zbeklar hayot kechiradigan qishloqlar masjidlarida imomlar tomonidan o‘qitilgan xolos. Bu qiyinchiliklardan o‘z xalqini qutqarib, tilini qayta jonlantirish uchun bu elning ziyolilari, jumladan, Sayid Abdulhakim Shariy Javzijoniy(Juzjoniy) va rahmatli Tohir Badaxshiy kabi ichkuyar shaxslar bir qancha madaniy harakatlar qilib, o‘zbek tilini rivoji uchun kurashdilar. Afg‘onistonda o‘zbek tilida birinchi martaba “Ariyana” majallasida hurmatli Sayid Abdulhakim Shariy Javzijoniy tomonidan majalla (jurnal)ning ettita sonida xalq og‘zaki ijodidan namunalar, maqollar o‘sha payt majalla boshlig‘i (muharriri) bo‘lgan Haydar Jo‘raqul yordamida nashr eitlgan.

Shu harakatlar bois Muhammad Zohir hokimiyati davrida Afg‘oniston Milliy majlisining o‘zbek vakillari: Abulxayr Xayriy, Nazarmuhammad Navo hamda Abdulkarim Nazihiy Jilva kabi o‘zbek ziyolilari kurashi va tashabbusi natijasida ilk bor Afg‘oniston davlat radiosi qoshida O‘zbek va Turkman tillarida eshittirishlar berila boshlandi. Hamda o‘zbeklar yashaydigan hududlarda o‘z ona tili va adabiyoti uchun maktab darsliklari chop etilib, o‘quvchilarga yetkazildi va bolalar maktabda

oʻz ona tillarida dars oʻqishdan bahramad boʻldi. Afsuslar boʻlsinki, 1968-yilga kelib, Muhammad Zohir Shohning amakivachchasi Muhammad Dovudxon boshchligida amalga oshirilgan bir harbiy toʻntarishdan keyin oʻzbek tili va adabiyoti boʻyicha qilinayotgan ezgu ishlar toʻxtab qoldi.

Qayta jonlanish.

Afgʻoniston kulfati boʻlmish savr inqilobi yuz berdi. Muhammad Dovudni agʻdarib, Afgʻoniston xalq demokratik partiyasi hokimiyatni qoʻlga olib, Nurmuhammad Tarakiy taxtga oʻltirdi. Bu davrda ham Afgʻoniston oʻzbek ziyolilari hukumat doiralariga kirib, ish olib borar edilar. Shunday bir zamon keldiki, Afgʻoniston sobiq podshohi boʻlgan Muhammad Zohir Shohning tugʻilgan yili rasman nishonlanadigan boʻldi, shu munosabat bilan bir qancha farhangi buyruqlar bilan birga oʻzbek tili va adabiyotinining ravnaqi uchun bir alohida "4"- sonda boʻlgan buyruq javzo oyining 24-da chiqdi.

Shundan boshlab davlat radiosidagi oʻzbek va turkman tillaridagi eshittirishlar qayta yoʻlga qoʻyildi. Oʻzbek va turkman tillarida "Yulduz" gazetasi nashr etildi. Bir ozdan keyin turkman tilida "Kunash" gazetasi nashr etila boshlaganidan soʻng "Yulduz" nashri oʻzbek tiliga ixtisoslashdi. Bir guruh oʻzbek qalamkashlari adabiyot, san'at va madaniyat ishlariga bosh-qosh boʻldilar. Rahmatli Muhammad Amin Uchqun "Yulduz"ning mudiri etib tayinlandi. Soʻngra jarida Oyxon Bayoniy va Abdullah Ruyinlar tomonidan boshqarib kelindi. Darvoqe, kommunistik koʻzqarashdagi Afgʻoniston xalq demokratik partiyasining 14 yillik hokimiyati davrida oʻzbek tilida siyosiy maqola va she'rlar matbuotda nashr etish, shuningdek, she'riy toʻplamlardan iborat kitoblarni chop qilishga ruxsat berildi. **Sulton Husayn Boyqaro devoni** Doktor Muhammad Ya'qub Vohidiy Javzijoniy tashabbusi bilan, Alisher **Navoiyning "Xamsa"**si marhum Abdulgʻaffor Bayoniy hamkorligida, hamda **"Mahbub ul-qulub"** asari doktor Vohidiy Javzijoniy tomonidan nashr etildi. Zahiriddin Muhammad Boburning Devoni **"Daryo dar gavhar"** nomda, hamda Nodirabegimning Devoni **"Nodira va uning she'rlari"** nomi ostida Doktor Shafiqa Yorqin tashabbusi bilan bosilib chiqarildi.

Ana shu davrda oʻzbeklar farzandlariga ona tillarida ta’lim olishlari borasida ozgina siljishlar yuz berib, amaliy qadamlar tashlangan edi. Birinchi sinf maktab darsliklari oʻzbek tilida nashr etilib oʻqitila boshladi. Hamda oltinchi sinfgacha maktab kitoblari tayyorlandi, ammo noma’lum sabablarga koʻra chop qilinmadi. Poytaxt Kobulda Amir Alisher Navoiy nomidagi madaniy Anjuman tashkil etilib, Doktor Abdulsalom Osim boshchiligida faoliyat yurita boshladi.

Shu davrda Kobul universitetining til va adabiyot fakultasi qoshida oʻzbek tili va adabiyoti departamenti ta’sis qilinib, Oʻzbekistondan Orif Usmonov, Ne’mat Aminov, Lolaxon, Tal’at Solihov va Ne’mat Mahkamov singari bir necha kishi dars berish uchun kelgan edilar. Shu boʻlimdan oʻnlab afgʻonistonlik oʻzbek talabalari tahsil olib qoldilar. Ulardan ayrimlari hozirgi kunda oʻzbek tili va adabiyoti departamentlarida oʻqituvchi sifatida dars beradilar. Oʻsha davrda bir qator oʻzbek yoshlari Toshkentdagi oʻquv yurtlariga qabul qilindi va saboqni tugatgandan soʻng oʻz yurtlariga qaytib, oʻzbek tili va adabiyoti boʻyicha xizmatga kirdilar.

Bulardan tashqari Afgoniston bilimlar akadimiyasida ham bir boʻlim oʻzbek-turkman tillari uchun ochilgandir. Poytaxt Kobulda doktor Najibullah hokimiyatiga barham berilganidan keyin mamlakatning shimoliy vloyatlari boʻylab mahalliy hokimiyat general Doʻstum va uning qoʻmondonlari qoʻliga oʻtdi. Doʻstum rahbarligidagi “Afgʻoniston milliy islomiy junbishi” nomidagi harbiy-siyosiy tashkilot aksariyat oʻzbeklar yashaydigan shimoliy viloyatlarida nazoratni qoʻlga oldilar. Ushbu hududlarda nisbiy osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

Shimol viloyatlari boshkenti sanalmish Mozori Sharif shahri oʻzbeklarning madaniy faoliyatlari markaziga aylandi. Amir Alisher Navoiy nomidagi madaniy anjuman bu shaharda qayta oʻz faoliyatlarini boshladi. Shimolda oʻzbek tilida bosiladigan “Yulduz”, “Yogʻdu”, “Toʻgʻri yoʻl”, “Quyosh” nomli gazeta va jurnallar hamda fors tilida chiqadigan “Andisha” nashri oʻz oʻqirmanlari qoʻliga etib borar edi. Afgʻoniston milliy islomiy junbishining markaziy nashri “Nidoyi islom” va “Armugʻon” hamda “Foryob” va “Javzijonon” gazetalarida ham fors tilidagi nashrlar yonida oʻzbek tilida yozilgan maqolalar va she’rlar ham nashr etilardi. Ikki-

uch yil davomida qator kitoblar, jumladan “Shajarai tarokima”, “Muhabbatnoma”, “O‘zbek Adabiyoti Farhangi”, “Bobur manguligi”, “Mezon ul-avzon”, “Shoirlar” tazkiralari hamda “O‘zbek ijodkorlari” to‘plamlari bosilib chiqdi.

O‘sha paytlari Mozori Sharif, Maymana va Shibirg‘on shaharlarida mahalliy televizion hamda radiolarda o‘zbek tilida yangiliklar va xilma-xil ko‘rsatuvlar yoyinlanib keldi. Lekin bu faoliyatlar bo‘lgani bilan o‘zbek tili va adabiyoti unchalik rivojlanmadi. Chunki davlat tomonidan bu xalqning adabiyotiga e’tibor qaratilmagani, o‘zbek tili va adabiyoti dariy va pushtunlarga qaraganda kamsitilib kelingani, asrlar davomida o‘z ona tili va adabiyotida ta’lim olish huquqiga ega bo‘lmaganliklari, o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari o‘zbek xalqiga yetkazib berilmagani, o‘zbekistonlik millatdoshlaridan ajralib yashaganliklari va ular orasida, umuman, bordi- keldi bo‘lmagani, Amudaryoning ikki tomonida yashab keladigan bir millatning bir-biridan ayro bo‘lishga majbur etilishi, eng yomoni, o‘zbeklar orasida o‘z tillariga nisbatan mas‘uliyatsizlik bilan qarash keng yoyilgan edi.

Afg‘onistonda o‘zbek tili va adabiyoti qanday saqlanib qoldi?

Etnik o‘zbeklar Afg‘onistonning shimoliy viloyatlari, ayniqsa, ko‘proq Foryob va Taxxorda zich yashaydilar; shuningdek Badaxshon, Qunduz, Bag‘lon, Samangon, Balx, Javzijon, Saripul, Bodg‘is va Hirot viloyatlari aholisining kattagina qismiy o‘zbeklardan iboratdir. Nomi tilga olingan joylarning qishloqlarida o‘zbek xalqining tili va adabiyoti sofligicha qoldi. Bunga qishloq aholisining bir tomondan savodsizligi va boshqa tamondan ba’zi erlarda tutash va qalin yashab kelayotgani sabab bo‘ldi desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Afg‘oniston o‘zbek adabiy tiliga boshqa tillarning ta’siri.

O‘zbek xalqida keskin o‘zgarishlar jarayoni o‘zbeklarning shaharlashishi, savdo-sotiq ishlarini yo‘lga qo‘yishlari, boshqa qavmlar bilan keng aloqaga kirishi, boshqa xalqlarning tili ta’sirini kuchaytirib yubordi. Bu o‘zgarish va aloqalar o‘zbek tilini va adabiyotining rivojlanishiga emas, aksincha, uning buzilishiga ham olib keldi. O‘zbeklar yashaydigan bir qator shaharlar markazlarida dariy tili umumxalq uchun aloqa tili bo‘lgani bois, bunday joylarda turadigan o‘zbeklar tili va

adabiyotiga anchagina salbiy ta’sir o‘tkazgan bo‘ldi. Natijada juda katta miqdor forscha so‘zlar bizning tilimizga kirib keldi va uning ta’siri adabiyotimizda ham keskin ortdi. Hammadan achinarlisi shundaki, o‘qimishli o‘zbeklarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini fors tili qoidasiga solib so‘zlashishga odatlanib qolishgan. Aksar hollarda o‘zbeklarning savodli qatlami so‘zlagan gap va jumlalari oxirida faqat bitta fe’l o‘zbekcha bo‘ladi xolos. Masalan: “O‘zbek tili va adabiyti bo‘limida o‘qigan” degan gap o‘rniga “Department Zabon va Adabiyot o‘zbeki o‘qigan” deb aytishadilar. O‘zbek tilida yoyinlanadigan radio va telvizionlar soni ozligi, shuningdek, mazkur yetkarmalarning o‘zbek tilida beriladigan dasturlari tili sof o‘zbekcha bo‘lmagani ham ushbu muammoning hal bo‘lmasligiga olib keldi.

Aslida Afg‘onistondagi o‘zbek tili va adabiyoti pushtun tili va adabiyotidan ko‘p ta’sirlanmagan desak xato qilmagan bo‘lamiz. Buning ham o‘ziga xos sabablari bor, albatta. Birinchidan, o‘zbeklar etnik pashtunlar bilan qo‘shni bo‘lib yashamaydilar, ba’zi bir joylarda ular bilan yaqin yashasalar ham, pushtun tili va adabiyoti mamlakat bo‘ylab turli elatlar orasida muomala tili bo‘lmagani uchun o‘zbek xalqi bu tilni o‘rganishga rag‘bat ko‘rsatmagan**.**

O‘zbek tili va adabiyotining hozirgi holati.

2003-yilga kelib katta bir jirga (qurultoy) orqali Afg‘onistonning asosiy qonuniga o‘zbek tiliga doir moddalar kiritildi. Unda forsiy va pushtun, afg‘on tillari yonida, o‘zbek-turkman va boshqa millatlarga tegishli bo‘lgan til va adabiyotni yuksaltirish uchun moddalar ajratilgan. Afg‘oniston asosiy qonunining 16-modasida quyidagicha ta’riflangan:

ماده شانزدهم:

ازجمله زبانهای پشتو، دری، اوزبیکی، ترکمنی، بلوچی، پشه یی، نورستانی، پامیری و سایر زبانهای رایج در کشور، پشتور ودری زبانهای رسمی دولت میباشد.

در مناطقیکه اکثریت مردم به یکی از زبانهای ازبکی، ترکمنی، پشه یی، نورستانی، بلوچی، ویا پامیری تکلم مینمایند آن زبان علاوه بر پشتو و دری به حیث زبان سوم رسمی میباشد و نحوه تطبیق آن توسط قانون تنظیم میگردد.

دولت برای تقویت و انکشاف همه زبانهای افغانستان پروگرامهای موثری طرح و تطبیق می نماید.

“O‘zbeki, turkmani, baluchi, pashshayi, nuristoni, pomiri va boshqa royij bo‘lgan tillarda ko‘p sozlashadigan hududlarga pashtu va farsi tilidan so‘ng o‘sha til uchinchi rasmiy til hisoblanadi va tatbiqlanishi qonun yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Afg‘onistonda bo‘lgan barcha tillar taqviyasi va yuksalishi uchun davlat ta’sirli bo‘lgan programlarni amalga oshiradi.

O‘lkada rivoj bo‘lgan barcha tillarda guruhiy yetkarmalar va matbuot tarqatilishi erkindir”

Mana shu modda asosida Afg‘onistonda o‘zbek tili o‘zbeklar yashaydigan hududda uchinchi rasmiy til bo‘lganiga qonuniy tus berilgandir. Shuningdik, Afg‘oniston asosiy qonunining 43-moddasida har bir shaxsga o‘z ona tilida ta’lim olish haqi berilgan:

ماده چهل و سوم: تعلیم حق تمام اتباع افغانستان است که تا درجه لیسانس در موسسات تعلیمی دولتی به صورت رایگان از طرف دولت تامین میگردد.

دولت مکلف است به منظور تعمیم متوازن معارف در تمام افغانستان، تامین تعلیمات متوسطه اجباری، پروگرام موثری طرح و تطبیق نماید **و زمینه تدریس زبانهای مادری را در مناطقی که به آنها تکلم می کنند فراهم کند.**

“*...Davlat har bir hududda so‘zlashadiganlar uchun Ona tilida o‘qitish sharoitini yaratadi*”. Qonunning bu moddasida ham o‘zbek tili va adabiyoti uchun o‘rin berilgandir.

Shunga ko‘ra bu sohada mutaxassislar tayyorlanishi uchun shimoliy viloyatlarda joylashgan universitetlarda o‘zbek tili va adabiyoti departamenti (kafedra)lari ochiladi. O‘zbek tili va adabiyotini ravojlantirish uchun Afgonistonda ochilgan bilim yurtlari quyidagilardir:

- Kobul universitetining Adabiyot fakultasida 1362-hijriy yili(milodiy 1982);
- Balx bilim yurtining Bashariy ilmlar fakultasida 1362-hijriy yili(milodiy - 1982);

- Foryob bilim yurtining oʻrgatish va tarbiyalash fakultasida 1383-hijriy yili (milodiy - 2003);.
- Javzijon bilim yurtining ikki fakultasida (ijtimoiy ilmlar va orgatish va tarbiyalash) fakultalarida 1383-hijriy yili (milodiy – 2003);
- Taxxor bilim yurtining bashariy ilmlar fakultasida 1385- hijriy yilda(milodiy – 2005);
- Bagʻlon bilim yurtining adabiyot fakultasida 1389- hijriy yilida(milodiy – 2009);
- Saripul universitetining oʻrgatish va tarbiyalash fakultasida 1390- hijriy yilida (milodiy – 2010).

va bir qancha viloyat va tumanlarga joylashgan muallimlar tarbiyalash oliy institutida ham oʻzbek tili va adabiyoti boʻlimlari ochildi.

Oʻzbek tili va adabiyoti uchun mamlakat boʻylab soʻz erkinligi, ommaviy yetkarmalarning erkin faoliyat olib borishlari uchun shart-sharoitlar muhayyo qilindi. Ilk bor Afgʻonistonda hayot kechiradigan turli elatlar, jumladan, oʻzbeklar mamlakat aholisini tashkil etadigan millatlarning ajralmas bir qismi sifatida tan olingan edi. Shuningdek, oʻzbek tili koʻpchilik oʻzbeklar yashaydigan hududlarda davlat tili oʻlaroq rasman tan olindi.

Mamlakatda turli elatlar farzandlariga oʻz ona tilida ta’lim olish huquqi berildi, yetkarmalarda ham turli tillarda faoliyat olib borish haqqi kafolatlandi.

Mamlakat qonunlari asosida afgʻonistonlik oʻzbeklar oʻz tilida yetkarmalardan foydalanish, kitoblar nashr etish huquqiga ega boʻldilar. Biroq oʻtgan yillar davomida bu toʻgʻrida talabga javob bera oladigan darajada ijobiy ishlar amalga oshirilmadi. Bunga turli omillar sabab, birinchidan, malakali oʻzbek qalamkashlari va jurnalistlari sonining oʻta ozligi, ikkinchidan, Afgʻonistonda koʻpchilik oʻqimishli oʻzbeklarning oʻzbekcha savodi yetarli emasligi mavjud vaziyatning vujudga kelishiga sabab boʻlgan.

Soʻnggi yillarda Afgʻoniston maorif vazirligi oʻzbek farzandlari ta’lim oladigan maktablarda oʻzbek tili darsliklarini oʻqitish uchun amaliy choralar koʻrdi.

Birinchi sinfdan to‘rtinchi sinfgacha o‘zbek tili darsliklari chiqarildi, keyinroq oltinchi sinfgacha o‘zbek tili darsliklari chop etildi. Biroq bu darsliklar yetarli miqdorda nashr etilmadi. Shu sabab barcha o‘qvuchilarga o‘zbek tili darsliklari yetkazib berilmadi. Shuningdek keyingi yillarda o‘zbek tilida eshittirishlar beradigan radiolar hamda xabar va turli ko‘rsatuvlarni yoyinlaydigan televizionlar paydo bo‘ldi. Bu orada egasi o‘zbeklar bo‘lgan “Oyina”, “Batur”, “Almos” singari bir qancha xususiy radio-televizionlar ochilib ishlab turibdi.

Ma’lumki, matbuot va yetkarmalar(ma’lumotlar) til va adabiyot rivojida muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillar davomida matbuot va yetkarmalar Afg‘onistonda o‘zbek tili taraqqiyoti o‘sishi uchun qanday ishlar qildi? Afsuski, bu savolga ijobiy javobimiz yo‘q. Chunki uzoq yillar davomida Afg‘oniston o‘zbeklarining farzandlari o‘z tillarida ta’lim va tahsil olmaganliklari natijasida o‘zbek tilida savodli qatlam vujudga kelmagn. Mamlakat bo‘yicha haqiqiy ma’noda o‘zbek adabiy mihiti shakllanmagan. Malakali o‘zbek adiblari, tilshunoslari va jurnalistlari ham deyarli paydo bo‘lmaganlar. Borlari ham ikki qo‘l barmog‘laridan kam. O‘zbek tilida xabarlar va xilma-xil dasturlar beradigan radio va televizionlarda faoliyat olib boradigan o‘zbek jurnalistlarining tili bir-biridan farq qiladi. Boshqacha aytganda, Afg‘oniston yetkarmalari o‘zbek tili rivojiga ijobiy hissa qo‘shishi o‘rniga uning tobora buzilishiga xizmat qilmoqda. Afsuski, mamlakatda bu muammonni hal qilish yo‘lida faoliyat olib boradigan ilmiy-madaniy markazlar mavjud emas. Bosma matbuot hamda o‘zbek tilida ta’lif qilinib nashr etilgan kitoblar tili ham qoniqarli darajada emas. Masalani shoshilinch bir shaklda hal etish uchun malakali va tajribali o‘zbek tilshunos va adabiyotchilari ishtirokida o‘zbek tili va adabiyoti tadqiqot markazini tashkil etishga jiddiy kirishish kerak. Bunday bir muhim loyihani amalga oshirish uchun xalqaro tashkilotlar, davlat, qo‘shni O‘zbekiston va Turkiya mutaxassislarining yordami jalb etilishi zarur.

Afg‘oniston bilim yurtlari qoshida faoliyat olib boradigan o‘zbek tili va adabiyoti departamentlarida malakali ustodlar soni ozligi ham mavjud muammolarni ko‘paytiradi. Afsuski, ushbu departmentlarni bittirib chiqadigan

talabalar o‘zbek tilini yaxshi o‘rganaolmayaptilar. Har holda so‘nggi chog‘larda afg‘onistonlik o‘zbek yoshlari orasida o‘z ona tillarida o‘qish va yozishga qiziqish darajasi ortib bormoqda. Bu omilni ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa, Facebookda kuzatish mumkin. Biroq aytib o‘tilgan mushkulliklarni butunlay hal qilish uchun qo‘shni O‘zbekistonning uzoq muddatli himoyatiga jiddiy ehtiyoj bor. O‘zbekiston davlati yetuk mutaxassis kadrlar yuborish bilan Afg‘oniston bilim yurtlarida faoliyat olib boradigan o‘zbek tili va adabiyoti departamentlarini qo‘llab-quvvatlasa, muammolarning yechilishiga amaliy hissa qo‘shgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdushukurov B. O‘zbek tili ta’rixi. -T.: Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU, 2021.

2. دقیق، محمد رحیم. 1392. "قانون اساسی افغانستان" افغانستان. افغانستان عدلیه وزیرلیگی.

3. کوهکن، محمدعالم. 2020، "جایگاه زبان اوزبیکی در افغانستان، از گذشته محروم تا تجلیل آن در سطح ملی" کابل/ افغانستان، 20.10.2020 ,BBC www.bbc.com/kabul/afghoniston

4. کوهکن، محمدعالم. 2020، "افغانستان ده اوزبیک تیلی نینگ اوتمیشی و بوگونگی احوالی" 29-میزان / اوزبیک تیلی میلی کونی/ (مقاله لر و شعرلر توپلمی): کابل افغانستان.

5. تویغون، سید حسام الدین. 2020، "افغانستانده اوزبیک تیلی نینگ یېتکرمه لر و اجتماعی ترماقلرده گی احوالی" اونوتیلمس مقاله لر و شعرلر توپلمی: کابل/ افغانستان.

6. قیبچاق، قدرت الله. 2020، "اوزبیک تیلی ترقیاتی اوچون نیمه لر قیلیش کېرک" اونوتیلمس مقاله لر و شعرلر توپلمی: کابل/ افغانستان.

.

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA YO‘NALTIRISH

Maxmuda Yuldasheva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti
mdjabborova86@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish, **tadqiqot** usulining vazifasi, tadqiqotni loyihalashtirish, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlaridagi hukmdorlar obrazi, xususan, tarixiy obrazlarning tadqiqot usulida yoritilishi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik, tadqiqot usuli, loyihalashtirish, hukmdor, topshiriqlar, badiiy asar tahlili.

Annotatsiya

The article analyzes the focus of students on research activities in literature lessons, the role of the research method, research design, the image of the rulers in the epic of Alisher Navoi "Khamsa", in particular, the research coverage of historical images.

Key words: research, research method, design, ruler, assignments, analysis of works of art.

Maktabda o‘qitiladigan fanlar orasida adabiyot alohida o‘ringa ega. Adabiyot o‘quvchilarni san’at olamiga olib kiradi, insonning ma’naviy hayotiga, estetik va axloqiy rivojiga kuchli ta’sir etadi. Shu sababli, maktabda badiiy adabiyotni o‘qitish orqali o‘quvchilarning badiiy didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyati, Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg‘usi tarbiyalanadi va kamolotga yetkaziladi. Adabiyotshunos-olim Qozoqboy Yo‘ldoshev: “Badiiy adabiyot namunasi o‘quvchi tomonidan to‘liq his etilib, anglanib, nafis adabiyotning sehr-u jozibasidan atroflicha xabardor bo‘lingandagina ta’sirchan estetik-ma’naviy energiyaga aylanadi. His etilmagan, anglanmagan go‘zallik ma’naviyat shakllanishiga xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o‘qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir”, – deb adabiyot darslarining o‘qitilishiga alohida urg‘u bergan. [Yo‘ldoshev, 1996:68] Chindan ham badiiy asar g‘oyasi, unda aytilmoqchi bo‘lgan fikrlar o‘quvchilar tomonidan his etilmas ekan, ular badiiy asar – san’at asarini, undagi so‘zlar jozibasini anglamay qolaveradi.

Metodist olim N.I. Kudryashev ham adabiyot o‘qitish usulining asosini adabiy asarni ta’lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida o‘rganish, turli yoshdagi o‘quvchilarni badiiy tarbiyalash jarayoni tashkil qilinishiga, mustahkam irodali, sezgir, talabchan shaxsni tarbiyalash maktabda adabiyot o‘qitishda birdan-bir asosiy vazifa ekanligiga e’tibor qaratadi. [Kudryashev, 1981:57]

Darhaqiqat, mashg‘ulot, dars mazmuni adabiy materialnigina emas, balki o‘quvchilarning fikrini, fikrlash qobiliyatini, nutqi va badiiy didini, estetik va axloqiy madaniyatini anglash va bilish ko‘nikmasini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, ta’lim va tarbiya jarayonida barcha usullar o‘zaro aloqaga kirishadi. Bu aloqa faqat alohida mavzularni o‘tishda emas, balki har bir darsda ham yuzaga keladi. O‘qituvchi ulardan material mazmuni va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga qarab foydalanadi.Ushbu jarayonda adabiy ta’lim metodlaridan biri bo‘lgan tadqiqot metodi, ayniqsa, o‘quv jarayonida bir muncha qiyin bo‘lgan nazariy yo‘nalishdagi masalalarni hal qilish, izlanish natijasida ma’lum bir natijaviy xulosalarni chiqarishni nazarda tutadi. Mazkur metod o‘quvchilarni mavzu

yuzasidan dalil to‘plash va ularni nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish kabi amaliy ishlarni bajarishga yo‘naltiradi. I.Rajabovaning fikricha, o‘qitish jarayoniga tadqiqotchilik nuqtayi nazaridan yondashish o‘quvchilar bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yishning yuqori bosqichi sanaladi. [Rajabova, 2013:28]

Adabiyot darslarida o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: mavzuni tanlash, kuzatish, tahlil qilish, ijodiy yondashish, amaliy bajarish.Bu usullarning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lsa-da, ular bir-biriga bog‘liqdir.Tadqiqot usulining vazifasi, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, ularning tadqiqotchilik faoliyatini egallashga qaratilgan mustaqil ishlarni bajarish orqali badiiy asar mohiyatini ochish, tahlil qilishdan iborat. Buning natijasida esa o‘quvchi adabiy asarni mustaqil tahlil qila oladi, asarning g‘oyaviy va badiiy ahamiyatini baholash ko‘nikmasi o‘sadi, badiiy didi takomillashadi.

Tadqiqotni loyihalashtirish muayyan vaqt oralig‘ida Alisher Navoiy tomonidan Husayn Boyqaroga har bir doston muqaddimasida qanday ta’rif keltirilganini mustaqil ravishda topish, izlanishlar olib borish va natijalarni taqdim etish asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon esa quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- Topshiriq jamoa bo‘lib bajarilishi yoki individual tarzda bajarilishi aniqlashtirib olinadi;
- O‘quvchilarga uslubiy ko‘rsatmalar beriladi;
- Topshiriqning maqsadi bo‘yicha tushunchalar beriladi. (Dostonlarda Husayn Boyqaroga berilgan ta’riflarni tasniflash);
- Ushbu tadqiqot ishida o‘quvchilar tomonidan mavzuga doir materiallar to‘planadi, matn bilan ishlashda mumtoz asarlarni o‘rganishga doir lug‘atlar bilan ishlanadi, fikrlarini asoslash uchun asardan ko‘chirmalar olinadi;
- Qiyosiy o‘rganish asosida xulosalar chiqariladi.
- Tadqiqot natijalari taqdimot qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish alohida o‘rin tutadi. Misol tariqasida umumta’lim maktablarining 10-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan tajribani keltirish mumkin.Masalan, o‘qituvchi tomonidan turli xil mavzular tavsiya qilinadi, o‘quvchi o‘ziga yoqqan mavzuni tanlab oladi. O‘qituvchi quyidagilarni tavsiya etishi mumkin: “Navoiy va she’riyat”, “Navoiy va davlat ishlari”, “Navoiy va Husayn Boyqaro” va hokazo. O‘quvchi bu mavzular orasidan “Navoiy va Husayn Boyqaro”ni tanlab oldi. Keyin o‘qituvchi Navoiy va Husayn Boyqaro mavzusida o‘quvchilar oldiga bir nechta topshiriq qo‘yadi:

1. “Xamsa” tarkibidagi dostonlardan Husayn Boyqaroga berilgan ta’riflarni toping;
2. “Xamsa” dostonlarida Husayn Boyqaroning qanday sifatlari ulug‘lanadi?
3. Dostonlarda Husayn Boyqaro kimlarga qiyoslanadi?
4. Darslikka kiritilgan “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” dostonlari matnidan Husayn Boyqaroning qaysi jihati yoritib berilganligini toping.

Shu bilan birga o‘qituvchi dasturga kiritilmagan “Xamsa” dostonlaridagi Husayn Boyqaro madhini tahlil qildiradi. Jumladan, “Hayrat ul-abror” dostonining XVI bobi Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan. Bu bobda Navoiy Husayn Boyqaroni saxiy podsho sifatida ta’riflaydi va “Shoh G‘oziy” hikoyatini keltiradi. “Farhod va Shirin”ning X bobida esa uning eng yaqin do‘sti bo‘lganligi uchun shukronalar keltirib, Boyqaroning shoirligini aytib, uni sherga, Jamshid taxtiga o‘tirgan munosib hukmdor sifatida ulug‘lab, oliy nasab vakili ekanligiga ishora qiladi. “Sab’ai Sayyor” dostonining VII bobida esa Husayn Boyqaroni odil podshoh sifatida ta’riflab, fiqh ilmining bilimdoni ekanligini hamda uning har ishga qodirligini aytadi.

“Layli va Majnun” dostonining IX bobidagi madhida Navoiy Husayn Boyqaroni ulug‘ nasldan ekanligini aytib, yana bir bor adolatli podshoh ekanligiga ishora qilsa, “Saddi Iskandariy”ning IX bobida Husayn Boyqaroni Muhammad

(s.a.v)ning ummatidan ekanligini, xalqiga adolatli hukmdor ekanligini va va mashhur podshoh Iskandardan ham ustunlikka egaligini aytadi. Dostonlar mana shu tartibda tahlil qilingach, madhlarni oʻxshash va farqli jihatlarini tahlil qilish topshirigʻi beriladi. Husayn Boyqaro obrazini oʻrganish va oʻzlashtirish natijasiga koʻra ijodiy xarakterdagi topshiriq berilsa ham maqsadga muvofiq boʻladi.

Alisher Navoiy hayoti va ijodini oʻrganish, uning ijodiga merosxoʻr millat vakili sifatida buyuk adibimizning asarlaridagi badiiylikni, falsafiy gʻoyalarni, asar magʻzini bilishga intilish har bir oʻzbek farzandining muqaddas burchi sanaladi. Maʼlumki, shoir xalqparvarlik gʻoyalarini har bir asari zamiriga singdirishga harakat qilgan. Ayniqsa, “Xamsa” dostonlaridagi hukmdorlar timsoli orqali oʻzining gʻoyaviy maqsadini yanada yorqinroq ifodalashga erishgan. Shuning uchun uning besh dostoni butun xalq manfaatlarini aks ettiradi, dostonlarda barchamiz uchun asrlar davomida ibratli boʻlgan qahramonlar va voqealar mujassam. Navoiy asarlarini oʻrganish inson koʻnglida zavq uygʻotish, tuygʻulariga, hissiyotlariga taʼsir qilish bilan birga ularni yurtparvarlik, ona Vatanga muhabbat, uning oʻtmishiga hurmat, ulugʻ ajdodlar oldida masʼullik ruhida tarbiyalaydi, poklik, halollik, komillik sari etaklaydi.

Tarixiy asarlarda, adabiyot darsliklarida ulugʻ mutafakkir Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro doʻstligi haqida koʻp va xoʻb yozilgan. Navoiyning buyuk shoir boʻlishida Husayn Boyqaroning oʻrni, Boyqaroning maʼrifatli, adolatli podsho boʻlishida doʻstining koʻrsatgan xizmatlari haqida dalillar, aniq maʼlumotlar keltiriladi.

Shuningdek, Alisher Navoiy asarlaridagi eʼtiroflaridan anglashiladiki, shoir oʻz doʻsti Husayn Boyqaroga juda qattiq mehr qoʻyadi. Doʻstning mehri samimiy, hech qanday tamaga oʻrin yoʻq. Shoir “Vaqfiya” asarida quyidagi fikrlarni bildiradi: “… ul hazratning qullugʻin irtikob qilurda (bajarishda) hech navʼ oʻz gʻaraz va maslahatim (oʻzimga yaxshilik qilish) mutasavvar ermas erdi, balki xos tengrilik uchun, dagʻi oʻzining (Sulton Husayn mirzoning) xotiri uchun, dagʻi musulmonlar maslahati uchun erdi…”

Adolatli va ma’rifatli shoh obrazi Alisher Navoiyning ulkan va ezgu orzusi ediki, bolalik chog‘idanoq shu istagi ijobatini Husayn Boyqaro timsolida ko‘radi. Shoir toju taxt talashlari davrida oilasi bilan sarson kezganda ham, g‘arib talabalik kezlarida ham vatan, xalq osoyishtaligi, farovonligi rahnamosi sifatida umid ko‘zini shu do‘stiga tikkan bo‘lsa kerakki, do‘sti Hirotda Xuroson taxtini egallagandanoq “Qasidai Hiloliya” muboraknomasini yozib, Samarqanddan Hirotga, do‘sti huzuriga oshiqadi.Orzulari ijobatini kutadi. Bu orzular bejiz, behuda emas edi, albatta.Sulton Husayn Boyqaro shaxsida shoir va shoh mujassam edi.Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning nazmiy qobiliyatiga yuksak baho bergan.

Bu borada Alisher Navoiyning ijodi, xususan, “Xamsa” va uning tarkibiga kiruvchi barcha dostonlar o‘quvchilarni izlanishlar olib borishga qiziqtiruvchi muhim manba bo‘la oladi. Dasturda o‘rganilishi belgilangan bandlar keng qamrovliligi sabab ular ichidan aniq bir yo‘nalishni tanlash, bu asarni nima maqsadda va qanday qilib o‘rganish masalasiga chuqurroq yondashishni nazarda tutadi.

Mazkur kichik tadqiqot orqali Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlaridagi hukmdorlar obrazi, xususan, tarixiy obraz tadqiqot usulida yoritiladi, xulosalar maktab darsliklarida berilgan asardan parcha va mustaqil ta’lim mavzulari asosida umumlashtiriladi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchiga taqdim etilayotgan Navoiy ijodini tadqiqot usulida o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar va o‘quvchi uchun tushunilishi zarur bo‘lgan muallifning “Xamsa” dostonlaridagi tarixiy, afsonaviy podshohlar – badiiy obrazlar masalasi, muallifning mazkur obrazlarga qanday maqsadlarda murojat etganligi oydinlashadi. Fikriy izlanishlar natijasida Navoiy asarlari o‘quvchiga yaqinlashtiriladi, obrazlar mohiyatini anglash osonlashadi. Bu esa o‘quvchida badiiy asarni sevish va uni o‘rganish ishtiyoqini yanada oshishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot usulini qo‘llash orqali o‘quvchilarning olamni anglashga nisbatan faol munosabatlari tarkib toptiriladi, ilmiy bilimlarni hosil qilish va rivojlantirishdagi ilk ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. – Т.: Навоий Алишер. МАТ. VII жилд. “Ҳайрат ул-аброр”. – Т.: Фан, 1991. – 392 б.
2. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2020. – В. 528.
3. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2020. – Б. 344.
4. Алишер навоий. Сабъаи сайёр. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – В. 338.
5. Алишер Навоий. Садди Искандарий. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – В. 832.
6. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996.–192 б.
7. Кудряшев Н.И. Взаимосвязы методов обучения на уроках литературы. – Москва: Просвещение, 1981. – 190 с.
8. Rajabova I. O‘qitish tizimiga tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilik nuqtai nazaridan yondashish // Kasb-hunar ta’limi. Toshkent: 2013. №1. – B. 28.

NAVOIY ASARLARINI O‘QITISHDA XORIJIY MANBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Ruzimurodova Fariza Dustmurod qizi
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2- kurs magistranti
farizaruzimurodova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy ijodining xorijiy mamlakatlarda o‘rganilishi va tadqiqot manbalari, shu bilan bir qatorda xorijlik navoiyshunos olimlarning ayrim fikr-mulohazalari keltiriladi. Shuningdek, ta’limda Navoiy ijodini o‘rganishda hududiy manbalar bilan bir qatorda xorijiy manbalardan ham foydalanish metodikasi xususida ayrim taklif va tavsiyalar beriladi…

Kalit so‘zlar: Navoiyshunoslik, xorij sharqshunosligi, xorijda navoiyshunoslik, mumtoz adabiyot, adabiyot o‘qitish metodikasi, qiyosiy-tahliliy metod.

Annotation

The article presents the study and research sources of Alisher Navoi's work in foreign countries, as well as some opinions of foreign Navoi scholars. There are also some suggestions and recommendations on the use of foreign sources in the study of Navoi's work, as well as regional sources.

Key words: Navoi studies, foreign Oriental studies, Navoi studies abroad, classical literature, methods of teaching literature, comparative method.

“Xorijda Alisher Navoiy va uning ijodi G‘arb olimlari diqqat markaziga tushganiga bir necha asr bo‘ldi”[26]. Bugun dunyoda kechayotgan global o‘zgarishlar

[26] Сатимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западно-европейском востоковедении: диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. Москва. 1996. Эркинов А. Навоий ижодининг хорижлик тадқиқотчилари// Ўзбек тили ва адабиёти. 2019. 2-сон. Б.34.

sharoitida jahon sharqshunosligida Alisher Navoiy ijodiga nisbatan yangicha ilmiy qarashlar, yondashuvlarning shakllanib borayotganligi navoiyshunoslikda yangi davr boshlanganidan dalolat bermoqda.Xorijda o‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganish XVI asrdan boshlangani bizga ma’lum. Xususan, Alisher Navoiy va uning ijodi G‘arb va Sharq olimlari diqqat markaziga tushganidan beri bir necha asr o‘tdi. Hazrat Navoiyning ijodiy merosi o‘zbek adabiyotida alohida mavqe’ga ega bo‘lgani kabi jahon adabiyoti uchun ham alohida ahamiyatga ega. Jahon ta’lim tizimidagi ijtimoiy pedagogik tuzilmalarda jahon adabiyotini qiyosiy o‘rganish misolida milliy adabiyot bilan o‘zga xalqlar adabiyoti o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni teran tushunish, har bir milliy adabiyot jahon adabiyotidan ayri holda taraqqiy qila olmasligiga oid adabiy qarashlar umuminsoniy qadriyatlar, xususan, dunyoqarash va tafakkur tarbiyasida muhim o‘rin tutishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.“Xorijda Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan shug‘ullangan va shug‘ullanayotgan olimlarning salmog‘i baland. Ularning Navoiy bo‘yicha yaratgan ilmiy ishlari O‘zbekistonda ham tadqiq etilmoqda.”[27] Adabiyotimiz va uning taniqli namoyondalari bo‘lgan ijodkorlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning keyingi yuz yillikdagi taniqli vakillari sifatida “Amerika qit’asidan Mariya Sabtelni[28] Zigrid Klaynmixel,[29] Vengriyadan Benedek Peri[30], Fransiyadan Aleksandr Papas[31] va Mark Toutant,[32] Turkiyalik olimlardan Mexmed Fuat Ko‘prulu,[33] Kemal Eraslan,[34] Ayshexan Deniz Abik,[35]Ozarbayjondan Jannat Nag‘iyeva[36] va yana bir qator tadqiqiqtchilar nomlarini eslash mumkin.”[37]

---

[27] Erkinov A. Alisher Navoiy dunyo sharqshunoslari nigohida. Xalqaro konferensiya materiallari, T:2021, 69-bet.

[28] Maria Eva Subtelny. Ali Shir Nava’i: Bakhshi and Beg: Harvard Ukrainian Studies, 3/4 (Harvard, 1979-1980). 804.

[29] Kleinmichel Sigrid. Mir 'Alişir Nava'i und Ahmed Paşa // Archivum Ottomanicum 17, 1999, s. 77-211.

[30] Benedek Peri. Some Thoughts on translating Mir ‘Ali-Sir Navayi’s poetry into English, Difficulties and suggestions. Eotvos Lorand University, Hungary.

[31] Aleksandr Papas « La Makhfî ‘ilm ou Science secrète de ‘Alî Shîr Nawâ’î : le projet d’une langue mystique naqshbandî », Journal d’histoire du soufisme, 3, 2002, p. 229-255.

[32] Un empire de mots. Pouvoir, culture et soufisme à l’époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsade Mīr ‘Alī Shīr Nawā’ī (Leuven : Peeters, 2016, 701 p.).

[33] Mehmet Fuat Köprülü. Ali Şîr Nevâî: 9 Şubat 1441-3 İlkkânun 1501. Maarif Matbaası, 1941.

[34] Eraslan Kemal. Seydî Ali Reis'in Çagatayca Gazelleri // Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi (TDAD). 1968, XVI: s. 41-54.

[35] Ayşehan Deniz Abik - Alişir Nevyinin Zübdetüt-Tevarihi Üzerine, Turuz.

[36] Ağıyeva Cənnət. Klassiklərimizin əsərləri Nəvai kitabxanasında //—Ədəbiyyat və incəsənət, 10

Ta’lim tizimida Navoiy hayoti va ijodini o‘qitishda xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlari hamda manbalari bilan o‘zbek navoiyshunoslarining ilmiy yutuqlaridan baravar foydalanish bugungi zamon talabi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Oliy o‘quv yurtlari talabalari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari, bo‘lg‘usi navoiyshunoslardir. Dunyo ilm-fanida yozilmagan bir qoida bor: sen ilmiy tadqiqot mavzuing bo‘yicha o‘zingdan oldin yozilgan va chop etilgan barcha ishlardan, ular qaysi tilda bo‘lishidan qat’iy nazar, xabardor bo‘lishing kerak. “Bu qoidaga amal qilish olimlikka da’vogarlarni dunyo ilm-fani oldida noqulay ahvolga tushib qolishining oldini oladi.”[38] *“Bizda 2011-yili nashr etilgan “Adabiyot ko‘zgusi” ilmiy to‘plamida O. Jo‘raboyevning shu “Muhabbatnoma” va uning matniy xususiyatlariga bag‘ishlangan “Xazoyin-ul-maoniy”* ning bir shohona qo‘lyozmasi va uning matniy xususiyatlari”[39] nomli maqolasi chop etildi. Unda muallif “Muhabbatnoma”ning tarkibiga kirgan Navoiy va boshqa shoirlarning devonlari haqida yozib, ungacha hech kim bu ishga qo‘l urmaganini ta’kidlagan. Vaholanki, turk Olimi *Ogah Sirri Levend*[40] bu to‘plam tarkibi haqida o‘zining *“Turkiyadagi Navoiy qo‘lyozmalari” maqolasida 1958-yiliyoq yozib bo‘lgandi.”*[41] Navoiy asarlarini o‘rganishda xorijiy manbalardan ham foydalanish eng kamida yosh olimlar va izlanuvchilarni allaqachon kashf etib bo‘lingan “Amerikani qayta kashf etish” muammosidan qutqaradi.

Xorijiy va o‘zbek navoiyshunoslarining tadqiqiqotlariga nazar soladigan bo‘lsak, bu borada olimlarning xulosalari tamomila farqli, ba’zan bir-biriga zid ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday xilma-xillikliklarning bizga ma’lum ayrim sabablarini keltirib o‘tsak:

1. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda afsuski, Vatanimiz va xorijiy mamlakatlar o‘rtasida ma’naviy va ilmiy aloqalar uzilib qolgani bois *“...xorijdagi o‘zbek*

---

yanvar, 1976.

[37] Erkinov A. Alisher Navoiy dunyo sharqshunoslari nigohida.Xalqaro konferensiya materiallari, T:2021,70-b.

[38] Erkinov A. Tojiyev A. “Navoiy va bugungi avlod” nomli suhbat mteriallari, Jahon adabiyoti, 2013.№2.

[39] Yuqoridagi manba.

[40] Levend Agâh Sırrı. Türkiye Kitaplıklarmdaki Nevai Yazmaları // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten, 1958, s. 127-209. 2.

[41] Yuqoridagi manba.

adabiyoti tadqiqotchilari va ularning ishlaridan, ko‘p jihatdan, bexabar va bebahra qoldik’’[42]. Endilikda G‘arb olimlari va ular yaratgan ilmiy asarlar bilan tanishish imkoniyati kengayib bormoqda. Buyuk mutafakkir, turkiy olamning ulug‘ shoiri Alisher Navoiy asarlari sharqshunos olimlar olib borayotgan dunyoviy tadqiqotlarning markazida bo‘lib kelmoqda. Hazrat ijodini o‘rganish, uning ijodiga munosabat Sharqda shoir yashagan davrdan boshlangan bo‘lsa, bu yo‘nalishdagi ilk tadqiqotlar G‘arb olamida XVI asrda yuzaga kelgani, asarlari tarjima qilinganligi ma’lum. Ammo, taassufki, xorij navoiyshunosligi tarixida ko‘plab ziddiyatli, soxta qarashlar ham mavjud ediki, ayrim chet ellik sharqshunoslar muayyan davr mafkurasiga bo‘ysunishi oqibatida mumtoz adabiyotimiz, shu jumladan, Alisher Navoiy ijodiga baho berishda ham siyosiy-ijtimoiy mafkura talablaridan kelib chiqib ish tutganlar.

Sovet davri metodikasida ifodali o‘qish darslarida ham asarning g‘oyaviy mundarijasini ochish muhim hisoblanib, hatto Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishda ham asosiy e’tibor mutafakkirning xalqparvar va insonparvarlik g‘oyalariga, uning siyosiy faoliyati – madaniyat va obodonchilik sohasidagi xizmatlari, shoirning Husayn Boyqaro va saroy ahllari o‘rtasidagi qarama -qarshiliklarni batafsil yoritish zaruratiga e’tibor qaratilgan. Navoiyning san’atkorlik mahoratiga deyarli e’tibor berilmagan**.** *“*Ko‘p holatlarda shoirning tasavvufga oid qarashlari buzib tahlil qilingan”[43].

2. Navoiyning tilini, asarlari zamiridagi mohiyatni, buyuk ijodiy salohiyatini anglay oladigan soha darg‘alarining aksariyati xorijiy tillarni chuqur bilmasliklari;

3. Xorijiy tillarni mukammal biladigan yangi avlod vakillari esa, afsuski, Navoiy ijod etgan eski o‘zbek tilida yaratilgan mumtoz adabiyot namunalarini chuqur anglashdan ojiz ekanliklari ham sohadagi muammolardan biridir.

4. Soha oldidagi yana bir muammo xususida vengriyalik sharqshunos olim ***Benedek Peri*** shunday deydi: “….dastlabki o‘qish jarayonlarida ko‘plab

[42] Levend Agâh Sırrı. Türkiye Kitaplıklarmdaki Nevai Yazmaları // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten, 1958, s. 127-209..

[43] Mirzayeva Z. Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi, T: 2020.

qiyinchiliklarga duch kelganmiz, chunki bizda bu davr adabiy tiliga oid birorta ham lug‘at yo‘q edi. Afsuski, bu muammo hozir ham o‘z yechimini topgani yo‘q, ya’ni talabalarimizga, Navoiy davrida yaratilgan adabiy asarlarni asliyatda o‘qib tushunishlariga mo‘ljallangan eski o‘zbek adabiy tilining inglizcha lug‘ati hanuzgacha yaratilmadi”[44]. Benedek Perining so‘zlaridan ham ayonki, Navoiy ijodiga doir tadqiqotlar jahon miqyosida olib borilayotganligiga qaramay, xorijlik olimlar uchun o‘zbek mumtoz adabiyotini, xususan, Alisher Navoiy asarlarini tushunishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu muammolar asosan, - bu davr adabiy tiliga oid “…*ingliz tilidagi izohli lug‘atlarining yaratilmaganligi*” [45]esa o‘z o‘rnida Navoiy lirikasini asliyatda o‘qib tushunishdagi bir qator murakkabliklarga olib keladi. Raqamli elektron texnologiyalar taraqqiy etgan bir davrda bu muammo, albatta, xorijiy navoiyshunoslarning tadqiqotlari ko‘lami va sifatiga salbiy ta’sir qiladi.

5. Xorijiy olimlarning bu boradagi tadqiqotlarini murakkablashtiradigan muammolardan yana biri Navoiy qo‘lyozmalarining “*ishonchli, tanqidiy nashrlari yetarlicha emasligidir.”*[46] Bu kabi muammolarga qaramasdan, xorijda Navoiy ijodiga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortib borayotganligi quvonarli hol, albatta. XX asr oxiri va XXI asrda xorijda navoiyshunoslarning qo‘lyozma manbalari bilan ishlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan yangi avlod vakillari paydo bo‘ldi. Bular orasida turk tadqiqotchisi Sardor Bulutning Alisher Navoiy ijodini o‘rganish, uning turkiy til tarqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissasini ko‘rsatishga bag‘ishlangan tadqiqoti va unda keltirilgan buyuk e’tirof diqqatni tortadi: “Chig‘atoy adabiyoti va butun turk adabiyotining asoschisi deya qabul qilingan Alisher Navoiyning asarlarida turkiy tilga berilgan ahamiyat va bu tilning dunyo tillari, xususan fors va arab tillari bilan olib borgan kurashiga qo‘shgan ulkan hissasi ochib berilgan. Alisher Navoiy turkiy til nuqtai nazaridan betakror adibdir. Shuning uchun ham Turkiyada uning keng targ‘ib qilinishi, turkiy til rivojidagi xizmatlari e’tirof etilishi lozim”[47].

---

[44] Benedek Peri va Z.Mirzayevaning “Benedek Peri: “Alisher Navoiy ijodi mo‘jiza”nomli intervyu materiallari.

[45] Yuqoridagi manba.

[46]Yuqoridagi manba.

[47] Булут, Сердар, Ася Соğрафясиънин Бüйük Эдиби Али Şîр Невâîънин Ҳаяты, Эдеби Киşилиğи, Эсерлери ве Тürк Дилиъне Каткıları. Араştırма макалеси, Асяъдан Аврупаъя Улусларарасı Сосял Билимлер

Ta’lim tizimida Navoiy asarlarini o‘qitish jarayonlarida xorijiy navoiyshunos olimlarning tadqiqotlari manbalaridan o‘zbek navoiyshunos olimlarining ilmiy tadqiqotlari bilan qiyosiy aspektda o‘rgatish umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda oliy o‘quv yurti talabalari uchun ham birdek qiziqarli va yangicha yondashuv bo‘lishi shubhasiz. Xorijlik olimlarning izlanishlari va sohadagi yutuqlari, bu borada ba’zan chiqargan yanglish hukmlarini o‘rganish o‘quvchilarda milliy g‘urur va faxr tuyg‘ularini uyg‘otishi bilan bir qatorda Navoiy tili vorislari ekanliklarini anglashlariga va bu sohadagi ishlarning taraqqiy etishi o‘zlariga bog‘liq ekanligini ko‘ra bilishlarida muhim yo‘llanma bo‘lishiga ishonamiz.

Alisher Navoiy hayoti va ijodining Yevropa davlatlari, Rossiya va Turkiyada o‘rganilishi alohida e’tiborga molik hodisa. Shu nuqtayi nazardan, xorij olimlarining bugungacha amalga oshirilgan tadqiqotlarini qayta ko‘zdan kechirish, nashr etilgan tarjimalarni tanqidiy tahlillarini, asarlarning til va uslub xususiyatlarining zamonaviy turk, ingliz, fransuz, nemis, rus tillarida berilishi mavzusida doktorlik dissertatsiyalari, monografiyalar yaratish, Hazratning durdona asarlarini yuksak badiiy saviyada tarjima qilib dunyo mamlakatlarida targ‘ib qilish ishini davom ettirish orqali insoniyatni buyuk ma’naviy merosdan bahramand qilish, xususan, yosh avlodda shoir asarlariga muhabbat uyg‘otish dunyo ilm ahli uchun ham qarz, ham farzdir. Shoir asarlari xorijiy tillarga yetarlicha va sifatli tarjima qilinmayotganligi sababli, bugun g‘arbda Navoiyni fors shoirlari darajasida bilmaydilar. Ta’lim tizimida Navoiy asarlarini o‘qitishda xorijiy manbalardan ham qiyosiy-tahliliy foydalanish o‘quvchi va talabalarda adib asarlarini o‘rganishda katta ishtiyoq uyg‘otishi bilan birga, bu boradagi muammolar yuzasidan atroflicha bilim va tushunchaga ega bo‘ladilar va bu kelajakda yoshlarning mazkur muammolarni ijobiy hal etib, Vatanimiz nomini dunyoga tanitishlarida o‘ziga xos yo‘llanma vazifasini bajarsa, ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сатимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западно-европейском востоковедении: диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. Москва. 1996.
2. Эркинов А. Навоий ижодининг хорижлик тадқиқотчилари// Ўзбек тили ва адабиёти. 2019. 2-сон. Б.34.
3. Erkinov A. Alisher Navoiy dunyo sharqshunoslari nigohida. Xalqaro konferensiya materiallari, T:2021, 69-bet.
4. Benedek Peri. Some Thoughts on translating Mir ‘Ali-Sir Navayi’s poetry into English, Difficulties and suggestions. Eotvos Lorand University, Hungary.
5. Benedek Peri va Z. Mirzayevaning “Benedek Peri: “Alisher Navoiy ijodi mo‘jiza” nomli intervyu materiallari.

BADIIY SAN’ATLARNI O‘RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH

Abdialimova Mahfuza Safarboy qizi
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU II kurs magistranti
mahfuzaabdualimova@gmail.com

Annotasiya

Ushbu maqolada badiiy san’atlarni o‘rganishda matn ustida ushlashning ilmiy va amaliy ahamiyati xususida so‘z boradi. Ya’ni badiiy san’at turini aniqlash uchun avvalo, matnni tekshirish, analiz qilishda nimalarga e’tibor berish kerakligi xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy san’atlar, badiiy san’atlar, tashbeh, tajnis, talmeh, tazod.

Annotation

This article discusses the scientific and practical importance of focusing on the text in the study of the arts. That is, in order to determine the type of art, first of all, it is necessary to examine the text, what to look for in the analysis.

Key words: Spiritual arts, arts, tasbeh, tajnis, talmeh, tazod.

Ming yillik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she’r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Biror ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, qanday tasvirlaganiga e’tibor qaratilgan. Shuning uchun ham she’riy san’atlardan foydalanish hamma asrlarda ham badiiy san’atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. She’riy san’atlar badiiy asardan o‘rin olgan g‘oyalarning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar va bandlarning musiqiyligini oshirishga xizmat qiladi. She’riy san’atlarning qimmati baytda ifodalangan lavhalarning, timsollarning yangiligi, betakrorligi va hech kimnikiga o‘xshamasligi bilan ham belgilanadi. Qo‘llanilayotgan san’at,

avvalo, mantiqqa mos kelishi, hayot mantig‘iga zid bormasligi shart. She’riy san’atlarga qo‘yiladigan talablarning yana biri ularda ifodalangan timsollarning o‘quvchilar ommasiga tushunarli bo‘lishidir. Bu timsollarni o‘quvchi anglab etmasa, ular o‘z mohiyatini yo‘qotishi muqarrar. Yana bir talab she’riy san’atlarning nafosat qoidasiga ham muvofiqligi, har qaysi badiiy lavha, timsolning o‘quvchida go‘zal his-tuyg‘ular, tasavvurlar uyg‘otishi zarurligidir. Adabiyotshunosligimizda she’riy san’atlarni ma’naviy va lafziy san’atlarga ajratish an’ana bo‘lib kelgan. Ma’naviy san’atlar asardagi g‘oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq, gavdalantirish, ularning ma’naviy qiyofalari, his-tuyg‘ularini ta’sirchanroq, aks ettirishga xizmat qilgan bo‘lsa, lafziy san’atlar asarning til jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini ta’minlashga yordam bergan. Biz esa bunday yo‘ldan bormadik. She’riy san’atlarni ma’naviy va lafziy turlarg ajratish noo‘rinroq. Chunki, badiiy san’tlarning hammasi go‘zallik va hayrat yaratadi. Bi she’riy san’at g‘oyani yorqin va hayotiy hamda til jihatdan jozibadorligini ko‘rsatishi mumkin. Bunda uni ham ma’naviy, ham lafziy san’at deb atash kerak. Barcha she’riy san’atlar ma’lum qirralaridagina bir-biridan farq qiladi, aslid esa ular bir narsa – go‘zallik uchun xizmat qiladi. She’riy san’atlar haqidagi fan mumtoz adabiyotimizda ilmi bade’ (badiiylik ilmi) deb yuritilgan. Shuningdek, bu ilm “Badoye us-sanoye” deb ham atalib, badiiy san’atlar ma’nosini bildiradi. “San’at” arabcha “sun’”, ya’ni “yaratmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, badiiylik yaratish demakdir. Badiiylik yaratishning yo‘llari ko‘p.

Quyida tazod va tashbeh badiiy san’atlariga murojaat qilamiz.

TAZOD (*ar. “zid, qarama-qarshi”*) – she’rda tuyg‘u va holatni ma’no jihatidan bir-biriga zid, qarama-qarshi so‘z, fikr va tushunchalar orqali ifodalash san’ati. Masalan, Lutfiyning

*Rahm qilgil **bandag‘a, ey shoh**, ul tengri uchun*
*Kim etar bizni **gado** ul sizni **sulton** aylagan, –*

baytini ko‘zdan kechirsak, undagi banda-shoh, gado-sulton so‘zlari o‘zaro zid ma’nolarni ifodalashi, shoir ularni qo‘llash bilan mahbuba va oshiq, munosabatlarini yorqin aks ettirganini ko‘ramiz. Ogahiyning:

Zahri hajrini berur har dam manga bu, vaslining
No‘shini in’om etar bisyor mandin o‘zgaga, –

baytida keltirilgan zid ma’noli *zahr-no‘sh, vasl-hajr, manga-o‘zgaga* so‘zlari ham mahbuba bevafoligini ta’sirchan ifodalashga imkon bergan. Alisher Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azalida shunday bir qat’iy bir qoidaga amal qilinganki, har bir baytda kamida bir tazod san’ati namunasiga duch kelamiz. Bu badiiy san’at g‘azalda asosiy ifoda va tasvir vositasiga aylangan.

Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,
Ro‘zg‘orimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim, yig‘ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi.
Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

Misollar:

Zohid menga bir shishada may, senga namozing
Ming taqvini bir kosayi mayga sota qoldim. (Mashrab)

Uzun sochingdan uzmasmen ko‘ngulni,
Oyog‘ing qanda bo‘lsa, boshim anda. (Atoiy)

Podshoh yo‘qlatsalar nogoh, gado deb axtaring,
Tutmang hargiz nomini, baxti qaro deb axtaring. (Muqumiy)

Buxl erur borcha sifatdin xasis,
Lek saxo javhari asru nafis. (Navoiy)

Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojga bahri talotun Turdiman. (Turdi Farog‘iy)

Tazod san’atiga qurilgan butun boshli she’r ko‘p uchraydi. Masalan, yosh ijodkor Behzod Fazliddinning “Antonim dunyo” she’ri bunga misol bo‘la oladi.

Tez kelgan g‘am ketgaymi sekin,
Armon – yaqin, orzular – uzoq.
Shodlik – qimmat, azoblar – tekin,
Gunoh tinmay qo‘yadi tuzoq.
Past balandga kelmas muvofiq,

Inkor etar kecha kunduzni.
Kim Osmonga, kim Yerga oshiq,
Nega hamma suymas Yolg‘izni?
Qorni ochning, balki, ko‘ngli to‘q,
Hayot − qisqa, buncha uzun yo‘l?
Garchi bugun ko‘zlarim quruq,
Yuragimning ko‘ylaklari xo‘l.
Uyg‘onaman nafsim uxlasa,
Men yig‘layman, dunyo kuladi.
Qarshilar ko‘p, Xudo xohlasa,
Antonimim O‘lim bo‘ladi.

O‘zbekiston Xalq Shoiri Erkin Vohidovning “Barcha shodlik senga bo‘lsin” degan she’ri ham tazod san’atiga qurilgan.

Barcha shodlik senga bo‘lsin,
Bor sitam, zorlik menga,
Barcha dildorlik senga-yu,
Barcha xushtorlik menga.
Sen mening jonimni olgin,
Men sening darding olay,
Barcha sog‘lik senga bo‘lsin,
Barcha bemorlik menga.

TASHBEH *(ar. “o‘xshatish”)* – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san’atlardan biri bo‘lib, ikki yoki undan ortiq narsa va hodisalar, xususiyatlar orasida mavjud bo‘lgan o‘xshashlikni qiyoslash san’ati. Sharq adabiyotshunosligida tashbehlar haqiqiy (real) va majoziy tashbehlarga bo‘lingan. Aniq hayotiy buyumlar, o‘xshatish uchun tanlangan bo‘lsa, haqiqiy tashbeh, noaniq mavhumiy tushunchalar tanlangan bo‘lsa, majoziy tashbeh hisoblangan. Masalan, Furqatning:

Labing g‘uncha, yuzing ikki qizil gul,
Qading sarvu, soching go‘yoki sunbul, –

baytida ma’shuqaning a’zolari aniq narsalarga: labi g‘unchaga, yuzi qizil gulga, qaddi sarvga, sochi esa sunbulga o‘xshatiladi. Binobarin, bu o‘rinda haqiqiy tashbeh qo‘llanilgan. Masalan: “*Yuzing go‘zallikda gul kabidir*” misrasi tashbehni belgilovchi to‘rt unsurga asoslangan:

- O‘xshamish (mushabbih) – tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha (yuz);
- O‘xshatilmish (mushabbihun bihi) tasvirda qiyoslangan narsa yoki tushuncha (gul);
- Asos (vajhi shabih) – nimaga ko‘ra o‘xshatishning yuzaga chiqqanligi (go‘zallikda);
- Vosita (odoti tashbih) – o‘xshatilish belgisi (kabi).

Vosita ishtirok etgan o‘xshatishlarda tashbeh ko‘rinib turadi. So‘z san’atida *-dek; -day; -cha; -simon; -saro; -vash; -iy; -oyin* kabi qo‘shimchalar, *misli, go‘yo, yang‘lig‘, xuddi, o‘xshab, kabi, singari, nechukki* va boshqa so‘zlar vosita bo‘lib keladi. Ko‘p hollarda asos (vajhi tashbih) ishtirok etmasligi mumkin. Masalan, Muqimiyning:

Ko‘zlaring cho‘lpona o‘xshar, qoralig‘da sochlaring,
Orazing oydin munavvar, osmondir qoshlaring.

Mashrabning:

Tar orazing – gul, soching – sunbulki, tishlaring – dur,
Sarvqadlig‘, qosh, ko‘zing, oftobi davron qiz,–

kabi baytlarini misol qilishimiz mumkin.

Tashbeh san’atining bir necha turi mavjud. Atoulloh Husayniy tashbehning ettita turini ko‘rsatib o‘tadi. Ular tashbihi mutlaq, tashbihi kinoya, tashbihi mashrut, tashbihi tasviya, tashbihi aks, tashbihi izmor va tashbihi tafzil nomlari bilan ataladi. Aynan bu badiiy san’atlarga murojaat qilganimizning bosi shuki, bu badiiy san’atlar mumtoz va zamonaviy adabiyotimizda faol qo‘llanilib kelingan va kelinmoqda. Badiiy san’atdan mohirona foydalanish ham ijodkorning go‘zallikni qanday ko‘ra olishiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atoulloh Husayniy. Badoye us-sanoye. (Aruz vazni va badiiy vositalar).:T.-G‘afur G‘ulom. 1981. 346 b.
2. A. Xojiahmedov, She’riy san’atlar va mumtoz qofiya.:T.-“Sharq”. 1998
3. Erkin Xudoyberdiev, Adabiyotshunoslikka kirish.:T.-“Sharq”. 2008
4. Erkin Vohidov, Yoshlik devoni.:T.-G‘afur G‘ulom. 1969
5. Boqijon To‘xliyev, Ra’no Mirqosimova, Oydin Ametova, Adabiyot (majmua).:T.-Bayoz. 2015.

ERTAKLARNI O‘QITISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH
(“Uch og‘ayni botirlar” ertagi asosida)

Mastona Norqulova
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya

Maqolada “Uch og‘ayni botirlar” ertagini o‘qitishga doir yangicha yondashuvlar keltirilgan. Maqoladan ko‘zlangan maqsad maktab o‘qituvchilariga yengillik yaratish va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tafakkurini mustahkamlashga, xalq og‘zaki ijodi namunalarini qiziqish bilan o‘rganishga undash. Maqola materallaridan 5-sinf o‘quvchilarini o‘qitishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: innovatsion yondashuv, pedogogik texnologiya, “Uch og‘ayni botirlar” ertagi, “Adashtirdim, topingchi?”, “Kim chaqqon-u, kim epchil”, “Rolli o‘yinlar”, texnologiya.

Adabiy ta’lim bu inson tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotning inson ruhiyati hatto uning shaxsiyatining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni beqiyosdir[48].Shunday ekan biz dastlab pedagogik texnologiya tushunchasi nima ekanligini bilib olishimiz maqsadga muvofiqdir. “Texnologiya” tushunchasi yunoncha “Texnos” (techne) va “logos” (Logos) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “Hunar fani”ni o‘rganish degan ma’noni anglatadi. Bu tushuncha texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk marta 1872-yilda qo‘llanilgan[49].

Rossiyalik olimlaridan biri – V.M. Monaxov “Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo‘lgan tartibli amallar tizimidir”, – degan qisqacha ta’rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e’tiborni qaratadi. “Pedagogik texnologiya-o‘quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg‘unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub’ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi”, – deydi u[50]. M.V. Klarin fikricha, “Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayoniga texnologik yondashgan

[48] To‘qliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: www.Ziyouz.com kutubxonasi. 2010. – B. 51.

[49] Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: 2006.

[50] Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебнога процесса. - Волгоград: Перемена, 1995.

holda, oldindan belgilab olingan ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, o‘quv jarayonini loyihalashdir”.

Adabiy ta’limda o‘yin texnologiyalari o‘qituvchi hamda o‘quvchilarga ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. Darslarda o‘yin texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi va dars mavzusiga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Adabiyot darslarida 5-6-sinflarda o‘yin texnologiyasini qo‘llash yaxshi natija beradi. Biz 5-sinf Adabiyot darsligida berilgan xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan “Uch og‘ayni botirlar” ertagini o‘yin texnologiyasi asosida o‘qitishning quyidagi usullarini tavsiya qilamiz:

“Adashtirdim, topingchi?” texnologiyasi

Ushbu texnologiyani amalga oshirishimiz uchun o‘quvchilarni “Topqirlar”, “Chaqqonlar”, “Zukkolar” guruhlariga bo‘lib olamiz. Shundan so‘ng har bir guruhga “Uch og‘ayni botirlar” ertagida berilgan “3” soni bilan bog‘liq bo‘lgan chalkash va ma’lumotlarning o‘rni almashtirilib qo‘yilgan topshiriqlar varag‘ini tarqatamiz.

1-guruh “Topqirlar” guruhi:

Sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – botir bo‘ldingiz.

Yarog‘ bilan tanishtirdim – quvvatli bo‘ldingiz.

Qo‘rqitmay o‘stirdim – yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz.

To‘g‘ri bo‘ling – baxtsiz bo‘lmaysiz.

Maqtanchoq bo‘lmang – bexavotir bo‘lasiz.

Dangasalik qilmang – xijolat tortmaysiz.

2-guruh “Chaqqonlar” guruhi:

To‘g‘ri bo‘ling – xijolat tortmaysiz.

Dangasalik qilmang – bexavotir bo‘lasiz.

Maqtanchoq bo‘lmang – baxtsiz bo‘lmaysiz.

Sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – botir bo‘ldingiz.

Yarog‘ bilan tanishtirdim – quvvatli bo‘ldingiz.

Qo‘rqitmay o‘stirdim – yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz.

3-guruh “Zukkolar” guruhi:

Sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz.

Yarog‘ bilan tanishtirdim – quvvatli bo‘ldingiz.

Qo‘rqitmay o‘stirdim – botir bo‘ldingiz.

To‘g‘ri bo‘ling – xijolat tortmaysiz.

Dangasalik qilmang – bexavotir bo‘lasiz.

Maqtanchoq bo‘lmang – baxtsiz bo‘lmaysiz.

To‘g‘ri javoblar quyidagicha:

Sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – quvvatli bo‘ldingiz.

Yarog‘ bilan tanishtirdim – yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz.

Qo‘rqitmay o‘stirdim – botir bo‘ldingiz.

To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz.

Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz.

Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarni ertakni qiziqish bilan o‘qishga undaydi hamda o‘rgangan bilimlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, ertakning har bir detaligacha e’tibor bilan o‘qishga harakat qiladi. O‘z bilimlarni belgilangan vaqt ichida namoyish qilishga o‘rganadi. O‘yin texnologiyasi orqali guruhlar bilan ishlaganda esa sog‘lom raqobat tushunchasi shakllanib boradi.

“Kim chaqqon-u, kim epchil” texnologiyasi

“Kim chaqqon-u, kim epchil “texnologiyasida “Uch og‘ayni botirlar” ertagida berilgan turli rangdagi otlar obrazining tahlilini amalga oshiramiz.



O‘quvchilarga otlarning tanlanishi va ranglarida nima ma’no borligini izohlab berish topshirig‘i beriladi. Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar o‘z mustaqil fikrlariga tayangan holda javob berishlari aytiladi. O‘quvchilar ertakni o‘qib chiqqanliklari uchun quyidagicha javoblarni berishlari mumkin:

Qora ot – otlarning eng qo‘rqmasi va yaxshi chopag‘oni va tishlong‘ichi. Ukalarini xavf-u xatardan saqlasin deb, uni to‘ng‘ich farzandimga berdim.

Saman otning manglayida yoki to‘rttala oyog‘ida oq qashqasi bo‘lsa, u otlarning eng yaxshisi va abjiri, sadoqatlisi bo‘ladi. Uni o‘rtancha o‘g‘lomga berdim.

Ko‘k ot agar uning dumi qora bo‘lsa, otlarning eng yaxshisi bo‘ladi. Uni g‘irko‘k ham deyishadi. Sakraganda 40 metrgacha sakraydi. Uni kenja o‘g‘limga berdim.

Yuqoridagi javoblarni o‘quvchilar kitobdagi ma’lumotlarga tayangan holda aytadilar. Lekin qiziquvchan va uddaburon o‘quvchi bizning hayolimizga kelmagan javobni aytishi mumkin. Bu topshiriqda mustaqil fikrlar asosida javob bergan guruh yuqori ball bilan rag‘batlantiriladi. Ma’lumot sifatida o‘quvchilarga otlar haqida gapirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Otlar yigitlarning safar vaqtidagi sadoqatli hamrohi ekanligini, ularga mehr qo‘yishlarini aytib o‘tish ham o‘quvchilar tarbiyasiga hamda ong-u shuuriga vatanparvarlik ruhini singdirishga yordam beradi.

“Rolli o‘yinlar” topshirig‘i

Biz yaxshi bilamizki, o‘quvchilarning eng yaxshi ko‘rgan topshirig‘i, albatta, rolli o‘yinlardir.O‘quvchilarga “Uch og‘ayni botirlar” ertagi asosida spektakl sahnalashtirish topshirig‘i berilsa, ular bu topshiriqni jon dili bilan bajaradilar.Bu topshiriqdan asosiy maqsad shundan iboratki, o‘quvchilar qahramonlar ruhiyatini oz fursatga bo‘lsada, his qilib ko‘rishadi.Bu esa o‘quvchilarni ertakning mazmun-mohiyatini anglashga ko‘maklashadi.Sinfdagi o‘quvchilar barcha topshiriqlarni bajarib bo‘lishganidan so‘ng, albatta, ular rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot o‘qitishda o‘yin texnologiyasi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tezkorlikka, ijodkorlikka yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.O‘quvchi o‘rgangan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanib o‘yin vositasida o‘quv topshiriqlarini bajaradi.O‘z oldiga qo‘yilgan muammolarni echadi. Adabiyot ta’limida darslarga shu kabi texnologik yondashuv dars samaradorligini taminlaydi va darsning qiziqarli ruhda tashkil qilinishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Muhamedova S. X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2018.
2.S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. 9-sinf . Adabiyot. –T.: 2019.
3.To‘qliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi.–T.:www.Ziyouz.com kutubxonasi. 2010. – B. 51.
4.Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: 2006.
5.Монахов В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебнога процесса. - Волгоград: Перемена, 1995.
6. www.ziyo.uz
7. www.ziyonet.uz

SHAKLDAN TO MAZMUNGACHA ADABIYOTGA CHORLASIN

Ozoda Shukurboyeva
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot fanini o‘qitishni yanada rivojlantirish, o‘quvchida ushbu fanga nisbatan qiziqishni va mehrini orttirish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Buning uchun Germaniya davlati darsligiga ham murojaat qilinadi, ikki adabiyot darsliklari qiyoslanadi.

Kalit so‘zlar: adabiy ta’lim, metodika, o‘qitish metodlari.

Annotation

This article discusses ways to further develop the science of literature and increase the student's interest and love for the subject. For this, the German state textbook is also referred to, and the two literature textbooks are compared.

Key words: literary education, methodology, teaching methods.

Adabiyot – hayot ta’limi, insonni yaxshilikka chorlovchi bir kuchdir. Abdurauf Fitrat ta’biri bilan aytganda “Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham shu to‘lqunlarni yaratmoqdir.”[51] Shunday ekan u bilan oshufta bo‘lgan boladan

[51] Adabiyot qoidalari . – T.: O‘qituvchi, 1995, 21-22-betlar

kelajakda yaxshiliklar kutish, uning yordamida oʻquvchini ezgu fikrli, ezgu soʻzli, ezgu amalli inson qilib tarbiyalash mumkin. Bolani adabiyotga majburlab qiziqtirib boʻlmaydi, uni ota-ona yoki oʻqituvchi tomonidan majburlab oʻqitish yoki baho uchun harakat qilishga undash kerak emas, balki shunday qilish kerakki, oʻquvchi oʻzi xohlab, uyiga shoshib kelib va yana oʻz darsligini sogʻinib qoʻliga olsin, qayta-qayta varaqlasin, uyga vazifalarini chin dildan bajarsin. Buning uchun darsliklarning koʻrinishidan tortib to uning mazmunigacha boʻlgan jarayon hamda oʻqituvchining oʻz pedagogik mahorati muhim hisoblandi. Masalan, 5-6-sinf oʻquvchisi fantaziya va sarguzashtlarga qiziquvchi hali koʻchada toʻp tepib yurgan bola. Uni toʻp yo telefon, kompyuter oʻyinlarini bir chetga surib, yana darslikni qoʻliga oldirishning yana bir yoʻli darslik sahifalarini mavzuga moslab chizilgan rasmlar bilan bezashdir. Bu, ayniqsa, 5,6,7-sinflar uchun juda qoʻl keladi. Axir, koʻrish orqali ham kerakli ta’lim-tarbiya olish mumkin. Ana shunda oʻquvchi mavzuga moslangan rasmni tomosha qila turib, oʻz-oʻzidan uning mazmunini toʻliq anglashga qiziqib qoladi. Natijada matnga murojaat etadi. Shu oʻrinda Germaniya davlatining Bernd Schurf va Andrea Vagener tomonidan nashr qilingan 5-sinf nemis tili darsligiga murojaat etsak[52] (Germaniyada adabiyot darsligi nemis tili bilan uygʻunlashib ketgan). Bizning 5-sinf adabiyot darsligi bilan qiyoslaganda unga ishlatilgan qogʻoz shunchalik sifatli hamda silliqki, uni ushlaganingiz sari yana qoʻlingizga olgingiz keladi. Kitob katta. Shuningdek, har bir sahifaga mavzuga moslab rasmlar chizilgan. “Nutq va oʻqish kitobi” deb nomlangan darslikka tahrir hay’ati sifatida oʻn etti olimning nomi keltirilgan. I. G. Reynland – pfolts gimnaziyasi uchun chiqarilgan ushbu darslikda “Salamandar xori” mavzusida toʻrtta she’r berilgan boʻlib, ularning har biriga rasm ishlangan. Vilgelm Buschning “Tabiiy tarix alifbosi” nomli toʻrtliklardan oldin quyidagicha:

1) She’rlarning shakli va tovushini kashf eting.

2) She’rlarning bayt, qofiya, va matn xususiyatlarini oʻrganing.

[52] Rheinland-Pfalzdagi oʻrta maktab, I G Rheinland-Pfalz gimnaziyasi. 5-sinf nemis tili kitobi. Bernd Schurf va Andrea Wagener tomonidan nashr etilgan.Cornelsen

To‘rtliklardan so‘ng esa quyidagicha topshiriqlar berilgan:

a) Ushbu she’rdan nimani payqaganingizni tushuntiring

b) Oxirgi rasmga diqqat bilan qarang, ular qanday hayvonlar?

c) Tushirib qoldirilgan ikki so‘zni to‘ldiring va satrlarni baland ovozda o‘qing.

“Tabiat tarixi alifbosi”da qofiyasiz holda berilgan she’rni qofiyaga solish hamda tushirib qoldirilgan so‘zni o‘quvchilarning o‘zlari qo‘yishi kerak. Bunda o‘quvchilar mustaqil izlanishadi.

2. “Tabiat tarixi alifbosi”da boshqa hayvonlar ham ko‘p. Misralar aralashib ketgan. Ularni mashq kitobingizga alifboning to‘g‘ri tartibida yozsangiz, qofiya uchraydi. Bolalar qofiyani shu tarzda topishadi. Yoki yana ushbu darslikning 157-betida “Hayvonlarning zavqi” nomli she’r berilgan. Unda ham she’rni yarating va ayting topshirig‘i berilgan. Reynxard Dohlning “Olma” nomli she’rida ikkita olma rasmi berilgan. Ularning birida obrazli qilib yashil olmadan bosh chiqarib turgan olma qurti tasvirlangan. Ikkinchisi esa olma, olma, olma va qurt degan so‘zlar bilan to‘ldirilgan rangsiz olma tasviri. Rasmning o‘ziyoq o‘quvchini uzoq o‘ylashga majbur qiladi. Mavzuga ishlangan topshiriqlar quyidagicha:

1. She’r qanday so‘zlardan iborat va qanday yaratilganligini tushuntiring.

2. Rasmni rasmli she’r bilan taqqoslang.

3. Rasmli she’rning o‘ziga xos g‘oyasi nimada?

4. She’rga xos xususiyatlarni to‘plang.

5. Rasmli she’r va haqiqiy she’r haqida o‘z fikringizni asoslang.

6. She’r xususiyatlarini bilib oling

7. She’r aytish, yodlashni mashq qiling.

8. O‘zingiz she’r yozing, kompyuter yordamida ularni loyihalashtiring, she’r kitobini tuzing

Yuqoridagi topshiriqlardan ko‘rinib turibdiki, Germaniya ta’limida o‘quvchi bir adabiyot darsida ham adabiyot, til, ham tasviriy san’at, ham kompyuter savodxonligi integratsiyasini amalga oshiradi. Bu esa o‘quvchini mustaqil izlanishiga olib keladi.

Shu o‘rinda umumiy o‘rta ta’lim maktablarimizning 6-sinflar uchun chiqarilgan adabiyot darsligiga murojaat qilsak[53]. Ushbu darslik qayta ishlangan to‘rtinchi nashr bo‘lishiga qaramasdan, undagi topshiriqlar eski nashrlardagi topshiriqlardan deyarli farq qilmaydi. Unda bolani o‘ylantiradigan, mustaqil nimadir yaratishga yoki izlanishga undaydigan topshiriqlar juda kam. Jumladan, darslikning 22-sahifasida Muso Jalil hayoti va ijodiga berilgan savol va topshiriqlarning deyarli barchasi o‘quvchilarni faqat nazariy ma’lumotlarni yod olishga undaydi. Bu esa yana ta’lim tizimimizda mustaqil fikrlashdan, ijodkorlik va izlanuvchanlikdan nazariy ma’lumotlarni yod olish ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Masalan:

1. Musa Jalilning hayoti va ijodi qanday davrda kechdi?
2. Shoirning serqirra faoliyati o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi?
3. “Maobit daftari”ning yaratilish tarixini so‘zlab bering.

4. “Ishonchnoma” she’rida shoirning qanday kechinmalari badiiy ifodasini topgan?

Bunday ko‘rinishdagi savol va topshiriqlarni yana bir bor ko‘rib chiqish, ularni o‘quvchini mustaqil izlanishga undaydigan topshiriqlar bilan almashtirish kerak bo‘ladi. Shu o‘rinda darsda o‘quvchi yo o‘qituvchi tomonidan beriladigan yoki tuziladigan savollarning ham o‘quvchining adabiyotga qiziqtirishdagi ahamiyati yuqoriligini unutmaslik joiz. Ularni odatiy shakllardan o‘zgargan holda berish ham o‘quvchini darsga qiziqtiradi. Darslikka qayta-qayta murojaat etishga, uni varaqlashga olib keladi. Jumladan, “Savollarning o‘rganilgan shakllardan boshqacha, o‘zgargan holda qo‘yilishi ham tafakkur mustaqilligining shakllanishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.Bunday vaziyatlarda o‘quvchining tafakkuri mustaqil tarzda ishlay boshlaydi. Negaki, uning oldiga javob berishni talab qiladigan vazifa qo‘yilgan.O‘z navbatida, bu usul fikrlarni o‘z so‘zlari bilan ifodalashni ham talab qiladi. Bu holat nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham molik”.[54]

[53] Adabiyot, S, ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2017.

[54] Q. Husanboyeva, R, Niyozmetova Adabiyot o‘qitish metodikasi, Toshkent: “Innovatsiya –Ziyo”, 2020, 260-261-bet.

O‘quvchilarda adabiyotga yanada mehr uyg‘otishning yana bir yo‘li o‘qituvchi tomonidan asar “reklama”sining chiroyli qilib berilishidir. Deylik, Xudoyberdi To‘xtaboyevning hayoti va ijodi mavzusidagi dars davomida o‘qituvchi adibning “Besh bolali yigitcha”, “Sariq devni minib” kitoblarini darsga olib kirib, o‘quvchiga ko‘rsatishi, qiziq joylarini kerak bo‘lsa, o‘qib berishi o‘quvchini darsdan keyin ushbu kitoblarni izlab topib, to‘liq o‘qib chiqishga undaydi. Mana shunday asar “reklama”sini boshqa ijodkor hayoti va ijodiga ajratilgan dars soatlarida ham qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент, Ўқитувчи, 1995. – 112 б.
2. Ahmedov S, Qo‘chqorov R, Rizayev Sh., Adabiyot 6-sinflar uchun.Toshkent,Ma’naviyat, 2017. 114 b.
3. .Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 352 b.
4. 5-sinf nemis tili kitobi. Rheinland-Pfalzdagi o‘rta maktab, I G Rheinland-Pfalz gimnaziyasi. Bernd Schurf va Andrea Wagener tomonidan nashr etilgan.Cornelsen

BADIIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASHDA SAVOL-TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Seema Farda
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada adabiy ta’lim jarayonida savol-topshiriqlardan foydalanish mazmuni yoritiladi. Xususan, “Boburnoma” asarini o‘rganishda uning mazmunini o‘zlashtirishga doir savol-topshiriqlarni tuzish va foydalanish usullari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: savol, topshiriq, matn, muammo, fikr.

Annotation

The article describes the content of downloading questions from the literature in the educational process to look at a number of directions for studying the work of Boburnoma.

Key words: question, assignment, text, problem and idea.

Afg‘oniston oliy ta’lim tizimida Bobur ijodini o‘rganish masalasi o‘quv rejaga “Bobur shunoslik” fanini kiritish va unga muayyan dars soatlari ajratilishi bilan alohida ahamiyat qaratiladi. Bobur shnoslik fani doirasida Boburning hayoti va Afg‘onistonda yuz bergan voqealar, uning Hindiston va Afg‘onistonda yuritgan

siyosati, hokimiyatni boshqaruvi, ilmiy merosi va Bobur siymosining turli qirralari ustida bahs yuritiladi. Albatta, bu yerda “Boburnoma” asari yuzasidan o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar asosida talabalardan asar mazmunini chuqur o‘rganishni talab qilamiz.

Tadqiqotimiz davomida o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasida savol-topshiriqlar ustida ishlash masalasi alohida o‘rganilganini kuzatdik. Xususan, bu borada o‘zbek metodistlari A. Zunnunov, S. Matchonov, Q. Yo‘ldoshev, Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova, H. Suyunov, Z. Mirzayeva, K. Jalilov, S. Kambarovalarning tadqiqotlarida alohida tadqiq etilgan.

A.Zunnunov savollarni xususiyatlariga ko‘ra 3 guruhga bo‘ladi:

1) bilimlarni mustahkamlash vazifasini bajaruvchi savollar;

2) mantiqiy fikrlash usullarini egallashga imkoniyat beruvchi savollar;

3) o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatini beruvchi savollar [Zunnunov, 1992: 120].

Bundan ko‘rinadiki, birinchi guruhdagi savol-topshiriqlar o‘zlashtirilgan tushunchalarni tartibga solishga; ikkinchi guruh savol-topshiriqlari tahlilga asoslangan ishlarni taqqoslash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, vzifalarni mustaqil bajarishga yo‘naltiradi, shuningdek, bilimlarni yanada chuqurlashtirishga yordam beradi. Uchunchi guruh savol-topshiriqlari zamirida esa egallangan bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadi mujassamligi ma’lum bo‘ladi.

Professor S. Matchonovning mustaqil ishlarni tashkil etishga doir tadqiqot ishida savol-topshiriqlar quyidagicha guruhlanadi:

1. Asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish va umumiy mazmunini o‘zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

2. O‘zlashtirilgan adabiy-nazariy tushunchalarni mustahkamlashga doir savol-topshiriqlar.

3. Yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan berilgan ma’lumotlarni o‘zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

4. Asar voqealari misolida o‘quvchilarning hayotga munosabatini aniqlashga doir savol-topshiriqlar [Matchonov, 1996: 94].

Metodist olima R.Niyozmetovaning ilmiy ishida savol-topshiriqlarning matnga nisbatan joylashtirilishi, o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi masalasi yoritilgani bilan ahamiyatlidir [Niyozmetova, 2007: 134]. Bu yondashuv keyinchalik Z. Mirzayeva, N. Egamberdiyeva, K. Jalilov, S. Kambarovalar tomonidan to‘ldirilib amaliyotga tatbiq etilgan. Bizningcha, asar yuzasidan tuziladigan savollar asar mazmunining mohiyatini ochishga va badiiy qimmati hamda ta’sirchanlik jihatlarini ochishga xizmat qiladi. Savol-topshiriqlar boshqa turli xil metodlarga asosiy vosita hisoblanadi. O‘qituvchi tomonidan tuziladigan savollar ham talabalarning “Boburnoma” to‘g‘risida chuqur tadqiqod olib borishlarini talab etadi. Ana shunday savollar mavjud bo‘ladiki, ularning ilmiy faoliyatlarini tobora yuqori olib borishga xizmat qiladi. Masalan:

1. Boburni nima uchun “karimut tarafayn” deydilar?

2. Bobur qanday sabablar tufayli Afg‘onistonga borishga majbur bo‘ladi?

3. Bobur nega Kobul ob-havosiga juda yuqori baho beradi?

4. Nima uchun u umrining oxiriga qadar yurt qayg‘usida yashadi?

5. Asardan uning lashkariga mehribon sarkarda ekanligini ko‘rsatuvchi lavhalarni aniqlang.

6. Bobur muammoli vaziyatlarga qanday yechim topa olganiga asardan misollar keltiring.

Bu savollarning asosiy maqsadini topish uchun har bir talaba “Boburnoma” va yoki Bobur to‘g‘risida olib borilgan tadqiqodlar, maqolalar va dissertatsiyalarni o‘qib, maqsadga erishishni istaydilar. Bu borada talabalar “Boburnoma” to‘g‘risida o‘rgangan va yangi o‘rganayotgan bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirishga e’tibor qaratadilar.

“Boburnoma”ni o‘qitish jarayonida o‘qituvchi tomonidan talabalar ishtirokini talab qiladigan savollar tashlanmasa, ular mavzuni chuqurroq anglay olmaydilar.

Fikrlashga va izlanishga undaydigan, dunyoqarashini kengaytirish uchun muammoli savollarni qo‘yish kerak. Jumladan:

1. Boburning Hindistonda yurishlari sabablarini aniqlang.

2. Ibrohim Lo‘diyning onasi Boburga qilgan xiyonati sabablarini izohlang.

3. “Boburnoma” asarida Bobur “Kobulni xolisa qildim”, degan so‘zi nimani anglatadi? Izohlang.

4. Boburning yaratuvchanlik ishlari zamirida qanday kuch va g‘oya mujassam deb o‘ylaysiz?

Bu savollarga javob qaytarish talabalarning “Boburnoma” to‘g‘risida olib borilgan izlanishlar haqidagi bilimlarini, asar mazmunini o‘zlashtiishini ta’minlaydi, ularning qiziqishlarini oshiradi. Qo‘yilgan savollar bilan talabalarning mustaqil ravishda muammoning yechimini topishga urinadilar. Bu savollar auditoriyada muhokama qilingan holda har bir talaba o‘zi topgan javobini asoslashga urinadi. Mana shunday imkoniyatlar talabalarni izlanish faoliyatiga yo‘naltiradi.

Savollardan oliy ta’lim muassasalari, maktablar yoki kollejlarda foydalansak, ta’lim oluvchilarning murakkab muammolar yechimini mustaqil ravishda egallashlariga shart-sharoit yaratiladi. Bunday vaziyatni savollar bilan yaratish talabalarning oldingi tasavvurlariga qarama-qarshi bo‘lgan kuchli his-tuyg‘u uyg‘otadi va ularni yangi o‘rganayotgan bilimlari bilan boshlanishiga yangi yo‘l ochib beradi. Insonda har bir narsaga qiziqish bo‘lmaguncha, yurakdan joy olmaguncha va yaxshi tushunmaguncha biror fikr tug‘ilmaydi. Albatta, o‘qituvchi tomonidan berilgan savollar mavzuning mohiyatini chuqur o‘zlashtirilmaguncha va rag‘batlantirilmasa, bilim olish va o‘zlashtirishga qiziqish uyg‘onmaydi. Mavzuning qiziqarli bayon qilinishi va talabada mavzu yuzasidan biror fikr va savollar vujudga keltirilishi o‘qituvchining burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 352 б.
2. Матчонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.
3. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 216 б.

HIKOYALARNI TAHLIL ETISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Malihabonu Raxmonova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti
mdjabborova86@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada dars jarayonini noan’anaviy tashkil etishning, asar tahlili jarayonida chizmali grafiklardan foydalanishning samarali jihatlari haqida so‘z boradi. Xususan, hikoyalarni tahlil etishda grafik organayzerlarning o‘rni masalasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: metodika, epik asar, hikoya, tahlil, grafik organayzer, noan’anaviy dars.

Annotatsion. This article discusses the advantages of non-traditional organization of the teaching process, the use of graphic graphs in the analysis of the work. In particular, the role of graphic organizers in story analysis is highlighted.

Key words: methodology, epic work, story, analysis, graphic organizer, non-traditional lesson.

Ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishga har doimgidanda ko‘proq urg‘u berilayotgan hozirgi jarayonda, yoshlarga bilim berish, ularni hayotga tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bugungi kunda ta’lim jarayoni bo‘yicha jahon tajribasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘quvchi qachonki olgan bilimlarini amalda qo‘llay olsa, u haqiqiy bilimning egasi bo‘la oladi. Albatta, bu jarayonda nazariy bilimlarni puxta berish ham muhimdir.

Adabiy ta’limning samaradorligini ta’minlashda noan’anaviy dars mashg‘ulotlarining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Dars mashg‘ulotlarida foydalaniladigan metod va texnologiyalarni to‘g‘ri va maqsadli qo‘llay olish muhim hisoblanadi. Adabiyot darslarida turli janrlarga xos bo‘lgan badiiy asarlarni umumiy o‘rta ta’limning barcha sinflarida bir xilda uyushtirish ko‘zlangan natijani beravermaydi. Boshqacha qilib aytganda, lirik asarlar bo‘yicha o‘tkaziladigan metodlar bilan epik asarlar yuzasidan uyushtirilgan dars mashg‘uloti bir xilda amalga oshirilmaydi.

Epik asarni o‘rganishda biror tarixiy yoki hayotiy voqea, voqeani tanlab olish prinsipi, voqeaga bo‘lgan munosabat, ya’ni ma’lum dunyoqarash muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham, badiiy asarni o‘qish jarayonida, mazmun va shaklning barcha tomonlari, g‘oyaviy-tematik asoslar, xarakterlar doirasi, asar syujeti va kompozitsion qurilishi, tili va o‘tmish an’anaviy syujeti bilan aloqadorligi

kabi jihatlarni ham e’tiborga olish zarur. Badiiy asarni, xususan, hikoyalarni janr xususiyatidan kelib chiqib o‘rganish muhim, biroq mavzuni yangi innovatsion texnologiyalar va yangicha yondashuvlar vositasida o‘rgatish, o‘quvchilarni shunchaki axborotlarni qabul qiluvchi emas, dars asnosida o‘rganilayotgan badiiy asarni his qilishi, qahramonlar ruhiyatiga kira olishi, olgan bilimlarini tanish-notanish vaziyatlarda qo‘llay olishiga yo‘naltirish, amaliy ko‘maklashish uchun ta’lim jarayonida grafik organayzerlardan samarali foydalanish mumkin.

Adabiy ta’limda grafik organayzerlarning ahamiyati qanday? Epik asarlarni, xususan, hikoyalarni tahlil etishda grafik organayzerlardan qanday foydalanish mumkin. Avvalo, chizmali grafiklar ta’lim rivojlangan davlatlarda darsni tashkil etish bo‘yicha eng samarali texnologiyalardan ekanligini e’tirof etish joiz. Grafik organayzerlardan rus ta’lim tizimida ham keng foydalaniladi.

Organayzer inglizcha “tashkil etuvchi, grafik tashkil etuvchi” ma’nosini bildiradi. Axborot texnologiyalari sohasi atamasi sifatida ishlatiladi. Aniqrog‘i, Power-point va shu kabi dasturlarda tayyorlanadigan vizual ko‘rgazmali namoyish usuli. Tahliliy ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etish usullari va vositalari sifatida organayzerlar (grafik tashkil etuvchilar)ning vazifasi muhim hisoblanadi.

Ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etish usullari va vositalari: grafik tashkil etuvchilar. Ushbu bo‘limda ma’lumotlarni tarkiblashtirish va umumlashtirish usul va vositalari, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqealar, mavzular va shu kabilar) o‘rtasida aloqa va aloqadorlikni o‘rnatish; ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash; muammolarni hal etishni rejalashtirish kabi masalalar o‘rganiladi.

Grafik tashkil etuvchi – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi. Ular ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish usul va vositalari, o‘rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o‘rtasida aloqa va aloqadorlik o‘rnatishga o‘rgatadi.

Dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanishga harakat qilish kerak. Murakkab mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun *Insert,*

Toifali, Konseptual, BBB, Klaster sxemasi, T-jadvallar, Venn diagrammasi, Swot-tahlil jadvali, Kuchlar tahlili grafigi, Nima uchun?, Qanday?, Baliq skeleti, Piramida, Nilufar guli kabi organayzerlardan foydalaniladi. Darslarda o‘rgatilgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalaniladi[Ikramova va b. 2016:56].

Keltirilgan metodlar ichida muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish uchun samarali hisoblangan metod ham mavjud. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalariga «Nima uchun?», «Nilufar guli», «Piramida» sxemasi va shu kabilarni kiritish mumkin.

«Nima uchun?» sxemasi

“Nima uchun?” sxemasi – muammoning dastlabki sababini aniqlash bo‘yicha bir butun, qator qarashlardir. Tizimli, ijodiy, tahliliy, mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Nima uchun?” sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishadi. Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. “Nima uchun?” so‘rog‘i bilan strelka chiziladi va ushbu savolga javob yoziladi. Ushbu jarayon muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi o‘rnatilmaguncha davom ettiriladi.


Kichik guruhlarga birlashadi, o‘z sxemalarini taqqoslaydi va qo‘shimchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi. Natijalar taqdimoti.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari

1. Qanday piktogrammadan: aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchakdan foydalanishingizni o‘zingiz hal etasiz.


2. Mulohazalar sxema-zanjiri turini: chiziqli, nochiziqli, spiralsimon (dastlabki holatni markazga yoki chetga joylashtirib) bo‘lishligini o‘zingiz tanlaysiz.

3. Strelka sizning qidiruv yo‘nalishingizni belgilaydi: dastlabki holatdan oqibatgacha.



“Nima uchun?” chizmasi yordamida “Hellados” hikoyasini tahlil etib ko‘ramiz. Gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening “Hellados” asari maktab ta’limining 5-sinfida o‘qitiladi. Asarda Vatanparvarlik deb atalmish buyuk tuyg‘uning junbushga keltiruvchi voqea hikoya qilinadi. Asar muallifi o‘zbek emas, tasvirlanayotgan joy ham o‘quvchiga notanish – Suxumi mamlakati va hatto madh etilayotgan Vatan ham O‘zbekiston emas – Ellada haqida. Biroq hikoyani o‘qigan o‘quvchi, ich-ichidan o‘z Vatani haqida o‘ylaydi, Vatanini chin yurakdan sevishini his qiladi. Bu jarayon bevosita badiiy asarning o‘quvchiga kuchli ta’sir qila olishining bir isbotidir.

Ma’lumki, mazkur hikoyaning xulosa qismi muallif tomonidan aytilmaydi, xotima qismi o‘quvchiga qoldiriladi. O‘quvchi hikoyaga to‘g‘ri yakun yasashi uchun asarni tushunishi, “hazm” qila olishi kerak. Chunonchi “epik asarda qahramon obrazi ustida ish olib borilganda o‘qituvchi ikki muhim jihatga e’tibor berishi zarur: 1. Asardagi qahramonlar obrazi inson timsolini namoyon etadi. 2. Asar qahramoni yozuvchining ijodiy fantaziyasi, san’atkorligi natijasida yaratilgan badiiy obrazdir”[Mirqosimova, 2006: 59]. Hikoyadagi voqealar rivojini “Nima uchun?” chizmasi yordamida tahlil qilishga harakat qilamiz.



Koʻrib oʻtganimizdek, “Nima uchun?” metodi orqali asarning bir oʻqishda anglanmagan jihatlari oydinlashadi. Voqealar oʻquvchi koʻz oldida qayta, tushunarli holatda namoyon boʻladi. Oʻquvchi “Nima uchun”larga javob berishi asnosida asar qahramonlari ruhiyatini his qiladi. Demakki, oʻquvchi va oʻqituvchi oʻz oldiga qoʻygan maqsadiga erishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dars jarayonini noan’anaviy tashkil etish, turli grafik organayzerlardan mohirona foydalanish – oʻquvchiga asarni his qilishga, muallif badiiy maqsadini toʻgʻri anglashga yordam beradi. Demak vizual chizmalar orqali dars jarayonini samarali tashkil etish, janridan qat’i nazar epik asarni tahlil qilishda turli grafiklardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirqosimova M. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2006.
2. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qoʻchqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020.
3. Z.Ikramova, N.Alimxodjayeva, S.Gulyamova. Oʻqitish jarayonida “Grafik organayzerlar” va “Sud jarayoni” interfaol usullaridan foydalanish. // Zamonaviy ta’lim, 2016-yil, 12-son. – B. 56.

“SAB’AI SAYYOR” DOSTONINI OʻQITISHDA METODIK YONDASHUVLAR

Gulbahor Hasanova
ToshDOʻTAU magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiy ta’limda “Xamsa” tarkibidagi dostonlardan “Sab’ai sayyor”ni maktabda oʻqitish va oʻquv jarayonida nimalarga e’tibor qaratish lozimligi, xususan, qanday tamoyillar asosida asarga yondashish xususida fikr yuritiladi. Mumtoz adabiyotni oʻrganishdagi samarali metod va usullar haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar. Doston, badiiy tahlil, obraz, badiiy tafakkur, muammoli vaziyat, tasavvufiy qarashlar, motiv, interfaol metodlar, oʻquvchi sezimlari, oʻquvchi yosh xususiyatlari.

Ta’lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati oʻquvchilarda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma’naviy olamini yaratishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda badiiy adabiyot bilan teng keladigan birorta soha yoʻq,

deb aytish mumkin. Zero, badiiy adabiyot alohida shaxsga ham, butun jamiyatga ham kuchli darajada ta’sir ko‘rsata olish imkoniga ega. U jamiyatning o‘z-o‘zini anglashida, uni insonparvarlashtirishda beqiyos imkoniyatlarga ega. Maktab adabiyotini o‘qitishdagi eng asosiy pedagogik tadbir badiiy asar tahlilidir. Badiiy asarni qabul qiladigan, undan ta’sirlanadigan, tahlil qila oladigan o‘quvchini tarbiyalagan muallimgina bosh pedagogik maqsadiga erishgan hisoblanadi. Xususan, maktabda mumtoz adabiyotni o‘rganish va o‘rgatish o‘ziga yarasha alohida metodik tayyorlik va nazariy ba’zani talab qiladi. Ishimizning o‘rganish obyekti bo‘lgan “Sab’ai sayyor” dostoni ana shunday mumtoz durdonalardan biridir. Asarni o‘qitishda, eng avvalo, o‘qituvchida yuksak badiiy tafakkur va yuqorida ta’kidlaganimiz, nazariy bilimlar lozimdir. Dostonni avvalo, bir necha pozitsiyadan turib ilmiy asoslash va so‘ngra uni turli metod va texnologiyalar orqali dars mashg‘ulotiga tatbiq qilish maqsadga muvofiqdir. Buni quyidagi bosqichlar bilan izohlashimiz mumkin:

- Dostondagi obrazlar tadriji (Bahrom – Varaxran obrazi bilan qiyoslanishi va tadrjiy rivojlanishda har ikkalasi bir qahramon sifatida olinadi);
- Dostondagi “sehrli raqamlar” bilan bog‘liq motivlar (yetti qasr, etti hafta kuni, etti xil rang, etti iqlim, etti hikoya);
- Dostondagi ranglar takomili (qoradan boshlanib oqqacha);
- Dostondagi hikoyalar miqiyosi (7-sinf adabiyot darsligida “Mehr va Suhayl”);
- Dostondagi ism ma’nolari (Mehr – quyosh, Jobir – jabr qiluvchi shu kabilar).

“Sab’ai sayyor” dostoni maktab darsliklarida faqat 7-sinf adabiyot darsligida berilgan bo‘lib, 3 soat dars ajratilgan. Yuqori sinflarda bu doston berilmagan. O‘qituvchi darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham mavzular qatoriga qo‘shsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz yuqorida keltirib o‘tgan boshqichlarga yana bir bosqichni qo‘shishimiz mumkin, bu dostonni tasavvufiy me’yorlar asosida, tassavvuf orqali tahlil qilishdir. Ammo 7-sinf o‘quvchisi bu bilimlar uchun tayyor

emasligini hisobga olib, bu bosqichni yuqori sinflarda darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘tish maqsadga muvofiq. Chunki dasturda o‘rganish ko‘zda tutilgan adabiy materiallarni shunchaki o‘qib ketaverish bilan adabiyot o‘qitish yuzaga kelmaydi. Hayot tajribasi juda kam, badiiy didi yetarli shakllanmagan o‘quvchilar badiiy asarni mutlaqo teskari tushinishlari mumkin. Shu bois asar tahliliga katta e’tibor zarur. Busiz bolalarda ezgu ma’naviy sifatlar turg‘un qaror topmaydi. Badiiy tahlil badiiy asardagi tuyg‘u, hissiyot va fikrni o‘quvchi sezimlari va ongiga ko‘chirish demakdir[55]. Badiiy tahlilda, albatta, 3 bosqich bo‘lishi zarur: 1) asar bilan tanishish; 2) asarni tahlil qilish; 3) tahlilni umumlashtirish[56]. Badiiy asarni o‘rganishning eng keng tarqalgan usuli uni timsol (obraz)lar bo‘yicha o‘rganishdir.Badiiy adabiyotdagi asosiy unsur obraz ekani bejiz emas.Adabiy asarni o‘rganishning bu metodi turli sinf o‘quvchilariga tatbiqan mos kelaverishi bilan xarakterlanadi.Ammo asarlarni qahramonlar bo‘yicha o‘rganish 6-sinfdan boshlab yaxshi samara beradi. Negaki, bu davrda o‘smirlarda ma’naviyat masalalariga qiziqish keskin ortadi. Har bir bolada o‘ziga xos axloqiy mezon shakllanadi. Ular har bir obrazning u yoki bu xarakteridagi ijtimoiy-axloqiy asosni bilishga intiladilar. Shu boisdan ham badiiy asarni obrazlar bo‘yicha o‘rganish 7–9-sinflarda katta salmoq kasb etadi. Dostondagi Bahrom, Dilorom yoki 7-sinfda berilgan “Mehr va Suhayl” qismidagi Mehr, Suhayl, Jobir, Navdar, No‘mon hattoki, diydabonlar ham asarda o‘zining muqim o‘rniga ega obrazlardir. Badiiy asar ulkan bir bino bo‘lsa har bir obraz asosiy qahramondan tortib, epizodik obrazgacha uning g‘ishtlarini tashkil etadi. Bino butun bo‘lishini xohlar ekansiz hech qaysi g‘ishtni binodan olib tashlay olmaysiz. O‘quvchilarga ularning ahamiyatini turli xil interfaol metod va o‘yinlar orqali qiyoslab tushuntirilsa, yanada asarga yaqinlashtiramiz, chunki o‘quvchi mumtoz adabiyot va o‘zining o‘rtasiga ko‘rinmas devor qo‘yib oladi. Adabiyotshunos pedagogning asosiy vazifasi ana shu devorni olib tashlashdir. Ikkinchi bosqichda, aynan har ikki tomonga badiiy tafakkur lozimdir. Chunki “yetti” raqami bilan bog‘liq xalq orasida qanchadan qancha urf-odatlarimiz va ertak-

[55] To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
[56] Богданова О. Методика преподавания литературы. – Москва: 2008.

afsonalarimiz mavjud. Masalan, dunyoning etti kunda yaralganligi, etti qavat osmon haqidagi qarashlar. Bu o‘quvchilarda manitiqiy fikrlashni va jamiyat bilan aloqadorlik tuyg‘ularini shakllantiradi.Dostondagi ranglar takomilida “Muammoli vaziyat” metodini qo‘llash juda o‘rinli.Masalan, “Nega hikoyatlar shanba kuni qora qasrdan boshlanib, juma kuni oq qasrda tugadi?” Asar bilan tanishgan o‘quvchi “Xamsa”ning bu dostoni hikoyaning ichida hikoya usulidan foydalanganligini biladi. Hikoyadagi ranglar qoradan oqqa qarab o‘zgarib boradi, ya’ni avval qora qasrdan hikoya tinglaganda Bahrom g‘am-qayg‘uga cho‘mgan holda qora rang bilan uning alamlar qorishib ramziylik kasb etdi, chunki Bahromning qalbi qop qora go‘yo quyoshini yo‘qotgandek, kunlari chiroq yoqsa-da, yorishmasdi. Ammo juma kuni so‘nggi hikoyani tinglaganida u yo‘qotgan quyoshini topadi va Bahromning ko‘ngli g‘am-anduhdan chekina boshlaydi, kunlari yorishib qora rang oqqa aylanadi. Navoiy ranglardan ramz sifatida foydalangan bo‘lib, qora rangni – yomonlik, yovuzlik, urush, xafalik, motam, cheksizlik, qorong‘ulik, qo‘rquv, o‘lim, bundan tashqari qora rang inson hayotining qiyin va og‘ir damlari, mashaqqatlari ramzi deb ifodalagan bo‘lsa, oq rang – erkinlik, ozodlik, quvonch, yorug‘lik sevinch ma’nosini beradi, - deya o‘quvchi fikriga o‘qituvchi qo‘shimcha izoh berib o‘tsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yoki “Nega Mehr nilufarlar orasida moviy qasrda tutqun qilindi?” Bu savolning javobini o‘quvchilar tabiat, sevgi-muhabbat, ilohiyot bilan bog‘lab javob beradilar. Mehrning ko‘k libosi uning nilufarlar orasida bo‘lishi o‘z motamini bildirish uchun edi. Bu holat Bahrom hikoyasi bilan bog‘lanadi.

Nilufargun libos birla sanam,
Tutubon yor hajrida motam.

Hikoya ichidagi kichik hikoya bilan bog‘laganda esa Jobir Mehrning sevgisiga erishish uchun u sevgan moviy rang nilufarlar orasida tutqin qildi. Dostondagi barcha ranglar har bir hikoyatda tabiat, muhit hamda personajlar tasviri uchun asos qilib olingan rang bilan hamohangdir. Moviy rang ilohiy ranglardan bir hisoblanib, musaffo osmonning, tinchlikning ramzidir. Bundan tashqari, u samoviy jismlarni

anglatuvchi va yomon koʻzdan asrashni bildiruvchi ramziy maʼnolarga ega boʻlgan rang ham hisoblanadi.

Boʻyla bunyod etib duo roviy,
Dedi: "Bu etti pardai moviy"... (Osmonning yetti moviy qavati) yoki
Mehr kim gulruhi samoviydur,
Nilufarvash libosi moviydir.

Oʻqituvchi epik turdagi asarlar oʻrganilayotganda, matnni tahlillash uchun savollar tuzib olishi shart. Koʻpincha adabiyot oʻqituvchilari avvaldan savol tuzib olishmaydi. Oʻquvchilarga beriladigan savollarni tayyorlab olishga jiddiy ahamiyat qilishmaydi, oqibatda, oʻquvchilar oldiga umumiy, taxminiy savollar qoʻyiladi. Badiiy asar bilan yaqindan tanishgan oʻquvchi, albatta, unga nisbatan oʻz tanqidiy va tahliliy fikrlariga ega boʻladi. Oʻqituvchining vazifasi esa ana shu fikrlarni umumlashtirishdir. Nazariy maʼlumotlarni oʻrganishda xususiy faktlardan umumiy hodisani oʻzlashtirishga yoki umumiydan xususiy jihatlar haqida maʼlumotlarni oʻrganishga qarab ish koʻrishning prinsipial ahamiyati bor. Badiiy adabiyot yaxlit estetik hodisa boʻlganligi uchun ham uning nazariy jihatlari yaxlit holda oʻrganilishi maqsadga muvofiq boʻladi[57].

Yuqori sinf oʻquvchilariga esa bu dostonni adabiyot darslari toʻgaraklariga yoki darsdan tashqari mashgʻulotlarda oʻtish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, bu mavzu yuqori sinf darsliklarida berilmagan. Bu sinflarda koʻproq murakkab nazariy masalalar, tushunchalar xususida bahs yuritish mumkin. Oʻsmir yoshidagi oʻquvchilarning psixologik xususiyatlari oʻziga xos boʻladi. Ularda inson shaxsining jamiyat tomonidan shakllanishi, bir jamiyatda turib, yashab turib, undan tashqarida turishning imkonsizligi haqida muayyan qarashlari mavjud.

Oʻquvchi uchun mustaqil oʻrganishga berilgan badiiy asarni "Taqriz" yozish orqali tahlil qilib berish usuli ham ancha samarali natija beradi. Taqriz yozish jarayonida oʻquvchilarda badiiy asar tiliga eʼtibor kuchayadi, ularni badiiy ijodga oʻrgatish imkonlari tugʻiladi. Chunki taqriz yozish jarayonida oʻquvchi har bir

[57] Yoʻldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – T.: Universitet, 1994.

so‘zning ma’nosi, salmog‘i va ta’sir kuchini to‘liq anglab etishga harakat qiladi[58]. Taqrizni o‘quvchilar asar misolida yoki asardan olingan parcha asosida yozishadi.

Alisher Navoiyning “Saba’i sayyor” dostoniga

TAQRIZ

Yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu asosida bir qancha loyihalar tashkil etildi. Respublika miqiyosida “Yosh kitobxon oila” loyihasi, maktab va tuman kutubxonalrida tashkil etilgan bir qancha loyihalar ham fikrimiz isbotidir. Badiiy asarni o‘qish orqali o‘quvchilar savodxonligini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, lug‘at boyligini o‘stirish hamda yozma savodxonligini, fikrlash doirasini kengaytirish mumkin. Biz yoshlarga qaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda kitobxonlikni rivojlantirishim, kitobxonlik kechalari tashkil etishimiz kerak.

Alisher Navoiyning “Sabai sayyor” dostoni “Xamsa” tarkibidagi to‘rtinchi doston bo‘lib o‘quvchiga ma’naviy ozuqa beradi. Asar “Xamsa” tarkibidagi dostonlar orasida qahramonlarga boyligi, voqealarning rangba-rangligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, hikoya ichida hikoyaning kelishi o‘quvchi diqqatini tortib qiziqtira oladi. Har bir hikoyada inson xos bo‘lgan tuyg‘ular ochib beriladi. Misol uchun birinchi hikoyada do‘stlik tuyg‘usi madh etilgan. Har bir o‘quvchi o‘zini do‘stligini taqqoslashi mumkin.

Asradagi berilgan parchada Jobir yovuz qaroqchi obrazida, Suhayl esa mard, jasur, oriyatli obraz sifatida tavsiflanadi. Hikoyada ilm-u hunar, g‘urur tuyg‘ularini yuksak darajaga ko‘taradi, ezgulik, go‘zallikni aks ettiradi. Suhayl tavsifi har bir yigitning idealidagi obraz bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Asarni to‘liq o‘qib chiqish tavsiya etiladi.

Adabiyot darslarida ushbu dostonni o‘qitishning dolzarbligi shundan iboratki, o‘qituvchi odatiy mavzularda qo‘llaydigan metod va usullarini mumtoz adabiyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri tatbiq eta olmaydi. Bu jarayon o‘qituvchidan darsni to‘g‘ri tashkil qilishi uchun puxta tayyorgarlik va fundamental nazariy bilimlarni talab qiladi.

[58] Suyunov H. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Navoiy: 2008.

O‘quvchidan esa albatta, badiiy matn bilan tanishish talab etiladi. Aynan mana shu ikkala malaka uyg‘un bo‘lgan dars samarali natija beradi. Dostondagi mehr va muhabbat, oshiqlik va shohlik, yolg‘onchilik va haqiqatgo‘ylik, zulm va ezgulik, saxiylik va baxillik kabi bir-biriga zid tushunchalar har bir hikoyat mazmunidan anglashiladi. Bu abadiy mavzular har doim adabiyotdagi asosiy syujet chiziqlarini yaratish uchun xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богданова О. Методика преподавания литературы. – Москва: 2008. 346 с.
2. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: Yangi asr avlodi, 2007. 152 б.
3. Suyunov H. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – Navoiy: 2008. 160 в.
4. Yo‘ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Universitet, 1994.

ADABIYOT DARSLARIDA BADIIY TAHLILGA OID MULOHAZALAR

Ismoilova Nazokat
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tili va adabiyoti darslarida o‘quvchilarga badiiy asarlarni o‘qitish va tahlil qilish haqida fikr-mulohazalar bildirildi. Ba’zi metodik tavsiyalar bayon qilindi.

Kalit so‘lar: adabiyot, badiiy tahlil,"Shum bola" asari tahlili, metodik tavsiyalar

Annotation

This article provides feedback on teaching and analyzing works of art to students in Uzbek language and literature classes. Here are some suggestions on how to look or get an appointment for hair extensions.

Keywords: literature, artistic analysis, analysis of the work "Shum bola", methodical recommendations.

Badiiy asarning didaktik tahlili – o‘quvchining badiiy madaniyatini yuksaltiradi, estetik hodisalarni korish, undan mantiqiy-hissiy ta’sirlanish, ularning ta’sirida esa umumlashma xulosalarga kelish qobiliyatini shakllantiradi, o‘quvchilarni kreativ fikrlashga undaydi. Chunki badiiy asar tahlili qilinayotganda, o‘quvchining tafakkuri va hissiyoti faol ishlashga majbur bo‘ladi.Badiiy asarlarning didaktik tahlilida yangi g‘oyalar tugilishi, masalaga mantiqiy yondashib, muammoni hal etishga o‘rganishi; qiyosiy tahlil konikmasi, axborot bilan ishlash madaniyati,

mustaqil izlanuvchanlik, erkin muloqot, matematik savodxonlik kabi komponenetlarning shakllanishi barcha fanlarga moslashuvchanlikni ham ta’minlaydi. “Asl badiiy asar odamning ruhiyati, tabiati va ma’naviyatida ma’lum yangilanish, evrilish sodir qiladi”, - deydi Qozoqboy Yo‘ldosh .[1. Q. Yo‘ldosh, 17-bet]. O‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirishda asarlarni tahlil etish hal qiluvchi o‘rin tutar ekan, adabiyot darslarida hamkorlik ta’lim texnologiya va uslublaridan o‘rinli foydalanish zarurati tug‘iladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning ijodiy jamoa bo‘lib ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida samarali natija ko‘rsata oladigan hamkorlik ta’lim texnologiyalari vositasida jamoada kreativlikni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik tahlil namunalaridan keltiramiz:

6-sinf adabiyot darsligida G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidan parcha berilgan.[2.Adabiyot, 6-sinf, 1-qism, 15-34-betlar]. Asar qahramonlari xatti-harakatini belgilovchi va asar g‘oyasini ochuvchi parchalarni qiyosiy tahlil qilamiz. Bunda ijobiy va salbiy tomonlari, afzalliklari va nuqsonlarini ta’riflashga yo‘naltirilgan “Yelpig‘ich” texnologiyasidan foydalanib, o‘quvchilarga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini ixcham bayon etish, uni himoya qilishga imkoniyat yaratamiz hamda uning tasavvurini va dunyoqarashini belgilaymiz.

“Yelpig‘ich” texnologiyasi muammoli mavzularni o‘rganishga, mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot berilishiga qaratilgan. Ayni paytda, ularning har bir alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interfaol texnologiya tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek himoya qilishga imkon yaratadi.

“Yelpig‘ich” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida:

- boshida – o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida – uning asoslarini chuqur anglab etish;

- yakunlash bosqichida - olingan bilimlarni tartibga solishda qo‘llaniladi.

Texnologiyada uchraydigan asosiy tushunchalar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslashda ustunlik; imtiyoz.

Fazilat- ijobiy sifat.

Nuqson- nomukammalllik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik

E’tiboringizni darslikda berilgan asardan parcha - mikromatnga qaratsak:

“...Bu qishloqda Sariboy bo‘lis degan katta er egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga epchil qo‘lli xizmatkor doim zarur bo‘lib turar ekan. Ayniqsa, hozir olmalar pishgan vaqti bo‘lgani uchun menga o‘xshash oshtomog‘iga yuradigan arzonqo‘l kishilarni eshigidan quvlamas ekan. Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qushxonada yotishga qaror berdim. Uzumchi menga yo‘lboshlovchi bo‘lib ko‘rsatib qo‘ydi. Boyning qari-qartang aralash yigirma choq xizmatkorlari kechki juvari go‘ja ustida edilar.

- Assalomu alaykum, deb kirib bordim. Juda mehribonlik bilan o‘z o‘rtalariga qabul qildilar. Arz-dodimni ularga aytdim. Ulardan bitta keksarog‘i:

- Asil umring Sariboyda bekorga o‘tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo‘lganingda yaxshi bo‘lar edi. Ha, mayli, sal o‘zingni tutib olguningcha o‘n-o‘n besh kun ishlab tur. Keyin yo‘lingni topib olarsan...- degan dudmal maslahat berdi. Bitta bo‘sh sopol tovoqqa bir cho‘mich go‘ja quyib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim.

ASPEKT	AFZALLIK	FAZILAT	NUQSON	XULOSA
Qishloq, Sariboy bo‘lisning bog‘i, ishchilar-ning norozi kayfiyati va hk	Bu yerga ga kelishning afzalligi ming tanoblab olmazori bo‘lgani uchun doimiy ishchi kuchi kerak va hk.	Boy arzonqo‘l ishchilarni eshigidan quvlamaydi. O‘zini tutib olguncha ko‘chada qolmaydi. Bolalarini yaxshi ko‘radi va hk	Xasis, mehnatga yarasha haq bermaydi. Suhbatdoshini eshitmaydi. Ocharchilik muhitidan foydalanadi. O‘zini go‘yo himmati kishidek tutadi va hk	Boyning ming tanoblab olmazori bo‘lgani uchun unga doimiy ish kuchi kerak. Yana qanday ishchi kuchi: faqat oshtomog‘iga yuradigan, arzonqo‘l ishchilarni oladi. Ayni pishiqchilik mavsumida ishchilar haqini ololmasdan qiynalishadi. Ko‘rinib turibdiki, boshqa payti ahvol undan ham qiyin.

“Kelishuv va ziddiyat” rolli-ishchan o‘yini texnologiyasining maqsadi o‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash hamda murosaga kelish mahoratini shakllantirish va bolalar huquqlari muammolari bilan bog‘iq tushunchalarini aniqlash**.**

Quyida 8-sinf adabiyot darsligida(2019) berilgan Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidagi “Qochoq” mavzusidagi parcha mazmuni didaktik tahlil qilish misolida mashg‘ulotning o‘tkazilish tartibi bilan tanishamiz***:***

O‘quvchilarga birin-ketin tasdiqlovchi fikr yozilgan tarqatma materiallar ko‘rsatiladi. Ularga berilgan fikrlarni qabul qilish yoki qilmaslik taklif qilinadi. Qabul qilgan o‘quvchilar bir tomondan, qilmaganlar ikkinchi tomondan joy egallab, ikki guruhga ajraladi. Guruhlarning vazifasi – o‘z guruhlariga boshqa guruh a’zolaridan ko‘proq kishini jalb qilish, ya’ni ularni o‘z fikrlarini o‘zgartirishiga olib kelishdan iborat. Har bir tasdiqlangan fikr ustida besh daqiqa ishlanadi.

Tarqatma materiallardagi fikrlar:

- Tursunboy hayotidagi ziddiyatlarga qarshi kurashida yakkalik qildi;

- Tursunboyning “qochoq” bo‘lishiga ota-onasi ham sababchi;

- Jannat xola farzandi uchun muammoga duch kelsa ham chidaydi. Chunki u - ONA!

- “Bir bolaga etti mahalla - ota-ona”. Tursunboyni Azizbek singari qahramon bo‘lishi uchun mahalla-ko‘y ham ta’sirini o‘tkazsa bo‘lardi va hakozo. [3. Adabiyot, 8-sinf, 72-92-betlar]

Ushbu fikrlarni tasdiqlagan jamoa fikrini dalilar bilan isbotlashga harakat qiladi va ta’sir o‘tkazish natijasida qarshi guruhdan o‘zlariga a’zo yig‘adi.

Didaktik tahlilning sifatli amalga oshishida “Munosabat” texnologiyasining afzalliklarini 10-sinf adabiyot darsligida berilgan “Tunyuquq bitiktoshi” mavzusi misolida ko‘ramiz:

Muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal qilish sabablari	Sizning xulosangiz
Turkiylarning o‘z erkini qo‘ldan boy berib qo‘yishi oqibatida turk xoqonligining tanazzulga uchrashi	Turk xalqi boshboshdoqlikka, o‘zbo‘larchilikka, beparvolikka yo‘l qo‘yadi. Xoni bilan birga bo‘lmaydi	1.Mustamlaka azobi, o‘zga xalq tahqirlari xalqni biiktiradi. 2. Daxlsizlik uchun tinimsiz kurash olib boradi. 3. Xalqni donolik bilan boshqarish 4. “Tomog‘ini to‘q” qilish	Xalqning xotirjam yashashi uchun nafaqat sarkarda, dono maslahatchi, vatanparvar shaxs – To‘nyuquqning xoqon bilan birga ish tutishi davlatning yana oyoqqa turishida, madaniyati, ma’naviyati rivojlanishida o‘z aksini topadi. Har bir kishi o‘z taqdirini Vatan taqdiri deb bilishi lozimligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik tahlil o‘quvchilarni nafaqat ijodkorligini, tasavvur dunyosini boyitadi, balki birdamlik, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantiradi. **“**Adabiyot darslarida mustaqil fikrlashga o‘rgatish – o‘qituvchining birinchi galdagi vazifasi bo‘lmog‘i zarur”-deydi Q.Husanboyeva. [4.Q.Husanboyeva,34-bet].

Hamkorlik ta’lim texnologiya va uslublarining ahamiyati ham shundaki, badiiy asar tahlili orqali jamoalar fikri to‘liq o‘rganiladi, har bir a’zoning dunyoqarashi muhim hisoblanadi. Fikrini erkin isbotlashga, dalil keltirishga harakat qiladi. Fikrlar solishtiriladi. Mantiqqa tayanadi. Tasavvur dunyosi kengayadi. Ikkilanishdan voz kechadi. Qat’iylik bilan o‘z g‘oyasini himoya qiladi. Noodatiy fikrlar tizimi umumlashtiriladi. Yangi g‘oyalar o‘rganiladi. Zero, inson tafakkuri qanchalik mustaqil bo‘lsa, u shunchalik tashabbuskor bo‘ladi. Uning fikrlashi qancha erkin bo‘lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.

2.Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – T.: Ma’naviyat, 2005. – 352 б.

3.Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov. ADABIYOT. Ikkinchi qism. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. *Qayta ishlangan uchinchi nashri.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.- 192 б.

4.Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 368 б.

MILLIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH TAJRIBASIDAN

Donoxon Usmonova
Xalqaro "Smart school" maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi renessans" g'oyasining ta'limga tatbiqida milliy urf-odatlarimizning o'rni xususida so'z yuritiladi va ta'lim va tarbiya jarayonida amaliy mashg'ulot tashkil etish bo'yicha ayrim mulohazalar keltirib o'tiladi. Umumta'lim maktablardagi darslarda "Navro'z sayli" asosida xalq qo'shiqlarining mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Navro'z, xalq qo'shiqlari, mashg'ulot, "Aqliy hujum", metodik takliflar

Annotation

The article discusses the role of our national traditions in the implementation of the ideas of "New Uzbekistan" and the "Third Renaissance" in education and provides some feedback on the organization of practical training in the process of education and upbringing. wishes. The content of folk songs on the basis of "Navruz holiday" is revealed in secondary school classes.

Key words: Navruz, folk songs, lessons, "Brainstorming", methodical recommendations.

Navro'z – Sharq xalqlari tomonidan ming yillar davomida asrab-avaylanib kelinayotgan azaliy-abadiy bayram hisoblanadi. Asrlar mobaynida turli xalqlarda Navro'z bayramini o'tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga, diniy e'tiqodiga moslashib borgan. Hatto mamlakatimizning turli viloyatlarida ham Navro'z bayrami bilan bog'liq rang-barang an'ana va urf-odatlar shakllangan. Shu bilan birga tilimiz va adabiyotimizda ham Navro'zga aloqador birliklar, adabiy asarlar talaygina. "Millat o'z milliy qadriyatlarini chuqur anglagandagina milliy ruhiy o'zligini saqlab qola oladi"-degan edi I. Karimov. [1. I. Karimov. 44-bet]

Xalq qo'shiqlari –millatning o'zligini, dard-u shodligini, tuyg'ularini, o'y-xayollarini ochib beruvchi asosiy omil. Shuning uchun umumta'lim maktablaridagi adabiyot darslari xalq qo'shiqlarini tadqiq qilish, o'rganish va ijro etishga eng qulay vaqt hisoblanadi. Adabiyot to'garaklarida, ayniqsa, bu mavzu dolzarb yo'nalish hisoblanadi. O'quvchilar bunda mavzuni tadqiq qilishadi, tahlil qilishadi va tavsiyalar ishlab chiqishadi.

Adabiy laboratoriya sharoitida "milliy qadriyatlar- Navro'zdan boshlanar" mashg'ulotini tashkil etishda quyidagi amaliy maqsadlar ko'zda tutilgan:

- Xalq qo'shiqlari, ularning turlari, yaratish tarixi, inson ruhiyatiga ta'siri haqida ma'lumot berish.

- qo‘shiqlar matni, ma’no mohiyati, so‘zlarini tahlil qilib, tushuntirishga o‘rgatish;

- qo‘shiq mazmunini anglash, ohangini his qilish, xalq dardi, o‘tmishi, hayot tarzi, tafakkuri, ruhiyatidagi tuyg‘ularni ilg‘ash, ma’naviy merosimiz ildizlarini bilish va qadrlashga o‘rgatish;

- o‘quvchilarga xalqimizning boy ma’naviy merosini tadqiq qilish, o‘zligimizni anglashga, milliy qadriyatlarimizdan faxr tuyg‘usini, millatparvarlik qirralarini o‘stirish, ijodiy fikrlashga yo‘llash, tahlil, izlanuvchanlik malakalarini o‘stirish.

Mashg‘ulot uslublari:

“Muammoli ta’lim”, BBB, “Aqliy hujum”, “Aniqlash” uslubi, “Klaster”, “Tadqiqot”.

MASHG‘ULOTNING BORISHI

Kirish suhbati.

- Bugungi kunda milliy o‘zligimizni anglash vositasi bo‘lgan ma’naviy merosimizga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zero har bir millat o‘z qadriyatlarini, an’analarini, milliy urf-odatlari, marosimlarini bilmas ekan, o‘zligini anglay olmaydi. Xalq qo‘shiqlari esa tarbiyamizdagi, ruhiyatimizdagi ana shu bo‘shliqni to‘ldiruvchi omildir. Demak, bugungi mavzuyimiz milliy o‘zligimizni anglatuvchi vosita- xalq qo‘shiqlaridir.

Mumtoz qo‘shiq tinglanadi (3 daqiqa)

- Mana, qo‘shiq tingladingiz, ayting-chi qo‘shiq sizga qanday ta’sir etdi? Ruhiyatingizda qanday hislar uyg‘ondi?

O‘quvchilarning javobi:

1.Mumtoz qo‘shiq deyarli tanglamas edim.Jonli ijro bo‘lganidanmi qalbimda qandaydir hislar paydo bo‘ldi;

2.Uzoq xayollarga cho‘mdim,o‘tmish xotiralar yodimga tushdi;

3.Qo‘shiqni maroq bilan tingladim, ammo so‘zlarini unchalik to‘liq anglamadim.

Qo‘shiqning o‘ziga xos xususiyatlari - uning inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni hissiy ta’sirchanlikka egaligidir.

Qo‘shiqning asosiy maqsadi tinglovchiga ma’lum ichki dardni-hissiy ma’lumotni yetkazish, uni mana shu ta’sirchanlik holatiga kirita olishdan iboratdir. Qo‘shiqning turlari, ijro usullari haqida qanday ma’lumotga egasiz?

O‘quvchilar qo‘shiqlar haqida bilganlarini BBB usulining 1-bosqichi bo‘yicha javob berishadi:

BILAMAN:

Qo‘shiqlarning lirik, mumtoz, zamonaviy kabi turlari mavjudligi, Estrada va Rep yo‘nalishdagi qo‘shiqlarni bilamiz. Xalq qo‘shiqlarining turlari, lirik, mehnat, mavsum va marosim qo‘shiqlari haqida ma’lumotga egamiz.

“Aqliy hujum”. ***Savol: Siz bugungi kunda qanday qo‘shiqlarni sevib tinglaysiz va nima sababdan?*** **O‘quvchi:**

1. Zamonaviy estrada yo‘nalishidagi qo‘shiqlarni yaxshi ko‘raman. Chunki ular sho‘x.

2. Jahon estradasini tinglayman. Chunki ularda qandaydir kuch bor.

Savol: Xalq qo‘shiqlari bilan zamonaviy qo‘shiqlarning farqi nimada, bugungi kunda yoshlar orasida xalq qo‘shiqlariga qiziqish e’tibor qanday?

O‘quvchilar:

(Zamonaviy estrada va rep yo‘nalishidagi qo‘shiqlarni tinglashi, xalq qo‘shiqlarining mazmuniga tushunmasligini, sho‘x emasligi va zerikarli ekanligi bilan izohlaydlari.)

Savol: Xalq qo‘shiqlarini o‘rganishimizdan maqsad nima?

- Xalq qo‘shiqlarining mazmun mohiyatida muayyan xalqning madaniyati, kelib chiqishi, orzu intilishlari, quvonch va armoni o‘z ifodasini topadi. Xalqning uzoq tarixini bilishimiz, o‘zligimizni anglashimiz, boy ma’naviy merosimizni, xalqimizning yashash tarzini, an’analar va urf-odatlarini o‘rganishimizga asos

bo‘ladi. Zero, kimki o‘z ildizilarini bilmas ekan, kelajakka dadil qadam qo‘ya olmaydi.

Anglash

O‘quvchilar xalq qo‘shiqlari haqida bilimlaridagi bo‘shliqni anglash orqali B-usulining 2-bosqichini bajaradilar.


BILMOQCHIMAN:

1. Xalq qo‘shiqlarining ma’no mohiyatini.
2. Qo‘shiq matnidagi so‘zlar anglatgan tushunchalarni.
3. Xalq qo‘shiqlari nimalar ta’sirida yaratilganligini.
4. Marosimlar qanday o‘tkazilgan va unda qanday qo‘shiqlar tinglangan.
5. Nima sababdan xalq dardini qo‘shiq orqali yetkazgan.
6. Xalq qo‘shiqlarini o‘rganishimizning nima ahamiyati bor.

Savollar, fikrlar asosida o‘qituvchi xulosaviy javob beradi.

Xalq qo‘shiqlari olis tarixiy hayot va boy tafakkur mahsulidir, shu jihati bilan mumtoz yoki zamonaviy qo‘shiqdan farq qiladi.

- Xo‘sh, qo‘shiq - olis tarixiy hayot va boy tafakkur mahsuli, deganda nimani anglash mumkin? (Bu savolga quyidagi jadval yordamida yondashiladi)



O‘quvchilar o‘z fikrlarini umumlashtiradilar

Xalq qo‘shiqlarini tushunishning yana bir yo‘li qo‘shiq matnidagi so‘zlar tashigan ma’nolarni bilish, anglatgan tushunchalarni tahlil qila olish. Tinglovchi qo‘shiq matnini tushunsagina estetik zavq olishi mumkin, ushbu muammolarni hal qilish uchun salohiyatli o‘quvchilarni ma’lum mavzular asosida tadqiqotga yo‘llash mumkin (mavzular oldindan tavsiya qilinadi.

Tadqiqot mavzusi: Xalq qo‘shiqlarining yaratilishida e’tiqod va an’analar ildizlari.

1. Bir qo‘shiq tarixi “Sumbula”
2. “Tanovar” izidan…
3. Do‘ppning kelib chiqishi.
4. O‘zbek allalarining milliy xususiyati.
5. Xalq qo‘shiqlarining birlashtiruvchi kuchi.


- Xo‘sh, xalq qo‘shiqlari milliy tarbiyamizda alohida o‘rin tutar ekan hozirda davlatimiz tomonidan xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan e’tibor qanday?

- 2002-2003-yillarda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida “Yunesko” tomonidan “Boysun bahori” ochiq folklor festivali va uning doirasidagi xalq madaniyatini asrash muammolari bo‘yicha xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi. Konferensiya natijasida 40 dan ortiq qishloqlardan o‘lka tarixi, urf-odatlari, diniy qarashlari, xalq tomoshalari va o‘yinlari, xalq og‘zaki ijodi va ijrochilari haqida ko‘pgina qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lishdi.[2. “Boysun bahori”-Yunesko qarori]

Xalq qo‘shiqlarining qudrati nimada?

- Bunda Respublikamizda dunyo miqiyosida bo‘layotgan qo‘shiq bayramlari, tanlovlar, xususan Samarqandda o‘tkazilgan “Sharq taronalari” festevali va dunyo xalqlarining mumtoz hamda xalq qo‘shiqlariga e’tibori,qiziqishi haqida gapiriladi.Bunda shu festevallardan video lavhalar ko‘rsatiladi. Demak, qo‘shiq makon tanlamaydi, millat tanlamaydi. U xalqlarni birlashtiruvchi qudratli kuchga aylanadi. **Xulosa:** Taniqli folklorshunos olim T.Mirzayev: **“Xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos va asosiy vazifalaridan biri- komil insonni tarbiyalashdir”, -** degan

edi.[3. T. Mirzayev.] Darhaqiqat, qo‘shiq ko‘ngillardan ko‘ngillarga ezgulik, go‘zallik mehr-oqibat, muhabbat kabi tuyg‘ularni singdiruvchi vositadir. U barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omilidir. Xalq qo‘shiqlarining muhim tarbiya qirralari quyidagi klaster orqali izohlanadi.



Mashg‘ulotning oxirgi qismida o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan erkin laboratoriya sharoitidagi badiiy kompozitsiya namoyish etiladi…

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar dars jarayonlarida ham, darsdan tashqari vaqtlarda ham badihago‘ylikka, noyob ijodiy fikrlar ixtiro qilishga ma’lum darjada tayyor turishadi, shuning uchun ularning bu qobiliyatlaridan ham darda, ham to‘garak mashg‘ulotlarida unumli foydalanish pedagogic faoliyatimizning ajralmas qilsmi bo‘lib qolmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir/I. Karimov. – T.: “O‘zbekiston”.- 2015. – 302 b.
2. https://uzsmart.uz/kitoblar/files/Badiiy%20Kitoblar/Oxunjon%20Safarov%20_%5Buzsmart.uz%5D.pdf
3. Мирзаев Т., Халқ бахшиларининг эпик репертуари, Т., 1979.- 220 б.

ZAMONAVIY TA’LIMDA NAVOIYNI TUSHUNISH MUAMMOSI

Saidova Kamola
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk alloma Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda maktab ta’limida duch kelinadigan ayrim muammolar va ularning yechimlari haqida so‘z boradi. Navoiyning ijodini maktab o‘quvchisiga tushuntirishda o‘quvchi imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish usullari tavsiya qilingan.

Kalit so‘zlar. Badiiy tahlil, o‘zgani his qilish, tabdil, didaktik asar, estetik did, syujet chiziqlari, Navoiy tili, lug‘at, tasavvuf adabiyoti

Annotatsion

This article discusses some of the problems encountered in school education and their solutions in the study of the works of the great scholar Alisher Navoi. In explaining Navoi's work to the school student, teaching methods have been suggested that take into account the student's abilities.

Key words: Artistic analysis, perception, transformation, didactic work, aesthetic taste, plot lines, Navoi language, dictionary, mystical literature

Alisher Navoiy o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti va o‘zbek adabiy tili ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan ulkan ijodkordir. Buyuk allomaning ijodi va faoliyati markazida turgan, ularga tayanch nuqta bo‘lgan haqiqiy, komil inson, uning baxti, burchi masalasi, keng ma’nodagi insonparvarlik g‘oyasi bizga bugungi kunda Navoiyni o‘qib tushunish qanchalik zaruriy hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.10.2020 yildagi PQ-4865-sonli qarori asosida “Navoiy va yoshlar” maxsus dasturini ishlab chiqilishi, umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Navoiy vorislari” g‘azalxonlik tanlovi, Prezident ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilari o‘rtasida “Navoiyni anglash” mavzusida insholar tanlovini o‘tkazilishi, beshta muhim tashabbus doirasida yosh dasturchilarni keng jalb etgan holda Alisher Navoiy asarlarining mobil ilovalarini yaratish va ularni yoshlar o‘rtasida ommalashtirishining ko‘zda tutilishi Navoiyni o‘rganish masalasi adabiyot ta’limining asosiy bo‘g‘inlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. [1].

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli dunyoda ko‘zi kichik ekranga bog‘lanib qolgan o‘quvchilarda ezgulik, bag‘rikenglik, to‘g‘rilik kabi tuyg‘ularni shakllantirish uchun adabiyot o‘qitishga har qachongidan ko‘ra ko‘proq muhtojmiz.

Adabiyot oʻqitishning maqsadi badiiy asarlar yordamida sogʻlom e'tiqodli, mustaqil fikrli, oʻtkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, oʻzga insonning tuygʻularini anglaydigan, oʻz xatti-harakatlariga xolis baho bera oladigan shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat. Berilgan asarni badiiy tahlil qilish orqali oʻquvchida ma'naviy failatlarni shakllantirish mumkin. Badiiy tahlil badiiy asardagi tuygʻu, hissiyot va fikrni oʻquvchi sezimlari va ongiga koʻchirish demakdir· [2. B. Toʻxliyev, 34-bet]. Demakki, oʻquvchiga asar qahramonini tushunish, his qilish orqali oʻzga inson tuygʻularini anglab etishni oʻrgatilishi darkor.

Navoiy asarlarida asl fazilatlar: ezgulik, bagʻrikenglik, donishmandlik namunalari koʻrsatilganki, mazkur fazilatlar shaxs ma'naviy dunyosini shakllanishida salmoqli oʻrin egallaydi. Mumtoz asarlar oʻquvchida badiiy estetik didni shakllantiradi, oʻtmishni tushunish oʻtmishdoshlari xatolarini takrorlashdan saqlaydi. Mumtoz hikoyalardan olingan axloqiy saboqlar oʻquvchilarda hayot qiyinchiliklariga duch kelganda qanday yoʻl tutish kerakligi malakasini shakllantiradi. Amaldagi 11-sinf adabiyot darsligida "Saddi Iskandariy" dostonidan" Iskandarning Arastudan: "Kishi tabiati yigitlikda nechun mehnatdan nafratlanadi va qarilikda miyada aql kamayadi?"-deb soʻragani. "Hakimning qarilik donoligi bilan juvonbaxt shohga yoʻl koʻrsatgani" nomli A. Hayitmetov tabdili asosida parcha keltirilgan. [3. 11-sinf adabiyot, 147-bet]. Ushbu parchada Arastu hakim tilidan insonning yoshlikda qanday xatolarga yoʻl qoʻyishi mumkinligi va bu xatolar qanday oqibatlarga olib kelishini mantiqli mulohazalar bilan isbotlab berilgan. Ushbu matnni oʻqib oʻquvchida "yoshlikda oʻyin-kulgiga berilib, zararli odatlarga ruju qoʻysa, keksayganda tanasidan quvvat ketib, aql xiralashib, shakl oʻzgarib xunuk boʻlib qolishi mumkin ekan",- degan fikr paydo boʻladi.

Maktab darsliklarida kiritilgan mumtoz adabiyot namunalarining aksariyati didaktik pand –nasihat yoʻnalishida yozilgan. Bola psixologiyasidan kelib chiqadigan boʻlsak, nasihatomuz fikrlar har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Shu boisdan ham maktab oʻquvchisi mazkur adabiyot parchalarini oʻqib tushunib,

zavqlanib bilyaptimi? Yoki mumtoz adabiyotning yorqin namunasi boʻlgan Navoiy asarlarining mazmun mohiyatini oʻquvchi tushunyaptimi?

Bugungi kunda Navoiy ijodini targʻib etish, bizningcha, ikki muvoziy yoʻnalishda olib borilsa, maqsadga muvofiq. Birinchisi, akademik yoʻnalish boʻlib, Navoiy asarlari tahlili jiddiy ilmiy asosda olib borilishi kerak. Ikkinchi yoʻnalish — yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni tarbiyalash jamiyatimiz oldiga jiddiy va ustuvor vazifa qilib qoʻyilgan. Ayni zamonda, Navoiy ijodidagi yoshlarning ma'naviy salohiyatini oʻstirishga, jamiyat taraqqiyoti va ruhoniy-axloqiy qadriyatlarimizni mustahkamlashga koʻmaklashuvchi jihatlarni sodda va tushunarli tarzda bayon etish, har bir talqinda yoshlarimiz uchun ibrat boʻladigan hayotiy haqiqatlarni tushuntirib berish dolzarb masaladir. Adabiyot oʻqitishning maqsadi badiiy asarlar yordamida axloqan barkamol, aqlan yetuk shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat. Barkamol shaxs tarbiyasi negizini tashkil qiluvchi asosiy axloqiy qarashlar mumtoz adabiyot, aynan Navoiy asarlarning muhim jihati ekanligini bilamiz. Navoiy asarlari barcha davrlarning eng buyuk ma'naviy boyligi boʻlib kelgan. Ammo mumtoz adabiyot yoki Navoiyni oʻqib tushunishga har qanday oʻquvchi ham qiziqish bildiravermaydi. Bunga asosiy sabab qilib asar tili va syujet chiziqlari eskirgani va bugungi kunga aloqasi yoʻqligini koʻrsatishadi. Holbuki, Navoiy asarlarida koʻplab umuminsoniy muammolarga toʻxtalganki, vaqt oraligʻidan qat'iy nazar mazkur qarashlar hozirgi kunning ham dolzarb masalasi hisoblanadi. Shu ma'noda hozirgi tez rivojlanayotgan dunyoda Alisher Navoiy asarlarini oʻrta ta'limda oʻqitish jarayoniga nisbatan yondashuvda oʻquvchining oʻrganish imkoniyatini hisobga olish kerak. Bugungi kunda Navoiy asarlarini oʻqitish borasida oʻrta ta'limdagi ayrim muammolarga toʻxtalsak:

1.Navoiy asarlarini, umuman, mumtoz asarlarni oʻrganish uchun oʻquvchining yetarli darajada tayyor emasligi. Navoiy asarlarini oʻrganishdan oldin oʻqituvchi oʻquvchini asarni oʻrganishga tayyorlashi lozim. Bugungi kunda Navoiyni oʻqishga tayyorgarlik koʻrish uchun koʻp imkoniyatlar mavjud. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 19.10.2020-yildagi PQ-4865-sonli qaroriga «Oʻzbekki-

no» milliy agentligiga Alisher Navoiy asarlari asosida badiiy va multiplikatsion filmlar, shoir hayoti va ijodi bilan bog‘liq yangi ma’lumotlar va manbalar asosida to‘liq metrajli badiiy-publitsistik film yaratish topshirildi. Bu o‘z navbatida Navoiy ijodining kengroq targ‘ib qilishiga, xalq orasida osonroq tushunilishiga hissa qo‘shadi. Turli multfilm, kino, o‘yin-ilovalar orqali Navoiy ijodi bilan oshno bo‘lgan o‘quvchi maktabda o‘rganilishi kerak bo‘lgan mavzuni osonroq tushunadi. Shoirning go‘zal g‘azallari qo‘shiqlar orqali ham kitobxon ong-shuuriga etib boryapti. Navoiy dostonlari mavzulari bo‘yicha multfilmlar ishlash ham jadallashib qoldi. Internetda shoirning asarlari matnini topish mumkin va hokazo. Demak, o‘qituvchi, avvalo, o‘quvchini ruhiy-hissiy tomondan Navoiyni o‘rganishga tayyorlash kerak.

2. Navoiy tili va hozirgi til o‘rtasidagi tafovut. Navoiy yashagan davr tili hozirgi kungacha besh yuz yillik yo‘lda turli evrilishlar asosida bugungi adabiy til maqomiga erishgan. Tabiiyki, bu tilni tushunish o‘quvchiga og‘irlik qiladi. Navoiy dostonlari darsliklarda bugungi kun til talablari asosida tabdil qilib berilgan. Aynan tabdil asosida berilgan hikoyalarni tahlil qilib o‘quvchi o‘qigani va atrofda, dunyoda, sodir bo‘layotgan voqea o‘rtasida aloqa o‘rnatishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi muammoli savollar, turli vaziyatlar orqali o‘quvchida mantiqiy, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishlari uchun sharoit yaratib berishi kerak. Agar o‘quvchilar olgan ma’lumotlarini o‘z hayotlari bilan bog‘liqligini ko‘ra olsalar, ularda o‘qishga qiziqish ortadi.

3. Navoiy asarlarini o‘qib tushunishga yordam beradigan maktab o‘quv lug‘atlarining mavjud emasligi. Amaldagi 11-sinf adabiyot darsligida “Saddi Iskandariy” dostoni asliyatidan berilgan parchalarni o‘qib tushunish maqsadida lug‘atlar keltirilgan. Mazkur lug‘at kichik shriftda varaqning pastki qismida berilgani uchun o‘quvchi e’tiboridan chetda qolish holatlari uchraydi. Shu boisdan ham aynan Navoiy asarlarini tushunishga yordam beradigan o‘quv lug‘atlari, kerak bo‘lsa, mazkur lug‘atlar asosida mobil ilovalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Navoiy asarlarida qo‘llanilgan sof turkiycha so‘zlar ommalashib tilning

jozibadorligiga hissa qo‘shilardi. “ Navoiyni o‘rganishdan asosiy maqsad, faqatgina so‘z boyligini oshirish emas, balki ana shu xazinani tiklash hamdir. Bir zamonlar, davr taqozosi bilan mumtoz adabiyotimizdan yiroqlashdik, alaloqibat, so‘z boyligimiz nihoyatda qashshoqlashdi. Tilimiz nazokat, latofatdan butkul uzoqlashdi. Endi yangi avlod oldida til boyligimizni tiklash vazifasi turibdi”. [4]. O‘zbek she’riyatining atoqli namoyandasi Erkin Vohidovning mazkur fikrlariga qo‘shilgan holda Navoiy asarlaridan sof turkiy so‘zlarn ilg‘ab, ommalashtirilsa, o‘quvchining so‘z boyligi oshadi. Fikrini ta’sirli va sifatli tarzda yetkazish imkoniyatlarini egallaydi.

4. Navoiyni tushunishda ta’lim jarayoni qatnashchilarida tasavvuf ta’limoti haqida ma’lumotning yetarli emasligi. Alisher Navoiy asarlarining ko‘pgina qismi tasavvufiy mazmunda ekanligini bilamiz. Tasavvufning asl mohiyatini anglamasdan turib Navoiy ijodini tushuntirib ham tushunib ham bo‘lmaydi. Navoiyning ijodini tushunish, anglash uchun fors, arab, eski o‘zbek tillarini o‘rganish bilan bir qatorda Qur’oni karim, hadis, tasavvuf ilmidan boxabar bo‘lish, undan keyin Navoiy davrini, u yashagan muhitni bilish lozim. Bugungi kunda Navoiyni imkon qadar to‘liq anglashga intilish uchun hamma sharoit yetarli. Bu imkoniyatdan foydalanishimiz kerak. Navoiy asarlardagi ramziylik, majoziylikda namoyon bo‘ladigan o‘ziga xosliklarni anglab etilmaganligi nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham Navoiyni o‘qish, anglash, ta'sirlanish va tahlil qilishda qiyinchilik tug‘dirmoqda. Demak, Navoiyni avval o‘qituvchining o‘zi “hazm” qilishi kerak. Buning uchun maktab o‘qituvchilari uchun tasaffuvga doir o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shundagina asardagi ezgu g‘oyalarni eng oliyjanob uslubda ifoda eta oladilar. Pirovardida esa, o‘quvchilar ezgu g‘oyalarni g‘ozal tafakkur qila boshlaydilar. Bu jarayon o‘quvchida o‘qishdan zavqlanish hissini beradi. Buyuk alloma Alisher Navoiy o‘z asarlaridagi ma’nolar javohirlarini borliq olamga sochilishini tokim hamma gadolar ham, boylar ham shohlar ham, qullar ham undan bahra olishlarini istagan.

Nechakim istasam naqdu javohir,
Qayon boqsam ko‘zimga ayla zohir. [4, 56-bet]

Bu ifodalarda Navoiyning insonparvarlik bilangina yashovchi olijanob qalbining hayajonli tepishi sezilib turadi. Navoiy ezgu g‘oyalari har bir o‘quvchi qalbidan joy olishini istagan o ‘qituvchi o‘quv jarayonidagi muammolarni hisobga olgan holda badiiy asarni o‘qitish metodikasini ishlab chiqishi zarur.

O‘qilishi qiyin asarlar zamonga moslab oddiy, tushunarli usullarga asoslab o‘qitilsa, adabiyotni o‘qitish zavqli va kashfiyotlarga boy bo‘ladi. Navoiy asarlari o‘quvchiga madaniyat haqida keng tushuncha beradi. Navoiy asarlarini jamiyatimizda keng miqyosda tushunilishi imon-e’tiqod kuchiga ishonadigan insonlar ko‘payishiga, bu esa jamiyatimizda insoniy muammolar kamayishiga olib keladi. Navoiy ijodini o‘rganishda ta’lim jarayonidagi mavjud muammolar hisobga olinsa, samaradorlikka erishish mumkin. Navoiy ijodiga yondashuvni o‘zgartirib o‘quvchini yaxshi navoiyshunos qila olmasligimiz mumkin, lekin yaxshi inson qilib tarbiyalasa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.10.2020 yildagi PQ-4865-sonli qarori.
2. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 152 б.
3. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta naxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik majmua. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Toshkent. - 2018. – 246 b.
4. Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. Т.: “Тафаккур” , 2016. – 224 б.

O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISHDA XORIJIY MANBALARDAN FOYDALANISH

Abduqodirova Madina
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti
Madinaabduqodirova@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot o‘qitishdagi nazariyalar, modellar, yondashuvlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Milliy va xorijiy davlat standartlari tahlil qilinadi va adabiyot darslarini xorijiy manbalar bilan o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Davlat ta’lim standartlari, adabiyot o‘qitish modellar, Madaniy model, Parafrastik yondashuv, Blum taksonamiyasi.

Annotation


This article examines theories, models, approaches and their specific features in teaching literature. National and foreign Curriculums are analyzed clearly and also the specifics of studying literature lessons with foreign sources are analyzed.

Key words: National curriculums, literature teaching models, Cultural model, Paraphrastic approach, Blum's taxonomy.

Bugungi adabiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda xalqaro standartlardan foydalanish, milliy metodika va maktab darsliklarini xalqaro yangi tajribalar asosida isloh qilish, ta’lim bosqichlarida kuzatilayotgan muammolarga bosqichma-bosqich yechim topish davlatimiz rahbari tomonidan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning bosh ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Adabiyot darslarini tashkil etishda uning maqsadi va mazmunini ifodalab beruvchi hamda belgilovchi ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, dasturlar va o‘quv adabiyotlari (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, metodik qo‘llanmalari va boshqalar)dan o‘qitishning xorijiy tajribasidan foydalangan holda tashkil etish adabiyot ta’limida o‘z samarasini bera oladi. Bugungi kunda ta’lim standartlari rivojlangan ko‘plab davlatlarning ilg‘or tajribalarini milliy ta’limga olib kirish, qo‘llash, o‘qitish jarayonlarida foydalanish o‘rganish sifatini oshirishga muhim omillardan bo‘lib xizmat qiladi. Har bir maktab darslarini tashkil etishda bosh ustun vazifani davlat ta’lim standartlari tashkil etadi. O‘zbekiston davlat ta’lim standartlarida adabiyot fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassalari bitiruvchilariga adabiy nutqiy (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon

qilish, oʻqish, fikrni yozma bayon qilish) va badiiy asarni tahlil qilish (matndagi soʻz va gaplarni tushuna oladi, asar qahramonlariga munosabat bera oladi, asar qahramonlariga xarakteriga xos boʻlgan fazilat va xislatlarga munosabat bildirib baholay oladi va boshqalar) kompetensiyalari mavjud boʻlib, ular oʻquvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan [Davlat ta'lim standartlari, 2017]. Maktablarda oʻquvchilar tafakkurini rivojantirib baholashni koʻzda tutadi. Xorij davlatlaridan Angliya davlat standartlarida belgilangan adabiyot oʻqitishga doir kompetensiyalarga e'tibor qaratigan boʻlsak, unda "Oʻquvchi asar sujeti qurilishining asar mazmuniga qanday ta'sir qilishini tahlil qila oladi" kompetensiyasi berilgan boʻlib, unda oʻquvchilarga sujet elementlarini topib, ularning oʻrnini va ayrim epizodlarning asar qurilishidagi rolini aniqlab, ularni izohlay oladi deya talab qoʻyilgan. Shunga oʻxshash yana bir kompetensiyaga e'tibor qaratadigan boʻlsak, "Oʻquvchi matnda qoʻllanilgan adabiy san'atlarni ajratib, ularni qay maqsadlarda qoʻllanilganligini izohlay oladi" kompetensiya talablarida ham oʻquvchilarga asarda foydalanilgan soʻzlarga, badiiy san'atlarga e'tibor qaratib, ularni nega ishlatilayotganini, vazifasini va ta'sir effektini ohangi bilan izohlay olsa, "Asarni oʻz hayoti bilan, boshqa asarlar bilan va atrofidagi olam bilan bogʻlay oladi" degan boʻlimda esa, asar qahramoni xarakterini ochib berishga va kitobxon shaxsining asar tushunishidagi oʻrniga baho beriladi [Z. Mirzayeva, 2020:24]. Xorij manbalaridan birida adabiyot oʻqitishga oid keng qoʻllaniladigan yoʻnalishlar sifatida madaniy (cultural), shaxriy rivojlanish va til (language) modellari keltirilgan. Ular adabiyot ta'limida keng qoʻllaniladigan usullar boʻlib, boshqa modellar uchun asos vazifasini bajaradi [International journal, 2016:Vol.4]. Bu uchta model adabiyot oʻqitishning maqsadini tashkil qilishda, oʻquvchilarni shaxsiy rivojlantirishda hamda til malakalarini shakllantirishda bir-biriga yordamchi manba boʻlib xizmat qiladi. "Madaniy model" axborotlarga asoslangan yondashuvga, "Til modeli" parafrastik, stilistik, tilga asoslangan yondashuvlariga, "Shaxsiy rivojlanish modeli" esa shaxsiy javob va axloqiy-falsafiy yondashuvlarga asoslanadi.

ADABIYOT O‘QITISH MODELLARI



1.MADANIY MODEL

Adabiyot fani o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga eng zaruriy bo‘lgan ma’lumotlarni beruvchi manba hisoblanadi va ana shunday yondashuv madaniy model orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar o‘zlari o‘rganayotgan matndan siyosiy, adabiy, ijtimoiy va tarixiy mavzularga oid ma’lumotlarni topib, ularni qay maqsadlarda qo‘llanilayotganligini tushunishlari kerak. Bu esa o‘quvchilarda zamon va makon nuqtayi nazaridan turli xil madaniyatlarni, mafkuralarni va his-tuyg‘ularni tasavvur qilishlariga yordam beradi. Bu an’anaviy yondashuv hisoblanib, uning markazida o‘qituvchi turadi va o‘quvchilarni zaruriy ma’lumotlar bilan tanishtiradi.

Axborotlarga asoslangan yondashuv. Madaniy modelning tarkibiga kiruvchi axborotlarga asoslangan yondashuv o‘qituvchilardan turli xil mazmundagi (tarixiy, siyosiy madaniy va ijtimoiy) axborotlar bilan o‘quvchilarni tanishtirishni bosh maqsad qilib oladi. Adabiyot bu shaklda ma’lumotlar bazasi vazifasini bajaradi. Bunga tanqidiy o‘qish va o‘qituvchi tomonidan beriladigan tushuntirishlar, eslatma va ma’ruzalar misol bo‘la oladi.

1. TIL MODELI.

Til o‘zlashtirishga qaratilgan ushbu model Parafrastik (Qayta bayon) Stilistik va Tilga asoslangan yondashuvlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu model til o‘rganish jarayonida til va adabiyot integrasiyasidan foydalanib o‘quvchilarda til malakalarini shakllantirishga yordam beradi. U tildagi matndan o‘quvchilarga turli xil funksiyalarni, xususan, grammatika, lug‘at va til strukturalarini o‘rgatishda adabiyotdan foydalanadi. Shu sababli, adabiyotdan faqat alohida til aspektlarini o‘rganishga va uning lisoniy xususiyatlariga e’tibor qaratiladi [TESOL, 2012:Vol 6(1)].

Parafrastik yondashuv. Parafrastik yondashuv asosan qayta bayon qilishga va sodda tilda matnni qayta yozishga yoki tarjima qilishda boshqa tillardan foydalanishga asoslangan bo‘ladi. O‘qituvchi orginal matnni tushuntirishda oddiy so‘zlardan va sodda gaplardan foydalanadi. Bu ham markazida o‘qituvchi turadigan jarayon hisoblanib, talabalar bilan qiziqarli mashg‘ulotlar o‘tishga qaratilmagan bo‘ladi.

Stilistik yondashuv. Stilistik yondashuv adabiy tanqid va lingivistik analiz jarayonini qamrab oladi. Bu o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, matnni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Stilistik yondashuv orqali o‘quvchilar matnni mazmunli sharhlash bilan birgalikda, til xususida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Til matn mazmunidagi elementlarga ko‘ra tahlil qilinadi.

Tilga asoslangan yondashuv. Tilga asoslangan yondashuv yo‘nalishi o‘quvchilarga adabiyot o‘qish jarayonida qay yo‘sinda til ishlatilganligiga diqqat qaratishlariga yordam beradi. Bu markazida o‘quvchi turuvchi va tildan samarali

foydalanishda mashg‘ulotlarga asoslangan yo‘nalish hisoblanadi. U o‘quvchilarning til bilish darajasini yaxshilaydi va o‘quvchilar orasida til va adabiyotga oid malakalarini birlashtirishga imkon beradi. Tilga asoslangan yondashuv o‘quvchilarni ko‘proq tajribalar va javoblar berishga undaydi. O‘quvchilar rol ijro etishlari, she’r yodlashlari, muhokama, forum va debatlardan, dramatik mashg‘ulotlardan, taxmin qilish, aql charxi, hikoyani qayta bayon qilish va xulosalash kabi bir qancha mashg‘ulotlardan foydalanishlari mumkin.

3.SHAXSIY RIVOJLANISH MODELI

Shaxsiy rivojlanish modeli shaxsiy javob va axloqiy-falsafiy yondashuvlarga bo‘linadi. U talabalarga o‘zlarining tillarini, his-tuyg‘ularini va xarakterlarini hayotiy mavzular va munozaralar asosida javob berishlariga va rivojlantirishlariga yordam beradi. Shaxsiy rivojlanish modeli orqali o‘quvchilarni adabiyotga bo‘lgan muhabbatlarini oshirishga, undan va uni o‘rab turgan muhit-tabiatdan zavqlanishga undaydi.


Shaxsiy javob yondashuvi. Shaxsiy javob yondashuvi o‘quvchilarda mavzu doirasida berilgan matnga nisbatan shaxsiy hayoti va tajribalarini esga soladigan hislarning uyg‘onishiga sababchi bo‘ladi. Xususan, shaxsiy javob yondashuvi o‘quvchilarda o‘qilayotgan matn mazmunini o‘zlarining hayotlari bilan bog‘lash-lariga keng yo‘l ochadi. U kitobxonni til va o‘qish kompetensiyalari shakllana-yotgan bir vaqtda matn o‘qishga zavq va shaxsiy ehtiyoj sifatida yondashtiradi.

Axloqiy-falsafiy yondashuv. O‘quvchilar ma’lum bir adabiy matn bilan tanishish davomida mavjud axloqiy qadriyatlarga e’tibor qaratadilar. Bu esa o‘qish jarayonida axloqiy va falsafiy qadriyatlar bilan tanishishlariga yordam beradi. Talabalar axloqiy va falsafiy xulosalar chiqarishlari uchun matndan tashqariga chiqishlari kerak bo‘ladi. U yondashuv orqali o‘qituvchilar adabiy manbalarni sharhlash davomida o‘quvchilarni o‘z-o‘zlarini anglashlariga va tushunishlariga yo‘naltira oladi.

Xorij tajribasi hisoblanmish yuqorida tasniflangan modellar adabiyot o‘qitishda tizimli yondashishda, nimalarga ahamiyat qaratgan holda darslarni samarali tashkil

qilishga, o‘qituvchilarni darsda qaysi mavzu va jihatlarga ko‘ra bosh ro‘lda bo‘lishi kerakligiga, adabiyot darslarida o‘quvchining ro‘li va asarlar tahlilida ular e’tibor qaratishi, bilishi lozim bo‘lgan o‘rinlarga, adabiyot ta’limida madaniyat, tarix va jamiyatni ro‘li va integratsiyasi qanday ekanligiga oid va yana bir qancha ma’lumotlar berilgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotini o‘qitishda yaqindan yordam beradi.

Adabiyot darslarini tashkil qilishda Blum taksonomiyasidan ham foydalanish yaxshi samaralarga erishishga yordam beradi. Blum taksonomiyasi o‘qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilar oldiga qator topshiriqlarni ta’lim maqsadlariga muvofiq tarzda: kognitiv, affektiv, psixomotor yo‘nalishlarida tasniflashni nazarda tutadi. Ta’limning bu uch yo‘nalishini “bilaman”,”his qilaman” va “yarataman” so‘zlari bilan ifodalash mumkin [Niyozmetova, 2018:211]. Kognitiv ta’lim bilimlarni o‘zlashtirish va o‘zlashtirilgan axborotni amaliyotda qo‘llay olishga qaratilgan bo‘lsa, affektiv yo‘nalish esa insonning emotsional reaksiyasini, boshqa insonlarning his-tuyg‘ularini anglashga e’tibor qaratadi. Uchinchi yo‘nalish esa psixomotor turli xil texnikalarga (o‘quv qurollari, jihozlar, asbob-uskunalar) orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni maqsad qilib oladi. Z. Mirzayevaning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” kitobida esa kognitiv ko‘nikmalar quyi va yuqori darajadagi ko‘nikmalarga bo‘linib, bilish tushunish va qo‘llash – quyi ko‘nikmalarga, tahlil, sintez va baho berish yuqori sifatida ajratilgan [Mirzayeva, 2020:88]



Bilish bosqichida o‘quvchilardan adabiyot darslarida o‘tilgan mavzularni, o‘rganib chiqishlari, yodda saqlab, qayta aytib berishlari lozim bo‘ladi. Tushuntirish bosqichida esa, o‘quvchilar o‘rganilgan ma’lumot orqali o‘z fikrlari bilan tushuntira oladi, talqin va tasnif qilish malakasi shakllanadi. Keyingi bosqichda esa ma’lumotlar bazasidan hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi lozim bo‘ladi. Tahlil jarayoniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ushbu bosqichda o‘quvchilar ma’lumotning kichik detallariga ahamiyat qaratib, ularning orasidagi bog‘liklarni izohlab bera oladi. Sintez jarayonida esa, yangi narsalar yarata oladi.

Baho berish deb nomlangan yuqori bosqichda, o‘quvchi ma’lum qonuniyatlar asosida o‘z fikrini bayon eta oladi. Adabiy matndagi qahramonlar, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirib, asar haqida taqriz yozib, fikr bildiradi.

Bugungi jahon adabiy ta’limida keng qo‘llanilayotgan nazariyalar haqida tadqiqotlar yaratish va ularni amaliyotga uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarni adabiyotga qiziqishlarinni yanada kuchaytirish va ta’lim samaradorligini amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. “Xalq so‘zi” // 2016- yil 8- dekabr.
2. Davlat ta’lim standartlari. Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6-aprelidagi 187-son qarori. –T.:2017.
3. Z. Mirzayeva, K. Jalilov. Adabiyot o‘qitish metodikasi.–T.:2020. 24-b.
4. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 152 б.
5. Muhamedova S.X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2018.
6. Types of English literature teaching approaches preferred by teacher in Secondary school in Miri, Sarawak/ International Journal of Language Education and Applied Linguistics, 2016, Vol. 4, 1-14.
7. An investigation of literature teaching methodologies at a higher educational institution in Oman. TESOL journal, Vol 6(1), June 2012.
8. R. Niyozmetova, Q.Husanboyeva. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: Innovatsion-ziyo. 2020.- 352 b.

EPIK ASARLARNI O‘RGANISHDA TA’LIMIY INTEGRATSIYANI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Mahmado‘stov Abdulla Shavkatovich
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
2-kurs magistranti
abdullamahmadustov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola 6-sinf o‘qish kitobining zamonaviy talablar darajasida takomillashtirish to‘g‘risida bo‘lib, unda o‘quvchilarni o‘quv jarayonining faol ishtirokchilariga aylantiradigan, o‘quv vaqtini oqilona ishlatishga hissa qo‘shadigan va, eng muhimi, o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtiradigan, o‘quv materiallarini yuqori darajada o‘zlashtirishni ta’minlaydigan, ta’lim mazmunini yaxshilash uchun qulay shart-sharoit yaratadigan integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim texnologiyalari; o‘quv texnologiyalari, pedagogic texnologiyalarni integratsiyalashuvi; kasbiy kompetentlilik.

Annotation

This article is about improving the 6th grade textbook at the level of modern requirements, in which it turns students into active participants in the learning process, contributes to the rational use of learning time and, most importantly, o. Features of the use of integrated educational technologies, which deepen students' knowledge, ensure a high level of mastery of educational materials, create favorable conditions for improving the content of education.

Key words: innovative educational technologies; educational technology, pedagogical technology integration; professional competence.

Ilm-fan taraqqiyoti ko‘z ilg‘amas darajada tezlashgan davrda fanlararo integratsiya uzluksiz ta’limni yo‘lga qo‘yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Integratsiya atamasi lotincha integratio so‘zidan olingan bo‘lib qo‘shilish, birlashish ma’nolarini anglatadi. Ma’lumotlami integratsiyalash har xil manbalarda mavjud bo‘lgan materiallami ma’lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etishni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan ta’lim va fanlararo aloqa bir-birini to‘ldiradigan ikki xil tushuncha. Fanlararo aloqada o‘quvchining ma’lum bilimlami o‘zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlami amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o‘quv fanlari orasida o‘matiladigan aloqa nazarda tutiladi[1][59].

[59] http://dic.academic.ru/

Epik turning xususiyatlari haqida gap ketganda avvalo voqea bandlikni tilga olinadi. Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea-hodisalar tasvirlanadi, so‘z vositasida o‘quvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand jonlana oladigan to‘laqonli badiiy voqelik yaratiladi. Tasavvurda reallikdagiga monand, o‘zining tashqi shakli bilan jonlangani uchun ham epik asardagi badiiy voqelikni "plastik" tasvirlangan deb aytiladi. Epik asarda plastik elementlar bilan bir qatorda noplastik elementlar ham mavjud bo‘lib, bu elementlar muallif obrazini tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Epik asarning noplastik elementlari deyilganda muallifning mushohadalari, fikrlari, tasvir predmetiga hissiy munosabati kabilar tushuniladi. Tabiiyki, noplastik unsurlar, plastic unsurlardan farqli o‘laroq, asarni o‘qish davomida o‘quvchi tasavvurda jonlanmaydi. Epik asarda obyektiv va subyektiv ibtidolarning uyg‘un birikishi kuzatiladi: asardagi badiiy voqelikni biz shartli ravihda obyektiv ibtido deb olsak, asar to‘qimasining har bir nuqtasiga singdirib yuborilgan muallif shaxsini biz subyektiv ibtido deb yuritamiz. Badiiy voqelikni shartli ravishdagina "obyektiv" ibtido deyishimizga sabab, u reallikdan olingan oddiygina nusxa emas, balki voqelikning ijodkor ko‘zi bilan ko‘rilgan, ideal asosida idrok etilgan, baholangan va ijodiy qayta ishlangan aksi ekanligidir. Shunday ekan, muallif obrazi hatto "obyektiv tasvir" yo‘lidan borilib, muallif imkon qadar o‘zini chetga olgan asarlarda ham mavjud bo‘lishi tabiiydir. Demak, epik asarlarda badiiy voqelik bilan bir qatorda noplastik muallif obrazi ham har vaqt mavjuddir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb hunar kollejlarining adabiy dasturlarida xalq og‘zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot, shuningdek, jahon adabiyotiga mansub bo‘lgan xilma-xil janrlardagi epik asarlarni o‘rganish ko‘zda tutiladi. Jumladan, 5-sinfda «Uch og‘a – ini botirlar», «Susambil» xalq ertaklari, H.Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», Hans Xristian Andersenning «Bulbul», Janni Rodarining «Hurishni eplolmagan kuchukcha» adabiy ertaklari, Alisher Navoiyning «Sher bilan Durroj», Sa’diyning kichik hikoyalari, Abdulla Qodiriyning

«Uloqda», G‘afur G‘ulomning «Mening o‘g‘rigina bolam», Oybekning «Fonarchi ota», Nodar Dumbadzening «Hellados», O‘tkir Hoshimovning «Urushning so‘nggi qurboni» hikoyalari berilgan. Ko‘rinib turibdiki, faqat 5-sinfning o‘zidayoq hikoya janriga mansub bo‘lgan xilma-xil asarlar taqdim etilgan. Ayni paytda boshqa sinflarda og‘zaki ijodning doston, yozma adabiyotning roman janrlaridan namunalarni o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Xuddi shuning uchun ham ularning har biriga o‘zlari mansub bo‘lgan janrlar nuqtai nazaridan yondashilishi zarur bo‘ladi, aks holda o‘quvchilarda noto‘g‘ri taassurot yuzaga kelishi, ko‘zda tutilgan badiiy-estetik samara olinmasligi mumkin. Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya’ni umuman fanlar, o‘quv fanlari, ulaming bo‘lim va mavzulari bo‘yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o‘rganilgan masalaga xos bo‘lgan etakchi g‘oyalar hamda hodisalaming izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir.

Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o‘girib, ikkinchisida barcha darajada o‘qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishdir. Masalaning bunday qo‘yilishi integratsiyaning turli ta’lim pog‘onalarida turli xususiyatlarga egaligidir. Maktablarda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiq [2][60].

Biror muammoning yechimini fanlararo aloqaga asoslangan holda integratsion o‘rganish uchun o‘qituvchi, avval maqsadni aniq belgilab olishi, o‘rganiladigan materialni qayta qarab chiqishi, uning samarali o‘zlashtirilishi uchun mos metodlami tanlashi, dars jarayonini tashkil etishning shakli va zaruriy ashyolarini aniqlashi va olinadigan natiialami oldindan belgilab chiqishi taqozo etiladi.

Fanlararo aloqa xarakteridagi integratsiyalashgan darslar tizimi ma’lum o‘quv fani bo‘yicha yil davomidagi mashg‘ulotlaming maksimal qismini tashkil etishi

[60] R.A.Mavlonova, N.H.Raxmonqulova Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, 2009

lozim. O‘zlashtirilgan bilimlaming har xil aspektda ochilishi, masalan, biror badiiy asar mazmunidagi voqea-hodisalaming ham geografik, ham biologik, ham botanik, ham psixologik bilimlarga tayanilgan holda va insoniy tuyg‘ular asosida ochib berilishi shakllanib kelayotgan shaxsning fikrlash, his qilish, qayg‘udosh bo‘lish singari jihatlardan rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Oliy o‘quv yurtlarida adabiy ta’lim, fan va maktab integratsiyasi ta’limiy, ilmiy va amaliy potensialdan umumiy manfaatlar yo‘lida foydalanishni nazarda tutadi. Ma’lum faoliyatlarning integralsiyalashuvi jarayoni samaradorlik va tejamkorlikni ta’minlaydi, ilmiy jarayonni jadallashtiradi, ayni zamonda dunyo hamjamiyatidagi fan va oliy ta’limning intellektual potensialidan unumli foydalanish imkonini beradi. Adabiy ta’limda mavjud tajribalarni umumlashtirish, tahlillash va foydalanish bu jarayonning barcha ishtirokchilariga katta samara keltirishi mumkin. Adabiy ta’lim, fan va maktabning integratsiyalashuvi bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari adabiy ta’limi jarayonini integratsiyalashni quyidagi tizimda ko‘rish mumkin:

• o‘quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi;

• oliy o‘quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi;

• adabiyot o‘qitish metodikasi kafedrasi va maktab o‘quv-metodik birlashmalari integratsiyasi;

• ilmiy-o‘quv va amaliy markazlar integratsiyasi;

• talabalami ma’lum yo‘nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi;

• mutaxassislar va talabalaming ijodiy jamoasi integratsiyasi va hk.[3][61].

Adabiy ta’limni integratsiyalash bo‘yicha taqdim etilgan bu shakllaming har biri alohida ta’lim muassasalari va turli shart-sharoitlarda o‘z xususiyatiga ega, albatta. Ayni zamonda, ta’lim umaliyotini integratsiyalashning bu shakllarida ulaming barchasi uchun umumiy bo‘lgan jihatlar ham mavjud. Masalan, «o‘quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi»da bo‘lajak adabiyot

[61] https://ru.wikipedia.org/wiki.

oʻqituvchisining adabiyot va ona tili oʻqitish metodikasi, adabiyotshunoslik, pedagogika, tarix va hk. fanlar orqali oʻzlashtirgan bilimlarini maktab amaliyotida, badiiy asarlar tahlili jarayonida umumlashtirgan holda qoʻllay bilishi nazarda tutiladi. Shu maqsadda oliy pedagogik ta'limda pedagogik amaliyotlar tashkil etilgan. Oliy oʻquv yurtining faoliyati maktab bilan hamkorliksiz samarali boʻlmaydi. Shu ma'noda oliy oʻquv yurti va maktab tizimi integratsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Garchi maktab ham, oliy oʻquv yurti ham uzluksiz ta'limning turli bosqichlari boʻlsa-da, boʻlajak oʻqituvchini tayyorlashda ulaming integratsiyasi taqozo etiladi. Oliy oʻquv yurtlari filologiya fakultetlari adabiyot oʻqitish metodikasi kafedralari maktablardagi Ona tili va adabiyot boʻyicha oʻquv-metodik birlashmalari bilan hamkorlik qilishi, bir-birini zaruriy ilmiy yangiliklar, nazariy bilimlar va amaliyotdagi oʻzgarishlar bilan tanishtirib borishi zarurdir. Boʻlajak adabiyot oʻqituvchilari ham ta'lim markazlarining ish faoliyati, dastur, darslik va boshqa didaktik ashyolaming yaratilish jarayoni, ularga qoʻyilayotgan talablar haqida tasavvurga ega boʻlishlari oʻta foydalidir. Oliy oʻquv yurtlari filologiya fakultetlari talabalarini «ma'lum yoʻnalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi» shakli ham kompetentli oʻqituvchilami tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir inson oʻziga yarasha qobiliyat, iqtidor va imkoniyatlarga ega. Oliy ta'lim tizimida talabalarga xos individual xususiyatlami ilgʻab, ularai ma'lum sohalarga yoʻnaltirishlari uchun bunday integratsiya katta ahamiyat kasb etadi. Boʻlajak adabiyot oʻqituvchilarini maktablarda ish olib borayotgan tajribali oʻqituvchilar, olimlar, shoir va yozuvchilar bilan hamkorlik qilishi, bu sohalaming xususiyatlaridan xabardor boʻlishi «mutaxassislar va talabalaming ijodiy jamoasi integratsiyasi»ni yuzaga keltiradi.

Masalan, Shayxzodaning 5-sinf «Adabiyot» darsligidan oʻrin olgan «Iskandar Zulqarnayn» dostonini oʻtishda tarix fani; Oʻ. Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasini oʻrganishda ruhshunoslik fani; Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyasini oʻrganishda geografiya; Janni Rodarining 6-sinf «Adabiyot» darsligidan oʻrin olgan «Hurishni eplolmagan kuchukcha» hikoyasini oʻrganishda zoologiya;

Abdulla Qahhoming «Bemor», Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyalari, erkin Vohidovning «Nido» dostonlarini o‘rganishda tarix; Gulxaniyning «Zarbulmasal», Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi singari adabiy materialning mohiyatiga kirishda zoologiya fanlari aro aloqadorlikka tayanish, ya’ni shu o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlarni integratsiyalagan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, adabiy ta’limni tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda olgan bilimlari ham ma’lum darajada asqotadi. Integratsiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishini, tabiatan anglab etishiga o‘rgatadi. O‘qitish jarayonida integratsiyani qo‘llash nazariyasi taraqqiyoti ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Integratsiya differensiya bilan uzviy bog‘liqdir. Bu uzviylik o‘quvchilarda olayotgan bilimlarini anglashga bo‘lgan intilishlari sistemasini barpo qilishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Integratsiya jarayonini boshlang‘ich ta’limda joriy etish turli murakkabliklarga ega. Chunki integratsiyalash yuqori sinflarda ancha qulay kechadi. Lekin boshlang‘ich sinflarda qo‘llashning o‘ziga xos murakkabliklari mavjud. Ayniqsa, boshlang‘ich maktabda fanlararo integratsiyaning psixologik asoslari muhim o‘rin tutadi.O‘quv materialining ma’naviy yig‘indisini tuzish usullari eslab qolish qobiliyatining muhim xususiyatlaridan biridir va ma’noli tayanch nuqtalarini ajratib, asosiy ma’noni nisbatan bilgan narsalariga asosan o‘zlashtiradi. Bundan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin. Bir fanga oid bilimlarni o‘rganish usullarini egallash ikkinchi fanni o‘zlashtirganda o‘quvchining analitik–sintetik faoliyatini katta maqsadga yo‘naltirilgan masalalarni yechim xususiyatlariga qaratiladi va nihoyat umumiy hamda alohida turgan masalalarni amalga oshirish, o‘qitishning hamma murakkab masalalarini echishga imkon bermaydi. Shuning uchun har bir o‘qituvchining faol ishi fanlararo aloqalarni kuchaytirish, kengaytirish va chuqurlashtirishdan, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiya qilishni uyg‘unlashtirishning yechimini topish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘ladi va ulardan dialektik shakldagi fikrlashni shakllantirishga erishish lozim. Fanlararo integratsiya masalasi kam

e’tiborga olinganligini hisobga olib, shuni aytish mumkinki, integratsiya bu fanlar uyg‘unligini ko‘rsatuvchi yuqori bosqichdir. Bu yo‘nalishda pedagoglar, psixologlar va uslubchilar ayrim kuzatishlarni olib borishgan. Fanlararo bog‘liqlikning psixologik asoslariga tayangan holda biz integratsiyani quyi sinflarda o‘zlashtirishni faollashtirish vositasi deya olamiz [4].[62]

Mamlakatimizda ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llanishi, mashg‘ulotlarning rangbarang qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan birga o‘quv materialining chuqur o‘zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Sir emaski, ayni vaqtda maktablarimizda an’anaviy o‘qitish usuli keng tarqalgan. Biroq ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an’anaviy ta’limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta’limiy muammolar o‘z echimini topayotganligini, qator pedagogik tajribalar ommalashayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu bilan rivojlangan davlatlar miqiyosiga ta’lim jarayonini yetkazish, kelgusida yoshlarni chet davlatlarda ta’lim olishga hamda tajriba almashuvchi shaxslar qilib voyaga yetkazishga erishishni ko‘zda tutadi. Buning uchun yoshlarni boshlang‘ich sinfdanoq tayyorlashimiz, mukammal bilim egasi etib tarbiyalashimiz lozim. Darhaqiqat yosh avlodni bilimli, ma’rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning roli beqiyosdir. Ta’lim jarayonida egallangan bilim ko‘nikma va malakalar jahon ta’limi andozalari talablariga javob berishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bunda yoshlarni Vatan va milliy mustaqillik g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ta’lim va tarbiya sohasida rejalashtirilgan va kutilgan natijalarga erishishni kafolatlash o‘ta muhimdir.

Demak, o‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘ra turib, avvalo maqsadni aniq belgilab olish, shunga ko‘ra darsning mazmunini belgilab asosiy savollarni ajratib olish kerak bo‘ladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflardagi o‘qish, tabiat, odobnoma va boshqa fanlarning matnlari mazmunini gapirib berish bilan chegaralanmaslik talab etiladi. O‘qituvchi har bir darsning mazmunini aniqlashda fanning o‘zi. Fanlararo

[62] Abdullayeva B.E. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida «Uzluksiz ta’lim» jurnali. 2005 y. 1-son 12-b.

aloqalar hisobga olinishi darkor. O‘qituvchi darsning maqsadini aniqlagach unda qanday tasavvurlar va tushunchalar o‘z aksini topishini, o‘quvchilar ushbu darsda qanday malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerakligini belgilab olishi zarur. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashgan texnologiyalarni qo‘llash avvalo pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni qo‘llashni talab etadi. Chunki o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni amalga oshirmay turib, qo‘llangan har qanday texnologiya kutilgan samara bermaydi. O‘quv jarayonini insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash asosidagi integratsiyalashgan texnologiya, o‘quv jarayonda hamkorlik qilish va e’zozlash orqali o‘quvchining taqsil olishi, ijod qilishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratishga yordam beradi. Mazkur jarayonda o‘quvchi o‘z o‘quv faoliyatining subyekti sanaladi va o‘qituvchi bilan hamkorlikda yagona ta’lim jarayonini 2 ta subyekti o‘quv-tarbiyaviy vazifalarni hal etadi. O‘qituvchining o‘quvchi shaxsiga bo‘lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg‘urish, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o‘zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi, tahsil olish jarayonida o‘quvchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rivojlantirishning ustunligi tufayli ko‘zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo‘lishi, ularni bartaraf etishning eng samarali yo‘llarini qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya jarayonining demokratizatsi-yalash o‘qituvchi va o‘quvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o‘quvchi-larga tanlash, o‘z fikri va nuqtai nazarini erkin bayon etish huquqini berilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bolalar huquqlari konvensiyasiga amal qilinishini taqozo qiladi. Integratsiyalashgan ta’limning o‘ziga xos jihati ham aynan shu ikki jarayonni uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun o‘qituvchi bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Buning uchun u darsning texnologik xaritasi har bir

mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Hozirgi zamon ta’lim tizimidagi amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki oldindan puxta loyihalashtirilgan dars, albatta, o‘qituvchi va o‘quvchiga darsni qiziqarli bo‘lishi, shuningdek ijobiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktab ta’limini rivojlantirish umuxalq harakatiga aylanishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish... masalalariga bag‘ishlangan videoselektor. Xalq so‘zi. №174.2019-y

2. Мавлонова Р, Раҳмонқулова Н. Бошланғич таълимнинг интеграциялашган педагогикаси. Т., Ilm ziyo, 2009. 240 b.

3. Umarova X. Fanlararo integratsiya. «Boshlang‘ich ta’lim» jurnali. 3-son. 2000-y. 12-bet.

4. Choriyev R. Kichik mutaxassislarni tayyorlashda integratsiyalashning ba’zi muammolari. «Maktab va hayot» jurnali T.2003 y. 8-son. 6-bet.

5. Abdullaeva B.E. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida «Uzluksiz ta’lim» jurnali. 2005 y. 1-son 12- b.

6. T.G‘afforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova “O‘qish kitobi” 2-sinf uchun darslik. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T.2018 y. 36-38-b.

7. N.Abdurahmonova, L.O‘rinboyeva “Matematika” 2-sinf uchun darslik. Toshkent “Yangi yo‘l Poligraf Servis”2018 y. 20-21-b

“BOBURNOMA”NI O‘RGANISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Qulsaxatov Farrux Xolli o‘g‘li
ToshDO‘TAU magistranti
qulsoatovfarrux@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada ta’lim tizimida integratsiyaning ahamiyati haqida so‘z boradi.. Adabiy ta’limda “Boburnoma”ni integratsiya metodi bilaan o‘rganish bo‘yicha muayyan tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, integratsiya, tashqi integratsiya, ichki integratsiya, memuar nasr, “Boburnoma”.

Annotation

The article discusses the importance of integration in the education system.

Key words. Education system, integration, external integration, internal integration, memoir, "Boburnoma".

Tarix shunday buyuk nomzodlarni tarbiyalaganki, ular o‘zlarining kamolotini, jamiyatning barcha sohasini taraqqiy ettirishda ko‘radilar. Amir Temur, Shohruh

Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amiriy shular jumlasidandir. O‘zbek adabiyoti tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi alohida o‘rin tutadi. Bobur ijodi bilan shug‘ullangan olimlar unga shuhrat keltirgan “Boburnoma” asari xususida fikr yuritib, uning badiiy asar emas, memuar asar ekanini ta’kidlaydilar. “Boburnoma” XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko‘p tillari – ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida “Boburnoma”ning insoniyat yaratgan o‘lmas obidalar qatorida alohida o‘rinda turishi ta’kidlanadi.

Bobur qalamiga mansub bu asarning turli tillarga qilingan tarjimalarini kuzatgan olimlar qiziq bir hodisani qayd etishgan kitob dunyoning turli tillarida yigirmadan ortiq nom bilan bosilib chiqqan ekan. Chunonchi: “Voqeoti Boburiy”, “Voqeanomayi podshohi”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Vaqoye”, “Vaqeanoma”, “Bobur podshohning tarjimayi xoli”, “Boburiya”, “Bobur memuarlari”, “Esdaliklar”, “Bobur tarixi”, “G‘aroyib tarjimayi xol”, “Sharhlar”, “Ma’murnoma”, “Boburning hayoti”, “Tuzuk”, “Podshohnoma”, “Bobur xotiroti”, “Bobur bitklari”, “Boburnoma ingliz tilida”[63] va hakozo.

“Boburnoma” – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o‘z davrining ko‘plab kishilarining turli vaziyatdagi kechinmalari, siyosiy ahvoli haqidagi ma‘lumotlar jamlangan. Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmon va cho‘llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy holati haqida ma‘lumotlar keltirilgan. “Boburnoma” o‘zbek nasrining go‘zal namunasi. Bu paytgacha Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining muqaddimasida, Rabg‘uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Biroq “Boburnoma” o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi.

[63] Bobur nomidagi xalqaro jamg‘arma. Toshkent.: Sharq, 2002.

“Boburnoma” asari muallif tomonidan dastlab qanday nomlangani noma’lum. Boburning o‘z so‘zlari va qizi Gulbadanbegimning “Humoyunnoma’ asaridagi ma’lumotlarga qaraganda, u avval “Vaqoye” deb atalganini taxmin qilish mumkin. Bobur bir ruboiysida bu haqda shunday yozadi:

Bu olam aro ajam alamlar ko‘rdum,
Olam eliding turfa sitamlar ko‘rdum,
Har kim bu vaqoye’ni o‘qir, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g‘amlar ko‘rdum.

“Boburnoma”ning o‘zida esa, muallif bir o‘rinda shunday deydi: “Xoja Kalon Xoja Yaxyoning nabirasi mendin bitiyturgan vaqoyini tilaydur edi, istiktob qildurub erdim, Shahrakdin yiborildi”[64].

“Boburnoma” XV asr oxiri – XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonning tarixi, jug‘rofiyasi, etnografiyasi, o‘simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarning kasb-kori, tili, hayot tarzi va boshqa xususiyatlari haqida ma’lumotlarga ega asar hisoblanadi.

Bugun fan-texnikaning rivoji tufayli ilm-fanning barcha sohalarida o‘sish, rivojlanish ro‘y bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, “Ta’lim sohasida “Integratsiya” tushunchasi ta'lim sohalarini, turli xil faoliyat turlarini, uslublari va usullarini yagona tizimga birlashtirgan va ta'limda o‘quv jarayonini tashkil etishning etakchi vositasi sifatida faoliyat yuritadigan yaxlit hodisa sifatida talqin etiladi. Ta’limning integratsiyasi – faollik yondashuviga asoslangan voqelikning tabaqalashtirilgan tasviridan yaxlit tasvirga o‘tish, fanlararo aloqalarni shakllantirish, muammoli va izlanish usullari va o‘qitish usullarini o‘qitishga keng joriy etish sanaladi. Integratsiya so‘zining o‘zi lotincha “integration” – “aloqa” so‘zidan kelib chiqqan.

[64] Z.M.Bobur. Boburnoma. – T.; Sharq, 2002, 363 B.



Adabiy ta’limda integratsiya jarayoni fanlararo bog‘liqlikda keladi.

Natijada, tarixiy-adabiy asarlarda muallif niyati yanada sayqallashadi. Uning qomusiy alloma, iste’dodli ijodkor ekanligi ma’lum bo‘ladi.


“Boburnoma”da turli fan va sohalarga oid mulohazalar bayon etilgan. Bu soha va fanlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ijtimoiy-tabiiy fanlar
2. Tarix
3. Falsafa
4. Fiqh
5. Din ta’limoti
6. Tilshunoslik
7. Jug‘rofiya
8. Tabiatshunoslik
9. Ma’danshunoslik
10. Dehqonchilik

11. Bog‘dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish masalasiga qiziqish juda qadim zamonlardan boshlangan. Y.A.Komenskiy grammatika va falsafani, falsafa va

adabiyotni, D.Lokk esa, tarix bilan geografiyani o‘zaro aloqada o‘rganish haqida fikr yuritganlar. I.Gerbart, A.Disterveglar ham o‘z vaqtida fanlar o‘rtasidagi chegaralarni kamaytirish, ularni o‘zaro aloqada o‘rganishni himoya qilganlar[65].

Demak fanlararo integratsiya, bir fanning boshqa fanlar bilan bog‘liq holatda yuzaga kelishini ko‘rib o‘tdik. Ushbu yo‘nalishni biz asarlarda keltirilgan, fanlarga tegishli terminlar miqoyosida ko‘rib chiqamiz. Biz asosiy obyekt sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini oldik.



Biz bilamizki “Boburnoma” asarida, asar yozilgan davrga tegishli tarixiy shaxs nomlaridan hammasi bo‘lib, 1540 nafar kishining ism-sharifi tilga olingan. Shundan 357 tasini Movarounnahrlik tarixiy shaxslar tashkil qiladi. Qolgan qismini esa turli davrda va mamlakatlarda yashagan shaxslar tashkil etadi. Movarounnahrlik 357 nafar turli toifa kishilaridan iborat tarixiy shaxslar: 5 nafari amir va amirzodalar, 20 nafari shoh va shahzodalar, 42 nafari malika va shoh qizlari, 52 nafari umarolar, qo‘shin boshliqlari va beklar, 21 nafari din va tasavvuf

[65] Abdullayev K. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish: Monografiya. Toshkent, 2021, 20 b.

egalari, 30 nafari ilm-fan va adabiyot ahllari, 187 nafari turli xos kishilar – askar, dehqon, san'at ahli, hunarmand, qul va yog'iylarning nomlari qayd etilib, sharhlab berilgan[66].

Ushbu berilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holatda, "Boburnoma" asarida keltirilgan tarixiy shaxslar nomlarini tarix fani bilan bog'lagan holda o'qitishimiz maqsadga muvofiqdir. 10-sinf adabiyot darsligida keltirilgan "Boburnoma" mavzusini o'tish jarayonida, keltirilgan tarixiy shaxslar va ularga tegishli voqea-hodisalar, mavzuda qo'shimcha ma'lumot sifatida yoritib berilsa, o'quvchilar "Boburnoma" asari haqida yanayam ko'proq tasavvurga ega bo'lishadi. Asarda tarixga oid birgina tarixiy shaxs nomlaridan tashqari jang vaqtida olib borilgan strategik san'atlar, davlat boshqaruvini olib borishga tegishli ma'lumotlar, portret san'atidan mukammal ravishda foydalanganlini ko'rishimiz mumkin. Muallif "Boburnoma"ni yozishga kirishgan kunidan boshlab voqea-hodisalar talqini va kishilar shaxsiyatiga doir fikr-mulohaza va ma'lumotlarning faqat rostini yozishga ahd qilgan va quyidagi fikrlarni aytgan: "Bo'lgan voqealarni rost yozganman. Chunki bu asarda shu narsa lozim topilganki, har so'zning rosti bitiladi va har ish qanday voqe bo'lgan bo'lsa, shunday aytiladi"[67].

Adabiyotimiz tarixida "Boburnoma" singari portret va peyzaj tasviridan keng foydalanilgan asarni kam uchratamiz. Portret-bu kishining bo'y-basti, yuz-ko'zlari, kiyim-kechagi, yurish-turishi, xatti-harakati, axloq-atvoridir. Asarda ko'plab odamlarning aniq, betakror portretiga duch kelamiz: xon, amir, beklar haqida gap ketganda uning vododat va nasabi, shakl va shamoyili, axloq va atvori, masof va urushlari, umarosi haqida qisqa, aniq ta'rif-tasvirlar beriladi. Bunday tasviriy vositalar esa asar badiiyligini ta'minlovchi muhim poetik birlikdir. Bobur portret yaratishda odamlarning tashqi ko'rinishi bilan birgalikda, ichki dunyosiga ham nazar soladi, tarixiy shaxslarning faqat yaxshi tomonlarini tasvirlab o'tmasdan, balki ularning salbiy xislatlarini ham aytib o'tadi. Portret tasvirini shunchalik real tasvirlaydi, tasviriy vositalar o'z funksiyalarini shunchalar aniq va

[66] Abdullayeva M. "Boburnoma"da tarixiy shaxslar talqini. www. Referat. uz
[67] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2017, – B.19.

to‘la ifoda etadiki, bu muallif mahoratidan dalolat beradi. “Boburnoma”da muallif obrazidan tashqari ko‘plab tarixiy shaxslar – temuriy hukmdorlar, ayollar, beklar, amirlar, muxoliflar, ilm-fan va san‘at namoyondalari va boshqalarning tashqi va ichki portretlari mohirona chizilgan, ularning xatti-harakatlari, faoliyati fonida xarakter xususiyati ochilgan. Tarixiy shaxslar portreti, xarakter xususiyatlarini yoritishda muallif ularga obyekt iv munosabatda bo‘lishga, ularning yashash tarzi va yashash sharoitidan kelib chiqib, portret va xarakterni eng muhim va qisqa iboralarda tasvirlab berishga harakat qilgan.Boburning otasi haqidagi ma’lumotlar ham asarda keltirib o‘tilgan.

Chun Umarshayx mirzo baland himmatliq va ulug‘ doiyaliq podshoh erdi. Bu asnoda g‘arib voqea dast berdi, mazkur bo‘lub edikim, Axsi qo‘rg‘oni baland, jar ustida voqe bo‘lubtur, imoratlar jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to‘rtida Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchub, shunqor bo‘ldi. O‘ttiz to‘qquz yoshar erdi[68]. Adabiyot darsliklarimizda Bobur hayoti va ijodi, uning yaqinlari, amalga oshirgan ishlari haqida qismangina yoritib berilgan. Tarix fani bilan bog‘lagan holda o‘quvchilarga asarda keltirilgan tarixiy voqealarni yoritib berilsa, kelajak avlod asar haqida yanada ko‘proq bilim egallashadi. Albatta biz “Boburnoma” asarini fanlararo o‘rganishda adabiyot faniga kuchliroq nigohimizni qaratamiz. Chunki Bobur va “Boburnoma” asarini yoritishda asosan katta ekranga chiqadigan fan bu adabiyotdir. Adabiyot fani orqali Boburning hayoti va ijodi bilan to‘la qonli tanishib boramiz. Maktab darsliklariga to‘xtaladigan bo‘lsak: 5-sinf adabiyot darsligida Boburning hayoti va ijodi yoritilgan bo‘lib, Bobur didi va zavqi baland shoir edi. U go‘zal g‘azallar yozdi. Ruboiyning tengsiz namunalarini yaratdi. Ko‘rgan-kechirgan voqealari haqida “Boburnoma” asarini yozib qoldirdi uning qalbi musiqaga oshno edi. U sozni go‘zal chalgan, ajoyib kuylar yaratgan, musiqa haqida ilmiy kitob yozgan shoh edi[69].

[68] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma: -Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2015, 15 b.

[69] 5-sinf adabiyot darslik. Uchinchi nashr, Toshkent.: Sharq nashriyoti-matbaa aksiyasidorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2020, 154 b.

Bundan tashqari ruboiylari qisqacha tasniflanib berilgan. Keyingi ma'lumotimiz 6-sinf adabiyot darsligidir.Darslikda Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asaridan keltirilgan parcha bilan tanishamiz. Biz bilamizki "Yulduzli tunlar" asari Boburning hayoti haqida va "Boburnoma" asarida keltirilgan "Vaqoyeyi sanayi arbaa va tis'a mia" (To'qqiz yuz to'rtinchi (1498-1499) yil) voqealari haqida oz bo'lsada ma'lumot beruvchi asardir. Yuqorida ko'rsatilgan sanada Samarqandni yuz kun boshqarib, o'z ona yurti Andijonni qaytarib olish voqealari tasvirlangan. Sulton Ahmad Tanbal o'z viloyatig'a – O'shg'a bordi. Jahongir mirzoni bir necha ichkilari va yigitlari Uzun Hasandin olib qochib, Tanbalg'akim, hanuz O'shga etmaydur edi, birib qo'shuldilar. Andijonning berkigan xabari manga keldi, hech tavaqquf qilmay, Marg'inondin oftob chiqa otlanib, tush qaytib edikim, Adijong'a keldim[70]. Bu romandan parchani o'qigan vaqtimiz anglashimiz mumkinki "Boburnoma"da keltirilmagan bir voqea-hodisa jonlantirilganini "Bu Qutlug' Nigorxonim tomonidan o'g'liga noyob sovg'a – Amir Temurning qilichi va "xotirotlar bitilgan daftarlari"ning tortiq etilishi voqeasidir" (6-sinf adabiyot kitobidan). Albatta bu voqea "Boburnoma" asarida keltirilmagan. Yozuvchining badiiylikni oshirish san'atiga kiradi. Asar orqali Bobur shaxsiyatining ulug'langanligini ko'rishimiz mumkin. "Boburnoma" asarini adabiyot fani bilan bog'lagan holda ushbu berilgan parchani asl nusxadagi ma'lumotlar bilan o'qituvchi to'ldirib yoritib o'tsa o'quvchilarda Boburning "Boburnoma" asari haqida yanada chuqur tasavvur hosil bo'ladi. Keyingi sinfimiz 10-sinf adabiyot darsligidir. Ushbu sinf adabiyot darsligimizda "Boburnoma" asarida kelirilgan to'qqiz yuz o'n ikkinchi (1506-1507), to'qqiz yuz o'ttiz oltinchi (1529) yil voqealari tasviridan parcha berilgan. 1506-1507-yil voqealari haqida gap ketar ekan: Muharram oyi o'zbakni daf qilish maqsadida Xurosonga jo'nadik. G'urband va Shibartu yo'li bilan ravona bo'ldik (10-sinf Adabiyot). Darslikda berilgan "Booburnoma" matni orqali o'quvchi qalbiga Bobur shaxsiyatini oz bo'lsada tanita olamiz. Uning jang holatidagi qiyinchiliklari, shaxsiyatidagi rostgo'ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik,

[70] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma: -Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2015, 107 b.

qattiqqo‘llik singari bir qancha jihatlari bilan tanishtiramiz. Ko‘rib turibmizki “Boburnoma” asarini tanitishda, adabiyot fani har tomonlama bizga qo‘l keladi. Asarda keltirilgan tasvirlar orqali tasviriy san’at ya’ni chizmachilik fani bilan bog‘lagan holda o‘qitishimiz mumkin. Bu bizga qanday yordam beradi degan savolga javob beradigan bo‘lsak, qaysi sinf o‘quvchisi bo‘lishidan qat’iy nazar asarni o‘qib bo‘lgach “Boburnoma”da keltirilgan tasvirlar orqali rasm chizishlik beriladi va bola asarni faqat matn tasuroti bilan emas hayolan ham his qilgan holatda chizma yaratadi. Deylik asarda bola Boburning rostgo‘ylik, mardlik, adolatparvarlik, mehribonlik, qattiqqo‘llik singari xislatlarini chizma orqali o‘z Boburini yaratadi. Bilamizki asarda birgina insonlarga emas tabiat va hayvonot olami tasvirini ham ko‘rishimiz mumkin. Demak o‘quvchi tabiat va hayvonot olami tasvirini ham asar orqali ko‘z oldiga keltirishi mumkin. Bu esa “Boburnoma” asarining mukammal yaratilganligini va nodir asar ekanligini isbotlab keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun). – T.: “Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2010-yil, – 320 b.
2. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. “Бобур подшоҳ” (“Тарихи Рашидий”дан). Форс тилидан Ғулом Карим таржимаси. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” ҳафталиги, 2002 й, 15 феврал сонида.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Sochining savdosi tushdi. – T.: “Sharq”, 2007-yil, – 114 b.
4. Teshaboyev B. Boburning “Boburnoma” asaridan foydalanish., Xalq ta‘limi. 1993. №10, – 26 b.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobur she’riyatidan. Tuzuvchi S. Hasanov. – T.: “O‘zbekiston MK nashriyoti”. 1983. – 144 b.
6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. Бобур номидаги Халқаро жамғарма нашри. Порсо Шамсиев ва Эйжи Мано нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасан. Т.: “ШАРҚ”. 2002. – 336 б.

O‘QUVCHILARNI MUTOLAAGA QIZIQITIRISHDA TIZIMLI YONDASHUVLAR

Nozima Ergasheva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti
sultonovanozima221@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, kitob mutolaasi va uni keng targ‘ib qilish, yurtimizda kitobxonlikka qaratilayotgan e’tibor haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy tahlil, badiiy tafsil, kitobxonlik muhiti, malaka, kitobxonlik, mutolaa madaniyati.

Annotation

This article focuses on the importance of reading, the development and spread of reading culture in our country.

Key words: artistic analysis, artistic detail, reading environment, qualification, read, reading culture.

Badiiy adabiyotning qay darajada qiymatga ega bo‘lishi kitobxonlarning soni va sifati bilan bog‘liqdir. Shu ma’noda, bugungi kunda yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish va targ‘ib qilish maqsadida bir qator farmon va qarorlar imzolanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-son qaroriga muvofiq 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash Milliy Dasturi ishlab chiqildi.

Dasturda kitobxonlik sohasidagi milliy va ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili asosida O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, kitob mahsulotini yaratish, chop etish, yetkazib berish, kitobxonlikni ommalashtirish, ilmiy-metodik ta’minlash, kadrlar tayyorlash, kitobxonlik infratuzilmasini boshqarish bilan bog‘liq masalalar qamrab olingan. Ammo, bugungi texnika rivojlangan zamonda o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida

kitob mutolaasiga qiziqmaslik, faqatgina o‘qituvchi majburiyati ostida kitob o‘qish, natijada, yuzaki mutolaaga berilish, matndagi ma’noni uqmaslik, tinish belgilariga ahamiyat bermaslik, umuman olganda, so‘zning qudrati va sehrini anglamaslik eng dolzarb muammolardan biridir.

Kitob o‘qish haqiqiy iste’dodli kitobxon uchun hayotiy zarurat kabidir. “Kitob yig‘ish dorilfununning o‘zginasi”, – deydi mutafakkirlardan biri. Zero, yaxshi kitoblar haqidagi har qanday suhbatning nafi, sabog‘i bor. Kitobxonlik masalasiga har bir davrda o‘ziga xos yondashilgan. Tarixdan ma’lum, kitob qaysidir tuzumning manfaatlarini ko‘zlab, uning g‘oyalarini o‘quvchiga singdirishga xizmat qilgan davrlarni ham xalqimiz boshidan kechirdi. Bugun, kitob ma’naviy kamolot omili sifatida targ‘ib etilmoqda. Xalqimiz buyuk tarixga ega. Buyuk asarlarimiz bor. Ba’zilar o‘qib nimasi buyuk deyishi mumkin. Asarni tushunish uchun inson katta bilimga va tafakkurga ega bo‘lishi lozim. Bolalarni yuksak tuyg‘ular, orzular, oldinga intilishga, o‘zini tarbiyalab borishga o‘rgatadigan kitoblarni o‘qishga davat etish lozim.

Kitob – inson ma’naviyatini boyitadigan sirli vosita. O‘quvchilar qalbida kitobga mehrni uyg‘otishda adabiyot darslari muhim ahamiyatga ega. Aynan, mana shu fan o‘qituvchilari badiiy asarlarni o‘rganib bo‘lgach, o‘quvchilarga asar qahramonlariga yoki asar muallifiga maktub yozish, asar ta’sirida she’r yozish, rasm chizish kabi vazifalarni bersa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu borada xorijlik G.Gardnerning “Intellekt ko‘pqirraliligi” nazariyasida alohida yondashuvlar ilgari surilgan. Binobarin, har bir bolaning individual xususiyatlari doirasida topshiriqlar berish bevosita kitobxonlik bilan bog‘liqligi yaxshi ma’lum.

O‘qilgan asar yuzasidan sinfda yoki darsdan tashqari vaqtlarda badiiy asar tahlili o‘tkazilsa, o‘quvchilar asarning mazmuniga yaqinroq kirib borishadi. O‘quvchilar tafakkurini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, estetik didi, ma’naviyatini yuksaltirishda badiiy asar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o‘quvchining o‘qilayotgan asar yuzasidan mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash hamda taqdimot qilish,

kezi kelganda oʻz hayotlarida oʻrganganlaridan xulosalar chiqarish malakalari shaklllantiriladi.

Adabiyot fikr va qalbni tarbiyalaydi. Har bir inson hayoti davomida duch kelgan muammolarga javobni oʻz tajribasidan izlaydi. Bunday hayotiy tajriba hosil boʻlishi uchun yaxshi kitobxon sifatida voqealar-u kechinmalarni oʻz qalbidan oʻtkazishi, oʻzi tanlab olgan obrazning tarafdori boʻlib, uning yutuqlari, quvonchi, qaygʻusi-yu magʻlubiyatini ham oʻziniki qilib olishi kerak boʻladi. Oʻquvchi oʻqilgan asarning sir-asrorini tuygachgina qalbida kitobga muhabbat hissi shakllanadi. Chinakam badiiyat namunasini ajrata olish malakasini egallasa haqiqiy kitobxonga aylanadi.

Biror asarni oʻqish, uni tahlil qilish jarayonida olingan bilim boshqa asarlarni oʻqishga, ulardan zavqlanishga undaydi. Shaxsiy fazilatlari va xislatlarini tanishga qaratilgan tahlillar oʻquvchining nafaqat bilim saviyasini, balki uning tafakkurini ham boyitib boradi. Har qanday ruhiyati sogʻlom, insoniy qadriyatlar ardoqlanadigan odamlar orasida yashayotgan oʻquvchilar oʻzining kimligini, menligini va tafakkurini yaxshi anglab oladi. Oʻqituvchi oʻquvchilarning tayyorgarligi, ruhiy-aqliy darajasini hisobga olib tahlilga chuqurroq kirishga undaydigan oʻz savol-topshiriqlaridan va darslik muallifining yoʻnaltiruvchi savollaridan foydalansa ham maqsadga muvofiq boʻladi.

Badiiy asarni tahlil qilishga tutingan oʻqituvchi san’atkor bilan oʻquvchilarni oʻzaro muloqotga kiritadigan insondir. Buni qanday natijali amalga oshirish mahoratga bogʻliq, albatta. Bu borada “Bu kim? Bu nima? Bu qayer?” oʻquv topshirigʻi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv matnni diqqat bilan oʻrganishga, obrazlarning koʻrinishi, gap-soʻzi, umuman, mayda detallargacha koʻzdan qochirmaslikka undaydi. Badiiy tafsillar, odam turmushi, u bilan bogʻliq narsalar hamda obrazning oʻy-xayollari, quvonchi, qaygʻusi, kechinmalari, koʻngil tasviri yozuvchi ifodasi bilan berilar ekan oʻquvchining bilish zavqi, imkoniyati yanada ortadi. Asar oʻqilayotganda emas, balki uyga vazifa sifatida berilib oʻquvchilar oʻqib kelishgandan keyingina tahlil qilinsa matn mazmunini, muallif

maqsadini, asarda ilgari surilgan g‘oyani tushunish qiyin kechmaydi. Demak, o‘quvchini kitobxonlikka qay darajada qiziqtira olish o‘qituvchining mahorati va uyga berilayotgan topshiriqda ham muhim ahamiyat kasb etadi. “Badiiy asar mazmuni, – deb yozadi bu borada faylasuf V.F. Asmus, – bir ko‘zadan ikkinchisiga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga o‘z-o‘zidan quyila qolmaydi. U aqliy, ruhiy, ma’naviy faoliyat orqali asarda keltirilgan ma’lumotlarga tayanib, kitobxonning o‘zi tarafidan qayta yaratilib, qayta ishlab chiqiladi” [Asmus, 1968: 62].

O‘qituvchilar ota-onalar bilan muloqotlarda badiiy adabiyotning bola hayotiga ijobiy ta’siri, ota-ona va ustozlardan ololmagan ayrim saboqlarni kitobdan olishi mumkinligi, kitob o‘qigan bolaning dunyoqarashi keng, nutqi ravon, teran fikrlaydigan inson bo‘lishi haqida tushuntirish ishlarini olib borishlari lozim. O‘qituvchilar yoki ota-onalar tomonidan har bir kitobni o‘qib tugatgan bola rag‘batlantirib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolaning shaxsiy kutubxonasi uchun yangi kitoblar olib berish ham rag‘batning bir ko‘rinishidir. Davlatimiz tashabbusi bilan o‘quvchilarga milliy va jahon adabiyotlarini tizimli targ‘ib qilish orqali ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan mehr va muhabbat uyg‘otish hamda axborot olish madaniyatini shakllantirish maqsadida maktab kutubxonalariga yildan-yilga ko‘p turdagi yangi badiiy adabiyotlar taqdim etilmoqda. Mahallalarda, qishloqlarda o‘tkazilayotgan “Eng yaxshi kitobxon oila” ko‘rik tanlovining tashkil etilishi, oilalarda kitobxonlikni targ‘ib qilish orqali o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirib boorish, ma’naviy tahdidlarga nisbatan sog‘lom immunitetni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning ta'lim-tarbiya masalasiga, xususan, yoshlarning kitobxonlik darajasi alohida e'tibor qaratar ekan, bu haqda shunday fikr bildiradi:

“Bugungi kunda axborot tarqatish, axborot almashishning tezligi va mukammalligi bo‘yicha internetning o‘rnini bosadigan boshqa vosita yo‘qligini

albatta yaxshi bilaman. Ammo farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yuksak ma'naviyat manbayi bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki biz uchun yot bo‘lgan g‘oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men mutlaqo qarshiman. Eng muhimi, farzandlarimizda yoshlik chog‘idan boshlab kitobga mehr qo‘yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri javob topish ko‘nikmasini shakllantirishimiz, buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor” [Mirziyoyev, 2017: 469]. Albatta, bu fikrlarning zamirida ayni haqiatat mujassam.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mas’uliyat kitob mutolaasi uchun eng muhim shart hisoblanadi. O‘qituvchi, ota-ona farzandiga kitob o‘qishni tavsiya qilar ekan, avvalo o‘zi o‘sha kitobdan xabardor bo‘lishi yoxud birgalikda tahlil qilsa, bu jarayonda sog‘lom muhitni rivojlanib, farzandning ota-onaga bo‘lgan mehri, kitob orqali yanada ortishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Asmus V.F. Вопросы теории и истории эстетики. – M.,1968. – 62-б.
2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

KONSTRUKTIVIZMGA ASOSLANGAN TA’LIM HAQIDA UMUMIY MULOHAZALAR

Kadirova Nilufar Olimovna
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi
nilufark06@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada konstruktivizmga asoslangan ta’limning zamonaviy pedagogikadagi o‘rni va xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritilib, o‘quvchining ijodiy va tanqidiy tafakkuri rivojidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: konstruktivizm, konstruktivist o‘qituvchi, ijtimoiy konstruktivizm, motivatsiya, transmissiya.

Annotation

The article discusses the role and features of constructivism-based education in modern pedagogy and the importance of developing students’ creative and critical thinking.

Key words: constructivism, constructivist teacher, social constructivism, motivation, transmission.

Bugun Milliy ta’lim tizimida olib borilayotgan ulkan islohotlar yangi Uyg‘onish davrining tayanch ustunlari deya e’tirof etilgan ustozlardan o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar shaxsni kamol toptirish, bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekistonni bunyod etishga qodir avlodni voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifani talab etmoqda. Ta’lim tizimida milliy tajribalardan kelib chiqqan holda o‘qitishning zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Bilim egallashning samarali bo‘lishi uni qay darajada mukammal tashkil etilishiga bog‘liq. Jahon adabiy ta’limida keng foydalanib kelayotgan konstruktivizm nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmida J.Piaje, L.S.Vigotskiylarning ilmiy izlanishlari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, u o‘quvchining mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga, ta’limda egallangan bilim va ko‘nikmalarni shuningdek, shakllangan tajribalarni amaliy hayotda qo‘llay olishini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quvchining fanni amaliyot bilan qo‘llash malakasi ortadi. Konstruktivizm atamasi lotincha “constructio”– “qurilma”, “qurilish” so‘zlaridan olingan bo‘lib, bunda o‘quvchi talimning faol subyekti sifatida mavjud bilim va tajribalar asosida o‘z bilimlarini “konstruksiya” qiladi, ya’ni quradi. “...bilim passiv yo‘l bilan o‘zlashtirilmaydi, uni idrok etuvchi subyekt faol quradi”. **[1]** Konstruktivizm nazariyasi asosida bilimlarni o‘quvchiga tayyor shaklda yetkazish emas, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini loyihalash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratish g‘oyasi yotadi. Umumiy nuqtayi nazardan, konstruktivizm juda oddiy haqiqatni aks ettiradi: ”Bilish jarayoni faol jarayon bo‘lib, o‘zimizni hayotda, ijodda, ta’limda shaxs sifatida, jamiyatning bir qismi sifatida kashf etamiz. Hayot davomida har birimiz atrofimizdagi dunyoni o‘z tushunchalarimiz asosida ishlab chiqamiz. Shuning uchun har bir inson dunyoqarashi, e’tiqodi, hayotiy tushunchalari bilan noyobdir”. [2]

Konstruktivizmga asoslangan ta’limda o‘qituvchi bilimlarni o‘quvchiga tayyor shaklda yetkazishni emas, muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun motivatsiya berish shuningdek, zarur pedagogik shart-sharoit yaratishni maqsad qiladi. Natijada o‘quvchi ilgari olingan tajriba, bilimlari asosida aqliy faoliyati orqali o‘z bilimlarini yaratish

imkoniga ega bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi dars beruvchi o‘qituvchi emas, o‘quvchining mustaqil aqliy faoliyati uchun sharoit yaratuvchi va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotchi, o‘quvchilar o‘rtasida jamoaviy hamkorlikni ta’minlovchi fasilator (ma’lum maqsadni amalga oshirishni rejalashtirishga yordam beruvchi) vazifasini bajaradi.

Bu yondashuv ta’lim muhitida o‘quvchini nofaol axborot oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Konstruktivist o‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil etishda puxta reja asosida ish ko‘radi, o‘quv maqsadlarini aniqlab, muammolarni belgilab oladi. Bu talablar o‘quvchilarni dars materiallarini chuqurroq tushunishga, mazmunli muhokamaga kirishishga, o‘z nuqtayi nazarlarini, taxminlarini va farazlarini ifoda etishga undaydi. Vigotskiy ta’rifi bilan aytganda “Biz o‘quvchiga o‘rganishni o‘rgatishimiz kerak”. Konstruktivizmni ta’limga qo‘llash natijasida dars jarayoni interaktiv jarayonga aylanib, o‘quvchi bu jarayonning markazini egallaydi. O‘qituvchi esa boshqaruvchi sifatida ulardagi yetakchilik, hamkorlik, chuqur muhokamaga kirishish, tashabbus ko‘rsatish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rag‘batlantirib, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Bunday yondashuv o‘z navbatida ta’limda o‘quvchilarga yangi imkoniyatlarni eshigini ochib, ularda mavjud bilimlarga tayanib yangiliklar yaratishga undaydi. Shu bilan birga dars jarayonida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, yashirin bilimlarni amalda qo‘llab ko‘rish, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, tajriba orqali o‘rganish hamda o‘rganganlarini amalda qo‘llab ko‘rishni ma’qullaydi.

Konstruktivistik ta’limda o‘qituvchining asosiy vazifasi, darsning barcha bosqichlarida o‘quvchining maksimal aqliy faolligini ta’minlashdan iborat. A. Veyl -Bare ta’kidlaganidek, “…bola faol, jonli o‘quv jarayonida o‘rganadi”. **[3]** O‘quvchi o‘zini fasilatorning ta’sir obyekti sifatida emas, balki o‘quv faoliyatining teng huquqli ishtirokchisi ekanini his qilishi uchun o‘qituvchi har bir darsning maqsadlarini to‘g‘ri shakllantirilishi kerak. O‘quvchilar yangi bilimni tushunishda o‘z tajribasiga tayanishi, o‘rganilayotgan hodisani mavjud ilmlari bilan taqqoslashi, yangi

bilimning mazmuniga qarab, o‘qituvchi ma’lumot berishidan oldin ma’lum ma’noda o‘z g‘oyasini shakllantirib, ilgari surishlari kerak. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida ko‘tarilgan mavzuning sababini aniqlashdan oldin Jadidlar harakatning maqsad-mohiyati to‘g‘risida tasavvurlarni aniqlash kerak. Shunda avvalgi bilimlar o‘quvchi tomonidan yangi bilimga moslashtiriladi va mavjud bilimga yangi ma’lumotlar qo’shilib mustahkamlanadi. Ijtimoiy konstruktivizm asoschilarining tasdiqlashicha, o‘quvchi yangi bilimlarni qurishda nafaqat o‘zining avvalgi bilimlariga, balki uni o‘rab turgan muhit ham uning bilimlarini qayta shakllantirishga asos bo‘ladi. Bunday o‘rganish tengdoshlari, jamoadoshlari bilan muloqot qilish asnosida amalga oshib, o‘quvchida ”men buni bilmas edim” degan tushunchalarni paydo qilishi mumkin. Natijada ular guruhda bir-birlarining bilimlarini to‘ldiradilar, muammoning yangi – original yechimlarini topish uchun motivatsiya oladilar. Amerikalik yozuvchi, ta’lim masalalari bo‘yicha spiker Mark Prenski ta’kidlaganidek, “Motivatsiyalangan talabani to‘xtatib bo‘lmaydi”. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelamizki, konstruktivizmga asoslangan ta’lim o‘qituvchi avvalambor, o‘quvchining nimani o‘rganish kerakligini belgilab olib, darsda qo’yiladigan muammoni aniq ishlab chiqishi lozim. Bunda ishlab chiqilgan umumiy ko‘rsatmalar o‘quvchini bilim olish jarayoniga yo‘naltirib, bilimlarni to‘ldirib, qayta qurishga o‘rgatishi kerak.

“Konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asosida ta’limda “o‘quvchi – faol” yondashuvi (student-centered learning) yuzaga kelgan. Ushbu yondashuvning muhim xususiyatlari o‘qitishda o‘rganuvchi faolligini oshirish va ta’lim jarayonlarini individullashtirishdan iboratdir”. [4]

Adabiyot darslarida o‘quvchini badiiy asar olamiga olib kirish, o‘qilgan asarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishda konstruktivizm nazariyasi asosida ish ko‘rish samarali ta’limga xizmat qiladi. “O‘quvchi bilimni tayyor holda qabul qilishi kerak emas, balki o‘rganish jarayonida tengdoshlari bilan muloqot orqali bilimni o‘zi yaratishi kerak, degan g‘oya yotadi. Ya’ni o‘qituvchining vazifasi

transmissiya (tayyor bilimni o‘quvchiga yetkazish) emas, balki o‘quvchilarning “kashfiyot” qilishlari uchun shart-sharoit yaratishda ko‘riladi”. [5]

Bunda o‘qituvchi o‘qilgan badiiy asar asosida shunday savol va topshiriqlar tanlanishi kerakki, ular o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatdagi bilimlarini rivojlantirib borishi, ularning individual qarashlari hamda ijodiy, tanqidiy fikrlarini rag‘batlantirishga xizmat qilishi lozim. Konstruktivizmga asoslangan ta’limda har bir o‘quvchi o‘z bilimining me’moridir, chunki darsda badiiy tahlilga olingan asarni hamma o‘z tafakkuri darajasida qabul qiladi, unga turli rakurslardan nazar tashlaydi. Qolaversa, badiiy asardan olgan haqiqatini o‘quvchining o‘zi kashf qilishi kerak, shundagina muayyan badiiy asardan olgan nazariy tushunchalarini amaliy ko‘nikmalari bilan parallel rivojlantira oladi.

Xulosa qilib aytganda, jahonning ilg‘or, vaqt tajribasidan o‘tgan va sinalgan nazariyalaridan biri bo‘lgan konstruktivizmni adabiy ta’limda qo‘llash bilimni tayyor holda emas, dars jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish asnosida o‘quvchilar tomonidan “yaratilishi’, “kashf qilinishi”, muammoga turlicha yondashib, har xil yechimlar taklif qilinishi, boshqa fanlar bilan integratsiyaning ta’minlanishi, jamoa bo‘lib bir-birini tinglash va bir-biridan o‘rganish ko‘nikmalarining shakllanishi va o‘quvchi tanqidiy tafakkurining rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Glasersfeld E. von. Radical Constructivism. – L., 1996. – P. 18.
2. Побережный А. Конструктивизм в теории и практике образования//Высшее образование в России.– М.: 2007. № 5– С.142-144.
3. Вейл-Барэ А. Конструктивистский подход и преподавание естественных наук // Перспективы. – М.; Париж, 2001. – Т. 31. –№ 3. – С. 113.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi (An’anaviylikdan zamonaviylikka) uslubiy qo‘llanma. – T.: 2020. – B. 165.
5. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot darsi-hayot darsi bo‘lmog‘i lozim. Ma’rifat,2020.–B-3.

SA’DIY VA XOJA HIKOYATLARIDA ODIL SHOH OBRAZI

Nurzod Norqulov
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada mumtoz adiblar Sa’diy va Xoja ijodiga nazar tashlangan. Ularning ta’limiy-tarbiyaviy xarakterdagi hikoyatlarida odil shoh obrazining g‘oyaviy-badiiy jihatlari qiyosiy tahlil etilgan. Sa’diy va Xojaning hikoyat yaratish borasidagi uslubi, o‘ziga jihatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Sa’diy, Xoja, hikoyat, ta’limiy, tarbiyaviy, odil shoh, tahlil, g‘oya, badiiy mahorat.

Annotation

This article looks at the work of the classic writers Saadi and Khoja. Their educational stories are a comparative analysis of the ideological and artistic aspects of the image of a just king. Saadi and Khoja's style of storytelling has been studied.

Key words: Saadi, Khoja, story, educational, pedagogical, just king, analysis, idea, artistic skill.

Sharq mumtoz adabiyotining boy adabiy merosini jamiyat ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti talablari asosida o‘rganish, chuqur insonparvarlik, diniy bag‘rikenglik g‘oyalari va komil inson falsafasi keng targ‘ib etilgan asarlarni tadqiq va tahlil qilish orqali turkiy adabiyotdagi barhayot an’analarning umuminsoniy jihatini ochib berishning ahamiyati benihoya ulkandir. Hozirgi zamon dunyo adabiyotshunosligida sharq adabiyotining buyuk mutafakkirlari Sa’diy Sheroziy va Podshoxoja (Xoja) adabiy merosini tarixiy-qiyosiy yo‘nalishda o‘rganish, ikkala ijodkor hikoyatlaridagi mavzu, g‘oya, badiiy obrazlar tizimi jihatidan o‘zaro qiyoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy-madaniy, diniy-tasavvufiy, ilmiy-falsafiy, axloqiy, ta’limiy merosimizni o‘rganishdagi bo‘shliqni to‘ldirish va uni rivojlantirish hozirgi bosqichning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Buni o‘quvchilar, talabalarning milliy-madaniy birligi manbayi bo‘lgan ma’naviy poydevordan boshlash kerak. Chunki, har qanday madaniyatning asosida turli xil diniy, falsafiy, axloqiy aqida va ta’limotlar yotgan bo‘lib, ularni o‘rganmasdan, xalqlar madaniyatining shakllanishida asosiy sarchashma hisoblangan ma’naviy manbani bilish mumkin emas.

Mumtoz adabiyotda Sa’diy kabi ulug‘ siymo qatorida kichik hajmdagi masal va hikoyatlarida o‘zining ijtimoiy-axloqiy, falsafiy, diniy-tasavvufiy hamda ta’limiy

qarashlarini yaratgan ijodkorlardan biri Podshoxoja (Xoja)dir. Koʻpgina manbalarda Xoja asarlari Sa'diyning "Guliston" va "Boʻston" asarlaridan ta'sirlanib yozilganligi va tuzilishi, gʻoyasi, mavzusi oʻxshashligi aytiladi. Xoja qarashlarida xalqchillik, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi davrning ilgʻor gʻoya va fikrlari falsafiy hamda axloqiy-ta'limiy ruhda berilgani kabi bunday gʻoyalar Sa'diy asarlarida ham oʻz aksini topgan. Shuning uchun Xoja merosi dunyoqarashini ta'lim-tarbiya, axloqiy va umuminsoniy gʻoyalar taraqqiyoti, tarixiylik nuqtayi nazaridan xolisona oʻrganish uchun uning ijodini Sa'diy kabi mumtoz adabiyot vakillari ijodi bilan qiyoslab tadqiq qilish adabiyotshunoslikning muhim vazifasidir.

Ikki yirik ijodkor asarlarida keltirilgan hikoyatlarda uchraydigan podshohlar obrazi gʻoya va mavzu ifodalash maqsadi yuzasidan bir-birini toʻldirsa-da, hikoyatlarda oʻziga xos farqli jihatlar mavjudligi koʻrinadi. Podshoxoja hikoyatlarida podshohlarni adolatga undash, xalq uchun odil shoh boʻlish, mehribon va saxovatli boʻlish talablarini qoʻyish kabi oʻziga xosliklar hikoyatlar maqsadini tashkil qiladi. Podshoxojaning "Miftoh ul-adl" asarining markaziy qismini xalq orzu qilgan odil, insofli shoh obrazi yaratilgan bir qator hikoyatlar tashkil qiladi. Podshoxoja xalq ideali boʻlgan ozod va farovon jamiyatga adolatli hukmron – shoh orqali erishiladi deb tushungan. Shuning uchun ham Podshoxoja hikoyatlarining qahramoni boʻlgan odil hukmdor koʻklarga koʻtariladi, boshqalarga oʻrnak sifatida ta'riflanadi. Xoja adolatli shoh obrazi orqali oʻz davlatida baxtli, teng hayotga erishishning birdan-bir asosiy faktori odil shoh obrazini bergan, chunki Xoja fikricha, mamlakat, davlat tepasida aqlli, adolatli, oliyjanob shoh turgandagina mamlakat obod boʻlib, xalq mamnun yashashi mumkin, shuning uchun ham barcha shohlarning shunday adolat bilan ish koʻrishini istaydi va shuning uchun ham odil-ideal shoh uning deyarli hamma hikoyatlarining gʻoyasini tashkil etadi. Bu borada Sa'diy hikoyatlarida keltirilgan shoh obraziga adolatli shoh sifatidan koʻra mehribon va saxovatli podshoh boʻlish uchun muhim sanalgan sifatlarni beradi. Bu jihat Xoja hikoyatlarida ham uchrasada, biroz farqli talqin qilinadi.

Xoja hikoyatlarida odil shohlar va ular adolati, saxovati haqida oʻz tushunchalarini beradi. Bunda u diniy aqidalar orqali ularga suyangan holda shohlarni adolatga chaqirish bilan birga xalqqa mehribon, jonkuyar va saxovatli boʻlishni ham targʻib qiladi. Bu maqsad “Ajoyib shahar” hikoyatida quyidagicha bayon qilinadi. Iskandar Zulqarnayn bir viloyatga etishdi. Koʻrdiki, suruv-suruv qoʻylar. Tuyalar, yilqilar yuribdi, egalari yoʻq. Ularning hammasi bir-biridan ziyod yoki kam emas. Bogʻlarda mevalar pishib yotibdi, bogʻboni yoʻq. Iskandar lashkarlari bu mevalardan esa xasta boʻlar edi. U hech narsaga teginmaslikni buyurib, viloyat ichkarisiga bir kishini yubordi va ahvolni bilishni tayinladi. U kishi borsa bozorlari orasta, doʻkonlar farovon, ammo odam koʻrinmaydi. Oxir bir odamni topib, ahvolni soʻradi. U kishi aytdiki: “Barcha xaloyiq ibodatxonada, ibodat bilan mashgʻul”. Ular ibodatxonaga bordilar va Iskandar kelganini xalqqa bildirdilar. Darhol xaloyiq podshohlarini boshlab, tortiqlar qilib, Iskandarga peshvoz chiqdilar. Iskandar ulardan koʻrganlarining sababini soʻradi. Xalqning podshohi aytdi: “Bizning oramizda biror kishi kambagʻal boʻlsa, barimiz yigʻilib, u kishini oʻzimiz bilan teng qilamiz. Shuning uchun bizning oramizda oʻgʻri boʻlmas. Kimki undan olsa ham xasta boʻlur. Iskandar unga olamning yarmini boshqarishni taklif etdi. Biroq, u podshoh imkoniyati faqat oʻz davlatiga etishini, undan ogʻirini bajarolmasligini tan oldi. Iskandar ham uni ma’zur tutdi [Podshoxoja. 12].

Hikoyatdan anglashilganidek, Xojaning adolatli jamiyat haqidagi qarashlari ijtimoiy-falsafiy va siyosiy tafakkuri juda teran. Podshoxoʻja oʻz qarashlarida mamlakatda ijtimoiy adolat, tinchlik, farovonlik oʻrnatishning asosiy yoʻli bu – odil va bilimli podshoh faoliyati deb hisoblagan. Uning fikricha, podshoh har bir harakatini, har bir faoliyatini adolatli olib borsa, xalqning dardini tushunsa, unda, uning atrofidagi arkonu davlat ham, oddiy fuqarolari ham hukmdoridan ibrat olib, xatti-harakatlarini farovon hayot yoʻliga qaratadilar.

Sa’diy “Guliston”da keltirilgan hikoyatlarida oʻz davridagi eng muhim va siyosiy-iqtisodiy va axloqiy masalalarni talqin etar ekan oʻz davri kishilarining xilma-xil obrazlarini yaratadiki, bu obrazlarning umumlashtiruvchi kuchi ham,

ta’sir doirasi ham asarning didaktik ahamiyat kasb etishiga xizmat qiladi. Sa’diyning hikoyatlari ham Podshoxojaning asarlari singari xalq farovon va baxtli hayoti umidi bilan yozilgan. Uning ilg‘or orzulari umumbashariyat orzulari bilan hamohang. Shuning uchun ham bu asar jahon adabiyoti durdonalari qatoridan joy olgan. Sa’diy hikoyatlari Podshoxoja hikoyatlaridan o‘ziga xos didaktikasi va talqin yo‘sini bilan farqli. Sa’diy o‘z hikoyatlarida g‘oyani beradi, unga mavzu ko‘rsatadi, obrazlarni mukammal tasvirlaydi, voqelar natijasi va xulosani o‘quvchiga qoldiradi. Xoja hikoyatlarida esa mavzu maqsadi ko‘zlangan masala hikoya ichida to‘la yoritiladi. Natijada o‘quvchi hikoyatni o‘qib, tugal bir xulosaga ega bo‘ladi. Bu fikrni Xojaning yuqoridagi hikoyati va Sa’diyning quyida beriladigan hikoyati misolida ko‘rib chiqamiz.

Bir shahzodaning otasidan behadu hisob molu mulk meros qoldi. Shahzoda saxovat qo‘lini ochib, mislsiz in’om-ehsonlar bilan lashkar va fuqarolarga sovg‘a salomlar berishga boshladi. Kunlardan bir kun shahzodaning tadbirsiz, nodon oshnalaridan biri unga nasihatga kirishib, dedi: “O‘tgan podshohlar bu mol dunyoni zo‘r urinish va harakatlar bilan qo‘lga kiritib, yomon kunda yarar, deb to‘plaganlar. Bunday saxiyligingni bas qil, chunki ko‘plab hodisalar oldinda-yu, dushmanlar esa ortdadirlar. Muhtojlikka tushgan mahalingda nochor qolish durust emasdir”.

Bu so‘z shahzodaga yoqmadi, u yuzini teskari o‘girib nasihatgo‘yni tanbehlashga buyurib dedi: “Ollohi taolo bu mollarni menga saqlab qo‘yish uchun emas, balki o‘zim eyishim va boshqalarga berishim uchun baxsh etgandir” [Sa’diy. 1968. 48]. Keltirilgan ikki mutafakkirning hikoyatlarida ham saxovatli va odil hukmdorlar xususida so‘z boradi. Xoja hikoyati obrazlarida bir hukmdor orqali podshohga pand-nasihat qiladi. Sa’diy esa hikoyatda to‘g‘ridan to‘g‘ri shahzoda obrazi tilidan o‘z g‘oyaviy maqsadini ifodalaydi. Hikoyatdan o‘quvchi shahzodaning saxovati va haqgo‘yligi haqida xulosa chiqaradi. Ammo yana bir o‘quvchi hikoyatda shahzoda noto‘g‘ri yo‘l tutayotganini rostdan ham oshnasi aytganidek, agar dushmanlar kelib qolsa bu mol-mulk as qotishi haqida o‘ylagan bo‘lishi ham mumkin. Xoja hikoyatida esa hech qayeri qo‘riqlanmaydigan shahar

nima uchun qo‘riqlanmasligi va xalq qanday, nima asosida farovon hayot kechirayotgani bir xulosa bilan yakunlangan. Ikki hikoyat ham xalq farovonligi aks etgan hayotni ko‘rsatish g‘oyasi bilan sug‘orilgan. Sa’diyning hikoyati uslubi o‘quvchiga bilim berish bilan birga uni o‘ylashga, mustaqil tanqidiy fikr yuritishga undaydi. Xoja hikoyati esa Sa’diy ijodidan sug‘orilgan manba sifatida o‘quvchini amaliy xulosalar keltirib chiqarish ko‘nikmalari bilan qurollantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ikki ijodkor ham o‘z qarashlarida adolatli va saxovatli podshohlar timsolini yaratdi, ular vositasida elparvar, yurtparvar podshohni tarbiyalash yo‘lidan borgan. Mutafakkirlar hikoyatlari har bir davr, makon uchun zaruriy didaktik omil vazifasini o‘taydi. Hikoyatlarda ulug‘langan axloqiy fazilatlar sodda, ravon bayoni bilan har bir o‘quvchi xotirasida uzoq saqlanadi va bu g‘oyalar o‘quvchilarning axloqiy shakllanishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Siroj G‘oziyev. Podshoxoja qarashlarida ijtimoiy axloq masalasi. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999.
2. Marg‘uba Mirzaahmedova. Xoja (hayoti va ijodi). – T.: O‘zbekiston SSR “fan” nashriyoti. 1975.
3. Podshoxoja. “Miftohul adl” va “Gulzor”.
4. Sa’diy. Guliston. G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. – T.: 1968.

BADIIY ASARLARDA RAMZIY OBRAZLARNING O‘RNI (QUSHLAR OBRAZI MISOLIDA)

Mohichehra Muhammadiyeva
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti
anyora@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida ramziy obrazlarga berilgan ta’riflar o‘zaro qiyoslanib, tahlil etilgan. Ramziy qush obrazlarining o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi izohlangan. Ramz (simvol) va uning badiiy vazifasi haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ramz, majoz, simvol, allergoriya, ramziy qush obrazi

Annotation

This article compares the definitions of symbolic images. The introduction of symbolic bird images into Uzbek literature is explained.

Key words: Symbol, metaphor, allegory, symbolic bird image.

Badiiy ijod jarayonida qo‘llaniladigan ramzlar o‘zining xarakteri, imkoniyatlari va bajariladigan vazifalari jihatidan alohida qimmatga ega. Borliqni o‘z holicha emas, badiiy aks ettirishning turlaridan biri ramz hisoblanib, u qadimdan to bugungi adabiy jarayongacha yashab kelmoqda. Ramziy obrazlarni o‘rganish rus adabiyotshunosligida kengroq suratda XX asr boshlaridan amalga oshirildi. N. Kostomarov [Kostamarov,1860] xalq og‘zaki ijodi poetikasi bo‘yicha shug‘ullangan folklorshunoslar ichida birinchilardan bo‘lib, bu borada samarali ishlarni olib borgan. Ramz o‘tgan asrning 80-yillaridan keyin xitoy adabiyotshunosligida teran tadqiq qilina boshlangandan so‘ng, olimlar tomonidan bu atamaga nisbatan turli farq qiluvchi qarashlar ilgari surila boshladi. Buning natijasida ramz haqida chuqur ilmiy asoslangan nazariy qarashlar paydo bo‘ldi. Ramzning mohiyati haqidagi savollar Aristotel zamonidayoq ilm ahli oldiga qo‘yilgan va to hozirgi kunga qadar bu masala oid turli xil qarashlar ilgari suriladi. O‘zbekiston milliy Ensiklopediyasida ramz (arab – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog‘liq bo‘ladi va ko‘p ma’noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko‘pchilik xalqlar adabiyoti va san’atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. [Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006:346]. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ramzga quyidagicha ta’rif beriladi: “Ramz – biror g‘oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora”. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3-том, 2006: 243] Adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida “Ramz – (arabcha so‘z bo‘lib – imo-ishora, imlash) simvol, ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchiso‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allergoriyaga yaqin undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Ramzning ma’nosi kontekst doirasida va shartda xabardorlik

bo‘lganda reallashadi”. [Quronov, 2010: 125]. Ramzning ingliz tilidagi muqobili hisoblangan “symbol” mantiq, tilshunoslik, psixologiya sohasida odatda, belgi tarzida izohlanadi; badiiy san’at dinshunoslik kabi doiralarda esa u “ramz” sifatida anglashiladi. Simvol – obraz va simvol – belgining o‘ziga xos xususiyati, farqlari N. Kostomarov tomonidan ham ancha to‘gri hal qilingan. Kostomarov simvollashtirishning turli ko‘rinishlarini bir-biridan farqlanishini inson psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq holda olib qaraydi. “Simvollashitirsh nisbatan turli sohalarda uchraydi. Farqi shundaki, ayrim hollarda (ya’ni nozik simvollarda) simvol insonning mavjud psixik xususiyatlariga suyangan holda yuzaga keladi. Boshqalarda esa, (simvol belgida) u sun’iy bo‘ladi, shuning uchun ham o‘ta shartli mohiyatga ega”. [Kostamorov,1860]. Simvol keng ma’noda (grekcha simvol so‘zidan olingan bo‘lib qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot a’zolarining bir-birini tanib olish uchun qo‘llanadigan tarixiy belgisidir) belgi tushunchasini anglatadi. Poetik simvol tashqi ko‘rinish, belgi bo‘lib, undagi aniqlik, ko‘rgazmalilik, ayni vaqtda badiiy shartlilik vositasida unga nisbatan kengroq abstrakt ma’no ifoda etadi. Bu simvol obrazga taalluqlidir. Simvol – belgi esa ma’nosiga xos bo‘lgan sifatlarni, xususiyatlarini o‘zida to‘liq mujassamlashtirmaydi. Gegelning fikricha, belgidagi mohiyat va ifoda o‘rtasidagi bog‘lanish, aloqa ularning tasodifiy birlashishiga asoslanadi, xolos. Simvol – belgidagi mohiyat va ifoda o‘rtasida ichki bog‘lashining bo‘lmasligini matematik, fizik, ximik simvollarda uchratishimiz mumkin. [Шаропов, 1978: 120]. Simvol tushunchasi faqat san’atda emas, me’morchilik, matematika, fizika, kimyo, kibirnetika, tilshunoslik, falsafa kabi ijtimoiy aniq fanlarda ham keng qo‘llaniladi. Shuning uchun ham keyingi paytlarda simvollarning turli sohalarda qo‘llanishi imkoniyatlarini o‘rganish ularning ba’zilaridagi bir-birlaridan farqlanuvchi tomonlarini aniqlash bilan bog‘liq semiotika fani vujudga keldiki, bu simvollar masalasini o‘rganishning muhimligi uni, ya’ni simvol – belgini badiiy adabiyotdagi simvol obraz bilan aralashtirib yubormaslik lozimligini ko‘rsatadi. “Vebster ingliz tili lug‘ati” da ramz atamasiga shunday ta’rif beriladi: “Biror narsa-buyum, voqea

hodisaning o‘rnida yoki ishora sifatida foydalanish bo‘lib, idrok etish va munosabat, assotsatsiyalashuv, oldindan belgilangan yoki belgilanmagan o‘xshashlik. Asosan, ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan narsa-buyum orqali iroda, sifat yoki ma’lum davlat, diniy jamiyatning umumlashma ifodasi. Masalan, “sher” – jasurlik ramzi, “xoch” – xristian dinining ramzi”. [https:/www.merriam-webster.com/dictionary/symbol]. Biz keltirib o‘tgan ta’riflar ramzning lug‘aviy ma’nosini izohlashga xizmat qiladi. Ramz keng ma’noda voqelikni jonli mushohada qilish orqali yuzaga kelgan tasavvurdan iborat. Hamidulla Boltaboyev ramz va ramziylikka xos belgilarni quyidagicha ifodalaydi. “Ramz... faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma’no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramzning ma’nosi kontekst doirasida va shartdan xabardor bo‘lganda reallashadi. Cho‘lpon she’riyatidagi “yulduz”, “bahor”, “qish” obrazlari ramzning yorqin misoli bo‘la oladi. Jumladan, “Qalandar ishqi” she’rini ishqiy mavzudagi she’r deb tushunaverish mumkin. Biroq undagi ramzlar qatida boshqa ma’no ham mustaqil holda mavjud bo‘lib, uni o‘z vaqtida shoirga ruhan yaqin bo‘lgan kishilar yaxshi tushunishgan. Sababi ular ramzlarning ma’nosi anglashiladigan kontekstdan shoirning hayot yo‘li, orzu-intilishlari, she’r yozilgan paytdagi ruhiy holati va hokazo omillardan xabardor bo‘lganlar”. [Болтабоев,2014: 290]. O‘z tabiatiga ko‘ra ramz biror voqelik to‘g‘risida umumlashma bo‘lib u aks ettirayotgan narsaning yolg‘iz o‘ziga ishora qiladi. Taniqli rus faylasufi A.F. Losev aytganidek, ramz narsaning mazmuni, mohiyati bo‘lsa ham, biroq har qanday mazmun va mohiyat narsaning ramzi bo‘la olmaydi.[Losev, 1991: 258]. Ushbu fikrdan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, narsaning har qanday mazmun-mohiyati ramz bo‘la olmaydi. Narsaning mazmun-mohiyati ramzga aylanishi uchun ular o‘ziga xos ravishda qayta idrok etilishi, ma’lum darajadagi shartlilik asosida ko‘pchilik tomonidan bir xilda qabul qilinadigan darajaga etishi kerak bo‘ladi.Ramziy obrazlarning qamrovi keng bo‘lganligi sababli,

biz ramziy qush obrazlariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Qushlar obrazining adabiyotda kirib kelishi xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Mifologik qush obrazining kelib chiqishi haqida folklorshunos olim Komil Imomov shunday fikrlarini bayon etadi: “Avesto” kitobida bir qator asotir qushlar olov shaklida naql etilgan. Shuningdek, talqinda har bir qushga mansub qo‘shqanotlar ham ilohiylashtirilgan. Shundan bo‘lsa kerak, majusiylar quyosh olovini orzu qilishgan va osmon olovidan qo‘shqanot qushlargina olib kelishi mumkin, degan qat’iy fikrni ma’qullashgan. Ongsiz mushohadaga idroksiz munosabat mifologiyada ilk bor olov keltirgan qush motivinining paydo bo‘lishiga olib kelgan. [Imomov, 2011: 24]. Bu qarashlar natijasida afsonaviy qush obrazlari paydo bo‘la boshlaydi va adabiyotimizda keng foydalanadi. Zuhra Mamadaliyeva qushlar obraziga quyidagicha ta’rif beradi: “Qushlar jahon xalqlari mifologiyasida katta ahamiyatga ega bo‘lib, voqealar jarayonida birdaniga paydo bo‘luvchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin o‘zgartiruvchi unsur sifatida e’tirof etiladi. Ular, asosan, ilohiyot bilan odamlarning o‘rtasidagi ko‘prik sifatida, yuksaklik va osmon ramzi timsolida talqin qilingan. Qushlar timsoli boshqa ko‘pgina xalqlardagi singari turkiy xalqlar mifologiyasida ham ilohiy olam bilan muloqot qiluvchi vosita sifatida ifodalangan. Odam o‘lganidan keyin yoki uyqusida ruhi qushga aylanib uchib ketishi haqidagi tasavvurlar xalq odatlari va folklorda, xususan, “Mayna”, “Opa-uka”, “Dev qiz”, “Gunohsiz musicha”, “Rustam” kabi ertaklarda o‘z aksini topgan. [Mamadaliyeva, 2014: 14].

Turkiy yozma yodgorliklar orasida Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” deb nomlangan nasriy asarida ham bir qator ramziy obrazlar berilgan va shu sababli biz bu asar haqida ham to‘xtalib o‘tishga qaror qildik. Asar muqaddimasida aytilishicha, Xorazmda Rabot o‘g‘uz degan joyning qozisi Burhoniddin o‘g‘li Nosiruddin tomonidan musulmon dinini qabul qilgan mo‘g‘ul beklaridan hisoblangan Nosiruddin To‘qbug‘aning iltimosiga ko‘ra hijriy 709 (milodiy 1309-1310) yilda yozilgan[Fozilov, 1991: 6]. “Qissa” payg‘ambarlar to‘g‘risidagi ilk turkiy

tazkira bo‘lganligi bilan ahamiyatlidir. Unga asos qilib muallif albatta, Qur’oni karimda keltirilgan bir qator rivoyatlarni oladi.Qur’onda bo‘lmagan tafsilotlarni boshqa rivoyatlardan, Abu Is’hoq Nishopuriyning “Qisas ul anbiyo”sidan, islomga oid kitoblardan keltiradi.Asar badiiy adabiyot namunasi sifatida ham ahamiyatlidir.Sababi unda tafsirlar, hikoyatlar oddiy bayonchilik uslubida bo‘lmay, obrazli tilda so‘zlaydigan badiiy asar talablariga javob beradigan holda yaratilgan.Bu haqda adabiyotshunos olim I.Ostonaqulov quyidagilarni yozadi: “Qisasi Rabg‘uziy” boshdan-oyoq bir syujet chizig‘iga ega bo‘lmagan asar. O‘ttiz uch payg‘am bar, to‘rt sahoba, etti tarixiy shaxs va adabiy qahramonlar to‘g‘risidagi mustaqil qissalardan iborat bir necha hikoyat va rivoyatlardan tashkil topgan bo‘lib, har bir mustaqil hikoyat yoki rivoyat mazmun jihatidan asosiy qissaga bog‘lanadi” [Ostonqulov, 1993: 9].Asardagi shunday obrazli ifodalardan biri undagi ramziy timsollaridir.Jumladan, asardagi “Yilon va Qarlug‘och qissasi”da aytilishicha, Nuh to‘fonida kema teshilib qoladi.Yilon kulcha bo‘lib teshikni berkitadi. Bu yordami uchun Nuh a. s. unga dunyodagi “eng totli et” eyish uchun ruxsat beradi. To‘fon tingach, “eng totli et” nimaligini tatib ko‘rib, aniqlab kelish uchun arini yuborishadi.U kelavermagach, qaldirg‘och uni izlab ketadi.Yo‘lda arini ko‘rgan qaldirg‘och undan nimaning go‘shti shirin ekanligini so‘raydi.Ari odamning go‘shti eng shirin ekanligini aytadi. Qaldirg‘och hiyla bilan arining tilini cho‘qib oladi va natijada uning gapiga hech kim tushunmaydi. Qaldirg‘och esa arining so‘zlarini go‘yo tarjima qilgandek bo‘lib, eng shirin go‘sht qurbaqaning go‘shti ekanligini aytadi. Va’da bo‘yicha ilonga qurbaqa go‘shti buyuriladi [Nosiruddin Rabg‘uziy, 1991: 43-44]. Shu yo‘l bilan qaldirg‘och butun insoniyatni ilonga em bo‘lishdan qutqarib qoldi. Bu rivoyatning ta’siri natijasida qaldirg‘och nafaqat adabiyotimizda, balki xalqimiz orasida ham “do‘st” ramziga aylandi. Qaldirg‘ochning insonlarni sevishi haqidagi lavhalari qissaning boshqa o‘rinlarida ham uchraydi. Ibrohim (a.s.) Namrudning shartiga ko‘nmagach,

uni yoqish uchun olovga otadi. Qaldirg‘och esa uni o‘chirish niyatida tumshig‘ida suv tashiydi [Nosiruddin Rabg‘uziy, 1991: 44]. Zero, Qaldirg‘och tumshug‘ida tashigan suv olovni o‘chirishga yordam bermasada, uning bu ezgu amali tahsinga sazovordir. Qaldirg‘och ramziy obraz sifatida mumtoz adabiyotdan tortib, to bugungi kun zamonaviy adabiyotda ham keng doirada qo‘llanilib kelinmoqda. Bunga biz Xurshid Do‘stmuhammadning “Beozor qushning qarg‘ishi” asarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ushbu asarda qaldirg‘och baxt va omad ramzi sifatida qo‘llanilgan. Asar qahramoni Qadriya sofdil va mehribon qiz bo‘lib, xuddi qaldirg‘ochlardek beozor. Ularning uylariga qaldirg‘ochlar in quradi va ular baxtli hayot kechira boshlashadi. Lekin qadriyaning otasi bag‘ritoshlik qilib qaldirg‘ochlar inini buzadi va uydan fayz-baraka ketadi. Bundan tashqari, beozor qushlarning qarg‘ishi sababli, Qadriyaning yaqinda to‘y qilib uzatilgan opasi Zumrad eridan ajralib uyiga qaytib keladi. Xalqimizning yaxshi odatlari, e’tiqodlari, hurmat qilmaydigan, beozor qushlarga toshbag‘irlik qilgan Qadriyaning otasi boshqa vaqtlarda va boshqa ishlarda ham toshbag‘irlik bilan ish tutishi la’natlanadi.Yana bir ramziy qush obqazlarida biri qarg‘a obrazidir. Qarg‘a – qadimiy, sirli va murakkab obraz bo‘lib, dunyo xalqlari folklor namunalarida er, erosti, osmon, quyosh, suv bilan bog‘liq qarashlarda uchraydi.Afsonalarda aytilishicha, Nuh payg‘ambar to‘fonning 40 -kuni kema darchasini ochib quruq er xabarini keltirish uchun avval qarg‘ani, keyin kabutarni uchirib yuboradi. Qarg‘aning mas’uliyatsizligi va xiyonatidan farqli holda kabutar ikkinchi marta uchurib yuborilganida quruq er xabarini zaytun navdasini keltirish orqali ma’lum qiladi[Shukurova, 2020; 72]. Shundan so‘ng kabutar tinchlik, osoyishtalik, poklik ramziga aylanadi va qarama-qarshi obraz sifatida adabiyotda qo‘llanila boshlanadi.Bunga misol qilib Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi “Kabutar va Zog‘” masalini olishimiz mumkin.Masalda qarg‘aning o‘z nafsiga yengilishi uni halokatga boshlaydi [Gulxaniy, 1960: 23]. Xususan, donishmand qarg‘a Apollonga uning sevimli

ilohasining xiyonatini aytib berganda Apollon qayg‘uga botib, uni qora rangga kiritadi. Miflarda qarg‘a rostgo‘y va jonkuyar sifatlariga ega ijobiy qahramon deya tasvirlansa-da, rangining qoraligi ma’lum bir ramziylikka ega, ya’ni mazkur lavhada qora rang qayg‘u, motam, alam timsoli bo‘lib, Apollon ruhiyating ramziy ifodasidir. [Shukurova, 2020; 72] Shuningdek, Qur’oni Karimning “Moida” surasida Qobil va Hobil qissasi keltirilgan. Ular ikkovlari qurbonlik qilishganda, Hobilning qurbonligi qabul qilinib, Qobilniki qabul qilinmaydi. Bundan g‘azablangan Qobil ukasi Hobilni o‘ldiradi. Shunday qilib, er yuzidagi ilk jinoyat insonni o‘ldirish, qotillik bo‘lib, Odam alayhissalomning shu ikki o‘g‘illari o‘rtasida sodir bo‘ldi. Bu jinoyatga Iblisning vasvasasi, hasad, gina, adovat sabab bo‘lgan edi. Keyin Qobil qilgan ishiga nadomat qilib, endi nima qilsam ekan deb o‘tirganda, Alloh taolo unga ukasini qanday dafn etishni o‘rgatishi uchun qarg‘ani yuboradi.Ushbu voqea ham “Qisasi Rabg‘uziy” asarida keltirilgan bo‘lib, quyidagicha ta’riflanadi: “Qobil Hobilni o‘lturmishda yigirma yashar erdi, qush qurtlar Hobilni o‘g‘radi. Qobil Hobilni bir qopg‘a suqub orqasing‘a ko‘turub yurur erdilar. Anchada tengri farmoni birla ikki qarg‘a keldi, bir-biri bilan urushdilar, bir-birini o‘lturdi. Tirik qolgan qarg‘a tumshig‘i bilan erni qazdi, ul o‘luk qarg‘ani ko‘mdi. Qobil ani ko‘rdi, aytur: “Maning qarg‘achalik choqlig‘ aqlim yo‘q ermish”, teb o‘kindi”. [Nosiruddin Rabg‘uziy, 1991: 30]. Qur’oni Karimda zikr etilgan qush nomlaridan yana biri Abobil qushlaridir. Yaman voliysi Abraha bir kanisa qurdiradi va barcha arablar Ka’bani emas, o‘sha kanisani tavof qilishlarini istaydi. Arablar bundan bosh tortib, aslo qiblani o‘zgartirmasliklarini aytishadi. Bundan g‘azablangan Abraha Ka’bani buzishga qaror qiladi va katta qo‘shin bilan Makka sari yo‘lga tushadi. Qo‘shinning eng oldida Mahmud ismli katta fil ham bor edi. Ushbu fil Makkaga yurishdan bosh tortadi. Abraha uni qattiq uradi. Fil baribir yurmaydi. Yaman tomonga yuzini bursalar, yugurib yura boshlaydi. Ammo Makkaga yurishga undasalar, to‘xtab olar edi. Shu payt bir to‘da Abobil nomli qushlar keladi. Har bir qush ikki changalida va

tumshug‘ida sopol toshchalar olib kelib, Abraha va uning qo‘shini ustidan ota boshlaydi. Ko‘p o‘tmay Abraha va uning askarlari halok bo‘ladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, narsaning mazmun-mohiyati ramzga aylanishi uchun o‘ziga xos ravishda qayta idrok etilishi, ma’lum darajada shartlilik asosida ko‘pchilik tomonidan bir xilda qabul qilinish darajasiga etishi kerak. Yuqorida biz ko‘rib chiqqan Ibn Sino va Imom G‘azzoliy asarlarida qushlar obrazi inson runining ramzi sifatida qo‘llanilgan. Bundan tashqari adabiyotimizda qaldirg‘och – baxt, omad va do‘stlik ramzi sifatida, qarg‘a – nafs, ikkiyuzlamachilik, kabutar – tinchlik, osoyishtalik, poklik ramzi sifatida adabiyotimizda foydalanib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Костамаров Н. Об историческом значении русской народной поэзии. – Харков. 1860. С.130.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 346-б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3-том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 346-
4. Quronov Dilmurod va b. Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati. –T.; Akademnashr, 2010.125-b.
5. Kostamarov N. Обисторическом значии русской народной поэзии. Харковю1860

Шаропов Асқарали. Оламлар ичра олам. – Т.; Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1978. 120-

6. https:/www.merriam-webster.com/dictionary/symbol
7. Болтабоев Ҳамидулла. Адабиёт энциклопедияси. – Т.: Мумтоз сўз, 2014. 290 б.
8. Лосев А.Ф. Логика символа. Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. - М.,1991. - С.258
9. Имомов К.Ўзбек фольклорида Ҳумо қуши.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,5-сон,21-бет
10. Mamadaliyeva Zuhra. Lison ut-tayr obrazlari: ramz va majoz olami. Toshkent.:Qaqnus Media 2014.- B.14
11. Фозилов Э. Сўзбоши. / Рабғузий Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – Б. 6
12. Остонақулов И. Қисас ар-Рабғузий. Фил. фан. ном. дисс. . . . Автореферат. – Тошкент: 1993. – Б. 9
13. Рабғузий Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – Б. 43-44
14. Shukurova Zilola. Mumtoz nasrda og‘zaki ijod an’anasi (Qisasi Rabg‘uziy” asari misolida). – Toshkent: Zukku kitobxon, 2020. – B 72.
15. Gulxaniy. Zarbulmasal va g‘azallar. – Toshkent: 1960. 23-b.

YUSUF SHOMANSUR SHE’RLARIDA IJODKOR SHAXSIYATI VA LIRIK QAHRAMON TABIATI

Tursunoy Jarkinova
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti
tursunoyjarkinova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada XX asr 60-yillar she’riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Yusuf Shomansur she’rlaridagi ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon tabiati tahlil qilingan. Ijodkor shaxsiyati yorqin aks etgan she’rlari, marsiyalari tahlilga tortilgan. Vatan, olam, hayot qonuniyatlari haqidagi she’rlaridagi lirik qahramon tabiati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Yusuf Shomansur, lirik qahramon, biografik metod, biografiya, avtopsixologik lirika, ijroviy lirika, ijodkor shaxsiyati, marsiya

Annotation

The article analyzes the creative personality and lyrical protagonist nature of Yusuf Shomansur’s poems, which have a special place in the poetry of the 1960s. His poems and anthems, which vividly reflect the personality of the artist, are analyzed. The nature of the lyrical hero in his poems about the homeland, the world, the laws of life is studied.

Key words: lyrical hero, biographical method, biography, autopsychological lyrics, performance lyrics, creative personality, mourning.

Ijodkor shaxsiyatini o‘rganishda iste’dod tabiati, adabiy jarayon masalalarini tadqiq etish talab etiladi. Akademik M.B.Xrapchenko ham ijodkor shaxsiyatiga yondashganda unga “Ijodiy individuallik” deb qaraydi va ijodkorning o‘ziga xosligi barq urib turgan asarlarinigina adabiy jarayon taraqqiyotiga xizmat qilishini, milliy adabiyot ravnaqini belgilashini qayd etadi. Lirik qahramon tabiatini tadqiq qilish ijodkor shaxsiyatini ochishda kalit vazifasini o‘taydi. “Lirik qahramon” tushunchasi birinchi marta 1921-yilda Tinyanov tomonidan qo‘llanilgan. U bu terminni A.A.Blok ijodiga nisbatan qo‘llagan. Gukovskiy, Ginzburg, Maksimovlarning asarlari lirik qahramon tushunchasi o‘ziga xos tarixiy mazmun bilan to‘ldirdi. M.M.Prishvin lirik qahramonni “yaratilgan men” deb ta’riflaydi. Shuningdek, jahon adabiyotida ijodkor asarlarini o‘rganishda ijodkor biografiyasiga alohida e’tibor berilgan. Asarlarda ijodkorning shaxsiyatini ochishda biografik metoddan keng foydalanilgan. Biografik metodda asarni tahlil qilishda ijodkorning tarjimayi holi, kundaligi, o‘zining e’tiroflari, ijod labaratoriyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Biografik metod unsurlari sifatida xatlar, xotiralar, maktublar, suhbatlar, e’tiroflarni olishimiz mumkin. Ular orqali ijodkor shaxsiyati yanada yorqinroq gavdalanadi. Bu metodning asoschisi Sent-Byov ijodkor biografiyasini o‘rganish o‘ta murakkab ish emasligini ta’kidlarkan: “Ularning o‘zlari sizga o‘zi haqidagi barcha gapni aytib berishadi, o‘zlari sizning nazaringizda namoyon bo‘ladilar. Bunga shubha qilmang! Hech bir yozuvchi, ayniqsa, shoir sizdan hech narsani yashirmaydi”, - deb yozadi.

Lirik qahramon va shoir shaxsi o‘rtasidagi munosabatni Belinskiy quyidagicha izohlaydi: “Lirik shoir o‘z shaxsiyati uchun butunlay tashqi bo‘lgan, o‘ziga begona dunyodan olgan tuyg‘uni ifoda qilgan vaqtida ham u subyektivdir: chunki u tuyg‘u ifoda etgan har qanday tuyg‘u ijod qilish vaqtida uning o‘z xususiy tuyg‘usi bo‘lib qoladi. Sababi shuki, bu tuyg‘u shoirning shaxsiyati orqali o‘tadi”. [Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. – T.: O‘zdavnashr, 1955. – B. 138.]

O‘zbek adabiyotshunosligida lirik qahramon muammosi va shoir tabiati masalasi bir necha olimlar tomonidan o‘rganilgan. Bu masala xususida O. Sharafiddinov, S. Mamajonov, I. G‘afurov, N. Rahimjonov, D. Quronov, B. Norboyevlar turlicha qarashlarni bayon etgan. She’rda qahramon tabiatini yorqinroq ochib berishda shoir shaxsining ahamiyati yuksakligini ta’kidlarkan: “Eng muhimi – shoir shaxsining boy va ko‘p qirrali bo‘lishida, toki u orqali biz dunyoni, hayotni mumkin qadar ko‘proq va chuqurroq ko‘raylik”.[Sharafiddinov O. Zamon – qalb – poeziya//Sharq yulduzi. – Toshkent, 1962. - №5. – B.137] , - deb yozadi. S.Mamajonov har bir she’rning alohida, o‘ziga xos lirik qahramoni bo‘ladi degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon tabiati o‘rtasida uzilmas ko‘prik borligini e’tirof etadi: “Lirik qahramonda shoirning dunyoqarashi, kechinmasi va o‘ziga xos qiyofasi aks etadi”. [Mamajonov S. Poeziyada lirik qahramon masalasi// Sharq yulduzi. – Toshkent, 1961. - №9. –B.140.]

B.Norboyev esa lirik qahramonga “ Har bir shoir she’riyatida shaxsiyati va “biogafiyasi” shoirnikiga aynan o‘xshamagan, ya’ni uning idealidagi “men”dan ham, shaxsiyatidan ham bir qator xususiyatlarni o‘zlashtirgan, hayot va xayol farzandi sifatida namoyon bo‘lgan poetik obraz” [Norboyev B. Iste’dod, e’tiqod,

zamon. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B.216.], - deya ta’rif beradi. Shoir Aziz Said esa lirik qahramonni inkor etadi, uni yo‘q deb biladi. “Shoir she’rida o‘zini va faqat o‘zini izhor qiladi” [Aziz Said. G‘oyibdan do‘st bilan suhbatlar. – Yangi asr avlodi, 2001. – B.18.] , - deya fikrini asoslaydi.

Adabiyotshunos Y. Qosimov “O‘zbek she’riyatida poetik fikrning yangilanish jarayoni” mavzuidagi nomzodlik ishida bu masalaga alohida e’tibor qaratadi: “ Lirik asarning estetik qimmati birinchi galda unda ifodalangan ijodkor shaxsiyatining originalligi, yorqinligi, lirik “men” munosabati, sezgi va taaassurotlarning qay darajada o‘ziga xosligi, betakrorligi bilan belgilanadi”.

Adabiyotshunos D. Quronov lirik qahramon va shoirni bir narsa deb tushunmaslik kerakligini ta’kidlaydi. Chunki shoir o‘zgalarning dardini ham she’rga solishi mumkin. Ana shu jarayonda she’rning lirik qahramoni shoirning o‘zi emas, balki shu dardda yonayotgan obraz sanaladi. Shuning uchun ham olim shoir va lirik qahramon masalasini bosh mezon sifatida olib lirik asarlarni ikkiga ajratadi:

1. Avtopsixologik lirika
2. Ijroviy lirika

Ularni esa quyidagicha farqlaydi:

Avtopsixologik lirika deganda lirik qahramon bilan shoir shaxsiyati mos tushgan, ikkalasi bir-biriga yaqin bo‘lgan she'rlar tushuniladi. Ya'ni avtopsixologik she'rlarda shoir o‘z qalbiga murojaat qiladi, o‘z-o‘zini ifodalaydi. Agar avtopsixologik lirikaga mansublik uchun shoir shaxsiyati va lirik qahramon orasidagi yaqinlik(aynan moslik emas)ni kifoya deb qarasak, u holda lirik asarlarning aksariyati avtopsixologik xarakterga egaligi ma'lum bo‘ladi. Shoir shaxsiyati bilan lirik qahramonning mos tushmasligi ochiq ko‘rinib turgan she'rlarni ijroviy lirika deb yuritamiz. Bu xil she'rlarning ijroviy lirika deb nomlanishiga sabab shuki, ularda shoir o‘zga shaxs ruhiyatiga kiradi, go‘yo uning rolini o‘ynaydi va asarda uning qalbini suratlantiradi.[Quronov D.

Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent. - Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.184.]

Yusuf Shomansur she'rlarida ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon tabiati muammosini tadqiq etar ekanmiz, ikki narsaga e'tibor qaratishimiz zarur: shoir she'rlarida lirik qahramon tabiati qanday ekanligini, ijodkorga xos xususiyatlar she'rlarida qay darajada aks ettirilganlini tekshirishimiz zarur. She'r insonning ko'ngil prizmasidan o'tgan fikr va tuyg'ularning suratidir. Shoira Saida Zunnunova she'rga shunday ta'rif beradi: "She'r – umid, orzu, muhabbat, ehtirosga to'lgan samimiy bir qalbning mahsuloti. Bu qalbning tiniqligi shu darajadaki, unda million-million kishilar o'zlarini til bilan ifodalay olmay yurgan, V.G.Belinskiy tili bilan aytganda, "shuurning ochiq va aniq tiliga ko'chirish qiyin bo'lgan" orzu, umid, intilish va tuyg'ularini ko'radi''[Zunnunova S. "Farg'ona" she'rlar to'plami haqida// Qizil O'zbekiston. – 1959. – 29-yanvar.]

Dunyoga falsafiy nigoh bilan qarash, haqiqatparastlik, soddalik, samimiyatni ulug'lash, oqibatni kuylash Yusuf Shomansur she'rlarining tabiatiga xos xususiyat sanaladi. Shoirning lirik qahramoni vatan, ona tuproqni joniday ardoqlaydi. Vatani – tuganmas mehr maskani. Shuning uchun shoir "Mehringga to'ymayman" ,- deya xonish qiladi. Ona yurtining ta'rif-u tavsifini misralarga joylaydi:

Quyosh atlasidan yoyganida sep,
Husningga bir umr bo'lganman maftun.
Jo'shqin buloqlaring suvini ichib,
Yuragimda saqlab qolganman taftin,
Mehringga to'ymayman, jonajon o'lkam!

"Ona tuproq haqidagi she'r"da tuproq, nafaqat, hayvonot-u nabotot dunyosi, balki insoniyat uchun ulug' nemat ekanligi ta'kidlanadi. Shoirning lirik qahramoni anglab etadiki, atirgul novdasi garchi suvda ildiz otib, toza havo, suvdan bahramand bo'lsa-da, bir siqim tuproq bo'lmasa, unib, yashnab ketolmaydi. Tuproq – nafaqat atirgul, balki butun tabiat uchun hayot manbai. She'rning ikkinchi qismida lirik qahramon "Tuproq sot" degan gapdan o'rtanadi. Tuproq u uchun ajdodlarining, vatan uchun qon to'kkan qahramonlarning merosi. So'zga ramziy ma'no yuklaydiki,

vatanni boylik, xirsi uchun sotuvchi vatangado kimsalar nafratga loyiq. Vatanning siyratini lirik qahramon oddiy sopol tovoqda koʻradi. Ajdodlaridan qolgan meros boʻlganligi sababli u uchun muqaddas:

Million yil emgansan yurt quyoshini,
Ajdodlardan menga tirik nafassan.

Har bir shoir ma'lum davrda tugʻiladi. Shu paytda insoniyatni qiynagan dard uni butkul oʻrtaydi. Qoʻliga qalam olishga undaydi. Chunki shoir insoniyat dardini oʻz dardi deb bilmasa uning shoirligi bekor. U.Hamdam ta'kidlaganidek, "shoir shaxsini ham muayyan iqlimli davr yoki davrlar etiltiradi. Shunga koʻra uning she'riyati oʻzi mansub boʻlgan davr ruhi bilan toʻyingan boʻladi. Binobarin, ma'lum ma'noda she'r davr farzandi hamdir"[Hamdamov U.Badiiy tafakkur tadriji. – T.:Yangi asr avlodi, 2002. – B.26.]

Yusuf Shomansur she'rlarida ham urushning bergan azoblari, xalqning chekkan iztiroblari roʻyrost tasvirga tortiladi. "Koshkiydi" she'rida ana shunday dardni tuyasiz. Eridan qoraxat olgan ayolning hasratlari, shoirning goʻdak qalbini junbushga keltirgan oʻzbek rafiqasining nolalari uni shoir qilganligini ta'kidlaydi. Biroq lirik qahramon uchun shoirlik muhim emas, u inson bolasining nobud boʻlishini xohlamaydi:

Men shoir boʻlmasam
Rozi edim ming karra,
Faqatgina juftidan ayrilmasa bu juvon.
Koshki
Abdullajon oʻlmagan boʻlsa,
Koshkiydi yorining taralmasa nolasi.
Koshkiydi.
Dunyoda bitta shoir kam boʻlsa,
Ammo kam boʻlmasa bitta inson bolasi!

Shoir barcha oʻzbek onalarining timsolini "Nasiba" she'rida aks ettirgan. Oʻgʻlini fronga joʻnatib, uni intizor kutgan ona timsoli shu qadar biz uchun buyuk, azizki, uning koʻnglidagi poʻrtanalar bizni oʻrtaydi. Oʻsha mash'um davrlar ne-ne onalarni, kelinchaklarni, qizlarni sogʻinch olovida yondirib, ayriliq otashida

kuydirmaganmidi? Shoirning lirik qahramoni uchun vatan uchun jonini fido qilgan ajdodlar yodi ulug‘.

Balki shuning uchun Vatan ko‘kida
Qon yig‘lagan ko‘zday ufq qizarar.
Qurbonlarni eslab Vatan ko‘ksida
Balki zilzila ham shunda qo‘zg‘alar.

Shoir neft konidagi lolani ham ajdodlardan kelgan elchi deb biladi:

Tuproqqa aylangan avlod-ajdoddan
Elchi bo‘lib kelmish qonli va suluv,
Omon o‘tib asriy zulm – ajdardan.
Lola to‘shidagi neftday qora rang
Bobolarning jigar qoni ehtimol.

She’rning lirik qahramoni lolaning tebranishidan ajdodlarining yurak zarbini tinglaydi. Uning uchun ajdodlar yodi har vaqt muqaddas.

Shoirning she’rlarida 60-yillar she’riyatiga xos bo‘lgan falsafiylik, fikr poeziyasining ustunligini ko‘rishimiz mumkin. O. Sharafiddinov ham 60-yillar she’riyati xususida gapirar ekan, “Bu o‘rinda lirik xarakter yaratishda intelektualizm kuchayganini aytish kerakki, bu tendensiya falsafiylikka moyillikni tug‘dirdi. Natijada turli mavzularga bag‘ishlangan lirik she’rlarda fikrning salmog‘i ortib, shoirlar hayot haqida, inson va uning hayotdagi burchi, oliyjanoblik, ezgulik, yaxshilik, soxtalik va qabihlik haqida chuqur mulohazalar yuritadi, muhim ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan umumlashmalar chiqaradi”[Sharafiddinov O. Yillar va yo‘llar// Sharq yulduzi. – Toshkent,1967. - №10. – B. 20], - deya ta’kidlaydi.

Shoirning ko‘pgina she’rlarida, masalan, “Kalendar varog‘i”, “Kecha va kunduz”, “Me’yor haqida”, “Alfavit qonuni”, “Haqiqat”, “Shoshilamiz”, “Masofa”, “Yurakdagi nusxa” she’rlarida falsafiylik ustun. Shu o‘rinda aytish joizki, uning bu she’rlarida fikr va yurak poeziyasi uyg‘unlashib ketgan. Falsafiylikka moyil asarlarida haqiqat va adolat dunyoning ustuni ekanligi, me’yor taqdir tarozisini muvozanatga keltirib turguvchi asosligi, hayot qonuniyati har vaqt qat’iy belgilanganligi g‘oyasi ilgari suriladi.

Shoirning koʻplab she’rlarida shaxsiy hayoti asos boʻlib xizmat qiladi. Lirik qahramonga muallif shaxsiyati asos boʻlib xizmat qilganligi bois she’rlarida ustozlar yodini aziz deb hisoblash hissi kuchli. Ustozlariga atab yozgan marsiyalarida shuni koʻrishimiz mumkin. Ijodining ilk sahifalarida ulkan oʻrin tutgan ustozi Gʻayratiy domlaga bagʻishlab yozgan “Murabbiy” she’rida ustozlarning nomi, xotirasi manguligi shogirdlari bilan belgilanishini ta’kidlasa, “Dunyodan oʻtdimi Shayxzoda ustoz?” she’rida qalb darvozasini tinmay chertayotgan hasratlar kuylanadi. 60-yillar she’riyatida yosh avlod uchun oʻrnak, maktab vazifasini oʻtagan shoira Saida Zunnunova vafoti ham uni qattiq ta’sirlantiradi. Adolatli, haqiqatni burch deb bilguvchi shoiraning satrlarini “sinmas sinch”ga qiyos etadi. Doʻsti Xayriddin Salohdan ayrilish uni butkul hijron otashiga tashlaydi. Ikki ijodkorni shunday mustahkam doʻstlik rishtasi bogʻlagan ediki, hatto ayriliq ham ularni ruhan ayira olmagan edi:

Yosh oʻrniga zardob tomar koʻzimdan,
Oh oʻrniga koʻchar qalbimdan ingroq.
Hayhot, zavq ololmay qoldim nazmdan,
Doʻstligimiz oʻzi she’r edi yangroq.

Shoir ta’biri bilan aytganda, “Elliginchi yillar, she’rda bir murgʻak polapon” boʻlgan ikki ijodkorning dardi, niyatlari bir, orzulari ulkan edi. Doʻstining etim qolgan qalamini tebratish uning zimmasidagi burch.

“Sensiz kunlarim” rukni ostidagi she’rlarida esa sevimli yori – rafiqasidan ayrilish, hijron azobida oʻrtanish tuygʻusi bosh motiv boʻlib xizmat qilgan. Bu turkumdagi she’rlar yuqorida ta’kidlaganimiz “Avtopsixologik lirika”ga mansub. Bu she’rlarda shoir shaxsiyati, qalb kechmishlari oʻz tajassumini topgan. “Sogʻinch” she’rida lirik qahramonni suyuklisidan ayrilish azoblaydi, u

“Yetim koʻzdan tomayotgan koʻz yoshga oʻxshab
Qalamimning boʻgʻzida zor qoʻshiqlar qoldi”, - deya zorlanadi.

“Soʻnggi nigoh” she’rida esa yor koʻzining qorachigʻini “butun olam choʻkkan qora nuqta” deb biladiki, unda butun olamning, ya’ni lirik qahramonning dunyosini

ko‘rish mumkin edi. “Eshigim oldida” she’rida esa lirik qahramon yorsiz uyning ostonasidan o‘tishdan cho‘chiydi, uning onalik mehridan madad so‘raydi:

Onalik mehrining o‘lmas quvvati! –
Darmon ber, bir hatlay ostonam osha…
Yetimlikning esa o‘ksik qismati! –
Qalbim tomiriga urmaytur tesha..
Bir hatlab o‘tayin ostonam osha…

Yuqorida tahlil qilgan she’rlarda haqiqatga tashna, ustozlar, yaqinlar yodini muqaddas deb biluvchi, vatanini har vaqt ustun qo‘yguvchi ijodkorning qalbini his qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азиз Саид. Ғойибдан дўст билан суҳбатлар. – Yangi asr avlodi, 2001. – Б.185.
2. Белинский В. Г. Танланган асарлар. – Т.: Ўздавнашр, 1955. – В. 138.
3. Улуғбек Ҳамдам. Бадиий тафаккур тадрижи. – Т.:Yangi asr avlodi, 2002. – В.200.
4. Мамажонов С. Поэзияда лирик қаҳрамон масаласи// Шарқ юлдузи. – Т, 1961. - №9. –В.140.
5. Норбоев Б. Истеъдод, эътиқод, замон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.216.
6. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. Т. - Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2004. – Б.184.
7. Храпченко М. Б. Творческая индивидуальност писателья и развитие литературы – М.: Советский писатель, 1975. – с. 406.
8. Зуннунова С. “Фарғона” шеърлар тўплами ҳақида// Қизил Ўзбекистон. – 1959. – 29 январь. В. 25.

ALISHER NAVOIY ASARLARI ABDULLA QAHHOR IJODIDA

Tolipova Nilufar
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlaridan namunalarning Abdulla Qahhor asarlarida qo‘llanilish sabablari yoritilgan. Adibning ulug‘ shoir asarlariga ijodiy munosabati kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, Alisher Navoiy, “Shakl va mundarija haqida”, “Ashula to‘g‘risida, “Talant”, “Baron Fon Ring”, maqola, feleton

Annotation

This article explains the reasons for using examples from Alisher Navoi's works in Abdullah Qahhor's works. Issues such as the author's creative approach to the works of the great poet are covered.

Key words: Abdulla Qahhor, Alisher Navoi, “About form and content”, “About singing”, “Talent”, “Baron von Ring”, article, feuilleton.

Abdulla Qahhor XX asr adabiyotining unutilmas siymolaridandir. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov “O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarorida ham “O‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli adib[71]” deya alohida ta’kidlagan edi. Adib haqqoniy so‘zi o‘z davrida ham hozirgi davrda ham qimmatini yo‘qotmagan. Abdulla Qahhor mahoratli yozuvchi, o‘tkir munaqqid, mohir tarjimon, yosh ijodkorlarning jonkuyar ustozi bo‘lgan. Abdulla Qahhorning bir qator zamondoshlari – Oybek, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sultonlar Alisher Navoiy hayoti va ijodini mukammal o‘rganib yetuk asarlar yozdi. Abdulla Qahhor ular kabi Navoiy ijodi bilan maxsus shug‘ullanmagan, lekin buyuk mutafakkir ijodini puxta bilgan. Buni yozuvchining ayrim asarlarida Navoiy asarlaridan keltirilgan parchalar orqali anglab olishimiz mumkin. Kibriyoxonimning xotirlashicha: “*Abdulla Qahhor she’riyatni yaxshi ko‘rar*, Navoiy, Muqimiy, Furqat, Boburning juda ko‘p g‘azal, ruboiylarini yoddan bilar edi…[72]”

Adib “Baron Fon Ring” feletoniga epigraf sifatida quyidagi Navoiy baytini keltiradi:

Birovkim tama’ rishtaye qilg‘usi,
Aning birla bo‘g‘zidin osilg‘usi[73].

Bu bayt “Saddi Iskandariy” dostonining 35-bobidan[74]. Ko‘rinadiki, Abdulla Qahhor “Saddi Iskandariy” dostoni mag‘ziga singdirilgan ma’nolarni yaxshi anglagan. Agar Abdulla Qahhorning “Baron Fon Ring” feletoni 1942-yil 2-jahon urushi davrida yozilganiga e‘tibor qilsak, fashistlar orzusining puchligiga ishora qilinishi yozuvchining oldindan ko‘ra olishiga ishora qiladi. Darhaqiqat, ushbu hikmatni tarix yana bir karra isbotladi, fashistlar aynan “bo‘g‘zidan osil”dilar.

“Shakl va mundarija haqida” maqolasida adib aruzda yozilgan she’rlarda arab va fors tilidagi so‘zlar nechta-yu, o‘zbek tilidagi she’rlar nechtaligiga to‘xtaladi va Alisher Navoiyning quyidagi uchta baytini keltiradi.

[71] O‘zbekiston Respuplikasi Prezidentining qarori 2007-yil, 8-yanvar.N PQ 556
[72] Jo‘raboyev O. Matnning matn osti sirlari. – T.: Tamaddun, 2017,109-bet.
[73]Jo‘raboyev O. Matnning matn osti sirlari, 107-bet.
[74]Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 11-t. Xamsa. Saddi Iskandariy. – T.:Fan,1993.251-b.

Ashraqat min aksi shamsul-ka'si anovorul-hudo,
"Yor aksin mayda ko'r" deb, jomdin chiqti sado…

E, jamoling, noz-u ishvang bir-biridan xubroq,
Qomating marg'ub-u andin paykaring marg'ubroq.

Xiradmand chin so'zdan o'zga demas,
Vale borcha chin ham degulik emas[75]**.**

Abdulla Qahhor badiiy ijod bilan birga adabiy tanqid yukini ham zimmasiga olgan ijodkor. Negaki, davr shuni talab qilar edi. Chinakam ijodkor uchun ijod va adabiy tanqid o'zaro uzviy bog'liq bo'lishini Abdulla Qahhor hamisha his qilgan.

"Poeziya – yuksak san'atdir" maqolasida shunday ta'kidlaydi:
"Birdan yalt etgan shoirdan katta alanga chiqishini kutdik. Lekin afsusuki, mana shu alangani ko'rmadik va ko'rmayotirmiz. Chustiy hamon "yilt" etganicha turibdi. Uning alanga olishiga ko'p narsalar xalal berayotipti. Bu xalal berib turgan narsalar uni ko'zga shu qadar mayib qilib ko'rsatadiki, hatto Navoiy aytgan tipdagi shoirlardan ajratolmay qoladi kishi.

"Yana odno tabaqasida jamoatedurlarkim, nazm bila faqat ko'ngullar xushnud va xursand, rozi-yu bahramanddurlar. Va yuz mashaqqat birla bir baytkim bog'lashturg'aylar, va da'vo ovozasin etti falakdin oshurg'aylar. So'zlarida ne haqoyiq va maorif no'shidin halovat va nazmlarida ne shavq va ishq o'tidin harorat. Ne shoirona tarkiblari ahsan va ne oshiqona so'z-u dardlari shu'la-afkan. Ba`zidin agar gohe birar yaxshi bayt voqe bo'lur, ammo o'n yomon da'vo ham zohir bo'lurki, ul ham zoye bo'lur.Agar bir nozuk ma'nida pisandida pech qilur, ammo o'n oncha nopisand da'vo bila ani ham hech qilur. Go'yo o'zlariga aqidada muvofiqdurlar va so'zlariga e'tiqodda muttafiq. Turfaroq bukim, har birining so'zida ma'no ozroq va o'zida da'vo ko'proq…[76]".

[75] Abdulla Qahhor. 2017-yil.. Shakl va mundarija haqida.Yoshlar bilan suhbat. – T.: Akademnashr, 2017, 93-94-bet.

[76] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami.14-t, 26-bet.

“Chustiyning alangalanishiga to‘sqinlik qiladigan narsalarning birinchisi, Navoiy aytganday “da’vo ovozasin eti falakdin” oshirgani, ikkinchisi savodsizligidir…[77]”.

Bu o‘rinda maqsadimiz shoir Chustiyga nisbatan Abdulla Qahhorning tanqid qilganiни таъкидлаш эмас, балки muallifning mavzuni yoritishda “Mahbub-ul qulub”dan o‘rinli dalil keltirganini ko‘rsatishidir. Shu maqola davomida Navoiyning “Navodir Navodir-ush shabbob” devonining 606-g‘zalidan quyidagi baytni keltiradi.

Muazzin Ka’ba toqi uzra gulbongi samad urdi,
Barahman dayr ayvonida ohangi sanam chekti.

Abdulla Qahhor ateistik targ‘ibot kuchayib borayotgan bir davrda Ka‘ba va “Xudo” so‘zlarini keltirib, isbot uchun Navoiy baytini keltirishi ulkan jasorat va haqgo‘ylik edi.

“Gap aruzda emas” maqolasida esa “*O‘zbek tilida yaxshi fikr va tuyg‘ularni ifoda qilib bo‘lmaydi, degan nazariyani Navoiy bundan besh yuz yil burun tor-mor qilgan![78]”*– degan fikrni keltirib, tilimizning badiiy mukammal asar yarata oladigan til ekanligini Navoiy nomi bilan haqli ko‘rsatib o‘tgan.

1956-yilda yozilgan “Talant” maqolasida esa: ”…Hali chiqib o‘z asarlarini o‘qib beradigan yoki keying shunaqa yig‘ilishlarda o‘qigani navbat kutib turgan yoshlar orasida o‘z zamonasining Navoiysi, Pushkini bo‘ladigan odam yo‘q deb kim ayta oladi?...” deb, maqola davomida Alisher Navoiyning quyidagi hikmatli so‘zini keltiradi:

Garchi quyoshtin parvarish olam yuziga omdir,
Sahroda qum’og‘-u tikan, bo‘stonda sarb-u gul butar.

Bu juda chuqur, juda zo‘r gap, do‘ppini yerga qo‘yib, xo‘p o‘ylab ko‘radigan gap…[79]” deya ta’kidlaydi.

[77] Jo‘raboyev O. Matnning matn osti sirlari, 110-bet.
[78] Abdulla Qahhor. Besh jildlik, 5-jild, 76-77-betlar.
[79] Abdulla Qahhor. Talant. Yoshlar bilan suhbat. T:. Akademnashr. 2017-yil, 72-73-betlar.

“Ashula to‘g‘risida” maqolasi Kamtar, Yamin Qurbon, Ma’ruf Qoriyev nomli qo‘shiqchi shoirlar o‘rinsiz tanqid qilingan maqolaga javoban yozilgan. “Mualliflar hech bir dalil-isbotsiz Kamtarning she’rlarini yomonga chiqarib, uning “Unutma” degan she’riga siyosiy ayb taqmoqchi bo‘lishadi. Bu she’rda shunday satrlar bor:

Yosh umring o‘tar, fasli bahoringni unutma,
Xalqingni bezar qabr-u mazoringni unutma.

Bu “Yoshliging o‘tadi ketadi, qabring Navoiy, Ulug‘bek qabri singari xalqingni bezashi kerakligini unutma” degan so‘z.

Maqola mualliflari qorovul chaqirishadi: “Voy-dod, hozirgi zamon odamlari kommunizm qurishni qo‘yib, qabr-u mozor to‘g‘risida o‘ylashi kerakmi?!”Bundan ortiq shallaqilik, bundan ortiq sharmandaroq “tog‘orabozlik” bo‘lmas!”[80] deya qat’iy fikr bildiradi.

1963-yilda yozilgan “Shijoat to‘g‘risida” maqolasida “Ulug‘ Navoiy haqqoniyatga kelganda, vazirlik libosini yechib tashlab “qora xalq” quchog‘iga otilgan…[81]” deya Navoiydagi shijoatni ulug‘laydi.

Bu kabi fikrlarni o‘qiganimizda Abdulla Qahhor Alisher Navoiy ijodini chuqur bilganiga va o‘z ijodида unga ko‘p marta murojaat qilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Qolaversa, adibning rafiqasi, hammaslagi Kibriyoxonim ham o‘zbek, fors-tojik adabiyotini yaxshi bilgan, ayniqsa, g‘azal o‘qishni nihoyatda yoqtirgan, Abdulla Qahhor shogirdlariga g‘azal o‘qib berganligini “Chorak asr hamnafas” kitobida yozib qoldirgan. Ikki buyuk ijodkor shaxsiyatidagi shijoat va mahorat masalasining purhikmat asarlarida aks etganligi milliy adabiyotmiz yutug‘idir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулла Қаххор. Ҳақ сшзнинг кучи. Асарлар. Беш жилдлик, 5 жилд. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. – 320 б.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 11 т. Хамса. Садди Искандарий. – Т.: Фан, 1993. – 762 б.
3. О. Жўрабоев. Матннинг матн ости сирлари. – Т.: Tamaddun, 2017. 122 б.

[80] Abdulla Qahhor. Ashula to‘g‘risida. Yoshlar bilan suhbat. –T.: Akademnashr. 2017, 89-90-betlar.
[81] Otabek Jo’raboyev. Matnning matn osti sirlari. Tamaddun. T:, 2017. 114-bet.

“IKKI ESHIK ORASI” VA “UFQ” ROMANLARIDA URUSH ODAMLARI OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI

Shohzoda Tursunboyeva
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot saboqlarida urush va urush odamlari mavzusini to‘liqroq tahlili uchun qiyosiy metoddan foydalanish orqali “Ikki eshik orasi” va “Ufq” romanlaridagi obrazlari taqqoslangan.

Kalit so‘zlar: qiyosiy tahlil, muammoli tahlil, timsolli tahlil, evrilish romanlari, muallif niyati, kitobxon javobi

Annotatsion

This article compares the images in the novels "Between Two Doors" and "Horizon" using a comparative method for a more detailed analysis of the subject of war and war people in literature lessons.

Key words: comparative analysis, problem analysis, symbolic analysis, evolutionary novels, author's intention, reader response

Adabiy ta’lim badiiy asarlarni tushunish va u asosida hayotiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Badiiy asarni tushunish esa uni mantiqli tahlil qilish asosidir.

Ma’lumki, har narsaning o‘ziga xos xususiyatlari boshqasi bilan qiyosda yaqqol namoyon bo‘ladi. Adabiy ta’limda qiyosiy tahlil alohida olingan asarlarni o‘zaro taqqoslab, natijalar asosida ularning o‘xshash va farqli jihatlariga estetik baho berish, mualliflar ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy tahlilni amalga oshirish uchun qiyosga tanlangan asar mavzusi, obrazlari, ko‘tarilgan muammolari, turi yoki janri jihatidan xususiyatlari o‘xshash bo‘lishi e’tiborga olinishi lozim.

Adabiyot darsida o‘qituvchi o‘zbek adabiyotidagi “evrilish romanlari”dan “Ikki eshik orasi” va “Ufq” asarlarining bir qarashda murakkabdek tuyulgan mavzu ko‘lami va g‘oyasini, syujet va kompozitsiya mantig‘ini bir ipga tizib bera oladigan dars usulini tanlashi lozim. Ana shunday usullardan biri qiyosiy tahlildir.


Dasturga ko‘ra: ushbu asarlar tahlilida urush va uning fojialari, urush odamlarining qismati muammosi masalalariga diqqat qilish lozimligi belgilangan.

Adabiyot saboqlarida shu ikki asar ustida qiyosiy-tipologik tahlilni amalga oshirilar ekan, g‘oyasi, matni, obrazlari asosida timsolli va muammoli tahlil usullaridan ham foyalanish maqsadga muvofiq.

Timsolli (obrazlar vositasida tahlil) yirik epik asarlarning to‘liq matnini sinfda tahlil qilish imkoni bo‘lmaganda ularning obrazlari xarakteri, tutumi, tasviriga estetik baho berish orqali amalga oshiriladi. “Muayyan asardagi timsollarning ruhiyati, o‘y-kechinmalari, xatti-harakatlari, sajiyasi tasviri mantiqiylik, hayotiylik, badiiylik va tarbiyaviylik nuqtai nazaridan tahlil qilinib, shu yo‘sinda muallifning badiiy mahorati va asarning estetik qimmati idrok etiladi”.[1, 114]

Ushbu ikki asar ham maktab adabiy dasturining yuqori sinflarida berilgan. O‘quvchilarida bu davrga kelib voqealar ketidan quvishdan ko‘ra insonlar tabiatiga xos jihatlarni payqashga intilish kuchayishini hisobga olib, ikki asar obrazlari vositasida qiyosiy tahlilni amalga oshirish orqali tahlil qilinadi:

Darslikdagi “Ikki eshik orasi” dagi Qora amma va Robiya hikoyasi boblari, “Ufq”dan “Qochoq” bobi bilan to‘liq tanishib chiqqan o‘quvchilar 4 guruhga bo‘linadi. Har bir guruh uchun ikki asardan ayrim obrazlarni qiyoslab tahlil qilish vazifasi topshiriladi, buning uchun ularga muammoli tahlil vositasida ayrim savollar beriladi



Savollar:

1 va 2-guruhlar uchun:

1. Bu ikki obrazni bir nom ostida birlashtiring.

2. Ikki zamondosh, darddosh, tuyg‘ulari o‘xshash insonlarning farqi nimada?

3. Husan Duma obrazidagi otalik hislatlarini qanday baholaysiz, Ikromjonni-chi? Sizningcha tarbiyada qanday yo‘l tutish kerak?

4. Jannat xolaning o‘rnida Qora amma bo‘lganda qanday yo‘l tutardi yoki aksincha? Fikringizni asar matniga tayanib izohlang. Umuman, Qora amma boshqacha yo‘l tutishi ham mumkinmidi?

5. Nima deb o‘ylaysiz: Jannat xola bilan Qora amma ko‘rishib suhbat qurganda nimalarni gapirib berardi bir-biriga? Ikromjon bilan Husan Duma-chi?

3-4-guruh uchun:

1. Bu ikki davrdosh yigitlarni qismatdosh deb atasak ham bo‘ladimi?

2. Ikki qahramonning bolaligi haqida fikrlarni asar matnidan topib o‘qing va tahlil qiling. Sizning bolalagingiz qay biriga yaqin?

3. Ikki yigitning nihoyasi baribir o‘lim bo‘ldi, unga etaklagan sabablarni tahlil qilishga urinib ko‘ring.

4. Robiya va Zebi obrazlariga tavsif bering, ularning o‘xshashligi bormi?

5. Ikki qizning taqdiriga baho bering, ular asosida vafo va sadoqat qiymati haqida mushohada yuriting?

Shu o‘rinda e’tibor berish kerak bo‘lgan jihat shundaki, “Ikki eshik orasi”da muallif obrazlariga ortiqcha ta’rif berib o‘tirmay, ularning qirralarini harakatlar, atrofidagilariga nisbatan muomala va o‘zini tutish jarayonida ochib beradi (Asarda muallif nutqi deyarli ko‘zga tashlanmaydi). O‘quvchilar obrazlarga ta’rifni asar matnidan tayyor holda topa olmaydilar, balki ularning xatti-harakatlaridan, gap-so‘zlari yoki qiliqlaridan ilg‘ab olishga intilishlari kerak.

Jumladan, dalada erkaklar uchun ham og‘irlik qiladigan mehnat qilib, loy changallab ishlab, kech qaytadigan traktochi Robiyaning shunday og‘ir paytdlarda ham yo‘qolmagan shaxsiyatidagi pokizalik, mehnatsevarlik, mas’uliyat, muruvvat

kabi hislatlar Qora amma va o‘zining gap so‘zlaridan seziladiki, bu o‘rinlarga o‘quvchi diqqatini qaratish o‘qituvchining vazifasidir:

“…Robiya kech keldi…ayvon burchagida uxlab yotgan Muzaffarni ko‘rib suyundi…

Keyin ozroq kir chaydi. Yarim kecha bo‘lib ketganiga qaramay, boshini yuvdi. Yettinchi lampani xontaxtaga qo‘yib ko‘k qiyiqchaga gul bosa boshladi. Pilik chirsillaydi, hovlida qurbaqalar qurillaydi. Robiya qizil ipak qatini chaqqon-chaqqon tonib kashta tikyapti”. [2, 122]

– Men-chi, oyijon? – dedi xotirjam ohangda.

Tushunmadim.

– Nima sen? Senga nima bo‘pti, qizim? Hali o‘n gulingdan...

Robiya «voy, sodda oyim-a» degandek kulimsiradi.

– Men borman-ku, – dedi sekin. – Men tirikman-ku! Bundan chiqdi Kimsan akam ham tiriklar. – U gap tamom degandek yana qatim tortishga tushdi.[2, 123]

“Ufq” romanida esa qahramonlash shaxsiyatini ta’riflashda muallif ta’rifi va izohlarini uchratish mumkin. Tursunboy, Jannat xola xarakterlarini ilg‘ash va ularni “Ikki eshik orasi”dagi Kimsan va Qora amma obrazlariga solishtirish orqali o‘quvchilarda chinakam insoniy muomala, ona-bola munosabatlari, ona (ayol) qalbi nimalarga qodirligi, tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot masalasi ekanligi borasida ko‘pdan ko‘p xulosalarga ega bo‘ladilar. Kimsan axloqiga singdirilgan mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, o‘zgalar dardini his qila olish kabi go‘zal hislatlar Tursunboy shaxsiyatidagi xudbinlik, erkalik va mas’uliyatsizlik, bemehrlik kabi illatlarga qarshi qo‘yiladi.

Qiyosiy metodning nozik tomoni shundaki, o‘qituvchi qiyoslanayotgan asarlardan kerakli obrazlarni, tasvirlar va dialoglarni to‘g‘ri tanlay bilishi muhim ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda, aksariyat yuqori sinf o‘quvchilarida o‘smirlikdan balog‘aga o‘tish davri, undagi sarkashlik va emotsionallik atrofdagilardan, xususan ota-

onasidan norozilik holatlari kuzatilishi tufayli, ikki asardan ota-onaning farzandiga munosabati aks etgan oʻrinlarni matndan topib tahlil qilish vazifasi berish ham bolaning ota-onaga isyoni yoki ruhiy zoʻriqishlarini yana qayta mulohaza qilishiga sabab boʻladi:

Keys: Ikki asardan ota-onaning bolasiga nisbatan munosabati va bergan tarbiyasi aks etgan oʻrinlarni topib qayta oʻqing. Tarbiyning qaysi yondashuvi sizningcha bola shaxsiyatida ezgulikni uygʻotishi mumkin. Misol:

“Ikki eshik orasi”dan :

Kimsan akam men oʻylagandek yomon bola emas ekan. Ba’zan rahmim keladi unga. Ertalab bobom dalaga ishga chiqib ketarkan, supada uxlab yotgan Kimsan akamning tepasiga kelib, ustidan koʻrpani uloqtirib tashlaydi.

– Tur oʻrningdan! – deydi dagʻdagʻa bilan. – Moʻylovi chiqib qolgan bola yalpayib yotishingni qara? Boʻl tez, goʻngni tashib qoʻy.

Kimsan akaning moʻylovi bormikin deb qarab qoʻyaman. Yoʻq, koʻrinmaydi. Bechora dik etib oʻrnidan turadi-da, koʻzini ishqalab molxonaga kirib ketadi. Birpasdan keyin zambilgʻaltakka goʻng ortib, chiranib-chiranib gʻildiratgancha tomorqaga olib chiqadi. Kechgacha tinim bilmaydi. Hamma ish qoʻlidan keladi. Tomorqada er chopadi, molga qaraydi, oʻtin yoradi.[2,55]

“Qochoq” dan parcha:

Bolaginam, shundoq erka edi, shundoq erka edi, to maktabga borguncha ham dadasining elkasidan tushmadi. Opichib guzarga olib chiqardilar, opichib magazinga olib kirardilar.[3,315]

Oʻrni kelganda bolalarga Kimsan ham Tursunboydek tilab olingan farzand ekanligi, “olti bolani tuproqqa qoʻygach” yashab qolgan yagona farzandligi haqida ham qistirib oʻtish lozim. Ota-ona doim farzandga yaxshilik ravo koʻrishi, faqat ravo koʻrilgan yaxshilik ularning nazarida turlicha namoyon boʻlishishi ayrimlar haddan ortiq mehr koʻrsatib, boshqalari esa farzandiga muhabbatlarini uni toʻgʻri yoʻlga solish, mehnatga oʻrgatish, hayotga tayyorlash uchun oʻta qattiqqoʻllik ortiga bekitishlarini ham tushuntirib oʻtish lozim.

Muammoli tahlilni amalga oshirish jarayonida oʻquvchilarga keng fikrlash maydoni, sogʻlom muhit, ularning fikrini eshituvchi va ragʻbatlantiruvchi oʻqituvchi kerak. Shundagina ular shunchaki bahsga kirishib ketmay oʻz hayotiy tajribalari, bor intellekt quvvati bilan qoʻyilgan muammoga yechim topishga urinadilar.

Umuman har bir obrazni oʻzaro taqqoslayotganda muammoli savollarga yechim topishda oʻquvchi urush diqqat markazida turishi, qahramonlar qismatida urush tufayli shunday fojealar yuz berganini e'tiborga olishi mumkin. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki ─ hayot murakkab.

Yuqoridagi keyslarga har tomonlama mulohaza qilib koʻrgan oʻquvchilar endi hayot haqida, inson taqdiri birgina qaror, koʻpincha tanlov huquqi insonning oʻzida boʻlishi, ana shu tanlov paytida notogʻri tashlangan odim, birgina soʻz qismat hamiriga achitqi solib yuborishini, kishining qilgan ishlari har qanday holatda ham tovon talab qilishi, har doim ham ota-ona boʻlib farzandga ega chiqib boʻlmasligini, inson taqdiri haqida bu yaxshi yoki u yomon deb fikr aytish, munosabat bildirish hamisha ham oson emasligini tan olishga majbur qiladi.

Har ikki asarda ham Muallif qahramonlar qismatiga urush aybdor degan fikrni oʻtkazishga uringani yaqqol seziladi. Ammo bugungi kun axloqi, urush koʻrmagan avlodning fikrlashi, badiiy matnga yangicha yondashish, tahlilda ijtimoiy yoʻnalishga emas, balki estetik asoslarga tayanish tufayli oʻquvchilar dunyoqarashida muallif hayoliga keltirmagan yangi ma'nolar ochishi mumkin.

An'anaviy tahlilda "muallif niyati" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi, ammo zamonaviy tahlil asarga yangicha yondashuvlar talabidan endi mutolaa jarayonida yuzaga keladigan, kitobxonning ayni paytdagi fikr darajasi, fiziologik va hissiy ahvolidan kelib chiqadigan yangi xulosalar paydo boʻlmoqdaki bu "kitobxon javobi" yondashuvidir. Bunda kitobxon asar matnidan muallif nazarda tutgan emas, oʻzi his qilgan jihatlarni idrok qiladi, tushunadi. Masalan, yuqoridagi asarlarni oʻqigan kitobxon endi Ra'noning qismatida muallif zoʻr berib dastak qilgan urush motivini qabul qilmas. Bu yerda ijtimoiy emas, qahramonning shaxsiy dunyoqarashi va axloqiy sifatlari ahamiyat kasb etadi deb tushunar yoki bugungi zamonaviy davr

kitobxoni Jannat xolani “farzandi uchun o‘zini unutar darajada qurbonlik qilgan, adoyi tamom bo‘lgan ona” deb odatiy tashbehlar bilan ulug‘lamas, ONA siymosi zamirida farzandining nobop oyog‘i ostida poy-patak bo‘ladigan “mushtipar” kabi emas, notog‘ri yo‘lda, tikan bosib ketayotganini ko‘rgach uni qaytarishga urinadigan munosib yo‘lchi bo‘lishi kerak deb fikrlar; Hatto Tursunboyni urushdan qochishini oqlashi mumkin, chunki unga bir hovuch jahon iqtisodiy magnatlarining o‘yinlari tufayli yuzaga kelgan, o‘z vatanidan yuzlab kilometr uzoqda kechayotgan qirg‘inbarotda aziz jonini qurbon qilish ehtimolini qabul qilolmas, chunki urushlarda doim ikki tomonda ham balandparvoz “Xalqim uchun, ona vatanning bir siqim tuprog‘i uchun jon berishga tayyormiz!” kabi shiorlar osiladi. Urush romantizatsiya qilinadi, uning qahramonlari bo‘ladi, yurakni zirillatib yuboruvchi shedevr qo‘shiqlar, ko‘zga yosh keltiruvchi kinolar suratga olinadi. Umuman olganda insoniyat guruhlari o‘rtasidagi urushlarga odamlar shunchaki yuzaki qarashadi. Aslida, tor doiradagi insonlarning miyasida tug‘ilgan chirkin fikrlar sababli, xalqning oddiy o‘g‘loni ko‘nglida vatan uchun jon berayotganiga chin dildan ishongan holda o‘lim topadi. Sovuq, kir, bit bosgan okopda och nahor o‘limini kutib turgan askar, o‘ziga o‘xshagan oddiy bir odamning buyuklik orzulari uchun qurbon bo‘layotganini o‘ylamaydi, oilamni, bolamni himoya qilyapman deb o‘ylaydi... Urushlar xalqlarga kerak emas aslida, urushlar bir nechta odamlarga kerak. Aslida har qanday urushni oldini olish, har qanday nizoni tinchlik yo‘li bilan hal qilish mumkin, buning uchun millionlab insonlarni qurbon qilmay turib. Zero urushda g‘oliblar hech qachon bo‘lmaydi. Har ikki tomon ham nimalarnidir yo‘qotadi.

Ana shunday fikrlar xilma-xilligi bilan o‘quvchilar intellektini maksimal ishlatishga undash, yuzaki ayblovchi va ta yyor fikrlardan qochish, nima bo‘lganda ham o‘quvchilarga hayot va inson xarakteri murakkabligi, asar qahramonlari ham huddi mavjudlikdagi tirik shaxslar ekanligi, ular ustidan osongina yaxshi yoki yomon hukmini chiqarib qo‘yishdan qochish, masalaga jiddiy yondashish, obrazga

hukm chiqarishdan koʻra uning taqdiridan oʻz hayoti uchun tegishli xulosa chiqarishga undash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.
2. Ҳошимов Ў. “Икки эшик ораси”. Роман. ─Т.: “Sharq”, 2012. 346 б.
3. Саид Аҳмад. Уфқ. Трилогия. Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. 688 б.

USMON AZIMNING “SO‘NGSO‘ZLAR” ASARI HAQIDA

Malika Muslimova Baxtiyor qizi
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Usmon Azimning “So‘ngso‘zlar” kitobidan o‘z davrining yetuk ijodkorlari Shukur Xolmirzayev, Rauf Parfi, Shavkat Rahmonlarning hayoti va faoliyatiga doir muhim voqealarni qay tarzda yoritgani tahlil etiladi. Yozuvchining badiiy ifoda va mahorati haqida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Usmon Azim, “So‘ngso‘zlar”, ijod va ijodkor taqdiri haqida o‘ylar.

Annotation

This article analyzes how Usmon Azim's book "Afterwards" covers important events in the life and work of the great artists of his time Shukur Kholmirzaev, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon. Comments are made on the writer’s artistic expression and skill.

Key words: Osman Azim, "Afterwards", thoughts on creativity and the fate of the creator.

Shunday shoirlar borki, u elining yuzini yorug‘, nomini ulug‘, sharafini yuksaltiradi. Ularning ijodini koʻtarib dunyoga bog‘lagan, xalqining boʻyi osmon boʻladi. Boisi ular faqat qalbida borini yozadi, boshqasini emas. Qalbning esa millati boʻlmaydi. Oʻzining betakror ijodi bilan adabiyot ixlosmandlarining qalbidan joy olgan shoir, yozuvchi, tarjimon, dramaturg shubhasiz bu - Usmon Azimdir. Oʻzining “Insonni tushunish “ilk she’riy toʻplami bilan jamoatchilik e’tiboriga tushadi. Uning “Holat”, “Gʻussa”, ”Kuz”, “Fonus”, “Yurak” va boshqa she’riy toʻplamlari , “Jodu” nasriy toʻplami , “Alpomishning qaytishi” dramatik asarlari kitobxonlar tomonidan juda yaxshi baholanib kelinadi. Molyerning “Tartyuf” nomli she’riy dramasini tarjima qilgan. Asarlarining mazmun - mohiyati oʻzgacha edi. Takrorlanmas mavzular, she’rlari, dostonlari yorqin tuygʻularga,

ifodalarga boyligi, joshqin va jozibadorligi, goh shodon, goh mahzun ohanglari bilan kitobxon qalbidan joy egalladi. “Usmon Azimning “Tush”, “She’riyat”, “Otim qolar demagin”, “Baxshiyona” kabi qator to‘plamlaridagi she’rlarda yangicha badiiy talqinlarni ko‘ramiz, so‘zning yangicha ifoda imkoniyatlarini, ijtimoiy ma’no chuqurligini ko‘ramiz”,-deydi adabiyotshunos-olim N. Rahimjonov. [1.N.Rahimjonov, 228-bet].

Usmon Azimning e’lon qilingan “So‘ngso‘zlar” asari yo‘nalishi tamomila boshqacha. [2. Usmon Azim. So‘ngso‘zlar”. 2021]. Bu asar hayotiy tajribalar, kuzatishlar, adabiy suhbatlar va faqat o‘zigina guvohi bo‘lgan, hech kim bilmaydigan voqealar asosida yuzaga kelgan memuar asardir. Oldingi adabiy jarayonda ham “So‘ngso‘zlar” kabi asarlar bo‘lgan. Said Ahmadning “Yo‘qotganlarim va topganlarim”, Zarifa Saidnosirovanig “Oybegim mening” kabi asarlardir. Usmon Azim bu an’anani davom ettirdi.Bu asarlardan farqli jihati shundaki, o‘z hududidan bo‘lgan insonlarning bolalik xotiralari, o‘smirlik yillari va ijod almashish jarayonlari aks etgan. Xususan bu asarda Shukur Xolmirzayevga, Rauf Parfiga, Shavkat Rahmonga bo‘lgan munosabatlar, ularning tarjimai holi, hayotiy voqealari, suhbatlardagi xotiralar asosida mustahkamlanib boradi. Adibning yoshlik chog‘laridan boshlab, to bugunga qadar o‘z hayotida kechgan yorqin va takrorlanmas lahzalarning qog‘ozga tushushidir. Adib o‘zi aytganidek : ”Tavba. Men ham xotira yoza boshladim… Xotira yozmoq lozim. Mening yonimda ham kimlardir yo‘q. Nimalardir qaytmas bo‘lib ketgan. O‘tganlarning o‘rnini hech kim bosolmaydi. Bu dunyoni men ko‘rgan tarzda boshqa birov ko‘rolmaydi” deb aytadi. (“So‘ngso‘zlar”, 4-bet). Qaytmas bo‘lib ketgan yozuvchilardan biri Shukur Xolmirzayev haqida to‘xtalar ekan, yozuvchi shunday xotirlaydi: “Shukur aka bilan tushlik qilayotgan edik. U kishi ellik yoshlarga etib qolay degan paytlari. Men “yubileyingizni o‘tkazsak qanday bo‘lar ekan?”, -deb gap ochib qoldim. U kishi ovqat eyish asnosida : - Bo‘lmaydi, - dedi oddiy, ammo qat’iy ohangda. Men bir vaqtlar Odil Yoqubovning ellik yillik tavalludi tantanali nishonlanganini esladim. Biz ham bir tantana qilsak. Odil aka “Ulug‘bek xazinasi”ni yozgan edi. Shukur aka

e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan ohangda aytdi. Chunki u kishi hali Odil Yoqubovdek yubiley qiladigan yozuvchilik maqomiga erishmadim, deyayotganini tushundim. Atrofdagilarga oliftaday, hech kimni tan olmganday tuyulgan bu odamning botiniy kamtarligi meni ko‘p marta hayron qoldirgan”. (78-bet). Bu o‘rinda shuni ko‘rishimiz mumkinki Shukur Xolmirzayev o‘z ustida qattiq ishlaydigan, juda talabchan va o‘ta kamtar yozuvchi bo‘lgan. Shukur aka Boysunni juda yaxshi ko‘rgan, Boysun dunyodagi eng chiroyli joy, xalqi dunyoda yagona, odamalari esa mardlarning mardidir,- deydi. Uning asarlarida Boysun ifori, ruhiyati sezilib turadi. “Shukur Xolmirzayev umr bo‘yi “sovib“ yozishga uringan haroratli yozuvchidir.” (87-bet)

Biz Rauf Parfini faqatgina shoir sifatidagina bilar edik. Lekin uning tantiligi, kerak bo‘lganda ijodini birinchi o‘ringa qo‘yishi, insonlar qalbidagi poklikni ulug‘lovchi, hech qanday mansab va martabaga, unvonga qiziqmaganligini asar orqali bizga anglashinib boradi.

“Uning hech narsasi yo‘q edi. Uy, joy, pul, martaba va mansabga va yana hamma uchun muhim bo‘lgan allambalolarga qayrilib ham qaramagan. Pul – nima, xazon nima unga baribir edi. Ammo uning Vatani bor edi. Vatan ozodiligi uchun kurash umum ruhining ulg‘ayishida Rauf Parfining nihoyatda ulkan xizmati bor. Yo‘q bu yo‘ldagi amaliy ishlarga u bosh-qosh bo‘lgani yo‘q. Ammo unda ozodlikka cheksiz bir intilishi bor edikim, shoirning bu halol qalb harakati ko‘plarga yuqdi”(189-bet).

Ko‘rinib turibdiki, Rauf Parfi faqat va yana faqat ijod uchun, she’r uchun yashagan shoirdir. Shavkat Rahmon ijod jarayoniga qanday kirib kelgani va uni qanday tark etgani haqida “So‘ngso‘zlarda” juda ta’sirli va hayotiy ifoda etilgan. Shavkat Rahmon xalqparvar, oilaparvar, mehnatsevar, o‘ta ishonuvchan va oq ko‘ngil inson bo‘lganini ko‘ramiz. O‘sha mash’um O‘sh voqealari sodir bo‘lganda ayoli va bolalarini olib O‘shga etib boradi. Qurbon berganlarga tasalli beradi, g‘azab otiga minganlarni shashtidan tushirishga harakat qiladi. To‘rt tomonga yuguradi. Qonxo‘rlar Shavkatni o‘zini mo‘ljalga olganini bilsa ham, o‘z ona yurtini tashlab

ketmaydi. Yurti uchun juda qattiq qayg‘uradi va bu voqealar shoir hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bu voqealardan ozgina muddatdan so‘ng shoir og‘ir xastalikdan vafot etadi.

“Men har bir yosh iste’dodga boshqalarning emas, Shavkat Rahmonning izlanish uslubini tavsiya etgan bo‘lardim. Chunki, uning she’riyati izlanishning, mehnatning sabru toqatning mevasidir” deydi Usmon Azim. (234-bet). Albatta bunday shoir qayta tug‘ulmaydi. “Usmon Azimning she’rlarida olamni poetik idrok etishning yangi qirralarini ko‘rish mumkin”.- deydi Qozoqboy Yo‘ldoshev.[3.Q. Yo‘ldosh. “Yoniq so‘z”, 103-bet].

Usmon Azimning “So‘ngso‘zlar” asari ana shunday his tuyg‘ularga hayotiy voqealarga boy va beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Усмон Азим. Сўнгсўзлар. Т.: “Илм-зиё заковат”. 2020. – 512 б.
2. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. Т.: Фан. 2007.- 260 б.
3. Қозоқбой Йўлдош. Ёниқ сўз. Т.: Янги аср авлоди.- 548 б.

AGIOGRAFIK ASARLARDA BADIIY DETALNING AHAMIYATI (Nosuriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asari asosida)

G‘afurova Dilobar G‘ayrataliyevna
Farg‘ona davlat universtiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada agiografik asarlardagi qissa va hikoyalarda detalning tutgan o‘rni haqida fikrlar bildiriladi. Uning ahamiyati “Qissasi Rabg‘uziy” asari tarkibidagi ayrim qissalar kesimida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: agiografik asar, badiiy detal, obraz.

Annotation

This article provides insights into the role of detail in agiographic narratives and stories. Its significance is analyzed in some of the stories in Rabguzi's Story.

Key words: agiographic work, artistic detail, image.

Agiografik asarlar payg‘ambarlar va avliyolarning hayoti asosida yaratilgan bo‘lib, asosan diniy mavzuda yoritiladi. N.Hotamovning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da agiografik asarga quyidagicha ta’rif berilgan: “Payg‘ambarlar va avliyolarning hayoti va sarguzashtlarini

tasvirlovchi qissa va hikoyalar. Masalan, Nosuriddin Rabg‘uziyning “Qissasul-anbiyo“ nomi bilan mashhur bo‘lgan (“Payg‘ambarlar qissalari”), A.Navoiyning “ Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambarlar va donishmandlar tarixi”) shular jumlasidandir. Bunday asarlar “Manoqib” (masalan, “Manoqibi Xo‘ja Ahror”) yoki “Tazkira” (masalan, “Tazkiratul-avliyo”) nomi bilan ham tuzilgan, jam etilgan[Hotamov.Sarimsoqov,1979:21]. “Qissasi Rabg‘uziy” Raboto‘g‘izning begi Nosuriddin To‘qbug‘aning iltimosiga binoan yozilgan. Rabg‘uziy asarning muqaddimasida uning yozilish sabablarini keltirib, payg‘ambarlar tarixiga g‘oyat rag‘bati bor ekanini aytadi. Asar bir yil ichida, ya’ni, hijriy 710-yilning hut oyida yozib tugatilgan. U Rabg‘uziyning bizga etib kelgan yagona adabiy merosi bo‘lib, kitobat olamining betakror obidasiga qiyoslanadi. Asar qadimgi turkiy tilda yozilgan. Unda, asosan, Qur’on oyatlari va hadislardan keng foydalanilgan. Shuningdek, Nishopuriyning “Qissasul anbiyo“ asaridan foydalanganligi haqida ham ma’lumotlar bor. Bundan tashqari “Qissasi Rabg‘uziy” adibning badiiy ijod mahsuli hamdir. Asar 72 ta qissadan tarkib topgan bo‘lib, unda olamning bino qilinishi, odamning yaratilishi, Odam atoning jannatdagi hayoti, Havoning odamdan yaralishi, iblisning makri, odamning gunoh tufayli jannatdan yerga tushirilishi, yerdagi hayotning boshlanishi va qator payg‘ambarlar tarixidan lavhalar o‘rin olgan. Har bir qissa ichida hikoyatlar keltirilib, Rabg‘uziy ularda detalning turli shakllaridan keng foydalangan. Masalan, “Odamning yaratilish bayoni”da Olloh odam vujudiga ato qilgan narsalar xususida shunday deyiladi: “Odam vujudiga to‘rt narsani ato etdi. aql, ruh, nafs, ko‘ngil. Har birini bir narsadan oldi. Ko‘ngilni suvdan, ruhni shamoldan, aqlni tuproqdan, nafsni o‘tdan.” [Rabg‘uziy, 2018:12].

“Hazrat Odam vujudlaridan Hazrat Havoning yaratilishi bayoni”da ta’qiqlangan daraxt (shajarai-mamnu’) haqida yozadi. Iblisning makriga uchib bu mevani (bug‘doy) eyishlari hamonoq jannatdan mahrum bo‘lishlari hikoya qilinadi. Bu o‘rinda detal (daraxt) ga yuklatilgan vazifa juda katta. Bir dona bug‘doy tufayli Odam yerda yashashga mahkum etildi.

Nuh alayhissalom qissasida ham juda koʻp detallarga duch kelamiz. Bularning ichida eng katta vazifani bajargan detal suvdir. Suv Ollohning Nuh paygʻambar ummatiga yuborgan balosi edi. “Shu kuni bir kampir tandirda non yopar edi. Tandir ichidan suv chiqa boshladi, keyin hamma yerdan chiqdi, osmondan yogʻdi, er yuzi suvga toʻldi.” [Rabgʻuziy,2018:47]. Suv Nuhning kemasidagilardan boshqa barcha inson, hayvonot va nabobot suv ostiga gʻarq boʻladi. Xatto togʻning ustiga chiqib olganlar ham suvga choʻkdi. Bundan koʻrinib turibdiki, suv togʻlardan ham yuqori koʻtariladi. Yana bir detal uzum urugʻi. Urugʻni iblis berkitishi, topib berish uchun uzumni uch martta sugʻorishni shart qoʻyishi bayon qilinadi. “Vaqtiki erda tushib urugʻ ekilgach, avval tulki, keyin boʻri, soʻngra toʻngʻiz qoni bilan sugʻoradi. Shuning uchun uzumdan chogʻir qilinsa, ozgina ichgan odam tulkidek har kim bilan doʻstlashib ketadi, koʻproq ichgan boʻridek zoʻravonlik qiladi. Oxir toʻngʻizdek toʻgʻri kelgan joyda agʻanab yotaveradi.” [Rabgʻuziy,2018:47].

Agar “Sulaymon alayxissalom qissasi”dagi detallarga nazar tashlasak, avvalo “uzuk” detali e’tiborimizni tortadi.. Fariduddin Attorning “Mantiq ut tayr” asarida uzukka bergan ta’rifida hech gavharda Sulaymon uzugidagi gavharday izzat-qadr hech gavharda boʻlmagani va shu uzuk tufayli shohning shuhrati ziyoda ekani aytiladi. Ya’ni, Sulaymon gavharni uzukka joylaganda, er yuzining unga qaram boʻlganligi tasvirlanadi. Shuningdek, uning eni qirq farsax keladigan soyaboni haqida ham fikrlar keltirilgan. Bundan tashqari qissada “shamol” detaliga duch kelamiz. Shamol Sulaymonga boʻysundirilgan boʻlib, uning ulkan taxtini koʻtarib uchirib yuradi.

Rabgʻuziy shamol, tuproq, suv, olov kabi tabiat unsurlaridan qissalarida mahorat bilan foydalangan. Masalan, “olov” detali “Hazrati Ibrohim qissasi”da Ibrohimning Namrud tamonidan olovga otilishi voqeasida uchraydi. Namrud toʻrt yil oʻtin yigʻdirib, toʻrt kunlik yoʻlga oʻt yogʻdirgani va uning uchquni oʻn kunlik yoʻldan koʻrinib turishi tasvirlanadi. Ibrohimni manjaniqqa oʻtqazib, olovga otadilar, hargiz kuymaydi. Namrud minora tepasiga chiqib koʻradiki, Ibrohim

gulzorda o‘tirib, ibodat qilmoqda. Ya’ni gulxanning gulshanga aylanishi mo‘jizasi bayon etilgan.

Bunga o‘xshash detallarni Rabg‘uziy asaridan istagancha keltirish mumkin. Ayrim o‘rinlarda detalning obrazga aylanishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, “Yer yuzidan tuproq olinishi bayoni”da olingan rango-rang tuproq detal misolida ko‘ringan bo‘lsa, odam yaratilishi bilan bog‘liq munozarada obraz tusini olgan. Qachonki Olloh odamni yaratishni iroda qildi, Osmon aytdi: “Mendan yaratsa kerak, man hammadan balandman.” . Oltin aytdi: “Men hammadan azizman.” Tog‘ aytdi: “Men hammadan quvvatliman.” Dengiz aytdi: “Men hammadan haybatliman.”Tuproq aytdi: “Men hammadan zaif va oyoq ostidagi xor-zor, qoradirman, albatta, mendan yaratmas.” [Rabg‘uziy, 2018:13].

N.Rabg‘uziyning Qissasi Rabg‘uziy asari agiografik asarlarning nodir namunasi hisoblanadi. Asar XIV asrda yozilgan bo‘lsa ham, haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Rabg‘uziy qissalarida detalning ajoyib namunalarini uchratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rabg‘uziy.Qissasi Rabg‘uziy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi , 2018. – B. 12,13,47.
2. Ҳотамов Н, Саримсоқов Б.. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луёати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 262 б. В. 21.

NURALI NURMAT O‘G‘LI ERTAKLARIDAGI SHE’RIY PARCHALAR

Qodirov Umarjon Akramjon o‘g‘li
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti
umarqodirov6669@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Nurali Nurmat o‘g‘lidan yozib olingan ertaklar tarkibidagi she’riy parchalar xususida so‘z yuritiladi. Bu parchalarning badiiy xususiyatlari haqida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: “Luqmoni Hakim”, ertak, she’r, og‘zaki ijod, “Yo‘lchi-bo‘zchi”, Nurali, qiziqchilik.

Annotation

The article discsusses poetic parts of fairy tales which was noted from Nurali Nurmat oglu.

Key words: “Luqmoni Hakim”, fairy tales, poems, verbal art, “Yolchi-bozchi”, Nurali, harlequinade.

Nurali Nurmat o‘g‘li Farg‘ona vodiysidan etishib chiqqan mashhur ertakchilardan biri. U 1884-yilda Qo‘qon shahri atrofidagi qishloqlardan birida tug‘ilgan. Nuralining onasi nihoyatda gapga chechan, oqila ayol bo‘lib, uzun kechalarda bolalariga ertak aytib berib uxlatardi. Yosh Nuralining ongida, zehnida bu ertaklar muhrlanib qolardi. Keyin o‘zining o‘rtoqlariga bu ertaklarni hikoya qilib berardi. Nurali Nurmat o‘g‘lining yashagan davriga nazar solsak, uning hayoti jamiyatdagi juda katta o‘zgarishlar ro‘y bergan vaqtlarga to‘g‘ri kelganini kuzatamiz. Uning yigitlik paytlari Birinchi Jahon urushi yillariga, 1917-yildagi Rossiyadagi davlat to‘ntarishi va keyingi grajdanlar urushi yillariga to‘g‘ri kelganini ko‘ramiz. U Ikkinchi jahon urushini ham boshidan o‘tkazgan. Manbalarda uning ertakchilik va qiziqchilik faoliyati asosan Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda kuchaygani aytiladi. Uning tilidan yozib olingan ertaklarni birinchi marta 1950-yilda folklorshunos Hodi Zarifov nashr ettirgan. Oradan qirq yil o‘tib, 1990-yilda folklorshunoslar To‘ra Mirzayev va Zubayda Husainovalar Nurali Nurmat o‘g‘lining tilidan yozib olingan ertaklarni to‘liq holda nashr qildirdi va unga “Luqmoni Hakim” deb nom qo‘ydi.

Biz ushbu maqolada “Luqmoni Hakim” to‘plamidagi ertaklar tarkibida kelgan she’riy parchalar haqidagi ayrim kuzatishlarimizni bayon qilamiz. To‘plamdagi ertaklarda turli munosabatlar bilan she’riy parchalar keltiriladi. Bu she’riy parchalar ertakchining maqsadini yana-da aniq va yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “Yo‘lchi-bo‘zchi” ertagida ko‘plab ana shunday misollarni uchratamiz.

Ertakning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Bir qishloqda Yo‘lchi ismli bo‘zchi bo‘ladi. Uning oldiga ko‘p tanish-bilishlari bo‘z to‘qib bering, deb ip tashlab ketgan edi. Bo‘zchining uyini o‘g‘ri urib ketadi. Bo‘zchi nima qilishini bilmay, qishloqdan bosh olib chiqib ketadi. Tirikchilik uchun turli-turli sarguzashtlarni boshidan o‘tkazib, oxiri bir qassobning oldiga borib, undan bir ho‘kizning shoxini so‘rab olib, ipga bog‘lab, odamlar ko‘p o‘tadigan yerga ho‘kiz shoxini tashlab qo‘yib, o‘zi ham o‘sha joyda o‘tiradi. O‘tgan-ketganlar “Bu

shoxni ipga bog‘lab, yerga tashlab nima qilib o‘tiribsiz?” deb savol berishganida, u ikki pul bersangiz sababini aytaman, deydi.

Va mana shu savol-javob jarayonida, Yo‘lchi bo‘zchining o‘tkinchilarning savollariga bergan she’riy javoblarida uning boy ma’naviy dunyosi namoyon bo‘ladi. Javob berish asnosida bo‘zchi o‘zining og‘ir ahvolga tushib qolgani haqida ham, hayotdagi ayrim holatlar xususida ham fikrlarini bildirib o‘tadi. Masalan, yo‘lovchilardan birining:

– Birodar, ho‘kizning shoxi u yoqda, o‘ltiribsiz bu yoqda, nimaga shunday? – debdi. Bo‘zchi:

– Ikki pul bersangiz aytaman, bo‘lmasa aytmayman, debdi. Bu odam ham ikki pul beribdi.

Pulni cho‘ntakka solib, belini mahkam bog‘lab:

Bo‘zchi bilganin to‘qir,
Har kim bilganin o‘qir.
Ota ko‘rgan o‘q bichar,
Ona ko‘rgan to‘n bichar... –

deb, – ikki pulingizga kelgani shul, – debdi. [Luqmoni Hakim, 1990: 57].

Bu keltirilgan she’riy misolda ikkita xalq maqoli zikr qilinmoqda. Birinchisi, “Bo‘zchi bilganini to‘qir, mulla bilganini o‘qir” mazmunidagi xalq maqolining sal o‘zgargan shakli. Ikkinchisida “Ota ko‘rgan o‘q bichar, ona ko‘rgan to‘n bichar” xalq maqoli aynan keltirilgan.

Navbatdagi yo‘lovchining savoliga shunday javob beradi:

Sadafsiz dur bo‘lmas,
Tikansiz gul bo‘lmas,
Mashaqqatsiz hunar bo‘lmas,
Ko‘p mehnat qilmaguncha
Yor vasliga etib bo‘lmas. [Luqmoni Hakim, 1990: 58].

Bu she’riy parcha otashnafas shoir Boborahim Mashrabning xalq orasida juda mashhur bo‘lgan:

Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas,
Riyozat chekmaguncha yor vasliga etib bo‘lmas, [Mashrab, 1990: 198]

baytining xalq tilidagi variantlaridan biridir.

Bo‘zchi yo‘lovchilardan birining savoliga shunday deya javob beradi:

Otang sherdir,
Sen ham sherday qiliq qil.
Kishi senga qilsa yomonlik,
Unga qilgin harchand yaxshilik. [Luqmoni Hakim, 1990: 59].

Bu she’riy parcha mutasavvif shoir So‘fi Olloyorning “Sabotul ojizin” asaridagi quyidagi baytning xalq tilidagi variantidir:

Otang erdur, senam erdek qiliq qil,
Yomonlik aylaganga yaxshilik qil. [Zohidov, 2018: 303].

So‘fi Olloyorning ushbu baytini filologiya fanlari doktori Rashid Zohidov “Sabotul-ojizin”ga yozgan sharhi – “Ravoyihur rayhon” asarida kengaytirib sharhlagan. Bu baytning bir necha muqobil variantlarini keltirib o‘tgan va yuqorida biz keltirgan varianti eng to‘g‘ri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Nurali Nurmat o‘g‘li, tabiiyki, o‘z ertaklari ichida kelgan she’riy parchalarning mualliflari kim bo‘lganligidan xabardor bo‘lmagan. Ertakchi bu she’riy parchalarni og‘zaki tarzda eshitgan va eshitganlarini shundayicha hikoya qilgan. Ma’lumki, Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyor, Boborahim Mashrab kabi ijodkorlarning she’rlari xalq orasida juda keng tarqalgan, ko‘p o‘qilgan va ko‘p yodlangan. Aksariyat holatlarda odamlar bu she’rlarni kitobdan emas, o‘z ota-onalaridan, ustozlaridan og‘zaki eshitib yodlaganlar. Bu asarlar og‘izdan og‘izga o‘tish jarayonida ayrim o‘zgarishlarga ham uchragan. Natijada muayyan she’riy parchadagi fikr saqlangani holda, undagi so‘zlar yoki so‘zlarning o‘rinlari o‘zgargan. Nurali Nurmat o‘g‘lining ertaklari tarkibida kelgan she’riy parchalar, xalq maqol va matallarida ham ayni holatni kuzatish mumkin.

Ushbu she’riy parchalar, maqol va matallarning asl matni bilan tanish bo‘lgan kishi ularning qaysi shoir ijodiga mansubligini osongina aniqlaydi. Chunki ushbu parchalar aksariyat holatlarda mashhur va keng tarqalgan misollar bo‘ladi. Ba’zan keltirilgan she’riy misol aynan biror shoir qalamiga mansub bo‘lmasa ham, shoirning biror mashhur she’rining shakliga taqlidan yozilgani ko‘rinib turadi.

Masalan, “Luqmoni Hakim” to‘plamiga kirgan “Safsatayi gap” ertagidagi quyidagi she’riy parchaga diqqat qilamiz:

Bundan o‘tib bordim Beshariq,
Dalasiga ekkani hammasi tariq.
Oshxonasiga kirsam,
Xo‘jayini sap-sariq. [Luqmoni Hakim, 1990: 61].

Bu parcha shoir Muqimiyning mashhur “Sayohatnoma” asaridagi quyidagi misralarni yodga soladi:

Ko‘p odamidin “Beshariq”,
Bog‘larda ekmishlar tariq.
Yetim haqi – go‘shti baliq,
Qilmishlari nayrang ekan. [Muqimiy, 2010: 279].

Albatta ertakda keltirilgan she’riy parcha bilan Muqimiy “Sayohatnoma”sidagi she’rning orasida farq katta. Ertakdagi she’rda she’rning ko‘p jihatlariga putur etgan. Vazn buzilgan, misralar orasidagi muvozanat ham yo‘q. Lekin she’riy parchaning asosida Muqimiy misralari yotganligi bilinib turibdi.

Xalq ertakchisi Nurali Nurmat o‘g‘lidan yozib olingan “Luqmoni Hakim” to‘plamidagi ertaklarda keltirilgan she’riy parchalarning aksariyati mashhur shoirlarning xalq og‘zida keng tarqalgan she’rlari bo‘lib, ularga og‘zaki nutq unsurlari aralashib ketgan va muallif variantidan ancha farqli holga kelgan. Lekin she’rlarning mazmuni, shakli asosan saqlanib qolgan. Bu she’riy parchalar Nurali Nurmat o‘g‘lining yozma adabiyot namunalaridan (garchi ularni o‘zi matndan o‘qib o‘rganmagan bo‘lsa ham, ularni eshitib, yodlab, ularga ayrim ijodiy o‘zgartirishlar kiritib) unumli foydalanganini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Luqmoni Hakim. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990. – B. 224.
2. Muqimiy. Bog‘ aro. – T.: Akademnashr, 2010. – B. 312.
3. Zohidov R. Ravoyihur rayhon. – T.: Sharq, 2018. – B. 480.
4. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990. – B. 416.

BADIIY ASAR KOMPOZITSIYASIDA PORTRETNING O‘RNI

Alijanova Maftuna Azimjon qizi
FarDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada badiiy asar kompozitsiyasi va unda portretning o‘rni tadqiq etilgan. Portretning statik va dinamik turlari haqida fikr yuritilgan**.**

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, shakl va mazmun, syujet, badiiy portret, statik, dinamik, g‘oyaviy-estetik maqsad.

Annotation

The article examines the composition of the work of art and the role of the portrait in it. Static and dynamic types of portraiture are discussed.

Key words: composition, form and content, plot, artistic portrait, static, dynamic, ideological and aesthetic purpose.

Badiiy asarda mazmun va shaklning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashda kompozitsiyaning roli kattadir. Kompozitsiya grekcha so‘z bo‘lib, qurilish, tuzib chiqish, tartibga solish degan ma’nolarni anglatadi. Demak, kompozitsiya bu syujet bo‘laklarining, detallarning, badiiy-tasviriy vositalarning yozuvchi g‘oyaviy-estetik maqsadiga ko‘ra muayyan tartibda joylashtirilishi. Shunday ekan, “badiiy asar qismlarining, detallarning san’atkor ko‘zda tutgan g‘oyaviy-estetik niyatga muvofiq ma’lum me’yorda yaratilishi va joylashtirilishi badiiy asar kompozitsiyasi deyiladi” (Shukurov N., v.b. 1979: 90.) Akademik Izzat Sulton kompozitsiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik kompozitsiya deb ataladi. Asar kompozitsiyasi, dastavval, muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabatini belgilaydi, ya’ni kompozitsiya birinchi navbatda g‘oyaviy-estetik tushunchadir”. Ko‘rinadiki, kompozitsiya asar shakli, g‘oyasi va mazmuniga uzviy bog‘liq tushunchadir. “Kompozitsiya asardagi unsurlarni shunday uyushtradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unsurning o‘zi bo‘lmaydi, zero har bir unsur asar butunligida o‘zining funksiyasiga ega bo‘ladi, muayyan g‘oyaviy-badiiy yuk tashiydi”. [Quronov D. 2005, 112) Badiiy asar faqat voqealar tizimidangina iborat emas, unda rivoya, tafsilotlar, peyzaj, portret, interyer, lirik chekinish, qistirma epizod kabi sujetdan tashqari qator usrurlari ham mavjud. Yozuvchi bu unsurlardan me’yorida foydalanadi, natijada badiiy asarning

ta’sirchanligi ortadi. Kompozitsiya unsurlari biri ilkkinchisiga o‘zaro hamohanglikda bog‘lanadi va albatta, o‘z o‘rnida qo‘llanilishi lozim.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati”da portret (fr. tasvirlamoq) – personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari) o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir. (Quronov D, 2013: 226) Professor D.Quronov portretning turlari haqida fikr yuritib, statik va dinamik portretlarni quyidagicha izohlaydi: statik portret navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda mufassal, detallashtirib chiziladi. Dinamik portretda esa voqea va dialoglar tasvirida, ya’ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko‘rinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi. Bunday portret detallari personajlar ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi. (Quronov D, 2013: 226) A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida Ra’no portreti quyidagicha chizilgan: “…bu go‘zal qiz och ra’no gulning tusida, yoki oq-sariq tusda yaratilgan edi... Ra’noning sochi gungurt-qora, ya’ni quyoshsiz joylarda qora ko‘rinsa ham, quyoshda biroz sarg‘ish bo‘lib ko‘rinar edi. Shunga o‘xshash, Ra’noning ko‘zida ham buning asari ko‘riladi: shu davraga moyilroq jodu ko‘zi ishiga qattiq qaraganda qoralikdan boshqacha yana bir turli qizg‘ish nur sochar edi. Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko‘rinsa ham ko‘ndalang yotgan ikki qilich orasini nafis bir quyilib ko‘tarilish ajratib turar edi”. Yozuvchi Ra’no portretini chizar ekan, uning ichki va tashqi qiyofasini mutanosiblikda tasvirlaydi. Adib Ra’no portretini yaratar ekan, statik portret navidan foydalanganligini ko‘rish mumkin. Adabiyotshunos olim E.Xudoyberdiev ta’kidlaganidek: “Yozuvchilar adabiy asarlarda qahramonlar ruhiyatini, xarakterlarini ochishda ularning tashqi qiyofalari, ya’ni portretlarini chizishga jiddiy e’tibor beradilar. Ko‘pincha qahramonlar portreti ularning tashqi ko‘rinishlaridagi belgilarini jamlash yo‘li bilan hosil etiladi” [Xudayberdiyev E. 2003: 97].

Murod Mansur “Judolik diyori”da bir qator xotin-qizlar obrazlarini ham yaratadi, bular o‘z portreti, xarakteri bilan bir-birlaridan farq qiladilar, voqealarning borishida faol ishtirok etadilar. Romandagi asosiy obrazlardan biri – Salomxon aya obrazidir. Asarda Salomxon ayaning tashqi ko‘rinishiga, portretiga deyarli chizgilar berilmagan, biroq gap ohanglari, ruhiy munosabatlar bilan yuzida aks etadigan o‘zgarishlar tasvirlanadi. Romanning asosiy qahramonlaridan yana biri – Marg‘uba obrazidir. Yozuvchi uning portretini tabiat tasviriga qiyoslab yaratadi, tashqi libosga e’tiborini ko‘proq jalb qiladi. Adib Marg‘ubaning kelin salomini, qiyg‘os gullab, egilib turgan shaftoliga qiyoslaydi. Yozuvchi ibo, hayo deb atalmish go‘zal xislatlarni ham Marg‘uba portretiga singdirib yuborgan. Tashbeh san’ati ham o‘rinli qo‘llangan. Marg‘uba portreti tasvirida, yozuvchi qahramon qiyofasini to‘la ma’noda yoritmay, balki voqealar davomida uning xarakter xususiyatlarini berish orqali ham tashqi, ham ichki qiyofasini chizadi. [Tursunova S., 2012: 178]. Ko‘rinadiki, “San’atkor yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasini chizish orqali ham uning ruhiyatiga kirishga intiladi. Xususan, portret unsurlaridan ko‘z, yuz, kulgi, ko‘z yoshi va boshqalar san’atkor uchun qahramon ruhiy dunyosini ochuvchi kalit bo‘lib xizmat qiladi. [Boboyev T., 2002: 178].

Xulosa qilib aytganda, badiiy portret insonning tashqi ko‘rinishi, yuzi, kiyimi, yurish-turishi tasviri bo‘lib, qahramonning ma’naviy qiyofasini yorqinroq, aniqroq tasvirlash san’atidir. Mahorat bilan yaratilgan portret tasvirida qahramonning yoshi, kaysi ijtimoiy tabaqaga xosligi, kasbi, mashg‘uloti, madaniy darajasi, xarakteri, odobi, psixikasi, ruhiy holatlari, hattoki, qaysi davrga mansubligi ham o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шукуров Н., Хотамов Н., Холматов Ш., Маҳмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 246 б. В.90.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshкент: 2018. – 228 b. B. 112
3. Адабиётшунослик луғати. (Д. Қуронов ва б.) “Академнашр” Т. : 2013. 408 б.
4. Худайбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Toshкент. 2003. – 224 б. Б. 97
5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: 2002. – В. 178.
6. Турсунова С. Романда портрет тасвири // Sharq yulduzi, 2012, № 4.

O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI KARRA IKKI-BESH’’ ASARIDA BOLA RUHIYATI TASVIRI

Nodira Tuychiboyeva
FarDU 1-kurs magisrtranti

Annotatsiya

Ushbu maqola orqali O‘.Hoshimov asarlarida bola ruhiyati talqinlari, dialog va monologlarning qahramon ruhiyatini ochib berishdagi ahamiyati psixologik tasvir nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: dialog, monolog, individual uslub, idrok protsessi, nekbin tuyg‘ular.

Annotation

This article analyzes the interpretation of the child's psyche in the works of O‘.Hoshimov, the role of dialogue and manologues in revealing the psyche of the hero in terms of psychological imagery.

Key words: dialogue, monologue, individual style, cognitive process, feelings.

Keyingi yillarda adabiyotshunoslikda ‘’Bola ruhiyati’’masalasi asosiy dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Bu mavzuga qiziqishning ortib borishi tasodifiy emas, albatta. Bunga sabab mavzuga oid materiallarning yetarlicha ekanligi hamda mavzu zamirida umuminsoniy va umummilliy dard yotishi, millatning ertasidan qayg‘urish masalasi ustvor ekanligi, insonlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bosh mavzuga aylanganligi va boshqalar.

XX asrga kelib ushbu mavzu yuzasidan rus adabiyotshunosligida tadqiqotlar olib borildi. Xususan V.Belinskiy, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy shular jumlasidan. Ular bolarning dunyoqarashi shakllanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyos ekaligini ta’kidlab, o‘qish kitoblarini tuzishda xalq og‘zaki poetik ijodiga alohida o‘rin ajratdilar. Xalq og‘zaki poetik ijodidagi obrazlarning yorqinligi, matnning ohangdorligi, so‘z ma’nolarining aniqligi va musiqiyligi bola ruhiga ma’naviy kuch va ozuqa beradi. Bu davrda yurtimizda ham mavzu doirasida H. H. Niyoziy, A. Avloniy, S. Ayniy kabi ma’rifatparvarlar ish olib borganlar. Bugungi kunda ham bu tadqiqotlar davom ettirilmoqda. A. Rasulov, A. Qosimov, S. Boboyeva, R. Umurzaqov va boshqalar shular jumlasidan.

XVIII asrda Yevropada keng quloch yoygan ma’rifatchilik harakati va Turkistondagi jadidchilik harakati o‘zining ko‘p jihatlari bilan o‘xshashlik kasb

etadi. Bu davr adabiyotida asar qahramonlari taqdiri, ularning jamiyatdagi o‘rni maqomi, kelib chiqishi,nasl-nasabi bilan belgilangan. Bunday qarashlar yaqingacha ham o‘z tasirini yo‘qotmagan edi. Jamiyatdagi bunday illatlar ijodkorlar tomonidan satirik kulgi ostiga olingan lekin hech kim ochiq gapiraolmagan. Shu kabi ilattlar yorqin ifodasini topgan asarlardan biri bu O‘. Hoshimovning “Ikki karra ikki-besh’’asaridir. [1.O‘tkir Hoshimov. “Ikki karra ikki – besh”1995]. Asardagi obraz yaratish mahorati va voqealar orasidagi izchillik natijasida yozuvchi bola obrazi orqali ijtimoiy mohiyatdagi soxtalikni fosh etib bergan.Albatta bu bola ongiga ta’sir o‘tkazmay qolmagan. Hozirda so‘z erkinligiga yo‘l qo‘yib berilganligi sabab bunday muommolar o‘z yechimini topmoqda.

Dialog shakli o‘quvchida o‘z-o‘zidan masalani faol mushohada qilishga undashi, qolaversa, baxs mavzusiga jonli qiziqish uyg‘otishi bilan ko‘plab yozuvchilarni o‘ziga jalb etgan deyishimiz mumkin. Chunki ushbu shakl orqali qahramonlar xarakteri va bevosita o‘sha jarayon aks ettiriladi. Badiiy asardagi dialog muommosi muloqot nazariyasining alohida ulkan sohasidir. V.Vinogradov “nutqning turli shakllarini monologik tuzilmalar doirasida birlashtirish tamoyillarini tushunish’’ vazifasini qo‘ydi.[2]. Muallifning asariga dialogni kiritish muommosi hodisalarni uzatish muommosi bilan chambarchas bog‘liq. Y. Shvedovaning ta’kidlashicha, “tilning eng xilma-xil tomonlari yozuvchining dunyoqarashi va mahorati prizmasida aks ettirilgan,singan’’. Badiy adabiyotda qo‘llaniladigan to‘g‘ridan –to‘g‘ri nutqning barcha shakllaridan diolog ko‘proq kundalik hayot xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, O‘.Hoshimovning “Ikki karra ikki-besh’’asaridagi quyidagi dialog yuqoridagi fikrni asoslaydi:

-Tirikmisan bolajonim !-dedi ovozi bitta, o‘zi ikkita onam.

-Tirikmisan, enalar!-dedim iljayib.

Keyin boshimga otam egildi.

-Nima bo‘ldi, Qo‘shoqvoy ?

Negadir dadamning koʻzi toʻrtta boʻlib koʻrindi. Oʻng qoʻlimninig toʻrtta barmogʻini dikkaytirdim.

-Koʻzlaringizga qoʻllarimni tiqib olaymi?

Dadam hurkib, oʻzini orqaga tashladi.

Badiiy nutqning dialoglarida kundalik hayotda tez-tez yuzaga keladigan noqulaylik suhbat mavzusi yoʻqligi sababli pauza holatlari deyarli yoʻq.Yozuvchi hodisalarni xolisona aks ettirishga harakat qiladi.Shu sabab oʻzining badiiy vazifalariga ham boʻysundirishini hisobga olgan holda badiiy asar materiali asosida oʻrganish mumkin.Avvalo, muallif kundalik nutq va nutqdagi suhbatning oʻziga xosligiga e'tibor qaratadi. Ogʻzaki nutqning oʻylanmasligi hamda yozuvchining muvozanatli yozishi oʻrtasida ziddiyat yuzaga keladi,shuning uchun muallif diqqat bilan tanlaydi.Bu muallifning individual uslubini belgilovchi omillardan biridir. Oʻz navbatida dialoglar asar syujetida ishtirok etadigan qahramonlarning xarakterlarini bevosita ochib berishda muhim rol oʻynaydi.Shuningdek, badiiy adabiyotda monolog ham chuqur ildiz otgan. Monologlar-bu shaxs tomonidan yolgʻiz yoki boshqalardan psixologik ajratilgan holda aytilgan gaplar. Bu oʻziga xosligi boʻyicha ham ichki nutq, shu sabab asar qahramonlarining ruhiy holatlarini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Bu "Ikki karra ikki-besh'' asari qahramoni Qoʻshoqvoy monologida yaqqol koʻzga tashlanadi. "Munday qarasam, dadam direktorga, direktor dadamga tikilib turibdi. Ikkalasidan ham sado chiqadigan emas. Aniq sezib turibmanki, hozir qoʻshib hisoblash kasalim qoʻzgʻamayapti''. Asarda keltirilgan shu kabi monologlar bola qalbida, ruhiyatida kechayotgan oʻzgarishlarni ochishga xizmat qilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar oʻzlarining sinchikovliklariga koʻra, atrofdagi olamdan koʻplab taassurot oladilar, yangiliklarni bilishga boʻlgan qiziqishlari ortadi. Bu davrda bolaning yoshiga xos boʻlgan aktivlik paydo boʻladi va rivojlana boradi, bu oʻz navbatida uning ham jismoniy ,ham psixik jihatdan oʻsishida muhim ahamiyatga ega. Fikrimizni oydinlashtirish uchun konkret misolga murojaat qilish maqsadga muvofiq.''Hech qanaqa kasal boʻlgan emasman! Bolaligimda ham, undan keyin ham...Angina-mangina, qizamiq-pizamiq –birontasi

bizga yo‘lagan emas! U yog‘ini so‘rasangiz, besh yoshga to‘lgunimcha yalong‘och yurganman! Nima? Ha, qishdayam. Bir kuni desangiz, qahraton qishda hovuzning muzini yorib, ichiga tushib olganman. Dadam velosiped olib beraman, deb vada qilmaguncha, hovuzdan chiqmaganman. O‘shanda onam ’’voy endi nima qildim, bolajonim o‘lib qoladi’’deb chirqillagani esimda... Baloyam urmadi... Qaytaga mazza qildim: yalong‘och odam erkin nafas oladi-da, to‘g‘rimi? Qolaversa, inson bolasi o‘zini-o‘zi chiniqtirishi kerak’’. (123-bet). Aynan shu davrda bolalarda axloqiy sifatlar shakllana boshlaydi. Kichik yoshdagi bolalarning xayolot olami tizgini ko‘klarda parvoz qilguvchi bo‘ladi. Uning ko‘ziga dunyo mutlaqo nomalum bir narsa bo‘lib ko‘rinadi, ammo bola uni bilishga intiladi. Had-hudud bilmas xayolot qanotida uzoq o‘lkalarga sayohat qiladilar g‘ayritabiiy sarguzashtlarni boshdan kechiradilar, aql bovar qilmas ishlarni amalga oshiradilar. Yozuvch bolalardagi shunday holatlarni anglab, his etgan holda uning xarakterini yaratishga harakat qiladi, ya’ni bola hayotidagi xarakterli voqea –hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda tasvirlaydi. Masalan, Qo‘shoqvoy bilan sodir bo‘lgan ‘’yong‘oq voqeasi’’ni esga olaylik.’’Eng yuqoridagi shohni siltaganimni bilaman. Bir mahal qarasam...telvizorda ko‘rsatadigan suvga sho‘ng‘uvchilar bor-ku, o‘shanga o‘xshab loyxandaqqa kalla tashlab tushyapman’’(201-bet). Kichik yoshdagi bolalarning idrok protsessi asosan ixtiyorsiz o‘tadi, ular o‘z idroklarini mustaqil ravishda boshqara olmaydilar.’’Aniq sezib turibmanki, hozir qo‘shib hisoblash kasalim qo‘zg‘amayapti. Aqlim, Tursunboy akaning pat-patidek qarsillab ishlab turibdi’’. ’’Ikki karra ikki-besh’’ asari qahramoni Qo‘shoqvoyda aynan shu holatni kuzatamiz. M.Gorkiyning fikricha ‘’o‘n yoshgacha bo‘lgan, bolalar ko‘ngil ochishni, ermakni talab qiladi, ularning bu talabi biologik jihatdan haqli talabdir. Ular o‘ynashni istaydilar, hamma narsa bilan o‘ynaydilar va o‘z atroflaridagi dunyoni shu o‘yinlar orqali biladilar’’ [4]. Aynan ‘’Ikki karra ikki-besh’’ asaridagi Qo‘shoqvoy va uning do‘sti Shodivoy xarakterlarida bu narsa ko‘zga tashlanadi. ’’Bolaga ma’naviy oziq juda ehtiyotkorlik bilan berilishi kerak. Bolalar ota-onalarining xato va gunohlari uchun javobgar emaslar,shuning uchun ham mitti

kitobxonga insonga xurmatsizlik kayfiyatlarini tug‘diradigan narsalar emas, balki hammadan oldin uni ulug‘lovchi narsalarni taqdim etish kerak. Insonni bolalarga, avvalo buyuk qahramon, noma’lum mamlakatlarni kezgan buyuk sayyoh, afsonaviy pahlavon hamda irodali qilib ko‘rsatish kerak’’ M.Gorkiy[5]. Asarni o‘qish jarayonida biz uchun muhim bo‘lgan bola ruhiyatiga aloqador nebkin tuyg‘ularni ,jarayonlarni bir qarashda anglashimiz qiyin. Tahlilga olingan ushbu asar nafaqat pedagokika va psihologiya balki boshqa masalalar doirasida ham mushohadaga chorlaydi. Bunday asarlarning mazmuni sodda,aniq bo‘lgani sabab bolalarni o‘rab turgan hayot haqida tasavvurlarining kengayishiga yordam beradi. "Biror insonni uyqudan uyg‘otganlarida uning harakatlarida dunyodan zerikib sovugani seziladi. Sen buni payqamayapsanmi.Insonning bolaligidan shu vaqtgacha o‘sib-ulg‘ayishining boisi g‘aflat-ku! Yo‘qsa hech kim hech bir zamon o‘smasdi. G‘aflat soyasida o‘sib ulg‘aygandankeyin esa, ulug‘ Alloh istar-istamas uni zahmat mujohadalar bag‘riga tashlaydi. Maqsad-insonni g‘aflatdan yuvib tozalamoq. Shundan keyingina u olamga oshno bo‘la boradi’’(J.Rumiy ‘’Ichingdagi ichingdadur’’).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дилмурод Қуронов. Адабиёт назарияси асослари. Т.: “Навоий университети”. 2018. – 478 б.
2. A.Suyumov, M.Jumaboyev "Bolalar adabiyoti". Toshkent "O‘qituvchi",1995. – 264 b.
3.Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. Т.: 2004. – 160 б.
4. Р. Умрзоқов. "XX аср ўзбек қиссачилигида бола образи"Автореферат. 2021. – 32 б.
5.Qosimov A."Adabiyotda bolalik ma'naviy-axloqiy kategoriya sifatida"-T,1999. – 160 b.
6. Расулов А."Ғаройиб салтанат", T.Turon-Iqbol. 2011.- 186 б.

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MILLIY RUH IFODASI

Ibrohimova Gulchiroy Asqarali qizi
Farg‘ona davlat universiteti
1-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada shoir Sirojiddin Sayyid she’rlari tahlili orqali ularda ifodalangan milliy ruh, miliy detal, milliy urf-odatlar va ularni ifodalashdagi so‘zning badiiy-estetik funksiyasi tadqiq etilan.
Kalit so‘zlar: milliylik, milliy ruh, ifoda uslubi, obraz, so‘z qo‘llash mahorati, badiiyat.

Annotation

The article analyzes the poems of the poet Sirojiddin Sayyid and examines the national spirit, national details, national customs and the artistic and aesthetic function of the word in their expression.

Key words: nationality, national spirit, style of expression, image, word usage, art.

Borliqni badiiy idrok etish va uni o‘quvchiga milliy asosda yetkazish adabiy jarayonning muhim muammolaridan biridir. «Xalqning hayoti bilan chambarchas bog‘langan adabiyot uning o‘ziga xos urf-odatlarini, psixikasini, turmush va yashash tarzini yorqin aks ettiradi. Har bir xalqning o‘ziga xos bo‘lgan ana shunday xususiyatlarini aks ettirish adabiyotning milliyligini vujudga keltiradi» [Shukurov N, v.b., 1979: 64-65]. Darhaqiqat, adabiyotshunos G.Oripova ta’kidlaganidek: “milliylik birinchi galda ijodkorning fikrlash tarzida, aniqrog‘i, badiiy tafakkur tarzida ko‘rinadi” [Oripova G., 2021: 80]. Shu ma’noda mustaqillik yillaridagi o‘zbek she’riyatida milliylikni ifodalash uchun shoirlar turli talqinlardan foydalanishganini kuzatish mumkin. Sirojiddin Sayyid she’rlarida qishloq ko‘chalaridagi o‘zimizni, kulchalar yopib berayotgan kuyunchak onamizni va mag‘rur xalqimizni ko‘ramiz. Uning qahramonlari aynan o‘zimiz. Ijodkor ayniqsa milliy ruhni, milliy odatlarimizni she’rlariga chuqur singdiradiki, bu haqiqiy o‘zbekning chizgilarini chizib beradi:

Qir ustida yonboshlagan
Bobom chaylasi
Bu dunyoda kimlarningdir
Orzu-havasi.
Dimog‘imda yulduz isi,
Shabnamlar isi.
Momom ekib ketgan kashnich,
Rayhonim, Vatan.

Vatan. Odatda, u ulug‘vor tog‘larga, ko‘klarga mengzaladi. Ammo, shoir Vatan deganda bobosining oddiy chaylasini, kashnich, rayhonini eslaydi. Albatta, bu boshqacha o‘xshatish. Bobo chaylasi – tinch-totuvlik, xotirjamlik, soddalik, halollik ramzi. Vatan ham xuddi shunday-ku, aslida. "Momom ekib ketgan kashnich, rayhonim" deya vatanni atash esa uning naqadar ma’sum va naqadar qadrli ekanligini o‘zida ifoda etadi. Zero, ko‘z o‘ngimizda qishloq chekkasiga rayhon taqqan duogo‘y momolar namoyon bo‘ladi. Ular ekkan kashnich, rayhonlar ham o‘zlaridek hokisor va yoqimli. O‘zi vatan ham aslida shunday.

Ammo hokisor degani ojiz degani emas. Buni ijodkor keyingi misralarda ta’kidlab o‘tadi. Uning g‘ururi tog‘lardan baland.

Bo‘ronlari tulporlarga
Tunlar yol bo‘lgan,
Bir o‘g‘loni chinor biri
Majnuntol bo‘lgan,
Boburlari otdan tushmay
Qaddi dol bo‘lgan,
Mozorlari chamanzor-u
Jahonim,Vatan.

Ijodkor xalqona tasvirlarni mahorat bilan ishlatadiki, undagi har bir so‘zi ikkinchisini to‘ldiradi. Ham shaklan, ham mazmunan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi.

Ko‘klam kelib ochilganda kelinchaklar,
Kuymanganda suvlar tashib kuyunchaklar,
Chayqalganda go‘dak to‘la belanchaklar,
Kuyundingiz men hech tadbir qilolmadim.

Shoirning “Ona” she’ridan olingan ushbu chizgilar ko‘z o‘ngimizga erta bahor go‘zal kelinchaklarning, aynan, suvlar tashib “kuyunchaklar” iborasi qo‘llanishi ham bejiz emas. Ma’lumki, xalqimizda hali quyosh chiqmay kelinchaklar uyg‘onib ko‘chalarga suv sepadilar va ularning nigohlarida "kech uyg‘onmadimmikan!" degan tushunchalar zohir bo‘ladi. Ijodkor aynan shunga ishora qiladi. Bu kuyunchaklarning orzusi esa belanchakdir. Ko‘rinib turibdiki, misralardagi

“kelinchak-kuyunchak-belanchak” qofiyadosh so‘zlar nafaqat ohangni, balki teran mazmunni ham o‘zida mujassam etgan.

Men Vatanni na kitob,
na Jaridadan o‘rganganman.
Momolarning yuzidagi
Xaritadan o‘rganganman.

Yuqoridagi "Vatanni o‘rganish" she’ri misralarida ijodkor vatanni kitoblardan emas, balki ko‘pni ko‘rgan momolarimizning yuzlaridagi ularning hayot yo‘llaridan, sabr-toqatlaridan, matonatlaridan darak beruvchi chizgilaridan o‘rganganini aytadi va bu chizgilarni xarita deb ataydiki, bu mengzash hech qayerda uchramagan ajoyib badiiylikni ta’minlaydi.

Kinodanmas, bul Vatanni,
Minorlardan o‘rgandim men.
Oq lattalar hilpiragan
Chinorlardan o‘rgandim men.

Sirojiddin Sayyid she’rlarida Vatan haqida “momolarning yuzlaridagi xaritalar”, “oq lattalar hilpiragan chinorlar” so‘ylaydiki, bu ijodkorga xos bo‘lgan soddalikni, milliylikni yorqin ko‘rsatib beradi. Bu oddiygina iboralarda butun bir xalqning umidi, turmush-tarzi, orzusi jamlangan. Xo‘sh, nega "oq lattalar boylangan chinor"?! Ma’lumki, o‘zbek oilalarida qizlar, kelinlar qalbidagi eng pokiza niyatlarini aytib oppoq bog‘ichlarni chinorlarga boylashadi va orzulari amalga oshishiga qattiq ishonishadi. Zero, har bir bog‘langan bog‘ich bir qalbning pok orzusidan darak beradi. Bu ham aynan xalqimizga xos odatki, shoir aynan shunga ishora etib, oppoq orzulardan vatanni o‘rganganini ta’kidlamoqda.

Shoir xalqimizning urf-odatini, milliy qadriyatini, shu bilan birga xalq og‘zaki ijodini ham singdirganini ko‘ramiz:

Ko‘rmayin ham, kuymayin ham
Diydoriga to‘ymayin ham

Sevgan yoridan ayrilayotgan yigit iztiroblari ifodalangan ushbu she’rda avvalgi: "Ko‘rmayin ham, kuymayin ham, diydoriga to‘ymayin ham" misralari o‘zbek xalq ertagi "Yoriltosh"da etim qiz tilidan aytilgan: "Men akamni ko‘rmayin,

diydoriga to‘ymayin" satrlarini yodga soladiki, bu ijodkorning sodda, xalqona folklor namunalaridan mohirlik bilan foydalanganini ko‘rsatadi.

Butun umr ko‘rpa qavib kuymadim,
To‘ylar qildim, lekin to‘yga to‘ymadim.
Siroj, sening to‘ylaringni ko‘rmadim
Ko‘rgan barcha u to‘ylarim tush endi,
Ko‘rpalarim, taxmonlarim, xo‘sh endi.

"Oybibi momo vidosi"dan olingan bu parcha haqiqiy o‘zbek buvilariga xos xislatlarni o‘zida jamlagan. Ko‘z o‘ngimizda qo‘llarida igna tutib, ipga bazo‘r o‘tkazib, to‘yga, deya yaxshi niyatda ko‘rpa qaviyotgan momolarimiz keladiki, shoir bu tasvirlarni juda samimiy bo‘yoqlarda ifoda etadi.

Sirojiddin Sayyidning qaysi bir she’rini olmaylik, undagi har bir so‘z o‘zida go‘zallikni va yuksak darajadagi milliylikni namoyon etadiki, ularda biz osmondagi balandparvoz gaplarni emas, yonimizdagi ko‘zimiz ko‘rib turgan go‘zalliklarga mahliyo bo‘lamiz, ularni anglay boshlaymiz. Sirojiddin Sayyid ijodi aynan mana shunday sodda chizgilari orqali murakkab dunyoni ko‘rsatib berganligi bilan qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Шукуров Н., Хотамов Н., Холматов Ш., Маҳмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 246 б. – В.64-65.

2.Oripova G. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. – Farg‘ona, 2021. – B.80.

3.Сирожиддин Саййид. Ватанни ўрганиш. – Т.: Cho‘lpon, 1996. – 268 б. В.26.

MUQIMIY VA UNING ADABIY DAVRASINI O‘RGANISH MUAMMOLARI

Shahodat O‘sarova
ToshDO‘TAU II bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muqimiy va uning adabiy muhiti tahlilga tortilgan. Shuningdek, Muqimiy ijodi va uning asarlari, shoir ijodining o‘rganilishi ham tahlil etilgan. Ushbu maqolada biz biografik, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalandik.

Kalit so‘zlar: she’r, ijtimoiy muhit, devon, g‘azal, muxammas, metodika.

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida boʻlganidek, ijtimoiy-siyosiy va maʼnaviy yoʻnalishlarda ham milliy oʻzligimizni anglash, davlatchiligimiz tarixining nomaʼlum sahifalarini, milliy adabiyotimiz tarixini qaytadan oʻrganish, asossiz ravishda unutilgan ijodkorlar hamda tafakkurimizning boy ilmiy ijodiy merosini yoritish bilan bogʻliq izlanishlarga keng yoʻl ochildi. Taʼkidlash joizki, oʻzbek xalqining adabiy-tarixiy merosida mumtoz adabiy asarlar salmoqli oʻrin egallaydi. Ana shunday asarlarni, merosimizni haqqoniy oʻrganish, ularni ilmiy tahlil qilish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan biridir. Mustaqil ona Vatanimizning ertangi kun taqdiri qanday boʻlishi, dunyo xalqlari orasida orttiradigan obroʻsi koʻp jihatdan yosh avlodga bogʻliq. Chunki mamalakatni mamlakat, millatni millat qiladigan uning bagʻrida oʻstirayotgan farzandlaridir. Agar bu farzandlar faqat qorin gʻamini oʻylaydigan, yurtdoshlari taqdiriga befarq, oʻz manfaati yoʻlida insof, adolat, iymon tuygʻularini toptab oʻtadigan kimsalar boʻlib etishsa, bunday yurtga chetdan bostirib keladigan dushmanning ham keragi boʻlmaydi. Maʼnaviyatsiz, maʼrifatsiz kimsalarning qilmishlari yurtning nafaqat bugunini, balki kelajagini ham xavf ostida qoldirishi turgan gap. Bunday farzandlar qoʻliga oʻtadigan yurtning boyliklari talon-taroj boʻladi, iqtisidiy tanazzul bedavo dardga aylanadi. Uning madaniyati va sanʼati milliy qiyofasizlikka duchor boʻladi. Jamiyat hayotida adolatsizlik, insofsizlik va madaniyatsizlik oddiy holga aylanib, kishilarning kelakajakka boʻlgan ishonchi mutlaqo soʻnadi. XIX-XX asr oʻzbek milliy madaniyati markazlaridan biri, shubhasiz, Qoʻqon shahri edi. Bu yerda XVIII – XIX asrning birinchi yarmida ilm-maʼrifat olamida nomi dunyoga mashhur boʻlgan ulugʻ va mutafakkir shoirlar etishib chiqadi. Xususan, XIX asrda Qoʻqon xoni Umarxon (1810-1822) va uning umr yoʻldoshi shoira Nodiraning saʼy- harakati tufayli Qoʻqon shahrida ilm-maʼrifat adabiy muhiti paydo boʻladi. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi oʻzbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri atoqli shoir Muhammad Aminxoʻja Mirzaxoʻja oʻgʻli Muqimiy Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotida munosib oʻrin tutadi. Shoir oʻz ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida

“devon adabiyoti**”** deb nomlangan Sharq adabiyotidagi eng yaxshi an’analarni davom ettirdi. Ayni paytda, rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o‘zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Uning she’rlari hayotlik vaqtidayoq Turkistonning turli shaharlariga yoyilgan, shoirlar ularga muxammaslar bog‘lar, xonandalar qo‘shiq qilib aytar edilar. Muqimiy milliy ozodlik harakati haqida she’rlar yozgan, o‘z salohiyati va mavqeyi bilan maktab yaratgan alloma shoir edi. Shoir asarlari xalqimizning chor mustamlakasi davridagi og‘ir hayoti manzaralarini o‘zida mujassam etgan. Ushbu adabiy muhit etishtirib bergan ijod ahli taraqqiyotimizning turli davrlarida adabiy harakatning faol ishtirokchilari bo‘lishgan. Ularning asarlari xalqimizning o‘lmas ma’naviy mulkiga aylangan. XX asr adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot tarixi, xususan, uning ijodkorlariga biryoqlama baho berilgan. Turli xil sabablar bilan ba’zi adabiy asarlar o‘rganilmagan. Shundan kelib chiqib o‘zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, Sovet davri tarixshunosligi iloji boricha XIII-XIX asrlarda o‘zbek xalqining fan va madaniyat sohalaridagi tarixini bo‘yab ko‘rsatishga intilgan. O‘sha davrda shoir va yozuvchilarni saroy atrofiga to‘plangan mansabparast, xushomadgo‘ylar sifatida ta’riflangan. Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining ijodi sovet davri adabiyotshunosligida o‘rganilar ekan, ularning faoliyatiga biryoqlama munosabatda bo‘lgan. Xususan, Adoni feodal-klerikal adabiyot vakili sifatida tanishtirishgan. U va u kabilar haqida: “Umarxon saroyining “malik ush- shuarosi”(“shoirlar podshohi”) Sultonxo‘ja to‘ra Ado va ularning hamfikrlarining sinfiy manfaati bir xil edi. Xonlar ana shunday guruhlarning, ya’ni hukmron feodal aristokratiyasining boshlig‘i, shu sinf manfaatlarining himoyachisi, to‘g‘rirog‘i, o‘sha sinf talablarini amalga oshiruvchi ijrochi edilar ”, - deyilgan. Ana shunday ijodkorlardan biri o‘zbek adabiyoti tarixida o‘z munosib o‘ringa ega bo‘lgan ijodkor Muhammad Aminxo‘ja Muqimiydir. Shoir 1850-yilda Qo‘qon shahrining Bekvachcha mahallasi (hozirgi Muqimiy ko‘chasi)da dunyoga kelgan. Otasi Mirzaxo‘ja Mirfozil o‘g‘li novvoy bo‘lgan, onasi Bibioysha Sayidolim Nodirshayx qizidir. Shoirona tabiatga ega bo‘lishida onasining o‘rni beqiyos.

Chunki onasi ajoyib ta’limga ega, ogʻzaki ijodni juda yaxshi bilgan. Ayni shu ayol tufayli Muqimiyda shoirona iqtidor rivojlanadi. Oʻzining birinchi she’rini oʻn yoshida yozadi. Muqimiy oilada besh farzand boʻlishib, uchinchi farzand boʻlgan. Muhammad Aminxoʻja xat-savodini mahallasidagi Abduhalil domlaning maktabida chiqargan. U xattotlikka ham qiziqib, qoʻqonlik mashhur xattot Muhammad Yusufdan husnixatni oʻrgandi. Shoir 15-16 yoshlaridan boshlab “Muqimiy” (“doimiylik”) taxallusida she’rlar yoza boshladi. Soʻngra, ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, Qoʻqondagi Hokimoyim madrasasida va Buxoro madrasalarida tahsil olib, arab, fors tillarini chuqur oʻzlashtirgan. Qoʻqon madrasasini bitirgandan tahsilni davom ettirish maqsadida Buxoroga bordi. U yerda bir necha yil mobaynida ilm-ma’rifat bilan shugʻullanib, oʻz zamonasining yetuk va peshqadam shoiri sifatida tanilgan edi. Muqimiy 1876- yilda oʻqishni tamomlab Qoʻqonga qaytadi. Qoʻqonlik aslzodalar doirasida uni ehtiyotkorona kutib olishgan, qabul qilishmagan. Shoirning oʻzi yozishicha, “Aynan yoqimsiz Qoʻqon aslzodalari meni nuqtai nazarlarimni koʻrib chiqishga va oʻzimdagi yangi axloqiy va adabiy qarashlarni rivojlantirishga imkon berdi. Hafsalamning pir boʻlishi menga katta yordam berdi” Koʻrinib turganidek, Muqimiyning qalami oʻtkirlanishida ijtimoiy muhit alohida oʻrin tutadi. Adabiyot darslarida adib hayoti va ijodini oʻrganishda uning muallifi haqidagi ma’lumotlar ham alohida oʻrin tutadi. Mazkur ma’lumotlar asosan qayerdan olinadi? Ularni adiblarning oʻzlari yozib qoldirgan tarjimaiy hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish- bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holida etib kelgan manbalardan olinishi mumkin. Barchamizga ma’lumki, oʻzbek adiblarimizning bizga qoldirib ketgan nodir ma’naviy boyliklardan bahramand boʻlish, har bir tarixiy davr ruhini bilish, xalqimizning turmush tarzi, shu davrga xos ijtimoiy munosabatlar koʻproq adib orqali kitobxonlar qalbiga etib boradi. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir. Ravshanki, biografik ma’lumotlar oʻz mazmuni bilan yoshlarni milliy ma’naviyatimizni anglash, his etish ruhida tarbiyalashda oʻziga xos oʻrin tutadi.

Masalan, Muqimiy haqida gapirib turib, Nikolay Ostroumov o‘z maqolasida uning shaxsiga baho berib shunday degan edi: Shoirni o‘quvchiga qalandarsifat, darveshvash bir qiyofada taqdim etadi va asosiy mashg‘ulotini taqvo va she’r yozishda zamondoshlari singari zullisonayn edi…”- deb ko‘rsatadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Adabiyot”, “O‘zbek adabiyoti” darsliklari bilan tanishish shuni ko‘rsatadiki, adibning bolaligi, o‘sib ulg‘ayish davri juda qisqa yoritiladi va bundan uning ichki olamini, ruhiyatini bilib olish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun ham hozirgi kunda har bir pedogogdan adib hayoti va ijodini o‘rganishda axborot kommunikatsiyalardan va matbuot materiallardan foydalanishning o‘rni kattadir. Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida adibning o‘z fikrlaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Yuqoridagi fikrga tayanib aytish mumkinki, shoir o‘zi aytganidek, Qo‘qon aslzodalari yaxshi kutib olmaganligi sababli, yangi axloqiy va adabiy qarashlarni rivojlanishi va hafsalasining pir bo‘lishi unga katta yordam berdi. Yozuvchining tarjimayi holi turli xildagi materiallar: muallif hayotidan, ayniqsa, o‘rganiladigan asari bilan bog‘lab olingan lavha; ijodiy qiyofasi, sermazmun tavsif etilgan maqola; adibning butun hayot va ijod yo‘li haqidagi keng xabar ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin. O‘zbek adabiyoti darslarida bunday keng materiallardan to‘liq foydalanish imkoni yo‘q, albatta. Bu materillardan kichik parchalar olish to‘g‘risida fikr yuritish o‘rinli bo‘ladi. Umuman olganda, yozuvchi o‘zi tomonidan aytilgan fikr va jumlalardan foydalanish, o‘quvchiga o‘rganilayotgan yozuvchining yashab ijod etgan davri bilan yaqindan tanishishga imkon yaratadi. Asarning yaratilish tarixi bilan mufassal tanishish, o‘quvchilarni tarixiy sharoitga olib kirish davrdagi ijtimoiy vaziyatni ko‘rsatish, yozuvchi tanlagan pozitsiyaga e’tiborini qaratish imkonini beradi. N. Mallayev, G‘.K.Karimov, S.Ismatov tomonidan 1982-yilda nashr etilgan 8- sinflar uchun mo‘ljallangan darslikda Muqimiy hayoti va ijodi haqida quyidagilarga guvoh bo‘lamiz. Muqimiy demokratik adabiyotning eng yirik vakillaridan biri ekanligi, hajvchilik oqimining boshida turganligi, kambag‘al hunarmand- novvoy oilasida tug‘ilganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Muqimiy 1876-yillarda Buxorodan Qo‘qonga qaytdi. Lekin Qo‘qonning hukmron doiralari

madrasa ta’limini tugallab kelgan shoirni ochiq chehra bilan kutib olmadi, uni durustroq bir lavozimga taklif qilmadi. Natijada Muqimiy oilaviy sharoit taqozosi bilan Qo‘qon yer qurilishi mahkamasida mirzolik (kotiblik) vazifasida xizmat qilishga majbur bo‘lgan. Muqimiyning Qo‘qon yer qurilishi mahkamasidagi xizmati uning hayotida chuqur iz qoldirdi. Mahkama amaldorlari tanobchilar yig‘im-terimdan oldin dehqonlar erini o‘lchagani, ya’ni tanob qilgani qishloqlarga chiqar va shunga qarab dehqonlarga yer solig‘i solar edi. Muqimiy ham mahkama mirzosi sifatida tanobchilar bilan birga bo‘lar va qishloqlarda ro‘y bergan voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rar edi. Ma’lumki, shu hayotiy kuzatishlari va taassurotlari asosida Muqimiy o‘zining mashhur “Tanobchilar” asarini yaratdi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Muqimiy tanobchi amaldorlar bilan hamkorlik qilishni tark etib, ishdan bo‘shadi.1877-yillar atrofida Muqimiy Qo‘qonning g‘arbi-shimolida Sirdaryo yoqasidagi Oqjar paromida pattachilik vazifasiga ishga kiradi. Shoir bu yerda ham xalq hayotini kuzatib “Oqjar odamlari haqida muxammas” asarini yaratgan edi. Shoir ijodini jiddiy va keng ko‘lamda o‘rganish o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlandi. Bu davrda Muqimiy asarlarini to‘plash, o‘rganish, nashr etish qizg‘in va samarali olib borildi. Gazeta va jurnallarda qator maqolalar e’lon qilindi. Bu xayrli ishning boshida buyuk shoir G‘afur G‘ulom turdi.Uning tashabbusi bilan 1938-yil “Muqimiy bayozi” tuzilib nashr etildi. ”Bayoz”da shoirning 800 misradan iborat 27 ta she’ri berilgan bo‘lib, ular janr xususiyatiga qarab joylashtirilgan (Satirayumor, lirika) va ularga zaruriy izohlar, lug‘atlar berilgan.1950-yil shoir asarlari “Lirika **i** satira” nomi bilan Moskvada rus tilida bosildi.1953-yil Muqimiy vafotining 50 yilligi munosabati bilan u haqda bir qator tadqiqotlar yaratilib, Muqimiyshunoslikka asos solindi. H.Yoqubovning “O‘zbek shoiri Muqimiy’, A.Olimjonovning “Muhammad Amin Muqimiy”, H. Zaripovning “Muhammad Amin Muqimiy”, H.Razzoqovning “ Muqimiy va Zavqiy” nomli kitoblari hamda “ Furqat va Muqimiy”nomli maqolalar to‘plami nashr etilgan. Shoir ijodi namunalari yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Afsuski, ularda Muqimiy asarlari sho‘ro davri mafkurasi talabiga ko‘ra bir tomonlama talqin qilingan. Natijada, shoir nazmiy

merosi o‘zining asosiy mohiyatidan uzoqlashtirildi. Ya’ni asarlari tahrirga uchradi, qisqartirildi, manbalarda qolib ketdi. Muqimiy asarlari turli qo‘lyozma va toshbosma bayozlarda, san’atkorlarning yon daftarlarida, adabiyot havaskorlari kolleksiyalarida, ayrim parcha qog‘ozlarda turli kishilar qo‘lida saqlanib kelingan. Ta’kidlash joizki, shoir asarlarini yig‘ish va nashr etish professor G‘.Karimov tomonidan “Asarlar to‘plami” jami to‘rt marta (1958,1960,1973,1974) chop etilgan. Afsuski, bu nashrlarda Muqimiy ijodi kommunistik mafkuraning kuchli tazyiqi sabab to‘liq va mukammal holda nashr etilgan emas. Muqimiy adabiy merosi qo‘lyozmalari yuzasidan A.Shokirov tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, shoir asarlarining sovet davridagi eng so‘nggi nashriga [Karimov 1974] kiritilmagan ayrim she’rlar keng jamoatchilik e’tiboriga havola qilindi. Ilmiy izlanishlar natijasida shoir ijodi sho‘ro davri mafkurasiga ko‘ra quyidagi jihatlari ataylab buzib ko‘rsatilgan: birinchi, shoirning diniy- tasavvufiy ruhdagi aksariyat she’riy asarlari nashr etilmay qolgan; ikkinchidan, Muqimiyni boy, savdogar, qozilarga qarshi qilib ko‘rsatish tadqiqotlar uchun ustuvor vazifa etib belgilangan; uchinchidan, Muqimiyning “Saroy adabiyoti**”** va an’analariga bo‘lgan munosabati noto‘g‘ri talqin qilinib, ulardan sinfiy kurash alomatlari izlangan. Shoirning turli janrlardagi lirik she’rlari singari “Dorig‘o mulkimiz”, “Hajviy Bekturboy”, “Dar mardumi oqjar batariqi muxammas”, “Dar mazammati zamona”, “Ho‘qandlik bir boyning sha’niga Muqimiy shoirning aytkon she’ridur”, “Sayohatnoma”, “Dar mazammati qurbaqa” kabi ko‘plab ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi hajviy asarlari tahrir qilinib, qisqarishlar bilan nashr etilishi buning isbotidir. Jumladan, muxammas janridagi “Dorig‘o mulkimiz” sarlavhali she’r Muqimiy asarlar to‘plamida 6 band, asliyatda esa 8 band. Ikki band ataylab tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, muxammasning deyarli barcha bandlaridagi misralar tahrirga uchragan. Shundan so‘ng joriy nashrga kiritilgan. Natijada shoirning chor mustamlakachilariga bo‘lgan tanqidiy qarashi, umuman, shoir ruhiy olami yashirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ulom Karimov., “Muqimiy”, T.: «Ma’naviyat». 2009.
2. Yoqubov H., O‘zbek demokrat shoiri Muqimiy, T., 1953.
3. Zarifov H., Muhammad Amin Muqimiy, T., 1955.
4. Karimov F., Muqimiy. Hayoti va ijodi, T., 1970.
5. Karimov G‘. O‘zbek adabiyoti tarixi. 3-kitob, T.. 1975.
6. Karimov G‘. Muqimiy hayoti va ijodi. T., 1970.
7. Ahmedov S. O‘zbek adabiyotida “Sayohatnoma”. , 1986.

ONA OBRAZI — MILLAT RAMZI SIFATIDA

(A.Oripov she’riyati misolida)

Uljon BOBOQULOVA

ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada shoir Abdulla Oripov ijodida Ona siymosining talqinini va uning qiyosiy ma’noda millat ramzi sifatida bayon etilganini ko‘rishimiz mumkin.Shuningdek she’riyat, ijod orqali vatanga, onaga muhabbat uyg‘otish mumkinligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: she’riyat, ijod, adabiyot, Ona, Millat, Vatan, umumbashariy

Annotation

In this article we can see the interpretation of the image of the Mother in the work of the poet Abdulla Aripov and its metaphorical symbol of the nation. We can also see that poetry and creativity can inspire love for the motherland.

Keywords: poetry, creativity, literature, Mother, Nation, Motherland, universal.

Umumbashriy va milliy qadriyatlarimiz bisyor. Ona ham umumbashariy, ham milliy qadriyat sifatida ulug‘lanadi. Dunyoda qancha millat bo‘lsa uning shuncha onasi bor. Har bir millat farzandi o‘z onasini yaxshi ko‘rmasligi, qadrlamasligi va hurmat qilmasligi aslo mumkin emas. Ona Afrikada ham, Amerika va Hindistonda ham, Osiyo, Evropa va Antarktidada ham ona. Ona ulug‘ va bebaho zot sifatida har joyda, har mamlakat va har millatda beqiyos darajada e’zozlanadi. Rang-ro‘yidan, urf-odatidan, turmush tarzidan qat’iy nazar, ona ulug‘ zotligicha qoladi. Dunyo xalqlari ichida onalarni sevish, qadrlash va ulug‘lash borasida o‘zbeklar hamisha oldingi saflarda borayotgani, boshqa millatlarga o‘rnak bo‘layotgani kishiga faxr va iftixor bag‘ishlaydi. Bu bebaho fazilatimiz bilan har qancha g‘ururlansak, faxrlansak arziydi. Bizday onani boshiga ko‘taradigan va onaday ulug‘ zotning hurmatini joyiga qo‘yadigan millat kam topilsa kerak.

Millatning ulug‘ligi onaning ulug‘ligi bilan belgilanadi. Onaga bo‘lgan ehtirom millatga bo‘lgan ehtiromdir. Millat komilligi ona komilligi bilan o‘lchanadi. Buyuk daholarni ham millatga aynay onalar tarbiyalab berishganini tarixning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Bu haqiqatni esa shoir Abdulla Oripov badiiy umumlashma tarzida tasvirlaydi:

Bilmam, qanday ayol bo‘lgan,
Alisherning onasi.
Balki uning aqliga ham,
Lol qolgan zamonasi.
Balki tunlar bedor bo‘lib,
Aytib bergan ertaklar,
Balki shirin farzandiga,
Terib kelgan chachaklar…

Zero, O‘tkir Hoshimov “Ayol” nomli publististik maqolasida Onaning yaratuvchanlik qobiliyatini kurrai zaminga qiyoslab yozgan obrazli fikrlari bilan buni dalillaydi: “Ona mehrini to‘sadigan chegara yo‘q. Ehtimol allaning qudrati mana shundadir. Ehtimol, Ona yurt, Ona tili, Ona-Vatan degan iboralar mana shundan kelib chiqqandir. Ehtimol, Ona-Yer degan ibora shundan kelib chiqqandir»[40] Darhaqiqat, Onaning bashoratgo‘ylik, yaratuvchanlik qobiliyatini inkor etib bo‘lmaydi. Ona farzandi kelajagini oldindan ko‘ra biladi va uning bu istaklari allalarida, duo-yu fotihalarida namoyon bo‘ladi. Ijodkor A.Oripovning “Onaginam alla aytardi” deb nomlangan she’rida onaning aynan mana shu fazilati ulug‘langan.

Onaginam boshim ustida,
Alla aytdi go‘daklik onim:
“Bolaginam, otang qoni-la
Toza bo‘lur sening jahoning”
Ko‘z oldimda mana …donishmand
Onaginam aytgan allalar…
Yo‘llar toza, yo‘llar bexatar,
Tiniq ko‘kda uchar turnalar…
Onajonim aytgandek o‘shal…
Ona tuoroq, qo‘shiqlaring shan!

O, ishoning, ona allasi
Aldamas ekan![Oripov. 2021,63]

Alla onalarning umumbashariy qoʻshigʻi. Demak, u umumbashariy qadriyat hamdir. Haqiqatan, onalar tomonidan kuylanadigan alla farzandga boʻlgan cheksiz mehrni oʻzida ifoda etadi. O.Matjonning “Haqqush qichqirigʻi” poemasida “Alla” deb nomlangan afsona mavjud. Unda oʻzga yurtga kelin boʻlib ketayotgan Roziyaga onasi alla aytmasligini iltimos qiladi. Roziya ketma-ket ikki oʻgʻil koʻradi. Roziya onasining oʻtinchini yodida saqlab, biror marta goʻdaklariga alla aytmaydi. Ikki oʻgʻil ham koʻp yashamaydi. U uchinchi oʻgʻliga xoʻjayinining “dahshatli hayqirigʻi tufayli” alla aytadi. Shundan soʻng bola orom olib uxlab qoladi va sekin-asta tuzala boshlaydi. Roziya endi har kun alla aytadi. Alla ohanglari orqali yaqinlari: ota-onasi, ukalari, dugonalarini eslab, ularni sogʻinganini his etadi, qishlogʻi manzaralari koʻz oʻngiga keladi. Bora-bora bu sogʻinch ulkan bir dardga aylanadi. Yurtiga boray desa, zamon notinch, Gurlan va u yashayotgan mamlakat orasida qattiq janglar ketmoqda edi.

Zamonaviy oʻzbek she’riyati sahifalari varaqlanganda, Ona mavzusida qalam tebratmagan ijodkor yoʻq hisob. Ona haqida goʻzal she’ru dostonlar bitilgan. Ularda umumbashariy va milliy jihatlar oʻzining yorqin ifodasini topgan. Ayni choqda bunday she’rlar kompozitsion jihatdan rang-barang, badiiy tili boy. Shu bois bunday she’rlarni, avvalo, mazmun-mohiyatiga koʻra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ona mavzusidagi she’rlarda umumbashariy jihatlarning aks etishi.
2. Ona mavzusidagi she’rlarda oʻzbek onasiga xos fazilatlar tarannumi.

Ona shu qadar ulugʻ va qudratli zotki, u koʻzga koʻrinmas ulkan kuch bilan, mehr-muhabbat bilan faqat farzandilarni, yaqinlarini emas, balki butun boshli insoniyatni bagʻriga bosib, dardiga darmon boʻla oladi. Ona hamisha oʻzida beqiyos kuch qudrat topa oladigan noyob qudrat egasi. Jafokash tarix sahifalaridan yaxshi bilamizki, onalar eng qiyin va ogʻir davrlarda ham, qatagʻon va qahatchilik yillarida ham metin irodali va mehribon, jasoratli va samimiy, dovyurak va mehnatkash

boʻlib, avvalo, jonidan ham aziz farzandlarini, tugʻilib oʻsgan Vatanini asrab qolish uchun hayotini fido qilishdan ham aslo qaytmaganlar.

Koʻkda yulduz uchsa nogahon,
Bitdi derlar qaysi bir taqdir.
Bunday gʻamni koʻtarmak oson,
Bu ehtimol, bizlar haqdadir.

Baʼzi tunlar koʻkka tikib koʻz,
Esalab deyman onamni shu on:
Ona ketsa, yulduz-ku yulduz,
Qulab tushsa arziydi osmon. [Oripov. 2021,45]

Ona mehrining poyonsizligi, hayotbaxsh muhabbatining qudrati umuminsoniy qadriyatdir. Onaning bolalarga, farzandlarga muhabbati shunchaki oddiy muhabbat emas, balki tom maʼnodagi fidoiy muhabbatdir. Ona farzandlari uchun har qanday mushkulotni boʻyniga olishga, hamisha farzandlari uchun balogardon boʻlishga, hatto shirin jonidan ham kechishga tayyor. Onaning fidoiyligi, jafokashligi, farzandi uchun suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib yashashi kabi insonni bezovchi fazilatlar yorqin lavhalarda oʻz ifodasini topgan. Onada vijdon tuygʻusi gʻoyatda oʻtkir. U halol, pok ayolgina emas, ayni chogʻda toʻgʻri va adolatli hamdir. Shu jihatlarda onaning umumbashariy qadriyat sifatidagi fazilatlari koʻrinib turadi. Onada vijdon tuygʻusi gʻoyatda oʻtkir. U halol, pok ayolgina emas, ayni chogʻda toʻgʻri va adolatli hamdir.

Ona insonga, uning yaxshiligiga, maʼnaviy barkamolligiga astoydil ishonadi va bu ishonch uning olam bilan, odamlar bilan munosabatini zimdan boshqarib turadi. Ona oʻzgalarning xatti-harakatini baholaganda, yaxshi-yomonligini aniqlaganda sodda, lekin salmoqli mezonlarga tayanadi. Shoirning ona haqidagi sheʼrlarida dunyo onalariga xos boʻlgan eng muhim fazilatlar ulugʻlangan boʻlsa:

Soʻnmoqdadir, balki xira,
Koʻzlarining yolqini.
Xayolidan ketmas sira,
Bolasining taqdiri. [Oripov. 2021,94]

“Ilk xayrlashuv” she’rida esa ilk bor farzandini uzoq yo‘lga kuzatayotgan ona pertreti uning ruhiny holati ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ortda qoldi tug‘ilgan uyim,
Suhbati soz, do‘stla,r jo‘ralar
Mag‘rur tollar ko‘kka cho‘zib bo‘y,
Ortda qoldi bog‘lar, qiyalar.
Bari qoldi, mag‘rur nigohin,
Uzolmasdan qoldilar mendan.
Onajonim-ko‘z yoshi botin,
“Oq yo‘l”,-degan jajji singlim ham[Oripov. 2021,40].

Ko‘rinadiki, onalarga xos mehrining poyonsizligi, hayotbaxsh muhabbatining qudrati, sabr va bardoshli bo‘lish, fidoiylik, jafokashlik kabi fazilatlar Abdulla Oripov she’rlarida umumbashariy mazmun kasb etgan. O‘zbek she’riyatida onalarga bag‘ishlangan she’rlarda shu jihatlar o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дужсенбаев О. Ўткир Ҳошимов асарларида характер драматизми: Adabiyotshunoslik // Til va adabiyot ta’limi, 2007, 3. – 27 б.
2. Орипов А. Муножот. Сайланма. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1992. – 348 б.
3. Oripov A. Shoirning tug‘ilishi. –T.: Adabiyot, 2021,- 63 b.
4. Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. –Т.: 2001, –456 б.
5. Oripov A. Shoirning tug‘ilishi. –T.: Adabiyot, 2021,- 94 b.
6. Oripov A. Shoirning tug‘ilishi. –T.: Adabiyot, 2021,- 40 b.

ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Samandar Yusupov
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani qiyosiy metod asosida tadqiq qilinadi. Muallifning yaratgan yangi ijod namunasining boshqa Navoiy haqida yaratilgan asarlardan farqi, ilm-fan sohasida qilgan yangiligi borasida fikr bildiriladi. Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Lison-tayr”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Majolis un-nafois” kabi asarlari; “Orazin yopqoch ko‘zumdin…”, “Jonon qizil, sorig‘, yashil”, “Haq yo‘lida kim sanga…” singari g‘azallarining vujudga kelishi asar misolida tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: Isajon Sulton, “Alisher Navoiy” romani, sujet, qiyosiy tahlil.

Annotation

In this article, Isajon Sultan's novel "Alisher Navoi" is studied on the basis of a comparative method. The author's new work differs from other works about Navoi in the field of science. Origin of works and ghazals of Navoi such as "Xamsa", "Lison-tayr", "Muhokamat ul-lug‘atayn", "Majolis un-nafois"; "Orazin yopqoch ko‘zimdin", "Xil’atin to aylamish jonon, qizil, sorig‘, yashil", "Haq yo‘linda kim sanga" is explained in the example of the work.

Key words: Isajon Sultan, novel "Alisher Navoi", plot, comparative analysis.

Alisher Navoiy shaxsiyati, ijodiy va bunyodkorlik faoliyati haqida juda ko‘p badiiy, ilmiy asarlar yaratildi. Jumladan, Oybek, Mirkarim Osim, Vohid Zohidov, Aziz Qayumov, Suyima G‘aniyeva kabi adabiyotimizning zabardast vakillari Navoiyning she’riyati va uning hammamizga o‘rnak bo‘ladigan umrini o‘zlarining tadqiqotlarida va asarlarida batafsil bayon etdilar. Bu borada XXI asr nasriy adabiyoti vakili Isajon Sulton ham o‘zining takrorlanmas asarini yaratdi. Nazarimizda, asarlarida falsafiylik va oddiylikni birlashtira olgan, Vatanimizning turli burchaklarida oddiy insonlar va ularning xayol kechmishlarini tasvir etadigan Isajon Sulton nega tarixiy mavzuga qo‘l urdi? Nega endi Navoiyga murojaat etdi? Ushbu asar Oybekning, Mirkarim Osimning asarlaridan qay darajada farq qila oldi? Asarni o‘qir ekanmiz, xavotirlarimiz bulut yanglig‘ tarqab ketadi. Darhaqiqat, Oybekning “Navoiy” romani yaratilganiga qariyb 80 yil, Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” qissasi yaratilganiga esa salkam 60 yil bo‘ldi. Shu davr mobaynida Navoiy ijodiga yangicha qarash, uning asarlarida, g‘azaliyotidagi diniy-tasavvufiy g‘oyalarning ifodalanishi o‘rganildi. Adabiyotshunos olim Bahodir Karim asar haqida fikr bildirar ekan “Hazrat Navoiyning o‘zbek adabiyoti tarixida mavjud obrazini takrorlamaslik uchun izlanish, tarix kitoblarini o‘qish, alloma shoirning ko‘nglini tushunish hamda e’tiqodiy amal va a’mollarini bayon etish uchun yozuvchi keng ko‘lamli dunyoqarashga ega bo‘lishi lozim. Tarixni tiriltirish uchun voqelik tafsiloti, sanalar yoki ma’lumotlarni bilishning o‘zi kamlik qiladi. Oddiy, quruq ma’lumot bayoni, xabar matnlari o‘quvchini zeriktirishi mumkin. Hirot yo Samarqand, Marv yoki Astrobod ko‘chalaridagi chang-to‘zon, to‘y-tomosha, shovqin-suron, bazm va mashvarat, bir so‘z bilan aytganda, haqiqiy hayot tasviri chinakam barhayotlikni talab etadi. Isajon Sultonning romani o‘quvchi

qalbiga allaqanday rubobiy sokinlik bag‘ishlaydi, mudroq tasavvurlarni uyg‘otadi, turg‘un tafakkurni yuritib yuboradi” [Karimov, 2021]. Mustabid tuzum davrida Navoiy ijodiga, asosan, dunyoviy qarashlar nuqtayi nazaridan yondashildi. Bu davrda navoiyshunoslikda katta yutuqlarga erishildi va shoirning yangi devonlari topildi va tadqiq qilindi. Bundan tashqari ko‘plab asarlarda davr mafkurasi nuqtayi nazaridan Navoiy va Husayn Boyqaro o‘rtasida sun’iy xusumatlar, do‘stlik emas, balki dushmanlik kayfiyati to‘qib chiqarilgan edi. Natijada Navoiy haqida mafkuralardan holi, yangi davr talabi bilan yangi asar yaratish muhim bir ehtiyojga aylandi. Bu narsa esa yozuvchidan katta kuch, sabr va mahorat talab qilar edi. Aynan Isajon Sulton garchi ko‘proq zamonaviy nasrda ijod qilsa-da, o‘zining “Alisher Navoiy” deb atalgan tarixiy romanini yaratdi. Fikrimizcha, yozuvchi o‘z asarini yangicha ruh bilan yarata oldi va bu yo‘lda Navoiy an’anasini davom ettirdi. Asarini boshdan-oyoq birini takrorlamaydigan tashbeh-u tashxislar bilan bezadi.

Asar tom ma’noda “avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas” kitob bo‘lganini dastlabki satrlaridan anglab olishimiz mumkin. Asarning boshlanmasi Hazrat Navoiy asarlari kabi Allohga hamd bilan boshlanadi. Allohning yaratuvchilik qudrati, uning “Karim” sifati, birgina kalomi, ya’ni “bo‘l” so‘zi ila butun koinot, jonzotlar va o‘zini sevdirish uchun yaratgan inson zotiga jon ato aylashi marjondek tizilgan tashbehlar asosida bayon qilinadi. Yozuvchining mazkur asari ko‘p jihatdan boshqa Navoiy haqida yaratilgan asarlardan farq qiladi. Xususan, Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur qissasida Hazrat Yazd cho‘lida kunduzi o‘yinqaroqlik qilib o‘ynab, kechasi otdan tushib qolganliklari tasvir etiladi. Yozuvchimiz Isajon Sulton esa bunday holatni go‘zal lutf ila “Mantiq ut-tayr hayratlari, Qosim Anvor baytlari, Sa’diy fig‘onlari-yu, shul vaqtda aytilgan Rumiy g‘azalidan olingan sezgilar ila ko‘zlari tobora uyquga chog‘lanib bormakda edi” [I.Sulton,2021:65] deya vasf aylaydi. Alisherbekning sahrodan topilishi vaqtida ham onaning o‘z farzandiga muhabbati va mehrini yashira olmasligini, otada esa bu tuyg‘ular yashirin holatda kechishini ularning so‘zlarida, o‘zlarini tutishlarida va qarashlarida aks ettiradi,

G‘iyosiddin Bahodir farzandi topilganda otaga xos bo‘lgan qattiqqo‘llik biilan farzandiga e’tibor bersa, onasi uni yig‘lab bag‘riga bosar va topgani tufayli tinimsiz Allohga shukurlar qilar edi. O‘qirmanning e’tiborini Navoiy hazratlari qalamiga mansub ko ‘plab g‘azallarning dunyoga kelishi, uning buyuk bir mo‘jiza sifatida turk nazmida porlashi maftun etadi. Hazrat Navoiyning “Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil” deb boshlalanuvchi g‘azali mazkur ma’noda alohida ahamiyatga ega. Alisherbek Ko‘hsordan o‘tar ekan uch xil tusdagi kichik tog‘larni ko‘radi. Ularning biri qizil, biri esa sariq, uchinchisini bo‘lsa, yosh archalar qoplab, yashillikka yuz burgan edi. Shu joyda yozuvchi ustalik bilan takrorlanmas tashbeh ishlatadi. Alloh azza va jallaning qudratini qarangki, shom sajdasiga yumalagan quyoshning tavbadan qizarishi, ko‘k toqida uyilgan qoramtir bulutlar ostidagi sariqlik va yuksak tog‘ ustidagi yashillik uch rangni samoviy aksiday tuyuladi. Bu mo‘jizalarning bunday ajoyib silsilasi yigitcha ongida ajoyib larza paydo qiladi. Va yozuvchining badiiy mahorati evaziga go‘zal bir g‘azalning dunyoga kelishi, undagi tashbeh-u jonlantirishlar va tarixi muazzamada bo‘lib o‘tgan voqeotlarga ishora keltirilgani chiroyli tarzda tasvirlab beradi. Bilamizki, Navoiy hazratlari hali bir muchal yoshiga etmay “Orazin yopqoch ko‘zimdin…” deb boshlanuvchi g‘azallari bilan Mavlono Lutfiyning e’tibor va nazarlariga tushdilar. Mazkur g‘azalning hali murg‘ak vujudda dunyoga kelishini ijodkor mohirona inkishof etadi: “dunyoga kelgan yangi bo‘taloq kabi, yangi gul ochgan chechak kabi, g‘uncha qabosi ostidan ko‘ringan gul shoyisi kabi, dengizlar uzra hosil bo‘lgan yomg‘irli bulutlar kabi, tuxumdan chiqqan qush polaponi kabi, Tangri taolo irodasi bilan yerga kelgan Iso kabi, iste’dod olamlaridan yorug‘ dunyoga yangi she’r mehmon bo‘lib kelmoqda edi”[Sulton,2021:63] . Aynan ushbu g‘azalga Lutfiyning munosabati, Alisher Navoiyning kelgusi ijodiy faoliyatida tutgan o‘rni asarda batafsil namoyon qilinadi.

Asarning kompozitsion qurilishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, Isajon Sulton avvalgi ijodkorlardan farqli ravishda o‘z ijod mahsulini 4 qismga, Alisherbekning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining devonlari (“G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-

shabob”, “Badoe’ ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar”) nomi ila ataydi. Bundan tushunishimiz mumkinki, aynan ijodkorning bolalik, yigitlik, o‘rta yasharlik va keksalik davrlarini bayon etishda uning “Chor devon”idan foydalaniladi. Aslida ham kishi umri mazkur to‘rt davrni o‘z ichiga oladi. Har bir davrda inson turlicha qiyofada gavdalanadi. Asarda ham Navoiy yoshlik yillarida ilmga chanqoqlik va bolalarcha qiziquvchanlik bilan gavdalantirilsa, keksayib, nuroniy qiyofasiga kirganda haq va adolatni yoqtiradigan, mamlakatning tinchligini saqlab qolishga harakat qilgan buyuk bir shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari muallif asarda Oybek va Mirkarim Osimlardan farqli ravishda Navoiyning asarlarini yozish jarayonini o‘qirman ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantira oladi. “Hayrat ul-abror” hayratlari, “Lison ut-tayr”ning til xususiyatlari, “Muhokamat ul-lug‘atayn” muhokamalari va “Majolis un-nafois” majlislarining Navoiy hayoti, uning o‘qib-o‘rganganlariga bog‘lanishi asarga o‘ziga xos ko‘rk bag‘ishlaydi. Yozuvchining badiiy mahorati shunda ediki, Navoiy asarlarining yaratilishi uning shaxsiy hayoti va ma’lum voqealar zamiriga qurilganini batafsil va tushunarli tarzda bayon qilishi sanaladi. Xususan, Alisherbek saroyda she’rxonlik, g‘azalxonlik kechalardan birida Mavlono Lutfiydan eshitgan bir baytini tilga oladi. Bu bayt Xusrav Dehlaviyga tegishli edi. Uning qisqacha ma’nosi quyidagicha: Yor yomg‘irli kunda ko‘chadan o‘tar ekan, toyilib ketdi va yomg‘ir rishtasiga tayangan holda o‘rnidan turdi. Ushbu mazmundagi misralarni Navoiy hukmdor Boyqaro oldida o‘qir ekan, Husayn Boyqaro esa ushbu bayt mantiqqa to‘g‘ri kelmasligi, yomg‘ir pastga qarab tushgani uchun unga suyanib bo‘lmasligini aytadi. Hazrat Navoiy keyinchalik yozgan “Majolis un-nafois” tazkirasining 8-majlisida bu haqida to‘xtaladi va unda Husayn Boyqaroning aql-u zakovati, nazmda ham mohir ekanligini ta’kidlaydi: “Umid ulkim, mundoq sof tab’ ko‘zgusiga hargiz davron havodisidin g‘ubore o‘lturmag‘ay va mundoq ravshan zehn sham’in hargiz navoyibi sarsari o‘churmagay”[Navoiy:123] Bizni quvontiradigan narsa shuki, romanda saroydagi she’rxonlik kechalari mahorat ila tasvir etiladi va bu joyda Husayn Boyqaroning she’rda, ilmda Navoiyni o‘ziga pir deb bilishi namoyon bo‘ladi. Xususan, bir sahifada Abdulloh

Marvoriyning “G‘am tuni ohim quyuni falakni o‘rnidan surib yubordi. Ko‘z yoshim selining ajdahosi er kurrasini yutib yubordi” mazmunidagi misralarini eshitgan Husayn Boyqaro o‘zini kulgidan to‘xta olmaydi va shoirning mubolag‘aviy tasvir ila boyitilgan mazkur baytiga o‘z munosabatini ham bildirib o‘tadi. Yana bir bugungi kunda ustozlarimizning bizning hayotimizdagi o‘rni, mavqeyi, ularning xizmatini ado qilmak shartlari bayon etilgan: “Haq yo‘lida kim sanga bir harf o‘qitmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila” misralarining dunyoga kelishi juda nafis tarzda qog‘ozga tushadi. Alisher Navoiyning ustozi hisoblanmish Kulohiyga bo‘lgan hurmati, uning o‘z otasidek e’zozlashi kishini lol qoldiradi. Xususan, yoshini yashagan, keksayib, nuroniy qiyofasiga kirgan, qiynalib umr kechirayotgan Kulohiyga Navoiy yangi hovli olib berishi va u hovli ham ustoziga qulay bo‘lsin deya o‘sha mahalladan bo‘lgani va bu xizmatlar hali ustoz bergan bilimning o‘rnini bosa olmasligini tan olish nihoyatda betakror sanaladi. Asarning o‘ziga xos yutuqlaridan yana biri shuki, tarixiy shaxslarga va voqealarga real ko‘z bilan qaray olgani, tarafkashlik qilmagani va sof haqiqatni badiiy yo‘sinda ifoda etganidir. Xususan, sovet davrida yaratilgan asarlar kabi Husayn Boyqaroni faqat qoralab yubormaydi yoki hozirgi davrda yaratilgan va yaratilayotgan ayrim asarlar kabi faqat ijobiy jihatlarini yoritmagan. Muallif asarda tarixiy shaxslar, xususan, Husayn Boyqaro, Abulmuhsin mirzo, Badiuzzamon kabi obrazlarga bir yoqlamalikdan holi ravishda yondashadi. Xususan, Husayn Boyqaro o‘z qarindoshi sanalgan Yodgor Mirzoni o‘ldirishi xato bo‘lgani aytiladi. Bundan tashqari Mo‘min Mirzoning o‘ldirilishi ham juda qaltis ish bo‘lgani, keyinchalik bu narsa ota va farzand o‘rtasidagi nizolarning boshlanishiga sabab bo‘lgani ham alohida bayon etiladi. Alisher Navoiy o‘z yurtini sevadi. Vaholanki, ma’lum bir fursat Astrobod hokimi vazifasida ishlaydi, adolatli siyosat yuritib, oddiy xalqning manfaatiga xizmat qiladigan amallar qiladi. Mana shu Astrobodning toza bo‘lmagan havosi, ko‘p esib turadigan shamoli, bir kunning o‘zida kerak bo‘lsa 4 fasl namoyon bo‘ladigan iqlimi tufayli aziyat chekadi. Bundan tashqari Alisherbekning ko‘ngli o‘z shahrini, ya’ni Hirotni yaxshi ko‘rishini Navoiyning Astroboddan turib, Husayn

Boyqaroga yozgan maktubi bilan tanishish chog‘ida anglaymiz. Ushbu maktubda Navoiy mahorat bilan hukmdorga bo‘lgan do‘stlik, yaqinlik va sadoqat tuyg‘ularini badiiy tarzda ifodalaydi. Husayn Boyqaro ham ushbu maktubni o‘qib, ko‘zlariga yosh oladi va garchi Astrobodda Navoiyning bo‘lishi tinchlikni ta’minlashini bilsa-da, uni o‘z huzuriga, ya’ni poytaxtga chaqirib oladi. Alisherbekning bolalik va yigitlik davridagi aqli teranlik, o‘tkir mulohazakorligi, ilmi va zehni ila kattalarni ham shoshirib qo‘yishi, asarlarining dunyoga kelishi ham Hazratning kichik yosh vaqtlaridan xayolida bo‘lgani va yoshi ulg‘ayganda ularni hayotida yozganini batafsil tasvir etadi. Jumladan, uning Bobur ismli yigit bilan tanishuvi, u yigitning suv chiqarib, yurtini obod aylagani va yoriga etishishi uning kelajakda Farhod timsolini yaratishi uchun ilhom manbayi bo‘lgan ersa ajab emas. Romanda Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini yaratish jarayoniga urg‘u beriladi, ya’ni Nizomiy 30 yillik vaqtda yaratgan beshlik dostonlarni, Navoiy atigi 2 yilda yozib tugatadi va xalqning e’tirofiga sazovor bo‘ladi. Xalq shoirning bu asari yuzaga kelishini sultonlar qilolmaydigan ishga qiyoslaydilar. Shu joyda yozuvchi mahorat bilan turkiy adabiyotda yaratilgan “Xamsa” asariga Husayn Boyqaroning yuksak hurmatini ifodalab bera oladi. Husayn Boyqaro butun shahar bo‘ylab Navoiyni otda jilovdorlik qilgan holatda aylantirgani o‘sha davrda nafaqat Navoiyga, balki butun nazm ahliga berilgan e’tiborning kichik tajallisi edi.

Romanda eng katta va asosiy o‘rinni 4-qism, ya’ni Navoiyning nuroniylik vaqti egallaydi. Ushbu jarayonda Navoiy o‘qirmanga har tomonlama komillikka etgan, hayotning achchiq-chuchuklarini tortib, katta tajribalar orttirgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif asarda nafaqat Navoiy hayoti va uning ijodiy faoliyatiga , balki o‘sha davrning siyosiy muhiti, tarixiy shaxslar, sharq musulmon olamining madaniyati, odamlarining xarakteri haqida ham fikr yuritadi. Xususan, asarda XV asr tarixida katta o‘rinni egallaydigan , yangi bir siyosiy kuch Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxon va uning nima sababdan muvafaqqiyatsizlikka yuz tutgani haqida keng qamrovli ma’lumot beriladi. Bu ham boshqa ham asarlarda uchramaydi. Asar badiiy to‘qima obrazlar bilan ham

boyitilgan. Xususan, Navoiyning shaxsiy hayotida alohida oʻrin egallaydigan Qutb epizodi asarga oʻzgacha kayfiyat bagʻishlaydi. Navoiyning yoshlik yillaridan unga hamroh boʻlgan, uni oʻz farzandidek suyadigan va gʻamxoʻrlik qiladigan Qutb keyinchalik taqdir taqozosi bilan Movorounnahrda yolgʻiz oʻgʻli bilan umr kechiradi. Navoiy haqida faqat uning saroyda katta oʻringa ega ekani, buyuk shoir boʻlganidan xabardor edi. Navoiyning vafotini eshitgandan soʻng esa hushidan ketishi bu jarayondagi Navoiyning naqadar suyukli inson boʻlganidan dalolat beradi. Mutolaa jarayonida kezi kelganda Pahlavon Muhammadning hazratga qilgan hazillaridan labingizga tabassum yuguradi, ya'ni Alisherbek Samarqandda tobi qochib yotganida uning she'rini topib olgan Pahlavonning ertangi kuni Navoiy taxallusi keltirilgan maqta'sida Nasimiyni qoʻshib aytishi, soʻzga usta boʻlgan Navoiyni ham bir muddat jim qolishiga va tub mohiyatni anglab etgach, kulgisiga sabab boʻladi. Kezi kelganda esa Alisherbekning "sayqali roʻyi zamin" boʻlgan Samarqandi azimdagi qiyinchiliklari ustiga togʻalari qatl etilgani, padari buzrukvorlarining muhorabada shahid ketgani, volidalarining sajda ustida Allohga iltijo aylar holatda narigi dunyoga rihlat qilganlari koʻzlarga yoshni keltirmay qoʻymaydi. Bizning nazarimizda, Alisherbek bu voqealardan qattiq ezilsa-da, undan-da mash'umroq hodisa sanalmish Moʻmin Mirzoning qatl etilishi shoirni chuqur iztirobga solib qoʻyadi. Sababi Alisher Navoiy kelajakdagi Xuroson taqdirini adolatga xizmat qila oladigan, e'tiqodda mustahkam bu shahzodada koʻradi. Va shu joyda ham Husayn Boyqaro Nizomulmulk bilan birga uning oʻgʻillarini ham qatl qiladi, bu esa xalqning nazdida adolatsiz qaror boʻlib koʻrinadi. Kamol Turbatiy, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Fayzulloh Abullays Samarqandiy, Ahmad Hojibeklarning qiyinchiliklar chogʻida Navoiyni har dam qoʻllab-quvvatlaganliklari buyuk iste'dod sohibining kamolotga etishuvida muhim rol oʻynagani asarda alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, "Vafoiy" taxallusi bilan she'rlar yozib turadigan, oqilona hukumat boshqarishi qobiliyatiga ega sanalgan Ahmad Hojibek shoirga alohida iltifot koʻrsatadi. Shu oʻrinda ta'kidlab oʻtishimiz kerakki, romanda Navoiyning Samarqanddagi ta'lim olishi Abullays Samarqandiyning

fikrlaridan oziqlanishi, ulardan keyinchalik o‘z asarlarida ham mahorat bilan foydalanish o‘rinlariga keng o‘rin ajratiladi. Yozuvchi tarixiy asarining mazkur nuqtalarida o‘zining yurak dardlarini qo‘shib ketgandek tuyuladi, nazarimizda. Musulmonlik shartlari, asl musulmon qanday bo‘lishi kerak degan savollarga javob topamiz. Abullays Samarqandiy Allohni zikr qilish, uni doim dilimizdaligini his etish nafaqat Odam Ato va Momo Havo avlodlariga, balki butun dunyo yaratiqlariga berilgani, insonga bulardan farqli ravishda savob va solih amallar qilish ne’mati berilgan va bundan insoniyat oqilona foydalanishi kerakligini aytadi. Do‘sti uchun o‘zi rohatidan kechishi, ya’ni Abu Said Mirzo huzuriga bormay dam Mashhadda, dam Samarqandda xor-u zorlikda tentirab yurishi ham do‘stiga nisbatan chuqur ehtirom va sadoqat timsoli edi. Yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, Navoiy hayoti davomida bir necha marotaba haj safariga bormoqchi bo‘ladi. Ayniqsa, umrining so‘nggi yillarida uning o‘y-fikri tezroq shunda bo‘lib qoladi. Muallif shu jarayonda juda ustalik bilan adolatli va xalqparvar shaxs sifatida tasvir etadi, ya’ni Navoiyning hajga bora olmasligiga sabab xalqning ahvolini ko‘rib, ularni tashlab keta olmasligi bo‘ladi. Bu ham Navoiyni komil shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Asarni sinchkovlik bilan o‘qigan inson Navoiy tasvirlagan komil inson sanalmish Farhod timsoli aslida shoirning o‘zi ekanini anglay oladi. Haqiqatan, Navoiyning xulq-atvori, boshqalar bilan munosabati, din va siyosat, ma’rifat va bunyodkorlik sohalarida qilgan ishlari, bor mol-mulkini vaqfga ajratgani, neki inson bo‘lsa, hammaning dardini eshitgan holatda ularning muammolarini hal qilib berganligi uning komil shaxs sifatida gavdalanishiga sababchi bo‘ladi.

Kitobga qo‘shimcha sifatida kiritilgan “Avvalgilarga o‘xshamas” deb atalgan qissaning oxir so‘zlarida:

Ko‘nglim ichra dard-u g‘am, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas,
Kim ul oyning hajri ham avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas

misralarini keltiriladi. Bizning fikrimizcha ushbu go‘zal bayt orqali yozuvchi o‘zining arz-holini bildirgandek bo‘ladi, ya’ni Hazrat Navoiy ham “Hayrat ul-abror” asarining so‘nggi maqolatida ustozlar ishonchini oqlay oldimmi degan hadigi

borligini aytib o‘tadi. Nazarimizda yozuvchimiz ham shuni maqsad qilgan bo‘lsa ajab emas. Ko‘p yillar mobaynida dilining tub-tubiga joylab qo‘ygan orzusining go‘zal bir ravishda ro‘yobga chiqayotgani haqida mulohazalarini bayon etgandek bo‘ladi.

Xayriddin Sulton asarga so‘ngso‘z yozar ekan sovet davrida juda ko‘p ijodkorlar tarixiy mavzuda qalam tebratgani uchun minglab azob va zahmatlarga duchor etilganini qayd etadi. Xususan, Qodiriy “O‘tkan kunlar”, Oybek “Navoiy”, Maqsud Shayxzoda, Mirkarim Osim, Pirimqul Qodirov va jumladan so‘ngso‘z egasi hisoblanmish Xayriddin Sultonning o‘zi ham o‘zbek millatining shonli va sharafli o‘tmishini ko‘rkam so‘z qudrati ila qalamga olgani uchun otildilar, qamaldilar, tildan ayrildilar, og‘ir iztiroblarni boshdan kechirib, bedavo dardlarga yo‘liqdilar va shu o‘rinda ijodkorning o‘z ustiga katta mas’uliyat olganligini, buni yorug‘ yuz ila ado aylaganini e’tirof etadi. Isajon Sulton asarni yozishda, avvalo, Qur’oni karim oyatlari va hadisi shariflar bilan ko‘rkamlashtiradi. Xususan, kichik yoshdagi Alisherbekning Taft qishlog‘ida buyuk mutafakkir, mavlon Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuv chog‘ida maktabdagi o‘rganayotgan ilmlari xususidagi fikrlari ham yanada teranlashadi. Hazrat tilidan qiroat qilingan “Masad” surasidagi kichik bir saktalikni Ali Yazdiy go‘zal o‘xshatish ila tuzatadi, ya’ni undagi “te” harfining talaffuzi “ tuya tuyoqlari ostidan sochilgan qum sasiga”qiyoslanadi. Yoki Mus’hafdagi oyatlarni G‘iyosiddin Bahodir tilidan bayon etilishida ham muhim belgilar mavjuddir. Alisherbekning dunyoga kelmog‘i bilan bejiz bo‘lmagani va piri murshidlari tomonidan hali bu chaqaloqning buyuk ishlar qilajagini bashorat aylagani, Navoiyning tog‘alari bilan hamrohlikda yurgan vaqtida dumli yulduzni uch marotaba ko‘rgani va bu yulduz boshqalaridan farqli ravishda osmonda yanada yuksakroq parvoz etayotgani kelajakda zabardast inson bo‘lmoqlikdan darak berardi. Isajon Sultonning asar boshida Alisherbekning ustozi Kulohiy tomonidan aytilgan va hazratning “Muhokamat ul-lug‘atayn’ asarlariga kiritilgan turk va arab lisonining taraqqiyoti, arab tili Qur’onning kalomi ersa, turk tili she’riyat bo‘stoni ekanligini juda go‘zal tasvir etiladi. Shu yerda turkiy tilni fors tilidan ustunligini

emas, balki undan qolishmasligini, ijod qilish, koʻrkam soʻz aytish nuqtayi nazaridan har ikki til ham bir-biridan qolishmasligini aytib oʻtadi.

Asarda Navoiy ham siyosiy, ham ma'naviy jihatdan yetuk nuktadon ekanligini Badiuzzamon, Moʻmin Mirzo, Abulmuhsin kabi shahzodalar bilan suhbatlarida ularga yoʻllagan maktublarida va koʻplab asarlaridagi ularga atalgan bagʻishlovlarida namoyon boʻladi. Ayniqsa, roman muallifining ustalik bilan Badiuzzamonga yoʻllangan maktubda Navoiyning davlat boshqaruviga oid fikrlarini asarga kiritishi ham aynan mazkur maqsadga xizmat qilmoqda desak, mubolagʻa qilmaydi. Yana bir jihat koʻzga tashlanadiki, Navoiy nafaqat hukmdorning yaqin maslahatchisi, xalqparvar, "shams ul-millat" boʻlgan shoir, balki Temuriylar sulolasi shahzodalariga ma'naviy padar vazifasini bajaradi, ya'ni ularni yomonlikdan qaytarib, adolat bilan ish tutishga, mamlakatni obod qilishga chaqiradi va oʻz navbatida shahzodalar ham "Soʻz mulkining sultoni" ning soʻzlariga, oʻgitlari va maslahatlariga amal qiladilar. Shu tarzda asarda Navoiy komil va yetuk shaxs sifatida koʻz oʻngimizda namoyon boʻladi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, muallif asarga kichik bir detalni qoʻshadi va bizning nazarimizda, Navoiyning hurmati, obroʻsi naqadar ulugʻvor ekanligini namoyon qiladi, ya'ni hatto Temuriylarning ashaddiy dushmani sanalgan Shayboniyxon ham Navoiy hazratlarining vafotidan iztirob chekadi va bu paytda butun Movorounnahrni egallagan hukmdor Alisher Navoiy boʻlgani uchungina Xurosonga yurish qilmayotganini aytadi. Bu Navoiyning hatto dushmanlari orasida ham ehtiromga sazovor boʻlganidan dalolat beradi. Romanning eng ta'sirli joyi shoirning narigi dunyoga rihlat qilish vaqtlari sanaladi. Husayn Boyqaroni koʻrish uchun yoʻlga chiqqan Navoiyning ahvoli tobora ogʻirlashib borardi. Bu holatdagi Navoiy tinimsiz iymon kalimasini qaytarayotgan va Husayn Boyqaroning elkasiga boshini qoʻyib hushidan ketadi. Shundan keyingi 2 kunlik ogʻriq zoʻridan bu dunyoni tark etadi. Bu joylarni Isajon Sulton yigʻlab yozgani tabiiydir. Juda koʻp xalq vakillari Navoiyni soʻnggi manzilga kuzatish uchun kelgani, farishtadek yashagan Alisher Navoiyning oʻzi bunyod etgan madrasalarda unga atab mudarrislar va tolibi ilmlar koʻzida yosh ila

xatmonalar qilishi, tabiatning ham ajib tarzda go‘yo Navoiyning vafoti munosabati bilan aza qilayotgandek holati o‘qirman insonni mahzun etadi. Nafaqat “millat quyoshi” balki “insoniyat quyoshi” ning odamlar nazdida ming yilda bir marta kelishi va Navoiydek daho endi bu dunyoga kelmasligini aytib ko‘ziga yosh olayotgan Hirot ahlining dardiga sherik bo‘lamiz.

Albatta, asar bir qancha kamchiliklardan holi emas.Xususan, adabiyotshunos olim Nusratullo Jumaxo‘ja Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligi arafasida Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida o‘tkazilgan konferensiyada quyidagi fikrlarni aytadi: “Navoyi zullisonayn muhitda tug‘ilib o‘sgan, ijod etgan va ijtimoiy faoliyat ko‘rsatgan. Navoyi hayoti mobaynida qachon, qaysi manzil-makonda yashagan bo‘lmasin, u yerda zullisonaynlik, nainki zullisonaynlik, balki ko‘ptillilik muhiti muhayyo edi. Ammo shu paytgacha adabiyotimizda Navoyi davri zullisonaynlik muhiti, mutafakkirning zullisonayn shaxsiyati mutlaqo yoritilmagan”. Darhaqiqat, asarda Navoiyning forsiy tildagi ijodi, saroy muhitidagi fors va turkiy tillarning teng imkoniyatda ishlatilishi, she’rxonliklar jarayonidagi forsiy tildan keng foydalanish, nazarimizda, yozuvchining e’tiboridan chetda qolgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, roman ba’zi “kamchiliklar”i borligiga qaramasdan qariyb 80 yildan keyin Oybekning “Navoiy” romanidan farqli ravishda Navoiy shaxsiyatini yangi pog‘onaga olib chiqdi. Asarnu o‘qish jarayonida muallifni bu asarni yaratishi oson bo‘lmaganini, bu borada juda ko‘plab tarixiy va badiiy manbalar bilan tanishib chiqqanligini anglashimiz mumkin. Bularning barchasi asarning dilga yaqin bo‘lishiga xizmat qilgan. O‘qirmanlarning ko‘z oldiga Alisher Navoiy asarlarining vujudga kelish jarayoni va uning bunyodkorlik salohiyati bilan bir qatorda ustozlariga bo‘lgan hurmati, din va davlat yo‘lida qilgan samarali faoliyatini o‘zida haqqoniy va ishonarli aks ettirgan yangi ijod namunasi bo‘ldi. Ijodkor o‘zining boshqa romanlari kabi “Alisher Navoiy” romanida ham ko‘rkam so‘zning jozibasini ko‘rsata oladi. Tarixiy shaxslarga, voqealarga, Navoiyning nazm bo‘stoniga o‘zining soddalik va falsafiylikni uyg‘unlashtira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulton I. Alisher Navoiy. –Toshkent: Adabiyot, 2021. –B.512.
2. Navoiy. Majolis un-nafois. –ww.ziyouz.com kutubxonasi. –B.169.
3. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom yoxud Insoniyat quyoshi ta’rifida bitilgan roman to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z // Yangi O‘zbekiston, 2021, №160
4. Jumaxo‘ja N. Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligi arafasida Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida o‘tkazilgan konferensiyadan.

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA ISHQ TALQINI

Marjona Iskandarova
ToshDO‘TAU talabasi

Annotasiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi asosiy mavzu – ishq va uning badiiy talqinlari haqida so‘z boradi. Dostonda ishqqa berilgan turli tashbehlar, hamda shoir ilgari surgan g‘oya bo‘yicha mustaqil xulosalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Layli va Majnun” dostoni, ishq mavzusi talqinlari.

Annotation

This article discusses the main theme of Alisher Navoi's epic "Leyli and Majnun" - love and its artistic interpretations. The poem contains various metaphors of love, as well as independent conclusions on the idea put forward by the poet.

Key words: Alisher Navoi, epic "Leyli and Majnun", interpretations of the theme of love.

Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish, ularni keng ommaga taqdim etishda adabiyotshunoslar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Bu borada Porso Shamsiyev, Natan Mallayev, Najmiddin Komilov, Vahob Rahmonov, Abduqodir Hayitmetov, Yoqibjon Is‘hoqov kabi qator olimlarning xizmatlarini alohida ta’kidlash joiz. Ustozlar yaratgan ilmiy asarlar Navoiy dahosini anglash (bu u qadar oson bo‘lmasa-da) da o‘quvchiga tushunishga ko‘mak beradi. Ular Navoiy ijodini turli usul va yo‘nalishlar orqali o‘rganishgan, tadqiq etishgan. Sababi buyuk shoir asarlarining ko‘lami va qamrovi ancha katta. Ayniqsa, Navoiy ijodida ishq o‘ziga xos o‘ringa ega. E’tiboringizni ayni mavzuga qaratmoqchimiz.

Alisher Navoiy “Xamsa“si tarkibidagi “Layli va Majnun“ ishq tarannum etilgan go‘zal asarlardan biri. Shoir asarini “Firoqnoma”, “Nomai dard” deb ham ataydi. Zotan, asar boshdan oxirigacha ishq asosida qurilgan.

Ey ishq, g‘arib kimiyosen,
Bal oyinayi jahonnamosen.[82]

Ishq shunday kuchga egaki, afsonalarda kimyogarlar aytganidek, “misni ham oltinga” aylantiradi. Asli zuvalasi loydan bo‘lgan insonga ham ishq oshno bo‘lsa, uning vujudi tozalanib, ishq olovining “kimyo” ligi, uni oltinga aylantiradi. Barcha g‘uborlardan (jismoniy talablar, nafsoniy istaklardan) holi bo‘lib pokizalanadi. Ishqning jahonni ko‘rsatuvchi ko‘zgu ekanligi ham chin. Rivoyat qilishlaricha, Iskandar po‘latdan oina yasab, Rum elida minoradan o‘sha oinani Farangistonga qaratgan ekan. U oinada butun Farangiston jamoli aks etib, ko‘rinib turarkan. Darhaqiqat, ishq qalb ko‘zgusi. U orqali o‘zimizga, o‘zligimizga nazar solamiz. Navoiy ishq xususida o‘z e’tiqodi va dunyoqarashidan kelib chiqadi. “Pok muhabbat pokiza insonlar qalbidan joy olishi mumkin”[83] ligi asar badiiy g‘oyasini ifodalagan. Majnun ishqi timsolini ochib berishda asosiy omildir. Majnun – “intihosiz, samoviy Ishq ramzi”. Majnun ishq olovi bilan tug‘iladi. Qaydaki o‘t bo‘lsa, unga talpinadi:

O‘t ko‘rsaki mayl etib nihoniy,
Ishq o‘ti tasavvur aylab oni. (“Layli va Majnun” 54- bet).

Layli jamoli ham o‘t, Majnun ishqi ham o‘t. Bu ikki o‘t bir-birini “qahrabo” dek tortadi. O‘t, barq, nur, partav, chaqin, otash, lam’a kabi so‘zlar dostonda eng ko‘p qo‘llangan asosiy tashbehlardir. Majnun o‘t bilan tug‘ilgan, uning vujudidagi ishq o‘tga yo‘g‘rilgan. Azob va uqubatlarga giriftor etgan bu o‘t uning uchun rohat hamdir. Majnun qalbini o‘rtagan bu ishq o‘ti Laylini har ko‘rganida alangalanib ketadi. Ibn Qutayba o‘zining “Kitob ush-she’r vash-shuaro” nomli asarida: “Layli haqida so‘zlash Majnunni gapirtirish uchun kalit edi” - degan fikrni bildirgan. Layli– ramziy ma’noda Yaratganning yerdagi tajallisidir. Ruhi mutlaqni tasavvur etishda inson ongi va aqli ojiz bo‘lganligi uchun, shoir uni Layli timsolida yaratdi. Buni shoir katta mahorat bilan obrazga singdira olgan. Natijada dostonni o‘qish jarayonida dunyoviy ishq bilan ilohiy ishq orasida majoziy ishq ko‘prik ekanligiga amin bo‘lamiz.

---

[82] Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 7- жилд. “Лайли ва Мажнун”. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – Т.: 2013. 255-bet. (Keyingi misollar shu manbadan olinib, beti ko‘rsatiladi).

[83] Комилов Н. Ўзбекистон. O‘zbekiston – Movarounnahr. – Т.: 2009. 193-bet.

Majnun uzoq kutib, tilab olingan farzand. Uning bu holati otasini chuqur g‘amga soladi. Nasihatlar qilib, o‘g‘lini dasht-u biyobonlardan uyga qaytishga ko‘ndiradi. Eng tajribali tabiblar yollab, uni davolamoqchi bo‘ladi. Bu sa’y-harakatlar foyda bermagach, Majnunni haj munosabati bilan Ka’ba ziyoratiga olib boradi. Odamlar Ka’bani tavof qilish barobarida Alloh gunohlarimizni kechirsin deb, duo qiladilar. O‘z dardlariga shifo tilaydilar. Ammo Majnun bu yo‘ldan bormaydi. U Allohga shunday iltijo qiladiki, yon atrofdagi ziyoratchilar qalbi larzaga keladi. Dostonning eng ta’sirchan nuqtalaridan biri bo‘lgan bu o‘ziga xos “munojotnoma” 43 baytni o‘z ichiga oladi. Dastlabki baytda ishq o‘ti bilan butun jahonni yondirgan, Qays boshiga turli savdolar solib jonini kuydirgan qudratli hakimga murojaat etadi:

Dediki: “Ayo hakimi dono,
Har hukmda hokimi tavono!
Ey ishq o‘tin aylagan jahonso‘z,
Andin meni notavoni jonso‘z. (125-bet).

Majnunning har bir tomiri, bo‘g‘inlari ishqqa band. Vujudidagi ishq o‘ti ilik-suyaklarigacha jo bo‘lgan:

Mamlu aning o‘ti birla jonim,
Jonim neki, mag‘zi ustuxonim. (126-bet).

Majnun jonini o‘rtab, azob- uqubatlarga duchor qilgan darddan xalos bo‘lishni xohlamaydi. Balki g‘am o‘tining ko‘payishini, sira kam bo‘lmasligini Parvardigordan o‘tinib so‘raydi:

Dermenki manga bu o‘tni hardam,
Afzun qilu, qilma zarraye kam! (126-bet)

Munojot davomida undan ishq va Layli yodini unitishni so‘ragan bedard kishilarga achinadi, Tangridan ularni kechirishini so‘raydi:

Alloh- alloh, bu ne so‘z o‘lg‘ay,
Ul qavmg‘a tengri uzr qo‘lg‘ay. (127-bet).

Bu “Munojotnoma” da 24 o‘rinda **“ishq”** so‘zidan foydalanilgan. Bu tasodif emas. “Navoiy ushbu so‘zni turli poetik unsurlar va ritmik vositalar bilan uyg‘unlikda qo‘llab ohangning turli-tuman jilvalanishlariga erishadi”[84].

[84] D. Yusupova. “Layli va Majnun” dostonining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. www.kh-davron.uz

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimizki, inson yaratiqlarning gultoji, Xudoning yerdagi xalifasi, eng mukarram zot. Navoiy insonning ana shunday sharafga loyiq bo‘lishini istaydi. Ishq-insoniy kamolot darajasini ko‘rsatuvchi fazilat. U faqat pokiza insonlar qalbidangina joy olishi mumkin. Majnun ishqi bu borada oliy namuna. U butun borlig‘i, jon dili bilan Allohni sevadi, ayni damda esa go‘zal axloqi, shavqati, muruvvati bilan qadrlangan insondir. Demak, pok insoniy muhabbat va ilohiy ishq tushunchalari bir-biriga zid emas, o‘zaro bog‘liq. Biri ikkinchini to‘ldiradi va mukammallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 7- жилд. “Лайли ва Мажнун”. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – Т.: 2013. – 696 б.
2. Комилов Н. Тасаввуф. Тавҳид асрори. 2-китоб. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 208 б.
3. Алишер Навоий. “Лайли ва Мажнун”. (Насрий баён муаллифи В. Раҳмонов ва Наим Норқулов). Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Т.: 2013. – 696b
4. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар Порсо Шамсиев, С. Иброҳимов. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Т.: 1972. – 784 б.
5. D. Yusupova. “Layli va Majnun” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. www.kh-davron.uz

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA FOJEIYLIK MAVZUSIGA DOIR

Jamshid Xojiyev
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 4-kurs talabasi

Annotasiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Xalq Shoiri Abdulla Oripov she’riyatidagi fojeiylik mavzusiga e’tibor qaratiladi. Turli davrlarda yaratilgan she’rlar tahlilida bu mavzu ortida shoir ilgari surgan badiiy g‘oyalar, o‘y-fikrlar xususida mulohazalar bayon qilinadi. Shoirning badiiy mahorati to‘g‘risida xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek she’riyati, Abdulla Oripov she’rlari tahlili, fojeiylik mavzusi talqini.

Annotation

This article focuses on the tragedy in the poetry of the People's Poet of Uzbekistan Abdulla Aripov. The analysis of poems written at different times provides insights into the artistic ideas and thoughts put forward by the poet behind this theme. Conclusions are given about the poet's artistic skills.

Key words: Uzbek poetry, analysis of Abdulla Aripov's poems, interpretation of the tragedy.

Adabiyot shunday maydonki, bunda inson qalbini junbushga keltiradigan, ruhiyat va siyratimizga yorug‘ hislar, pokiza tuyg‘ular baxsh etadigan sehrli oshiyondir. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev “Davr yaratgan she’riyat”

nomli maqolasida O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she’riyati haqida quyidagi fikr mulohazalarni berib o‘tadilar: “Abdulla Orif she’riyati bilan o‘zbek lirikasiga ko‘ngil suvratlari, orzu-yu armonlar fojiasi, ruhiy iztiroblar manzarasi kirib keldi. Bu she’riyat yuzaga kelgan davrda shaldiroq so‘zlarni qofiyaga solish, jahoniy mavzularda na’ravor satrlar tizish odat edi. Mavzuni she’r emas, balki she’rni mavzu mukarram qilardi. Dunyo va undagi olamshumul hodisalar haqida hayqirish talab etilardi. Abdulla Orif quruqshagan o‘zbek adabiyotiga o‘ychil g‘am va g‘amchil o‘y olib kirdi. Shoir alohida bir odamning ichki dardlari haqida qalam surdi, o‘yga botdi. Bu odam shoirning o‘zi edi”[1. Qozoqboy Yo‘ldoshev. “Milliy ruhiyat me’mori”, 654-bet]. Qozoqboy Yo‘ldashevning mazkur fikrlari e’tiborimizni tortdi va uni mushohada qilishga imkoniyatimiz doirasida harakat qildik. Olim yuqoridagi fikrlarda shoir ijodi haqida fikr yuritar ekan, avvalo lirik qahramon fojiasiga to‘xtalib o‘tadi. Fojiaviylik o‘zi nima? Ma’lumki, dramatik turga mansub tragediya, ya’ni fojia janridagi asarlar bosh qahramonning o‘limi bilan yakunlanadi. Ammo asrlar mobaynida o‘zbek she’riyati taraqqiyotida insonning kechinmalari, iztiroblari ifodalanib kelinar ekan, lirik qahramonning ruhiy dunyosida turli xil shiddatli to‘lg‘onishlar, ruhiy sinishlar o‘zgacha yo‘sinda kashf etilib boradi. Abdulla Oripov she’riyati misolida o‘z kuzatishlarimiz va mulohazalarimizni mavzu doirasida yoritishni joiz deb bildik. Xo‘sh , she’riyatda fojiaviylik deganda nimani tushunamiz?

Fojiaviylik – bu insoniy o‘zlikning buyukligi natijasida yuzaga keladigan tabiiy holatdir. “Lirik fojelik mungli hissiyotning she’rdagi ifodasi sifatida tabiiy asosga ega” [2. Suvon Meli. So‘zu so‘z. 41-bet]. Bu oddiy holat emas, albatta. Mazkur holat pok va xokisor ruhiyat iztirobi va yana mavjud ijtimoiy tuzumning nobop o‘yinlaridan charchagan dilning faqat o‘z ruhiy dunyosiga intilishi, tashqi dunyodan chekinish holati desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Aynan bu jarayon lirik qahramon “men”ida sodir bo‘ladi.

Har bir iste’dodli shoir mahoratini belgilovchi asosiy mezon sifatida she’riyatda lirik qahramon xarakterini qay darajada kashf eta olish qudrati yuksak

oʻrinda turadi. Asrlar mobaynida oʻzbek sheʼriyatida insonning murakkab ruhiy dunyosi, uning xarakter qirralari yoritib kelinadi. Bundan katta tajriba orttirgan, zamonga oʻtkir tafakkur koʻzi bilan qarovchi Abdulla Oripovning mahorati shundaki, u oʻz sheʼriyatida keng qirrali va ayni paytda original lirik qahramon xarakterini yarata oldi. Choʻlpon bir sheʼrida shunday yozgan edi:

Ket, malaklar dostonini oʻqima,
Ket, aslsiz ertaklarni toʻqima.
*Ket, koʻnglimni aldaguvchi yolgʻon nur. [*3. Choʻlpon, "Yana oldim sozimni", 456-bet]

Lirik qahramon xarakterida hayot va insonni bor murakkabligi, ziddiyati dunyosiga haqiqat koʻzi bilan qarash xususiyati ustun turadi. Shu bois u hayot va inson haqidagi "aslsiz ertaklarga" ishonmaydi. Achchiq haqiqat u uchun yagona eʼtiqod . Abdulla Oripov ham lirik xarakter yaratishda haqqoniy yoʻl tutdi. Inson xarakterining hali ochilmagan qirralarini, inson ruhiy dunyosida kechishi tabiiy boʻlgan kechinmalarni ana shu lirik xarakter timsolida ifoda etdi. Har qanday tabiiy boʻlmagan narsa sunʼiy va soxtadir. Har qanday sunʼiy boʻlmagan narsa tabiiy va sofdir. Fikrimizni batafsil yoritish maqsadida adabiyotshunos olimning quyidagi fikrlarini keltirib oʻtishni joiz deb topdik: "Abdulla Orif sheʼriyati pokiza tuygʻular, ismsiz dardlarning ifodasi edi. Ulardan sokin ohang taralar edi. Mungli bu ohang tuygʻular bezovtaligidan, ruhiyat tovlanishlaridan, yuzaga kelgandi. Hasratzada, ozurdajon koʻngil mavjlari, komillikdan "yulduzlar qadar yiroq kishilar" borligidan ozorlanish suvratlari bu sheʼriyatning manbalari edi".(1, 655-bet). Shoir sheʼriyatida bitta lirik qahramon boʻlib, uning xarakterining shakllanish bosqichlaridan mukammal xarakter qiyofasiga kirgunicha dialektik tarzda oʻsib -oʻzgarib, dunyoqarashi va tafakkuri ham oʻtkirlashib boradi. Yosh lirik qahramon xarakterining boshlangʻich nuqtadagi holati nihoyatda tabiiy. Buni "Qushcha", "Yulduzlar " sheʼrlarida kuzatamiz:

Bilsang , men ham chaman oʻlkamning ,
Shoʻx va quvnoq, shod oʻgʻilchasiman.

Yoki:

Deyman, osmonlarning hiloli bo‘lsam,
Hulkar va Zuhrosi bo‘lgim keladi.
Shu go‘zal o‘lkamda kamolga to‘lsam,
Porloq yulduzlarday kulgim keladi.
Yulduzlar, o bo‘shliq, musaffo chiroy!

Sen ilhom gulida kumush shabnamday.
Ucharman siz bilan bir kun paydar –pay,
Osmon gumbazida bahsga tushganday.

Insonning hayotga kirib kelishining o‘zi g‘aroyib olamga o‘xshaydi. U yoshlik damlarida nimalar haqida o‘ylamaydi, uning qalbida qanday orzular jo‘sh urmaydi deysiz. Yuqoridagi misralarda yosh lirik shoir qahramonning ham real, ham romantik dunyosini ko‘ramiz. “Osmonlarning Hiloli, Hulkar va Zuhrosi bo‘lish”, “porloq yulduzlarday kulish” lirik qahramonning naqadar go‘zal orzusi. Yoshlikka xos tabiiy va go‘zal, tabiatga oshuftalikning beg‘uborona ko‘rinishi Lirik qahramon yillar sayin Darband daryosidan goh “ayqirsa g‘azab tangrisi” kabi goh “qaynab turgan buloq” singari hayotga kirib kela boshladi. Uning tuyg‘ulari teranlashib, idroki balandlashib, siyrati ma’nan yuksakka intilib boradi.

Boylikni sevmasman, ya’ni tillodan,
Hamyon aylamoqni kutmagil mendan. (4, 20- bet)

Lirik qahramonning maqsadi insonday yashash. Uni mukammalikka intiltiruvchi fazilatlardan biri samimiylikdir. Nazarimda, Shoir “men”ida bu xususiyat hech bir “men”nikiga o‘xshamaydigan yuksak fazilat sifatida namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripovning o ‘zi ham: “insoniyatning birinchi belgisi samimiyat deb bilaman”,- deya e’tirof etadi. [5. A. Oripov, “Ehtiyoj farzandi”,19-bet]. Lirik qahramon xarakterida samimiylikning bir qirrasi o‘tgan hayotini taftish qilishi, yaxshi-yu yomon xususiyatlarini anglash va haqqoniy aytishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Zero, yetuklikka intilishning yo‘li ham ana shunda:

Inson o‘z umrini o‘ylasa ko‘p vaqt
Qiynaydi o‘zidan o‘tgan qusurlar.
Kimgadir aytilmay qolgan bir rahmat,
Kimdandir so‘ralmay qolgan uzrlar. (4, 279 bet)

Yoki:

Mukammal ko‘rmoqchi bo‘ldik dunyoni
Yetuk bo‘lolmadik o‘zimiz biroq.
O, yillar armoni, yillar armoni,
Armoni ko‘rmadim men sendan buyukroq. (4, 279 bet)

Deya yashashning o‘zi ham yuksak insonlik sari borishdir. “Insondagi o‘zlik-bu katta bir qasr. Uning ustida turib hamma narsani ko ‘rib, his qilib anglanadi. Zero, Abdulla Oripov lirik qahramonining endigi yashash maqsadi ham shunga qaratilgan va bu lirik qahramon xarakteri fojiasi va bu holat go‘zalligi bilan ham ulug‘dir” (1. 660-bet.) Abdulla Oripov “men”idagi o‘zlik tabiatan muhit bilan kelishishga imkon bermaydi. Chunki “Yo‘q!...yo‘q yaralmadi u bilgan hayot” [6, Rauf Parfi. “Sabr daraxti”. 97-bet]. Shoir asrimiz voqealarini, insonni kuzatar ekan, bu haqdagi, ya’ni “men”idagi junbushga kelgan o ‘y – kechinmalarini shiddat bilan ifodalab beradi:

Ko‘z oldimda shu qadarli pok edi olam,
Go‘yo nurdan yaralgandi inson degan zot…
O Abdulla ko‘zlaringni ochib qaragin ,
Kim aytadi bu dunyoda yo‘qdir deb bo‘ron… (4.316-bet)

Lirik qahramon xarakteridagi davr va zamon, inson haqidagi qarashlari shiddat bilan o‘zgarib boradi. Uning tafakkurini inson muammosi chulg‘ab oladi:

Men insonni bir insonday sevardim, lekin,
Nechun ko‘pdir haligacha razil odamlar.

Mana, qalb va hayot o‘rtasidagi ziddiyat. Bu hayot turli to‘lg‘onishlar, qiynalishlarni keltirib chiqaradi. Mana, fojiaviylikning dastlabki nuqtalari. Shoir bu haqdagi haqiqatni jilovlab qo‘ymaydi, balki o‘kinch va alam bilan e’tirof etadi.Lirik qahramon fojiaviyligi inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, avj nuqtalar mavjud muammo “haligacha razil odamlarning ko‘pligi”ni “Odam bolalari” she’rida ham kuzatamiz:

Odam bolalari turfa naqadar,
Biri mo‘min bo‘lsa boshqasi asov,
Biriga quyuqroq salom bersang gar,
Xushomadgo‘y ataydi nomingni darrov.

Mayliga, ataylab biror kun sen ham
Qad kerib, sipoyu o‘ychan bo‘lib yur.
Malomat toshlari boshingga shu dam ,
Seni ataydilar darhol takabbur.

Xo‘sh, insonlar orasida qanday yashash kerak?

Yaxshisi dilingda bo‘lsin muhabbat,
Oshkor etaverma uni jo‘rttaga.
Avliyo misoli jim yurgin faqat
Ko‘zlardan yiroq bo‘l chiqma o‘rtaga. (4, 53-bet)

Har bir inson ruhiyatining ana shu to‘xtamida yashamog‘i mumkin. O‘z vijdoni oldida, Alloh oldida to‘g‘ri bo‘lish kifoya. Ammo bunga ham yo‘l qo‘yilmasa-chi? Chunki:

Shundaylar bor, senga lutf aylab,
Do‘stman, deya qo‘lin tutarlar.
Lekin har zum qadaming poylab,
Xato qilishingni kutarlarlar…
Xato qilsang, ularga bayram ,
Yo‘qsa zahru zaqqum yutarlar.
Mayli, jindek, zarra bo‘lsa ham,
Xato qilishingni kutarlar.

Ular senga bir umr yo‘ldosh,
Sodiq hamroh kabi o‘tarlar.
Qabring uzra egsalar ham bosh,
Xato qilishingni kutarlar. (7. 108-bet)

Xo‘sh, xato qilishingni kutmasdan ham senga, ruhiyatingga tajovuz qilsa-chi? Lirik qahramon iltijo qiladi:

Dunyoni qizg‘anma mendan, azizim,
Men sening ko‘changdan o‘tmasman zinhor.
Mening bu olamda o‘z aytar so‘zim,
Va o‘zim sig‘inar mozorlarim bor…

Dunyoni qizg‘anma mendan, azizim,
Qalbingni yoqmasin shubha va so‘roq,
Men o‘zga manzilga tikkanman ko‘zim,

U sening kulbangdan juda ham yiroq. (4, 323-bet)

Baribir foydasi yo‘q. Chunki ular razil odamlar guruhiga mansub. U “Tilla baliqcha”. U o‘z dunyosidan boshqa dunyoni bilmaydi, his qila olmaydi va anglamaydi ham. Hayotdan nafas olib yashayotgan halol, siyrati pok inson to‘siqlar girdobida suzib boryapti. Uni yana qanday zarbalar, sinovlar kutyapti ekan? Abdulla Oripov o‘zbek she’riyati maydoniga “Noma’lum odam” haykalini o‘rnatdi:

Qaydan kelgandi-u ? Bilmadi kimsa,
Qabrga ham jimjit kirib ketdi u.
Menimcha, dunyoning ustidan rosa
Miriqib qahqaha urib ketdi u. (4, 201-bet)

Lirik qahramon o‘zligini anglagan shaxs. U tafakkur egasi. Ammo unga mos dunyo yo‘q. Hamma muammo ana shunda. “Buyuk bir yurak dunyo ustidan jimgina qah-qah urib kulib ketdi”. Nega? Chunki u o‘ziga mos dunyoni topa olmadi. Qalb iztirob chekadi, lek uni hech kim his qilmaydi. Bu iztiroblar faqat qalbdagina, ko‘nglidagina, yurakdagina g‘alayon qilaveradi. Yurak esa o‘rtanaveradi. Malham topmagan dilda fojiaviy holat namoyon bo‘la boshlaydi. U odamlardan, jamiyatdan chekina boshlaydi:

Baxtiyor har dilga oshno topilgay,
G‘ussali yurakka lekin yo‘q hamdam.
Do‘stlar eshigi ham taq-taq yopilgay.
G‘ussali qalb u yon gar qo‘ysa qadam. (4. 89-bet)

Lirik qahramon ruhiyati charchagan. Nimadan? Hayotning adolatsizliklaridan, malomat toshlari , xatolaring kerak bo‘lgan insonlarning nayranglaridan. Malham esa yo‘q. Bobur hazratlari bejizga aytmagan:

Ko‘nglimdin o‘zga mahrami asror topmadim. Bu hayotning yozilmagan qonunlari kabi amal qiladi. Buyuk tafakkur egalariga hayotda yashash oson bo‘lmagan. XX asr o‘zbek she’riyati osmonining porloq yulduzi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon:

Muhit kuchlik ekan egdim bo‘ynimni,
Chaqmoqdek yaltirab uchish yo‘q endi.
Yolg‘on xayollarga ko‘chish yo‘q endi…, -deya yozadi. (3, 481-bet)

Ha, olovqalb, otashnafas Choʻlpon qismatning ming bir chigʻiriqlari qa'rida goh lovullab yondi, goh ruhiy zarbalar-la oʻz isyonini siyratiga koʻmdi. Bevafo dunyoning oʻyinlaridan dil larzaga keladi. Kechinmalar toʻlgʻonadi, iztiroblar yonadi. Yonib kulga aylansa yurak, bu olamga nega kerak? U oʻzga maskan izlay boshlaydi. Ammo bu maskan qayerda? Lirik qahramon kayfiyati oʻzgarmoqda . U oʻzini qayerga ursin? Koʻzlaridan oqayotgan yosh - taskinni sogʻingan koʻz yoshlardir. Abdulla Oripov she'riyatidagi lirik qahramonning xarakteri, tafakkur dunyosi oʻzgacha. Bu lirik qahramon hayot faylasufi. Biz yuqorida lirik qahramonning fojiaviy holati yuz bermoqda degan edik. Uning siyrati azoblarda. Yolgʻizlikka intiladi. Bu holat oʻzlik taftishida namoyon boʻladi.

Menga uzlat kerakdir, izdihomdan toʻyganman,
Turfa xil joylarga endi bormay qoʻyganman. (7. 121-bet)

Bu holat, shubhasiz lirik qahramonning fojiaviyligidir. Uzlat bu hech yolgʻizlanish. Mazkur she'rni toʻliq keltirishni joiz deb oʻylaymiz.

Uzlat izlab bormagan,
Joyim balki qolmadi.
Hech bir goʻsha kelgin deb,
Ogʻushiga olmadi. (7. 122-bet)

Uzlat bu lirik qahramon uchun oxirgi chora. Bu oddiy holat emas, albatta. Mazkur tabiiy jarayonni his qilish, anglash uchun lirik qahramonning hayot taraqqiyot bosqichlarini boshdan oxirigacha oʻrganish lozim deb oʻylaymiz.

Abdulla Oripov oʻzbek she'riyatida bulbul obrazini yangidan kashf etdi:

Sen – bulbulsan, bulbullarni mast qilaqol, bulbulim,
Mening uchun sayrashingni bas qilaqol, bulbulim.
Shom- u sahar tinim bilmay sharh aylading dilingni,
Qani, ayt-chi, bulbulginam, kim tushundi tilingni? (4. 76-bet)

Lirik qahramon ming iztiroblar ogʻushida qiynaladi. Iztiroblar ichra toʻlgʻonadi. Axir uni tushunuvchi, his qiluchi, anglaguvchi dil yoʻq, yurak yoʻq. Axir u qalbini sharh aylab aytgan rozlarini tushunadigan, anglaydigan odam boʻlmasa bundan ortiq fojia bormikan dunyoda?

Birov seni nola dedi, birov dedi oh – fig‘on ,
Bulbul tilin bulbul bilar, men bilmasman , bulbuljon.
Anglarmi deb behudaga roz so‘ylama, qushim, hay,
Sen - bulbulsan, bulbulginam, seni bulbul tushungay. (4.76-bet)

Cho‘lpon ta’biri bilan aytganda:

Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menmen,
O‘ynag‘an boshqalar, ingrag‘an menmen.
Erk ertaklarini eshitgan boshqa,
Qullik qo‘shig‘ini tinglag‘on menmen… (3. 413-bet)

Qalb go‘zalligi shuning uchun ulug‘ki, unga nurlar intiladi, soyalar chekinadi va oxiri yo‘q bo‘ladi. Inson dunyoga kelar ekan, insonlik matlabida har qanday sharoitda bo‘lmasin sobit tura olsa u abadiy tahsinga musharraf bo‘ladi. Abdulla Oripovning buyukligi, u yaratgan lirik qahramon ana shunday abadiyat tahsiniga loyiqdir. Bu she’riyatdagi “men” nurga tashna, hamisha nurlarni o‘ziga chorlayveradi, chorlayveradi.

Do‘sti g‘arib kel, qo‘lingni tut,
Yuragingda yoqay alanga.
Kel, bir zumga dunyoni unut,
Ko‘tarayin seni balandga. (4. 204-bet)

“Abdulla Oripovning har bir she’rida olam-olam ma’no bor. Shoir she’rlari bilan haqiqat yo‘lida doimiy qurol bo‘lib xizmat qilishga qodir asarlar yaratdi” [9. Matyoqub Qo‘shjonov. Hayot haqiqati va badiiy haqiqat. 31-bet].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qozoqboy Yo‘ldosh. Ochqich so‘z. “Tafakkur” nashriyoti. 2019. – 688 b.
2. Suvon Meli. “So‘zu so‘z”. T.: “ShARQ”. 2020. – 528 b.
3. Cho‘lpon. “Yana oldim sozimni”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1991. – 576 b.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 2000. – 432 b.
5. Oripov A. “Ehtiyoj farzandi”. T.: “Yosh gvardiya” nashriyoti. 1988. – 224 b.
6. Rauf Parfi. “Sabr daraxti”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1986. – 216 b.
7. Oripov A. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 2001. – 496 b.
8. Bobur she’riyatidan. Sharq klassik merosidan. O‘zbekiston KP Markaziy komiteti nashriyoti, T. 1983. – 144 b.
9. Qo‘shjonov M. “Hayot haqiqati va badiiy haqiqat”. “Fan” nashriyoti. T.: 1982. – 60 b.

MUNDARIJA

GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA

Sirojiddinov Sh. GLOBAL TA’LIMDAN MILLIY MAQSADLAR TOMON……..3
Qozoqboy Yo‘ldosh . GLOBALLASHGAN DUNYO VA ADABIY TA’LIM…....5
Valixo‘jayev B. MIRZO ULUG‘BEK DAVRIDA OLIY TA’LIM – MADRASALAR VA MADRASAYI OLIYA 12
Qodirov V. FILOLOGIK TA’LIM YANGILANISHI SHAROITIDA ADABIY TA’LIM OLDIDA TURGAN VAZIFALAR……22
Islamova M. O‘ZBEKISTONDA GLOBAL TA’LIM MUAMMOLARI YECHIMI BO‘YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR…….…..…..27

ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

Abdullayeva M. TARIXIY ASARLARDA AN’ANAVIY MOTIVLAR.....33
Qayumov O. SHOMON MAROSIMI MORFOLOGIYASIGA DOIR MULOHAZALAR. ……42
Hamraqulova X. “SINCHALAK” – O‘Z DAVRINI TANQIDIY TAHLIL QILGAN ASAR……50
Jo‘rayeva G. O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATI – G‘OYAVIY-MA’RIFIY, ESTETIK TARBIYA QUROLI SIFATIDA…… 57
Jabborova M. “QISSAI JAMSHID” ASARINING POETIK XUSUSIYATLARI……...65
Qosimov A. ADABIYOTSHUNOSLIKDA RETSEPSIYA HODISASI…….75
Oripova G, Tolipova M. SHOYIM BO‘TAYEV USLUBIGA XOS JIHATLAR…….……...83
Barziyev O, Sayitxonova B. QIZLAR TAQDIRI BILAN BOG‘LIQ AN’ANAVIY POETIK TURKUMLAR……..87
Aliqulova H. YOR-YOR QO‘SHIQLARIDA RANGLAR BILAN BOG‘LIQ AYRIM MULOHAZALAR…….92
Mamiraliyev Q. ISTIQLOL DAVRIDA SHE’RIY JANRLARNING O‘RGANILISHI VA YANGILANISH TAMOYILLARI. …… 97
Karimova N. IJODIY TAJRIBANING SHAKLLANISHI……101
Ashurova N. HOZIRGI O‘ZBEK ADIBALARI ROMANLARIDA AYOL OBRAZI TASVIRI. …….105

Djurakuloav E. SHOYIM BO‘TAYEVNING “SHOX” ROMANIDA BADIIY XARAKTER TALQINI. ……...111
Nazarova D. XOJA HIKOYATLARIDA ADOLATLI SHOH TIMSOLI……116
Hayitboyeva D. UBAYDIY IJODINING O‘RGANILISHI……..122
Xayitaliyeva N. LIRIKADA BADIIY TAFAKKUR VA POETIK TIL XUSUSIYATLARI ……126
Yo‘ldoshev O‘. ISHQQA BOG‘LANGAN KO‘NGIL……132
Nazarova D. HUVAYDO SHE’RIYATIDA AN’ANAVIY OBRAZLAR...……139

ADABIYOT O‘QITISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAKLIFLAR

Husanboyeva Q. UZLUKSIZ ADABIY TA’LIMDA UY VAZIFALARI……147
Matchanov S. NAVOIY IJODIYOTI VA BOLALAR KITOBXONLIGI……168
Niyozmetova R, Fozilova M. BADIIY ASAR MAZMUNINI TINGLAB IDROK ETISH……173
Ahmedov H. IQTIDORLI O‘QUVCHI BILAN ISHLASH HAQIDA MULOHAZALAR.. ……..……178
Qambarova S. TALABALAR KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI……...183
Abdurahmonova B. MUQIMIYNING HAJVIY SHE’RLARINI SHARHLAB O‘QITISH……..……188
Abdullayev K. BADIIY ASAR TAHLILI JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH……193
Akbarov O. E. CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA QALB EKOLOGIYASI, INSON VA TABIAT UYG‘UNLIGI MASALALARI……202
Jo‘rayeva D. BOSHLANG‘ICH SINF DASTURI UCHUN MUMTOZ ADABIYOT O‘QITISH YUZASIDAN TAKLIFLAR…… 207
Rasulova R. O‘QUVCHILARDA MATN YARATISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANITIRISHDA MUMTOZ ADABIYOTNING O‘RNI……215
Sharopov A. DARS JARAYONLARIDA INTERFAOL METODLAR FOYDALANISH BUGUNGI KUN TALABI…….……220
Yusufjonova N. XALQ DOSTONLARIDA EPOS VA MIFOPOETIK TAFAKKUR MUSHTARAKLIGI ……..……223

Talipova M. TA’LIM JARAYONLARIDA MUAMMOLI VAZIYATLARNI YUZAGA KELTIRISH VA YECHISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI……230

TALABALAR MINBARI:
ADABIYOT TA’LIMIDA INNOVATSION G‘OYALAR

Nurmuhammadov J. ADABIY LABORATORIYALAR ORQALI O‘QUVCHILARNI TANQIDIY VA IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISHNING AHAMIYATI. ……236
Muhammad Yasin Eldash. AFG‘ONISTONDA O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINING O‘TMISHI VA BUGUNGI AHVOLI…….245
Yuldasheva M. ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA YO‘NALTIRISH……256
Ruzimurodova F. NAVOIY ASARLARINI O‘QITISHDA XORIJIY MANBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR……262
Abdialimova M. BADIIY SAN’ATLARNI O‘RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH……..268
Norqulova M. ERTAKLARNI O‘QITISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH……273
Shukurboyeva O. SHAKLDAN TO MAZMUNGACHA ADABIYOTGA CHORLASIN……277
Seema Farda. BADIIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASHDA SAVOL-TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH……....281
Raxmonova M. HIKOYALARNI TAHLIL ETISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH……..284
Hasanova G. “SAB’AI SAYYOR” DOSTONINI O‘QITISHDA METODIK YONDASHUVLAR……289
Ismoilova N. ADABIYOT DARSLAIDA BADIIY TAHLILGA OID MULOHAZALAR……295
Usmonova D. MILLIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH TAJRIBASIDAN.....300
Saidova K. ZAMONAVIY TA’LIMDA NAVOIYNI TUSHUNISH MUAMMOSI……..306
Abduqodirova M. O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISHDA XORIJIY MANBALARDAN FOYDALANISH……312
Mahmado‘stov A. EPIK ASARLARNI O‘RGANISHDA TA’LIMIY INTEGRATSIYANI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI…….319
Qulsaxatov F. “BOBURNOMA”NI O‘RGANISHDA INTEGRATIV YONDASHUV.....327

Ergasheva N. O‘QUVCHILARNI MUTOLAAGA QIZIQITIRISHDA TIZIMLI YONDASHUVLAR ……336
Kadirova N. KONSTRUKTIVIZMGA ASOSLANGAN TA’LIM HAQIDA UMUMIY MULOHAZALAR…….340
Norqulov N. SA’DIY VA XOJA HIKOYATLARIDA ODIL SHOH .OBRAZI……...345
Muhammadiyeva M. BADIIY ASARLARDA RAMZIY OBRAZLARNING O‘RNI……349
Jarkinova T. YUSUF SHOMANSUR SHE’RLARIDA IJODKOR SHAXSIYATI VA LIRIK QAHRAMON TABIATI……358
Tolipova N. ALISHER NAVOIY ASARLARI ABDULLA QAHHOR IJODIDA……365
Tursunboyeva Sh. “IKKI ESHIK ORASI” VA “UFQ” ROMANLARIDA URUSH ODAMLARI OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI……370
Muslimova M. USMON AZIMNING “SO‘NGSO‘ZLAR” ASARI HAQIDA…377
G‘afurova D. AGIOGRAFIK ASARLARDA BADIIY DETALNING AHAMIYATI ……380
Qodirov U. NURALI NURMAT O‘G‘LI ERTAKLARIDAGI SHE’RIY PARCHALAR……..…….....383
Alijanova M. BADIIY ASAR KOMPOZITSIYASIDA PORTRETNING O‘RNI……388
Tuychiboyeva N. O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI KARRA IKKI-BESH’’ ASARIDA BOLA RUHIYATI TASVIRI……391
Ibrohimova G. SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MILLIY RUH IFODASI……396
O‘sarova Sh. MUQIMIY VA UNING ADABIY DAVRASINI O‘RGANISH MUAMMOLARI…….400
Boboqulova U. ONA OBRAZI — MILLAT RAMZI SIFATIDA…….406
Yusupov S. ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIGA OID AYRIM MULOHAZALAR……410
Iskandarova M. “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA ISHQ TALQINI…...422
Xojiyev J. ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA FOJEIYLIK MAVZUSIGA DOIR……425